

"O‘ZBEKISTON - 2030" STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH YO‘NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI - YOSHLAR NIGOHIDA"

RESPUBLIKA ONLAYN ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MAQOLALAR TO‘PLAMI



"MAMLAKATNI QUDRATLI, MILLATNI BUYUK QILADIGAN
KUCH BU — ILM-FAN, TA'LIM VA TARBIYADIR"
SHAVKAT MIRZIYOYEV



TOSHKENT 2021

Tahririyat kengashi raisi:

Sherzod Mustafakulov
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir:

Odil Qo'ysinov
pedagogika fanlari doktori, professor

Tahririyat kengashi mas'ul kotibi:

Oybek Raximberdiyev , Tolibjonov Xurshidbek

Sahifalovchi-dizayner:

Azizbek Abdullayev

Kengashi a'zolari

Saidahrur G'ulomov

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Marat Raxmutlaev

Texnika fanlari doktori, professor

Baxtiyor Salimov

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olim Murtazayev

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shavkat Hasanov

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Petri Juhani Raivo

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pekka Auvinen

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Alisher Jo'rayev

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Nizomiddin Urmonov

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mahmadsiddik Amonboyev

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Bruno Dallago

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kobil Ruziyev

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ihtiyor Bobojonov

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Odiljon Abdurazzakov

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Nuriddin Murodullayev

Xalqaro Nordik universiteti prorektori

Mirza Tulaev

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Xasan Sabirov

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Zulfiya Xamidova

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Lochin Raxmonov

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Musoxon Isakov

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Maxammadmurod Shomirzayev

Pedagogika fanlari doktori, professor

Xusniddin Jo'rayev

Pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonniyoz Panjiyev

Pedagogika fanlari doktori, professor

Dilafro'z Miraliyeva

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Nigora Lutfullayeva

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Dilshod Nasriddinov

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sherzod Eraliev

Siyosiy fanlari doktori (DSc)

OLIV O'QUV YURTLARIDA TA'LIM TIZIMINING ILMIY VA INNOVATSION JARAYONLAR BILAN UZVIYLIGINI TA'MINLASH

Qahramonova Sevinch O'tkir qizi¹

¹Islom Karimov nomidagi TDTU Olmaliq filiali,

“Metallurgiya va kimyoviy texnologiyalar”

fakulteti talabasi

sevinchqahramonova01@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda oliy o'quv yurtlari o'quv jarayonini tashkillashtirishda ilmiy va innovatsion ta'lim texnologiyalaridan hamda ularning uzviyligidan foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirishga bag'ishlangan. Ishda bugungi globallashtirish jarayonida mamlakatimiz oliy ta'lim dargohlarida innovatsion ta'lim texnologiyalarining ilmiy va o'quv jarayoniga bog'liq holda tashkillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari hamda oliy ta'lim sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, innovatsiya, texnologiya, ilmiy, uzviylik, nazariy-uslubiy, sifat, tavsiya.

Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining o'sish sur'atlari dunyo ham jamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Bu bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishning puxta o'ylangan strategiyasi, ayni paytda ilm-fanni rivojlantirish, ta'lim sohasini isloh etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni har tomonlama qo'llab quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli islohatlar samarasidir. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida ilm-fan hamda ishlab chiqarish sohalarini ilmiy innovatsion integratsiyani rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda mamlakatimizning tezkor rivojlanish davrida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida yaratilgan innovatsion g'oya texnologiya va loyihalar ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turini kengaytirish, sarf-harajatlarni kamaytirish, texnik jarayonlarni avtomatlashtirishga xizmat qilmoqda. Oliy ta'lim tizimida intellektual, keng fikrli, boy dunyoqarashga, mukammal bilimga ega mutaxassislar tayyorgarligini ta'minlash, ularning salohiyatini yuksaltirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirish, yosh olimlar iqtidorini yuzaga chiqarish kabi ezgu maqsadlar

Qayd etilgan ulug' maqsadlarni amalga oshirishda ta'lim va ilmiy faoliyatimizda sifat ko'rsatgichlarini yuksak darajada ta'minlab berishga erishish lozim. Ta'lim tizimining barcha quyi bo'g'inlari qatorida bizning oldimizga qo'yilgan ijtimoiy mas'uliyatni to'la his qilgan holda mutaxassislar raqobatdoshligini kafolatlash muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish to‘g‘risida ” gi farmonida: “mamlakatni innovatsion rivojlantirishning uzoq muddatli senariylari asosida ustivor soha va tarmoqlarni ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalar asosida rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqarish; hududlarning intellektual va texnologik salohiyatini oshirish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish; ilmiy darajali kadrlar tayyorlash tizimini muvofiqlashtirish; yoshlarni ilmiy va innovatsion faoliyatga jalb etishning samarali mexanizmlarini joriy qilish va ular tashabbuslarini har tomonlama qo‘llab quvvatlash; ilm-fan va innovatsiyalar sohasida xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, innovatsiyalar va texnologiyalar transferi bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish”dan iborat muhim vazifalar belgilandi [2].

O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini yuritishda ham milliy an‘analar va azaliy qadriyatlarimiz ham, jahonning ilg‘or tajribasiga tayinlanmoqda, desak, adashmaymiz [3].

Ma‘lumki, 2-blok va qisman 3-blok fanlarining asosiy vazifasi, ixtisoslik fanlarini tegishli fan asoslari bilan qurollantirib, mutaxassislik yaxshi o‘zlashtirishga, istiqbolda, mehnat faoliyati davomida mutaxassisligi va kasb-kori doirasida vujudga keladigan masalalarni yecha olish imkoniyatini kuchaytiradi[4]. Barcha tizimlar kabi ta‘lim jarayonining rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy jihatdan rivojlanganligi va ta‘minlanganligiga bog‘liq. Bugungi kunda ta‘lim tizimining barcha bosqishlarida ham darslarni zamonaviy o‘lchash vositalari asosida ko‘rgazmali tarzda o‘tkazishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Tajriba va tadqiqot tushunchalari bilim va ilmning mohiyatini, ahamiyatini va istiqbolini belgilab beruvchi jarayondir. Shu bois hamisha ilm-fan jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan innovatsiyalar ustidagina tadqiqotlar olib borilsa u bilimli va mahoratli mutaxassislar tomonidan o‘tkazilgan tajriba natijalariga ko‘ra hayotda, insoniyat jamiyatga foydasi tegishini ko‘zda tutgan holda tatbiq etiladi [5].

Universitet ta‘limida zamonaviy talablarga mos keladigan mutaxassis-kadrlar tayyorlashni amalga oshirish uchun ta‘lim tizimiga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali talaba va magistrantlarning faol bilim olishlarini tashkil etish va faol ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish hamda ta‘lim tizimining demokratik tamoyillariga tobora keng yo‘l ochib berish lozim [6]. Buning uchun esa talabalarning o‘z qobiliyatini va imkoniyatlarini to‘la-to‘kis namoyon etishlari va butun kuch g‘ayratlarini bilim olishga sarflashlari uchun imkon beradigan darajada ta‘lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.E. Axmedov. Ta‘lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasida intellektual salohiyatli yoshlar – mamlakat taraqqiyotining kafolati “ ta‘lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyada intellektual salohiyatli yoshlar - mamlakat taraqqiyotining muhim omili” // XIII respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Samarqand: SamDAQI, 2016. -b. 3-4.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” // Toshkent shahri, 2021-yil 1-aprel.
3. M.Xodjiyev. Fidoiy va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, uchinchi renessans poydevorining tamal toshi. // “Xalq so‘zi” gazetasi. Toshkent. -b. 4.
4. R.I.Xalmurodov. Kasbga yo‘naltirilgan ta‘lim haqida. // Ta‘limda innovatsiyalar: strategiya, nazariya va amaliyot. Xalqaro ilmiy maqolalar to‘plami. 1-qism. – Samarqand: SamDU, 2018. -b. 3-5.
5. E.A. Ruziyev, J.E. Ruziyev. Amaliy-laboratoriya ta‘limida innovatsion jarayonlar. // Ta‘limda innovatsiyalar: strategiya, nazariya va amaliyot. Xalqaro ilmiy maqolalar to‘plami. 1-qism. – Samarqand: SamDU, 2018. -b. 181-184.
6. M.I. Mamadiyeva, E.A. Ruziyev, M.A.Mamirzayev. Analitik kimyoni o‘qitishda mustaqil ta‘limni tashkil etish. // “O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida kimyoning o‘rni” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, III qism. – SamDU. 2018. – 124 bet.

TA‘LIM TIZIMI ISLOHOTLARI, ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR SOHASIDAGI ISLOHOTLARNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI MASALALARI

Sobirxo‘jayev Xadyatillo Billoxon o‘g‘li¹

¹Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston milliy universiteti talabasi

xadyatillo2004@gmail.com

Annotatsiya: O‘zbekistonda so‘nggi yillar davomida Harakatlar strategiyasi doirasida, davlat ta‘lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, ta‘limdagi muammolarga innovatsion yechimlar taklif etish, sifatli ta‘lim-tarbiya berish, yetuk kadrlarni yetishtirib chiqarish bo‘yicha sezilarli ishlar bajarildi. Endilikda ushbu dasturilamalning mantiqiy, izchil davomi hisoblangan Taraqqiyot strategiyasida jamiyat va davlat hayotida muhim bo‘lgan qator masalalar kabi ta‘lim, fan va innovatsiyalarga ham katta e‘tibor qaratilmoqda.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, ta‘lim, ilm-fan, madaniyat, strategiya, rivojlanish, istiqbol, yoshlar, islohotlar.

Har bir davlatning ertangi kuni yoshlarning qay darajada ilmiy ekani, zamonaviy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishi, innovatsion bilimlarni rivojlantira olishi bilan bevosita bog‘liq. Shu bois, ta‘lim tizimini rivojlantirish masalasiga hukumat darajasida e‘tibor qaratilishi har bir davlatning

muhim vazifasi hisoblanadi. Bugun taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Shuning uchun ham, O'zbekistonda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmogda [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o'zining Oliy Majlisga murojaatnomasida mamlakatimizning xalqaro va mintaqaviy iqtisodiy tashkilotlardagi ishtirokini kuchaytirishning ahamiyati xususida alohida aytib o'tdi[2]. Jumladan, mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon ishlab chiqarish tizimiga, dunyo bozori talablariga va iqtisodiy integratsiya jarayonlariga hamohang bo'lishi bozor islohotlarini jadal rivojlantirishga, mamlakatda raqobat muhitini o'stirib, tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishga xizmat qilishi alohida ta'kidlandi va bu yo'lda fuqarolarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish benihoya katta ahamiyatga ega. Chunki taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk, texnikaviy bilimlar va murakkab texnologiyani egallagan, irodasi baquvvat, iymoni butun, zamonaviy fikrlaydigan, yuksak salohiyatli odamlar hal etadi.

Shu bois ta'limga katta e'tibor qaratish mamlakat va xalq istiqbolining poydevori bo'lib xizmat qiladi. Prezidentimiz ham o'sha kungi nutqida bot-bot takrorladi: "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir", "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi". E'tiborga molik jihati shuki, bu yo'lda qadriyatlarimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini mustahkamlash, uni davr talablari bilan uy'gunlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga olib chiqish maqsadlariga favqulodda katta ahamiyat berildi[3]. Jumladan, prezident maktablarida 130 ta mamlakatda ma'qullangan "A-level" ta'lim dasturi yo'lga qo'yilgani o'z samarasini bermoqda. Bu jarayonda har bir o'quvchi o'zining qobiliyatiga qarab, aniq yo'nalishlar bo'yicha chuqur o'qitiladi, dunyoning nufuzli oliygohlariga kirish imkoniyatlari kengayadi. Shularni hisobga olgan holatda, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida prezident maktablari vda ixtisoslashtirilgan maktablarning ta'lim metodikasini barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quv jarayonlariga joriy qilish, 700 ga yaqin nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar va mobil ilovalar yaratish. Yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun 1 000 ta multimedia dasturlarini yaratish, ta'lim tashkilotlariga har yili 500 nafar "til egalari" bo'lgan xorijiy mutaxassislarni jalb etish rejalashtirilgan [4].

Bu ishlarni tizimli yo'lga qo'yish, yangi darsliklarni ishlab chiqish, ilg'or ta'lim standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriyalar tashkil qilinishi zarur. Shu bois 5 ta oliy ta'lim muassasasini milliy tadqiqot oliygohlariga aylantirish, fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish uchun 3 trillion so'm mablag' ajratish, fundamental tadqiqot yo'nalishi bo'yicha 8 ta yetakchi xorijiy ilmiy maktablar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, til va adabiyot, tarix, arxeologiya, madaniyat va san'at yo'nalishlaridagi ilmiy dasturlar uchun 2

trillion so‘m sarflash ko‘zda tutilgan. Umuman mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya sohasiga har yili sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 10-12 foizni tashkil etmoqda. Bu YUNESKOning mamlakatni barqaror rivojlantirishni ta‘minlash uchun ta‘limga yo‘naltirilishi zarur bo‘lgan investisiyalar miqdori bo‘yicha tegishli tavsiyalaridan, ya‘ni 6-7 foizdan qariyb 2 barobar ko‘pdir [5]

Ta‘lim tizimida yana bir muhim bosqich bu maktabgacha ta‘lim tizimi bo‘lib, bolaning maktabgacha ta‘lim muassasasida olgan ilk sabog‘i, ko‘nikmasi, bilimi uning kelajagini belgilaydi. Bu dargohda keyingi ta‘lim uchun poydevor qo‘yiladi va shaxsiy fazilatlar shakllanadi. Bunda bolaning ijobiy ijtimoiylashuvini psixologik qo‘llab-quvvatlanadi, fiziologik va aqliy rivojlanishi uchun ajoyib sharoit yaratiladi, madaniy xususiyat va an‘analarni o‘rgatiladi, xulq-atvor shakllanishini ta‘minlanadi. Biroq, afsuski, O‘zbekistonda uzoq yillar ushbu tizimda ham qator kamchiliklar kuzatildi, mavjud sharoitlar pasayib, sifat yomonlashdi, bu esa ota-onalarning farzandlarini MTM larga yo‘naltirish rag‘batini pasaytirdi va MTM lar qamrov darajasi keskin tushib ketgan edi. Xususi va davlat sherikligidagi bog‘chalar ochilishi, davlat muassasalariga ham e‘tibor qaratilishi bilan sohada raqobat kuchaydi, ijobiy o‘shish kuzatiladi boshlandi. So‘nggi olti yilda bolalarni maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olish darajasi 27 foizdan 70 foizga yetishi natijasida bugungi kunda 2 millionga yaqin bola bog‘chaga bormoqda. Shu bilan birga, kelgusi besh yilda qamrovni 80 foizga yetkazish uchun 600 ming yangi bog‘cha o‘rni kerak.

Boshlang‘ich va o‘rta ta‘limda ham jadal islohotlar va ustuvor maqsadlar amalga oshirilmoqda. 2030-yilgacha davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta‘minlash, toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmani to‘la shakllantirishm shuningdek, olis va chekka hududlarda joylashgan 715ta umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari o‘quvchilari uchun bepul avtobuslarni yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan.

Hozirgi ochiqlik siyosati, chet el investitsiyalari va yangi korxonalarining ortib borayotgani yoshlarimizni zamonaviy bilimlar va xorijiy tillarni o‘rganishga undamoqda. Shu bois, maktablarga yuqori malakali xorijiy o‘qituvchilarni olib kelishga va xorijiy mamlakatlarda tahsil olgan kadrlarni ko‘proq jalb etishgan to‘g‘ri kelmoqda. Biroq mavjud ishchi kuchi resursi ushbu talabni qondirish uchun yetarli emas, shu bois 1 000 nafar tarbiyachi va o‘qituvchilarni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari pedagog xodimlarining o‘rtacha ish haqini 2 barobar oshirish, 500 ming nafar maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari xodimlarining malakasini uzluksiz oshirish ham loyihaga kiritilgan.

Shu bilan birga, sir emaski raqobat muhitini shakllantirish va sohaga xususi sektorni jalb etish soha rivoji uchun muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi. 2017-yildan boshlangan ta‘limni xususiylashtirish ishlarini chuqurlashtirish va keng ko‘lamda amalga oshirilishini bardavom etish maqsadida nodavlat umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari sonini 1 000 taga yetkazish, ularning faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun 1 trillion so‘m miqdorida imtiyozli kreditlar ajratish, 2024-yildan boshlab har yili

davlat-xususiy sheriklik asosida kamida 100 tadan umumiy oʻrta taʼlim muassasalari qurilishi boʻyicha shartnomalar tuzish, nodavlat umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarida tahsil olayotgan oʻquvchilar ulushini 3 barobarga oshirish ustuvor maqsadga aylangan.

Iqtisodiy rivojlanish asosi boʻlgan oliy taʼlim va innovatsion rivojlanish sohalarida ham qator yangiliklar mavjud. Masalan, iqtisodiyot tarmoqlarining “drayver” yoʻnalishlarida 850 turdagi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish, amaliy tadqiqotlar natijalari asosida 2,5 mingdan ziyod yangi ilmiy ishlanmalar yaratish, transport va logistika, qishloq xoʻjaligida hosildorlik, energetika, biotexnologiya, geologiya va metallni qayta ishlash, mashinasozlik va elektronika yoʻnalishlarida 8 ta ilmiy ishlab-chiqarish klasterini tashkil etish, ilmiy, amaliy, innovatsion va startap loyihalarni moliyalashtirish boʻyicha yillik tanlovlar sonini 20 taga yetkazish, stajor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura, doktorantura hamda maqsadli doktorantura kvotalari sonini 5 200 taga yetkazish moʻljallangan. Shuningdek loyihada Oʻzbekiston Global Innovatsion Indeksda Top-50 talik mamlakatlar roʻyxatiga kirishini taʼminlash, har bir million aholiga toʻgʻri keladigan tadqiqotchilar sonini 2 ming nafarga yetkazish. Ichki va tashqi bozorlarda tijoratlashtirish natijasida yaratiladigan yangi innovatsion ishlanmalar sonini 2 baravarga oshirish rejalari ham mavjud.

Xulosa qilib aytganda, eng muhimi, xalqimiz ongida taʼlim-tarbiya tizimiga nisbatan ijobiy qarashlar paydo boʻldi va yoshlarimiz orasida ilmga intilish kuchaydi. Bu ham boʻlsa keng koʻlamli taʼlim islohotlari jarayoniga alohida eʼtibor berib kelayotganligining samarasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.Sobirxoʻjayev, M.Sobirov “Til oʻrganishda oʻyinlashtirish va boshqa innovatsion yondashuvlarni oʻz ichiga olish” FarDU chet tillari fakulteti birinchi xalqaro talabalar ilmiy konferensiyasi.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga murojaatnomasi. Toshkent-2022.
3. D.Mustafayeva. Yangi Oʻzbekistonda taʼlim sifatini oshirish istiqbollari: islohotlar va yangiliklar. Taʼlim, fan va innovatsiya. 2021/5-son 32-bet.
4. PF-158-son 11.09.2023 “Oʻzbekiston-2030” strategiyasi toʻgʻrisida.
5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Taʼlim- tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori 2020-yil 6-noyabr

TABIY FANLARNI OʻQITISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Jamshidbek Homidov Zafarjon Oʻgʻli¹

¹Fargʻona viloyat Fargʻona shahar

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tabiiy fanlar sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligi ta`kidlangan. Multimedia vositalariga asoslangan mashg`ulotlar ta`lim samaradorligini oshirish, bilimlarni mustahkamlash, ulardan amaliy ko`nikma va malakalarni shakllantirishda erkin foydalanish yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so'zlar: multimedia, innovatsion, animatsiya, raqamli ta`lim resursi, audio, aloqa, grafika, video, kompetentsiya.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter, multimediya, internet, media-texnologiyalar, dars, ta`lim. Ta`lim tizimida islohatlarni amalga oshirishda va rivojlantirishda hukumatimiz tomonidan yiliga mamlakat yalpi ichki mahsulotining 10-12 foizi sarflanadi, bu davlat budjetining 35 foizini tashkil etadi. Bu esa jahon tajribasidagi korsatgich 3-4 foizdan oshmaydi. Ta`lim tizimida yil sayin rivojlanib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta`lim jarayonini sifat va mazmun jihatdan yanada yuqori bosqichga ko`tarishga xizmat qilib kelmoqda. Bugungi kun zamonaviy talim jarayonini mazmunli tashkil etish uchun zamon talabiga mos texnik vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, texnologiya, axborot, kompyuter, multimediya, internet, masofali o`qitish, yagona axborot muhiti va shunga o`xshash axborot kommunikatsion texnologiyalarning zamonaviy vositalaridan foydalanish o`zining samarasini bermoqda. Avtomatlashtirilgan axborot jamiyatini shakllantirishning global jarayoni inson taraqqiyoti va koplab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni samarali hal etish imkoniyatlarini yaratadi. Biroq, bunday imkoniyatdan faqatgina ushbu axborot maydonida kerakli bilim va ko`nikmalarga ega bo`lgan jamiyat a`zolarigina foydalana oladilar.

Shu o`rinda oliy ta`limning asosiy vazifalaridan biri talabalarga axborot madaniyatini va uning mafkuraviy darajasini har tomonlama yaxshilash imkonini berishdir. Ushbu muammoni hal qilishda ta`lim muassasalarida axborot texnologiyalari, fani yo`nalishi muhim ro`l o`ynaydi. Shu sababli, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter savodxonligi kursining ustuvor muammolarini va uning kelajakdagi istiqbollarini o`rganish va tahlil qilish muhimdir. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, elektron kutubxonalar, elektron kitoblar va raqamli audio-video-foto, mobil telefonlar, tezkor xabarlar jo`natish vositalari, IP telefoniya, PDA va kommunikatorlar bilan tanishtirish orqali zamonaviy bugungi kun bo`lajak yosh kadrlar tasavvurida 20 yil avval biz axborot vakumida yashagan ekanligimizni, ijtimoiy, geografik, siyosiy to`siqlardan boshqa hech narsa mavjud bo`lmaganligini hosil qilamiz.

O`zbekiston milliy ta`limi jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish tajribasi shakllantirilmoqda. Chunki bu ham zamon talabidir. Bugungi kunda zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish tabiiy fanlar sifati va samaradorligini oshirishning asosiy omili sifatida qaralmoqda. "Multimedia darslari"dan foydalanish fizika va kimyo fanlarini o`qitish jarayonining sifati va samaradorligini oshirish imkonini beradi. Multimedia yoki raqamli o`quv resurslari axborotni qayta ishlashni qo`llab-quvvatlovchi turli xil media elementlaridan foydalangan holda o`quvchilarga aqliy tasvirlar bilan

yaxshiroq shug'ullanishga yordam beradi. Ta'lim uchun multimediyadan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rasm va so'zlarni birlashtirgan o'quvchilar faqat so'zlardan foydalanadiganlarga qaraganda ijobiy natijalarga erishadilar.

Media ko'nikma axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilimlarini amalda qo'llay bilishga oid faoliyatning tarkibiy qismidir. "Media savodxonligi"- ommaviy axborot vositalarini ishlab chiqish, tahlil qilish va yaratish qobiliyati. Media ta'limning asosiy vazifasi - yangi avlodni zamonaviy axborot sharoitida hayotga tayyorlash, turli axborotlarni qabul qilish insonni psixikasiga ta'siri oqibatlarini tushunishga o'rgatishdir.

Media kompetentlik tushunchasi (media competence) ta'limga kirib kelayotgan yangi atama hisoblanib, u media ma'lumotlarni turli ko'rinishda uzatish va baholash, o'rganish yetkaza bilish kabi ma'nolarni o'z ichiga oladi.

Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilari media texnologiyalardan foydalanish usuli o'quv jarayonida ta'limning dolzarb masalalarini samarali yechish imkoniyatini yaratadi jumladan:

- o'quv jarayonini qizqarli va mahsuldor qilish hisobiga o'quvchida materialni anglab olish motivatsiyasi ortadi;

- mustaqil ishlash va o'zini-o'zi nazorat qilish ko'nikmasi rivojlanadi;

- darsning samaradorligini va har bir o'quvchining o'zlashtirilishini ta'minlaydi;

- har bir o'quvchining fikrlashini, bilish hissiyotini, maqsad sari intilishlarini, ma'naviy tassavurlarini rivojlantirish hisobiga umumiy faol rivojlanishga erishiladi;

- sindagi barcha o'quvchilarning faol ishlash ta'minlanadi.

Pedagogik nuqtai nazardan multimedia vositalari o'quvchilarining ta'lim jarayoniga kompyuter asosidagi yangi yondashuvdir. Shu tariqa u o'quvchilar o'rtasida o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligi darajasini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli o'quvchilar darslarini o'rganishda rivojlantiriladigan muammoli va pedagogik texnologiyalarning asosiy jihatlarini ifodalovchi "Multimedia darsi", "Slayd dars", "Seminar darsi"dan foydalanish tavsiya etiladi. Seminar darsi talabalarning mustaqil chiqishlarini jamlaydigan va kerak bo'lganda muhokama qilish uchun asos yaratadigan darsdir. Bunday darslarda o'qituvchi rahbarlik qiladi, o'quvchilar esa mustaqil, o'z fikriga ega, ijodiy shaxs sifatida o'quv faoliyati bilan shug'ullanadi.

"Multimedia darslari"dan foydalanish ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bu jarayonda o'qituvchi: -o'quv materialini ko'rgazmali tarzda taqdim etadi; -Yangi materialni tez yetkazib bera oladi; -Animatsiyalar yordamida axborot tezligi va hajmini boshqara oladi; minglab beradi. Tabiiy fanlar bo'yicha kimyo va fizika o'quv materiallarini qulaylashtirish uchun o'quv materiallari o'zaro bog'liq qismlarga bo'linadi, so'ngra o'quv samaradorligini oshirish uchun vazifalarni ketma-ket bajarish rejalashtiriladi. Bunda maktabning umumiy ko'rinishi, maktab atrofidagi gullarning gullab-yashnashi, maktab partasida yozilgan "Xush kelibsiz" yozuvi, sumkasini maktabga olib ketayotgan bolalar monitor ekranida qiziqarli tarzda aks ettiriladi. Muhimi, bu texnologiyada o'rganilayotgan o'quv materiallari multimedia asosida bajariladi.

Fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarini jadal va jadal rivojlantirish, barcha ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini mazmunan yangi bosqichga ko'tarish, ayniqsa, "... ta'lim sifatini oshirish, ta'lim standartlari, ta'lim dasturlari, darsliklarni takomillashtirish. va o'quv qo'llanmalari, ilg'or pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalalari" mavzulari bugungi kunda boshlang'ich ta'lim tizimida, ayniqsa, ona tili ta'limida audio, video va multimedia vositalari yordamida o'qitishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion faoliyat. Hozirgi vaqtda ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sohasida multimedia vositalaridan foydalangan holda o'qitish usuli amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat, har bir oila multimedia vositalari va o'yin-kulgisiz bo'lib qoldi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarini multimedia vositalari asosida o'qitish samarasi an'anaviy usulga qaraganda 2 barobar samaraliroq va vaqtni tejash mumkin. Multimedia vositalari negizida o'rganishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin, olingan bilimlar xotirada uzoq vaqt saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilgan materiallarni ko'rish asosida qabul qilsalar, xotirada axborotning saqlanishi 25-30% gacha oshadi. Bundan tashqari, o'quv materiallari audio, video va grafikalar ko'rinishida taqdim etilganda, materiallarning saqlanishi 75% ga oshadi. Multimedia vositalari asosida xorijiy tillarni o'rganish jarayonida bunga yana bir bor amin bo'ldik. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda shuni aytish kerakki, boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda o'qituvchining kasbiy malakasi va bilim darajasi, bolalar psixologiyasi, zamonaviy pedagogik axborot texnologiyalarini puxta bilishi muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan ham shuni unutmasligimiz kerakki, ayni paytda pedagoglar va dastur yaratuvchilar birlashib, turli fanlardan multimedia darsliklarini yaratmoqdaki, bu ta'lim samaradorligini oshirishda kutilgan samarani beradi.

Bugungi kunda har bir sohani takomillashtirish va rivojlantirish uchun turli xil usullar qo'llaniladi, shuningdek, ta'lim sohasida turli usullar qo'llaniladi. Shuning uchun tabiatshunoslik darslarida didaktik o'yin texnologiyalari usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki tabiatshunoslik darslarida qo'llaniladigan metodlarning xilma-xilligi o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Didaktik o'yinning o'ziga xos jihati an'anaviy ta'limdan farqli o'laroq ta'lim texnologiyasi, o'quvchilarining mustaqilligini va o'quv faoliyatini ta'qiqlamasdan ta'lim faoliyatini tashkil etishda hamkorlik qilishni talab qiladi. Ularni o'z faoliyatiga ongli ravishda yo'naltirish samarali tashkil etish orqali o'quvchilarning fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish, hech qanday faoliyatni buyruqbozlik bilan amalga oshirmaslik, individual ehtiyoj va manfaatlar imkoniyatlarini cheklamagan holda erkin tanlash huquqini berish hisoblanadi. Bunday darslarni o'tkazishda o'quvchining ilm-fandan to'liq bilim olishi, odob-axloqli bo'lishi, kasb tanlash iste'dodini shakllantirish, xalqimizga xos ezgu fazilatlarni egallashi uchun avvalo o'qituvchi ijodiy mehnat qilishi kerak. O'qituvchi o'quvchiga hushyor va e'tiborli bo'lishi, uning qiziqish va qobiliyatini hisobga olishi, unga murabbiydek munosabatda bo'lishi kerak. Shundan keyingina darslarda qo'llaniladigan didaktik o'yin texnologiyalari o'quvchilarning bilim faolligini, darslik va qo'shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlashlarini faollashtiradi, nutq

va muloqot madaniyatini rivojlantiradi, ularni ongli ravishda kasbga yo'naltiradi, maqsadni to'g'ri olib boradi. didaktik o'yin davomida yuzaga keladigan qiyinchiliklar, turli vaziyatlarni tahlil qiladi, to'g'ri xulosa chiqarish uchun zamin tayyorlaydi.

Metodist o'qituvchilarning ko'p yillik tajribasi va kuzatishlari asosida boshqa fanlar qatorida tabiatshunoslik darslari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni mazmunli o'tkazishda didaktik o'yinlar eng qulay va samarali usullaridan biri ekanligi ta'kidlandi. Darsda didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini, onglilikni chuqur egallashga qaratilgan ko'nikma va malakalarini oshirishi ko'rsatilgan. Shuningdek, o'quv jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida fan darslarida qator innovatsion texnologiyalar, jumladan, rolli o'yinlar, klaster, biznesmenlar o'yini kabilardan foydalanish zarurligi haqida so'z yuritildi.

Zamonaviy ta'limni amalga oshirishning yana bir zarur sharti – har bir o'qituvchi va talaba o'quv fanlari bo'yicha axborot manbalaridan, jumladan, yangi axborot texnologiyalaridan tez va qulay foydalanish imkonini beruvchi sharoitlar yaratishdir. Ya'ni, endi sifatli ta'lim berish uchun o'qituvchi va o'quvchiga kerakli ma'lumotlarni taqdim etadigan xizmatdan iborat faoliyatni tashkil qilish kerak. Bu yo'nalish axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish yo'nalishi deb ataladi. Bu ma'lumotlarni o'quvchilar tushunadigan mantiqiy shakllarda ifodalash talaba va o'qituvchi o'rtasidagi og'zaki muloqotni tashkil etadi. Og'zaki muloqotning turli shakllari mavjud bo'lib, ularning asosiylari nutq, suhbat, savol berish, savollarga javob berish, bahslashish, bahslashish, ma'lumot berish, maslahat, nasihat, tanbeh, tabriklash, salomlashish, xayrlashish. Og'zaki muloqotning ushbu shakllarida qo'llaniladigan nutq intonatsiyalari so'zlovchining fikrini uning maqsadiga muvofiq ravishda chuqurlashtirish va aniqlashtirish imkonini beradi. O'qituvchi o'quvchiga ma'lum bo'lgan tushunchalar asosida yangi ma'lumotlarni kiritadi va tushuntiradi. Bu jarayonda o'quvchilar diqqatni jamlash, tinglash, eshitish, tushunish, idrok etish, mantiqiy fikrlash, yodlash, esda saqlash faoliyati bilan shug'ullanadilar. Bunda o'quvchining qiziqishi, ehtiyoji, qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, iste'dodi uning muvaffaqiyatining asosi bo'ladi. Ko'pgina olimlar ta'lim ob'ektini o'qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, usullari va tamoyillari deb atashadi. Ta'lim tizimini takomillashtirishni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishning innovatsion jarayoni deb hisoblash mumkin. Bu erda biz "innovatsiya" deganda ma'lum bir sinf o'quvchilarining faoliyatini yaxshilash uchun joriy etilgan va ushbu yangilik sub'ekti tomonidan yangi deb qabul qilinadigan yondashuvni tushunamiz.

Sinflarda tabiatshunoslik darslarida qo'llaniladigan didaktik o'yin darslari quyidagi afzalliklarga ega:

o'quvchilar didaktik o'yin darslariga katta qiziqish bilan tayyorgarlik ko'radilar, natijada yangi bilimlarni o'zlashtirish samaradorligi yuqori bo'ladi;

didaktik o'yin darslari o'quvchilari uchun birinchi marta kasb tanlashda ularning kuchini, bilimini, iste'dodini sinab ko'rish, shuningdek, ularni hayotga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limning zamonaviy shakl va uslublarini takomillashtirishga qaratilgan o'quv-metodik qo'llanmalar yaratish;

Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish muassasalarida o'quvchilarning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va malakalarini yanada oshirish maqsadida sinf o'qituvchilarining zamonaviy bilimlarini, ilmiy-metodik tayyorgarligini oshirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Berdiyeva O. New pedagogical technologies in the educational process. "Public Education" magazine, 2013, No. 1. -p. 163.
2. Xalilova, Z. M. (2022). Toponimlarni o'rganish jarayonidagi lingvodidaktik muammolar va ularning muqobil yechimi. international conference on learning and teaching, 1(8), 545-547.
3. Shermatov, A. A., ugli Yuldashov, S. A., & Kholmatova, Y. N. (2022). Evaluation of the effectiveness of the lakomat preparation for the prophylaxis of ophthalmogypertension in the period after ultrasound phacoemulsification (fec) cataract operation in uncomplicated cataracts. Oriental Journal of Medicine and Pharmacology, 2(05), 1-9.
4. Abbasova, N., Zaynalova, N., & Mahammatjonova, M. (2022). Methods and techniques for teaching english proverbs and sayings in the efl classroom. science and innovation, 1(b7), 661-667.
5. Xurshidbek, T., Shaxzodbek, Y., & Shoxruxmirzo, A. (2022). Ta'lim sohasini multimedia maxsulotlari va axborot bilan ta'minlashda axborot xavfsizligi choralari. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(4), 27-30.

TA'LIMDA INNOVATSION ISLOHOTLARNI QO'LLASHNING AFZALLIKLARI

Qodirova Nozimaxon¹

¹*Qo'qon universiteti Jahon tillari kafedrasida o'qituvchisi*

Islomova Gulyoraxon Umidjon qizi²

²*Qo'qon Universiteti*

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi ingliz tili 2-bosqich talabasi

islomovagulyora05@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirda mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlar va imkoniyatlar haqida ma'lumotlar berildi. Shu bilan bir qatorda chet tillarini o'rganishda hozirda keng qo'llanib kelinayotgan va ijobiy natijalarga erishishda foydalanilayotgan dasturlar, metodlar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, zamovaviy texnologiyalar, tillar, PISA.

Yurtimizda ilm-fan va ta'lim sohasida ko'plab innovatsion texnologiyalar hamda islohotlardan foydalanish keng targ'ib qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA(The Programme for International Student Assessment) Xalqaro darajada o'quvchilarni baholash tizimi reytingi bo'yicha jahonning eng ilg'or 30ta mamlakati ro'yhatidan o'rin olish ham ko'zda tutulgan. Bundan tashqari, bugungi kuni hech qanday shak-shubhasiz onlayn texnologiyalar

asri deb atasak mubolag`a bo`lmaydi. Deyarli har bir sohada – u xoh meditsina bo`lsin, xoh bog`dorchilik sohasi yo`nalishlarida ham raqamli texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Shular jumlasidan, xorijiy tillarni o`rganishda ham raqamli texnologiyalarni qo`llash sezilarli foyda bermoqda. Ayniqsa, hozirgi kunga kelib turli turkumdagi onlayn platformlardan foydalanish ham urfga kirmoqda va kutilgan natijalarni berishga ulkan hissa qo`shmoqda. Til o`rganish hozirgi kundagi eng zaruriy talablardan biri bo`lib xizmat qilmoqda. Albatta, bu uchun ko`zlangan natijani oladigan va samarali bo`lgan platformalardan qo`llaniladi. Ularning turlari yetarlicha, ammo barchasi ham foydalanish uchun kutilgan natijani va bilimlarni bera olmasligi mumkin. [1] Shu bilan birga, bu kabi platformalar o`rganilishi kerak bo`lgan tilning barcha qobilyatlari(skillari) uchun alohida urg`u qaratilgan holda tuzilganlari ham, yoki aynan bir qobilyati uchun maxsus yo`naltirilgan platformalar ham mavjud. Bu kabi imkoniyatlarning afzalliklari shundaki, o`rganuvchi o`zi lozim tutgan qobilyati ustida ko`proq va samarali ishlash imkoniyatini beradi. Bunga qo`shimcha tarzda, virtual o`rganish davomida o`rganilayotgan tilda erkinn so`zlasha oladigan yoki aynan o`sha tilda so`zlaydigan millat vakili bilan tanishishi hamda, ular bilar yana-da ko`proq va erkinroq til o`rganish salohiyatini oshirishiga ham ulkan hissa qo`shishi mumkin.

Onlayn platformalardan foydalanish juda samarali va ishonchli bo`lishiga qaramay, ulardan muntazam foydalanilsa, qunt bilan o`rganishga kirishilsagina arzirli natijaga erishish mumkin. Umumiy qilib aytadigan bo`lsak, virtual olamda ma`lumot qidirishni, topishni barcha ham qila olishi mumkin, ammo uni sinchkovlik bilan o`rganish va u bilan chuqur tanishib chiqqan hoda amalga tadbiq etish barchaning ham qo`lidan kelavermaydi. Misol tariqasida shuni aytib o`tishimiz o`rinliki, aytaylik siz ingliz tilini o`rganishga kirishgansiz va yozish ko`nikmasi(writing skill) uchun sizda qaysidir jihatlarida xato va kamchiliklar kuzatilyapti. Bu holatda siz onlayn platformadan quyidagi ma`lumotlarni erkin va cheksiz tarzda o`rganishingiz mumkin:

- 1) Matn ma`nosiga mos so`zlarning kerakli sinonimlaridan foydalanish;
- 2) Tilni chuqur o`zlashtirish maqsadida C1 daraja so`zlarni qo`llash;
- 3) Turli frazalar va so`z qo`shilmalardan o`rinli foydalanish;
- 4) So`zlarning imloviy yozilishi to`g`risida ma`lumotga ega bo`lish;
- 5) Grammatik strukturlarni o`rinli va to`g`ri qo`llash [2]

Yuqorida keltirib o`tilgan ko`rsatmalarni biz chuqurroq o`rganishimiz va amada erkin va ishonch bilan qo`llay olishimiz uchun biz samarali va yuqori ko`rsatkichga ega bo`lgan platformalardan foydalashamiz katta ahamiyatga egadir. Til o`rganishda zamonaviy va qiziqarli metodlarga hamda, asosli ma`lumotlarga asoslangan standartlarga javob beruvchi platforma namunalari haqida qisqa ma`lumotlar ko`rsatib o`tamiz:

- Duolingo: Duolingo dunyodagi eng mashhur til o'rganish ilovalaridan biridir. Undan foydalanish bepul va til o'rganishni band jadvalingizga moslashtirishni osonlashtiradigan qisqa, o'lchamli darslar bilan o'rganishga

o'yin usulini taklif etadi. Duolingo 30 dan ortiq tillarda kurslarni taklif etadi va u siz bilan bog'lanishingiz mumkin bo'lgan kuchli o'quvchilar hamjamiyatiga ega.

- **Babbel:** Babbel amaliy, kundalik tilga qaratilgan yana bir mashhur til o'rganish ilovasidir. Babbel kurslari oziq-ovqatga buyurtma berish, yo'l-yo'riq so'rash yoki kichik nutq so'zlash kabi real vaziyatlarda ishlatishingiz kerak bo'lgan tilni o'rganishingizga yordam berish uchun mo'ljallangan. Babbel 14 tilda kurslarni taklif etadi va u obunaga asoslangan modelga ham ega.
- **Memrise:** Memrise — til o'rganishga mo'ljallangan ilova bo'lib, u lug'atni yodlashda yordam berish uchun fleshkachalar va intervalgacha takrorlashdan foydalanadi. Memrise kurslari ko'pincha ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan yaratiladi va ular o'rganishni yanada qiziqarli qilish uchun tasvirlar, videolar va audio kliplar kabi turli multimedia elementlaridan foydalanadilar. Memrise 30 dan ortiq tillarda kurslarni taklif etadi va uning ham bepul, ham pullik versiyasi mavjud.
- **Busuu:** Busuu - bu interaktiv mashqlarni jonli repetitorlik mashg'ulotlari bilan birlashtirgan til o'rganish platformasi. Busuu kurslari to'rtta til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berish uchun mo'ljallangan: gapirish, tinglash, o'qish va yozish. Busuu 12 tilda kurslarni taklif etadi va u obunaga asoslangan modelga ega.
- **italki:** italki - bu sizni onlayn til o'qituvchilari bilan bog'laydigan platforma. Deyarli har qanday til uchun repetitorlarni topishingiz mumkin va siz yakkama-yakka suhbatlar, guruh darslari va talaffuz amaliyoti kabi turli dars formatlaridan birini tanlashingiz mumkin. Agar siz shaxsiy tilni o'rgatmoqchi bo'lsangiz, italki ajoyib tanlovdir.
- **Lingoda:** Lingoda malakali o'qituvchilar bilan jonli onlayn darslarni taklif qiladi. Siz guruh yoki shaxsiy darslardan birini tanlashingiz mumkin va sizning ehtiyojlaringizga mos keladigan turli jadvallar mavjud. Lingoda shaxsiy e'tiborni jalb qilishni va ona tilida so'zlashuvchi bilan gaplashishni mashq qilishni xohlaydigan o'quvchilar uchun yaxshi tanlovdir.

Bundan tashqari chet tillarini platformalar ko'magida o'rganishning talaygina afzalliklari mavjud. Masalan, *keng foydalanish imkoniyati va moslashuvchanlik*: Onlayn platformalar vaqt va makonning an'anaviy to'siqlarini yo'q qiladi. Talabalar darslar va amaliy materiallarga istalgan vaqtda, istalgan joyda, o'z tezligida kirishlari mumkin. Bu turli jadvallar va o'rganish uslublariga ega bo'lgan shaxslarga o'z til maqsadlariga erishish uchun imkoniyatlar beradi.

Ko'p manbalar va hamjamiyat: Onlayn platformalar tuzilgan kurslardan tortib turli xil podkastlar va bloglarga bo'lgan katta resurslar kutubxonasini taklif qiladi. Talabalar dunyo bo'ylab ona tilida so'zlashuvchilar va boshqa o'quvchilar bilan bog'lanib, til almashinuvi va madaniy tushunish uchun jonli hamjamiyatni rivojlantirishlari mumkin.

Xarajatlarning samaradorligi va kengaytirilishi: Onlayn platformalar an'anaviy sinf sozlamalariga nisbatan arzon variantlarni taklif qilish orqali til o'rganishni demokratlashtirishi mumkin. Ushbu kengayish, shuningdek, ta'lim muassasalariga kengroq auditoriyani qamrab olish va o'rganish tajribasini shaxsiylashtirish imkonini beradi.[3]

Qiyinchiliklar va mulohazalar:

Motivatsiya va o'z-o'zini tarbiyalash: Onlayn ta'limning asinxron tabiati kuchli o'z-o'zini motivatsiya va vaqtni boshqarish ko'nikmalarini talab qilishi mumkin. O'quvchilar an'anaviy sinf muhitining tuzilishi va javobgarligini o'tkazib yuborishlari mumkin.

O'qituvchi va talabalarning o'zaro aloqasi va fikr-mulohazalari: Onlayn platformalar AI va moslashuvchan algoritmlar orqali shaxsiy fikr-mulohazalarni taklif qilsa-da, inson o'qituvchisi bilan real vaqtda o'zaro aloqaning yo'qligi til o'rganishning nuanslar va madaniy tushunchalar kabi ba'zi jihatlariga to'sqinlik qilishi mumkin.

Texnik bog'liqlik va tenglik muammolari: Ishonchli texnologiya va internetga ulanish ba'zi o'quvchilar uchun to'siq bo'lib qolmoqda, bu esa mavjud ta'limdagi tengsizliklarni kuchaytirishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Xalqaro baholash mezonini bo'lgan PISA tizimidan yetakchi 30 davlatlar qatoriga kirish, shu bilan birga chet tillarini o'rganish uchun onlayn platformalarning imkoniyatlari juda katta. Sun'iy intellekt asosidagi repetitorlik, virtual reallik texnologiyasi va shaxsiylashtirilgan o'rganish algoritmlari bo'yicha doimiy rivojlanish ta'lim tajribasini yanada oshirishi mumkin. Ushbu raqamli landshaftda samarali harakat qilish uchun o'qituvchilar va platforma ishlab chiquvchilari motivatsiya, o'zaro ta'sir va foydalanish imkoniyatlari bilan bog'liq muammolarni hal qilishlari kerak. Onlayn va an'anaviy usullarning eng yaxshisini o'zlashtirib, biz har bir kishi til va muloqot eshiklarini ochish imkoniyatiga ega bo'lgan kelajakni yaratishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arce, HD va Cuadros Valdivia, MJ (2020). Chet tillarini o'qitishda onlayn o'quv platformalarining samaradorligi. Ta'lim va tillar, 22(2), 101-117.doi: 10.14715/el.v22i2.2778

2. Benson, P. (2013). Onlayn platformalar yordamida o'z-o'zidan til o'rganish. Til o'rganish va texnologiya, 17(1), 1-21. doi: 10.1111/j.1467-1947.2012.01349.x
3. Ilknur, C. (2017). Til o'rganishda onlayn platformalarning o'rni: nazariy asos. Til va ta'lim jurnali, 5(1), 1-17. doi: 10.15446/jale.2017.01

TA'LIM TIZIMI VA ILM-FAN SOHASIDAGI ISLOHOTLARNING AHAMIYATI

Tursunov Farxod Baxodir o'g'li¹

¹Termiz davlat universiteti

“Kompyuter va dasturiy injiniring

kafedrası o`qituvchisi

farxoddd1007@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda ta'lim tizimi va ilm-fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari, yangiliklari va qo'llanilishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ta'lim tizimi, ta'lim sifati, ilmiy infratuzilma, Yangi O'zbekiston.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida har bir soha jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lmoqda. Xususan bugungi Yangi O'zbekiston hayotining ko'plab sohalarida yangicha islohotlar, yangicha qarash va zamonaviylikni ko'rishimiz mumkin. bu jarayonlarni ko'rib, tahlil qila turib, ijtimoiy jamiyatimizning ajralmas qismi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni aytib o'tish alabatta adolatdan bo'ladi. Yurtimizda oxirgi yillarda ta'lim tizimida qilinayotgan ishlar, o'zgarishlar o'zining eng yuqori bosqichiga chiqdi. Albatta bu bilan to'xtab qolinmaydi. Shu yo'l va shu maqsad yo'lida kundan - kunga, yildan - yilga eng yaxshi natijalar sari odimlaymiz. Shu mavzuda gapirar ekanmiz prezidentimizning gaplarini eslab o'tishimiz kerak : “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi”

Shu bilan birga mamlakatimizda ta'lim sohasida qabul qilinayotgan me'yoriy huquqiy hujjatlarni ham alohida ta'kidlashimiz zarur. Xususan,

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi 41-moddasida har kimning bilim olish huquqi kafolatlangan[1] Shuningdek, 2022-yil 28-yanvarda muhtaram Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonda ham ta'lim tizimiga asosiy ahamiyat qaratilgan[2]

Prezidentimiz tashabbusi bilan oliy ta'lim tashkilotlari uchun akademik va tashkiliy, shuningdek, moliyaviy mustaqillikning berilishi hamda Kengashlar vakolatlarining kengayotgani ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, sifatli ta'lim xizmatlarini ta'minlash va bu borada hukumatimiz tomonidan berilgan vazifalarni to'la-to'kis ado etish orqali mamlakatimiz taraqqiyotini belgilab beruvchi salohiyatli kadrlar tayyorlashga keng imkoniyatlar yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'lim - rivojlangan, qudratli va buyuk davlat qurishning asosini tashkil etadi. Bu haqida muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2022 - yil 20– dekabr kuni Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida ham quyidagilarni ta'kidlaganlari o'rinlidir - ***Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir.***[3]

Ta'limning rivojlanish yo'li fanlar sonining va o'rganiladigan mavzularning ortishi hisobiga olinadigan bilimlar bilan kengayishi mumkin. Fanlar sonini kengaytirish, o'quvchilarga yuklamalarni ko'paytirish bilangina emas, balki o'qituvchi-pedagoglarning o'zlari ta'lim berayotgan fanlariga har tomonlama va zamonaviy axborot texnologiyalariga tayangan holda saboq berishlari uchun ularning malakalarini oshirib borish ham muhim omildir. Ta'limni rivojlantirishning — intensiv yo'li, birinchidan, ta'lim metodini o'zgartirishni, qo'shimcha bilim berish yo'llarini izlashni talab etadi. Axborotlar bilan mustaqil ishlashni bilish, topish, anglab yetish va nihoyat mavjud axborotlar asosida yangi bilimlarni uyg'unlashtirishni bilish, mana shu o'quv jarayonini rivojlantirishning eng istiqbolli yo'li bo'lishi mumkin [4]

Xususan, ta'lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo'ldi. Mazkur qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy printsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi.

Shuningdek, qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo'ldi. Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo'ldi.

Ta'lim tizimini yuqori darajada rivojlantirishning asoslaridan biri bu Ilmiy infratuzilmani rivojlantirishdir. **Ilmiy infratuzilma** deganda ilmiy bilimlarni yaratishga shart-sharoit tug'diruvchi sohalar, faoliyat va xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar majmui tushuniladi. Fanning rivojlanishi va ilmiy izlanishlarning samarasi mana shu infratuzilmaning holati, elementlarining samarali faoliyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lim tizimi va ilm – fan sohasidagi o'zgarishlar, rivojlanish yo'lidagi natijalar ilmiy tahlil qilindi. Yutuq va kamchiliklar haqida ma'lumotlar to'plandi. To'plangan ma'lumotlar asoslangan holda tizimli va mantiqiy yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib ta'lim va ilm – fan sohasidagi yutuqlar bilan birga bir qancha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni ham aytib o'tish zarur. Ta'lim tizimi sohasida moddiy texnik bazani bir vaqtning o'zida rivojlantirishni mushkul ekanligi, rivojlangan mamlakatlar bilan o'quvchi talabalarni tajriba almashish amaliyotlariga jalb etishda kelib chiqadigan kichik muammolarni mavjudligi, ta'lim sifatini nazorat qilishda vazifa va burchga nisbatan yengillik bilan qaralish holatlarini borligi shular jumlasidandir, albatta har bir ish ideal holatda bo'lmaydi. Ammo shu ideallikka intilish mumkin. Mashxur olim Albert Eynshteyn aytganidek bu hayotda har bir jarayon nisbiydir. Shu nisbiylikni ham eng yuqori samaradorlikka yetkazish mumkin. Oxirgi yillarda sohada qilinayotgan ishlar ham shu gapimizga dalil bo'la oladi. Masalan 2026-yilga qadar Taraqqiyot strategiyasi doirasida maktabgacha ta'limda qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan 80 foizga yetkazish, 7 mingdan ziyod yangi nodavlat MTTlarni tashkil etish, xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rnini yaratish, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bepul ovqatlanish bo'yicha yo'lga qo'yilgan ijobiy amaliyotni 2023/2024 o'quv yilidan qolgan barcha viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham joriy etish ko'zda tutildi. Shuningdek, oliy ta'limda qamrov darajasini 50 foizga, nodavlat OTMLar sonini kamida 50 taga yetkazish belgilab olindi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ta'lim tizimi va ilm fan sohalarida yangi va yuqori natijalarga erishish boshqa sohalar uchun rivojlanishning asosiy eshiklarini ochib beradi. Chunki bugungi kunda sifatli kadrlarni tayyorlash masalasi davlat ahamiyatidagi masalalardan biriga aylangan. Bu nafaqat mamalakatimizda balki jahon miqyosida ham sifatli va yetuk kadrlarning yetishmasligi balki ularni tayyorlash uchun yaratilayotgan imkoniyatlarni kengaytirish ustuvor vazifa ekanligini anglashimiz zarur. Albatta bu ishlarni ilmni endi tanigan, ilmga muhabbat qo'yadigan yoshda – ya'ni hali go'dakligidayoq amalga oshirmoqchlik zarur. Zero gapimni Atoqli ma'rifatparvar, buyuk pedagog va olim Abdulla Avloniyning gaplari bilan yakunlamoqchim: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”

Foydalalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi* – T.: *O'zbekiston*, 2017. – 76 b..
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmoni. 28.01.2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasi nutqidan. 2022 – yil 20 dekabr.

4. Baxodir O'g'li t. F. Et al. Ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish //новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – т. 1. – №. 6. – с. 342-345.
5. Farxod t. Et al. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni //uz-conferences. – 2023. – т. 1. – №. 1. – с. 577-580.
6. Tursunov f. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda axborot texnologiyalarining o'rni //conference on digital innovation: "modern problems and solutions". – 2023.
7. Baxodir o'g'li t. F. Aholi turmush darajasini baholashda hal qilinadigan masalalar va uning axborot ta'minotini ishlab chiqish //scientific aspects and trends in the field of scientific research. – 2023. – т. 1. – №. 10. – с. 211-216.

UCHINCHI RENESSANS – TA'LIM VA TARAQQIYOT: O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK

Mashhura Matchonova Muzaffar qizi¹

¹*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

Islomshunoslik fakulteti Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Maqolada yurtimizda o'tmishda yuz bergan Ilk Uyg'onish I va II davrlari madaniy, ma'rifiy va ta'lim-tarbiya tizimiga hissa qo'shgan buyuk mutafakkirlarimiz haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan bir qancha islohotlar haqida ham ma'lumotlar keltiriladi.*

Kalit so'zlar: *Renessans, matematika, astronomiya, tibbiyot, Uyg'onish davri, hadis, Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, rasadxona, ta'lim, yoshlarga oid davlat siyosati, islohot*

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida va albatta ma'naviy-ma'rifiy sohadagi o'zgarishlarni aytib o'tmaslikning iloji yo'q. Xususan bugungi kunda prezidentimiz tomonidan ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda Prezidentimizning ushbu fikrlari katta ahamiyatga ega. Maktab ta'limi tizimida o'qituvchilar faoliyatiga o'zgarishlar kiritildi. Bundan buyon o'qituvchilikka qabul qilish tanlov asosida bo'ladi. Ilk bor qabul qilingan nomzodlar 1 yil o'qituvchi-stajor bo'lib ishlaydi va yil yakuni bilan kasbiy sertifikat olishi lozim bo'ladi va bu tizim bosqichma-bosqich barcha o'qituvchilar uchun joriy qilinadi. Bundan tashqari maktabgacha ta'lim bosqichiga Singapur va Birlashgan Arab Amirliklari tajribasi asosida pedagog kadrlarga kasbiy sertifikat berish tartibi ham bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bundan tashqari oliy ta'lim tizimida ham ko'plab o'zgarishlar va yangi islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy

ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan **O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi** sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari ilm-fanning yirik o'choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas.

Hozirda yangi-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi etakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so'nggi 5 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarining soni 125 taga yetdi. Bundan tashqari mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning hayotga mustaqil qadam qo'yishlari uvhun barcha zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida „Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.

O'zbekistonda 30-iyun-„Yoshlar kuni” deb e'lon qilindi. Turli sohalarda yuksak natija va yutuqlarga erishayotgan fidoyi yoshlarimizni rag'batlantirib boorish maqsadida „Mard o'g'lon” davlat mukofoti va „Kelajak bunyodkori” medali ta'sis etildi.

Yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularning axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligini oshirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash vazifalarini o'z ichiga olgan beshta muhim tashabbus amalga oshirilmoqda. Yana shu o'rinda prezidentimizning fikrlarini keltirib o'tish joiz. „Chindan ham, agar biz ta'limni o'zgartirsak, ta'lim insonni o'zgartiradi. Inson o'zgarsa- butun jamiyatimiz o'zgaradi. Darhaqiqat, ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekistonda Uchinchi Renessansga poydevor bo'ladi. Shu sababli hozirda mamlakatimizda uzluksiz ta'limni takomillashtirish, farzandlarimizni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlashni tubdan yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda”. Bundan ko'rinadiki, yurtimizda ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu kabi izchil davom etayotgan yangidan-yangi islohotlar yurtimizda iqtidorli va ilmiy salohiyati yuqori yoshlarning ko'plab yetishib chiqishiga zamin yaratadi.

Ko'hna moziy guvohki, dunyoni doimo g'oyalar boshqargan. G'oyalar esa mudom bilim, tafakkur va aql kuchiga suyangan. Bugungi rivojlanish shiddati tez, ilm ufqlari kengayib borayotgan zamonda, qolaversa, axborot vositalari taraqqiy etgan davrda g'oyalar uchun kurash ham birmuncha murakkabliklar hamda o'tkir fasohatni talab qilishi tayin.

Ammo insoniyat o'z tabiatiga ko'ra, baribir bir ezgu g'oyaga muhtojlik sezib yashaydi. Shu ma'noda, bugun yangi O'zbekiston tarixi zarvaraqlariga bitilayotgan bir jumla — "Uchinchi Renessans" tagmatnida ana shunday ulug' bir ezgulikni, buyuk bir kuchni anglash mumkin. Zero, renessans — uyg'onish demakdir. Ya'ni ilmiy uyg'onish, ma'rifatni anglash va shu asnoda asrlarga teng yillarni lahzalarda bosib o'tmoq demakdir. Bu jarayonni boshlab berish, uning poydevorini qo'yish esa kamdan-kam insonlarga nasib etgan. Buning uchun, avvalo, Alloh bergan inoyat, so'ngra millatni sevish, samimiy insonparvarlik tuyg'usi mujassam bo'lmog'i darkor insonda. Va shu o'rinda o'tmishda yurtimiz zaminida bo'lib otgan Ilk Uyg'onish „Birinchi“ va „Ikkinchi“ uyg'onish davrlarini ham eslab o'tmaslikning also iloji yo'q.

IX-XII asrlar Movarounnahr xalqlari tarixida moddiy va ma'naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksalish yillari bo'ldi. Bu davrda Movarounnahrda ilm-fan yuksaldi, hozirgi zamon fanining ko'plab tarmoqlari va yo'nalishlariga chinakam poydevor yaratildi. Xususan, matematika, algebra, astronomiya, tibbiyot, geologiya, geodeziya, geografiya, falsafa singari dunyoviy fanlarning tamal toshi tom ma'noda shu davrda qo'yildi. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo va Xurosondagi madaniy hayot, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlar, ilm-fan, adabiyot va san'at sohalarida yuz bergan yuksalish ya'ni ilk Uyg'onish haqidagi qimmatli ma'lumotlar ko'pgina manbalarda va boy ma'naviy merosimizni o'rganishga bag'ishlangan ijodiy ishlarda har tomonlama keng sharhlab berilgan. Ilm-fan, madaniyat va san'atda o'ziga xos o'zgarishlar yasagan qomusiy bilim sohiblari, olim, fozil va barkamol shaxslar yashagan ilk o'rta asrlar zamoni Sharq Uyg'onish davri nomi bilan ma'lum.

IX-X asrlarga kelib Movarounnahr hududida mustaqil davlatlarning tashkil topishi ularda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va madaniy hayotning ravnaqiga katta ta'sir ko'rsata boshladi. Buxoro, Samarqand, Gurganj va Marv kabi shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida shakllanib, rivojlanish yo'liga kirdi. X asr oxirlarida Xorazmda ham xorazmshoh Ma'mun davrida (995-997) „Donishmandlar uyi“ -Ma'mun akademiyasi (Xorazm akademiyasi) tashkil topdi. Bu ta'lim o'chog'ida Sharqning mashhur va ma'lum olim-u allomalari tahsil olishgan. Ular orasida Ahmad Farg'oniy, Al-Xorazmiy, Beruniy, ibn Sino va boshqa buyuk allomalarning nomlari bor.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783,Xiva-850,Bag'dod) Abu Ja'far (Abu Abdulloh) Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy - O'rta Osiyolik buyuk matematik, astronom, geograf, fan tarixidagi ilk qomusiy olimlardan. Dastlabki ma'lumotni Xiva shahrida olgan va yetuk olim bo'lib shakllangan. Bunda arab istilosidan so'ng muayyan darajada saqlanib qolgan qadimgi Xorazm fani an'analari asosiy rol o'ynagan. Bag'doddagi "Bayt ul hikma"da mudir sifatida uzoq yillar faoliyat olib bordi. 20 dan ortiq asarlar yozganligi haqida ma'lumotlar bor. Afsuski, ulardan faqat 10 tasigina saqlanib qolgan. Bular "Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob"-algebraik asar, "Hisob al-Hind"("Hind hisobi haqida") yoki "Qo'shish va ayirish haqida kitob"-arifmetik asar, "Kitob surat ul-arz"("Yer surati haqida kitob")-

geografiyaga oid asar. Astronomiyaga oid asarlari: "Zij" ("Astronomik jadval"), "Kitab al-Amal bil Usturlabat" ("Usturlab bilan ishlash haqida kitob"), "Quyosh soati haqida risola". Tarixga oid asarlari: "Kitob at-tarix", "Yahudiylarning taqvim va bayramlarini aniqlash haqida risola". "Zij" o`rta asrlar fanidagi astronomiyaga oid dastlabki asar bo`lib, 37 bobdan iborat va 116 ta jadvalni o`z ichiga oladi. "Zij" da birinchi marta tangens funksiyasi kiritilgan. Al-Xorazmiy "Zij"i nazariy astronomiya va astronomik jadvallardan iborat bo`lgan.

Beruniy ya'ni Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad - ulug` o`zbek mutafakkir olimi, o`rta asrning buyuk daholaridan. O`z zamonasining hamma fanlarini, birinchi navbatda falakiyot (astronomiya), fizika, riyoziyot (matematika), ilohiyot, ma'dansunoslik fanlarini puxta egallagan. U Urganch shahridan 120 km naridagi qadimgi janubiy Xorazmning poytaxti Kot (hozirgi Beruniy) da 973-yil 4-sentabrda tavallud topgan. Yoshligidanoq bilim olishga qiziqishi kuchli bo`lgan. Mashhur olim Abu Nasr Ibn Iroq Mansur qo`lida ta'lim oladi. Ibn Iroq falakiyot va riyoziyotga oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bag`ishlaydi. Beruniy ona tilidan tashqari yana bir qancha tillarni: arab, so`g`diy, fors, surroniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini, keyinchalik Hindistonda sanskrit tilini o`rganadi. 17 yoshidan Kotda mustaqil izlanishlar olib borgan. O`shanda u Kotning geografik kengligini o`lchadi. 994-yil 21 yoshligida, ekliptika tekisligining ekvatorga qanchalik qiyaligini o`lchab berdi, dunyoda birinchilardan bo`lib yer shari yarim globusini ixtiro qildi. Uning oxirgi asari - "Kitob saydana fi-t-tibb" (Dorivor o`simliklar haqida kitob) qo`lyozmasi XX asrning 30-yillarida Turkiyada topildi. Asar "Saydana" nomi bilan mashhur bo`lib, Sharq xususan, Markaziy Osiyoda o`sadigan dorivor o`simliklarning to`la tavsifi berilgan.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini O`rta asr sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk mutafakkirlardan biri Ibn Sinodir (980-1037). Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Sino - butun dunyoda tibbiyot ilmi yuksalishiga asos soldi, uning "Tib qonunlari", "Najot kitobi" asrlar davomida Sharq, G`arb mamlakatlarida tibbiyot qomusi sifatida tan olinib, o`quv qo`llanmasi vazifasini o`tab kelgan. Ibn Sino asarlari bizning davrimizda ham qayta nashr qilib borilishi ularning bugungi kunda ham o`z qimmatini yo`qotmaganligidan dalolat beradi. U Yevropada "Avitsenna" nomi bilan mashhur. Hijriy 370, milodiy 980-yilning safar oyida Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog`ida amaldor oilasida tug`ildi. Ibn Sinoning otasi Abdulloh Balx shahridan bo`lib, Somoniylar hukmdori Nuh ibn Mansur (967-997) davrida Buxoro tomoniga ko`chib, Xurmaysan qishlog`iga moliya amaldori etib tayinlanadi. Boshlang`ich ta'limotni otasidan, yuqori ilmlarni esa Notiliydan olgan. Ibn Sinoning tib ilmida mahoratga erishishida buxorolik bir tabib Abu Mansur al-Hasan ibn Nuh al-Kumriyning xizmati katta bo`lgan. Mashhur asar "Tib qonunlari" o`zining asosiy darslik va qo`llanma sifatida qimmatini 500 yildan ortiqroq vaqtgacha saqlab qoldi. U o`z ijodi bilan Markaziy Osiyo, Yaqin va O`rta Sharq mamalakatlaridagi yuqori madaniy ko`tarinkilik, madaniy uyg`onishning ma'naviy yutuqlarini mujassamlashtira oldi, bu bilan butun Sharq va Yevropadagi ma'rifat, madaniyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko`rsatdi.

Amir Temur va temuriylar davrida (XIV asrning ikkinchi yarmi-XV asr) Movarounnahr va Xuroson - O`rta Osiyo madaniy hayotida juda katta yuksalish ro`y berdi. Bu davr o`z mohiyati bilan Sharq renessansining, uyg`onish davrining o`ziga xos bosqichi bo`ldi. Bu davrda madaniy hayotning kuchayish darajasi IX-XII asrlar orasidagi ilk musulmon renessansidan qolishmaydi. Amir Temur o`z mamlakatining ilm-u urfon, madaniyat va san`at ahliga xorijiy ellardan ko`plab kasb-hunar ahllarini, me`mor-u naqqoshlarini, olim-u fozillarini oldirib kelib, ularga qulay shart-sharoitlar yaratib berib, ularning bilimi, tajribasi va iste`dodini ishga solib, hayratomuz ulug`vor bunyodkorlik va ijodkorlik ishlarini ro`yobga chiqardi. Ko`plab Temuriy hukmdorlar katta-kichik shoirlarga homiylik qilganlar, iste`dodli qalamkashlarni parvarishlaganlar. Shuning uchun, ham temuriylar davri o`zbek va fors adabiyoti rivojida muhim bosqich hisoblanadi.

Dunyo astronomiya fani taraqqiyotida o`rta asr Sharq astronomiyasi, jumladan, Markaziy Osiyo olimlarining faoliyati alohida o`rin tutadi. Bu davrda, ayniqsa, quyosh, oy va sayyoralarning harakat nazariyasi, amaliy astronomiyaning vaqt va joyning geografik koordinatalarini aniqlashga doir masalalari bo`yicha O`rta Osiyo, xususan, o`zbek allomalari juda boy meros qoldirdilar. Salkam yetti asr davom etgan Sharq astronomiyasining jo`shqin faoliyati Ulug`bek akademiyasining boy ilmiy merosi bilan yakunlandi. Mazkur rasadxona ishga tushirilganda uning bosh "teleskop" ining aniqlik darajasi atigi bir necha yoy sekundigacha borib, to optik teleskoplar ixtiro qilingan XVII asrga qadar uning samaralari o`rta asr astronomlari uchun astronomik kuzatishlarda erishilgan rekord natija bo`lib xizmat qildi. Ulug`bek astronomiya maktabi vakillarining tadqiqotlari natijasi bo`lgan buyuk meros - "Ziji Jadidi Ko`ragoniy" dan keying yuz yillar mobaynida faqat Sharq emas, balki G`arb mamlakatlari ko`pgina yirik rasadxonalarining olimlari dasturulamal sifatida keng foydalandilar. Rasadxonada o`sha davrning iste`dodli vakillari Qozizoda Rumi, G`iyosiddin Jamshid Koshoniy, Ali Qushchi, Ma`munuddin Koshifiy kabi astronom va matematiklar kuzatish ishlarini olib bordilar. Shuningdek, Ulug`bek farmoni bilan bunyod etilgan Samarqand, Buxoro, G`ijduvon shaharlaridagi madrasalarda Qur`on, hadis, tafsir, fiqh (din va shariat qonun-qoidalari), riyoziyot (matematika), handasa (geometriya), jo`g`rofiya (geografiya), ilmu aruz, arab tili kabi dunyoviy ilmlar ham o`qitildi. Ulug`bek akademiyasida dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan 100 dan ortiq olim faoliyat ko`rsatdi. Mashhur "Ziji Ko`ragoniy" 1437-yilda Ulug`bek rasadxonasida yaratilgan.

Sharq allomalari ilmiy merosi umumjahon-insoniyat tarixining ajralmas qismi hisoblanib, u olamshumul voqealiklarga juda boy. Asrlar davomida ularning asarlari o`z ahamiyatini shu bugungacha yo`qotmay kelmoqda. Allomalarimizning qoldirgan buyuk merosi hozirgacha dunyo ilm-fan rivojida qo`llanilib kelinmoqda. Ayniqsa bugungi kunda ta`lim-tarbiya tizimida allomalarning qoldirgan nodir asarlaridan keng o`rinda foydalanib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda ulug`niyatlar bilan poydevori qo`yilayotan yangi uyg`onish davrining yorqin sahifalariga boy buyuk tarixi yaratilmoqda va bu olamshumul, samaralivoqea-hodisalarga to`la davr kelgusi avlodlarga munosin meros qoldirishi shak-shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1. .R.Shamsutdinov,H.Mo`minov.O`zbekiston tarixi.Toshkent „Ochun“. 2021. 400 b.
2. A.S.Sagdullayev.O`zbekiston tarixi I kitob.Toshkent „Fan“.2018. 510 b.
3. T.Xatamov. Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi. Toshkent “Ijod-Press”. 2020. 350 b.
4. Ne`matulla Nasrullayev va mualliflar jamoasi. Movarounnahrda islom madaniyati tarixi. Toshkent “Mahalla va oila “. 2023. 524 b.
5. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tizimi-va-yangicha-yondashuvlar>
6. <https://www.uzdon.uz/uz/content/interactive/incoterms/>
7. <https://www.spot.uz/oz/2023/08/28/school-education/>
8. <https://xs.uz/uz/post/uchinchi-renessans-pojdevori-insonparvarlik-va-ilm-marifat-asosiga-tiklanmoqda>

YOSHLARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA MEDITA'LIMNING O'ZIGA XOS JIHLTLARI

Ismoilov N.B. ¹

*¹Termiz davlat pedagogika instituti
“Falsafa va ma’naviyat asoslari” kafedrasida o‘qituvchisi
Renessans ta’lim Universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: najmiddin11@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar ma’naviy tarbiyasida mediata’limning ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, yosh avlodni turli axborot xurujlaridan saqlashda mediata’lim imkoniyatlari, mediamakonda to’g’ri harakat qilish qoidalari borasida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so’zlar: mediata’lim, mediamakon, ta’lim, tarbiya, yoshlar, maktab ta’limi, axborot, globallashuv.

XXI asr insoniyat tarixida internet asri nomi bilan mashhur bo‘lib, ushbu asrning uzigina xos xususiyati, eng avvalo axborot almashish jarayonining shiddatli darajada tezlashishi, axborot yetkazish imkoniyatlarining misli ko‘rilmagan darajada yuksalishi bilan xarakterlanadi.

Insoniyat o‘z tarixida bir qancha informasion inqiloblarning guvohi bo‘lgan bo‘lsada, hech bir inqilob insoniyat hayotini internet kabi o‘zgartirib yubormagan. Ta’kidlab o‘tish joizki, bugungi kunda media makon insoniyatning turmush darajasi yaxshilashishiga muhim hissa qo‘shmoqda. Ilm ahliga bepoyon bilimlar manbaini taklif etmoqda. Shu bilan bir qatorda, yoshlar ma’naviy tarbiyasiga salbiy ta’sir qiladigan, ularni yo‘ldan adashtiradigan axborot xurujlari, mafkuraviy tahdidlar ham oshib bormoqda.

Ayniqsa, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanuvchi, din niqobidagi turli ekstremistik, terroristik oqimlar, aqidaparastlikka asoslangan firqalar o‘zlarining

destruktiv g'oyalarini targ'ib qilish va yangi tarafdorlarni topish maqsadida mediamakonda asosiy ov maydoni sifatida foydalanmoqda. Shu nuqtai nazardan, hozirgi globallashuv davrida yoshlar ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishda, ularni turli axborot xurujlaridan asrashda mediata'limning o'rni beqiyos hisoblanadi. 2022 yil 28 yanvarda qabul qilingan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ham ushbu masalaga alohida ahamiyat qaratilgan bo'lib, yangi ma'naviy makonni yaratishda, "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirishda ma'naviy tarbiyaning ahamiyati, mediata'limning o'rni ko'rsatib berilgan.

E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, Finlyandiya, Norvegiya va boshqa bir qator ta'lim sohasidagi dunyoning yetakchi mamlakatlarida maktab davridan boshlab yosh avlodga mediata'lim bo'yicha darslar joriy etilgan bo'lib, bu jarayon uzluksiz tarzda davom ettiriladi.

Bugungi kunda nafaqat maktab yoshidagi bolalar, balki bog'cha yoshidagi bolalar ham raqamli dunyoda ko'p vaqt o'tkazishadi, shuning uchun zamonaviy o'quv jarayoni muqarrar ravishda multimedia texnologiyalari bilan bog'liq. Ta'lim tizimiga barcha turdagi texnologik vositalarni joriy etishning nihoyatda tez o'sishiga, 2019 yilda butun dunyoda keng tarqalgan koronavirus pandemiyasi ham katta ta'sir ko'rsatdi. [2].

Bugun farzandlarimizning tarbiyasi, bilim olishi, ijtimoiy moslashuvida ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyos. Ularning bolalar shaxsiyatini shakllantirishga ta'siri shunchalik kattaki, biz ommaviy axborot vositalarini "parallel maktab" deb atashimiz mumkin. Ommaviy axborot vositalarining ta'lim va tarbiyaviy ta'sirini tan olgan holda, uni an'anaviy pedagogikaning ta'siridan allaqachon oshib ketganligini ham taxmin qilish mumkin.

Media-ta'limning maqsadi - kerakli ma'lumotlarni tezkor izlash, muloqot qobiliyatini rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va individual qadriyatlar yo'nalishini shakllantirishdan iboratdir. Buning zaruriy sharti - o'qituvchi, bola va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi uch tomonlama aloqadir. O'sib borayotgan shaxsning shakllanishiga ommaviy axborot vositalarining ta'siriga bir tomonlama baho berish mumkin emas: bu ta'sir ijobiy va salbiy ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. [3].

Masalan, Internetda ta'lim va tarbiya uchun juda ko'p foydali dasturlar, o'quv o'yinlari, testlar, mashqlar mavjud va o'qituvchilar, tarbiyachilar hamda ota-onalar uchun bo'limlar mavjud. Siz bolalarni maktablarda, bolalar bog'chalarida o'qitish, o'quv jarayonini tashkil etish, tajriba almashish, maslahatlar olish va hokazo bo'yicha har qanday foydali ma'lumotlarni mediamakon orqali olishingiz mumkin. Bu imkoniyatlar cheksizdir. Bolalar erta yoshdan boshlab Internetdan faol foydalana boshlaydilar. Ma'lumotni qidirish osonroq, har qanday masofadagi odamlar bilan aloqa qilish vaqti qisqaradi: inson psixologiyasi shunday yaratilganki, biz eng kam qarshilik yo'lidan borishga harakat qilamiz. Natijada kitoblar va teatrlar orqa fonga o'tib ketadi, ba'zilar esa, qanchalik qayg'uli bo'lmasin, real hayotdan butunlay chiqib ketadi. [4].

Ammo yana bir muhim muammo bor – bugungi kunda bolalar Internetga qaramlik xavfi ostida. Shu bois, ota-onalar va o'qituvchilar bu jarayonning

o'zboshimchalik bilan davom etishiga yo'l qo'ymasliklari, bu eng kuchli ta'sir vositasini diqqat bilan kuzatib borishlari, ijobiy va samarali ta'limiy-tarbiyaviy vositaga aylanishi uchun uni to'g'ri yo'naltirishlari juda muhim.

Aytish kerakki, media-ta'lim pedagogikaning ancha yangi tarmog'idir. Jamiyat rivojlanmoqda, ta'lim va ta'lim tizimiga yangi talablar qo'yilmoqda. Turli manbalarda berilgan sinfdan tashqari ma'lumotlarning xilma-xilligini yagona bilim tizimiga birlashtirish zarur. Muammo shundaki, ommaviy kommunikatsiya tarmoqlarida ma'lumotni tarqatishning mazmuni va usullari amalda nazorat qilinmaydi, shuning uchun bola bu axborot betartibligini tartibga solishni o'rganishi kerak. Axborot oqimi doimiy ravishda o'sib bormoqda.

Zamonaviy bola maktabga kirganida, u allaqachon kompyuter, televizor, video va mobil texnologiyalar bilan muloqot qilishda yetarli tajribaga ega. Shu bilan bir qatorda, u ko'pincha olingan ma'lumotlarni tanqidiy baholash qobiliyatiga ega emas. Shu nuqtai nazardan, o'qituvchi va tarbiyachilar birinchi navbatda, mediasavodxonlikni o'zlashtirishni bola uchun qiziqarli mashg'ulotga aylantirishga harakat qilishi kerak. Buning uchun qiziqarli tanlovlar, o'yinlar, viktorinalar, tanlovlar, olimpiadalarni tashkil etish o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi va ularga media olamini o'zlashtirishda ilk qadamlarini qo'yishga ko'maklashadi. O'yin faoliyati diqqat, xotira, fikrlash, zukkolik va boshqalarni rivojlantirishga yordam beradi. [3].

Shuni ham ta'kidlash kerakki, ko'plab o'yinlar, tanlovlar, ijodiy topshiriqlar va mashqlar turli xil va janrdagi media matnlarni muhokama qilish (tahlil qilish) elementlarini o'z ichiga oladi. Media matnni tahlil qilish qobiliyati mediasavodxonlikning eng muhim jihatlaridan biridir. Film, maqola yoki teledastur bilan ishlashda bolalarning manfaatlarini hisobga olish kerak, shunda tanlangan media matn foydali, ibratli bo'lib, eng yaxshi his-tuyg'ular va aqlli fikrlarni uyg'otadi. Shuning uchun media matnni avvalo o'qituvchi qayta ishlashi va o'rganishi kerak. Media ijodkorligi jarayonida mediamakon bilan bog'liq juda ko'p qiziqarli tadbirlarni o'ylab topish mumkin. [2].

Umuman olganda, bolalarda media savodxonligini rivojlantirish bo'yicha faoliyatning yo'nalishlari son-sanoqsizdir. Bolalarning mediasavodxonligiga munosib e'tibor qaratish lozim. Farzandlarimiz nimani va qanday tomosha qilishlari, nima qilishlari, nima o'ylashlari va mulohaza yuritishlari shu bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy jamiyatda kerakli ma'lumotlarni topish, uni filtrlash, tahlil qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyati ushbu ma'lumotga ega bo'lishdan ko'ra qimmatroq bo'ladi. Biz zamonaviy bolalarni televideniye, radio va internetdan himoya qila olmaymiz, lekin biz ularga axborotdan to'g'ri foydalanishni o'rgatishimiz kerak. Bu ilmiy-texnika taraqqiyoti natijasida yaratilgan zamonaviy voqelik bo'lib, o'qituvchilar va ota-onalar, bolalarga betartib axborot dunyosida harakat qilishlariga ko'mak berishlari va shu orqali ularning ma'naviy tarbiyasiga samarali ta'sir ko'rsatishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada

- rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida'gi PQ-2909-sonli Qarori. – Toshkent, 2017 yil 21 aprel. Manba: <http://press-servis.uz>.4.
- Literacy in the Information Age. New Brunswick & London: Transaction Publishers, p.2.
 - Галиская, И. А. Понятие «духовно-нравственное воспитание» в современной педагогической теории и практике [Текст] / И. А. Галиская, И. В. Метлик // Педагогика. – 2009.– №10.– С. 36-45.
 - Словар терминов по медиаобразованию, медиапедагогике, медиаграмотности, медиакомпетентности [Текст] / под ред. А. В. Федорова. – Таганрог : Изд-во Таганрог. гос. пед. ин-та. – 2010. – 63 с.
 - Эволюция медиа. [Электронный ресурс]: Режим доступа: <http://www.journ.msu.ru/about/news/27950/> (Дата обращения: 21.03.2022 г.)

ADVANCING SOCIETY THROUGH REFORMS IN EDUCATION, SCIENCE, AND INNOVATION

Dildora Mukhammadjonova¹

¹Student of UzSWLU, Uzbekistan

E-mail: dildoramukhammadjonova1@gmail.com

Abstract:

This academic article delves into the specific aspects of reforms in the educational system, science, and innovation, emphasizing their critical role in societal advancement. By addressing key areas such as curriculum development, research infrastructure, and innovation policies, countries can foster growth and development. The article highlights the importance of collaboration among stakeholders to ensure the successful implementation of these reforms and offers recommendations for sustainable progress in education, science, and innovation.

Keywords:

Curriculum Development, Interdisciplinary Collaboration, Innovation Culture, Supportive Policies, collaboration, Startup Support

Reforms in the educational system, science, and innovation play a pivotal role in driving progress and development in modern societies. These reforms are essential for enhancing the quality of education, promoting scientific research and discovery, and fostering innovation and creativity. By investing in these areas, countries can build a knowledge-based economy and improve the overall well-being of their citizens. Uzbekistan, for example, is paying attention to reforms in education and other sectors through its 2030 strategy.

Education is the cornerstone of societal development, and reforms in the educational system are crucial for preparing individuals for the challenges of the 21st century. Specific aspects of educational reforms include:

- **Curriculum Development:** Updating curricula to meet the needs of a rapidly changing world is essential. Incorporating subjects such as technology, sustainability, and critical thinking can better prepare students for the future workforce.

- **Teacher Training:** Enhancing teacher training and professional development programs can improve teaching quality and student outcomes. Continuous learning opportunities for educators are essential to keep pace with evolving pedagogical practices.

- **Access and Equity:** Addressing issues of access and equity in education is vital to ensure that all students, regardless of background or socioeconomic status, have equal opportunities to learn and succeed. Initiatives such as scholarship programs and inclusive education policies can help bridge the gap.

- **Lifelong Learning:** Promoting lifelong learning and skills development is critical in a rapidly changing world. Encouraging individuals to acquire new skills throughout their lives can enhance their employability and adaptability to changing job markets.

Scientific research and innovation are key drivers of progress and prosperity. Reforms in the field of science aim to promote discovery, collaboration, and application of knowledge. Specific aspects of science reforms include:

- **Research Infrastructure:** Investing in state-of-the-art research facilities and equipment is essential to support scientific discovery. Access to cutting-edge technology can accelerate research progress and attract top talent.

- **Interdisciplinary Collaboration:** Encouraging interdisciplinary research collaborations can address complex societal challenges that require expertise from multiple fields. Collaborative efforts between scientists, engineers, and social scientists can lead to innovative solutions.

- **Public-Private Partnerships:** Fostering partnerships between academia, industry, and government can facilitate the translation of scientific discoveries into practical applications. Collaborative projects that bridge the gap between research and industry can drive economic growth.

- **Innovation Culture:** Cultivating a culture of innovation and entrepreneurship among scientists and researchers is crucial for maximizing the impact of scientific discoveries. Encouraging risk-taking, creativity, and commercialization of research outcomes can spur technological advancements.

Innovation is a catalyst for economic growth and competitiveness. Reforms in the field of innovation focus on creating an enabling environment for entrepreneurship and creativity. Specific aspects of innovation reforms include:

- **Supportive Policies:** Developing policies and regulations that support innovation and entrepreneurship is essential for creating a conducive business environment. Streamlining regulatory processes and providing incentives for innovation can attract investment and talent.

- **Technology Transfer:** Investing in technology transfer offices within research institutions can facilitate the commercialization of research outcomes. These offices play a crucial role in licensing intellectual property, forming partnerships with industry, and supporting startups.

- Collaboration: Promoting collaboration between academia, industry, and government is key to driving innovation. Multi-stakeholder partnerships can leverage diverse expertise, resources, and networks to accelerate the development and adoption of innovative solutions.

- Startup Support: Supporting startups and small businesses through funding opportunities, mentorship programs, and incubation centers can nurture entrepreneurial talent and foster innovation ecosystems. Providing access to capital and business support services can help startups scale up and succeed.

In conclusion, reforms in the educational system, science, and innovation are essential for advancing society and achieving sustainable development. I think that Uzbekistan can achieve great achievements not only in the field of education but also in other fields through development strategies. By focusing on key areas such as curriculum development, research infrastructure, and innovation policies, countries can create an environment conducive to growth and prosperity. It is imperative that stakeholders collaborate effectively to implement these reforms and ensure their long-term success. By investing in education, science, and innovation, societies can unlock their full potential and drive progress towards a brighter future.

References:

1. Smith, J. (2021). Advancing Education: A Comprehensive Approach to Educational Reform.

2. Johnson, A. (2020). Innovating for Impact: Strategies for Driving Innovation in Science and Technology.

3. Brown, L. (2019). Building a Culture of Innovation: Best Practices for Fostering Creativity in Organizations.

O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDA PISA TESTINING ISTIQBOLLARI

Odilova Maxliyoxon Doniyorjon qizi¹

¹Qo‘qon Universiteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

odilovamaxliyo04@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston ta‘lim tizimi doirasida Xalqaro talabalarni baholash dasturini (PISA) amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi va oqibatlari baholanadi. U potentsial imtiyozlarni o‘rganadi, jumladan, talabalar samaradorligini taqqoslash va dalillarga asoslangan siyosat qarorlarini xabardor qilish, shuningdek, madaniy moslashuv va logistika cheklovlari kabi muammolar. Ushbu muammolarni strategik jihatdan yechish orqali O‘zbekiston ta‘lim tizimini isloh qilish va global

raqobatbardoshligini oshirish uchun PISA testidan foydalanishi mumkin. Oxir oqibat, PISA muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi O‘zbekistonni ta’lim sohasidagi ilg‘orlik va xalqaro e’tirofga olib chiqish salohiyatiga ega.

Kalit so‘zlar: PISA testi, ta’lim tizimi, O‘zbekiston, xalqaro baholashlar, talabalar faoliyati, global raqobatbardoshlik, dalillarga asoslangan siyosat, ta’lim islohoti.

Kirish

So‘nggi o‘n yilliklarda Xalqaro talabalarni baholash dasturi (PISA) butun dunyo bo‘ylab ta’lim tizimlarini baholash va taqqoslash uchun asosiy vosita sifatida paydo bo‘ldi. O‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiatshunoslik kabi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha kompetentsiyalarini har tomonlama baholash orqali PISA milliy ta’lim tizimlarining kuchli va zaif tomonlari haqida qimmatli fikrlarni taqdim etadi. O‘zbekiston kabi ta’lim sohasida jiddiy islohotlarni amalga oshirayotgan va global raqobatbardoshligini oshirishga intilayotgan mamlakatlar uchun PISA testlarini o‘z ta’lim tizimiga integratsiyalash istiqbollari ham imkoniyatlar, ham muammolarni keltirib chiqaradi.

Markaziy Osiyoning boy madaniy merosiga ega davlati va aholi o‘sib borayotgan yosh O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining poydevori sifatida ta’lim-tarbiyani rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratgan. So‘nggi yillarda hukumat tomonidan ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quv dasturlari standartlarini takomillashtirish va o‘qitish metodologiyasida innovatsiyalarni rag‘batlantirishga qaratilgan ulkan islohotlar amalga oshirildi. Biroq, O‘zbekiston o‘z ta’lim tizimini xalqaro standartlar va ilg‘or tajribalarga moslashtirishga intilayotgani sari PISA kabi tashqi baholashlarning roli tobora ortib bormoqda.

Ushbu maqola PISA testini O‘zbekiston ta’lim landshaftiga integratsiyalash istiqbollari o‘rganishga qaratilgan. U PISA baholashlarida ishtirok etishning potentsial afzalliklarini, jumladan, talabalar faoliyatini jahon standartlari bilan taqqoslash, yaxshilanishi kerak bo‘lgan yo‘nalishlarni aniqlash va dalillarga asoslangan siyosat qarorlarini xabardor qilish imkoniyatini o‘rganadi. Bundan tashqari, maqolada PISA testini qabul qilish bilan bog‘liq muammolar va mulohazalar, jumladan, madaniy nuanslar, logistika cheklovlari va mahalliy ta’lim ustuvorliklari va qadriyatlariga muvofiqlikni ta’minlash ko‘rib chiqiladi.

PISA testining O‘zbekiston ta’lim tizimiga ta’sirini tanqidiy baholagan holda, ushbu maqola manfaatdor tomonlarga, jumladan, siyosatchilar, o‘qituvchilar va tadqiqotchilarga ta’lim islohotlarini amalga oshirish uchun xalqaro baholashdan foydalanishga xos imkoniyatlar va muammolar haqida qimmatli tushunchalar berishga qaratilgan. Oxir oqibat, ma’lumotli nutq va strategik rejalashtirish orqali O‘zbekiston o‘z ta’lim tizimining sifati va samaradorligini oshirish uchun PISA testi imkoniyatlaridan foydalanishi, shu orqali yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirishi va XXI asrda milliy taraqqiyotni rag‘batlantirishi mumkin.

Asosiy qism

Xalqaro baholashlarni, xususan, Xalqaro talabalarni baholash dasturini (PISA) milliy ta'lim tizimlariga integratsiyalash tobora keng tarqalgan bo'lib, mamlakatlar o'zlarining ta'lim natijalarini global kontekstda baholash va yaxshilashga intilmoqda. Ta'lim sohasida jiddiy islohotlar amalga oshirilayotgan O'zbekiston uchun PISA testini o'tkazish istiqbollari diqqat bilan ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan imkoniyatlar va muammolarni ham taqdim etadi.

O'zbekiston ta'lim sohasini rivojlantirishga intilayotgani so'nggi paytlarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan islohotlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu islohotlar o'quv dasturlari standartlarini takomillashtirish, o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish va o'qitish metodologiyasida innovatsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan. Biroq, bunday sa'y-harakatlarga qaramay, O'zbekiston ta'lim sohasida mukammallikka erishish va global raqobatbardoshlikka erishish yo'lida muammolarga duch kelmoqda.

PISA testida qatnashish O'zbekistonga bir qancha potentsial imtiyozlarni beradi. Birinchidan, u o'qish, matematika va tabiatshunoslik kabi asosiy akademik sohalarda talabalarning samaradorligini ob'ektiv o'lchashni ta'minlaydi. O'zbekistonlik o'quvchilarning boshqa mamlakatlardagi tengdoshlari bilan taqqoslash orqali PISA natijalari O'zbekiston ta'lim tizimining kuchli va zaif tomonlarini ajratib ko'rsatishi mumkin. Ushbu ma'lumotlarga asoslangan yondashuv siyosatchilarga talabalar natijalarini yaxshilashga qaratilgan resurslarni taqsimlash, o'quv dasturlarini ishlab chiqish va o'qituvchilarni tayyorlash tashabbuslari bo'yicha ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, PISAda ishtirok etish O'zbekistonning xalqaro obro'sini oshirishi va jahon ta'lim hamjamiyatiga integratsiyalashuviga hissa qo'shishi mumkin. O'zbekiston o'z ta'lim amaliyotini xalqaro standartlarga moslashtirish orqali boshqa davlatlar bilan hamkorlikni osonlashtirishi, ilg'or tajriba almashishi va ta'limni rivojlantirish uchun qimmatli manbalardan foydalanishi mumkin. Bundan tashqari, PISA natijalari o'zgarishlar zarurligi to'g'risida xabardorlikni oshirish va manfaatdor tomonlarni harakatga jalb qilish orqali ta'lim islohoti uchun katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Biroq, PISA testining O'zbekistonda joriy etilishi o'z muammolaridan xoli emas. Baholashning o'zbek talabalari uchun madaniy va lingvistik jihatdan mos kelishini ta'minlash asosiy tashvishlardan biridir. O'zbekistonning rang-barang madaniy va lingvistik landshafti talabalarning qobiliyatlari va tajribalarini to'g'ri aks ettiruvchi standartlashtirilgan testlarni ishlab chiqish va qo'llashda o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, PISA testini amalga oshirish bilan bog'liq logistika muammolari, jumladan, tegishli infratuzilma, o'qitilgan xodimlar va ishonchli ma'lumotlarni yig'ish jarayonlariga bo'lgan ehtiyoj mavjud.

Yana bir e'tibor standartlashtirilgan test sinovlarining O'zbekistondagi umumiy ta'lim sifatiga ta'siridir. PISA testi o'quvchilarning asosiy o'quv fanlari bo'yicha ishlashi haqida qimmatli tushunchalarni taqdim etsa-da, standartlashtirilgan testlarga haddan tashqari e'tibor berish o'quv rejasining torayishi, sinovdan

o‘tmagan fanlar bo‘yicha o‘qitish vaqtini qisqartirishi va talabalar va o‘qituvchilarga bosimning kuchayishiga olib kelishi mumkin. imtihonlarda yaxshi natijalarga erishing. Shu sababli, standartlashtirilgan testning afzalliklari va ta’limning kengroq maqsadlari, jumladan, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va ijtimoiy-emotsional rivojlanishni rivojlantirish o‘rtasidagi muvozanatni saqlash juda muhimdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, PISA testining O‘zbekiston ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi ta’lim tizimini isloh qilish, o‘quvchilar natijalarini yaxshilash va global raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim va’da beradi. PISA baholashlarida ishtirok etish orqali O‘zbekiston o‘z ta’lim tizimining kuchli va zaif tomonlari haqida qimmatli tushunchalarga ega bo‘lib, siyosatchilarga dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish va resurslarni yanada samaraliroq taqsimlash imkonini beradi. Bundan tashqari, PISA kabi xalqaro baholashlar bilan hamkorlik boshqa davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantiradi, ilg‘or tajriba almashishga yordam beradi va O‘zbekistonning jahon ta’lim hamjamiyatiga integratsiyalashuviga yordam beradi.

Biroq, O‘zbekistonda PISA testining joriy etilishi ham ehtiyotkorlik bilan harakat qilish kerak bo‘lgan muammolarni keltirib chiqaradi. Madaniy va lingvistik mulohazalar, logistika muammolari va standartlashtirilgan testlarning ta’lim sifatiga ta’siri bilan bog‘liq tashvishlar chuqur e’tibor va strategik rejalashtirishni talab qiladi. PISA baholashlari adolatli, asosli va madaniy jihatdan sezgir bo‘lishi hamda ular tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va ijtimoiy-emotsional rivojlanish kabi kengroq ta’lim maqsadlarini to‘ldirishini ta’minlash muhim.

O‘zbekiston oldinga siljishda, PISA testining afzalliklarini maksimal darajada oshirish va uning qiyinchiliklarini yumshatish uchun manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi hamkorlik va doimiy baholash bilan shug‘ullanishi kerak. Standartlashtirilgan testlarning afzalliklari va ta’limning kengroq maqsadlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash orqali O‘zbekiston XXI asrda ta’lim sohasidagi mukammallikka va milliy taraqqiyotga erishish uchun PISA salohiyatidan foydalanishi mumkin.

Oxir oqibat, O‘zbekistonda PISA testini o‘tkazish istiqbollari istiqbolli, biroq muvaffaqiyat mamlakatning baholashdan olingan tushunchalarni mazmunli islohotlarni amalga oshirish va o‘quvchilarga tobora o‘zaro bog‘langan va raqobatdosh dunyoda muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini beruvchi ta’lim tizimini yaratish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Fidoyilik, hamkorlik va strategik rejalashtirish bilan O‘zbekiston ta’lim sohasida mukammallikka erishish yo‘lini belgilab berishi va o‘zini global ta’lim sohasida yetakchi o‘ringa qo‘yishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Otto, M., & Thornton, J. (2023). RIVOJLANAYOTGAN VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA BOSHLANG‘ICH TA’LIM SIFATI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 832-833.

2. Maxliyoxon, O., & Sarvinozxon, O. L. (2024). BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA O 'QIB TUSHUNISHNING AHAMIYATI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 21-26.

3. Maxliyoxon, O., & Baxtigul, O. (2024). BADIY O 'QISH VA MATNDA SO 'Z ISHLATISH QOIDALARI. YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(1), 9-12.

4. Akhrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). IMPACT, RESULTS AND CONSEQUENCES OF WTO ACCESSION ON THE EDUCATION SYSTEM. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(1), 6-15.

РОЛЬ КОММУНИКАТИВНОЙ КУЛЬТУРЫ УЧИТЕЛЯ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Бахриева Н.А.¹

*¹Бухарский государственный педагогический институт
доцент кафедры Педагогика
доктор философии в области психологии (PhD)
nbaxriyeva@mail.ru*

Шоназарова М.²

*²Студентка 3-курса направления
Педагогика и психология Бухарского государственного
педагогического института*

Аннотация. Статья посвящена проблеме формирования коммуникативной культуры современного учителя. Представлены существенные характеристики, предпосылки и закономерности формирования коммуникативной культуры будущего учителя в процессе вузовской подготовки.

Ключевые слова: коммуникативная культура, коммуникативная деятельность, профессионально-коммуникативная культура, педагогическая компетентность, педагогический процесс.

Основная характеристика современной образовательной ситуации состоит в поиске путей реализации ведущей идеи модернизации системы образования – идеи развития личности, формирования механизмов развития и саморазвития системы образования, превращение образования в действенный фактор развития общества. Для современного общества совершенствование образования является одним из ведущих условий его прогрессивного развития.

В современных условиях, приоритетные задачи развития Узбекистана направлены на создание всем гражданам возможностей для развития потенциала, воспитание здорового и образованного поколения, формирование сильной экономики и гарантированное обеспечение справедливости, верховенства закона и безопасности. Подтверждением тому является Стратегия «Узбекистан-2030», утвержденная Указом Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года. В Стратегии особо отмечена развития образования.

XXI век объявлен ЮНЕСКО «веком образования». Во всем мире меняются приоритеты образования, определяются общемировые и европейские тенденции его развития и признается ведущее значение гуманитарного образования.

Успешность педагогической деятельности определяется большим количеством факторов. Среди них важное значение имеет успешная коммуникативная деятельность как основа «субъект-субъектных» отношений, сотрудничества и взаимопонимания, как способ самосовершенствования и преодоления личностных кризисов.

Коммуникативная деятельность в самом широком смысле выступает как социальный процесс установления связей и отношений между людьми на основе обмена различными видами деятельности, ее продуктами и результатами, информацией, идеями, ценностями, т.е. является системно-интегративной, что особенно проявляется в образовании и педагогической сфере в целом.

Коммуникативная культура - одно из определяющих свойств человека XXI века, это естественное явление и процесс, она имеет уникальный, всеобъемлющий характер, являясь феноменом планетарного масштаба. Без поисков закономерностей развития коммуникативной культуры эволюция высшего образования невозможна, так как коммуникативная культура занимает ведущее место в общекультурном и профессиональном становлении личности [3].

По определению А.В.Мудрика, коммуникативная культура как компонент профессиональной культуры личности специалиста представляет собой систему знаний, норм, ценностей и образов поведения, принятых в обществе и умение органично, естественно и непринужденно реализовывать их в деловом и эмоциональном общении. В составе коммуникативной культуры он выделяет следующие важные компоненты: психологические особенности личности, включающие общительность, эмпатию, рефлексивность коммуникативной деятельности, саморегуляцию; особенности мышления, выражающиеся в открытости, гибкости, нестандартности ассоциативного ряда и внутреннего плана действий; социальные установки, обуславливающие интерес к самому процессу общения и сотрудничества, а не к результату. Особое внимание он уделяет тому факту, что общение важно не только чтобы получить самому, но и давать другим, указывает на важность сформированности коммуникативных умений [2].

Коммуникативная культура – это культура человеческих взаимоотношений, в основе которой лежит культура личности, включающая следующие личностные характеристики: способности, знания, умения, навыки, ценностные ориентации, установки.

Коммуникативная культура как важнейшая составляющая педагогической компетентности, обеспечивающая педагогу успешность профессиональной деятельности, во многом способствует не только передаче информации, но и созданию благоприятной психологической атмосферы, налаживанию отношений с коллегами или друзьями. Она может быть представлена как активность педагога, направлена на других людей и, прежде всего, на учащихся, их чувства, мотивы, поступки. Коммуникативная деятельность выражается через жесты, мимику, слова и побуждается соответствующими мотивами: познать учащихся как субъектов учебно-познавательной деятельности, осуществить индивидуальное и/или групповое, коллективное взаимодействие, сотрудничество и сотворчество [5].

Эффективности процесса формирования коммуникативной культуры учителя во многом способствует коммуникативная грамотность педагога, умение реализовать принципы партнерства в учебном и внеучебном взаимодействии, поэтому учителя постоянно должны обмениваться опытом работы.

Профессионально-коммуникативная культура формируется также при условии освоения учителем технологической стороны коммуникативного взаимодействия учителя с другими участниками образовательного процесса. Формирование коммуникативной культуры учителя предполагает две целевые установки: с одной стороны, подготовку его к эффективному взаимодействию с учащимися, с другой – подготовку педагога к формированию коммуникативной культуры учащихся [4].

Развитие коммуникативной культуры педагога предполагает три основных направления:

- развитие перцептивных способностей и умений;
- умение общаться в различных ситуациях;
- умение сотрудничать в различных видах деятельности.

Развитие названных аспектов коммуникативной культуры не может идти изолированно. В совокупности они предполагают работу по развитию личности учителя в целом [1].

Развитие перцептивных способностей и умений подразумевает способность и умение правильно воспринимать окружающих людей, например: определять характер, его настроение и внутреннее состояние в конкретной ситуации взаимодействия и, исходя из этого, искать адекватный стиль и тон общения в каждом конкретном случае.

Еще более важно, чтобы учитель владел умением общаться в различных ситуациях (серьезная беседа, праздник), с людьми разного возраста и различной меры близости (ученики, их родители, соседи, знакомые, друзья и т.п.).

Формирование коммуникативной культуры подразумевает большую работу по развитию личности учителя, в частности, развитие у него ряда психических свойств, речи, особенностей мышления, специфически социальных установок и коммуникативных умений. К психическим особенностям, необходимым для развития коммуникативной культуры учителя, относятся потребность в общении, эмпатия, готовность к самоанализу.

Важным условием повышения качества профессионального образования является совершенствование коммуникативной подготовки современных специалистов, особенно специалистов сферы образования.

Коммуникативная культура является инвариантным компонентом целостного педагогического процесса, условием реализации всех функций и задач педагогической деятельности и личностно-профессионального развития педагога. Это определяет общественную, профессиональную и индивидуально-личностную значимость коммуникативной культуры современного учителя.

В заключение следует отметить, что коммуникативная культура учителя как сложноорганизованная социальная и индивидуально-личностная система, как системообразующий компонент общей и профессионально-педагогической культуры. Целенаправленное, системное формирование коммуникативной культуры будущего учителя в процессе вузовской подготовки является приоритетным направлением его профессионально-личностного развития и повышения качества педагогического образования.

Литература

1. Комогорцева И.Ф. Культура педагогического общения. – Калинин: КГУ, 1982. – 73 с.
2. Мудрик А.В. Коммуникативная культура учителя // Мир психологии. – 1996. №3. С.42-45.
3. Новиков А.М. Постиндустриальное образование. – М.: Эгвес, 2008. – 136 с.
4. Петрова Г.И., Балакина Л.Л. Тенденции развития образования в современных условиях // Материалы III научно-практической конференции «Информация и образование: границы коммуникаций», 2009.
5. Филиппова Р.Ф. Коммуникативная культура педагога. – М., 2011.

TA'LIM TIZIMI ISLOHOTLARI, ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR SOHASIDAGI ISLOHOTLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI MASALALARI

Sobirxo'jayev Xadyatillo Billoxon o'g'li¹

Annotatsiya: O'zbekistonda so'nggi yillar davomida Harakatlar strategiyasi doirasida, davlat ta'lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, ta'limdagi muammolarga innovatsion yechimlar taklif etish, sifatli ta'lim-tarbiya berish, yetuk kadrlarni yetishtirib chiqarish bo'yicha sezilarli ishlar bajarildi. Endilikda ushbu dasturilamalning mantiqiy, izchil davomi hisoblangan Taraqqiyot strategiyasida jamiyat va davlat hayotida muhim bo'lgan qator masalalar kabi ta'lim, fan va innovatsiyalarga ham katta e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, ta'lim, ilm-fan, madaniyat, strategiya, rivojlanish, istiqbol, yoshlar, islohotlar.

Har bir davlatning ertangi kuni yoshlarning qay darajada ilmi ekani, zamonaviy ko'nikmalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishi, innovatsion bilimlarni rivojlantira olishi bilan bevosita bog'liq. Shu bois, ta'lim tizimini rivojlantirish masalasiga hukumat darajasida e'tibor qaratilishi har bir davlatning muhim vazifasi hisoblanadi. Bugun taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Shuning uchun ham, O'zbekistonda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmoqda[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o'zining Oliy Majlisga murojaatnomasida mamlakatimizning xalqaro va mintaqaviy iqtisodiy tashkilotlardagi ishtirokini kuchaytirishning ahamiyati xususida alohida aytib o'tdi[2]. Jumladan, mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon ishlab chiqarish tizimiga, dunyo bozori talablariga va iqtisodiy integratsiya jarayonlariga hamohang bo'lishi bozor islohotlarini jadal rivojlantirishga, mamlakatda raqobat muhitini o'stirib, tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishga xizmat qilishi alohida ta'kidlandi va bu yo'lda fuqarolarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish benihoya katta ahamiyatga ega. Chunki taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk, texnikaviy bilimlar va murakkab texnologiyani egallagan, irodasi baquvvat, iymoni butun, zamonaviy fikrlaydigan, yuksak salohiyatli odamlar hal etadi. Shu bois ta'limga katta e'tibor qaratish mamlakat va xalq istiqbolining poydevori bo'lib xizmat qiladi. Prezidentimiz ham o'sha kungi nutqida bot-bot takrorladi: *“Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir”, “Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”*. E'tiborga molik jihati shuki, bu yo'lda qadriyatlarimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini mustahkamlash, uni davr talablari bilan uygunlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga olib chiqish maqsadlariga favqulodda

katta ahamiyat berildi[3]. Jumladan, prezident maktablarida 130 ta mamlakatda ma'qullangan "A-level" ta'lim dasturi yo'lga qo'yilgani o'z samarasini bermoqda. Bu jarayonda har bir o'quvchi o'zining qobiliyatiga qarab, aniq yo'nalishlar bo'yicha chuqur o'qitiladi, dunyoning nufuzli oliygohlariga kirish imkoniyatlari kengayadi. Shularni hisobga olgan holatda, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida prezident maktablari vda ixtisoslashtirilgan maktablarning ta'lim metodikasini barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quv jarayonlariga joriy qilish, 700 ga yaqin nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar va mobil ilovalar yaratish.

Yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun 1 000 ta multimedia dasturlarini yaratish, ta'lim tashkilotlariga har yili 500 nafar "til egalari" bo'lgan xorijiy mutaxassislarni jalb etish rejalashtirilgan [4]. **Bu ishlarni tizimli yo'lga qo'yish, yangi darsliklarni ishlab chiqish, ilg'or ta'lim standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriyalar tashkil qilinishi zarur. Shu bois 5 ta oliy ta'lim muassasasini milliy tadqiqot oliygohlariga aylantirish, fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish uchun 3 trillion so'm mablag' ajratish, fundamental tadqiqot yo'nalishi bo'yicha 8 ta yetakchi xorijiy ilmiy maktablar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, til va adabiyot, tarix, arxeologiya, madaniyat va san'at yo'nalishlaridagi ilmiy dasturlar uchun 2 trillion so'm sarflash ko'zda tutilgan. Umuman mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasiga har yili sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 10-12 foizni tashkil etmoqda. Bu YUNESKOning mamlakatni barqaror rivojlantirishni ta'minlash uchun ta'limga yo'naltirilishi zarur bo'lgan investisiyalar miqdori bo'yicha tegishli tavsiyalaridan, ya'ni 6-7 foizdan qariyb 2 barobar ko'pdir [5]**

Ta'lim tizimida yana bir muhim bosqich bu maktabgacha ta'lim tizimi bo'lib, bolaning maktabgacha ta'lim muassasasida olgan ilk sabog'i, ko'nikmasi, bilimi uning kelajagini belgilaydi. Bu dargohda keyingi ta'lim uchun poydevor qo'yiladi va shaxsiy fazilatlar shakllanadi. Bunda bolaning ijobiy ijtimoiylashuvini psixologik qo'llab-quvvatlanadi, fiziologik va aqliy rivojlanishi uchun ajoyib sharoit yaratiladi, madaniy xususiyat va an'analarni o'rgatiladi, xulq-atvor shakllanishini ta'minlanadi. Biroq, afsuski, O'zbekistonda uzoq yillar ushbu tizimda ham qator kamchiliklar kuzatildi, mavjud sharoitlar pasayib, sifat yomonlashdi, bu esa otionalarning farzandlarini MTM larga yo'naltirish rag'batini pasaytirdi va MTM lar qamrov darajasi keskin tushib ketgan edi. Xususiy va davlat sherikligidagi bog'chalar ochilishi, davlat muassasalariga ham e'tibor qaratilishi bilan sohada raqobat kuchaydi, ijobiy o'sish kuzatiladi boshlandi. **So'nggi olti yilda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 27 foizdan 70 foizga yetishi natijasida bugungi kunda 2 millionga yaqin bola bog'chaga bormoqda. Shu bilan birga, kelgusi besh yilda qamrovni 80 foizga yetkazish uchun 600 ming yangi bog'cha o'rni kerak.**

Boshlang'ich va o'rta ta'limda ham jadal islohotlar va ustuvor maqsadlar amalga oshirilmoqda. 2030-yilgacha davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta'minlash, toza ichimlik suv va

zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmani to'la shakllantirishm shuningdek, olis va chekka hududlarda joylashgan 715ta umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun bepul avtobuslarni yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Hozirgi ochiqlik siyosati, chet el investitsiyalari va yangi korxonalarining ortib borayotgani yoshlarimizni zamonaviy bilimlar va xorijiy tillarni o'rganishga undamoqda. Shu bois, maktablarga yuqori malakali xorijiy o'qituvchilarni olib kelishga va xorijiy mamlakatlarda tahsil olgan kadrlarni ko'proq jalb etishga to'g'ri kelmoqda. Biroq mavjud ishchi kuchi resursi ushbu talabni qondirish uchun yetarli emas, shu bois 1 000 nafar tarbiyachi va o'qituvchilarni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining o'rtacha ish haqini 2 barobar oshirish, 500 ming nafar maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarining malakasini uzluksiz oshirish ham loyihaga kiritilgan.

Shu bilan birga, sir emaski raqobat muhitini shakllantirish va sohaga xususiy sektorni jalb etish soha rivoji uchun muhim qadam bo'lib xizmat qiladi. 2017-yildan boshlangan ta'limni xususiylashtirish ishlarini chuqurlashtirish va keng ko'lamda amalga oshirilishini bardavom etish maqsadida nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari sonini 1 000 taga yetkazish, ularning faoliyatini yo'lga qo'yish uchun 1 trillion so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratish, 2024-yildan boshlab har yili davlat-xususiy sheriklik asosida kamida 100 tadan umumiy o'rta ta'lim muassasalari qurilishi bo'yicha shartnomalar tuzish, nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar ulushini 3 barobarga oshirish ustuvor maqsadga aylangan.

Iqtisodiy rivojlanish asosi bo'lgan oliy ta'lim va innovatsion rivojlanish sohalarida ham qator yangiliklar mavjud. Masalan, iqtisodiyot tarmoqlarining "drayver" yo'nalishlarida 850 turdagi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish, amaliy tadqiqotlar natijalari asosida 2,5 mingdan ziyod yangi ilmiy ishlanmalar yaratish, transport va logistika, qishloq xo'jaligida hosildorlik, energetika, biotexnologiya, geologiya va metallni qayta ishlash, mashinasozlik va elektronika yo'nalishlarida 8 ta ilmiy ishlab-chiqarish klasterini tashkil etish, ilmiy, amaliy, innovatsion va startap loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha yillik tanlovlar sonini 20 taga yetkazish, stajor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura, doktorantura hamda maqsadli doktorantura kvotalari sonini 5 200 taga yetkazish mo'ljallangan. Shuningdek loyihada O'zbekiston Global Innovatsion Indeksda Top-50 talik mamlakatlar ro'yxatiga kirishini ta'minlash, har bir million aholiga to'g'ri keladigan tadqiqotchilar sonini 2 ming nafarga yetkazish. Ichki va tashqi bozorlarda tijoratlashtirish natijasida yaratiladigan yangi innovatsion ishlanmalar sonini 2 baravarga oshirish rejalari ham mavjud.

Xulosa qilib aytganda, eng muhimi, xalqimiz ongida ta'lim-tarbiya tizimiga nisbatan ijobiy qarashlar paydo bo'ldi va yoshlarimiz orasida ilmga intilish

kuchaydi. Bu ham bo'lsa keng ko'lamli ta'lim islohotlari jarayoniga alohida e'tibor berib kelayotganligining samarasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.Sobirxo'jayev, M.Sobirov "Til o'rganishda o'yinlashtirish va boshqa innovatsion yondashuvlarni o'z ichiga olish" FarDU chet tillari fakulteti birinchi xalqaro talabalar ilmiy konferensiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. Toshkent-2022.
3. D.Mustafayeva. Yangi O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish istiqbollari: islohotlar va yangiliklar. Ta'lim, fan va innovatsiya. 2021/5-son 32-bet.
4. PF-158-son 11.09.2023 "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim- tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori 2020-yil 6-noyabr

OLIY O'QUV YURTLARIDA TA'LIM TIZIMINING ILMIY VA INNOVATSION JARAYONLAR BILAN UZVIYLIGINI TA'MINLASH

Qahramonova Sevinch O'tkir qizi¹

¹Islom Karimov nomidagi TDTU Olmaliq filiali

*"Metallurgiya va kimyoviy texnologiyalar" fakulteti talabasi
sevinchqahramonova01@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi oliy o'quv yurtlari o'quv jarayonini tashkillashtirishda ilmiy va innovatsion ta'lim texnologiyalaridan hamda ularning uzviyligidan foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirishga bog'ishlangan. Ishda bugungi globallashtirish jarayonida mamlakatimiz oliy ta'lim dargohlarida innovatsion ta'lim texnologiyalarining ilmiy va o'quv jarayoniga bog'liq holda tashkillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari hamda oliy ta'lim sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, innovatsiya, texnologiya, ilmiy, uzviylik, nazariy-uslubiy, sifat, tavsiya.

Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining o'sish sur'atlari dunyo ham jamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Bu bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishning puxta o'ylangan strategiyasi, ayni paytda ilm-fanni rivojlantirish, ta'lim sohasini isloh etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni har tomonlama qo'llab quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli islohatlar samarasidir. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida ilm-fan hamda ishlab chiqarish sohalarini ilmiy

innovatsion integratsiyani rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda mamlakatimizning tezkor rivojlanish davrida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida yaratilgan innovatsion g'oya texnologiya va loyihalar ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turini kengaytirish, sarf-harajatlarni kamaytirish, texnik jarayonlarni avtomatlashtirishga xizmat qilmoqda. Oliy ta'lim tizimida intellektual, keng fikrli, boy dunyoqarashga, mukammal bilimga ega mutaxassislar tayyorgarligini ta'minlash, ularning salohiyatini yuksaltirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirish, yosh olimlar iqtidorini yuzaga chiqarish kabi ezgu maqsadlar

Qayd etilgan ulug' maqsadlarni amalga oshirishda ta'lim va ilmiy faoliyatimizda sifat ko'rsatgichlarini yuksak darajada ta'minlab berishga erishish lozim. Ta'lim tizimining barcha quyi bo'g'inlari qatorida bizning oldimizga qo'yilgan ijtimoiy mas'uliyatni to'la his qilgan holda mutaxassislar raqobatdoshligini kafolatlash muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi farmonida: "mamlakatni innovatsion rivojlantirishning uzoq muddatli senariylari asosida ustivor soha va tarmoqlarni ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalar asosida rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqarish; hududlarning intellektual va texnologik salohiyatini oshirish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish; ilmiy darajali kadrlar tayyorlash tizimini muvofiqlashtirish; yoshlarni ilmiy va innovatsion faoliyatga jalb etishning samarali mexanizmlarini joriy qilish va ular tashabbuslarini har tomonlama qo'llab quvvatlash; ilm-fan va innovatsiyalar sohasida xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, innovatsiyalar va texnologiyalar transferi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish"dan iborat muhim vazifalar belgilandi [2].

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini yuritishda ham milliy an'analar va azaliy qadriyatlarimiz ham, jahonning ilg'or tajribasiga tayinlanmoqda, desak, adashmaymiz [3].

Ma'lumki, 2-blok va qisman 3-blok fanlarining asosiy vazifasi, ixtisoslik fanlarini tegishli fan asoslari bilan qurollantirib, mutaxassislik yaxshi o'zlashtirishga, istiqbolda, mehnat faoliyati davomida mutaxassisligi va kasb-kori doirasida vujudga keladigan masalalarni yecha olish imkoniyatini kuchaytiradi[4]. Barcha tizimlar kabi ta'lim jarayonining rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy jihatdan rivojlanganligi va ta'minlanganligiga bog'liq. Bugungi kunda ta'lim tizimining barcha bosqishlarida ham darslarni zamonaviy o'lchash vositalari asosida ko'rgazmali tarzda o'tkazishga katta e'tibor qaratilmoqda. Tajriba va tadqiqot tushunchalari bilim va ilmning mohiyatini, ahamiyatini va istiqbolini belgilab beruvchi jarayondir. Shu bois hamisha ilm-fan jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan innovatsiyalar ustidagina tadqiqotlar olib borilsa u bilimli va mahoratli mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan tajriba natijalariga ko'ra hayotda, insoniyat jamiyatga foydasi tegishini ko'zda tutgan holda tatbiq etiladi [5].

Universitet ta'limida zamonaviy talablarga mos keladigan mutaxassis-kadrlar tayyorlashni amalga oshirish uchun ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali talaba va magistrantlarning faol bilim olishlarini tashkil etish va faol ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish hamda ta'lim tizimining demokratik tamoyillariga tobora keng yo'l ochib berish lozim [6]. Buning uchun esa talabalarning o'z qobiliyatini va imkoniyatlarini to'la-to'kis namoyon etishlari va butun kuch g'ayratlarini bilim olishga sarflashlari uchun imkon beradigan darajada ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.E. Axmedov. Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasida intellektual salohiyatli yoshlar – mamlakat taraqqiyotining kafolati “ ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyada intellektual salohiyatli yoshlar - mamlakat taraqqiyotining muhim omili”.// XIII respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Samarqand: SamDAQI, 2016. -b. 3-4.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida”.// Toshkent shahri, 2021-yil 1-aprel.
3. M.Xodjiyev. Fidoiy va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, uchinchi renessans poydevorining tamal toshi.//“Xalq so'zi” gazetasi. Toshkent. -b. 4.
4. R.I.Xalmurodov. Kasbga yo'naltirilgan ta'lim haqida.// Ta'limda innovatsiyalar: strategiya, nazariya va amaliyot. Xalqaro ilmiy maqolalar to'plami. 1-qism. – Samarqand: SamDU, 2018. -b. 3-5.
5. E.A. Ruziyev, J.E. Ruziyev. Amaliy-laboratoriya ta'limida innovatsion jarayonlar.// Ta'limda innovatsiyalar: strategiya, nazariya va amaliyot. Xalqaro ilmiy maqolalar to'plami. 1-qism. – Samarqand: SamDU, 2018. -b. 181-184.
6. M.I. Mamadiyeva, E.A. Ruziyev, M.A.Mamirzayev. Analitik kimyoni o'qitishda mustaqil ta'limni tashkil etish.// “O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida kimyoning o'rni” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, III qism. – SamDU. 2018. – 124 bet.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI

Jumanova Shahnoza Ikromjonovna¹

¹*Qo'qon universiteti “Ta'lim” kafedrasida o'qituvchisi*

Tojkarimova Moxira Anvarjon qizi²

¹*Qo'qon Universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematika o'qitish metodlari, ularni qanday amalga oshirish, o'quvchilarga puxta bilim berishga, o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish yo'llarini o'rgatish, boshlang'ich matematik ta'limi metodikasining predmetlari to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Matematika, metodika, pedagogika, o'qitish metodlari, bilim, metodlari vosita,

KIRISH

“Metodika” grekcha so'z bo'lib, “metod” degani “yo'l” demakdir. Matematika metodikasi pedagogika fanlari sistemasiga kiruvchi pedagogika fanining tarmog'i bo'lib, jamiyat tomonidan qo'yilgan o'qitish maqsadlariga muvofiq matematika o'qitish qonuniyatlarini matematika rivojining ma'lum bosqichida tadbiiq qiladi. Ilmiy texnika taraqqiyoti jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda matematikaning roli yanada oshdi, Shuning uchun ham matematik ta'lim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib qoldi. So'nggi yillarda mamlakatimizda o'rta maktab matematika o'qitish butun sistemasida o'z ko'lami va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta bo'lgan o'zgarishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonunida 2020-yil (23-sentabr) ta'lim davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinishi pedagogika, metodika fanlari oldida juda katta ma'suliyatli vazifalarni yukladi. Maktab oldiga prinsipial yangi maqsadlarning qo'yilishi matematika o'qitish mazmunining tubdan o'zgarishiga olib keldi. Matematika boshlang'ich kursida ham kattagina o'zgarishlar qilindi. Boshlang'ich sinflarning matematikadan yangi dasturlarga o'tishi munosabati bilan yangi dasturni tadbiiq qilishning ratsional yo'llarini tutuvchi yangi metodik tizimini ishlab chiqishda matematikani o'qitishda ilgari to'plangan eng qimmatli fikrlar hisobga olindi.

ASOSIY QISM

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikani muvaffaqiyat bilan o'qitish uchun mehnat faoliyatini ilk boshlovchi o'qituvchi matematika o'qitishning ishlab chiqilgan tizimini, ya'ni boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasini egallagan bo'lishi, shu asosda mustaqil ravishda ijodiy ishga kirishi kerak. Matematika o'qitish metodikasi eng avval kichik yoshdagi o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishning umumiy tizimida ularga matematika o'qitish masalalarini qarab chiqadi. Metodikada boshlang'ich matematika kursining mazmuni va tuzilishi ochib beriladi, ya'ni matematikadan qaysi material boshlang'ich sinflarda o'rganishi va nima uchun aynan shu material tanlanishi, boshlang'ich kursning har qaysi ayrim masalasi umumlashtirishning qanday darajasida o'rganilishi, kursning mavzulari qanday tartibda qaralishi va nima uchun bu tartib eng raqional ekanligi ko'rsatiladi. Matematikadan boshlang'ich ta'lim berish metodikasida kursning har qaysi bo'limi va har qaysi masalasini o'rganishning xususiy metodlari ochib beriladi. (masalan 10 ichida sonlarni (+) va (-) ni qanday o'rganish kerak, jumladan bu mavzuda (+) ning o'rin almashtirish xossasini qanday ochib berish kerak). Matematika o'qitish

metodikasi o'quvchilarni nazariy bilimlarini o'zlashtirishlariga, egallagan bilimlarini turlituman amaliy masalalarni yechishga tadbiiq qilishni uddalashlariga, o'quvchilarda puxta malakalar shakllantirishga doir tavsiyalar beradi. Shuningdek, metodikada matematika o'qitishda ko'proq samara olish maqsadida bolalarning o'qish faoliyatini qanday tashkil etish masalalari ham ochib beriladi. Ma'lumki, o'qitish tarbiyaviy xarakterga ega, binobarin, metodikaning vazifasi - o'qituvchini matematika o'qitishning Shunday usullari bilan qurollantirishdan iboratki, bu uslublar yangi insonni, mustaqil jamiyat kishisini tarbiyalashga, o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga imkon bersin, o'quvchilarning matematikaga qiziqishlarini shakllantirsin va rivojlantirsin.

Boshlang'ich matematik ta'limi metodiksining predmeti quyidagilardan iborat:

1. Matematika o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadlarni asoslash (nima uchun matematika o'qitiladi, o'rganiladi).

2. Matematika o'qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (nimani o'rgatish kerak? Bolalarga bilimlar qanday berilganda, bu bilimlar fan, texnika va madaniyatning hozirgi zamon rivojlanish talablariga mos keladigan bo'ladi? Tizimlashtirilgan bilimlar doirasini o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladigan qilib qanday taqsimlansa, fan asoslarini o'rganishda izchillik ta'minlanadi, o'quvchilarga o'quv mashg'ulotlari beradigan yuklama bartaraf qilinadi, ta'limning mazmuni o'quvchilarning real bilim imkoniyatlariga mos keladi?)

3. O'qitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish (qanday o'qitish kerak, ya'ni o'quvchilar hozirgi kunda zarur bo'lgan bilimlarini, malakalarni, ko'nikmalarni va aqliy faoliyat qobiliyatlarini egallab oladigan bo'lishlari metodikasi qanday bo'lishi kerak? Bilimlarni egalash jarayonida o'quvchilar shaxsining garmonik rivojlanishi va shakllanishi amalga oshishi uchun qanday o'qitish kerak.

4. O'qitish vositalarini darsliklar didaktik materiallar, ko'rsatma-qurollar va texnika vositalarni ishlab chiqish (nimalar vositasida, yordamida o'qitish).

5. Ta'limni tashkil qilishni ilmiy ishlab chiqish (darsni va ta'limning darsdan tashqari shakllarini qanday o'tkazish? O'quv ishlarini qanday tashkiliy metodlarda o'tkazish kerak? O'quv jarayongina bo'lmay balki o'quvchilar shaxsning tarkib topishi va rivojlanishi jaratyoni ham bo'lishi uchun o'quv ishlarini qanday tashkiliy metodlarida amalga oshirish kerak, o'quv jarayonidagi ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni qanday qilib samaraliroq hal qilish kerak?)

O'qitishning maqsadlari, mazmuni, metodlari vositalari metodik tizimning asosiy komponentlaridir. Matematika o'qitish metodikasi boshqa fanlar, eng avvalo matematika fani o'zining bazaviy fani bilan uzviy bog'liq. Maktab matematika kursining mazmunini tanlashga matematika fanining rivojlanish darajasi har doim ta'sir ko'rsatib keladi. Masalan XVIII -asrda matematikada natural son deyilganda birlar to'plami tushunilardi, boshlang'ich arifmetika o'qitishda birinchi o'nlik sonlarining har birini birlarda tuzishga doir mashqlarga katta ahamiyat berilardi.

Ikkinchi tomondan pedagogika umumiy qonuniyatlarini shakllantirishida xususiy metodikalar tomonidan erishilgan ma'lumotlarga tayanadi, bu uning hayotiyligi va konkretligini ta'minlaydi. Shunday qilib, pedagogika metodikalarining konkret materiali bilan ish ko'radi va o'z navbatida u metodikalarni ish ichida yo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Matematika o'qitish metodikasi pedagogik-psixologiya bilan ham uzviy bog'langan. Matematika kursini turzishda va matematika o'qitish metodlarini tanlashda, matematik ta'limning maqsadlari va vazifalarini ta'minlashda matematika metodikasi o'qitishning pedagogika va psixologiyada ochib berilgan umumiy qonuniyatlariga tayanadi. O'qitishga doir pedagogika yoki psixologiya yaratgan yangi qonuniyatlar metodikada har doim o'z aksini topadi, metodikaning xususiy qonun-qoidalari esa o'z navbatida pedagogik va psixologik umumlashtirishlarda material bo'lib xizmat qiladi. Har qaysi metodik usulda, mashqlar sistemasida o'quvchi pedagogik va psixologik qonuniyatlarining namoyon bo'lishini ko'ra olsa, o'qituvchi ularga har bir darsni ishlab chiqarishda tayana olsa va har bir o'quvchi chuqur bilim egallashiga erishadigan darajada ulardan foydalana olsa, ana shundagina matematika metodikasini ongli o'zlashtirish va amalda undan to'g'ri foydalanish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda Boshlang'ich matematika metodikasi ta'limning boshqa metodikalari ona tili, tabiat, texnologiya, tasviriy san'at va boshqa fanlar metodikasi bilan bog'liq. Predmetlararo bog'lanishni to'g'ri amalga oshirish uchun o'qituvchi buni hisobga olishi juda muhimdir. Yuqori sinflarda predmetlararo bog'lanishni amalga oshirish ancha qiyinlashadi, chunki har qaysi fanni ma'lum bir o'qituvchi olib boradi, buning ustiga fan o'qituvchilarining ishlashida yaqindan aloqa bo'lmasa, predmetlararo bog'lanishni amalga oshirish masalasi ancha murakkablashib ketadi. Boshlang'ich sinflarda bunday emas. Hamma fanlarni bir o'qituvchi olib boradi. Shu sababli uning oldida predmetlararo bog'lanishni amalga oshirish imkoniyatlari ochiladi. Boshlang'ich ta'limning turli o'quv predmetlariga oid darslarda o'quvchilar tevarak atrofdagi voqea va hodisalar, ularning xossalari o'g'oid konkret tasavvurlar oladilar. Matematikaning farqlantiruvchi xususiyati shundan iboratki, matematika ob'ektiv borliqni o'rganish bilan bir vaqtda o'rganilayotgan voqea va predmetlarning konkret mazmunidan, moddiy dunyoning eng umumiy tomonlariga tegishli bo'lmagan, uning miqdoriy tomonlariga ham, fazoviy shakl va munosabatlariga tegishli bo'lmagan hamma narsaga nisbatan obstraksiyalanadi. Matematikaning buyuk kuchi shundadir, ya'ni tushunchalarning obstrakligi va umumiyligidadir, boshqa o'quv fanlar bilan har tomonlama ko'plab bog'lanishlar, o'rgatishda umumiy dalillarni, ya'ni son haqidagi arifmetik amallar haqidagi geometrik figuralar, miqdorlar, shakllar haqidagi tasavvurlar va elementar tushunchalar: har xil malaka va ko'nikmalar faoliyati turlari o'qitishning shakl va metodlarini asos qilib olish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi (OO'Y uchun darslik) Toshkent. "Turon-Iqbol" 2016 yil 426 b.

2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G`. Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi. (OO`Y uchun darslik.) Toshkent. "Fan va texnologiya" 2015 yil.
3. Jumayev M.E, Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasidan praktikum. (O O`Y uchun) Toshkent. "O`qituvchi" 2018 yil 242 b.
4. Qo, J.S.I.,& Gulbahor,M. (2023). maktabgacha ta`lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni maktab ta`limiga tayyorlashning pedagogik asoslari. qo`qon universiteti xabarnomasi, 8, 98-100.
5. Jumayev M.E, Boshlang`ich sinflarda matematikadan laboratoriya mashg`ulotlarini tashkil etish metodikasi. Toshkent. "Yangi asr avlodi" 2006 yil. 20 b.
6. Tadjiyeva Z.G.,Abdullayeva B.S.,Jumayev M.E.,Sidelnikova R.I.,Sadikova A.V.Metodika prepodavaniya matematiki.-T. "Turon-Iqbol" 2011. 336s.
7. Tojkarimova Moxira Anvarjon qizi, & Jumanova Shahnoza Ikromjonovna. (2023). umumiy o`rta ta`lim maktablarida joriy etilgan yangi darsliklarning afzallik jihatlari. qo`qon universiteti xabarnomasi, 1(1), 661–663.
<https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.672>
8. JS Ikromjonovna. (2023). maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarning o`yin kompetensiyasini rivojlantirish. qo`qon universiteti xabarnomasi, 586-588
9. Tojkarimova, M. A. qizi. (2023). boshlang`ich ta`lim samaradorligini oshirishda innovatsion ta`lim texnologiyalaridan foydalanishga zamonaviy yondashuvlar. Educational Research in Universal Sciences, 2(16),824–828.Retrievedfrom <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5106>
10. SI Jumanova, G Mullaboyeva. bolalarni maktab ta`limiga tayyorlashda sharq va g`arb allomalarining qarashlaridan foydalanish
11. Tojkarimova Moxira Anvarjon qizi, & Abdullajonov Davronjon Shokirjon o`g`li. (2023). boshlang`ich ta`lim samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlarning maqsad va vazifasi. qo`qon universiteti xabarnomasi, 1(1), 658–660. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.671>
12. <https://zenodo.org/records/5931184>

O`ZBEKISTONDA TA`LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR: INKLYUZIV TA`LIM

Tojkarimova Moxira Anvarjon qizi¹

¹Qo`qon Unversiteti Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi

moxiratojkarimova660@gmail.com

Annotatsiya Maqolada o`zbekiston ta`lim sohasidagi islohotlar: inklyuziv ta`limni yuksaltirish masalalari, inklyuziv ta`limdagi bolalarga yaratilayotgan

sharoitlar, 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasining pedagogik mohiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim, ta'lim shakllari, jamg'arma inklyuziv ta'lim, UNICEF, pedagogik tahlil, metod, ijtimoiy siyosat.

KIRISH

Turli xildagi sabablarga ko'ra ruhan yoki jismonan nuqsonli bo'lib qolgan bolalarni jamiyatdan alohida e'tiborsiz holda tashlab qo'yib bo'lmaydi. Bunday bolalar nuqsonliligi sababli imkoniyatlari cheklanib qolgan. Imkoniyatlarining chegaralanib qolganligi oqibatida korreksion yordamga muhtoj. Shuning uchun ham bu vazifalarni to'laqonli amalga oshirish maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni huquqlarini qo'llab-quvvatlab, ularni joriy etish maqsadida jahon miqyosida "Inklyuziv ta'lim" siyosat darajasiga ko'tarilib xalqaro huquq normalari, jumladan, BMT ning 1989-yilgi "Bolalar huquqlari to'g'risida Konvensiya"si, Dakar Deklaratsiyasi, Salamanka bayonoti va Ish rejasi (1994-yil) kabilarda o'z aksini topgan. Biroq juda ko'p hollarda maxsus yordamga muhtoj bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Bunga asosiy sababalar birinchi navbatda ota-onalarning farzandiga bo'lgan e'tiborining sustligi bo'lsa, keyingi galda bu bolani o'qitish uchun ta'lim muassasalarining o'sha hududda yo'qligi yoki juda uzoqda joylashganligidir. Mana shunday hol maxsus yordamga muhtoj bola uchun juda ayanchli holdir. Chunki bu bolada mavjud nuqson tufayli uning imkoniyatlari chegaralanib qolgan, ma'lumki bola ta'lim-tarbiya olmasa va undagi nuqsonni tuzatish ishlari olib borilmasa, nuqson darajasi yanada og'irlashadi, ikkilamchi nuqsonlar kelib chiqadi va uning o'z o'ziga xizmat qilish malakalri shakllanmay qoladi. Ijtimoiy hayotga moslashishi qiyinlashadi. Bir so'z bilan aytganda u "nogiron" bo'lib qolaveradi. O'z navbatida jamiyatda nogironlarning ko'payishi shu jamiyat taraqqiyotini orqaga tortadi. Mana shunday oqibatlariga olib kelmasligi, maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning haq-huquqlarini to'laqonli ta'minlash maqsadida ham inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari keng tus olmoqda.

Shu borasida bolalarning huquqini himoya qilish va ular ham qolgan bolalar kabi o'qiy olishini taminlash maqsadida Bosh Qomusimizning 41-moddasi hamda Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun (2020-yil 23-sentyabr) 5-moddasi qoidalariga asosan ta'lim olishda barcha teng huquqlidir. Bu qonun inklyuziv (uyg'unlashgan) ta'lim tushunchasi kiritilganligi bilan ham avvalgi tahriridan farqlanib turadi va buqonunga muvofiq Inklyuziv ta'lim sohasidagi vakolatli o'rgan etib Vazirlar Mahkamasi belgilangan. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda ta'limning inklyuziv shaklini ham birdek rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM

Inklyuziv termini inglizcha-uyg'unlashish, hamkorlikdagi ta'lim ma'nosini berib, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim sifatida tan olingan. Inklyuziv ta'lim - barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'lim

muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir. Ayni damda barcha mamlakatlarda ham inklyuziv ta'limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog'liq bo'lmaydi. Diskriminatsiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto'g'ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim narsadir. Ya'ni inklyuziv ta'limni e'tirof etgan holda, aholi o'rtasida targ'ibat-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galdagi masaladir. 1990-yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida bir qancha jahon miqyosida deklaratsiya va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko'plab davlatlari e'tirof etdilar. 2006-yilda BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi (UNCPRD) qabul qilindi. 2009-yil 27-fevralda bu hujjat mamlaktimiz tomonidan ratifikatsiya qilingan. Ushbu Konvensiyaning 24-moddasida: "Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarning ta'lim olish huquqini e'tirof etadilar. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu huquqni kamsitmasdan va imkoniyatlar tengligi asosida amalga oshirish maqsadlarida barcha darajalarda inklyuziv ta'limni va butun umri davomida oqitilishlarini ta'minlaydi", deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida nogiron bolalar bilan bog'liq tahlil va dastlabki baholash ishlari 1966-yilda boshlangan. 1996-yilning noyabr oyida YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Milliy komissiyasi tashabbusi asosida Toshkentda "Maxsus ta'lim sohasida inklyuziv usullar" mavzusida milliy o'quv dastur muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. 1998 yilning oktyabr oyida Buxoro shahrida ushbu mavzu bo'yicha mintaqaviy anjuman tashkil etilgan edi. Mazkur anjuman YUNESKO, YUNISEF (BMTning bolalar jamg'armasi), Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti va Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda amalga oshirilgan. Ushbu tadbirlar natijasida 2001-yilda O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi qoshida Inklyuziv ta'lim bo'yicha manba markazi tashkil etildi. Hozirgi kunga qadar ushbu markaz tomonidan bir necha o'quv seminarlari o'tkazildi.

"O'zbekistonda alohida ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta'lim" loyihasi 2014-yildan buyon hozirga qadar amalga oshirilib, uning doirasida alohida ehtiyojli 900 dan ortiq o'g'il-qiz maktablar, maktabgacha ta'lim maskanlarida umumiy ta'limga jalb etildi. Tibbiy, psixologik va pedagogik komissiya a'zolari hamda pedagog xodimlar ta'lim sohasida inklyuziv xizmat ko'rsatish bo'yicha o'qitildi. Yurtimizning turli hududlarida beshta pilot resurs markazlari tashkil etilib, ularda alohida ehtiyojli bolalar, ularning ota-onalari, ekspertlar uchun o'quv-uslubiy, huquqiy, maslahat ko'magi ko'rsatildi. "Inklyuziv ta'lim asoslari", "Alohida ehtiyojli bo'lgan bolalar umumiy ta'limda", "Inklyuziv maktabni tashkil etish" nomli o'quv modullarining yaratilgani, bu yo'nalishda ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish, pedagog xodimlarning kasb mahoratini oshirish imkonini berdi. Jismoniy imkoniyati cheklanganligi oqibatida inklyuziv ta'limga ehtiyojli bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiylashuvi uchun zarur shart-sharoitlar va mexanizmlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy qilish mamlakatning o'z fuqarolari oldidagi ma'naviy funksiyasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarori asosida 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi. Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali quyidagi natijalar kutilmoqda:

✓ Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarning rivojlanishi, reabilitatsiyasi, jamiyatga integratsiyalashuvida inklyuziv ta'limning strategik omil sifatidagi roli tasdiqlanadi;

✓ Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'limiy muhiti yaxlitligi mustahkamlanadi, ularning jamiyatga integratsiyasi uchun zarur sharoitlar ta'minlanadi;

✓ Davlat, jamiyat, shaxsning inklyuziv ta'lim sohasidagi manfaatlarini muvofiqlashtirish mexanizmlari yaratiladi;

✓ Inklyuziv ta'lim tizimining umumiy qulayligi, uzluksizligi, ta'lim sifati, shuningdek o'quvchilarning rivojlanish darajasi, xususiyatlariga moslashuvchanligi va variativligiga erishiladi;

✓ Inklyuziv ta'lim sohasidagi xalqaro munosabatlar doirasida o'zaro hamkorlik aloqalari mustahkamlanadi;

✓ O'quvchilar ta'limiy ehtiyojlarning o'ziga xosligini inobatga olgan holda sifatli ta'lim olishi uchun ular davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi;

✓ Inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich joriy etish orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari optimallashtiriladi, ularda ta'lim olayotgan o'quvchilarning teng huquqli jamiyat a'zosi sifatida umumta'lim muassasalarida bilim olishi ta'minlanadi; pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi;

✓ Inklyuziv ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi yaxshilanadi; inklyuziv ta'lim muassasalarining Internet tarmog'iga to'liq ulanishi ta'minlanadi; inklyuziv ta'lim muassasalarida o'quvchilarni qabul qilish va boshqa ta'lim muassasalariga o'tkazish uchun davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmi joriy etiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda Inklyuziv ta'limning mohiyati shundan iboratki, ruhiy yoki jismoniy rivojlanishda orqada qolganligi sababli maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalardan "nogiron" degan tamg'ani olib tashlab, normal rivojlanishdagi bolalar bilan birga teng huquqlilikni ta'minlash, jamiyatga to'laqonli, erta moslashtirish, mavjud imkoniyatlaridan foydalana olishlarini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari tizimida o'qitishdan iborat. Inklyuziv ta'lim nogironlarning ijtimoiy tengdoshlari bilan bir qatorda ta'lim olishini ta'minlaydi, muntazam maktablarga qabul qilishini nazarda tutadi. O'ta murakkab nuqsonli bolalar ayrim hollarda maxsus maktablar va maxsus reabilitasiya markazlari yoki muntazam maktablar qoshidagi maxsus sinflarda korreksion dasturlar yordamida ta'lim oladilar. Ushbu maktablarda ta'lim ta'minoti albatta bolaning zaruriyatni e'tiborga olgan holda amalga oshirish ko'zda tutilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tojkarimova Moxira Anvarjon qizi, & Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li. (2023). boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlarning maqsad va vazifasi. qo'qon universitetixabarnomasi,1(1),658–660. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.671>
2. Qobiljon qizi, S. G. (2023). o'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar: inklyuziv ta'lim va yangicha pedagogik yondashuvlar. fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi, 422-425. Retrieved from <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/253>
3. O'zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi.(<https://lex.uz/docs/-5044711>)
4. BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi(UNCPRD) 2006-yil 13-dekabr
5. Tojkarimova Moxira Anvarjon qizi, & Jumanova Shahnoza Ikromjonovna. (2023). umumiy o'rta ta'lim maktablarida joriy etilgan yangi darsliklarning afzallik jihatlari. qo'qon universiteti xabarnomasi, 1(1), 661–663. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.672>
6. JS Ikromjonovna. (2023). maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning o'yin kompetensiyasini rivojlantirish. qo'qon universiteti xabarnomasi, 586-588
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-sentabr.(<http://marifat.uz/marifat/ruknlar/rasmiy/4939.htm>)
8. Tojkarimova, M. A. qizi. (2023). boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga zamonaviy yondashuvlar. Educational Research in Universal Sciences, 2(16),824–828.Retrievedfrom <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5106>
9. Ikromjonovna, J. S. (2023). umumiy o'rta ta'lim maktablarida joriy etilgan yangi darsliklarning afzallik jihatlari. qo'qon universiteti xabarnomasi, 661-663
10. Tojkarimova Moxira Anvarjon qizi, & Valiyeva Nargiza. (2023). tarbiya jarayonida oila mahalla hamda ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligi. qo'qon universiteti xabarnomasi, 1(1), 637–639. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.665>
11. Tojkarimova Moxira. (2023). bolalarning psixologik rivojlanishida elektron resurslardan foydalanish. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 1(1), 20–25. Retrieved from <http://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/5>
12. <https://strategy.uz/index.php?news=1725&lang=uz>

TEXNOLOGIK TAMADDUN KONTEKSTIDA AXBOROT-TA'LIM MUHITINI TASHKIL ETISHNING BAZAVIY IMPERATIVLARI

Mohira Xalikova¹

*¹Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga
o'rgatish milliy markazi direktori, falsafa doktori, professor v.b.
professional mediator*

Annotasiya. Texnologik tamaddun va axborot jamiyatining konseptual voqeligi ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'ydi. Mazkur sharoitda shaxsni o'zgarishlarga tayyorlash, ta'limning ko'p o'lchamli ekotizim sifatida samarali yondashuvlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Mazkur maqola ushbu maqsadlardan kelib chiqib, XXI asrning global ijtimoiy xususiyatlariga javob beradigan ta'limning immanent definisyalari - Lifelong learning - hayot davomida ta'lim, inson resurslarini muttasil rivojlantirish, uzluksiz ta'lim, interfaol axborot-ta'lim muhitini yaratish muammolarining tahliliga bag'ishlangan. Maqolada soha rivojiga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *texnologik tamaddun, axborot jamiyati, ta'lim, kompetensiya, Lifelong learning, andragogika.*

Abstract. Conceptual reality of technological civilization and information society has set new tasks for the educational system. In this context, preparing the individual for changes requires the development of effective approaches to education as a multidimensional ecosystem.

Based on these goals, this article is devoted to the analysis of the immanent definitions of education that meet the global social characteristics of the 21st century - lifelong learning, continuous development of human resources, continuous education, and the creation of an interactive information-educational environment. The article contains suggestions and recommendations for the development of the industry.

Key words: *technological civilization, information society, education, competence, Lifelong learning, andragogy.*

Katta o'zgarishlar keladi.
Ongimiz tomonidan yaratilgan texnologiyalar
muqarrar tarzda dunyoni o'zgartiradi.
Bugun hamon bu bizga, bizning harakatlarimizga
va qarorlarimizga bog'liq".
Reymond Kursveyl [1]

Yoshlarga to‘g‘ri ta‘lim berish
Troyani zabt etishdan muhimroqdir.
Filipp Melanxton

Barcha manfaatlar ichida eng go‘zali -
yaxshi tarbiya olgan inson.

Epiktet

Ta‘lim ijtimoiy konstrukt sifatida insoniyat tamaddunining barcha bosqichlarida to‘plangan bilimlarni umumlashtirishga intiladi. Muvaffaqiyatli ta‘limning meynstrim belgisi uning jamiyat va insoniyat taraqqiyoti talablariga javob bera olishi hisoblanadi.

Texnologik tamaddun - **global iqtisodiyot, Digital technology, raqamli ekotizimlar, biotexnologiyalar, 3D-texnologiyalar** dunyoning konseptual xususiyatini, shaxsning xatti-harakat strategiyasini o‘zgartirib, yangi ijtimoiy-madaniy voqelikni shakllantirmoqda [2].

Ilmiy tadqiqotlarda zamonaviy dunyoni tavsiflashda ekspertlar **VUCA-dunyo va BANI-dunyo** atamalaridan foydalanmoqdalar. Ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyodagi mavjud axborotning 90% i oxirgi 3-4 yilda paydo bo‘lgan [3].

Soha tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra, tez o‘zgaruvchan sharoitlarda ulg‘aygan millienniallar avlodi quyidagi immanent xususiyatlarni namoyon etadi:

- juda tez qaror qabul qilish;
- iste‘mol (konsyumerizasiya) kul‘ti;
- tez yuqori natijalarga erishish istagi;
- sosiopatiya (ijtimoiy muloqotdan qo‘rqish);
- o‘yinlar formatida o‘rganish;
- murakkab jumlar qurishga qodir emaslik va b.

An‘anaviy, tadrijiy, chiziqli tamaddun kontekstida avlodlarning ijtimoiylashuvi katta avlod tajribasini o‘zlashtirishiga uzviy bog‘liq bo‘lgan. Raqamli dunyo diskursi dunyoqarash, estetik did va qadriyatlar tizimi bilan bog‘liq “avlodlararo uzilish”ni vujudga keltirdi. Ekspertlar tomonidan avlodlar o‘rtasida nuqtai nazarlar, hayotiy qarashlar, qiziqishlar borasida keskin farqlar qayd etilmoqda. Nemis sosiologi **Karl Manngeym** shaxsning ijtimoiylashuvi katta avlod va ijtimoiy institutlar ta‘sirida yuz berishini ta‘kidlaydi [4].

Texnologik tamaddun va axborot jamiyatining konseptual voqeligi ta‘lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ydi. Xususan:

- shaxsni o‘zgarishlarga tayyorlash;
- ijtimoiy intellekt, ekologik madaniyat, o‘z hatti-harakati va qarorlari uchun javobgarlik hissini tarkib toptirish;
- xavf-xatarlarning oldini olish;
- universal bilimlardan metapredmet kompetensiyalarga o‘tish.

Zamonaviy ta‘lim muassasalari o‘qitish, ilmiy tadqiqot va jamiyat bilan o‘zaro aloqalarni amalga oshiradigan ko‘p o‘lchamli ekotizim sifatida samarali yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

XXI asrning global ijtimoiy xususiyatlariga javob bera olishi uchun bugungi kun ta'limi qanday bo'lishi kerak?

Ta'lim sohasidagi transformasion o'zgarishlarning immanent definisivalari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- *Lifelong learning* - hayot davomida ta'lim (shaxsiy imkoniyatlarni muttasil rivojlantirish, uzluksiz ta'lim olish tamoyili) [5];

- *gumanistik yondashuv*: shaxs kamoloti, empatiya, umumplanetar ahamiyatga molik muammolarga e'tibor, o'z xatti-harakati va qarorlari uchun mas'uliyat va axloqiy javobgarlik hissi) [6];

- *Web 3.0. texnologiyalar* (axborot bilan ishlash ko'nikmalari);

- *demokratlashuv* (fuqarolik hamjamiyatida yashash ko'nikmalari, inson huquqlariga hurmat, gender sensitivlik);

- *zamonaviy ta'lim*, o'quv dasturlarining mazmunini innovasion jarayonlarga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga korrelyasiyasi;

- *interfaol axborot-ta'lim muhiti*;

- *Sustainable development* (barqaror rivojlanish, ekologik madaniyat);

- *Global citizenship* (dunyoviy ong, demokratik tafakkur, global kosmopolitik muammolarga daxldorlik hissi).

Mazkur diskursda milliy ta'lim tizimini rivojlantirish aksariyat davlatlarning asosiy manfaati va strategiyasiga aylandi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish, ta'limning uzluksizligini ta'minlash, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos malakali kadrlar tayyorlash, inson resurslarini rivojlantirish, global innovasion indeksda O'zbekiston pozitsiyasini yaxshilash, tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish maqsadlari o'rin olgan. muhim vazifalar sifatida belgilangan [7].

Taraqqiyot shaxs va jamiyatdan eksponensial tarzda ko'payib boruvchi bilim va kompetensiyalarni talab qiladi, bu avvalo, aholining tobora keng qatlamlarini qamrab olgan ta'lim tizimini shakllantirish, shaxsning hayot davomida muttasil ta'lim olishi uchun sharoit yaratish bilan bog'liq.

Mazkur landshaft mutaxassislarning kasbiy kompetentligini oshirish, yangi metodikalar va ilg'or texnologiyalar bilan tanishtirishga xizmat qiladigan tizim – **andragogika** oldiga ham yangi talablarni qo'ymoqda [8].

Mazkur tizim sifatini oshirishda quyidagi omillar muhim rol' o'ynaydi:

- ta'limning yangi paradigmasini anglash va qabul qilish;

- kasbiy etika;

- fasilitasiya, t'yutoring, mentoring, kouching asoslarini bilish;

- ilmiy-nazariy va uslubiy tayyorgarlik;

- interfaol axborot-ta'lim muhiti;

- konseptual maqsadlarga yo'naltirilgan ta'lim kontenti.

Ta'limning yangilangan mazmuni ta'limni boshqarishni tubdan o'zgartirishni taqozo etadi.

O'z vaqtida va to'g'ri qaror qabul qila oladigan, adolatparvar, insonlarni ergashтира oladigan, resurslarni (vaqt, moliya, kadrlar, texnologik) to'g'ri taqsimlay

oladigan, qat'iyatli, kuchli intuisiyaga ega, shijoatli, mulohazakor, notiq, tashabbus ko'rsata oladigan xarizmatik liderlarni shakllantirish masalasi o'ta muhim.

Muassasalar faoliyatini samarali tashkil qilishda korporativ boshqaruvning quyidagi muhim tamoyillarini faoliyatga tatbiq etish maqsadga muvofiq:

- SMART-strategiya;
- taym-menejment;
- konflikt-menejment (nizolarni boshqarish);
- risk-menejment (o'zgarishlarni boshqarish);
- KPI, faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari;
- boshqaruvga forsayt innovasiyalarni tatbiq etish;
- HR-menejment, onbording;
- samarali networking;
- tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash.

Muallif tomonidan XXI asr axborot-ta'lim muhitini samarali tashkil etish bo'yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- korporativ boshqaruvning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish;
- ijodiy raqobat va kasbiy motivasiyani yo'lga qo'yish, ilmiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash;

- ta'lim sohasida xalqaro hamkorlik, akademik mobillik dasturlarini yo'lga qo'yish, chet mamlakatlarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish va faoliyatga implementasiya qilish;

- mehnat bozorini o'rganish, iqtisodiyotning real sektoridagi talabni 10-15 yil oldin forsayt-prognozlash;

- xodimlarda hard skills (kasbiy-nazariy tayyorgarlik), soft skills (universal ko'nikmalar), kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, korporativ ta'limni yo'lga qo'yish [9];

- ta'lim jarayonini BMT, UNESCO, USAID, DVV, INTEL, Cambridge, TED kabi xalqaro tashkilotlarning ta'limdagi tashabbuslari - dunyoviy ong, inson huquqlariga hurmat, shaxs ekologiyasi, gender sensitivlik, nizolarni samarali boshqarish, barqaror rivojlanish, XXI asr ko'nikmalari tamoyillari asosida tashkil etish;

- WEB 3.0. imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

Zamonaviy ta'lim dasturlari va darsliklar **umuminsoniy muammolarga daxldorlik hissi; barqaror rivojlanish, ekologik madaniyat; inson huquqlariga hurmat, gender sensitivlik; tanqidiy tafakkur, axborotlar bilan ishlash, kommunikativ ko'nikmalar, madaniyatlararo muloqot** kabi XXI asrning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilishi zarur.

Yo'qolib ketishi kutilayotgan kasblar (*kutubxonachi, kassir, xaydovchi, yurist, radist, shturman, buxgalter, notarius, provizor, rieltor, dispetcher*) hamda **yangi shakllanayotgan kasblar** (*bioetik, Product Owner, texnomediator, Data Scientist, 3D Engineer, neyropsixolog va b.*) transformasiyasi bilan kechadigan bunday sharoitda shaxsning o'zgarishlarga ochiqlik, kutilmagan natijalarning ehtimolini minimallashtirish kabi ko'nikmalarini rivojlantirish ahamiyatga ega.

Texnologik taraqqiyot kontekstida umuminsoniy tamaddunning hayotiyiligi, ijtimoiy tizimlarning barqarorligi, ijtimoiy institutlar (ta'lim, madaniyat, oila) yashovchanligini ta'minlashda axborot va bilimlar jamiyatining mazkur konseptual xususiyatlaridan kelib chiqish zarur.

Ushbu jarayon XXI asrning global xususiyatlariga mos bo'lib, yashash tarzini yaxshilashga, jahon hamjamiyati hayotida faol ishtirok etishga, barqaror kelajakni ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Ray Kurzweil. *The Singularity Is Near*. 2006. M.: Penguin Books. - 672 s.
2. Маклюэн Г. М. *Галактика Гутенберга. Сотворение человека печатной культуры*. — Перевод с английского и примечания: А. Юдин. — М., 2003.
3. Xalikova M. Postindustrial tamaddun diskursida jamiyat va shaxsning konseptual muammolari // *Jurnal sosial'ni x issledovaniy*. – 2022. – T. 5. – №. 1.
4. Манхейм Карл. *Избранное. Диагноз нашего времени*. — М.: Юристъ, 1994. — 704 с.
5. Khalikova M. The Formation Of The Paradigm «Lifelong Learning» In The Conditions Of The Knowledge Society // *Journal of Pharmaceutical Negative Results*. – 2023. – S. 2328-2336.
6. Xoliqova M. Lifelong Learning paradigmasi kontekstida XXI asr kompetensiyalarining dunyo ta'lim dasturlariga implementatsiyasi (kontent-tahlil) / *Zamonaviy ta'lim. Ilmiy-uslubiy jurnal*. №12 (109) 2021. - 9-13 b. ISSN 2181-6514.
7. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.
8. Khalikova M. To the question of reflecting the competences of the XXI century in educational programs in discourse lifelong learning paradigms // *European International Journal of Pedagogics*. – 2023. – T. 3. – №. 06. – S. 20-27.
9. Халикова М. К. Компетентность как важная парадигма информационного общества // *Глобальные вызовы демографическому развитию*. Т1— Екатеринбург, 2022. – 2022. – С. 267-281.

SPECIFIC ASPECTS OF REFORMS OF THE EDUCATIONAL SYSTEM, REFORMS IN THE FIELD OF SCIENCE AND INNOVATION

Shahina Shukhratova¹

¹*Student of UzSWLU, Uzbekistan*

E-mail: shukhratovashakhina@gmail.com

Abstract:

This article explores the vital role of reforms in the fields of education, science, and innovation in advancing society. Educational reforms focus on improving the quality of education, promoting STEM education, integrating technology in classrooms, and investing in teacher training to prepare students for the future workforce. In science and innovation, reforms aim to cultivate a research-oriented culture, foster interdisciplinary collaborations, and promote diversity and inclusion in STEM fields. These reforms are crucial for driving progress, nurturing creativity, and positioning countries for sustainable development and global competitiveness. Ongoing efforts in these areas are essential for tackling complex issues and discovering new avenues for societal growth and progress.

Keywords:

Educational system, education reforms, teacher training and development, interdisciplinary research, science and innovation.

Improving the educational system, science, and innovation is essential for the progress of societies globally. The goals of these reforms include elevating the standard of education, encouraging scientific exploration, and fostering innovation to meet contemporary challenges. This article will explore various aspects of these reforms and their impact on society, delving into how they shape the future by enhancing education and promoting STEM subjects such as science, technology, engineering, and mathematics. Changes in curriculum, teaching approaches, and evaluation methods aim to cultivate critical thinking, problem-solving, and creativity in students.

Education reforms have highlighted the vital role of integrating technology into classrooms. The use of digital tools and online resources has transformed the way students are taught and how they learn. This has resulted in more interactive and accessible learning experiences through virtual classrooms, simulations, and tutorials. Additionally, the implementation of data analytics and artificial intelligence has paved the way for personalized learning tailored to the specific needs of each student.

Moreover, an essential part of educational reforms includes a strong emphasis on teacher training and development. Teachers play a crucial role in delivering high-quality education to students, and it is crucial to invest in their ongoing training and support. Programs for continuous professional development, mentorship initiatives, and opportunities for collaboration among peers have been introduced to enhance teaching practices and ensure educators are up-to-date with the latest educational trends.

In the realm of science and innovation, efforts have been made to enhance a culture of exploration and research. Governments and institutions have boosted funding for scientific studies, established top-tier research facilities, and encouraged partnerships among academia, industry, and government bodies. These reforms are aimed at expediting scientific advancements, fueling technological progress, and stimulating economic development.

A notable facet of the reforms in science and innovation is the emphasis on interdisciplinary research. By fostering collaboration across different fields, experts with varied backgrounds come together to address intricate challenges that necessitate diverse viewpoints and knowledge. By breaking down barriers between disciplines, researchers can venture into uncharted territories, stumble upon unexpected breakthroughs, and devise creative solutions for pressing issues.

Moreover, reforms in science and innovation have focused on promoting diversity and inclusion in research. Efforts to increase representation of women, minorities, and underrepresented groups in STEM fields are essential for harnessing the full potential of talent and ensuring that diverse voices are heard in the scientific community. Initiatives such as mentorship programs, networking opportunities, and targeted funding support have been implemented to create a more inclusive research environment.

In recent years, Uzbekistan has made significant progress in advancing science and innovation to encourage research and development and foster a culture of innovation. This includes initiatives like setting up technology parks and innovation centers to support startups and entrepreneurs in creating and introducing new technologies. These centers also promote collaboration between academia, industry, and government to drive innovation and boost economic growth.

Furthermore, Uzbekistan is focusing on boosting investment in research and development as part of its science and innovation reforms. The government has set ambitious targets to increase research and development spending as a percentage of GDP, aiming to position the country as a regional innovation hub. To achieve this, the government is offering tax incentives and other measures to encourage private sector investment in research and development, along with establishing grant programs to back research projects in key priority areas.

Besides these efforts, Uzbekistan is also focused on enhancing its higher education system to train a capable workforce that can lead innovation and economic progress. The country has made investments in improving university infrastructure, increasing research capabilities, and forming relationships with foreign universities and research establishments to boost cooperation and the sharing of knowledge.

In conclusion, reforms in the educational system, science, and innovation are essential for driving progress and prosperity in society. By investing in quality education, promoting scientific research, and fostering innovation, nations can build a strong foundation for sustainable development and global competitiveness. As we look towards the future, continued efforts to improve these key areas will be crucial for addressing the complex challenges of our time and unlocking new opportunities for growth and advancement.

References:

1. Collaboration as a strategy for promoting equity in education: Possibilities and barriers. *Journal of Professional Capital and Community*, 1(2), 159–172.

2. Antinluoma, M., Ilomäki, L., Lahti-Nuuttila, P., & Toom, A. (2018). Schools as professional learning Communities. *Journal of Education and Learning*, 7(5), 76–91.
3. Biesta, G. J. J. (2007). Why ‘what works’ won’t work: Evidence-based practice and the democratic Deficit in educational research. *Educational Theory*, 57(1), 1–22.
4. Burns, T., Köster, F., & Fuster, M. (2016). *Education governance in action: Lessons from case studies*. OECD Publishing.
5. Cerna, L. (2014). *Trust: What it is and why it matters for governance and education*. OECD Education Working Papers, No. 108. OECD Publishing.
6. Dowd, M. (2019). Ecosystem: Definition, types, structure & examples. [Sciencing.Com/ecosystem-definition-types-structure-examples-13719218.html](https://www.sciencing.com/ecosystem-definition-types-structure-examples-13719218.html)
7. European Commission. (2017). *School development and excellent teaching for a great start in life*. Communication from the Commission to the European Parliament, the Council, the European Economic and Social Committee and the Committee of the Regions. [Publication-detail/-/publication/aa9ffc00-4524-11e7-aea8-01aa75ed71a1](https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:52017C0601)
8. Field, S., Kuczera, M., & Pont, B. (2007). *No more failures. Ten steps to equity in education*. OECD.

EDUCATIONAL REFORMS IN UZBEKISTAN

Mirqodirova Zilola Shezod qizi¹

¹*State University of World Languages*

English philology student

mirqodirovazilola33@gmail.com

Abstract: The integration of technology in education has become a global trend, with many countries seeking to leverage digital tools to enhance learning outcomes. This research paper examines the current state of technology integration in Uzbekistan’s education sector, identifies key challenges and opportunities, and proposes strategies to maximize the benefits of technology in teaching and learning.

Key words: curriculum reforms, assessment methods, teacher training, professional development, current infrastructure, technology integration.

The rapid advancement of technology has transformed various aspects of society, including education. In Uzbekistan, the government has recognized the importance of incorporating technology into the education system to improve teaching and learning outcomes. This paper aims to explore the current status of technology integration in Uzbekistan’s education sector, analyze the challenges and opportunities associated with this process, and suggest strategies to effectively implement technology in schools.

Uzbekistan has made significant progress in integrating technology into its education system in recent years. The government has launched initiatives to provide schools with digital resources, such as computers, tablets, and internet connectivity[1]. Additionally, educational institutions have started using online platforms for teaching and learning purposes. However, there are still significant disparities in access to technology across different regions of the country, with rural areas facing greater challenges in adopting digital tools.

Despite the government's efforts to promote technology integration in education, Uzbekistan faces several challenges in this regard. One major obstacle is the lack of adequate infrastructure and resources in schools, particularly in rural areas. Many schools do not have access to reliable internet connectivity or modern computing devices, hindering the effective use of technology for educational purposes. Furthermore, there is a shortage of trained educators who are proficient in using digital tools for teaching[2].

Despite the challenges, Uzbekistan also has significant opportunities to leverage technology for educational purposes. The country has a young and tech-savvy population that is eager to embrace digital innovations. By investing in teacher training programs and providing schools with the necessary resources, Uzbekistan can create a more conducive environment for technology integration in education. Additionally, partnerships with international organizations and tech companies can help accelerate the adoption of digital tools in schools.

Curriculum Reforms

One of the fundamental aspects of educational reforms in Uzbekistan has been the revision of the national curriculum to align with international standards and cater to the needs of a modern workforce. The curriculum now emphasizes critical thinking, problem-solving skills, digital literacy, and entrepreneurship to equip students with the necessary competencies for success in a globalized world[3].

Assessment Methods

In line with the shift towards a competency-based education system, Uzbekistan has introduced innovative assessment methods to evaluate students' knowledge, skills, and abilities beyond traditional exams. Formative assessments, project-based assessments, and competency tests are now being used to provide a more holistic view of students' learning outcomes.

Teacher Training and Professional Development

Recognizing the pivotal role of teachers in driving educational reforms, Uzbekistan has invested in teacher training programs to enhance educators' pedagogical skills, digital literacy, and subject knowledge. Continuous professional development opportunities are being provided to ensure that teachers are equipped to deliver high-quality instruction that meets the demands of a modern education system.

Infrastructure Development

Improving infrastructure in schools has been a key focus of educational reforms in Uzbekistan. The government has allocated resources to upgrade school facilities, provide access to modern technology, and create conducive learning environments for students. Investments in infrastructure development have aimed to bridge the urban-rural divide and ensure equitable access to quality education across the country[4].

Challenges and Opportunities

Despite the progress made in educational reforms, Uzbekistan faces challenges such as disparities in access to quality education, limited resources in rural areas, and the need for sustained investment in teacher training and infrastructure development. However, the country also has significant opportunities to capitalize on its young population, embrace digital innovations, and foster a culture of lifelong learning.

Technology Integration

Technology integration has been a cornerstone of educational reforms in Uzbekistan, with efforts to leverage digital tools to enhance teaching and learning experiences. The government has implemented initiatives to provide schools with computers, internet connectivity, and digital resources, while also promoting the use of online platforms for educational purposes[.].

Recommendations for Future Improvement

To further advance educational reforms in Uzbekistan, it is essential to:

- Enhance collaboration between stakeholders in the education sector
- Strengthen monitoring and evaluation mechanisms to track progress and identify areas for improvement
 - Invest in research and innovation to drive continuous improvement in teaching and learning practices
 - Ensure sustainable funding for educational initiatives to support long-term growth and development
 - Invest in infrastructure: Upgrade schools with modern computing devices, internet connectivity, and interactive whiteboards to facilitate digital learning.
 - Provide teacher training: Offer professional development programs to educators to enhance their digital literacy skills and integrate technology into their teaching practices.
 - Develop digital content: Create online resources and educational apps that align with the national curriculum and cater to different learning styles.
 - Promote collaboration: Encourage partnerships between schools, universities, and tech companies to share best practices and resources for technology integration.

Educational reforms in Uzbekistan have laid a strong foundation for transforming the education system and preparing students for success in a rapidly changing world. By addressing challenges, seizing opportunities, and implementing strategic recommendations, Uzbekistan can continue on its path towards building a more inclusive, innovative, and future-ready education system.

References:

1. Ministry of Public Education of the Republic of Uzbekistan. (2021). National Education Development Strategy 2021-2030.
2. World Bank Group. (2020). Education Sector Review: Transforming Education in Uzbekistan.
3. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO). (2019). Education Policy Review: Uzbekistan.
4. European Union Delegation to Uzbekistan. (2018). Enhancing Quality Education in Uzbekistan: A Policy Brief.
5. International Labour Organization (ILO). (2021). Skills Development for Youth Employment: Case Studies from Uzbekistan.

VITAGEN TAJRIBA ASOSIDA TALABALARDA TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR TAMOYILLARI

Pirniyazova Malika Kenesbaevna¹

¹*Nizomiy nomidagi TDPU tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Maqolada vitagen tajriba asosida talabalarda tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ustuvor tamoyillari rivojlantirish jarayoninig tashxis xarakteriga ega. Shu bois talabalarning ularda tadbirkorlik kompetensiyalarining rivojlani uchun asos bo‘luvchi vitagen tajribaga egaliklarini aniqlash, darajasini baholash talab qilinadi.

Kalit so‘zlar: Tadbirkorlik kompetensiyalari, Vitagen tajriba, Shaxsning individual *xususiyatini hisobga olish*, “Integratsiyalashuv”, “Qonun ustuvorligi”, “Ijtimoiy faollik”.

ПРИОРИТЕТНЫЕ ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ОПЫТА ВИТАГЕН

Пирниязова Малика Кенесбаевна¹

¹Соискатель ТГПУ имени Низами

Аннотация: В статье приоритетные принципы развития предпринимательских компетенций у студентов на основе витагенного опыта носят характер диагностики процесса развития. Поэтому необходимо определить и оценить уровень витагенного опыта студентов, который является основой развития предпринимательской компетенции.

Ключевые слова: Предпринимательские компетенции, Опыт Витаген, Учет индивидуальных особенностей человека, «Интеграция», «Верховенство закона», «Социальная активность».

PRIORITY PRINCIPLES OF DEVELOPMENT OF STUDENTS' ENTREPRENEURIAL COMPETENCES BASED ON THE VITAGEN EXPERIENCE

Pirniyazova Malika Kenesbaevna¹

¹Researcher of TSPU named after Nizami

Annotation: In the article, the priority principles of the development of entrepreneurial competencies in students based on vitagen experience have the character of a diagnosis of the development process. Therefore, it is necessary to determine and assess the level of students' vitagen experience, which is the basis for the development of entrepreneurial compensation.

Keywords: Entrepreneurial competencies, Vitagen experience, Taking into account the individual characteristics of the person, "Integration", "Rule of law", "Social activity".

Talabalarda tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida eng murakkab jarayon – ular tomonidan biznes faoliyatini iqtisodiy hamda texnologik jihatdan yuritish qobiliyatini ifodalovchi kompetensiyalarning samarali o'zlashtirilishiga erishish sanaladi. Mavzuga oid manbalarda bu turkumga kiruvchi kompetensiyalar sirasida o'nga yaqin kompetensiyalar sanab o'tilgan bo'lsa ham tadqiqot jarayonida nazariy tahlil asosida ular orasidan to'rtta kompetensiya ajratib olindi. Binobarin, talabalarning mavjud vitagen tajribalari tanlab oliningan ushbu to'rt turdagi kompetensiyalarni, xususan, pul mablag'lari bilan muomala qilish, mahsulot ishlab chiqarishni loyihalashtirish va tashkillashtirish, mahsulotni ishlab chiqarishni rejalashtirish va boshqarish malakasi, loyihani amalga oshirishning ekologik oqibatlarini ko'ra olish kabi kompetensiyalarni rivojlantirish uchungina xizmat qiladi. Tadqiqotning umumiy mohiyati vitagen tajriba asosida talabalarda tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning quyidagi tamoyillarga asoslanishi kutilgan natijani kafolatlabdi.

1. Ijtimoiy-pedagogik retrospektivlik tamoyili. Ijtimoiy-pedagogik retrospektiv metod “muayyan shaxs, guruh yoki jamiyatning shakllanish tarixini o’rganish bo’lib, ushbu metod pedagogik ob’ektni qiyosiy o’rganish va yakuniy xulosalarga kelish imkoniyatini beradi” [2]. Tadqiqotni olib borish davrida mazkur tamoyildan talaba tomonidan o’zlashtirilgan vitagen tajribaning muhim omillari, ularning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga ta’siri o’rganildi.

2. Shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili. Har bir shaxsda uning o’ziga xos bo’lgan u yoki bu turdagi individual xususiyat namoyon bo’ladi. B.M.Teplov shaxsga xos individual xususiyatni quyidagicha tavsiflaydi: shaxs tomonidan muayyan faoliyat turi bo’yicha faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlovchi sub’ektiv o’ziga xoslik (qobiliyatlar). Sub’ektiv xarakterga ega ushbu o’ziga xos qobiliyatlar shaxs tomonidan o’zlashtirilgan bilim, ko’nikma va malakalarga bog’liq bo’lmaydi. Ular shaxsning ichki, psixologik imkoniyatlariga tayangan holda ma’lum faoliyat turini ma’lum vosita va usullar yordamida tezkor, puxta va aniq o’zlashtirishga yordam beradi.[3]

Elektron manbalarning birida shaxsga xos individual xususiyatlarning quyidagi ro’yxati keltiriladi: konstruksiyalash va kashfiyot yaratishga moyillik; kirishimlilik; mahsulot reklamasini tashkil qila olish va boshqalarni ishontira bilish qobiliyati; pul mablag’lari bilan oqilona muomala qilish malakasi; axborotlarni samarali yig’ish va tizimlashtira olish layoqati; notiqlik va yoza olish qobiliyati; faoliyatni samarali rejalashtira olish malakasi; tavakkal qila olish malakasi; kuchli xotiraga egalik qobiliyati; tezkor ta’sirlanish qobiliyati; xayrixohlik fazilati; faollik va serg’ayratlilik; diqqatlilik va zehnlilik; tashkilotchilik qobiliyati; matematik qobiliyat; o’ta mas’uliyatli bo’lish.[1]

Vitagen tajriba asosida talabalarda tadbirkorlik kompensiyalarini rivojlantirishga yo’naltirilgan ilmiy-pedagogik faoliyatda respondent-talabalarning ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatini samarali olib borilishiga imkon beradigan individual xususiyatlar – pul mablag’lari bilan oqilona muomala qilish hamda tavakkal qila olish malakalariga egaliklarini aniqlashga alohida e’tibor qaratildi.

3. Ijtimoiy-axloqiy me’yorlarga tayanish tamoyili. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish halollik, rostgo’ylik, lafzli bo’lishni taqozo qiladi. Binobarin, Islomiy qarashlarga ko’ra tadbirkorlik, xususan, tijorat – oliyjanob ish bo’lib, uni axloqiy mezonlarga muvofiq tashkil qilish orqali savobga ega bo’linadi. Tijoratda, bordi-yu, halolik unutilsa, uning gunohi nihoyatda og’ir bo’lishi aytilgan.

Tajriba-sinov ishi davrida talabalar tadbirkorlik, xususan, tijoratni tashkil etishning quyidagi Islomiy odoblari bilan tanishtirib o’tildi: savdo va uning turlariga oid shar’iy hukmlarni o’rganish; savdo molini maqtash uchun yolg’on gapirish harom ekanini unutmaslik; molni o’tkazish uchun yolg’on qasam ichish eng katta gunohlardan biri ekanini yodda tutish; savdogarning rostgo’y bo’lishi uning bu dunyosi va oxirati uchun sharafli unvon ekani; savdoda odamlarning aldash harom ekani; tarozidan va o’lchovdan urib qolishning mutlaqo haromligi; savdoda ehtikor (monopoliya)ning, riboning, bozorga keltirilayotgan savdo molining oldini to’sib

chiqib, arzonga olib, qimmatga sotish, birovning savdosi ustiga, u baholashishini tugatmay turib savdo qilish, shariatda harom qilingan.

narsalar savdosining harom ekani; niyatni yaxshilash va Alloh taoloni zikr qilish; saharxezlik va ishni erta boshlash; baqir-chaqir qilmaslik va odoblarga rioya qilishga intilish; bag'rikenglikka intilish; narxni haddan tashqari qimmat qilib yubormaslik; shubhali narsalardan yiroqda bo'lish; savdo molidan xayr-ehson qilib turish; savdo molidan zakot berishning farzligi va ushbu moliyaviy ibodatni vaqtida ado etish lozimligi; hamkorlar bilan yaxshi aloqada bo'lish; zolim xaridorga yordam bermaslik; xaridor bilan go'zal muomalada bo'lish; qalbaki pullarni muomalaga kiritmaslik; savdodan aynib qolgan xaridorga yordam berish.[3]

4. Tarixiy vorislik tamoyili. Mazkur tamoyil "o'tmish haqiqatlari, saboqlarining yangicha ko'rinish, yangi shaklda yosh avlodga uzatilishini anglatadi.[2] L.I.Jarikova ta'kidlaganidek, "tarixiy vorisiylik mohiyati uzluksiz ta'lim tizimi elementlari yoki alohida tavsiflarining yangi holatga o'tish jarayonida saqlanib qolinishida ko'rinadi".[4]

Talabalarda tadbirkorlik kompensiyalarini rivojlantirish davrida tarixiy vorislik tamoyilidan respondent-talabalar ega bo'lgan vitagen tajribalarni turli ijtimoiy davr hamda makonlarda yashab, jahon va milliy miqyosida biznes sohasida muvaffaqiyatga erishgan top-menejerlar, yirik ishbilarmonlarning ish uslublari bilan uyg'unlashtirish maqsadida qo'llanildi.

5. Integratsiyalashuv tamoyili. Bu tamoyildan talabalarning mavjud vitagen tajribalari hamda ularning negizida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishni oila va OTM, ta'lim va tajriba, shuningdek, turli fanlar o'rtasida o'zaro integratsiyani qaror toptirish orqali amalga oshirilishi uchun zarur sharoitni yaratish maqsadida foydalanildi.

6. Qonun ustuvorligi tamoyili. Tadbirkorlik faoliyatining qonuniy asosda amalga oshirilishi uning izchil, xavfsiz, barqaror tashkil etilishini ta'minlash bilan birga tadbirkor hayotining farovon bo'lishini ta'minlash bilan birga jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Tadqiqot davrida talabalar tadbirkorlik yo'nalishida faoliyat olib borishning huquqiy asoslarini belgilab beruvchi milliy qonunchilik asoslari bilan tanishtirildi.

7. Iqtisodiy moslashuv tamoyili. Shaxs kamolotini belgilovchi muhim shartlardan biri – uning jamiyatga ijtimoiy moslasha olishi sanaladi. Bozor munosabatlari esa shaxsdan jamiyatga nafaqat ijtimoiy, shu bilan birga iqtisodiy jihatdan ham samarali moslasha olishni talab qiladi. Shaxsning jamiyatga iqtisodiy moslashuvi u tomonidan o'zlashtirilgan vitagen tajriba, iqtisodiy bilim asoslariga oid bilimlarning o'zlashtirilganligi bilan belgilanadi. Tadqiqot jarayonida talabalarni tadbirkorlik faoliyat turlarining iqtisodiy, moliyaviy asoslari bilan tanishtirish orqali ularning bu boradagi bilim, ko'nikma, malaka va tajribalarining rivojlanishiga erishildi.

8. Ijtimoiy faollik tamoyili. Xolerik temperament (mijoz) ga ega shaxs ijtimoiy jihatdan ham faol bo'ladi. Ijtimoiy faollik esa shaxsga tadbirkorlik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishiga imkon beradi.[4] Uning tegishli sohada muvaffaqiyatg erishishining asosiy omili – uning ijobiy hissiyot (intiluvchanlik, qiziquvchanlik, o'z kuchiga bo'lgan ishonch)ga egaligi, turli murakkab vaziyatlarda o'zini boshqara olishi, ijobiy ma'nodagi qaysarligi, g'ayratli, harakatchan, faol, tashabbuskor ekani bilan belgilanadi. Tadqiqot davrida xolerik temperamentga ega talabalarga o'z imkoniyatlaridan samarali, maqsadli foydalanishga oid ko'rsatmalar berildi.

9. Kommunikativlik tamoyili. Zamonaviy shaxs qiyofasida aks etishi zarur bo'lgan sifatlardan biri – kommunikativlik hisoblanadi. “Kommunikativ” tushunchasi negizida “shaxslar o'rtasida axborot, bilim, g'oya hamda fikrlarning faol almashinuvi” tushuniladi.[3] Tadqiqot davrida talabalarga tadbirkorlik faoliyatida sohaga oid axborotlarga tezkor ega bo'lish, ish tajribalarini doimiy rivojlantirib borish muhim ekani eslatilishi bilan birga ularda hamkorlar, tadbirkorlik faoliyatini yuritishda ishtirok etayotgan shaxslar o'rtasida o'zaro axborot, bilim, g'oya hamda fikrlarni almashish malakasini rivojlantirishga ham e'tibor qaratildi.

10. Ichki to'siqlarni engga olish tamoyili. Tadbirkorlik o'z mohiyatiga ko'ra to'liq tavakkalchilikka asoslanadi. Ko'p sonli shaxslarning bir-bir sohada yutuqqa erisha olmasligi – ularning o'zidagi ichki to'siqlar – ikkilanish, xavotirlanish, qo'rqish, shubhalanish, boshqalarni ayblayverish, atrofdagilarga ishonmaslik kabi salbiy psixologik xususiyatlarga egaligi bilan bog'liq. O'zidagi bu kabi ichki to'siqlarni engga olishgina talabalarni muvaffaqiyatli tarzda tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishlariga imkon beradi.

11. Sub'ektlarning motivatsion ta'siri tamoyili. Tajriba-sinov ishini olib borishda yirik ishbilarmonlar, muvaffaqiyatli top-menejerlarning motivatsion qarashlaridan foydalanildi.

12. Vitagen yondashuv tamoyili. Butun tadqiqot jarayonida ushbu tamoyilga tayanib ish ko'rildi. Talabalarining vitagen tajribalarga egaligini aniqlash va baholash e'tiborda bo'ldi.

13. Kasbga yo'nalganlik tamoyili. Respondent-talabalarining tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantiruvchi vitagen tajribaga egaliklari o'z navbatini ularni kasbga yo'naltirishga ham yordam beradi. Natijada talabalar mutataxassisliklari bilan birga tadbirkorlik sohada ham faoliyat olib borish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Агранович М.Л. Индикаторы достижения селей устойчивого развития в сфере образования и национальная образовательная политика // [хттпс://сйберленинка.ру/артисле/н/индикаторй-достизхения-тселей-устойчивого-развития-в-сфере-образования-и-натсиональная-образовательная-политика](https://сйберленинка.ру/артисле/н/индикаторй-достизхения-тселей-устойчивого-развития-в-сфере-образования-и-натсиональная-образовательная-политика).

2. Большая энциклопедия психологических тестов / Электронная книга. ДиректМедиа, 2005. – С. 5.
3. Пирниязова М.К., Аvezов Б, “Use Of Elements Of Drawing In Teaching Technology At School” Turkish Journal of Computer and Mathematics Education Vol.12 No. 11 (2021), 6349- 6352
4. Толипов Ў.К, Пирниязова М. К, “Коллективная творческая деятельность и технологии её организации” Высшее и среднее профессиональное образование россии: вчера, сегодня, завтра
Материалы 17-ой Международной наусхно-практисхеской конференции
(г. Казан, 23 мая 2023 года)

OLIV O'QUV YURTI TALABALARINING O'QUV YUTUQLARI MONITORINGI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Azimjon Xamdami¹

¹Termiz davlat universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ta'limni olib borish jarayonida talabalarning natijaviy ko'rsatkichlarini nazoratda ushlab turish muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu maqolada oliy o'quv yurti talabarlari ta'lim natijalari monitoringini yuritish yuritish masalalari muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: Monitoring, kompetentlik, diagnostika, ta'lim, natija, o'qitish, metod.

KIRISH

Hozirgi raqamlashtirish, kompyuter texnologiyalari jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan hamda iqtisodiyotni modernizatsiyalashning taraqqiyoti davrida har bir mamlakat o'z rivojlanish strategik maqsadlarini belgilashi barcha sohalar qatori oliy ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi.


Jahon hamjamiyatida yetakchilik qilayotgan mamlakatlar oliy ta'lim rivojiga davlat siyosatini ustuvor yo'nalishi sifatida e'tibor qaratib, katta hajmdagi vazifalarni amalga oshirishmoqda. Jumladan, mamlakatimiz hayotining (ilmiy-texnik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy) barcha soha va jabhalarini isloh etish, modernizatsiya qilish jarayonlarining bilvosita ishtirokchisi, barqaror rivojlanish asoschisi zamonaviy bilim va yuqori malaka hamda kasbiy kompetensiyaga ega kadrlar bo'lganligi bois, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ham oliy ta'lim tizimiga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasida yuksak e'tirof etilmoqda.

Ya'ni, kelajak bunyodkori bo'lmish yoshlarni har tomonlama yetuk, bilimli, malakali, raqobatbardosh, yangiliklarni tez o'zlashtira oladigan, o'zgaruvchan muhitga, jamiyatga tez moslasha oladigan, mehnat bozori talablariga javob bera oladigan, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan, yuqori salohiyatga ega kadr sifatida kamol topishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

Ammo shunga qaramay, oliy ta'limda sifat borasida o'zgarishlar sezilmayotganligi, ta'lim sifatini yaxshilash, ta'lim faoliyati natijalarini baholash, kadrlar tayyorlashni bozor konyukturasi asosida tashkil etish kabi o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjud.

Ushbu muammolar yechimi, oliy ta'lim muassasalaridan boshqaruv faoliyatiga yangicha yondashuvni qo'llashni, yangi boshqaruv vositalarini joriy etish va ulardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yishni talab etadi. Fikrimizcha, boshqaruv faoliyati asosiy e'tiborni obektni tashxislashga, monitoringini yuritishga va baholashga qaratsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tashxislash, monitoring va baholash natijalari orqali, boshqaruv faoliyati - obekt faoliyati, uning qiymati, sifat-samaradorligi haqida ma'lumotga ega bo'lib, asoslangan qarorlarni qabul qiladi (1-rasm) [2].



1-rasm. Talabalar faoliyati, ta'lim natijalari va yutuqlarini tashxislash komponentalari

Bundan tashqari, ta'lim natijalariga nisbatan kompetentli yondashuv mezonlarida ifodalangan yangi talablar kasbiy tayyorgarlik sifatini baholash metodikasini takomillashtirish zaruratini ham taqozo etadi.

Sifatga ISO 9001 asosida standartlashtirish bilan shug'ullanadigan Xalqaro tashkilotlar hujjatlariga muvofiq ob'ektning o'rnatilgan va ehtimolli ehtiyojlarni qanoatlantiruvchi ko'nikmalariga tegishli tavsiflar yig'indisi sifatida ta'rif berilgan.

Ta'lim tizimida odatda sifat tavsiflarining ikkita guruhi mavjud: rejalashtirilgan natijalarga erishishga qaratilgan jarayon sifati va ta'lim natijasining

sifati. Ikkinchi guruh tavsifi aniq tarzda erishiladigan ta'lim natijalarining me'yoriy talablar, talabalarning ijtimoiy va shaxsiy natijalariga nisbatan muvofiqlik darajasini aks ettiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

J.Tolipova, P.I. Obrazsov, P.I. Pidkasistiy, V.P. Simonov, T.I. Shamova va boshqa olimlar ishlarining tahlili nazoratning mavjud xilma-xil turlarini quyidagi asoslar bo'yicha tavsiflash imkonini beradi [3-6]:

- o'qitish maqsadi doirasi bo'yicha: strategik, taktik, operativ;
- o'qitish bosqichlari bo'yicha: boshlang'ich (saralab olish), o'quv (oraliq), yakuniy (oxirgi);
- o'tkazish davri bo'yicha: davriy, muntazam;
- nazorat qilinishi kengligi bo'yicha: lokal (mahalliy), tanlov asosida, mutassil;
- ijtimoiy aloqadorlik shakllari bo'yicha: tashqi, mutassil, ichki;
- tashkiliy shakllari bo'yicha: jamoaviy, frontal, individual;
- o'quv mashg'ulot turlari bo'yicha: ma'ruza va seminarlarda; amaliy va laboratoriyamashg'ulotlarda; sinov, kollokvium va imtihonlarda; amalga oshirish usullari bo'yicha: og'zaki, yozma; kompyuterli, kompyutersiz.

Bizning nazdimizda baholash ob'ekti soha mutaxassisligi ta'lim dasturining talabalar tomonidan o'zlashtirilishi, ya'ni kasbiy kompetentlikka oid barcha komponentlarining shakllanganlik darajasi bilan o'lchanadi. Talabalarni o'qitish bosqichlariga ko'ra quyidagilar baholanadi: talabalar tayyorgarligining boshlang'ich darajasi (dastlabki baholash), talabalarning modul yoki fanni o'zlashtirgandan keyingi ta'lim natijalari (joriy baholash), yakuniy attestatsiyadagi kasbiy tayyorgarlik sifati (bitiruvchilarda shakllangan kompetensiyalarning DTS malaka talablariga muvofiqlik darajasi).

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Baholashning maqsadi umumiy tarzda olingan natijalarning ko'zlangan natija yoki dastlabki taxminlarga muvofiqligini o'rnatish sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. O'qitishning har bir bosqichida tayyorgarlik mazmunini hisobga olgan holda maqsad aniqlashtiriladi, vazifalar belgilanadi. Misol uchun joriy baholash quyidagimaqsadlarda amalga oshirilishi mumkin [4]:

- talabani e'tiborini o'qitish maqsadlari va muvaffaqiyatga erishish mezonlarigaqaratish;
- o'qituvchining harakatlarini har bir talabani individual rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishga yo'naltirish;
- talabaga keyinchalik ta'lim olishi, ta'lim dasturini o'zlashtirish bo'yicha mustaqil ishi, mustaqil ta'lim olishini tashkil etish uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim qilish;
- bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy ta'lim dasturini qay darajada muvaffaqiyatli o'zlashtirganligi bo'yicha o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantirish;
- talabani kelgusidagi maqsadli o'qitishga nisbatan motivatsiya berish;
- real vaziyatlarda sodir bo'layotgan hodisalarni muntazam ravishda kuzatish

hamda ularning natijalarini boshqaruv jarayoniga qo‘shib borish.

Malaka talablarini amalga oshirish kasbiy tayyorgarlik sifati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni uzluksiz ilmiy asoslangan tarzda kuzatishni nazarda tutadi. Shakllantiriladigan kompetensiyalarni baholashga nisbatan monitoring bakalavriat dasturi bo‘yicha tahsil oluvchi talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarning shakllanganligi darajasi to‘g‘risidagi axborotlarni jamlash, qayta ishlash, saqlash va tarqatish tizimi sifatida ko‘rib chiqiladi [1].

Kompetensiyalar shakllanganligi monitoringning quyidagi vazifalarini ajratish mumkin:

–diagnostik, kompetensiyalar shakllanganligi darajasini kuzatishni nazarda tutadi;

–korreksion vazifa, muammolarni aniqlash va hal qilishni nazarda tutadi;

–motivatsion vazifa, ta’lim jarayoni ishtirokchilarini o‘z-o‘zini mustaqil rivojlantirishga undashga yo‘naltirilgan.

Monitoring vazifalari negizini quyidagi tamoyillar tashkil etadi:

– monitoringning axboroti malaka talablari va ish beruvchilarning talablarini amalga oshirish darajasi va sifatini aks ettirishini nazarda tutuvchi ijtimoiy-me’yoriy bog‘liqlik tamoyili;

– tezkorlik tamoyili boshqaruvlik qarorini qabul qilish uchun talabalarda kompetensiyalarning holati va shakllanganlik sur’ati to‘g‘risida axborotni jamlash, qayta ishlash va taqdim etishni nazarda tutadi.

Shakllantiriladigan kompetensiyalar sifati monitoringi birinchi kursdan to‘rtinchi kursgacha bosqichma-bosqich tashkil qilinadi. Uning pedagogik amaliyotida qabul qilingan asosiy bosqichlari quyidagilar hisoblanadi:

–diagnostik (boshlang‘ich),

–joriy (operatsion),

–yakuniy (davriy va yakuniy attestatsiya).

Monitoringning diagnostik (boshlang‘ich) bosqichi talabalar tayyorgarligining boshlang‘ich darajasini qayd qilish hamda o‘qitishning individual traektoriyasini qurish uchun qo‘llaniladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muhiti sharoitlarida talabalarni dastlabki baholash natijalari uning individual darajadagi akademik muvaffaqiyatini boshlang‘ich bilimlarsifatida qo‘llaniladi. Monitoringning diagnostik bosqichi ikki turda bo‘lishi mumkin:

– startli (birinchi kurs talabalarida), ularning asosiy ta’lim dasturini o‘zlashtirishga bo‘lgan tayyorgarligi darajasini belgilaydi,

–dastlabki (tayanch), aniq bir fanni (modulni) o‘zlashtirish boshida.

Boshlang‘ich baholash o‘z-o‘zini baholash shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Monitoringning joriy (operatsional) bosqichidan talabalarning o‘quv faoliyatini tezkor va muntazam boshqarish uchun foydalaniladi. U o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonining borishi va sifati to‘g‘risida axborot olish, zarurat bo‘lganda –korreksion harakatlardan foydalanish imkonini beradi.

Monitoringning yakuniy bosqichi bitiruvchilarda shakllangan kompetensiyalarning davlat imtihoni hamda bitiruv malakaviy ishini bajarish

jarayonida tegishli kasbiy yo‘nalish talablariga muvofiqligi darajasini aniqlash uchun mo‘ljallangan.

Monitoring natijalarini talqin qilish talabalarda kompetensiyalar shakllanganligining qayd qilingan darajasini rejadagi ko‘zlangan daraja bilan solishtirish, ya’ni malaka talablari, o‘quv fani dasturining yakuniy maqsadi, kasbiy modul yoki o‘qitishning butun dasturi asosida amalga oshiriladi.

Talabalarda kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini baholash uchun ilmiyasoslangan mezonlar tizimidan foydalanish zarur.

Kompetensiyalarning shakllanganlik darajasi deganda ularning kasbiy faoliyatini amalga oshira olish ko‘nikmalari, intellektual va ijtimoiy faolligida namoyon bo‘ladigan ifodalanganlik darajasi tushuniladi. Tadqiqotlarda ko‘pincha talabalar kompetentligi shakllanganligining dastlabki va yuqori darajalari ajratiladi. Ayrim mutaxassislar yanaildamlovchi darajani ham ajratishadi. Ularning har birini tavsiflab chiqamiz.

Talaba kompetentligi shakllanganligining yuqori darajasi qo‘shimcha mezonlar bilan xarakterlanadi: tahlil va sintez. Agarda bakalavr mazkur ta’lim sohasiga muvofiq ob’ekt, hodisa va jarayonlar xususiyatlari to‘g‘risidagi axborotni tahlil qilsa, anglasa va tavsiflay olsa, aniq ob’ekt va hodisalarni tasvirlashga oid o‘rganiladigan nazariyalarni qo‘llash to‘g‘risidagi masalalarini hal qila olsa uning kompetentligi yuqori darajada shakllangan deb hisoblash mumkin.

Kompetentli yondashuv talablariga javob beradigan kasbiy tayyorgarlik sifatini baholash nazoratning an’anaviy hamda yangi (innovatsion) turlari, shakllari vametodlaridan foydalanishni nazarda tutadi.

1-jadval

Nazorat turlari, shakllari, va metodlari mutanosibligi

Nazorat turlari	Nazoratning tashkiliy shakllari	Metodlar
Joriy	Nazorat ishlari, hisobotlar,mustaqil ishlar	Og‘zaki, yozma,grafik, amaliy, dasturlashtirilgan
Oraliq	Kollokviumlar	Og‘zaki
	Loyiha himoyasi	Og‘zaki, yozma,grafik, amaliy, dasturlashtirilgan
	Nazorat ishi	
Yakuniy	Zachyot, imtihon	Og‘zaki, yozma, grafik
	Kurs ishi himoyasi,	Og‘zaki
	Bitiruv malakaviy ishi himoyasi	

Bilim, ko‘nikma va malaka sifatini baholashga qaratilgan nazoratning an’anaviy usullari joriy va oraliq attestatsiyani o‘tkazish uchun qo‘llanilishi mumkin. Biroq ulardan foydalanish chog‘ida bunday bilim va ko‘nikmalar shakllantiriladigan kompetensiyalar tizimiga singib ketishiga e’tibor qaratish lozim.

XULOSA VA MUNOZARA

Baholashning innovatsion vositalariga quyidagilarni kiritish mumkin: reyting ball tizimi, portfolio, keyslar, vaziyatli topshiriqlar, loyihalar, kurs ishlarini jamoalardabajarish, idoraviy, rolli, tashkiliy-faoliyatli.

Bizning fikrimizcha, ta'lim sifatini baholash bo'yicha yangi metodologiyalar hamda nazorat qilish metodikalarini yaratish va joriy etish ishlari ta'lim jarayoni ishtirokchilarining psixologik holati va jismoniy sog'lig'iga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan xavflarni hisobga olish orqali amalga oshirilishi lozim.

Shunday qilib, ishlab chiqilayotgan hamda amaliyotda joriy qilinayotgan biologiya ta'lim yo'nalishi bakalavrlarining kasbiy kompetenligini baholash metodikasi kompleksva ko'pfunksional xarakterga ega bo'lmog'i hamda baholash faoliyatining ko'p komponentli ekanligini hisobga olmog'i lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 21 avgustdagi PQ-4805-son «Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.08.2020 y., 07/20/4805/1174-son.

2. Zaripova M.D. Improving the quality of training of high qualified personnel on the basis of competence level assessment //GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY. – 2021. – C. 139.

3. Efremova N.F. Ta'limdagi ta'lim yutuqlari sifatini nazorat qilish testi: diss..... dok. ped. Sci. Rostov-na-Donu, 2014. 458 b.

4. Kolyada L.A. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini nazorat qilish: referat. samimiy. ped. Fanlar / Saratov, 2017. 23 b.

5. Kondrashov V. Eng yangi falsafiy lug'at. Rostov-na-Donu: Feniks, 2015 yil.

6. Kompetentsiya. Professionalizm. Mahorat / A. S. Belkin. - Chelyabinsk: Janubiy Ural kitobi. nashriyoti, 2014. - 171 pp.; 22 sm/

O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA ELEKTRON DARSLIKLARNING AHAMIYATI VA ELEKTRON DARSLIKLAR YARATISHDA JAVA TEHNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Saidov Raxmon Xolmurodovich¹

*¹Termiz Davlat Universiteti Kompyuter tizimlari
va ularning dasturiy ta'minoti (tarmoqlar va sohalar
bo'yicha) yo'nalishi magistranti*

766raxmon7537@gmail.com

Annotatsiya. Bu maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, ta'lim tizimining sifatini oshirishga qaratilgan omillar muhokama qilinadi. Jumladan, darsliklarni dasturlash va natijada elektron darsliklar yaratish yo'lidagi izlanishlar o'rin olgan. Tanlangan dasturlash tili sifatida Java Script

tilining imkoniyatlari va bu til yordamida elektron darsliklar yaratish muhokamasi keltirilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston ta'lim tizimi, darsliklar, elektron darsliklar, Java Script.

So'nggi yillarda yurtimizda ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Yurtimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodga munosib ta'lim-tarbiya berish yo'lidagi izlanishlar o'z natijasini ko'rsatmoqda. Mamlakatimiz prezidenti boshchiligida ta'lim tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirish, uni rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi darajasiga ko'tarish, maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, maktab ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish yo'lida islohotlar amalga oshirilmoqda. Umumta'lim maktablari uchun tayyorlanayotgan multimedia vositalari, darsliklar va o'quv qo'llanmalari o'g'il-qizlarning bilimlarini yanada mustahkamlash bilan birga, pedagoglar uchun ko'makchi vazifasini ham o'tayotganligi hech kimga sir emas.

Zamonaviyda ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. O'quv jarayonida deyarli har bir fan doirasida elektron materiallar va zamonaviy texnologiyalar faol qo'llanilib kelinyapdi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, elektron o'quv qo'llanmalaridan foydalanish nafaqat kelajakdagi mutaxassislikka qiziqishni, balki o'rganilayotgan fan bo'yicha o'quv faoliyatini ham oshirishi mumkin. Aksariyat o'quvchilar va talabalar ma'lumotni vizual tarzda yaxshiroq qabul qiladilar, ayniqsa, agar u yuqori sifatli bo'lsa. Bu dasturlar har bir o'quvchiga tayyorgarlik darajasidan qat'iy nazar, ta'lim jarayonida faol ishtirok etish, o'quv jarayonini individuallashtirish, o'z-o'zini nazorat qilish imkonini beradi.

Theoretical Basis. Reforms in the higher education system constitute the main part of the reforms implemented in the field of education. And in this regard, the countries of the world are discussing the transition to “The Four Industrial Revolution – 4IR”. The main goal of this is to achieve financial freedom while renouncing the lobby of external influences and increase the share of the country's GDP growth. In particular, we need to have a deep understanding of this project, which was specially developed for the reform of the higher education system.

➤ Universities of the "University 1.0" model are mainly limited to education, only basic theoretical knowledge is provided.

➤ In the "University 2.0" model, universities organize the scientific activities of students and pedagogues along with education, and create the necessary conditions for it.

➤ Universities in the "University 3.0" model develop educational and research activities. They apply and finance specially created scientific ideas and projects to business. sets off.

➤ The "University 4.0" model is fundamentally different from other models, and it would not be wrong to say that it is a much improved version of them.[3] In it, universities fundamentally reform the industrial and production sectors of the national economy, open new directions and aspects, and optimize costs from minimal opportunities to maximal results. it is very important to achieve digitalization of every aspect of the economy by limiting the human factor, to create and implement new innovative models that ensure financial growth.

Results. According to the "Uzbekistan - 2030" strategy, the biggest change in the education system was the increase in the share of the private sector, which, in turn, created a great basis for creating a healthy competitive environment.[4] According to it, the state and non-state educational organizations have equal rights according to normative legal documents, and the competition between them is a guarantee of achieving high efficiency in the educational system. In general, the purpose of this concept is as follows:

➤ acceleration of intellectual development, which is the foundation of progress in all areas;

➤ training of sought-after and competitive personnel that meets the requirements of any time and providing the labor market with quality workers;

➤ effective organization and financing of scientific and innovative activities;

➤ development of integration of science, education and industry in order to strengthen international cooperation with the world's top universities.

In particular, the transformation of the education system implies the following:

1. to ensure the integration of educational processes and create a strategy that supports post-process operations;

2. increase the quality and efficiency of education;

3. introduction of new automated work principles;
4. ensuring the establishment of consistent cooperation with all educational institutions entering the new environment;
5. significant improvement of education using new digital technologies (analytical database, social media, mobile);
6. simplifying processes by integrating the system, offering convenient, transparent and fair educational services for students;
7. practical application of the knowledge and experience gained in educational institutions, such as increasing the interest of the employer partner organizations at the expense of providing quality personnel.[5]

Discussion. Further development of higher education in Uzbekistan and entry into the top 1000 of the world by 2030, participation in international rankings and analysis of the educational strategy of the countries with high results, testing on our own and placing universities in international rankings development of a number of programs for inclusion, as well as giving them financial and academic independence, is being carried out step by step. As a result, it provided an opportunity to ensure their free activity, define an independent perspective, and use advanced foreign technologies and experience. But this process, in turn, involves updating the existing material and technical base of educational institutions, creating new and modern textbooks, teaching-methodical complexes, increasing the scientific potential of professors and teachers, and academic mobility of students and teachers with foreign universities. requires the transformation of education in order to increase, organize internships, introduce new systems and methods of teaching.

To support such an initiative, the following transformation systems are implemented:

1. approach to the use of new digital technologies and opportunities of educational institutions;
2. to understand how this system changes the educational processes of the educational institution;
3. restructuring of internal processes to ensure the availability of opportunities offered by the introduction of new technologies;
4. The role of the institution's leadership is very important in ensuring the success of digital transformation.[6]

Conclusion. The process of transformation is not just a process of reform or change, but it is a qualitative improvement of society and all areas in it to a new level. The general goal of the process of innovation and transformation in the field of education is to bring the field of education to a new level of quality, to increase the participation of public institutions and non-governmental organizations, thereby

ensuring organic connection. That is, it is not wrong to say that the process of transformation, unlike the revolution, is a clear example of the process of evolution.

Reference:

1. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/14888>
2. "Digital Uzbekistan" of the President of the Republic of Uzbekistan on October 5, 2020 -On approval of the 2030 strategy and measures for its effective implementation" PF-6079-No. Ordinance
3. <https://zarnews.uz/uz/post/oliy-talimda-qilinadigan-ishlar-kop-yoki-universitet-40-nimaligini-bilasizmi>
4. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
5. Gebayew, C., Hardini, I. R., Panjaitan, G. H. A., Kurniawan, N. B., & Suhardi. (2018). A Systematic Literature Review on Digital Transformation. 2018 International Conference on Information Technology Systems and Innovation (ICITSI). doi:10.1109/icitsi.2018.8695912
6. Farrukh Jumanov. Systematic insitutions of higher education in new Uzbekistan development and organizational management problems of improvement. "Transformation of the higher education system and prospective directions", conference. 97-99, 2023.

O'QUVCHILARNING AQLIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH VA BILIMLARNI O'ZLASHTIRISHDA INTERFAOL O'QITISH USULLARNING O'RNI

Dilshodova Dildora Dilshod qizi¹

¹Nordik Xalqaro Universiteti

Ta'lim muassasalari boshqaruvi yo'nalishi

1-MMB 23 guruh talabasi

Abstract: Asosan ma'ruzalarga tayanadigan an'anaviy o'qitish usullari va yodlash talabalarni jalb qilishda yoki yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda passiv va samarasizligi uchun uzoq vaqtdan beri tanqid qilingan. So'nggi o'n yilliklarda ta'lim mutaxassislari munozara, muammolarni hal qilish faoliyati va boshqa hamkorlikdagi mashqlar orqali talabalarni o'quv jarayoniga faol jalb qiladigan ko'proq interaktiv o'qitish yondashuvlarini qo'llab-quvvatladilar. Bunday usullar o'quvchilarda ko'proq aqliy faollikni rag'batlantiradi va o'qituvchilarga har bir talabaning tushunish darajasini aniqroq aniqlashga imkon beradi deb ishoniladi. Ushbu maqolada interfaol o'qitish usullari talabalarning aqliy

qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning bilim olishlarini baholashda qanday muhim rol o'ynashi mumkinligi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: interfaol o'qitish, an'anaviy uslublar, o'qituvchining roli, o'quvchilar, ta'lim

Kirish: Oliy o'quv yurtlari tizimida kompetentsiyaga asoslangan yondashuv kasbiy kompetentsiyalarni samarali va texnologik shakllantirishga e'tiborni kuchaytirishga qaratilgan. Kasbiy kompetensiya biz kasbiy vazifalarning samaradorligini belgilaydigan va bilim, ko'nikma va kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlar, tajriba va qiymat yo'nalishlarini o'z ichiga olgan shaxsiy ta'lim sifatida tushunamiz. Bunda kompetensiya "bilim", "qobiliyat", "mahorat" va "tajriba" kabi an'anaviy tushunchalardan o'zining integral xususiyati bilan, ya'ni amaliyotga yo'naltirilganlik, keng ko'lamda ishlash qobiliyati kabi shaxsiy xususiyatlar bilan belgilanadiganligi bilan farq qiladi.

Ta'limning interfaol usullari: tavsifi va roli:

Trening - bu ketma-ket topshiriqlar, harakatlar yoki o'yinlarni bajarish orqali har qanday sohada ko'nikma va bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan o'qitish usuli. Bu usul o'qituvchiga ishtirokchilarga etishmayotgan ma'lumotlarni berish imkonini beradi va o'quvchilarda kasbiy vazifalarni bajarishda kasbiy va munosib xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. O'qitishning afzalligi shundaki, u barcha talabalarni o'qitish jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi.

Ta'limning jadal rivojlanayotgan manzarasida an'anaviy o'qitish usullari tobora ko'proq innovatsion va interaktiv ta'lim yondashuvlari bilan to'ldirilmoqda. Interfaol ta'lim, shuningdek, faol o'rganish sifatida ham tanilgan, o'quvchilarni bevosita o'quv jarayoniga jalb qiladi, ularni ishtirok etishga, hamkorlik qilishga va tanqidiy fikrlashga undaydi. Texnologiyaning rivojlanishi va samarali o'qitish usullari haqidagi tushunchamiz kengayib borishi bilan bu usul zamonaviy ta'limda kuchli vosita sifatida maydonga chiqdi.

Zamonaviy ta'lim sharoitlarida interaktiv ta'limdan foydalanishning ba'zi usullari:

- Aqllarni jalb qilish. Interaktiv ta'limning kuchi.
- Hamkorlikda o'rganish. Muloqot va jamoada ishlashni rivojlantirish.
- Shaxsiylashtirilgan ta'lim. Shaxsiy ta'lim uslublarini ta'minlash.
- Texnologiyani qamrab olish. O'quv tajribasini oshirish.
- Tanqidiy fikrlovchilarni tarbiyalash. Interfaol ta'limning roli.
- O'yin davom etmoqda: o'yin orqali o'quvchilarni rag'batlantirish.
- Haqiqiy vaqtda fikr-mulohaza. Interfaol ta'limni uzluksiz baholash.
- Interaktiv ta'lim. Ta'lim kelajagini shakllantirish.

Interfaol ta'limning asosiy afzalliklaridan biri bu talabalar o'rtasida faollikni oshirish qobiliyatidir. An'anaviy ma'ruzalar ko'pincha passiv o'rganishga olib keladi, bu yerda talabalar orqaga o'tirib, ma'lumotni faol ravishda qayta ishlamasdan yoki so'roq qilmasdan o'zlashtiradilar. Bundan farqli o'laroq, o'qitishning interfaol usullari, ya'ni guruh muhokamasi, bahs-munozaralar, rolli o'yinlar va amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rag'batlantiradi va mavzuni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Professional dunyoda hamkorlik va samarali muloqot muhim ko'nikmalardir. Interfaol ta'lim muhiti talabalarga birgalikda ishlash, fikr almashish va muammolarni birgalikda hal qilish imkoniyatini beradi. Guruh loyihalari, tengdoshlarni baholash yoki virtual jamoaviy ish orqali bo'ladimi, bu yondashuv talabalarni jamoaga yo'naltirilgan sharoitlarda samarali ishlashga tayyorlaydi, bu ularning kelajakdagi martabalarining muhim jihati hisoblanadi.

Har bir talabaning o'ziga xos ta'lim afzalliklari va kuchli tomonlari mavjud. Interfaol ta'lim o'qituvchilarga individual ehtiyojlar, qiziqishlar va o'rganish uslublarini qondirishga imkon beradi va shu bilan o'quv tajribasini shaxsiylashtiradi. Texnologiyalar yordamida adaptiv o'quv platformalari o'quvchilarning taraqqiyotini tahlil qilishi va shaxsiylashtirilgan ta'lim yo'llarini taqdim etishi mumkin, bu esa har bir talaba muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan yordam va qiyinchiliklarni olishini ta'minlaydi.

Raqamli asr o'zi bilan ta'limga sezilarli ta'sir ko'rsatgan ko'plab texnologik yutuqlarni olib keldi. Interfaol ta'lim ushbu texnologiyalarni o'z ichiga olgan va ularni sinfga muammosiz integratsiyalashgan. Interfaol doskalar va ta'lim ilovalaridan tortib virtual haqiqat va to'ldirilgan reallik tajribasigacha texnologiya o'quvchilarning ma'lumotni o'zlashtirishi va ta'lim mazmuni bilan o'zaro munosabatini inqilob qildi.

Ta'lim muassasalaridagi muhokamadan foydalanib, "nizo" muammosini barcha o'quvchilar tomonidan chuqurroq tahlil qilish va tushunish, mavzu ular tomonidan yaxshi tushunilishi uchun, ikkinchidan, o'quvchilarda qiziqishni rivojlantirish zarur. Uchinchidan, barcha bajarilgan ishlardan so'ng, o'qituvchi "o'yin qoidalari" ga rioya qilgan holda, madaniyatli doirada muhim natijaga erishadi.

Seminarlarni munozarali yondashuv bilan o'tkazishda quyidagi savollarga javob berish muhimdir: muhokama qilinayotgan muammolarni aks ettirish (aniqrog'i, ularning soni) va ularni tahlil qilish chuqurligi o'rtasidagi optimal muvozanatga qanday erishish mumkin; kitobni yodlash yoki shunchaki o'qish o'rniga o'qiganingizni o'rganish orqali muammolar haqida fikr yuritishga qanday erishish mumkin; o'qigan kitoblaringiz haqida gapirganda fikringizni qanday ifodalash va mazmunli xulosa chiqarish; passiv talabalarni qanday faollashtirish yoki aksincha; noto'g'ri fikrlash yoki o'qigan narsangizni noto'g'ri talqin qilish bilan qanday kurashish mumkin?.

Amaliy mashg'ulotlarda, qoida tariqasida, talabalar ma'lum bir nazariyani amaliyotda qo'llashni o'rganadilar. Munozarali seminarlarda (nazariy dars) nazariyani

o'rganish uchun amaliy topshiriqlar qo'llaniladi, amaliy darsda esa nazariya amaliy muammolarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Farqi shunda. Talabalar seminar rejasi uchun savollar tayyorlaydilar va ularning har biri bu masalalar bo'yicha o'z fikrlarini bildirishi mumkin.

O'qituvchidan, uning metodik mahoratidagina talaba o'z fikrini erkin ayta oladi. Seminarda ma'ruzachilar turli fikr bildirgandagina bahs va munozaralar bo'ladi. Boshqa ishtirokchilar aytganidan farqli o'laroq, o'ziga xos g'oyani ifodalash talabadan jasorat talab qiladi, u ko'pincha masxara qilishdan qo'rqadi (bu ko'pincha birinchi kurs talabalarida uchraydi).

Demak, bu yerda o'qituvchining o'rni muhim: munozara uning o'zini qanday tutishiga bog'liq. Eng muhimi, munozara va xabarlarga javoblarni tinglashda pedagogik taktga ega bo'lish, shu bilan birga muhokamada faol ishtirok etish, uning borishi va natijasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish, o'quvchilarni o'z fikrini yuklamasdan fikrlashga undashdir.

"Davra suhbatlari" odatda turli fan sohalari vakillari duch keladigan muammolarni muhokama qilish uchun tashkil etiladi. Fikr almashish bir nechta muammoning yechimini topish imkonini beradi va kelajakda ular umumiy ilmiy natijalarni ochishga yoki jamiyatda siyosiy barqarorlikka erishishga zamin yaratadi.

Mashg'ulotlarda turli kasb-hunar mutaxassislari ishtirokida ilmiy munozaralar o'tkazish natijasida nazariy masalalarni uyg'unlashtirish samaradorligini oshirish maqsadida "davra suhbatlari" usuli qo'llaniladi. Talabalar o'quv-uslubiy konferentsiyasi doirasida talabalar o'qituvchilari, talabalar guruhi - sotsiologlar yoki talabalar - psixologlar bilan "davra suhbatlari" o'tkazilishi mumkin.

Eng muhimi, dasturga kiritilgan, psixologiya yoki boshqa fanlarni (pedagogika, sotsiologiya) o'z ichiga olgan va talabalarning kasbiy (psixologik) qiziqishlarini chuqur, har tomonlama hisobga olishni talab qiladigan umumiy mavzuni tanlashdir.

Psixologiya ixtisosligi bo'yicha talabalar va o'qituvchilar taklifiga binoan boshqa universitetda shunga o'xshash darslarni o'tkazish tajribasi mavjud. O'quv o'yini o'qitishning ikkita maxsus tamoyilini birlashtiradi: kelajakdagi kasbiy faoliyatni modellashtirish printsiplari va muammo printsiplari. O'quv o'yinida muammoni hal qilish jarayoni tadqiqot bo'lishi kerak.

Ko'pgina muammolarni hal qilish bir xil darajada muhimdir. Bir xil turdagi o'yinlarni takrorlash o'quvchining tegishli ko'nikmalarini shakllantiradi. O'quv o'yinlarida bir masalani yechish jarayonida bir qancha ko'zga ko'rinmas muammolar ochib beriladi, ularni yechish yo'llari ko'rsatiladi, o'quvchilarning dunyoqarashi kengayadi.

Hozirgi vaqtda muammoli vaziyatlarni hal qiladigan o'quv faoliyati o'yinlari ishlab chiqilgan. O'quv o'yinlari oliy o'quv yurtlarida o'qitishning yakuniy bosqichida, ulardan foydalanish uchun eng qulay sharoitlar yuqori sinf talabalariga ma'lum darajadagi bilim va mustaqil faoliyat qobiliyatiga ega bo'lish imkonini

berganda o'tkazilishi kerak. O'qitishning yakuniy bosqichida o'qitishning ixtisoslashuvi ta'lim muammolarini hal qilishda muammoli vaziyatlarni rejalashtirish va tashkil qilish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Xulosa

Dunyo o'zgarish va rivojlanishda davom etar ekan, ta'limga bo'lgan yondashuvimiz ham shunday bo'lishi kerak. Interfaol ta'lim ushbu ta'lim o'zgarishining birinchi pog'onasida turadi va talabalar va o'qituvchilar uchun ko'plab afzalliklarni taqdim etadi. Ishtirok etishni kuchaytirish, hamkorlikni rag'batlantirish, o'rganish tajribasini shaxsiylashtirish, texnologiyadan foydalanish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish orqali ushbu ta'lim usuli o'quvchilarni 21-asr ishchi kuchida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur vositalar bilan jihozlaydi.

O'qituvchilar yuqoridagi metodologiyalarni o'rganishni va qabul qilishni davom ettirishlari kerak, ularni o'z talabalarining ehtiyojlari va raqamli davr talablariga moslashtirishlari kerak. Interfaol ta'lim o'z samaradorligini isbotlashda davom etar ekan, u o'quvchilarning to'liq salohiyatini ochib, ularni doimiy o'zgaruvchan dunyoda harakat qilishga tayyorlash orqali ta'lim kelajagini shakllantirishda harakatlantiruvchi kuch bo'lishini va'da qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Verbitskiy A. A. Platonova N. A. kognitiv va kasbiy motivatsiyani shakllantirish. M.: Ma'rifat, 1996 Yil. 246 s.*
2. *Galperin N. talabalarni o'qitish va aqliy rivojlantirish metodikasi. M.: Pedagogika, 1995 Yil. 324 s.*
3. *Galperin P. yu. talabalarda aqliy harakatlarni shakllantirish bo'yicha tadqiqotlarni rivojlantirish. M.: Pedagogika, 1992. 284 s.*
4. *Myunsterberg G. psixologiya va pedagogika. M., 1997 yil.*
5. *Avdeev V. V. muammoli vaziyatlarni hal qilish psixotexnologiyasi. Qozon, 1987 yil. 262 s.*
6. *Abramova G. S. amaliy psixologiyaga kirish. Yekaterinburg, 1999 yil. 244 s.*

TALABALAR INNOVATSION KOMPETENLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY -PSIXOLOGIK ASOSLARI

Rustamov Shavkat Shuxratovich¹

¹*Buxoro davlat universiteti
psixologiya va sotsiologiya kafedراس
p.f.f.d (PhD) dotsent*

Annotatsiya: *Maqolada jamiyatda dolzarb bo'lib borayotgan talabalarning innovatsion kompetentligini shakllantirish muammosi ko'rib chiqiladi. Ta'lim muassasasida innovatsion faoliyatda faol ishtirok etuvchi va o'qituvchilar va*

talabalardir. Shuningdek, innovatsion kompetentlik va innovatsion faoliyatga qiziqish ko'rsatmaydigan shaxslarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganish natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar:, metodologiya, xarakter, ijodkorlik, ijtimoiy psixologik xususiyatlar, kasbiy faoliyat, innovatsion faoliyat, kompetentlik, individuallik, global kompetentlik.

Bo'lajak kasb egalari uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olish jarayoni – bu insonda mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ahamiyatli sanalgan kasbiy bilim, sifat, kompetentlik va mezonlar asosida rivojlantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirishning eng maqbul davridir. Ta'lim oluvchilar ushbu jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va istiqbolda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ulardan samarali foydalanish kabi holatlarni o'zida mujassam ettiradi.

Ilmiy adabiyotlarning tahliliga qaraganda, kasbiy kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar mavjud.

Professor N.A. Muslimov bu borada keng qamrovli tadqiqotlarni olib borib, kasbiy kompetentlikni yettita turga bo'lib o'rganadi. Olimning fikricha, global kompetentlik; ijtimoiy-madaniy kompetentlik; ijtimoiy faoliyatga oid kompetentlik; axborot olishga kompetentlik; kommunikativ kompetentlik; o'quv-bilishga oid kompetentlik; amaliy faoliyatga oid kompetentlik turlari mavjud bo'lib, fikrimizcha, bular shaxs kompetentsiyalari, kasbiy individual xislatlari va sifatlarini aniqlovchi mezon bo'lib xizmat qilishi mumkin.

G.K.Ushakov fikricha, talabalarni innovatsion kompetentligini psixologik munosabatlar tashkil qiladi. Psixologik munosabat deganda, talabalarning jamoa o'rtasida o'zaro hamjihatlikni tashkil etishdan iborat psixologik usullar va malakalardan o'z o'rnida samarali foydalanish tushuniladi.

Innovatsion faoliyat konsepsiyasini yaratish zarurligini birinchi navbatda ta'lim jarayonini optimallashtirish va samaradorligini oshirish, talabalarning yangi, ijodiy faoliyatda mustaqilligini namoyon etishi bilan bog'liq to'siqlarni bartaraf etish muhimligida ko'ramiz.

Bizning fikrimizcha, ijodiy salohiyati past, o'zini-o'zi boshqarish, o'z-o'ziga ishonchi, qat'iyati, kognitiv faoliyatga rag'bati yetarlicha rivojlanmagan o'quvchilar o'qishni tamomlagandan so'ng innovatsiyalarda yuqori natijalarga erishish va mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish imkoniyati kam.

Talabalar va o'quvchilarda innovatsion faoliyatga quyidagilar kiradi:

1. innovatsion mahsulotni yaratish bo'yicha tadqiqot, tajriba-konstruktorlik yoki texnologik ishlarni amalga oshirish;

2. innovatsion mahsulotni yaratish bo'yicha ishlarni kompleks ilmiy-texnikaviy, indikativ rejalashtirish va maqsadli dasturlash, tashkil etish va huquqiy ta'minlash;

3. ishlab chiqarishni texnologik qayta jihozlash va innovatsion mahsulot (xizmat), texnologiya chiqarishga tayyorlash;

4. innovatsion mahsulotni sinovdan o'tkazish va iste'molchi qabul qilish;

5. texnologiyani tijoratlashtirish jarayonlarini boshqarish;

6. innovatsion mahsulotni ichki va jahon bozorlarida ilgari surish, shu jumladan mahsulotda foydalaniladigan intellektual faoliyat natijalarini huquqiy himoya qilish bo'yicha faoliyat;

7. innovatsion infratuzilmani yaratish va rivojlantirish;

8. yangi va takomillashtirilgan innovatsion mahsulotni yaratish va joriy etish uchun ekspertiza, konsalting, axborot, yuridik va boshqa xizmatlar (shu jumladan innovatsion faoliyatni moliyalashtirishni tashkil etish).

Ta'lim muassasasida innovatsion faoliyatni amalga oshirish shartlari quyidagilardan iborat:

- innovatsion jarayonning barcha subyektlarining innovatsion faoliyatga tayyorligi;

- har bir darajadagi innovatsiya va innovatsion siyosat mazmunini muvofiqlashtirish bo'yicha menejerlarning maxsus faoliyati;

- innovatsion jarayon mazmunining ta'lim muassasasining real sharoitlariga muvofiqligi;

- innovatsion faoliyatni boshqarishda menejerlarning samarali faoliyati;

- islohotlarni benuqson huquqiy asosda amalga oshirish;

- innovatsiyalarni tanlashga oqilona yondashish;

- pedagogik jamoada qulay innovatsion muhitning mavjudligi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorligining xususiyatlari:

1. Ijodkorlikka bo'lgan ehtiyoj, o'z kasbiy xulq-atvori uchun variantlarni ongli ravishda tanlash;

2. Hamkorlik sharoitida samarali faoliyatni tashkil etish, o'z-o'zini rivojlantirishning tegishli vositalari va usullarini tanlash qobiliyati va tayyorligi;

3. O'quv faoliyati usullari tizimida erkin harakat qilish qobiliyati.

Biz ushbu ma'lumotlarni bevosita atrof-muhit sharoitlarini o'zgartirishga, talabalarning ichki faolligini rag'batlantirishga, tegishli shaxsiy fazilatlarni va innovatsiyalarga tayyorlikni rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlar o'tkazishning eng muhim amaliy sharti deb hisoblaymiz. Biroq, bu natijalarni barcha holatlarga o'tkazish noto'g'ri, chunki ular maxsus tadqiqotlarni talab qiladi. Avvalo, turli ta'lim muassasalari va talabalar uchun ularning ishonchliligini tekshirish kerak. Bundan tashqari, talabalarning innovatsion innovatsion kompetenligini ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari faoliyati, uning innovatsion yo'nalishi, o'qituvchilarning talabalar innovatsion xulq-atvori va innovatsion tayyorgarligi ko'nikmalarini rivojlantirish istagi va ehtiyojlari bilan bog'liqligini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi.

Shunday qilib, talabalarning innovatsion kompetenligini rivojlantirish natijasi bir xil bo'lishi mumkin emas va ularni o'qitish va tarbiyalashning psixologik-pedagogik sharoitlariga, turli xil tashqi omillarning ta'siriga, shuningdek, ichki omillarga - qobiliyatlarga, qiziqishlarga, shaxsiy xususiyatlarga qarab o'zgaradi. Bu otalabalarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish jarayonini qanday tashkil etish bo'yicha aniq psixologik-pedagogik tadqiqotlar olib borilgan taqdirdagina, ta'lim tashkilotlari o'zlarining ta'lim faoliyatida buni hisobga olishlari va zaruriy choralar ko'rishlari mumkin bo'lgan muhim pedagogik xulosani anglatadi.

Talabalarning innovatsion kompetenligini psixologik asoslarini aniqlash vazifasi uning nazariy tamoyillari tizimini ochish bilan bog'liq. "Talabalarning innovatsion kompetenligini" tushunchalarini tizimli-faollik yondashuvi nuqtai nazaridan ko'rib chiqish kerak, bu nafaqat innovatsion jarayonning alohida bosqichlarini tahlil qilish, balki uni har tomonlama o'rganishga o'tish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бодалев А.А., Деркач А.А., Лаптев Л.Г. Рабочая книга практического психолога: Пособие для специалистов, работающих с персоналом. – М.: Институт психотерапии, 2006.- 629 с.
2. Воронцов В. Тафаккур гулшани. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.- 387 б.
3. Зайцева Т.В. Теория психологического тренинга (психологический тренинг как инструментальное действие). – СПб.-М.: Речь-Смысл, 2002.- 126 с.
4. Каримова В., Акрамова Ф. Психология. Маърузалар матни. – Тошкент: ФТДК, ДИТАФ, 2000.- 171 б.

LOGOPEDIK MASHG'ULOTLAR UCHUN FOYDALI ONLAYN PLATFORMALAR

Sherqo'ziyeva Diyora Abduvali qizi¹

¹*Nizomiy nomidagi TDPU*

Logopediya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy raxbar: Umarova Zaxro Abduraxim qizi²

²*Nizomiy nomidagi TDPU*

Matematika va ta'limda axborot texnologiyalari kafedrasida dotsent, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

E-mail: umarova.zakhro@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Nearpod platformasi yordamida interaktiv darslar, sinovlar tashkil etish, logopedik mashg'ulotlarda so'zlash va tinglashni rivojlantirishda foydalanishga doir ma'lumotlar batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: interaktiv dars, onlayn platforma, innovatsion usul, nearpod.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida aks ettirilgan asosiy g'oya bu — aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim tizimini tashkil qilish hisoblanadi.


Bugungi kunda barcha soha pedagoglari uchun ta'limni innovatsion va texnologik usullar bilan boyitish keng qamrovli va muhim masalalardan biriga

aylanib ulgurdi[3]. Ta'lim jarayonini innovatsion va texnologik usullar bilan ta'minlash, ta'lim oluvchilarga yangi va samarali o'rganish usullarini taklif etadi. Bu usullar ta'lim oluvchilarning ma'lumotlarni sodda va oson tarzda qabul qilishlarida, tayanch tushunchalarini mustahkamlashda va ularning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi[1]. Bu maqsadga erishish uchun, o'qituvchi va pedagoglar ta'lim oluvchilarga qiziqarli, interaktiv va texnologik vositalar orqali ta'lim berishlari talab etiladi. Masalan, interaktiv darsliklar, onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar, animatsiyalar, ta'limiy o'yinlar va boshqa texnologik vositalardan foydalanish mumkin. Bu usullar ta'lim oluvchilarning qiziqishlarini oshiradi va ularning o'rganish jarayonlarini samarali va effektiv tarzda amalga oshishiga yordam beradi[4].

Bundan tashqari, ta'lim jarayonida innovatsion va texnologik usullardan foydalanish ta'limning individual xususiyatlariga asosiy e'tiborni qaratadi. Ta'lim oluvchilarning har biri o'ziga xos o'rganish uslubiga ega ekanligini inobatga olsak, har birining potensialini maksimal darajada ishlatishga imkon beradi.

Ana shunday innovatsion va texnologik usullardan biri bu – nearpod platformasidir.

Logopediya yo'nalishida Nearpod platformasi o'zining xususiyatlari va imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Bu platforma ta'lim oluvchilarga interaktiv darslar o'tkazish, sinovlar tashkil etish (1-rasm), so'zlash va tinglashni o'rganish uchun qulay imkoniyatlarni yaratadi.



1-rasm. Nearpod platformasida yaratilgan interaktiv dars va sinovlarga namunalar.

Logopedik jarayonlarni amalga oshirish uchun nearpod platformasiga o'xshash maxsus vositalar va dasturlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

Speech Buddies. Bu platforma logopedik mashg'ulotlarni tashkil etish, ta'lim oluvchilarga so'zlashni o'rgatish va rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu platforma orqali logopedlar va ota-onalar so'zlash ko'nikmalarini rivojlantirishning eng yaxshi usullari haqida ma'lumot olishlari mumkin.

Speech Blubs, logopedik mashg'ulotlar uchun maxsus platforma bo'lib, ta'lim oluvchilarning so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, platforma orqali taqdim etilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra shaxsiylashtirilgan ta'lim plani ham taklif etiladi(2-rasm).



2-rasm. Speech Blubs platformasida shaxsiylashtirilgan ta'lim plani.

Bu ilovada so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'yinlar, qisqa videolar va interaktiv mashg'ulotlar mavjud.

Ushbu platformalar logopediya yo'nalishida dars mashg'ulotlarini tashkil etishda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. George Couros The Innovator's Mindset: Empower Learning, Unleash Talent, and Lead a Culture of Creativity. 2015. 250 p.
2. Dave Burgess Teach Like a Pirate: Increase Student Engagement, Boost Your Creativity, and Transform Your Life as an Educator. 2012. 198 p.
3. Zakhro Umarova Media Resources: As an effective tool in modern education // the american journal of social science and education innovations Vol. 2. Issue 07 2020. 239-245 p.
4. Umarova Z. A. Digital media educational environment: media resources and their role //Journal of Central Asian Social Studies. – 2020. – T. 1. – №. 01. – P. 66-74.
5. Matt Mille Ditch That Textbook: Free Your Teaching and Revolutionize Your Classroom. 2015. 240 p.

MAXSUS PEDAGOGIKA VA INKLYUZIV TA'LIMDA INNOVATSION TA'LIM TEXNALOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Rustamova Mavjuda Ismadiyor qizi¹

¹Nizomiy nomidagi TDPU

Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti

Logopediya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy raxbar: Umarova Zaxro Abduraxim qizi²

²Nizomiy nomidagi TDPU

Matematika va ta'limda axborot texnologiyalari kafedrası

dotsent, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

E-mail: umarova.zakhro@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda inklyuziv ta'limni tashkil etish, maxsus ehtiyojli ta'lim oluvchilarni o'qitish, ularga ta'lim-tarbiya berish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Mazkur maqolada maxsus ehtiyojli ta'lim oluvchilarni nutqini korreksiyalash va ularni rivojlantirishda zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali yanada samarali natijalarga erishish mumkinligi yoritib berilgan. Ular bilan olib boriladigan korreksion ishlarda qo'llaniladigan texnologik yechimlar logopedik mashg'ulotlarni qiziqarli va interaktiv tashkil etish orqali an'anaviy usuldan ko'ra yaxshiroq natijalarga erishish va vaqtni tejab qolish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Nutq terapiyasi, kommunikatsiya, logopediya, nutq buzilishlari, climpchamp.


Mamlakatimizda O'zbekiston–2030 strategiyasini amalga oshirish doirasida har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda.

Bugungi kunda inklyuziv ta'limni tashkil etishga bo'lgan talab eski an'anaviy usuldan voz kechib yangi innovatsion metod va usullarni ishlab chiqish va yaratishni talab etmoqda. Innovatsion ta'lim texnologiyalarini maxsus pedagogikaning turli sohalariga joriy etish orqali samarali va ijobiy natijalarga erishishimiz mumkin. Alohida ehtiyojli ta'lim oluvchilarni o'qitish va ularga ta'lim-tarbiya berish bilan maxsus pedagogika va uning tarmoqlari soha mutaxassislari shug'ullanishadi. Maxsus pedagogika tarmoq sohalari bo'lgan Oligofrenopedagogika (aqli zaiflarni o'qitish va tarbiyalash bilan shug'ullanadi); Logopediya (nutqida kamchiliklari bo'lgan shaxslar bilan ishlash); Tiflopedagogika (ko'zi ojizlarni o'qitish va tarbiyalash); Surdopedagogika (eshitishda nuqsoni mavjud shaxslar bilan ishlash) sohasiga zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish bu sohada ulkan yutuqlarga erishishimizga yordam beradi.

Logopediya sohasi nutqni o'stirish, kommunikativ nutqni shakllantirishga va barcha nutqiy kamchiliklarni korreksiya qilishga qaratilgan soha hisoblanadi.

Hozirgi kunda nutq kamchiliklari kattalar va ayniqsa bolalarda juda ko'p uchrayotgan kamchiliklardan biri hisoblanadi. Bola bilan shug'ullanayotganda har bir mashg'ulotni qiziqarli tashkil etish va vaqtni to'g'ri taqsimlash logopedlar uchun muammoli vaziyatlardan biridir, chunki, bola diqqati tez bo'linuvchan va uzoq vaqt tinglashdan zerikib qolishi bilan xarakterlidir. Bu muammoni hal etish va samarali natijaga erishish, bola vaqtini tejab qolish uchun mashg'ulotlarga raqamli va axborot texnologiyalarini qo'llash yaxshi natija beradi. Misol uchun, video tahrirlovchi oddiygina saytni olaylik.

Clipchamp – onlayn video tahrirlash, yaratish va ommaviy muhitda videolarni tayyorlash uchun platformadir(1-rasm). Ushbu platforma foydalanuvchilarga, masalan, YouTube, Facebook, Instagram yoki TikTok uchun videolarni o'zgartirish va yaratish imkoniyatini beradi. Shuningdek, videoni tarqatish, montaj qilish, filtrlar qo'llash va boshqalar kabi amaliy amallarni bajarish uchun mo'ljallangan. Clipchamp platformasi HTML5 asosida yaratilgan bo'lib, o'zgarishsiz foydalanishga va qulay interfeysga ega. Ushbu platforma orqali, internet ulanishiga ega bo'lgan istalgan qurilmadan, muayyan videolarni tahrirlab, yaratish imkoniyatiga ega bo'lamiz.



1-rasm. Clipchamp platformasi interfeysi.

Bu saytni logopediya sohasida qanday qo'llashimiz mumkin va logopediyadagi o'rni nimadan iborat degan masalaga batafsil to'xtaladigan bo'lsak, logopediya yoki ovoz terapiyasi, insonlarning kommunikatsiya qobiliyatlari va ovozni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq maqbul va muhim bir soha ekanligini inobatga olib, Clipchamp bu sohada o'qituvchilar, logopedlar va o'quv markazlari uchun ovozlar va kommunikatsiya ustuvor materiallarni tayyorlash imkoniyatlarini taqdim etadi deb ayta olamiz. Clipchamp platformasi orqali ovoz terapevtlari va logopedlar ovozni tizimlantirish, insonlarning so'zlashish qobiliyatlarini va ovozlarini rivojlantirish uchun materiallar tayyorlashda ulardan foydalanishlari mumkin. Misol uchun, bolaga o'tiladigan logopedik mashg'ulotlarning ajralmas qismi bu artikulyatsion va nafas mashqlaridir. Bu mashqlarni bolaga shunchaki tushuntirib bajartirish bolaning tez zerikib qolishiga va o'z xohishi bilan bajarmasligiga sabab bo'lib qoladi. Lekin, xuddi o'sha

mashqlarni Clipchamp veb-saytidan foydalangan holda logopedik mashg'ulotlarni visual tashkil etish, fonlar, effektlar, animatsiyalar va turli xil giflar qo'shib ishlash orqali bolada mashg'ulotga nisbatan qiziqish va uni doimiy xohlab bajarish istagini paydo qilish bilan bir qatorda quyidagi imkoniyatlarga ega bo'linadi:

birinchidan, bola muntazam ravishda o'z xohishi bilan mashg'ulotlarni bajarishi orqali tezroq natijaga erishish mumkin;

ikkinchidan bolaning vaqtini va ota-onalar mablag'ini ortiqcha sarf qilmasdan ijobiy natijaga erishish mumkin. Mablag' tejalishi masalasi bolaning ota-onasini yanada mamnun qiladi.

Mazkur onlayn servisdan foydalanish murakkab emas, buning uchun maxsus kurslarda o'qishni keragi ham yo'q. Bu sayt professional va professional bo'lmagan shaxslar uchun mo'ljallangan.

Bu turdagi onlayn servislarning juda ko'p turi mavjud bo'lib, ular foydalanish uchun juda qulay. Bu kabi saytlardan ro'yxatdan o'tish oson va sizga pullik tarif rejalari bilan bir qatorda ayrimlari bepul foydalanish imkoniyatlarini taqdim etadi. Mazkur turdagi onlayn servislar yaratilgan loyihalarni to'g'ridan-to'g'ri o'z serverlarida saqlab qoladi va qaytadan tahrirlash imkoniyatlarini beradi.

Har bir mutaxassis hozirgi davrda axborot va innovatsion ta'lim texnologiyalarini o'z mutaxassisligida qo'llay bilishi zarur va bu bugungi kunning asosiy talablaridan biridir. Pedagogika sohasida ayniqsa bugungi kunda rivojlanib borayotgan "Inklyuziv ta'lim" da yetuk va o'z kasbini mohirlari uchun talablar kuchlidir va bu mutaxassislar zamon bilan hamnafas bo'la olishlari kerak. Bunda axborot texnologiyalarini o'z mutaxassisliklarida qo'llay oladigan pedagoglarga ilg'or natijalarga erishishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Ayupova Logopediya. – Toshkent, 2007.
2. P.Po'latova, L.Nurmuxamedova, D.Yakubjonova va boshqalar. Maxsus pedagogika. Darslik. T.: Fan va texnologiya nashriyoti. 2014.
3. Zakhro Umarova Media Resources: As an effective tool in modern education // the american journal of social science and education innovations Vol. 2. Issue 07 2020. 239-245 p.
4. Umarova Z. A. Digital media educational environment: media resources and their role //Journal of Central Asian Social Studies. – 2020. – T. 1. – №. 01. – P. 66-74.

O'ZBEKISTON – 2030 STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDA TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALASI

Umarova Zaxro Abduraxim qizi¹

¹Toshkent davlat pedagogika universiteti

Matematika va ta'limda axborot texnologiyalari kafedrasida, PhD, dotsent.

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunning zamonaviy talablariga javob bera oladigan malakali pedagog kadrlarni tayyorlashda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, xususan, O‘zbekiston – 2030 strategiyasida belgilab qo‘yilgan asosiy yo‘nalishlarning mazmuni va unda talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirish masalasining ahamiyati atroflicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: talabalar mustaqil tayyorgarligi, mustaqil ta’lim, O‘zbekiston – 2030 strategiyasi, kadr, transformatsion kompetensiyalar

Bugungi kunda davlat va jamiyat taraqqiyoti, xalq farovonligini ta’minlashda ilm-fan va ta’lim-tarbiya sohalarida olib borilayotgan islohotlarning o‘rni beqiyos. Jumladan, 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi Yangi O‘zbekistonni rivojlantirishda dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi. Darhaqiqat, O‘zbekiston – 2030 strategiyasini amalga oshirishda oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish masalasiga alohida e’tibor berilgan.

Agar biz ta’limni o‘zgartirsak, ta’lim insonni o‘zgartiradi. Inson o‘zgarsa – butun jamiyatimiz o‘zgaradi. Shu bois biz uzluksiz ta’limni takomillashtirish, farzandlarimizni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlashni tubdan yaxshilashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz[1].

Bugungi kunda yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlashda ularning zamonaviy mehnat bozori va ish beruvchi talablariga javob bera oladigan, doimo o‘z ustida ishlab, butun umr davomida ta’lim olish (lifelong learning) orqali rivojlanib boruvchi, o‘zgarishlarga tez moslashuvchan kadr sifatida yetishishlarida oliy ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan mustaqil ta’lim jarayoni va ularning mustaqil tayyorgarligini rivojlantirish masalasi muhim hisoblanadi.

Hozirgi global axborot asrida bilimlarning hayotiylik davri juda qisqa. Agar o‘rta asrlarda yuz yilda bir marta texnologiya yangilangan bo‘lsa, keyinchalik bu davr 50-20 yilga qisqardi, hozir esa bilimlarning hayotiylik davri 3-5 yildan ko‘p emas, vaholanki boshqa yuqori texnologik sohalarda undan ham kam. Bu shuni anglatadiki, bugun universitetga o‘qishga kirgan talabaning bilimlari uning o‘qishni tugatguniga qadar eskirishi mumkin. Bundan uzluksiz ta’lim tizimi dolzarbligi to‘g‘risidagi tezis paydo bo‘lsa[2], u o‘z navbatida BMTning “bir umrga ta’lim emas, balki butun umr davomida ta’lim” shiorini tasdiqlaydi”[3].

Bugungi kun talabiga ko‘ra, inson butun umri va karyerasi davomida doimiy o‘qib – o‘rganishi zarur”[5]. Butun umr davomida ta’limning asosini mustaqil ta’lim jarayoni tashkil etadi, bu esa talabalarga kasbiy faoliyatning tez o‘zgaruvchan sharoitlariga moslashishga imkon beradigan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydi. Bu talabalarning mustaqil bilim olish yo‘llarini o‘zlashtirishni, mustaqil ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etish va boshqarishni, bo‘lajak mutaxassisning transformatsion kompetensiyalarga ega kadr sifatida yetishib chiqishini nazarda tutadi.

Shu munosabat bilan, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar va ularda belgilangan qator vazifalarni amalga oshirishda biz tomonimizdan olib borilayotgan

“Raqqamli ta’lim sharoitida talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishi muayan darajada xizmat qiladi va tadqiqot ishimiz dolzarbligini belgilaydi.


So‘nggi yillarda mamlakatimizda kredit – modul tizimining joriy etilishi natijasida mustaqil ta’limga ajratilgan soatlar ulushining oshirilishi oliy ta’lim tashkilotlarida mustaqil ta’lim jarayonini ham zamon talablariga mos ravishda qayta tashkil etishni, talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishni, mustaqil ta’lim jarayonida talabalarni qo‘llab-quvvatlash va yo‘naltirib turishga qaratilgan o‘quv – uslubiy ta’minotni ham mos ravishda modernizatsiya qilishni talab qiladi.

Talabalar mustaqil ta’limning asosiy ishtirokchisi sifatida ta’lim markazida turganligi sababli, talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirish, ularda o‘z mustaqil ta’limini samarali tashkil etish va boshqarishga doir zaruriy transformatsion kompetensiyalarni shakllantirishga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada oshmoqda.

Shu o‘rinda aytish joizki, mustaqil ta’lim olishda transformatsion kompetensiyalar muhim rol o‘ynaydi. O‘z-o‘zini anglash, tanqidiy fikrlash, va moslashuvchanlik kabi transformatsion kompetensiyalar talabalarga mustaqil ta’lim jarayonida o‘z maqsadlarini va motivatsiyasini chuqur anglash imkonini beradi. Ular mustaqil ta’lim jarayonida talabalarning fikrlash doirasini kengaytirishga, o‘rganishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish va mustaqil ta’lim jarayonida o‘z maqsadlariga erishishdagi to‘siqlarni yengishda yordam beradi.

Bundan tashqari, transformatsion kompetensiyalar talabalarga o‘qituvchi yoki ta’lim muassasasi tomonidan bevosita nazorat bo‘lmasa ham mustaqil ta’lim olish jarayonida vaqtlarini, kuchlarini va resurslarini boshqarishda, rejalar tuzishda hamda ularga rioya qilishda yordam beradi.

McCall, Lombardo va Morrisonlar olib borgan tadqiqot natijasi bo‘lgan “70:20:10” modeli (1-rasm) insonlar tomonidan egallangan bilim va ko‘nikmalar asosan o‘rganishning 70%i ish joyidagi topshiriqlar va tajribalar orqali, 20 % i norasmiy ta’lim, o‘z-o‘zini rivojlantirishga asoslangan mustaqil ta’lim orqali egallangan bo‘lsa, qolgan 10% i esa tasdiqlangan o‘quv dasturlariga asoslangan rasmiy ta’lim natijasi ekanini ko‘rsatadi. Bundan kelib chiqadiki, oliy ta’lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifa talabalarni doimiy ravishda mustaqil o‘qish - o‘rganishga undash, mustaqil ta’lim olish jarayoniga tayyorgarligini rivojlantirish orqali ularni kelgusi kasbiy faoliyatlarida ham mustaqil ta’lim oluvchi shaxs bo‘lib yetishishlarini qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi[6].



1-rasm. 70:20:10 modeli

Talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirish natijasiga to'xtaladigan bo'lsak, talabalar o'z ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanib, nafaqat o'qituvchilardan ma'lumot olishi, balki mustaqil ravishda materiallarni izlash va o'rganishi, malakasini oshirishi, bilimni kengaytirishi muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, talabalarning mustaqil tayyorgarligini rivojlantirish ularda tanqidiy fikrlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va sintez qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Mustaqil ta'lim bilan faol shug'ullanadigan talabalar ma'lumotni baholash va tekshirishni, shuningdek, uni amalda qo'llashni o'rganadilar[4].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirish orqali butun umr davomida ta'lim oluvchi, o'zgarishlarga tez moslashuvchi va innovatsiyalarga ochiq bo'lgan, doimo izlanish va rivojlanishda davom etadigan bo'lajak kadr tayyorlash bilan bir qatorda, ularga o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun munosib sharoitlarni yaratib berishga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Vatanimiz mustaqilligi – biz uchun kuch-qudrat va ilhom manbai, taraqqiyot va farovonlik asosi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, <https://president.uz/oz/lists/view/4596>

2. A.O.Ochilov Yuqori malakali kadrlar tayyorlashda bilimlar va umr davomida ta'lim konsepsiyasini boshqarish // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2017 yil

3. Ш.Г.Акрамова Роль человеческого капитала в обеспечении устойчивого инновационного развития // ИКТисодиёт ва инновацион технологиялар, 2014. – 2. – 11 с

4. Z.A.Umarova O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirish masalasi. // O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida texnologik ta'lim yo'nalishi fanlarini o'qitishning optimallashtirish masalalari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman to'plami, – Farg'ona, 2023 yil. 110-112 betlar.

5. Z.A.Umarova Raqamli ta'lim sharoitida talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishning psixologik aspektlari // "Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda fan – ta'lim – ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, –Toshkent, 2023-yil. 669-770 betlar.

6. Z.A.Umarova Talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar // Raqamli pedagogika: holati va rivojlanish istiqbollari mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya, – Toshkent, 2023-yil, 53-55 betlar.

Exploring the Role of Motivation in English Language Learning

Abdugafforova Nozima daughter of Farhod¹

¹*Gulistan State Pedagogical Institute*

Department of Foreign languages and literature

Annotation: This thesis examines the pivotal role of motivation in the process of learning English as a second language. It explores the multifaceted nature of motivation, encompassing both intrinsic and extrinsic factors that influence students' engagement and commitment to language learning. Drawing upon theoretical frameworks from educational psychology and language acquisition research, the thesis investigates various strategies employed by educators to sustain and enhance student motivation in the English language classroom. By analyzing the interplay between motivational factors, classroom dynamics, and language learning outcomes, this research aims to provide insights into effective pedagogical approaches for fostering a supportive and engaging learning environment conducive to English language acquisition.

Key words: motivation, english language learning, globalization, education, employment, communication, learners, engagement, opportunities, strategies for Sustaining and Enhancing Motivation: Meaningful tasks, Authentic language use, Learner autonomy, Feedback, Goal-setting, Learner-centered approaches, case Studies and Empirical Research: Intervention studies, Pedagogical practices.

In the globalized world of today, proficiency in the English language holds immense significance as a key to accessing opportunities in education, employment, and communication on an international scale. However, mastering a second language, such as English, is not merely a matter of memorizing vocabulary and grammar rules; it requires sustained motivation and engagement from learners. The importance of motivation in language learning has long been recognized by educators and researchers alike, yet the complexities of this phenomenon continue to intrigue scholars seeking to unravel its intricacies. This introduction sets the stage for an exploration into the role of motivation in English language learning, aiming to shed light on effective strategies for sustaining and enhancing student engagement in the language learning process. By delving into theoretical perspectives on motivation and examining practical approaches utilized by educators, this study seeks to contribute to a deeper understanding of how motivation influences language learning outcomes and inform pedagogical practices aimed at fostering a supportive and stimulating learning environment.

Theoretical Framework of Motivation in Language Learning:

This section provides an overview of key theoretical perspectives on motivation in language learning, including intrinsic and extrinsic motivation, self-determination theory, and socio-cultural theories of motivation.

It explores how these theoretical frameworks conceptualize motivation and the factors that influence learners' engagement and persistence in language learning endeavors.

Additionally, it discusses the significance of learner autonomy, goal orientation, and self-efficacy beliefs in shaping motivation and language learning outcomes.

Factors Influencing Motivation in English Language Learning:

- Развитие справедливого и современного государства, служащего интересам народа.
- Гарантированное обеспечение суверенитета и безопасности страны.

Установить следующее:

- Реализация Стратегии "Узбекистан — 2030" и достижение ее целевых показателей являются приоритетной задачей для всех государственных органов и организаций, с персональной ответственностью для их лидеров за успешное выполнение.

- В рамках Стратегии "Узбекистан — 2030" продолжается достижение всех актуальных целей и задач, определенных Стратегией развития Нового Узбекистана.

Руководителям министерств, ведомств, Председателю Совета Министров Республики Каракалпакстан, а также хокимамам областей и города Ташкента дается персональная ответственность за эффективную организацию выполнения настоящего Указа.

Обсуждение прогресса в выполнении Указа планируется проводить каждые полгода. Координацию и контроль за деятельностью организаций, ответственных за исполнение Указа, возлагается на Республиканскую комиссию.

Ежемесячно необходимо представлять Президенту Республики Узбекистан отчетную информацию о реализованных мерах.

В целом, указ Президента Узбекистана о Стратегии "Узбекистан — 2030" подчеркивает стремление к устойчивому экономическому развитию, обеспечению благосостояния населения и укреплению государственных институтов. Приоритеты включают широкую общественную поддержку, использование современных технологий, и эффективное использование ресурсов. Введение системы контроля и обратной связи, в том числе через онлайн-портал, свидетельствует о стремлении к открытости и учету мнения населения в процессе реформирования. Указ подчеркивает важность ответственности руководителей на всех уровнях за результативность исходя из поставленных целей, поддерживаемую периодическим обсуждением и анализом.

Список литературы

- 1) https://uza.uz/ru/posts/eksportnyy-potencial-nashey-strany-budet-uvlichivatsya-minimum-na-30-procentov-v-god_559320
- 2) https://m.sports.ru/figure-skating/1115808444-valieva-prervalatrenirovki-v-gruppe-tutberidze-r-sport.html?utm_source=sparrow&utm_medium=rec&utm_follow=1&utm_follow_ch=54656&utm_campaign=91216
- 3) <https://uz.sputniknews.ru/amp/20231225/uzbekistan-zarubejnyye-investitsii-rost-dinamika-41790064.html>
- 4) <https://www.uzbekistan.org.ua/ru/news/6796-razvitie-ekonomiki-uzbekistana-i>
- 5) <https://lex.uz/docs/6600404?ONDATE=29.12.2023>

INVESTITSION MUHIT VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR (KAMBAG‘ALLIK DARAJASI VA O‘ZBEKISTON SHAROITIDA UNGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR.)

Saidova Iroda Xoji qizi¹

Nordic International University

irodasaidova.2@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda investitsiya muhitning mazmuni, uni moliyalashtirish zarurligi, jarayoni va funksiyalari, investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish tizimi, manbalari va unga ta’sir etuvchi omillar, investitsiya faoliyatini moliyalashtirishni davlat tomonidan tartibga solishning ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari va ular resurlari tarkibiy tuzilishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, investitsiya faoliyati, investitsion muhit, investitsiya siyosati, davlat budjeti, investitsiyalarni moliyalashtirish.

Kirish

O‘zbekistonda yuritilayotgan faol investitsiya siyosati mamlakat milliy iqtisodiyotining istiqboldagi raqobatbardoshligini oshirishning muhim moliyaviy omili sifatida xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining 2020-2022 yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturida: 850,5 trln. so‘m investitsiyalar, shu jumladan 35,5 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirilishini nazarda tutuvchi kapital qo‘yilmalarni o‘zlashtirishning yig‘ma prognoz parametrlari, shuningdek, investitsiya va kreditlarni o‘zlashtirish hamda jalb etishning prognoz parametrlarida 206 ta yangi ishlab chiqarish quvvatlari va 31 mingdan ziyod ish o‘rinlari yaratilishini nazarda tutuvchi 2020 yilda yirik ishlab chiqarish ob‘ektlari va quvvatlarini ishga tushirish manzilli dasturi ko‘rsatilgan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday keng ko‘lamli islohotlar va faol investitsiya siyosati samaradorligini yanada oshirish, avvalo, investitsiya faoliyatini makro va mikroko‘lamda mukammal tizimli moliyalashtirishni taqozo etmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, investitsiya faoliyatini rag‘batlantirishda davlatning ro‘lini takomillashtirish tadqiqot ishining dolzarbligini belgiladi.

Asosiy qism

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunida: “Investitsiya faoliyati – investitsiya faoliyati sub‘ektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlari majmui” sifatida ifodalanadi.


Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan D.G‘.G‘ozibekov “investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag‘lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko‘zlangan samarani olishdan iborat bo‘ladi”, – deb ta’rif bergan.

Investitsiya faoliyati investitsiya faoliyati ob‘ektlariga investitsiya faoliyati sub‘ektlari tomonidan yo‘naltiriladigan investitsiya resurslari bilan bog‘liq holda

yuzaga keluvchi munosabatlarni o'zida mujassamlashtirar ekan, bu faoliyat investorlarning aniq maqsadlariga asoslangan holda yuzaga keladi va rivojlanib boradi.

Investitsiya faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish, birinchidan, cheklangan resurslardan samarali foydalangan holda investitsiyalar dinamikasini ta'minlash, ikkinchidan, pul mablag'lari tarkibi va soliq imtiyozlaridan unumli foydalanish hisobiga risk va xarajatlarni kamaytirishga asoslanishi lozim. Bu tamoyilning samarali ishlashini ta'minlash davlat tomonidan investitsiya faoliyatini amalga oshirish va rivojlantirish uchun qulay tizim tashkil etishni talab etadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalar o'sishi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun xizmat qilmoqda (1-rasm).



1-rasm. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning YAIMdagi ulushi, foizda

Mamlakatimizda 2000-2020 yillarda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar tahlili uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2020 yilda 2000 yilga nisbatan 11,9 foizga o'sganligini ko'rsatmoqda. Pandemiya iqtisodiyot boshqa sektorlari qatori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya darajasiga ham salbiy ta'sir etishi natijasida 2020 yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning YAIMdagi ulushi 2019 yilga nisbatan 3,5 foizga kamaygan.

Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda hududlarning rivojlanish darajasi muhim ahamiyatga egadir. Hududlar mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish va o'z zimmalaridagi vazifalarini bajarishi bilan birga markaziy davlat budjetiga ham daromad kirituvchi manba hisoblanadi. Agar hududlarning rivojlanish darajasi past bo'lsa, aksincha ular markaziy davlat budjeti uchun yuk bo'lib qoladi. Shu sababli ham mamlakat miqyosida investitsiyalash manbalari va hajmlarini muayyan hudud va tarmoqlar bo'yicha muvofiqlashtirishda, birinchidan, ularning investitsiya jozibadorligi darajasi, ikkinchidan esa, muayyan hudud yoki tarmoqning iqtisodiyotdagi strategik o'rni muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur ushbu ustuvor vazifani hal etishda davlatning bevosita aralashuvi ob'ektiv zaruriyatdir.

Investitsiya resurslarining o'sib borishi hududlarni ishlab chiqarish imkoniyatini oshishi hamda aholi bandligi masalasini ijobiy yechimiga o'z ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Bu masala ayniqsa o'tish davri iqtisodiyoti maqomidagi O'zbekiston Respublikasi uchun strategik ahamiyat kasb etuvchi dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki, tadqiqotlarimiz natijalari shundan dalolat bermoqdaki, 2020 yilda investitsiyalarning o'zlashtirilishi hududlar salohiyatiga mos ravishda taqsimlanmaganligi ko'rsatmoqda. Tahillar hududlar kesimida jalb etilgan investitsiyalar ulushining goh pasayib, goh ko'tarilib turishi asosan davlat tomonidan muayyan hududda istiqbolda strategik ahamiyat kasb etuvchi yirik investitsiya ob'ektlarining joylashtirilishi hamda ma'muriy hududlarning geografik joylashishi, kommunikatsiya ob'ektlarining rivojlanganlik darajasi, iqtisodiy-ishlab chiqarish salohiyati va ijtimoiy jihatlariga bog'liqligini ko'rsatmoqda.

Shu sababli hududlarga xususiy investitsiyalar kiritishni rag'batlantirish maqsadida infratuzilma xarajatlari uchun davlat subsidiyasi berish tartibini joriy etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Mamlakatimizda investitsiya muhiti va jozibadorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida 2019 yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar darajasi 2015 yilga nisbatan qariyb, 30,0 foizga oshgan.

Mamlakat aholisining bandlik darajasi investitsiya miqdorlari o'sishiga mos ravishda o'sib borishi ko'zatilmoqda. 2019 yil ko'rsatkichlari bo'yicha aholi bandligi darajasi mehnat resurslarining 0,9 foiziga o'sishiga qaramasdan 2 foizga oshgan.

2015-2020 yillarda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning hududlar kesimi bo'yicha tahlili, (%da)

1-javal

Hududlar	Yillar					2020 yil	2019-2015 yil nisbati
	2015	2016	2017	2018	2019		
O'zbekiston Respublikasi	109, 4	104, 1	119, 4	129,9	138, 1	91, 8	126, 2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	133, 5	56, 2	60, 4	169,9	100, 3	80, 4	75, 1
Andijon viloyati	105, 1	102, 4	114, 3	113,7	129	100, 5	122, 7
Buxoro viloyati	98, 7	120, 8	154, 7	60, 6	95, 9	96, 7	97, 2

Jizzax viloyati	96, 9	102, 7	108, 2	158,1	194, 9	152, 5	201, 1
Qashqadaryo viloyati	112, 4	108, 9	129, 7	112,4	131, 2	74, 1	116, 7
Navoi viloyati	90, 7	144, 1	107, 4	188	144, 3	78, 7	159, 1
Namangan viloyati	108, 5	108, 2	110, 2	178,1	131, 1	87, 9	120, 8
Samarkand viloyati	115, 8	103, 4	105, 7	131,4	134, 5	117, 9	116, 1
Surxandaryo viloyati	110, 3	107, 6	148, 4	164,2	144	76, 3	130, 6
Sirdaryo viloyati	97, 9	107, 9	115, 4	131	186	111	190, 0
Toshkent viloyati	99, 3	87	118, 4	139,9	158, 5	82, 8	159, 6
Farg'ona viloyati	98, 7	97, 1	98, 6	145,9	132	116, 4	133, 7
Xorazm viloyati	87, 2	97, 8	128, 5	111,7	150, 7	114, 5	172, 8
Toshkent shahri	102, 3	119, 5	121, 4	138,2	145, 8	96, 5	142, 5

Fikrimizcha, hududlarning investitsiya faoliyatiga baho berishda faqat ular hajmi bilan chegaralanmasdan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiyalar miqdori, aholining ishga jalb etilganlik darajasi, eksport imkoniyatining o'sishi, reinvestitsiyalar holati kabi ko'rsatkichlarga ham baho berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki faqat investitsiya hajmi miqdori hududning investitsiya faoliyatini to'liq ifodalay olmaydi. Shu sababli ishda hududlar investitsiya salohiyatiga ham baho berish zarurligi asoslandi.

Dunyo mamlakatlarida investitsiya muhitiga baho berish uslublari bir-biridan farq qiladi va aksariyat hollarda makroiqtisodiy sohaga nisbatan baho beriladi.

Masalan, Yaponiyada investitsiya muhitining bayoniy tavsifi berilib, miqdoriy baho qo'llanilmaydi. AQSHda esa bir biriga bog'liq to'rtta ko'rsatkich, ya'ni ishbilarmonlik faolligi, xo'jalik yuritish tizimining rivojlanganlik darajasi, investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi, soliq siyosatining asosiy tashkil etuvchilari orqali aniqlanadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarida, bozor mexanizmi hamda tamoyillariga mos keladigan turli mulkchilik va xo'jalik yuritishning shakllari paydo bo'lishi investitsiya va investitsiya faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Natijada, YAIM miqdori, shuningdek davlat budjetining daromad qismida ham moliyaviy tushum manbalarining tarkibi o'zgarib, kapital mablag'larning

markazlashgan taqsimotidan investitsiyalashning markazlashmagan manba va bozor sub'ektlarini shakllantirish mexanizmlarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratildi

2020 yil 202,0 trln. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 65,4 foizi yoki 132,0 trln. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 34,6 foizi yoki 70,0 trln. so'mi moliyalashtirildi. Jami investitsiyalar hajmida, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2020 yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 8,0 foizga kamayib, uning hajmi 39310,2 mlrd. so'mni tashkil etgan. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 162 289,9 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 80,5 foiz investitsiyalari o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 8,0 foizga ko'paygan. 2020 yilda korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 51911,3 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 25,7 foizini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 8,9 foizi yoki 18 077,8 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 28740,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019 yilga nisbatan 5,3 foiz kamayib, 14,2 foizni tashkil etgan. Investitsiya faoliyatini tartibga solish tizimi doirasida soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyalarini kuchaytirish investitsiyalarni moliyalashtirishda bozor mexanizmlari rolini kengaytirishga olib keladi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini kengaytirish maqsadida, xorijiy investorlarni ishlab chiqarish quvvatlarini o'zlashtirgunlariga qadar barcha ko'rinishdagi bojxona to'lovlari, soliqlar, yig'imlardan imtiyozlar va preferensiyalar qo'llaniladi.

Xulosa va takliflar

Mazkur mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi umumiy xulosalar shakllantirildi:

Olib borilgan tadqiqotlar asosida investitsiya faoliyatining mazmuniga zamonaviy talqindagi ta'rif ishlab chiqildi va unga ko'ra, investitsiya faoliyati hozirgi zamon talablariga javob beruvchi, yangi ilg'or innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va uni asoslash, ularni moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlashdir. Buning natijasida, barpo etilayotgan soha faoliyatini moliyalashtirish orqali investorlarning yuqori foyda olishga erishish imkoniyatlarini vujudga keltiradi.

Mamlakat investitsiya jozibadorligining xalqaro moliya institutlari tomonidan baholanib, davlatlar reytingining davriy ravishda e'lon qilinib, borilishi xorijiy investorlarning investitsiya qarorlari uchun muhim ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda sohalar va hududlar investitsiya jozibadorligini baholash tizimini takomillashtirish maqsadida uni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish asoslangan va ushbu ko'rsatkichlarni hisoblash yo'llari ishlab chiqildi.

Mamlakat va hududlarning infratuzilmasi qulayligi va rivojlanish darajasi investitsiya jozibadorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Tadqiqotlarimiz mamlakatimiz barcha hududlarining infratuzilmalari rivojlanish darajasi turlicha ekanligi investitsiyalarni jalb etish hamda o'zlashtirish darajasi past bo'lishiga sabab bo'layotganligini ko'rsatdi. Hududlar investitsiya jozibadorligini oshirish

maqsadida infratuzilmani yaratish xarajatlari uchun davlat sub'sidiyasi berishni joriy etish taklif qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.unctad.org World Investment Report 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2020 yil 9 yanvardagi PQ-4563-sonli "O'zbekistonning 2020-2022 yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
3. Нешиной А.С. Инвестиции. Учебник. – М.: Дашков и К, 2007. – С. 15.
4. www.cengage.com/highered Frank Reilly va Keith Brown Investment Analysis & Portfolio Management.
5. Бочарев В.В. Методы финансирования инвестиционной деятельности предприятий. – М.: Финансы и статистика, 1998. – С. 7.
6. Арзимияна и др. Большой экономический словарь. – М.: Правовая культура, 1994. – С. 157.
7. Игонина Л.Л. Инвестиции. Уч.пос. – М.: Экономист, 2005. – С. 25.
8. Федеральный Закон «Об инвестиционной деятельности в Российской Федерации, осуществляемой в форме капитальных вложений» от 25 февраля 1999 года, №39-ФЗ, 1-статья.
9. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni, 2019 yil 25 dekabr, 3-modda. // www.lex.uz
10. Ғозибеков Д.Ғ. Инвестицияларни молиялаштириш масалалари. – Т.: «Молия», 2003. – 329-бет.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 fevraldagi PF-4804-sonli Farmoni. Lex. Uz.
12. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida mualliflik ishlanmasi.

АХОЛИ САЛОМАТЛИГИНИ ТА'МИНЛАШ БО'ЙИЧА ISLOHOTLAR - XALQ KELAJAGI UCHUN POYDEVOR MASALALARI

Sunnatullayeva Marjona G'ayratovna¹

*¹Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Pedagogika fakulteti maxsus pedagogika
Logopediya yo'nalishi 1-bosqichi talabasi*

Ilmiy rahbar: Egamberdiyeva Nigora Azizovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq orasida keng tarqalib borayotgan va shu bilan birga genotsidga katta zarar berayotganligi bilan barchani havotirga solayotgan kasalliklar, ularning sabablari, klinik kechishi hamda salbiy oqibatlarini haqida so'z boradi.

Kalit soʻzlar: hastalik, kasallik, patologiya, SSV (Sogʻliqni saqlash vazirligi), JSST (Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti), genofond, trombosit, yurak-qon tomir hastalıkları.

Inson — tabiatning yer yuzidagi oliy mahsulidir. Biroq tabiat yaratgan moʻjizalardan bahra olmoq uchun inson sogʻlom, baquvvat hamda zukko boʻlmogʻi zarur.

I.I.Pavlov

Hozirgi kunga kelib, yurtimizda xalqaro tashkilotlarni jalb qilingan holda “Aholi salomatligi — 2030” milliy strategiyasi ishlab chiqilishi koʻzda tutilgan va bu borada bir qancha ishlar amalda oʻz ifodasini topib kelmoqda. SSV hamda Salomatlik va strategik rivojlanish instituti 2024–2026-yillarga moʻljallangan sogʻlom turmush tarzini shakllantirish va toʻgʻri ovqatlanishni targʻib qilish dasturini tuzishni rejalashtirib kelishmoqda. Strategiyada quyidagilarga asosiy eʼtibor qaratiladi:

- aholini maksimal qamrab olgan holda birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatini unga yanada yaqinlashtirish;
- fuqarolarning sogʻlom turmush tarzini, sogʻlom ovqatlanishini va jismoniy faolligini qoʻllab-quvvatlash, ularni aholi orasida har tomonlama targʻib qilish;
- onalik va bolalikni muhofaza qilish, aholining bu boradagi ehtiyojlarini qondirish;
- ixtisoslashgan tibbiy yordam koʻlamini kengaytirish;
- sogʻliqni saqlash tizimini toʻliq raqamlashtirish, qogʻozbozlikka, asossiz byurokratiyaga va navbatlarga chek qoʻyish, aholiga tibbiyot muassasalariga murojaat qilganida qulayliklar yaratish;
- zamonaviy va samarali boshqaruv usullarini joriy qilish va tibbiy xizmatlar sifatini oshirish;
- kadrlar salohiyatini oshirish, tibbiy taʼlim va ilm-fanni rivojlantirish;
- xususiy sektorni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish hamda yirik davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish;
- tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;
- farmatsevtika tarmogʻini samarali tartibga solish.

Aholi sogʻliqni saqlash va genofondni asrash boʻyicha prezidentimizning bir qator amaliy ishlari yoʻlga qoʻyilgan. Aholi oʻrtasida yod tanqisligini oldini olish maqsadida bogʻcha va maktab yoshidagi bolalarga antistrubit dori vositalari bepul yetkazib berilayotgani bizni quvontiradi. Bundan tashqari shamollash, tumov yuqumli kasalliklarni koʻpayishini oldini olish va shu kabi salbiy oqibatlarni oldini olish maqsadida bogʻcha va maktab yoshidagi bolalar uchun infeksiyon kasalliklarga qarshi emlash ishlari oʻtkazilmoqda. Bularning isboti sifatida prezidentimizning tashabbuslari bilan yurtimizda gepatit A kasalligini oldini olish va bartaraf etish maqsadida bolalarni bepul emlash ishlari bir necha yillar mobaynida amalga

o'shirilib kelinmoqda va buning natijasida bolalar orasida ushbu kasallik deyarli kuzatilmaydi.

Darhaqiqat, buyuk olim, fiziolog Ivan Pavlov ta'kidlaganidek, inson hayotda to'laqonli umr kechirishi, tabiat ne'matlaridan bahramand bo'lishi uchun ham ruhan, ham jismonan, shu bilan birga ma'nan sog'lom bo'lishi kerak. Dunyoda ilm fan va uning natijalari amaliyotga tatbiq etilishi, talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarash va savodxonlikning rivojlanib, takomillashib borayotgan bugungi kunda tizimli fikr yurita oladigan, tabiiy va zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Chunki tibbiyot, psixologiya, pedagogika, ekologiya, kimyo, iqtisodiyot, sotsiologiya, kibernetika, evolutsiya va boshqa sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar uchun ham salomatlik qonuniyatlarini bilishi nihoyatda zarur hisoblanadi. Barchamizga ma'lumki, XXI asr axborot texnologiyalar asri hisoblanadi. Aynan axborot texnologiyalarning barcha sohaları jadal rivojlangan davrda yashayapmiz. Bular qatorida tibbiyot yetakchi o'rinni egallab turibdi. Sababi hozirgi vaqtda tibbiyotni jihozlar va texnikalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. So'nggi yillarda yurtimizda eng ko'p uchraydigan kasalliklar sifatida yurak qon-tomir va qandli diabet yetakchi o'rinni egallamoqda. Yurak qon-tomir tizimi kasalliklari ko'p uchrashining sababi sifatida juda ko'plab shifokorlarimiz aynan ob-havo, to'g'ri ovqatlanmaslik, uyqu rejimining buzilishi ayniqsa go'sht mahsulotlarni ko'p iste'mol qilish deb e'tirof etilmoqda. Qon-tomir kasalliklari jumladan hozirgi kunda eng ko'p uchraydigan gematologik kasalliklar temir tanqislik anemiyasi, leykoz, trombositopeniya va boshqa kasalliklar ko'p uchramoqda.

Salomatlikning asosiy muammolari qatoriga tabiiy oragnizmlardan iborat tuzilmalardagi bilish jarayoni, ularning zamonaviy rivoji natijasidagi suniiy tizimlar va ulardagi rivojlantirilayotgan kognitiv jarayonlar kiradi.

Qon kasalliklariga olib keladigan jarayonlar mexanizmi murakkab va xilma xilligi sababli qon kasalliklarini shartli ravishda patogenetik xususiyatlari va klinik belgilariga qarab leykozlar, kamqonliklar va koagulopatiyalarga ajratiladi. Asosan, qizil qon sistemasi kasalliklari, oq qon sistemasi kasalliklari, trombositlar (qon plastinkalari)ning kasalliklari tafovut qilinadi. Bularning kelib chiqishida qon sistemasida ro'y beradigan aplastik, giperplastik o'zgarishlar va qon aylanishining buzilishiga olib keladigan boshqa patologik jarayonlarning ahamiyati katta.

Qizil qon sistemasi kasalliklari. Bunga qizil qon shaklli elementlari — eritrotsitlar kamayishi bilan kechadigan turli xil anemiyalar, ularning ortiqcha ishlanib chiqishi bilan ifodalanadigan eritremyalar, oq qon sistemasi kasalliklariga turli xil leykozlar, ko'p sonli miyeloma kasalligi, Xojkin kasalligi (limfogranulematoz), limfosarkoma, retikulosarkoma va boshqa kiradi.

Trombositlar kasalliklari ko'mikda megakariotsit hujayralar yoki trombositlar faoliyatining susayishi bilan bog'liq ravishda paydo bo'ladi. Bularga idiopatik trombositopenik purpura, Glansman xastaligi kiradi. Qon kasalliklari bir biridan farq qilsa ham, lekin ma'lum bir qonuniyat bilan avj olib borib, organizmdagi talaygina a'zolar faoliyatining izdan chiqishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birgalikda organlar sistemasi ishining buzilishi va shu bilan bir qator muammolarga duch kelish holatlari kuzatiladi.

Yurtimizda aynan bu kasalliklar ko'p uchrashining sababi sifatida yaqin qarindoshlar bilan turmush qurgan oilalar birinchi o'rinda turadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, sog'liqni saqlashning maqsadi kasalliklarning oldini olish, salomatlikni mustahkamlash va butun aholi orasida umrni uzaytirish masalalari yotadi. Shu sababli, sog'liqni saqlash sohasidagi tashabbuslar odamlarning muayyan populyatsiyalarda sog'lom bo'lishi mumkin bo'lgan sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Barcha fuqarolarga kerak bo'lganda tibbiy yordam olish imkoniyatini berish va iqtisodiy jihatdan samarali va oldindan belgilangan sifat standartlariga javob beradigan tibbiy xizmatlarni tashkil qilish orqali aholiga bir qancha qulayliklar yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. LA.Majidov V.M., Yuqumli kasalliklar, T., 1996-yil.
2. Shovahobov Sh.Sh. Yuqumli kasalliklar va epidemiologiya asoslari, T., 1997.
3. Egamberdiyeva, N. A. Raqamli ta'lim muhitida autizm sindromli bolalarni rivojlantirish. raqamli ta'limning zamonaviy tendentsiyalari va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yo'llari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.
4. Azizovna, E. N. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda o'yin faoliyatining o'rni. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 1(2), 929-932.
5. N.A.Egamberdiyeva "Raqamli ta'lim muhitida autizm sindromli bolalarni rivojlantirish". "Raqamli ta'limning zamonaviy tendentsiyalari va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yo'llari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 1-tom. 2023-yil.

TEMURIYZODA SHOHRUH MIRZO HUKUMRONLIGI DAVRIDA TEMURIYLAR SALTANATIDA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA TABOBAT MAKTABLARINING FAOLIYATI

Nurmurod o'g'li Kenjayev¹

¹*Buxoro davlat pedagogika instituti*

Tillar fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Anotatsiya: Ushbu maqolada Temuriyzoda Shohruh Mirzo hukumronligi davrida Temuriylar saltanatida aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha tabobat maktablarining faoliyati xususida fikr yuritilgan.

Kalit soʻz: Tabobat,ilm, “Mujmal-i Fasihiy”, „Al-asbob va-l alomat”, “Muntahab ash-shifo”, “Muntahab ash-shifo”, “Nigoriston”

"Amir Temur va vorislari davrida tabobat ilmiga, davolash, orastalik ishlariga va bu sohadagi qurilishlarga katta eʼtibor qaratilgan. Muarrixlar Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Fasih Xavofiyning “Mujmal-i Fasihiy”, Xonda-mirning “Xulosat al-axbor” va boshqa asarlaridagi maʼlumotlarga koʻra, oʻsha davr shifoxonalari madrasa va boshqa oʻquv yurtlarida bilim olgan yuzlab tabiblar ishlashgan.Ikkinchi ming yillikda Ar Roziy va Abu Ali ibn Sino boshlab bergan anʼananing davomchilari sifatida Ismoil Jurjo-niyning (1141 yilda vafot etgan), “Zahirayi Xorazmshohiy”, “Qarabadini Xorazmshohiy” kabi qomusiy asarlari Osiyo va Yevropa mamlakatlarining tibbiyot sohasida asosiy qoʻllanma boʻlib xizmat qilgan. Uning ijodiga mansub yirik 14 ta asarining 12 tasi tibbiyotga aloqador boʻlgan. Uning 10 ta kitobi fors tilida, 12 tasi arab tilida yozilgan asarlari bizga maʼlum.

Mazkur asarlar ayni kunlarda Xivadagi Xorazm tibbiyot muzeyida saqlanmoqda.Temuriylar davrida tibbiyot sohasida Najibuddin Samarqan-diy (1222 yilda vafot etgan)ning “Al-asbob va-l alomat” (Kasallik sabablari va belgilari) asari dunyoga kelgan. Asar yozilganidan ikki asr oʻtib, al-Kirmoniy unga sharhlar yozgan va Ulugʻbek mirzoga taqdim etgan (OʻzFASHI da uning 4 ta qoʻlyozmasi mavjud).Nosiriddin Muhammad ibn al-Hasan at-Tusiy (1273) “Axloqi Nosiriy” asari (qoʻlyozma va bosma holda OʻzFASHIda mavjud), Ishoq ibn Murod (XV asr) “Muntahab ash-shifo” (“Tibbiy saylanma”) (qoʻlyozmaning bir nusxasi OʻzFASHIda mavjud).

Mansur ibn Muhammad ibn Faqih Ilyos (XIV-XV asr)ning tabobatga oid 3 ta asari, “Risola dar tashrixi badan inson” (“Odam anatomiyasi haqida risola”), “Kifoyai Mujohidiya” (“Mujohidlar uchun toʻliq kitob), “Gʻiyosiy” nomdagi asarlari mavjud boʻlib, oxirgi kitobidan tashqari yuqoridagi ikki kitobi va boshqa bitta qoʻlyozmasi OʻzFASHI da joylashtirilgan.Burxoniddin al-Kirmoniy (XV asr) asli Kirmonlik, Sulton Husayn Boyqaro xizmatida boʻlgan. “Bahr ul-havoss” (“Hosiyatlar dengizi”) asarining uchta qoʻlyozma nusxasi OʻzFASHIda mavjud.Muiniddin Juvayniy (XV asr) “Nigoriston” nomli tibbiy asarini 1431 yilda yozib tugallagan va uni qoʻlyozma nusxasini Mirzo Ulugʻbekka taqdim etgan.Sulton Ali (XV-XVI asr) Xurosonda tugʻilgan, umrining asosiy qismida Samarqanda yashagan. “Dastur ul-iloj” (“Davolash dasturi”) asari muallifi hisoblanadi. (Qoʻlyozma OʻzFASHIda mavjud)Shoh Ali ibn Sulaymon (XV-XVI asr)ning “Zubdai manzuma dar fanni kaxxoliy” (“Kaxxolik sanʼatiga oid sheʼriy risola”) koʻz kasalligi muammolariga bagʻishlangan risolasi maʼlum (uning ikkita qoʻlyozmasi OʻzFASHIda mavjud).

Hirotda Umarshayxning rafiqasi Mahdi ul-Milkat oqa qurdirgan “Dor ush-shifo” mashhur edi. Yuksak did va mahorat bilan bunyod etilgan mazkur shifoxona bilan uning shimol tara-fida barpo etilgan “Dor al-xuffos” orasida hovuz boʻlib, unda tabiblar bemorlarni davolashgan. Shuningdek, Bogʻi Zagʻonda ham shifoxona mavjud edi.Yetuk shifokorlar bemorlarni shifoxonalarda davolash bilan birga

madrasa, o'quv yurtlarida mudarrislik ham qilishgan. Ba'zi-lari asarlar yozishgan. Olimlarning ayrimlari o'zlaridan oldin yozib qoldirilgan sohaga oid arab, fors, turkiy tillardagi asarlariga sharhlar bitishgan. Muarrirlar Sharafuddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshohning ma'lu-motlaricha, Amir Temur Shom (Suriya) dan Samarqandga tabiblar sardori Mavlono Sulaymonni olib kelgan. Sohibqironning shaxsiy tabibi Mavlono Fazlulloh Tabriziy hisoblangan. Shu-ningdek, buyuk hukmdor saroyida Mavlono Izzaduddin, Mas'ud Sheroziy, Mavlono Farrux kabi mashhur tabiblar ham faoliyat ko'rsatishgan. Taniqli tabib Mansur ibn Muhammad ibn Ahmad Yusuf ibn Faqih Ilyos tabobatga oid bir necha asarlar yaratgan: "Tashrixi Mansuri" nomi bilan mashhur bo'lgan va Amir Temurning nabirasi Pir Muhammad Bahodirga bag'ishlangan "Risola dar tashrixi badani inson" ("Inson anatomiyasiga oid risola") shular jumlasidandir. Uning o'z ustozlari Majohiddin nomi bilan atalgan ikkinchi asari "Kifoyai Majohidiya" ("Majohid uchun mukammal kitob") nomi bilan mashhur bo'lib, asar Zaynalobiddin Kashmiriy (1420-1470)ga bag'ishlangan.

Mazkur asarda inson tanasining sog'lom holati, kasallik sabablari, salomatlik haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, badanning turli a'zolari, ularning kasalliklari, davolash usullari, oddiy va murakkab dorilar tavsifi ham keltirilgan. Amir Temur tarixchi olim Tojiddin Ahmadiyni huzuriga chaqirib, Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari"ni ilk bor tilimizga tarjima qildirgan.

Xurosonning Tayobod qishlog'idan chiqqan mashhur olim va tabib Shamsuddin Odam va Nizomiddin Sheroziy Shohrux mirzo saroyida dong'i ketgan tabiblardan edi. Tabiblar ayni vaqtda dorishunoslik (giyohlar) bilan bog'liq ilmdan ham ogoh bo'lishgan. Ular Eron, Xitoy (tibet) tibbiyotidan boxabar, ayni vaqtda nuqtali uqalash (akupunktura) va igna bilan davolash kabi serqirra faoliyat egasi bo'lishgan. Tabiblar bemorni mizojiga qarab davolash uslublarini mukammal egallaganlar. Ayni vaqtda, hind tib-biyoti "chaqra" – bioquvvatni jamlash, ya'ni quvvatni bir doiraga to'plash va shu usul bilan davolash sirlaridan ham ogoh bo'lishgan.

1427 yilda Shohrux mirzoning o'g'li Boysung'ur Bahodir betob bo'lib qolganda, mazkur ikki tabib uni bir necha kun davolab oyoqqa turg'azganlar. Kirmonlik tabiblar oilasidan chiqqan Burhonuddin Nafis ibn Ivas ibn Hakim al-Kirmoniy (eronlik) Mirzo Ulug'bek taklifiga binoan Samarqandga kelib, unga shaxsiy tabiblik qilgan. U 1424 yilda Najibuddin Samarqandiyning (vaf. 1222) arab tilidagi "Kasalliklarning sabablari va alomatlari" ("Al-asbob va-l alomat") asariga sharh bitib, uni Mirzo Ulug'bekka bag'ishlagan. Al-Kirmoniy o'z asariga sharhlanayotgan asardan ham ba'zi parchalarni kiritgan. Shu sababli Najibuddin Samarqandiyning asari fanga ma'lum bo'lgan. Qarshilik mashhur tabib Ali ibn an-Nafis al-Qarshiyning (XIII asr) "Al-Mo'jaz" asariga ham al-Kirmoniy sharh bitgan. Husayn Boyqaro saroyida Shamsuddin Muhammad ibn Odam, Muhammad Mo'min, Qutbiddin Muhammad Odam singari olim va tabiblar xizmat qilishgan. G'iyosiddin Muhammad ibn Jaloliddin tabib (vaf. 1500 yil) fanning turli sohalarida bilimdon bo'lib, u "Muolajoti ilohiy" nomli asarga qisqa, lekin mazmunli sharh tuzib, tabobat ilmida o'zini ko'rsatgan. Darvishalining tabiblik mahoratini Alisher

Navoiy yuqori baholagan. U Milkat oqaning “Dor ush-shifo”sida mudirlik qilgan va shu shifoxonada bemorlarni davolagan. Turli kasalliklarni davolashda maxsus uslublarni qo‘llagan. Mavlono Kamoliddin Mas‘ud Shervoniy Gavharshod oqa va Ixlosiya madrasalarida bir necha yil mudarrislik qilgan. U nafa-qat tabiblikda, balki she‘riyat va mantiq ilmlarida ham zo‘r mahoratga ega edi. Keyinchalik, u G‘iyosiy madrasasida dars bergan, tomirdan qon chiqarish uslubini puxta egallagan. U tibbiyotga oid ikkita asar yozganki, bu asarlar talabalar uchun dastur bo‘lib xizmat qilgan. Mavlono Nizomiddin Abdulhay tabib Alisher Navoiyning “Dor ush-shifo”sida bemorlarni davolash bilan shug‘ullangan. Hattoki, u Samarqandda Xoja Ahror Valiy betob bo‘lib qolganida davolab, oyoqqa turg‘izgan, so‘ngra Hirotga qaytib Husayn Boyqaro saroyida bemorlarni davolagan. U ko‘proq qon tomirlari bilan bog‘liq kasalliklarni davolagan.

O‘sha davr tabiblari Najibuddin Samarqandiy, Tojiddin Hakim, Ne‘matulloh ibn Fahriddin Muborakshoh, Hakim Kirmo-niy (Husayn Boyqaroning shaxsiy tabibi), Muhammad Husayn Nurbaxshiy, Bahouddavla ibn Mirqavomiddin, Mansur ibn Muhammad, Burhonuddin Nafis ibn Avaz (Mirzo Ulug‘bekning shaxsiy tabibi va do‘sti) samarali faoliyat ko‘rsatishgan. Alisher Navoiy o‘qigan madrasa bosh mudarrisi Fazlulloh Abullays taniqli olim va tabib edi. Shu sababli ham buyuk shoirning tib ilmi ancha yuqori bo‘lgan. Mirzo Ulug‘bek tib ilmini qadrlagan. Tojiddin Hakim ko‘z kataraktasini (ko‘z gavhari ustida to‘planib qoladigan oq, ko‘k, qo‘ng‘irrangli suyuqlik) jarrohlik yo‘li bilan davolagan. Chunki bir vaqtlar Shayx ur-raisi – Ibn Sino o‘z faoliyati davomida ko‘z kataraktasini turlarini yozib qoldirgan va uni jarrohlik yo‘li bilan davolagan ham edi.

Ko‘rinadiki, Amir Temur va vorislari davrida tabobat faniga homiylik qilinib, uning ravnaqi uchun ko‘maklashishgan. Bu davrda ozodalik, orastalikka ko‘proq e‘tibor berilgan. Aholini ichimlik suvi bilan ta‘minlash uchun hovuz, ariq, kanallar qazilgan. Tog‘lardan buloqlarni suvini keltirib, ichimlik uchun foydalanishgan. Temuriylar davrida ko‘proq yuqumli kasalliklar tarqalib turganligi uchun zarur choralar ko‘rilgan. Ayniqsa, toza-lik, ozodalik va atrof-muhit musaffoligiga katta e‘tibor berilgan. Ariq va hovuz suvlari nihoyatda toza saqlanganligi tarixiy manbalarda muhrlangan. Amir Temur davri tarixchisi Ibn Arabshoh o‘zining “Ajoyib ul-maqdur fi tarixi Temur (“Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”) nomli kitobida xabar berishicha uning davrida saroyda ilohiyot olimlari, fiqhlari, riyoziyot (matematika), falakiyot (astronomiya), tibbiyot (meditsina), falsafa, tarix, musiqashunoslik, ilmu aruz fanlarining yetuk nomoyondalarini to‘plangan. Tarix, tibbiyot, matematika, me‘morchilik sohalaridagi yuksak salohiyat Sohibqiron avlodlari – ayniqsa, Mirzo Ulug‘bekka o‘tgani shubhasiz. Musulmon Sharqida shu turdagi binolarning mumtoz namunasi hisoblangan, Buxoroda barpo etilgan Ulug‘bek madrasasi peshtoqiga “Ilm olish har bir musulmon erkak va ayolning burchidir”, – so‘zlarining bitilishi barchani ilm-ma‘rifatli bo‘lishga chorlaydi

Xullosa qilib aytganda, Amir Temur va uning vorislari Mirzo Shohruh, Mahdumzoda Ulug‘bek Mirzolar davrida temuriylar saltanati Turonzamin va Xurosonda ilm-fan, ta‘lim va tibbiyot ancha ravnaq topgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qodirov, Asadulla Abdulla o‘g‘li. Tibbiyot tarixi: Tibbiyot Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik/ A.A.Qodirov. —T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2005. — 176 b.

2. Нажибуддин ас-Самарқандий Усул ат-тарокиб ал-адавия (Мураккаб дориларни тайёрлаш усуллари) / Н. ас-Самарқандий; Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси; Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти; таржимон С Каримова, Ш.Саидахмадов; кириш ва изохлар муаллифи С.Каримова; масъул муҳаррир М.Ҳасаний. - Тошкент: «Миёнагпг пазъпуоб», 2013, 100 б

3. N.N.Rasulova.//Amir Temur va Temuriylar davrida bunyodkorlik.// “Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Buxoro, 2022.151-153bet

ОПРЕДЕЛИТЬ КОНЦЕНТРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ В СОСТАВЕ ЧЁРНОЙ СМОРОДИНЫ ВЫРАЩИВАЕМОЙ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

Атаджанова Анахон Уткировна¹

¹Старший преподаватель ТашГАУ

кафедры «Хранения и переработка сельскохозяйственной продукции»

E-mail: atadjanova-a@gmail.com

Аннотация: Выращиваемая смородина природно-климатических условиях Хорезмского региона насыщена углеводами, витаминами и отличается по вкусу. Статье рассматриваются макро-микроэлементы, богатый концентрация в составе чёрной смородины выращиваемой Хорезмском регионе.

Ключевые слова: концентрация, система, молекулярной, кинетический, частицы, диффузия, гомогенность, многокомпонентность, витамины, углеводов, элемент.

Введение. С целью мониторинга химических компонентов ягод чёрной смородины проанализированы литературные данные по их составу. Засушливые и жаркие климатические условия Хорезмской области обуславливают низкую влажность и высокое содержание сухого вещества в выращиваемых плодах.

Изучая химический состав и свойства ягоды смородины во время созревания убедились, что прямые солнечные лучи усиливает фотосинтез

биохимические процессы Вкусовые достоинства ягод чёрной смородины во многом обусловлены биохимическим составом. Изучаемые сорта содержат от 12,7 до 14,5% растворимых сухих веществ и от 8,6 до 9,8% сахаров при наибольшем содержании в плодах сортов «Ядгор» *Таблица 1.*

Таблица 1.

Калорийность	Количество	Витамины	Количество	Витамины	Количество
Белки	1	Витамин А	17мкг	С аскорбин	200мг
Углеводы	0,4	В1 тиамин	0,03мг	Е альфатокоферол	0,7 мг
Жиры	7,3	В2 рибофлавин	0,04мг	Н биотин	2,4мкг
Органические кислоты	2,2	В4 холин	12,3мг	К филлохинон	0,1мкг
Пищевые волокна	4,9	В5 пантотеновая	0,4мг	Вит РР	0,4мг
Вода	83,2	В6 пиридоксин	0,13мг	Ниацин	0,3мг
Зола	0,9	В9 фолаты	5мкг	бета Каротин	0,1мг

С помощью спектральному анализу определили элементарный и молекулярный состав сортов чёрной смородины, выращиваемой в регионе. Сходом проведения анализов выяснилось насыщенная молекулярная концентрация в составе чёрной смородины богатый витаминами, макро-микроэлементами значительной массовые доли углевода, белка, жира и органических кислот. Богата витаминно-минеральный состав, основанный региональным факторам, образует плодах ягоды многокомпонентную систему который можно называть лечебным эликсиром.

Концентрированная система образуется следующими путями с помощью катализаторами в растениях фермент альфа амилазы. Свободная вода является активным участником биохимических реакций. Раствор углеводов, белков, макро и микроэлементов смородины в воде образует в плодах многокомпонентной молекулярную концентрацию кинетическими свойствами. Молекулярная концентрация, частицы плодах чёрной смородины образуется под действием двух противоположных силы тяжести и диффузии. Концентрация обладает молекулярно- кинетическими свойствами, обусловленным и самопроизвольными движением частиц Кинетическая устойчивость концентрации зависит от размеров их частиц. Химический состав чёрной смородины и калорийность продукта указанно следующим показателям. *Таблица 2.*

Таблица 2

Пищевая ценность на 100грамм

Макро элемент	Количество	Микро элемент	Количество	Микро элемент	Количество
Калий-К	300мг	Алюмин Al	500мкг	Медь-Cu	126мкг
Кальций- Ca	34мг	Бор-В	54мкг	Молибден	22мкг
Кремний -Si	60мг	Ванадий-V	4мкг	Никель -Ni	1,5мкг
Магний -Mg	33мг	Железо-Fe	1,2мкг	Рубидий-Rb	11,6мкг
Натрий -Na	36мг	кобальт-Co	3мкг	Селен-Se	1,2мкг
Сера -S	3мг	Йод-I	0,8мкг	Фтор-F	16мкг

Фосфор-F	30мг	Литий-Li	0,8мкг	Хром-Cr	0,8мкг
Хлор-Cl	16 иш	МарганецMg	0,17мкг	Цинк-Zn	0,9мкг

Сорта выращиваемая в регионе из группы дикорастущий чёрный смородины содержится больше до 3,84% органических (плодовых кислот). Дикорастущих сортах чёрной смородины отношение сахаристости к кислотности обычно пониженное, количество пектиновых веществ от 0,66 до 1,09%.

Вывод. Ягоды чёрной смородины содержит водорастворимые и спирторастворимые химические соединения, обладающие антиоксидантными свойствами. Выявлено, что процессе созревания происходит изменения химический состав ягод чёрной смородины, при этом увеличивается содержание сухих растворимых веществ, что в дальнейшем благоприятно влияет на диффузию при получении экстрактов.

Литература

1.Макаркина М.А., Янчук Т.В. Характеристика сортов смородины чёрной по содержанию сахаров и органических кислот. Сов.садоводств 2010,12стр9-12.

2.Мясищева Н.В Артёмова Е.Н. Изучение биологически активных веществ ягод чёрной смородины. Техника и технология пищевых производств. 2013,3.

3.Сорта ягодных культур источники повышенного содержания компонентов. Мичуринск. 2010 стр.112-116.

4.Гришко Т.Г. Закономерности накопления витаминов и полифенолов в плодах и ягодах. НАН Беларусь 2009.Т21 стр. 365-373.

5.Абдуллаев Р, Ягудина С. Томоркада етиштириладиган резавор мевалар. Т.1989.

6.Сезонов Ф.Ф, Никулин А.Ф. Сравнительная оценка качества ягод чёрной смородины. Вестник ФГОУ. Брянск ГСХА-2008. 2 стр.9-12.

III shuba

MUTAQILLIKDAN KEYINGI DAVRDA TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARI VA UNING AHAMIYATI.

Boboeva Mohim Shukurovna¹

¹“Toshkent Davlat Transport Universiteti”

“Ijtimoiy fanlar” kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi

Mexnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi katta o‘qituvchisi

boboevamohim@gmail.com.

+998909246309

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ekologik barqarorlikni ta'minlash va uning asosiy maqsadlari. Ekologik barqarorlikni ta'minlashda ekologik transformatsiya jarayonlarining ahamiyati. Ekologik transformatsiyani amalga oshirishda havo ifloslanishi, energiya samaradorligi, suvdan samarali foydalanish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar ochib berilgan.

Kalit so'zlar : transformatsiya, ekologik barqarorlik, havo ifloslanishi, energiya samaradorligi, suvdan foydalanish.

Ilmiy adabiyotlarga 1850 – yillardan keyin kirib kelgan “Transformatsiya” atamasi dastlab biologiya soxasida bir xujayrani boshqa turdagi xujayra bilan transformatsiyalash qayta hosil qilish sifatida tadqiq qilingan bo'lsa bugungi kunda dunyo davlatlarining aksariyatida jamiyatning barcha soxalariga tadqiq qilinib o'zining amaliy ijobiy natijalarini ko'rsatib kelmoqda. Jumladan ikkinchi jaxon urushidan keyin Davlatlar Milliy ligasini qayta tashkillashtirish yo'li bilan o'zagi saqlanib qolgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkil topishi xalqaro tashkilotlar soxasidagi transformatsiyaning bir ko'rinishlaridan xisoblanadi.

Insoniyatning ijtimoiy hayotdagi munosabatlarida, ijtimoiy hayot soxalarini tashkil qilishdagi tanlagan yo'li bugungi kunda boshqa soxalarda bo'lgani kabi ekologik soxada xam transformatsiyalarni talab qilmoqda. O'zbekiston sharoitida bugungi kunda bir qator soxalarda transformatsiyalar amalga oshirildi va bular o'zining amaliy ifodasini ijobiy tomonlarga ko'rsatib kelmoqda. Masalan, iqtisodiy soxadagi transformatsiyalardan davlat ishtirokidagi korxonalarini isloh qilish va xususiy lashtirishni olish mumkin. Jumladan bu soxada drayver sifatida yoqilg'i energetika kompleksidagi barcha ishtirokchi kompaniyalardagi transformatsiyalarni olish mumkin. Issiqlik elektr stansiyalari aksiyadorlik jamiyatini transformatsiya qilishning asosiy vazifasi bu ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar tannarxini pasaytirish, operatsion samaradorlikni oshirish va uning ishonchli ishlashini ta'minlash maqsadida raqamli texnologiyalar va platformali yechimlarni tizimli ravishda joriy etish yo'li bilan uni raqabatbardosh kompaniyaga aylantirish xisoblanadi.

Yana bir misol sifatida O‘zbekiston temir yo‘llar tizimidagi transformatsiyani xam olish mumkin. Bu soxadagi muhim transformatsiya sifatida “O‘zbekiston temir yo‘llari” kompaniyasini rivojlantirish va xususiylashtirish strategiyasini ishlab chiqish bo‘yicha tarif siyosatini takomillashtirish va tashuvlarni franshiza asosida xususiy sektorga berish ko‘zda tutilgan edi. Jaxon banki bilan xamkorlikda o‘zining yo‘lovchi va yuk vagonlariga ega bo‘lgan xususiy operatorlar faoliyatini rivojlantirish hamda temir yo‘l transporti xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirishga qaratilgan shaffof va moslashuvchan tarif tizimini yaratish yo‘li bilan tarif siyosatini takomillashtirish belgilab qo‘yilgan edi.

Boshqa soxalarda bo‘lgani kabi ekologik barqarorlikni ta‘minlash soxasida ham bugungi kun taraqqiyot darjasidan kelib chiqqan holda transformatsiya jarayonlarini tashkil qilish davr va zamon talabiga aylandi.

Ekologiya soxasidagi dastlabki transformatsiya bu mustaqillikni dastlabki yillaridan boshlab soxaga doir qonun hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish zaruriyatidan kelib chiqqan holda qonunlar, qarorlar va tuzilmalarni tashkil qilinishi va qabul qilinishi hisoblanadi. Xo‘sh o‘zi bugungi kunda ekologik barqarorlikni ta‘minlash sharoitida transformatsiyalarni tashkil qilish nima sabadan kerak?

2022 yilgi malakatlar iqlimi va taraqqiyot xisobotida O‘zbekiston 2050 yilga borib 50 million aholidan oshiq axolisi mavjud mamlakatlar qatoriga kiradi. Bu tabiiy ravishda belgilangan hudud doirasida aholining extiyojlarini qondirish zururiyatini keltirib chiqaradi. O‘zi shunday xam O‘zbekiston iqlim o‘zgarishlarining voqeliklariga duch kelmoqda, bu qurib borayotgan Orol dengizining ekologik halokati va qurg‘oqchilik, haddan tashqari issiqlik, yog‘ingarchilikning o‘zgaruvchanligi va chang bo‘ronlari ko‘payishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Atrof-muhitning ifloslanishi natijasida sog‘liqqa etkazilgan zararning yillik xarajatlari dahshatli bo‘lib, YaIMning 6,5 foizini tashkil etadi. Ayni shu muammolardan kelib chiqqan xolda oxirgi yillarda ekologik barqarorlikni ta‘minlash soxasida amalga oshirilgan isloxotlardan eng muhimi sifatida Tabiiy resurslar vazirligi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi deb o‘zgartirildi.

Farmonga ko‘ra, 2023-yil 1-iyuldan boshlab “Atrof-muhitni muhofaza qilish jamoat nazoratchisi” tizimi joriy etildi.

Shuningdek, Bosh prokurorning ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va o‘rmon xo‘jaligi sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi va ularning ijrosini nazorat qilish uchun mas‘ul bo‘lgan o‘rinbosari lavozimi joriy etildi.

Vazirlik tomonidan alohida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan davlat ekologik nazorati inspeksiyasi tashkil etildi.

Hujjatda 2023-yil 1-dekabrga qadar tumanlar (shaharlar)da atmosfera havosi ifloslanishini fon monitoringi bo‘yicha avtomatlashtirilgan nimstansiyalar o‘rnatilishi belgilangan. 2025-yil oxirigacha tajriba tariqasida respublika hududi bo‘ylab havoning tabiiy ifloslanishi yuqori bo‘lgan hududlar aholisini prognozlash va erta ogohlantirish tizimi joriy etilmoqda.

Bundan tashqari, 2024-yil oxirigacha respublikaning barcha hududlari bo‘yicha ekologik baholash ko‘rsatkichlari asosida eco-indicator.uz reytingi shakllantiriladi va har bir hududning ekologik pasporti chop etiladi.

Farmonga muvofiq, milliy tabiiy meros obyektlari ro'yxati joriy etilmoqda. 2024-yildan buyon har yili 500 milliard so'm ajratilib, mablag'lar quyidagilarga sarflanmoqda:

– “yashil belbog’”, “yashil bog’” va “yashil qoplamalar” qo‘riqlanadigan o‘rmon plantatsiyalari doimiy foydalanuvchilarga berilgunga qadar ularni yaratish va saqlash;

- magistral temir yo‘llar va magistral yo‘llar bo‘ylab daraxt ko‘chatlarini ekish; -har bir tuman va shaharda kamida 5 gektar maydonda bog‘lar barpo etish.

2023-yil oxirigacha har bir davlat tashkiloti va har bir boshqarma o‘z bog‘larini yaratadi va ular uch yil davomida parvarishlanadi.

2024-yil 1-yanvardan boshlab uy sharoitida yoki uy vazifasi asosida daraxt va buta ko‘chatlarini yetishtirish faoliyati yakka tartibdagi tadbirkorlar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat (ish, xizmat) hisoblanishida ko‘rishimiz mumkin. Ammo shu va shu kabi boshqa choralarni ko‘rishimizga qaramasdan, bir qator lokal va global muammolar talaygina.

Yaqinlashib kelayotgan iqlim xavf-xatarlari suv xavfsizligi, oziq-ovqat xavfsizligi va yerning degradatsiyasi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, barqaror o‘shiga tahdid soladi. Suvning 90 foizi sug‘oriladigan dehqonchilik uchun sarflanayotgan va jahon miqyosida suv ta‘minoti eng qiyin bo‘lgan mamlakatlardan biriga aylanish prognozlariga ko‘ra, O‘zbekiston barqaror o‘shini ta‘minlash uchun iqlimga mos qishloq xo‘jaligi amaliyoti va suv resurslarini kompleks boshqarishni qo‘llashi kerak. Hisob-kitoblarga ko‘ra, iqlimning turli sohalarga salbiy ta‘sirini bartaraf etish va yumshatish uchun 46,7 milliard dollar qo‘shimcha sarmoya kiritiladi. Muammolar chuqur taxlil qilinib o‘rganiladigan bo‘lsa bundan xam ayanliroq ma‘lumotlar keltirilishi mumkin. Xo‘sh bu muammolarni baratarf etish uchun avvalambor qanday ishlar amalga oshirilishi kerak.

1. Xavoning iflosalanish darajasini nisbatan kamaytirish uchun yashil shaxarlarni rivojlantirish zarur. Bu yashil shaxarlar ixcham rejalashtirilgan bo‘lib, biologik xilma – xillikni xisobga olgan holda tashkil qilinishi lozim.
2. Energiya samaradorligiga erishish energiya samaradorligi dasturlarini jadallashtirish va raqobatbardosh xususiy sektor tomonidan qayta tiklanadigan energiyani ishlab chiqarishni kengaytirish lozim. Undan tashqari yangi ko‘mir qazib olinishini cheklash va tabiiy gazni maishiy maqsadlarda ishlatishni cheklash lozim.
3. Qishloq xo‘jaligida sug‘oriladigan tarmoqda suvdan samarali foydalanish tizimini joriy qilish lozim. Bir qator suv va energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2023 yil 30 aprel
2. “Davlat ishtirokidagi korxonalarni islox qilish va xususiylashtirishni jadallashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston respublikasi Prezidenti farmoni 2020 yil 27 oktyabr PF- 6096- son

3. “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 31.05.2023 yil PF – 81 – son
4. This article is an extended version of Sebastian Schiek, “Usbekistan wagt sich an ein Update [Uzbekistan dares to update its political system],” German Institute for International and Security Affairs, October 2017, https://www.swp-berlin.org/fileadmin/contents/products/aktuell/2017A68_ses.pdf.
5. <https://daryo.uz/en/2023/11/22/uzbekistan-requires-400bn-for-green-transformation-by-2060-ccdr>
6. M.Boboeva “Ekologik barqarorlikni ta’minlashda xalqaro va milliy tajriba”. – T.: “Ijtimoiy davlat sharoitida jamiyatni faollashtirish va davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish imkoniyatlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 2023 yil 26 may.

FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG‘ULLANISH HUQUQINI HIMOYA QILISHNING ASOSIY SHAKLLARI HAMDA QONUNCHILIK ASOSLARI

Muxammadjonov Jasurbek Jaxongir o‘g‘li¹

¹O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

Davlat va huquq intsituti tayanch doktoranti

e-mail: interlwayerjr@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug‘ullanish huquqini himoyalashning asosiy shakllari masalasi yoritilgan bo‘lib, ushbu himoya shakllarining faoliyati jarayonlarida qo‘llaniladigan asosiy qonunchilik hujjatlarini tahlili olib borilgan. Fuqarolarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun huquqiy shart-sharoitlar hamda erkinliklarni ta’minlab beruvchi qonunchilik hujjatlaridagi normalarning sharhiga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Fuqarolarning ushbu huquqlarini himoyalashning asosiy tendensiyalari bo‘yicha xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: fuqarolarning tadbirkorlik huquqi, mulkka bo‘lgan huquq, qonunchilik hujjatlari, inson huquqlari himoyasi bo‘yicha ombudsman, Konstitutsiya, Fuqarolik kodeksi.

Davlatning qonun ustuvorligini ta’minlovchi organlari faoliyatining iqtisodiy sektordagi huquqiy ta’sir doirasi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi sub’ektlarning himoyasini ta’minlashda juda muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy faoliyat erkinligini ta’minlashning nazariy va uslubiy asoslarini chuqur tahlil qilinsa, fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga bo‘lgan huquqlarini himoya qilishning asosiy tendensiyalarini alohida ajratib ko‘rastish mumkin bo‘ladi. Fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug‘ullanish huquqini himoya qilishning

asosiy shakllarini shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Ommaviy tartibdagi himoya shakli – davlat darajasida hamda xalqaro maydonda;

2. Korporativ-davlat tartibidagi himoya shakli - siyosiy munosabatlar sohasida Prezident huzuridagi tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha Vakil faoliyati, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakilining faoliyati, siyosiy partiyalar va boshqa ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar hamda iqtisodiy sohada advokatlik tuzilmalari;

3. Xususiy tartibdagi himoya shakli – o'z-o'zini himoya qilishdir.

Tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqini davlat tomonidan himoya qilish shakllariga umumiy va maxsus yurisdiksiya sudlarining faoliyati ham kiradi, bu esa inson huquqlarini himoya qilish jarayonida ixtisoslashuv, kasbiy tamoyillar va ish yuritishning batafsil protsessual qoidalarini mukammallashtirishdan iborat jarayondir.

Fuqarolik jamiyati tomonidan fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqlarini himoya qilishning o'ziga xos xususiyati deganda bir-biriga bo'ysunish yo'li bilan bog'liq bo'lmagan, turli xil tashabbuslarni amalga oshirish uchun muhim imkoniyatlarga ega bo'lgan, biroq qonun bilan belgilangan bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan vakolatlarga ega konstitutsiyaviy huquqiy munosabatlar sub'ektlarining faoliyati tushuniladi. Huquqiy munosabatlar sohasida fuqarolik jamiyatining fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqlarini himoya qilishdagi ishtirokining asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakilining, Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz, shuningdek, siyosiy partiyalar va boshqa ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning faoliyati; iqtisodiy sohada – xususiy advokatlik va boshqa huquqiy yordam ko'rsatuvchi tashkilotlar, shuningdek, advokatlik tuzilmalarining yaxlit tizimi asosiy tendensiyalar hisoblanadi. Fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, o'z navbatida, tadbirkorlik faoliyati shakllarini himoyalash dolzarb masalalardan biriga aylanib borayotganini hisobga olib, Yangi O'zbekistonda ushbu tendensiyani rivojlantirishga qaratilgan qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish asosiy masala hisoblanadi.

Fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqini himoya qilishning davlat shakli boshqa usullardan kamida quyidagi ikki jihati bilan farq qiladi. Birinchidan, u davlat suvereniteti, ya'ni davlat hokimiyatining ustunligi, yaxlitligi, to'liqligi, birligi va hukmronligiga tayanadi.

Ikkinchidan, hokimiyatlarning bo'linishi prinsipi tufayli inson huquqlarining davlat tomonidan himoya qilinishi inson huquqlarini himoya qilish jarayonida bir-biridan mustaqil ravishda, ba'zan esa bir-biriga qaramasdan ishtirok etuvchi konstitutsiyaviy huquqiy munosabatlar subektlarining ko'pligi bilan ajralib turadi.[1]

Inson huquqlarini himoya qilish nafaqat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati, balki davlat organlarining klassik "uchligi" ga kirmaydigan bir qator boshqa organlar tomonidan ham amalga oshiriladi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prokuratura va boshqa ko'plab). Inson huquqlarini davlat tomonidan

himoya qilish jarayonida bir davlat organi (masalan, prokuratura) boshqa davlat organi bilan (masalan, qonun chiqaruvchi (vakillik) organi bilan) o'z nizosini uchinchi davlat organi (umumiy va maxsus yurisdiksiya sudi) da hal qilishini kuzatish mumkin. Bu organlarning barchasi suverenitet mulkiga ega bo'lgan bir davlatning qonuniy vakillari ekanligini alohida ta'kidlash zarur. Qayd etilgan muntazamlik fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan huquqlarini himoya qilish nazariyasi va amaliyoti bilan bevosita bog'liqdir.

Tadbirkorlarning huquqlarini mahalliy davlat hokimiyat organlari tomonidan himoya qilish ko'p jihatdan o'xshash xususiyatga ega, ammo bu erda, birinchidan, mahalliy o'zini o'zi boshqarishning davlat-hokimiyat xususiyatini saqlab qolgan holda, suverenitet mulki yo'q, ikkinchidan, inson huquqlari faoliyati sub'ektlarining soni va vakolatlari sezilarli darajada kamayadi.

Fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqining milliy huquqiy asoslari sifatida birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 41, 65, 66, 67-moddalari bevosita mamlakat fuqarolariga tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqini amalga oshirishlari uchun fundamental huquqiy normalar hisoblanadi. Undan keyingi milliy huquqiy manbalar esa qonun, qonunosti hujjatlari, sud qarorlari, sud pretsedenti, vakolatli davlat organlarining qaror va farmoyishlari, mahalliy davlat hokimiyat organlari va fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida har bir shaxsning mulkdor bo'lishga haqli ekanligi mustahkamlangan. Mulk huquqining huquqiy himoyasi fuqarolarning iqtisodiy erkinliklarini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Xususan, inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarda belgilangan mulk huquqi bo'yicha qoidalar aynan konstitutsiyamiz bilan to'laqonli mutanosibdir.

O'zbekiston Respublikasining 31.10.1990 yildagi 152-XII-son "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida" Qonuni 1-moddasida O'zbekiston Respublikasida mulkiy huquq tan olinadi va qonun bilan muhofaza etilishi; mulkdor o'ziga tegishli mol-mulkka o'z ixtiyoriga ko'ra egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etishi; mulkdor o'z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo'lmagan har qanday xatti-harakatlarni qilishga haqlidir. U mulkdan qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday xo'jalik yoki boshqa faoliyatni amalga oshirishda foydalanishi mumkinligi belgilangan.[2]

Ushbu normaning oxirgi qismiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mulkdan qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday xo'jalik yoki boshqa faoliyatni amalga oshirishda foydalanishi mumkinligi nimani anglatadi? Albatta, fuqarolarga ushbu mulk orqali iqtisodiy faoliyat va tadbirkorlik bilan shug'ullanishni kafolatlaydi. SHunday ekan fuqarolarning mulkka bo'lgan huquqlari himoyasi amalda ularga tadbirkorlik bilan shug'ullanish erkinligini yaratib beradi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari tartibga solinishi lozim bo'lgan munosabatlarning turlari va mazmuniga ko'ra fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqini to'g'ridan to'g'ri ta'minlovchi hamda dastlabki tarzda ta'minlovchi turlarga ajratiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining

24.09.2012 yildagi O‘RQ-336-son “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni 4-moddasida: “Mulkdor o‘ziga qarashli mol-mulkka o‘z xohishiga ko‘ra hamda o‘z manfaatlarini ko‘zlab egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdor o‘z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo‘lmagan har qanday harakatlarni bajarishga haqli. U o‘z mol-mulkidan xo‘jalik faoliyatini va qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun foydalanishi, uni boshqa shaxslarga egalik qilish va (yoki) foydalanish uchun tekinga yoxud haq evaziga berishi mumkin. Mol-mulkdan foydalanish fuqarolarning, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi, atrof-muhitga zarar etkazmasligi kerak”, deya qayd etilgan.[3]

Asosiy e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan qonun bu - 2012 yil 2 mayda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-328-son Qonuni hisoblanib uning 1-moddasida keltirilgan quyidagi normaga e‘tibor qaratamiz: “Ushbu Qonunning asosiy vazifalari fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va undan manfaatdor bo‘lishi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratishdan, ularning ishchanlik faolligini oshirishdan, shuningdek tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.”[4]

E‘tibor qiladigan bo‘lsak, Qonun 1-moddaning o‘zidayoq to‘g‘ridan to‘g‘ri fuqarolarga murojaat qilib, ularga tadbirkorlik bilan shug‘ullanishni huquq sifatida ta‘minlash, uni kafolatlash va uni amalga oshirishga shart-sharoitlar yaratishni ko‘zda tutmoqda.

Bundan tashqari quyidagi qonun hujjatlari u yoki bu darajada fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug‘ullanish huquqini ta‘minlash va muhofaza qilish masalalarida qat‘iy normalarni belgilaydi. Insonning tadbirkorlik bilan shug‘ullanish huquqi manbalari tizimida “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonun, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili(ombudsman) to‘g‘risida”gi Qonuni[5] hamda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha Vakil to‘g‘risida”gi Qonuni[6] muxim o‘rinni egallaydi. Ushbu qonunlar fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga bo‘lgan huquqiga nisbatan har qanday tazyiqlar, cheklovlar, ta‘qiqqlar va boshqa turdagi har qanday huquqbuzarliklarni oldini olish, mavjud nizolarni hal qilishda fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug‘ullanish huquqini himoya qilish masalalarida muhim normalarni mustahkamlaydi.

Insoning iqtisodiy huquqlarining asosiy manbalari sifatida O‘zbekiston Respublikasining kodekslari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu kodeksda aynan fuqarolarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishining tartib qoidalari hamda bu faoliyatni amalga oshirish davomida yuzaga keladigan munosabatlar tizimini tartibga soluvchi normalar ham belgilangan. Jumladan, kodeksning 18-moddasi fuqarolarga mulk xukuki asosida mol-mulkka ega bo‘lishlari; mol-mulkni meros kilib olishlari va vasiyat kilib koldirishlari; bankda jamg‘armalarga ega bo‘lishlari; tadbirkorlik bilan xamda qonunda ta‘qiqqlab quyilmagan boshqa faoliyat bilan

shug‘ullanishlari mumkinligi belgilangan. umuman olganda kodekslar mamlakat qonunchiligida qabul qilingan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning unifikatsiya qilingan, yagona va yaxlit tizimga keltirilgan ko‘rinishi hisoblanadi.[7]

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, Jinoyat kodeksi, Mehnat kodeksi, Oila kodeksi asosiy manbalar sifatida qad etiladi. Chunki Oila kodeksida ham nikoh tuzganlardan birining tadbirkorlik faoliyati haqida batafsil yoritilgan normalar mavjud bo‘lsa, Mehnat kodeksida ushbu faoliyat turlari va ularga qo‘yiladigan talablar, ushbu faoliyat turi bilan shug‘ullanishning shartlari to‘g‘risidagi normalar mustahkamlangan. Ushbu turdagi manbalarning boshqa manbalardan o‘ziga xos xususiyati ularning aniq belgilangan jarayonlar va munosabatlarni tartibga solishiga qaratilganligi bilan izohlash mumkin.

O‘z vaqtida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, huquqshunos olim, yuridik fanlari doktori, professor Xoji-Akbar Rahmonqulov Fuqarolik kodeksida mulk huquqining mustahkamlanishi haqida quyidagicha fikrni bildirgan: “Endi kishilar xususiy mulkdan faqat shaxsiy moddiy va madaniy ehtiyojlarini ta‘minlashda foydalanish bilan cheklanmay balki, bu mulk asosida turli tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, ishlab chiqarish jarayonida faqat o‘z mehnati emas, balki yollanma mehnatni jalb qilish, o‘zi uchun kerak bo‘lgan ishlab chiqarish qurollari hamda vositalariga ega bo‘lish, ularni ijaraga berish yo‘li bilan qo‘shimcha daromadlar olish kabi huquqlarni ham qo‘lga kiritdilar.”[8]

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 24-moddasining birinchi qismida fuqaro yakka tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga haqli ekanligi to‘g‘risidagi norma mustahkamlangan.[9]

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 164-moddasida mulk huquqi tushunchasiga quyidagicha ta‘rif beriladi: “Mulk huquqi shaxsning o‘ziga qarashli mol-mulkka o‘z xohishi bilan va o‘z manfaatlarini ko‘zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o‘zining mulk huquqini, kim tomonidan bo‘lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir.”

Yuqoridagi normada belgilangan mulkdan foydalanish va uni tasarruf etish bilan bog‘liq harakatlarni amalga oshirish fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug‘ullanish huquqini amalga oshirishining boshlang‘ich bosqichi hisoblanadi. Aniqroq sharhlaydigan bo‘lsak, mulkni tasarruf etish birinchi navbatda fuqaroning moddiy ehtiyojlarini qondirish va ushbu moddiyatni ko‘paytirish bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Fuqarolik kodeksining 166-moddasida mulkning daxlsiz va qonun bilan qo‘riqlanishi, ushbu mol-mulkni olib qo‘yishga, shuningdek, mulkiy huquqlarni cheklashga faqatgina qonunchilikda nazarda tutilgan hollardagina yo‘l qo‘yilishi ko‘rsatilgan.[10]

Mulk huquqini amalga oshirish jarayoni turli hil iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar natijasida sodir bo‘lishi mumkin. Jumladan, mulk huquqi mehnat faoliyati, mol-mulkdan foydalangan holda tadbirkorlik va iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish natijasida mol-mulkni yaratish, uni ko‘paytirish, turli xil bitimlar

asosida qo‘lga kiritish, davlat mol-mulkini xususiylashtirish, meros qilib olish, egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat orqali qo‘lga kiritish va qonunchilikka zid bo‘lmagan boshqa asoslarga tayanadi.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 207-moddasida qonunchilikka muvofiq tarzda qo‘lga kiritilgan mol-mulkka egalik qilish fuqaroning xususiy mulk huquqi deya tan olinishi belgilangan.[11] Xususiy mulk bo‘lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi. Bu shuni anglatadiki, har bir fuqaro qonuniy asosda qo‘lga kiritgan mulkidan bemalol foydalanishi, uni ijaraga berishi yoki sotishi va hadya qilishi, undan tijoriy maqsadlarda va tadbirkorlik maqsadlarida foydalanishi mumkin.

Qonun bilan man etilgan ayrim ashyolardan tashqari har qanday mol-mulk xususiy mulk bo‘lishi mumkin. Buni quyidagicha tarzda izohlash mumkin. Konstitutsiyamizning 55-moddasida er, erosti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralari umummilliy boylik ekanligi qat’iy belgilangan. “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida tashish jarayonining uzluksizligini, harakat xavfsizligini va avariya tiklash ishlari o‘tkazilishini bevosita ta’minlovchi temir yo‘l transporti korxonalari umumiy foydalanishdagi temir yo‘llar va temir yo‘l transportining boshqa mol-mulki mutlaq davlat mulki ekanligi, “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasida esa davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarida turgan va topshirilgan arxiv hujjatlari davlat mulki hisoblanishi hamda mazkur hujjatlar davlat tasarrufidan chiqarilishi va xususiylashtirilishi, oldi-sotdi yoki mulk huquqini boshqa shaxsga o‘tkazish bilan bog‘liq bitimlar ob’ekti bo‘la olmasligi qayd etilgan. Demak, har qaydan mol-mulk ham xususiy mulk bo‘la olmaydi biroq qonuniy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan mol mulk esa mulk egasi tomonidan qonunga muvofiq istalgancha tasarruf etilishi mumkin. Aynan shu imkoniyat fuqarolarga tadbirkorlik bilan shug‘ullanish uchun yuqori darajadagi imkoniyatni taqdim etadi.[12]

Fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug‘ullanish huquqi manbasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, farmoyishlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirlik va davlat idoralari qonunlarining qarorlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlaridan iborat bo‘ladi.

Tadbirkorlar huquqlarini davlat darajasida himoya qilishning nafaqat normalarni amalga oshirishni, balki faol ijro va ma’muriy faoliyatni ham talab qiladi. Ushbu ish Davlat hukumati, Respublikaning yuqori ijro etuvchi organlari, shuningdek mahalliy mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyati tizimidagi ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi hukumatining tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha faoliyati umumiy vakolatli boshqa ijro etuvchi organlarning faoliyatiga qaraganda juda ham faol.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy munosabatlar sohasidagi inson huquqlari himoyasi funksiyasini amalga oshirish bo‘yicha tahlilimiz tadbirkorlik erkinligini ta’minlashning quyidagi yo‘nalishlarini aniqlashga imkon beradi: 1) tadbirkorlikning ayrim turlarini, xususan, kichik biznesning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi; 2) maqsadi fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirishni ta’minlashdan iborat bo‘lgan maxsus

tuzilmalarni shakllantirish 3) tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qo‘shimcha manbalar hisobidan xorijiy investitsiya resurslarini jalb qilish; 4) aholini tadbirkorlik faoliyati asoslariga o‘qitishni tashkil etish; 5) tadbirkorlik faoliyatini axborot bilan ta‘minlash; 6) tadbirkorlik faoliyati sohasida turli qoidalarni tasdiqlash va tartiblarni takomillashtirish.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug‘ullanish huquqini o‘zini-o‘zi himoya qilishning shakllari nisbatan yuqori darajada rivojlanganligini hisobga olib, qonun chiqaruvchi, bizningcha, tegishli ijtimoiy munosabatlarni alohida qonun shaklida tartibga solibgina qolmay, balki fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug‘ullanish huquqini himoya qilishning muqobil yondashuvlarini ishlab chiqishga ko‘maklashishi ham lozimdir. Fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga bo‘lgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini o‘zini o‘zi himoya qilish maqsadida Respublika darajasida va mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimida jamoat palatalarini tashkil etish masalasi ijobiy ahamiyatga egadir.

Ijroiya hokimiyati tomonidan fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatiga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqini himoya qilish jarayonida maxsus vakolatli organlarning vakolatlari tizimi: vazirliklar, mahalliy davlat idoralari ham muhim ahamiyatga egaligini unutmash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Egorov S. A. Konstitutsionno-pravovye osnovy prava grajdan na svobodnoe ispolzovanie svoix sposobnostey dlya zanyatiya predprinimatelskoy deyatelnoy. Avtoref. diss....kand.yurid.nauk. Moskva. 2005. – S. 28.

2. Qarang: O‘zbekiston Respublikasining 31.10.1990 yildagi 152-XII-son “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida” Qonuni. 1-modda. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi sayti: <https://lex.uz/docs/111466> Oxirgi murojaat. 19.01.2024.

3. Qarang: O‘zbekiston Respublikasining 24.09.2012 yildagi O‘RQ-336-son “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 4-modda. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi sayti: <https://lex.uz/docs/2055680?ONDATE2=21.04.2021&action=compare> Oxirgi murojaat. 19.01.2024.

4. Qarang: O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 maydagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-328-son Qonuni. 1-modda. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi sayti: <https://lex.uz/acts/2006789> Oxirgi murojaat. 19.01.2024.

5. Qarang: O‘zbekiston Respublikasining 27.08.2004 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili(ombudsman) to‘g‘risida”gi 669-II-son Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi sayti: <https://lex.uz/docs/276159> Oxirgi murojaat. 19.02.2024.

6. Qarang: O‘zbekiston Respublikasining 29.08.2017 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha Vakil to‘g‘risida”gi O‘RQ-440-son Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi sayti: <https://lex.uz/docs/3321352> Oxirgi murojaat. 19.02.2024.

7. Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.. 18-modda. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi sayti: <https://lex.uz/docs/111189> Oxirgi murojaat. 29.02.2024.

8. Rahmonqulov. H. Mulk huquqi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent. “Qonun himoyasida” nashriyoti. 1998. – B.13.

9. Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.. 24-modda. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi sayti: <https://lex.uz/docs/111189> Oxirgi murojaat. 23.01.2024.

10. Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.. 166-modda. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi sayti: <https://lex.uz/docs/111189> Oxirgi murojaat. 23.01.2024.

11. Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.. 207-modda. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi sayti: <https://lex.uz/docs/111189> Oxirgi murojaat. 23.01.2024.

12. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar(amaliy qo‘llanma) – Toshkent. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2021. – B.10.

“O‘ZBEKISTON-2030” STRATEGIYASIDA DAVLAT BOSHQARUVI VA SUD-HUQUQ TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

Ismatov Shohrubbek Murod o‘g‘li¹

¹BuxDPI ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

O‘rinov O‘tkirbek Nodir o‘g‘li²

²BuxDPI 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Bugungi kunda fuqarolarning huquqlari va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish, ularning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy huquq va erkinlarini qonun bilan har tomonlama mustahkamlash, odil sudlov tizimini yaratish zamonaviy demokratik davlatlarning bosh vazifa hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida ham davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda

Kalit so‘zlar: davlat boshqaruvi, sud-huquq tizimi, partiya, konstitutsiya

So‘nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda, shu jumladan davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimida ham keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning barchasi O‘zbekiston Respublikasida xalqchil demokratik davlat

qurish borasida amalga oshirilmoqda. Xususan, 2023-yil 11-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoni qabul qilindi. Ushbu farmondan ko‘zlangan asosiy maqsad mamlakatimizni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan yangi pog‘onaga olib chiqish hisoblanadi. Strategiya 5 ta ustuvor yo‘nalish va 100 ta maqsaddan iborat. Jumladan, 4-yo‘nalish – Qonun ustuvorligini ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish deb nomlanib, o‘z ichiga 74-89-maqsadlarni qamrab oladi.

Xususan, 79-maqsad – Yangi O‘zbekistonni barpo etishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish deb nomlanadi. Yurtimizda Harakatlar strategiyasi asosida jamiyatimizda ko‘ppartiyaviylik, siyosiy plyuralizm, fikrlar rang-barangligi, ochiqlik va oshkoralik tamoyillarini kuchaytirishga alohida e‘tibor berilmoqda. Har qanday siyosiy partiya zamon bilan hamnafas bo‘lib, uning talablariga javob bergan taqdirdagina siyosiy kuch sifatida yashay oladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 22-avgustda yurtimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar rahbarlari bilan uchrashuvda quyidagicha fikr bildiradi: “Qaysi partiya mansubligidan qat’i nazar, barcha yurtdoshlarimizni birlashtiradigan yagona va mushtarak maqsad-bu jonjon O‘zbekistonimiz, uning buyuk kelajagidir. Ayni shu maqsad hammamizni ona yurtimizga sadoqat bilan xizmat qilishga da’vat etadi”. Partiyalar jamiyat hayotidagi o‘rni va rolini oshirish, saylovlarda ko‘ppartiyaviylik va oshkoralik ruhini doimo saqlab qolish, jahon saylov standartlariga mos holda saylovlar o‘t-kazish va unga tayyorgarlik ko‘rish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu vazifalar “O‘zbekiston-2030” strategiyasida ham asosiy maqsadlardan biri sifatida kiritilgan. Jumladan, strategiyada saylovchilar bilan elektron muloqot qilish, deputat so‘rovini elektron tarzda yuborish va nazorat qilish imkoniyatini ta‘minlash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish maqsadida vakillik organlariga saylovning aralash (majoritar-proporsional) tizimini joriy qilish belgilangan.

Strategiyaning 83-maqsadi – Erkin fuqarolik jamiyatini va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish deb nomlanadi. Yurtimizda bugungi kungacha “to‘rtinchi hokimiyat” sifatida e‘tirof etilayotgan OAV faoliyatini samarali tashkil etish, ularning ish faoliyatiga to‘sqinlikni bartaraf etish maqsadida amaliy ishlar olib borilmoqda. So‘nggi yillarda OAV ochiqlik va shaffoflik prinsiplariga amal qilgan holda, xalq bilan muloqot, jamoatchilik bilan aloqalar uchun muhim ijtimoiy institutga aylanmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlariga yo‘llagan tabrigida aytib o‘tganidek, “Xalq bilan muloqot, odamlarning orzu-intilishlari, dard-u tashvishlari bilan yashash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilayotgan bugungi kunda har bir ommaviy axborot vositasi chinakam muloqot maydonchasiga, erkin fikr minbariga aylangan taqdir-dagina biz o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erisha olamiz”. Shubhasiz, OAV davlatning asosiy tayanchi bo‘lishi bilan bir qatorda, xalq bilan erkin muloqot qila olishi lozim. Soha vakillarining huquqlari davlat tomonidan himoya qilinib kelinayotganligi, so‘nggi yillarda OAV to‘g‘risida ko‘plab qaror va farmoyishlar e‘lon qilinayotganligi ham

fikrimiz isbotidir. Yangi tahrirdagi Ommaviy axborot vositalari tog'risidagi qonunning 5-moddasi "Ommaviy axborot vositalari erkinligi" deb nomlanib, ushbu moddaga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari erkindir. Har kim, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ommaviy axborot vositalarida chiqish, o'z fikri va e'tiqodini oshkora bayon etish huquqiga egadir. Davlat ommaviy axborot vositalarining faoliyati va axborotdan foydalanish erkinligini, mulk huquqini, davlat organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan himoya qilinishini kafolatlaydi" deb belgilab qo'yilgan.

Strategiyaning 84-maqjadi – Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'min-lashni sud-huquq islohotlarining bosh mezoniga aylantirish deb nomlanadi. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining muhim mezonidir. Yurtimiz mustaqilligining dastlabki yillaridayoq o'z Konstitutsiya va qonunlarini qabul qilib, ularga tayanib ish yuritmoqda. Huquqiy davlatning muhim va ajralmas belgisi – bu qonun ustuvorligi hisoblanadi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturlarning barchasida qonun ustuvorligi tushunchasiga alohida e'tibor beriladi. Jumladan, 2019-yil 13-dekabrda "Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4551-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi"ning 2-yo'nalishi – qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish deb nomlanishi ham yurtimizda Konstitutsiya va qonun ustuvorligining yana bir bor isboti desak, yangilishmagan bo'lamiz.

Mamlakatimizda sud-huquq tizimini isloh qilish, odil sudlov tizimini yaratish, sudlarning ochiqlik, shaffoflik va adolat prinsiplariga amal qilishi va sudlarning mustaqilligini ta'minlash borasida so'nggi yillarda bir qator o'zgarish-lar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 136-moddasida "Sudyalar mustaqildir, faqat Konstitutsiya va qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirishga doir faoliyatiga har qanday tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Sudyalar muayyan ishlar bo'yicha hisobdor bo'lmaydi", deb belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni bilan tasqiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da "Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish" 2-ustuvor yo'nalish sifatida kiritilgan bo'lim, mazkur yo'nalishning eng asosiy maqsadida yurtimizda qonun ustuvorligi, odil sudlov tizimini yaratishdan iborat. "O'zbekiston-2030" strategiyasida ham odil sudlov tizimini yaratish borasida bir qator maqsadlar belgilangan. Jumladan, ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash amaliyotini 30 foizdan 20 foizga tushirish, sudlar hamda tergov organlari faoliyatida ayrim protsessual harakatlarni

masofadan turib amalga oshirish imkoniyatlarini kamida 2 barobarga oshirish, ma'muriy sudlarga bevosita murojaat qilishga to'sqinlik qilayotgan omillarni to'liq bartaraf etish kabi vazifalar belgilangan.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Adolat va qonun ustuvorligi – xalqchil davlat qurish, inson qadr-qimmatini ta'mishlashning eng asosiy va zarur shartidir". Bugungi globallashuv davrida xalqchil demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati va odil sudlov tizimini isloh etish borasida tizimli va amaliy ishlar amalga oshirish lozim va bu borada yurtimiz aniq maqsadlar sari dadil qadam qo'yimoqda. Albatta, bu samarali va keng ko'lamli ishlar yaqin kelajakda o'z samarasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T:Yuridik adabiyotlar puplish. 2023-yil

2. Yangi tahrirdagi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 2007-yil 15-yanvar.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son farmoni

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabrda "Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4551-sonli qarori

7. Mirziyoyev Sh.M. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. www.uza.uz. 2017-yil 27-iyun.

YANGI O'ZBEKSTONDA IJTIMOIIY DAVLAT BARPO ETISHDA IJTIMOIIY HUQUQNI TA'MINLASHNING HUQUQIIY ASOSLARI HAMDA TASHKILIIY MEXANIZMLARI

Mamadjanov Jamshidbek Nigmatulla o'g'li¹

Toshkent davlat yuridik universiteti

Annotatsiya. Ushbu tezisda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy davlat deb Konstitutsiya darajasida e’tirof etilgani, shuningdek mamlakatimizning ijtimoiy davlatchiligi, fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini ta’minlash bo‘yicha huquqiy asoslar va tashkiliy mexanizmlar yoritib berilgan hamda tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy davlat, ijtimoiy huquq, fuqaro, ta’lim, strategiya, ijtimoiy siyosat, imkoniyat, mexanizm.

Ijtimoiy huquqlar ijtimoiy davlatchilikning eng muhim xususiyatlaridan biri hisoblandi. Chunki ijtimoiy davlatning asosiy vazifasi fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratishdan iborat hisoblanadi. Yangi O‘zbekiston ijtimoiy davlatchilikni takomillashtirish yo‘lidan bormoqda. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, 2023-yil mamlakatimiz va milliy qonunchiligimiz tarixida eng muhim yil sifatida tarixda qoldi, sababi aynan 2023-yilda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish bo‘yicha umumxalq referendumini o‘tkazildi. Natijada, referendum natijalariga ko‘ra yangi tahrirdagi konstitutsiyamiz qabul qilindi va O‘zbekistonning 65 foizga yangilangan va ko‘plab muhim normalar bilan “boyitilgan” bosh qomusimiz 1-maydan e’tiboran kuchga kirdi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, shu kunga qadar konstitutsiyaga jami 15 marta o‘zgartish kiritilgan edi. Umumxalq referendum natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Ushbu yangi tahrirda qabul qilingan qabul qilingan konstitutsiyamizning 1-moddasida davlatchiligimizning asosiy normalari ifodalangan. Unga ko‘ra “O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.”[1] deb e’tirof etilgan.

Bunday yangi normalar kiritilishiga qadar O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy islohotlarni uzluksiz olib borayotgan demokratik hamda huquqiy davlat sifatida shakllanayotgan davlat edi. Buning asosiy qonunimizda belgilab qo‘yilishi esa O‘zbekistonning chinakam suverenitetga ega ekanligi, huquqiy, demokratik, ijtimoiy hamda dunyoviy davlat barpo qilish yo‘lidan borayotganligidan dalolat beradi. Umuman olganda, o‘zi ijtimoiy davlat nima? Ijtimoiy davlat tushunchasiga juda ham ko‘plab ta’riflar mavjud hisoblanadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvda “Asosiy qonunimizda “O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” degan tamoyilni mustahkamlashni taklif etaman. Chunki “inson qadri” tushunchasi “ijtimoiy davlat” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu g‘oyaning tub negizida ham avvalo inson qadrini ulug‘lash, insonga xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassamdir”, deb ta’kidlagan edi.[2] Ijtimoiy davlat mamlakatdagi har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitini ta’minlaydigan, ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish bo‘yicha samarali siyosat olib boradigan davlat modelidir.

Prezidentimiz ijtimoiy davlat tushunchasini izohlab, **“Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir”**, deb ta’riflagan edi.[3] O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatida e’tirof etilishi fuqarolarning ijtimoiy huquqlarining amalda ta’minlashi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining IX bobida fuqarolarning asosiy ijtimoiy huquqlari mustahkamlangan. Jumladan, fuqarolar ishsizlikdan himoyalangan, kafolatlangan sifatli ta’lim olish, malakali tibbiy yordam xizmatidan foydalanishi mumkin. Jamiyatning ehtiyoymand qatlamlari, ya’ni bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bo‘lgan shaxslarni, migrantlar va ularning oila a’zolarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlatimiz ijtimoiy siyosatining muhim yo‘nalishlarini tashkil etadi. Alohida ta’kidlash lozimki, davlatimiz byudjet mablag‘larining asosiy qismi ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilayotgani fikrimiz isboti bo‘la oladi.

Bundan tashqari ijtimoiy siyosatni olib borish, uni rivojlantirish maqsadida bir qator strategik va muhim ahamiyatga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli farmoni mamlakatimiz uchun keyingi yillarda ustuvor bo‘ladigan eng muhim strategik yo‘nalishlarni qamrab o‘lgan. Bu qarorda Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy davlat masalalariga doir eng muhim maqsadlarni qamrab olgan. “Mamlakatimizni 2017 — 2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o‘tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.[4]

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot - strategiyasi amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning hamda Harakatlar strategiyasining mantiqiy va uziviy davomi hisoblanadi. Misol uchun, uning “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” nomli to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishida ijtimoiy davlat negizini tashkil etuvchi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. Bu ustuvor yo‘nalish o‘zida ijtimoiy hayotni takomillashitirish va fuqarolarning ijtimoiy huquqlar ro‘yobga chiqarishga qaratilgna 33 ta maqsadni o‘z ichiga qamrab oladi. Misol uchun 53-maqsadda “Aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish”, 56-maqsadda “Aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, budjet mablag‘laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug‘urtalash amaliyotini joriy qilish.” kabi ko‘plab ijtimoiy siyosatni rivojlantirish hamda ijtimoiy huquqlarni amalga oshirish bo‘yicha muhim maqsadlar keltirilgan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Konstitutsiyada davlatning ijtimoiy siyosati bilan bog‘liq bo‘lgan normalar 3 barobarga ko‘paytirildi hamda ijtimoiy davlat modelini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratildi.

Bu normalarni quyidagich izohlashimiz mumkin: birinchidan, insonlarning munosib yashash shart-sharoitlariga ega bo'lish imkoniyati ta'minlandi; ikkinchidan, davlat ijtimoiy siyosati borasidagi majburiyatlari konstitutsiya darajasida belgilandi. Misol uchun: aholining bandligini ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha va boshqalar; uchinchidan, fuqarolarning asosiy ijtimoiy huquqlaridan hisoblangan kafolatlangan tibbiy xizmatdan foydalanish, ta'lim barcha shakllarini rivojlantirish, jumladan inklyuziv ta'lim bo'yicha normalar ham belgilandi; to'rtinchidan, jamiyatning ehtiyojmand qatlamlari bo'lgan bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga oid yangi qoidalar o'rnatildi. Bundan tashqari, ijtimoiy huquqlarni real hayotda realizatsiya qilishda 2023-yil 11-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risida»gi 158-son Farmoni ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu farmon ijtimoiy huquqlarni ta'minlashning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirishda eng asosiy huquqiy asoslardan biri hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, farmon bilan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan «O'zbekiston – 2030» strategiyasi tasdiqlandi. Strategiyada ijtimoiy huquqlar amalga oshirish bo'yicha bir qator muhim maqsadlar ilgari surilgan. Xususan, 2026-yilga qadar kambag'allikni 2022-yilga nisbatan 2 barobarga, 2030-yilga qadar esa keskin qisqartirish; professional ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish; nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi tizimni yaratish hamda ular uchun qulay va maqbul muhitni yaratish va boshqalar.[5] Umuman olganda, farmonda quyidagi asosiy g'oyalar aks ettirilgan:

- barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish;

- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;

- aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;

- xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;

- mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash.[6]

Xulosa qilib aytganda, *Yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etishda, avvalombor* fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini ro'yobga chiqarish *masalasida* O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, "O'zbekiston – 2023" strategiyasi tashkiliy mexanizm vazifasi sifatida xizmat qiladi. Mamlakatimizda ijtimoiy davlatning huquqiy asoslari, bunday davlatni barpo qilish uchun ko'plab imkoniyatlarga ega hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot startegiyasi mamlakatimizning keyingi yillarda ijtimoiy davlatni takomillashtirish uchun yo'l xaritasi sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti: <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Yangilanayotgan Konstitutsiya. 100 savolga 100 javob. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti. – Toshkent. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2023 yil. – 8-9 b.
3. https://uzbekembassy.com.my/uzb/news_press/jamiyat/ozbekiston_ijtimoiy_davlat.html
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-YILLARGA MO‘LJALLANGAN YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO‘G‘RISIDA”gi PF-60-son farmoni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
6. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/uzbekiston_-2030_strategiyasi_asosiy_goyalar

IQTISODIY JARAYONLARNI MODELLASHTIRISH VA RAQAMLASHTIRISHNING ILMIIY-USLUBIY ASOSLARI

O'tanazarova Yulduz Ravshan qizi¹

¹TerDU, Kompyuter tizimlari va ularning dasturiy ta'minoti yo'nalishi magistranti

Ilmiy rahbar: Abdug'aniyev Otabek Allajonovich²

²I.f.d. (DSc), professor

Elektron pochta: otanazarovay@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy iqtisodiy va moliyaviy fanlarning modellashtirish jarayonlarni tasavvur qilish, hodisalarning yanada rivojlanishini bashorat qilish va zarur hollarda inqiroz holatlarining oldini olish uchun boshlang'ich parametrlarga tuzatishlar kiritish mumkin bo'lgan vosita sifatida faol foydalanish haqida bayon etilgan. Iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish parametrlari va usullari bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan talablar ko'rib chiqilgan va asoslangan.

Kalit so'zlar: model, iqtisodiy jarayon, boshqaruv parametrlari, boshqariladigan parametrlar, modellashtirish printsiplari, modellashtirish usullari.

Modellashtirish iqtisodiyotni o'rganishning kuchli vositasidir. Bu davom etayotgan jarayonlarni tasavvur qilish, voqealarning yanada rivojlanishini bashorat qilish va kerak bo'lsa, inqiroz holatlarining oldini olish uchun boshlang'ich parametrlarga tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Lekin ilmiy va ta'lim adabiyotining tahlili ko'rsatganidek, iqtisodiy modellar bajarishi lozim bo'lgan talablarni metodik jihatdan umumiyashtirishga hech qanday urinish bo'lmagan. J.Tinbergen bu masalaning ayrim jihatlariga e'tibor qaratgan [10]. U iqtisodiy modellarning kuzatuvchanligi, bashoratli kuchi va to'liqligini aytib o'tdi, ammo keyinchalik Nobel mukofoti laureati bo'lgan D.M. Keynes va V.V. Leontievning haddan tashqari sodda yondashuvini tanqid qildi. Keyin modellarga qo'yiladigan talablar umumlashtiriladi va ularning moddiyligi iqtisodiy jarayonlarni ko'rib chiqish uchun baholanadi. Har qanday modelning ishlab chiqilishi uning parametrlari bajarilishi kerak bo'lgan ma'lum qoidalar va talablar to'plamiga asoslanadi.

Model so'zi lotincha *modulus* so'zidan olingan bo'lib, o'Ichov, me'yor degan ma'noni anglatadi. Bu so'z tor ma'noda: o'rganilayotgan obyekt, jarayon yoki hodisaning muhim xususiyatlari, xossalari aks ettiruvchi yordamchi obyekt ma'nosida; keng ma'noda esa: biror obyekt yoki obyektlar tizimining namunasi ma'nosida qo'llaniladi. Modelning haqiqiyliги to'plangan ma'lumotlar hajmi, aniqlik darajasi, tadqiqotchining malakasi va modellashtirish jarayoni, aniqlanadigan masalaning xarakteriga bog'liq.

Har qanday model qismlardan iborat bo'lib, u juda umumiyashtirilgan shaklda parametrlar va uni amalga oshirish usuli deb atalishi mumkin. Bundan tashqari, parametrlar nazorat qilinishi va boshqarilishi mumkin. **Boshqarish parametrlari** - bu modelning ishlash sharoitlarini qo'lga kiritish uchun o'rnatilgan kirishlar. Modelning ishlashi natijasida boshqariladigan parametrlar ba'zi qiymatlarga ega bo'ladi, ular modelning o'zi va uning yordami bilan o'rganiladigan obyekt yoki hodisani baholash uchun ishlatiladi.

Hozirgi davrda iqtisodiy ta'lim sohasida IJMPning roli tobora ortib bormoqda. Buning sababi ikki tomonlamadir: bir tomondan, tajribaga asoslangan tadqiqotlar usulini chuqur tushuna olishi iqtisodchilarning ta'lim sohasiga qo'yilayotgan talablardan asosiysi bo'lib qolmoqda, ikkinchi tomondan esa matematika va statistikaning iqtisodiy ta'limdagi roli yanada ortib bormoqda. Yetuk iqtisodchilar matematik statistika va ehtimollar nazariyasi usullaridan, optimallashtirish va dinamik dasturlash va matematikaning boshqa usullaridan unumli foydalanganliklari sababli ularning ilmiy salohiyatlari dunyoda tan olingan. Aytib o'tish joizki, Alfred Nobel vasiyat qilgan dastlabki beshta yo'nalish orasida iqtisodiyot yo'nalishi bo'lmagan. Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotining rasmiy nomi "*Alfred Bernxard Nobel xotirasiga iqtisodiyot sohasidagi mukofot*" deb ataladi va u Nobel tug'ilganining 100 yilligi munosabati bilan Shvetsiya Milliy banki tomonidan 1968 yili ta'sis etilgan. Birinchi laureatlar norvegiyalik olim Ragnar Frish va gollandiyalik Yan Tinbergen iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishga matematik usullarni qo'llaganlari uchun bu mukofotni olishga muvaffaq bo'lganlar. Shu

paytgacha Nobel mukofoti laureatlari bo'lgan iqtisodchilarning deyarli hammasi ekonometrik tahlil uslublarini iqtisodiy muammoni hal etishda keng qo'llay olganlar. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish davrini boshidan kechirdi.

Dunyo hamjamiyatida ro'y berayotgan o'zgarishlar bunga ta'sir etmay qolmaydi. Ma'lumki, iqtisodiyot jamiyat taraqqiyotining asosiy richagidir. Buning uchun kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga katta e'tibor berish lozimligi juda ko'p ta'kidlanmoqda. Ana shu sohalarni rivojlantirishda esa iqtisodchi, menedjer va marketologlarning roli juda katta. Shuning uchun ular o'zgaruvchan bozor iqtisodiyotini tez tahlil qilib, to'g'ri qarorlar qabul qilib, kelajakni prognoz qila bilgan holda yangi yo'nalishlarga tez moslashib ish ko'rishlari kerak bo'ladi. Mamlakatimizning rivojlanayotgan iqtisodiyoti uchun nafaqat murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tahlil qila oladigan, balki zamonaviy iqtisodiy-matematik usullar va modellar asosida kompyuter texnologiyalarini qo'llab, ushbu jarayonlarni ko'p variantli yechimlarini oladigan iqtisodiy-matematik modellashtirish sohasidagi mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj ortmoqda. Bu esa iqtisodiyotda vujudga kelgan tendensiyalarni, o'rganilayotgan obyektlar holatini tadqiq qilishga, ularning rivojlanishini prognozlashga va shu asosda milliy iqtisodiyotdagi chegaralangan resurslardan samarali foydalanish maqsadida ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga imkon beradi.

Bozor iqtisodiyoti murakkab, o'zaro bir-birini taqozo etuvchi jarayonlardan iborat bo'lib, unga noaniqlik va tavakkalchilik elementlari xosdir. Bunday sharoitda iqtisodiy jarayonlarni o'rganishda iqtisodiy-matematik usullar va modellardan foydalanish kutilishi mumkin bo'lgan salbiy hodisalarning oldini olish imkonini beradi. Iqtisodiy-matematik usullar va modellar ilmiy asoslangan qonuniyatlar asosida u yoki bu iqtisodiy jarayonlarning hozirgi holati (statikada), uning istiqboldagi (dinamikada) o'zgarishlarini oldindan ko'rsatib berishga imkoniyat yaratadi. Raqamli iqtisodiyotga bo'lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar tufayli sezilarli darajada o'sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o'zaro muloqotni yanada tez va oson yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratdi.

Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo'ldi. Iqtisodiyotning raqamli segmentiga tegishli bosh manba – trakzaktsion sektorning o'sishidir. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich YaIMning 70 foizdan ortiq miqdorni tashkil etib, davlat boshqaruvi, konsalting va informatsion xizmat ko'rsatish, moliya, ulgurji va chakana savdo, shuningdek, xizmatlar sohasini (kommunal, shaxsiy va ijtimoiy) birlashtiradi. Dunyo tajribasini o'rganish natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotda davlat(hukumat) bozor "o'yin" qoidalarini o'yinning barcha ishtirokchilari uchun belgilaydi va bunda davlatning eng muhim vazifasi sifatida o'yin ishtirokchilari uchun bir xil, teng huquqli va imkoniyatli sharoit yaratib berish hisoblanadi. Ya'ni, bozorda katta kompaniya bo'ladimi yoki kichik biznes, ular teng

huquqli hisoblanadi. Ularga bir xil imkoniyatlar beriladi. Davlat qoidalarga amal qilinishi va oxir oqibatda oddiy iste'molchi sifatli, zamonaviy xizmat yoki mahsulot olishi ta'minlanadi. Demak, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi uchun davlat hamma uchun teng sharoit yaratib berishi, iloji boricha bozor qoidalari, qonunlar, shartnomalar shaffof bo'lishi, qonunlar bozor talabidan kelib chiqqan holda (ya'ni bozordagi rivojlanish tendensiyalarini oldindan aniqlay olishi va kerakli normativ hujjatlarni qabul qilishi) biznes ishtirokchilari uchun erkinlik berishi zarur. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot O'zbekiston potensialiga nisbatan bir necha barobar sekinroq rivojlanmoqda. Ya'ni imkoniyat bor, kerakli resurslar mavjud lekin rivojlanish ancha sust. Bunga sabab sifatida raqamli iqtisodiyotni O'zbekistonda rivojlanishini bir qancha to'siqlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

- ❖ ko'plab sohalardagi monopoliya;
- ❖ internet tezligini pastligi va uni sifatsizligi;
- ❖ axborot texnologiyalari sohasida qonunchilikning zamondan orqada qolganligi;
- ❖ fuqarolarda kompyuter savodxonligining o'ta pastligi;
- ❖ qonunchilikning shaffof emasligi;
- ❖ axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislarning yetishmasligi yoki ularni boshqa mamlakatlarga ketib qolishi;
- ❖ axborot madaniyati, axborot gigiyenasi pastligi;
- ❖ axborot texnologiyalari xavfsizligi yaxshi emasligi;
- ❖ boshqaruv organlarida sohani tushunadigan mutaxassislarning kamligi yoki(ba'zilarida) ularning umuman yo'qligi;

Raqamli iqtisodiyotning mamlakat YaIMdagi ulushi har yili taxminan 20 foizga o'sishi (rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 7 foiz atrofida) uning ahamiyati belgilaydigan ko'rsatkich sifatida qaraladi. 2010 yilda Boston Consulting Group kompaniyasi raqamlashtirish ko'lamini 20ta mamlakatdan iborat guruh uchun 2,3 trillion dollarga (4,1 foiz YaIM) baholagan. Agar bu tendensiya saqlanib qolsa, 10-15 yildan keyin bunday iqtisodiyotning jahon YaIMidagi ulushi 30-40 foizga yaqinlashadi. Bir ijtimoiy-iqtisodiy tizimni ikkinchisi bilan almashtirishda anchagina yangilanishlar bo'lmoqda, ko'p tarmoqli iqtisodiyotni modernizatsiyalash o'tishi natijasida, modernizatsiyalash jarayoni jamiyat hayotiy faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohagagina modernizatsiyalash kiritish bilan cheklanib qolmaydi va modernizatsiyalash jarayoni pirovardida ishlab chiqarishdagi inqirozlarni bartaraf etib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi.

Xulosa xaridorga poyafzal kerak. Uni bozorga tushib o'zi bevosita tanlasa va naqd pulga sotib olsa, bu *an'anaviy iqtisod*. Telegram ijtimoiy tarmog'idagi biron savdo boti, kanali yoki guruhi orqali o'ziga ma'qul tovarni tanlab, tovar egasiga pulni elektron to'lov tizimi orqali to'lash va tovarni yetkazib berish xizmati orqali olish – *raqamli iqtisodiyot* deyiladi. Bu masalani eng sodda maishiy misol orqali tushuntirishdir. Aslida, hammamiz allaqachon raqamli iqtisodiyot ichidamiz, uning qulayliklaridan foydalanamiz. Masalan, oyliklarimiz plastik kartalarga tushadi,

elektron to'lov orqali kommunal xizmatlar, telefon, internet va boshqa mahsulot va xizmatlarga to'lov qilamiz, elektron tarzda soliq deklarasiyasi topshiramiz, kartadan kartaga pul uzatamiz, uyga taom buyurtma qilamiz va hokazo. Yuqorida keltirilgan muommolar bosqicha-bosqich, tizimli, dunyo tajribasidan kelib chiqib hal qilinsa, O'zbekiston ham bimalol raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda biri bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Uchkun S., Dilshod N. Process Of Identifying The Significant Accounts In The Revenue Cycle //Journal of marketing, business and management. – 2022. – T. 1. – №. 1. – S. 32-36.

2. Dilshod N. Xalqaro standartlar asosida korxonalarda tushumlar auditini tashkil qilish bosqichlari va dastaklarini takomillashtirish //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – S. 105-110. 3. Najmiddinov D. R., Shodlikov D. E. The effect of the secret economy in a daily life of the society //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1A. – S. 56-59.

4. Zaripova M.D. Scientific and theoretical bases for assessing the quality of staff training in the system of higher education //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 10. – S. 48-59

5. Akramovich N. A. The Priority Of Using Innovative Technologies In The Agricultural Education System //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – S. 185-191.

6. G'aybullayev Sarvar. O'zbekistonda iste'mol savatchasi hozirgi holatini va uni shakllantirish yo'nalishlari //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 4. – S. 119-125.

7. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta'lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – S. 29-31. \

8. Nizametdinov A. A. Oliy ta'lim tizimining agrar sohasida innovatsion texnologiyalar qo'llash ustuvorligi. International conferences, 1 (6), 58–60. – 2022.

9. Nizametdinov A. A. Oliy ta'lim tizimida agrar sohaning ustuvorligi unda innovatsiyalarning qullanishi. International conferences, 1 (6), 96–98. – 2022.

10. Muxtarov B. A. Imitatsionnaya sistema prognozirovaniya faktorov v legkoy promyshlennosti //Molodoy uchenyy. – 2017. – №. 40. – S. 122-124.

SANOAT KORXONALARI VA TARMOQLARI KOOPERATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Xomidov Mirodiljon Xasanboy o'g'li¹

¹*Farg'ona Politehnika instituti*

Tayanch doktorant

murodil.xomidov@inbox.ru

Annotatsiya: Dunyoning turli mamlakatlaridagiga o'xshab yurtimizda ham sanoat muhim tarmoq sanaladi va uni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalasi. Ushbu tezisdagi ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirishni sanoat kooperatsiyasi shakli orqali harakterlanishini bir muncha tahlil qilamiz va uning asosiy huquqiy asoslariga to'xtalib o'tamiz.

Kalit so'zlari: sanoat kooperatsiya, kichik biznes, huquqiy islohotlar, kichik biznes, infratuzilmasi, venchur kapital, sanoat, korporativ boshqaruv, klaster, mahalliyashtirish

Аннотация: Как и в других странах мира, в нашей стране промышленность является важной отраслью, и ее развитие является сегодня актуальной проблемой. В данной диссертации мы несколько проанализируем характеристику развития производственных процессов через форму производственной кооперации и коснемся ее основных правовых основ.

Ключевые слова: промышленная кооперация, малый бизнес, правовые реформы, малый бизнес, инфраструктура, венчурный капитал, промышленность, корпоративное управление, кластер, локализация.

Abstract: Like in other countries of the world, industry is an important sector in our country, and its development is a pressing issue today. In this thesis, we will somewhat analyze the characterization of the development of production processes through the form of industrial cooperation and touch on its main legal foundations.

Key words: industrial cooperation, small business, legal reforms, small business, infrastructure, venture capital, industry, corporate management, cluster, localization

Asosiy qism. Mamlakatimizda ham, xalqaro miqyosda ham talab yuqori bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha sohada kooperatsiya aloqalarini yo'lga qo'yish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro hamkorligi uchun qulay shart-sharoit yaratilgani mamlakatimiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirishning eng muhim shartidir. Ichki bozordagi ehtiyojlar miqdorini o'rganish natijalariga ko'ra, sanoat kooperatsiyasi va muayyan turdagi tovarlar ishlab chiqarishni oshirish uchun amalga oshirilmagan imkoniyatlar mavjud. Sanoat kooperatsiyasining yetuk tizimi qo'shimcha iqtisodiy o'sishni 2,3-3,0 foiz darajasida ta'minlash imkonini beradi.

Ishlab chiqarishning kooperatsiyalashuvi rivojlanishining zamonaviy xususiyati bu ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda birlashuvni namoyon bo'lishi bilan ifodalanadi. Iqtisodiy rivojlanishning barqarorligi korxonalarni hamkorlikda faoliyat olib borishi va ma'lum sanoat tarmog'i strukturasi bilan xususiyatlari bilan

belgilanadi. Iqtisodiy o'sishning boshqa mumkin bo'lgan determinantlarini, masalan, tadqiqot va ishlanmalar, intellektual mulk huquqidan foydalanish va iqtisodiy erkinlik esa mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim omili ekanligini anglatadi.

Sanoat kooperatsiyasini kompleks rivojlantirish hududiy dasturlari va klaster loyihalarini amalga oshirish natijasida yirik tadbirkorlik sub'ektlari mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, kichik biznes sub'ektlari esa mavjud uskunalarni ishlab chiqarish buyurtmalari bilan yuklash, shu bilan birga vazifalarni avtomatik ravishda hal etish imkonini beradi.

Umuman olganda, sanoat kooperatsiyasi mintaqaviy iqtisodiyotni yanada tarkibiy qayta qurishga, sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga va Rossiya mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashga yordam beradi. Sanoat tarmoqlari va korxonalari kooperatsiyasi yuqoridagi ijobiy tomonlarini hisobga olgan holatda davlatimiz ham ushbu jarayonlarni yanada jadallashtirish maqsadida bir qancha xuquqiy xujjatlarni ishlab chiqdi va bir qancha ishlar belgilab olindi.

Mahalliy va xorijiy bozorlarda talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun sanoatda kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida o'zaro hamkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 01.05.2019 yildagi PQ-4302-son "Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari" to'g'risida qonuni izolandi.[1]

Ushbu qaror doirasida mamlakatimizda sanoat kooperatsiyasini takomillashirish bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi.

- sanoat mahsulotlari bozorining barcha qatlamlaridagi xo'jalik yurituvchi subyektlarni maqsadli jalb qilish, barcha manfaatdor doiralarga respublikada ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining turlari, texnik tavsiflari va sifat ko'rsatkichlari to'g'risida batafsil ma'lumot berish orqali dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirish va muntazam ravishda sanoat yarmarkalari o'tkazish;

- hamkorlar topish, xo'jalik, shu jumladan uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishning muhim vositasi sifatida elektron kooperatsiya portalining faoliyatini tashkil etish, unda sanoat mahsulotlari yetkazib berish bo'yicha xo'jalik shartnomalarini (kontraktlarni) tezkorlik bilan masofadan tuzish imkoniyatini taqdim qilish;

- texnoparklar va kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, davlat xaridlari tizimi orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun barqaror talabni shakllantirishni nazarda tutadigan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.01.2022 yildagi PQ-99-son "Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari" to'g'risida qarori ham bu yo'nalishni yaxshilashga qo'yilgan muhim qadamlardan sanaladi.[2] Bu qaror doirasida esa kelgusi yillarda ishlab chiqarishni korxonalar va tarmoqlar kooperatsiyasi asosida rivojlantirishni quyidagi ustivor yo'nalishlari belgilandi:

- yirik investitsiya loyihalari bo'yicha xalqaro tenderlar o'tkazish jarayonida mahalliy mahsulot va xizmatlar ishlab chiqaruvchilarning qatnashish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, boshqa teng shart-sharoitlarda sanoat va qurilish maqsadlarida ishlatiladigan mahalliy mahsulotlarni yetkazib berish uchun ularga qulayliklar yaratish;

- ichki bozorda talab yuqori bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishni tashkillashtiradigan tender savdolari ishtirokchilariga asosiy ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun tez eskiradigan uskunalar, butlovchi va ehtiyot qismlarni o'rta muddatli kafolatlangan shartlarda xarid qilish bo'yicha imkoniyatlar berish;

- Respublika xo'jalik birlashmalari va korxonalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda o'tkazilgan tarmoq sanoat yarmarkalari natijalarini hisobga olgan holda quyidagilarni nazarda tutuvchi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan 2022-yilga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirish

- tarmoqlararo kooperatsiyani qo'llab-quvvatlash sohasida transferga tayyor ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni tijoratlashtirish maqsadida Elektron kooperatsiya portali orqali sotishga ruxsat beriladi

- kimyo sanoati, charm-poyabzal, to'qimachilik, farmatsevtika, metallurgiya, qog'oz, mebel va qurilish materiallari sanoati korxonalari negizida, shu jumladan respublikadagi ixtisoslashtirilgan korxonalar bilan kooperatsiya asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirish uchun foydalaniladigan kimyo mahsulotlari, ayniqsa, polimer materiallar va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish

Xulosa va takliflar

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki ishlab chiqarish bo'yicha sohada kooperatsiya aloqalarini yo'lga qo'yish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro hamkorligi uchun qulay shart-sharoit yaratilgani mamlakatimiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirishning eng muhim shartidir. Ichki bozordagi ehtiyojlar miqdorini o'rganish natijalariga ko'ra, sanoat kooperatsiyasi va muayyan turdagi tovarlar ishlab chiqarishni oshirish uchun amalga oshirilmagan imkoniyatlar mavjud.

Sanoat firmalariga o'zlarining ixtirochilik salohiyatini samarali ro'yobga chiqarishda yordam berishdan tashqari, xalqaro hamkorlikning o'sishi kichik, yirik va o'rta biznes bir-biri bilan muloqot qilishlari kerak bo'lgan forumni ta'minlaydi. Ushbu mexanizmning ishlashi uchun xalqaro hamkorlik jarayonlarini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish va xalqaro hamkorlikning turli shakllari orqali korxonaning innovatsiyalar salohiyatini oshirish imkoniyatlari to'g'risida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xabardorligini oshirishga qaratilgan bir qator siyosatlarini amalga oshirish kerak. ishlab chiqilishi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Adams J.D., Marcu M. R&D Sourcing, Joint Ventures and Innovation: A Multiple Indicators Approach.* Cambridge: National Bureau of Economic Research, Inc. 2004. P. 6.

2. Berkinov B.B., Aynaqulov M.A. "Kichik tadbirkorlik korxonalarining yirik

korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi”. Monografiya - Jizzax.: 2004-114 b. // Berkinov B.B., Aynakulov M.A. "Production cooperation of smallbusiness enterprises with large enterprises". Monograph - Jizzakh.: 2004-114 p.

3. Джид Чарльз. Сотрудничество Пер.с франков. Шапиро И. А. Под ред. и с пред.В.Ф.Тотомьянца.СПб.,1909

4. *Gomes-Casseres B., Hagedoorn J., Jaffe A. Do Alliances Promote Knowledge Flows // Journal of FinancialEconomics. 2006. № 80. P. 5–33.*

5. Isanov A.P., “Transformatsiya negizida xo‘jalik yuritish klasteribo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi” “Computer science and engineering technologies” International scientific and technical conference on October 14-15, 2022.

6. Корелин А.П. Кооперация и кооперативное движение в России. 1860-1917 гг. М., 2009 г.

7. Xomidov, M. (2023). Analysis of the current state of innovation implementation in improving the competitiveness of industry. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 3(2), 56-64.

8. Xasanboy o‘g‘li, X. M. (2023). Mamlakatimiz iqtisodiyotini takomillashtirish jarayonida innovatsiyalarni joriy etishning o‘rni. *qo‘qon universiteti xabarnomasi*, 1, 69-72.

Web sahifalar

1. www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi)
2. www.ima.uz (O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)
3. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi)
4. <http://www.cbu.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki)
5. www.lex.uz

IJTIMOIIY SOHANI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT BYUDJETINING O‘RNI

Meyliev Obid Raxmatullayevich¹

*¹Toshkent moliya instituti dotsenti,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)*

Gofurova Kamola Xayrulla qizi²

*²Toshkent Davlat Iqtisodiyoti Universiteti
moliya fakulteti talabasi
gofurovakamola4@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu tezisdavlatimizning ijtimoiy holatini yaxshilash, bunda ta'lim, sog'liqni saqlash, sport, madaniyat va boshqa ijtimoiy sohalarga davlat tomonidan berilgan e'tibor, bir moliya yili uchun tuzilgan davlatning funksiyalari hamda uzoq muddatga mo'ljallangan strategik maqsadlari va unda davlat byudjetining ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.


Kalit so'zlar: Davlat byudjeti, davlat byudjeti xarajatlari, ijtimoiy xarajatlar.


Mamlakatimizda, jumladan rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlar tomonidan davlatning asosiy moliyaviy maqsadi ijtimoiy va iqtisodiy sektorni rivojlantirish, shuningdek uning barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan hisoblanadi. Shu bois, davlatning vazifa va maqsadlarini jam qiluvchi moliyaviy tizim bu Davlat byudjeti hisoblanib, unda davlatning bir moliya yili uchun tuzilgan maqsad, vazifa va belgilangan ishlarni amalga oshirish maqsadida uning daromadlari hamda xarajatlarini shakllantirishdan iborat.

Shu tufayli, byudjet-soliq siyosati mexanizmini rivojlangan davlatlar tajribasi asosida tubdan o'zgartirish va qat'iy rioya etilishini ta'minlash, mahalliy byudjet daromadlar bazasini mustahkamlash, bu orqali mahalliy xarajatlarni amalga oshirishda yuqori byudjet daromadlariga talabni kamaytirish, shu orqali aholining quyi qatlamini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash to'liq bajariladi. Bundan tashqari, byudjet mablag'laridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan vazifalari, ish shakllari va uslublarini qayta ishlab chiqish lozim.

Shu bois, davlat byudjetining asosiy qismi xalq xo'jaligining ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtirishga, ijtimoiy sohani qo'llab quvvatlash hamda ta'lim sohasiga, uzoq muddatli natijalarga qaratilgan bo'lib, bu orqali iqtisodiy sektorni ma'lum muddatdan so'ng rivojlantirishga yo'naltirilgandir. Shuningdek, mahalliy iqtisodchilar A. Shernayev va N. Jiyanova "Davlat moliyasini boshqarish" nomli darsligida ijtimoiy xarajatlar tarkibini keltirib o'tgan bo'lib, quyidagicha fikr bildirilgan. "Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari o'z tarkibiga maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy ta'minot, aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar baholaridagi farqlarni byudjetdan qoplash va oilalarga ijtimoiy nafqalarni oladi. Davlatning ijtimoiy funksiyasini aks ettirib, bu guruhdagi byudjetning xarajatlari xalq tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga, fan va madaniyatini moliyalashtirishga, aholining tibbiy xizmatga bo'lgan talabini (ehtiyojini) qondirishga, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minotini amalga oshirishga keng yo'l ochib beradi" deb ta'kidlangan[1].

Davlat byudjeti xarajatlarining deyarli yarim qismini ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan bo'lib, asosiy qismi ijtimoiy sohani qo'llab quvvatlashga 2022-yil hisobida 44,6 foizini qamrab olgan. Biroq, ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan e'tiborning yetarli bo'lishiga qarmasdan, mamlakatimizda sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, sport va boshqa sohalarida kamchilik hamda nuqsonlar mavjudligi sababli prezidentimiz tomonidan 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi imzolangan farmoniga ko'ra ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun quyidagilar belgilangan:

 Keksa va nogironligi bo'lgan shaxslarga davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini soddalashtirish va ularga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali qo'shimcha qulayliklar yaratiladi;

 Ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga jinoyat ishlari bilan bir qatorda fuqarolik va ma'muriy ishlar bo'yicha ham davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko'rsatish tartibi joriy etiladi;

2026-yilga qadar qishki va ekstremal sport turlari, shu jumladan tog‘-chang‘i sportini rivojlantirish maqsadida eng ilg‘or va innovatsion texnologiyalarni jalb qilgan holda salohiyatli hududlarda zarur infratuzilmani yaratish;

Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan aholi sonini 2026-yilda 33 foizga chiqarish;

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning oilasi, jamiyat va davlat bilan o‘zaro aloqasini kuchaytirish, ularning qulay muhitda bo‘lishi, shahar yo‘lovchi transporti, ijtimoiy va boshqa infratuzilma obyektlaridan erkin foydalanishi uchun zarur sharoitlar yaratish;

Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to‘lashda ko‘rsatiladigan tibbiy xizmat turi va murakkabligi, shuningdek erishilgan natijaga ko‘ra o‘zgarishini nazarda tutuvchi tizim yaratish

O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma‘naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va boshqa maqsad hamda vazifalar belgilangan[2].

1-jadval

Davlat byudjetining ijtimoiy xarajatlari tarkibi[3]

t/r	Xarajatlar	2017 y	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y
		% da					
	Ijtimoiy xarajatlar-jami	100	100	100	100	100	100
1.	Ijtimoiy soha va aholini qo‘llab-quvvatlash xarajatlari	99,2	62,7	86,7	78,5	78,8	89,3
1.1	Maorif	59,3	31,4	56,5	40,3	39,9	44,4
1.2	Sog‘liqni saqlash	26,1	15,4	20,8	26,1	22,6	21,6
1.3	Madaniyat va sport	2,7	1,9	3,8	3,1	3,0	3,3
1.4	Fan	1,0	0,6	1,4	1,1	1,3	1,4
1.5	Moddiy yordam va kompensatsiya to‘lovlari	8,3	4,9	8,9	11,0	11,8	12,3
2.	Ijtimoiy sohaning boshqa xarajatlari	1,6	0,9	2,6	3,3	19,7	17,0
3.	Uy-joylar qurish dasturida qatnashayotgan banklar uchun kredit liniyalari	0,7	5,8	0,9	2,6	2,7	0,8

Yuqorida keltirilganda jadvaldagi davlat byudjetining ijtimoiy xarajatlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2017-yilda ushbu xarajat 26922,7 mlrd.so‘mni tashkil qilgan holda maorif xarajatlari (15977,7 mlrd.so‘m) 59,3 foizni, sog‘liqni saqlash xarajatlari (7030,3 mlrd.so‘m) 26,1 foizni, fan xarajatlari (275,6 mlrd.so‘m) 1,0 foizni, madaniyat va sport xarajatlari (750,2 mlrd.so‘m) 2,7 foizni, moddiy yordam va kompensatsiya to‘lovlari (2239,6 mlrd.so‘m) 8,3 foizni, ijtimoiy sohaning boshqa xarajatlari (435,3 mlrd.so‘m) 1,6 foizni va uy joylar qurish dasturida qatnashayotgan banklar uchun kredit liniyalari uchun ajratilgan xarajatlar (214,0 mlrd.so‘m) 0,7 foizni tashkil etgan. Muhim ahamiyatga ega bo‘lgan jihatlaridan biri 2017-yilga

qadar ijtimoiy soha xarajatlari tarkibida ijtimoiy ta'minot xarajatlarining mavjudligi va 2017-yildan boshlab ijtimoiy sohaning boshqa xarajatlarini kiritilganidir.

2022-yilda davlat byudjeti xarajatlarining ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan xarajatlari 105199,5 mlrd.so'm yoki 49,0 foizni tashkil etadi. Bundan ta'limga yo'naltirilgan xarajatlar ijtimoiy soha xarajatlarining 44,4 foizini tashkil etilishi yoki 46,9 trln.so'm ajratilishi kutilgan va ijroda 5027,3 mlrd.so'm sarflandi. Jumladan, maktabgacha ta'limda 8607,1 mlrd.so'm, umumiy ta'limda 30635,4 mlrd.so'm, o'rta maxsus professional ta'lim va oliya ta'limda 7471,3 mlrd.so'm xarajat amalga oshirildi. Bundan tashqari sog'liqni saqlash (21,6 foiz), madaniyat va sport (3,3 foiz), fan (1,4 foiz), moddiy yordam va konseptsatsiya to'lovlari (12,3 foiz) hamda ijtimoiy sohaning boshqa xarajatlari (17,0 foiz) uchun yetarli ulushda mablag' sarflangan. Keltirilgan statistik ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, ta'lim sohasiga sarflangan davlat byudjeti xarajatlari 2022-yilda 2017-yilga nisbatan 14,9 ulushga, sog'liqni saqlashda 4,5 ulushga sezilarli darajada kamaygan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ijtimoiy xarajatlarning asosiy qismini ta'limga bo'lgan xarajatlar tashkil etib, yosh, malakali kadrlarning mamlakatimizda ortishi kelajakda kutilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlarni oldini olishdan tashqari, ayni vaqtda turli aholi vakillarining ijtimoiy holatini yanada yaxshilashga, kambag'allik va tabaqalashtirishni kamaytirish, bandlik darajasini bir me'yorda saqlash natijada inflyatsiyaning eng minimum darajada ushlab turish, rivojlangan davlatlar bilan raqobatbardoshlikni mustahkamlash va boshqa belgilangan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifa va maqsadlariga erishishni ta'minlashga erishishi darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni//<https://lex.uz/uz/docs/-5841063#-5844198>.
2. Shernayev A.A, Jiyanova N.E, Davlat moliyasini boshqarish: Daqrslik; - T.: "Iqtisod-Moliya", 2019.- 380 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisod va Moliya vazirligi rasmiy sayti

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA DAVLAT SIYOSATINI BELGILASH VA BUNDA DAVLAT TOMONIDAN INFRATUZILMAGA KIRITILGAN INVESTISIYANING AHAMIYATI

Mirzamahmudov Ma'ruf Maxamadsharif o'g'li¹

¹*O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi*

Davlat qarzi departamenti, bo'lim boshlig'i

Email: marufmirzamahmudov@gmail.com

Annotatsiya: Kambag'allikni yo'q qilish bo'yicha hukumat siyosatini va infratuzilma investitsiyalarining rolini muhokama qilish hukumatning strategik harakatlari va infratuzilmaga investitsiyalar orqali kambag'allikni bartaraf etishga keng va ko'p qirrali yondashuvni o'z ichiga oladi. Ushbu izoh kambag'allikni yo'q qilishga qaratilgan hukumat siyosatining o'lchovlarini, infratuzilma investitsiyalarining muhim rolini va ushbu elementlarning iqtisodiy o'sishni ta'minlash, turmush darajasini yaxshilash va oxir-oqibat kambag'allikni kamaytirish uchun o'zaro bog'liqligini o'rganadi.

Kalit so'z: kambag'allik, infratuzilma investitsiya, iqtisodiy o'sish, mikromoliyalashtirish, moliyaviy inklyuzivlik

Kambag'allikni qisqartirishning muvaffaqiyatli strategiyasi tez va barqaror iqtisodiy o'sishga yordam beradigan asosiy chora-tadbirlarni o'z ichiga olish bilan birgalikda, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi davlat siyosati yanada inklyuziv bo'lishini taqozo etadi. Jumladan, mazkur davlat siyosatlari mehnat bozorlarining yaxshilanishini, gender tengsizliklarining bartaraf etilishini va moliyaviy inklyuzivlikning oshirilishini o'z ichiga oladi [1].

Shuni ta'kidlash kerakki, hamma uchun mos keladigan yagona siyosat yo'q. Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha eng yaxshi yondashuv har bir mamlakat yoki mintaqaning o'ziga xos sharoitlariga qarab o'zgaradi. Biroq, quyida sanab o'tiladigan barcha chora-tadbirlar ba'zi sharoitlarda kambag'allikni qisqartirishda samarali ekanligi ko'rsatilgan.

Quyida keltirilgan taqqoslama jadvaldan ko'rinib turibdiki, kambag'allikni qisqartirish siyosati kambag'allikni qisqartirish va aholining zaif qatlamlari farovonligini oshirishga qaratilgan hukumatlar va boshqa manfaatdorlar tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va strategiyalar majmuasini anglatadi. Mazkur siyosat turli shakllarda bo'lishi mumkin va bir qator yondashuvlarni, jumladan, ijtimoiy himoya dasturlari, ta'lim va malaka oshirish, bandlikni rag'batlantirish, asosiy xizmatlar va infratuzilmaga maqsadli investitsiyalar kiritishni o'z ichiga oladi.

Bunda, hukumatlar tomonidan kambag'allik darajasini tan olish va unga qarshi kurashishda iqtisodiy o'sishni yoki iqtisodiy rivojlantirishni hamohang olib borish muxim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, ijtimoiy himoya dasturlari aholining eng zaif qatlamlariga maqsadli yordam ko'rsatadigan dasturlar, jumladan, pul o'tkazmalari, oziq-ovqat subsidiyalari va ijtimoiy sug'urta dasturlari. Ushbu dasturlar, ayniqsa, iqtisodiy inqiroz yoki qiyinchilik davrida o'zini-o'zi ta'minlashga qodir bo'lmaganlar uchun xavfsizlik tarmog'ini ta'minlash orqali kambag'allikni qisqartirishga yordam beradi [2].

Ta'lim va ko'nikmalarni o'rgatish dasturlari odamlarning ish bilan ta'minlanishini yaxshilashga yordam beradi, ularni yaxshi maoshli ishlarni ta'minlash uchun zarur vositalar va resurslar bilan ta'minlaydi. Bu daromadlarni oshirish va iqtisodiy harakatchanlik yo'llarini ta'minlash orqali kambag'allikni qisqartirishga yordam beradi [2].

Bandlikka ko'maklashishga qaratilgan siyosat yangi ish o'rinlarini yaratish hamda tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash orqali kambag'allikni qisqartirishga yordam beradi. Bu o'sish salohiyati yuqori bo'lgan tarmoqlarga maqsadli investisiyalar, shuningdek, moliya va biznesni qo'llab-quvvatlash xizmatlaridan foydalanishni yaxshilashga qaratilgan dasturlarni o'z ichiga olishi mumkin [3].

Asosiy xizmatlar va infratuzilma suv ta'minoti tizimlari, yo'llar va elektr energiyasi kabi asosiy xizmatlar va infratuzilmaga investisiyalar aholining zaif qatlamlari uchun turmush darajasi va iqtisodiy imkoniyatlarini yaxshilashga yordam beradi. Bu muhim xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirish va yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratish orqali kambag'allikni qisqartirishga yordam beradi.


**Kambag'allik darajasini qisqartirish to'g'risida jamlanma
Ma'lumot ¹**

Siyosat nomi	Tavfsifi	Afzalliklari	Muammolari
Iqtisodiy o'sish [4]	Iqtisodiy o'sish insonlar uchun ko'p ish o'rinlarini va moliyaviy imkoniyatlarni yaratadi	Aholi daromadini oshirish yo'li bilan kambag'allikni qisqartiradi	Iqtisodiy o'sish natijasida olingan daromad teng taqsimlanmasa tengsizlikni keltirib chiqaradi
Ta'lim va sog'liqni saqlash [4]	Ta'lim va tibbiyot insonlarga ularning qobiliyatlarini va sog'lig'ini yaxshilash imkoini beradi va buning natijasida ular samarador ishlaydi hamda qo'proq daromad oladi	Insonlar o'zlari uchun munosib ish o'rinlarini qo'lga kiritish uchun zarur ko'nikma va sog'liqni qo'lga kiritadi.	Joriy etish va saqlab turish xarajatlari qimmat
Ijtimoiy himoya yordamlari [5]	Oziq-ovqat talonlari va ijtimoiy himoya dasturlari pul topish uchun kurashayotgan odamlarni himoya qiladi. Bu esa ularni kambag'allikdan olib chiqadi.	Kambag'al odamlarni kambag'allikdan qutqaradi	Joriy etish va saqlab turish xarajatlari qimmat

¹ Xorijiy adabiyotlarni o'rganish asosida muallif tomonidan tuzildi

Siyosat nomi	Tavfsifi	Afzalliklari	Muammolari
<p>Mikro moliyalash-tirish [7]</p>	<p>Mikromoliyalash-tirish – bu rivojlanayotgan mamlakatlarda tadbirkorlar uchun taqdim etiladiga kichik qarz (kredit) mablag'lari hisoblanadi.</p>	<p>Insonlarga o'zlarining bizneslarini boshlash uchun zarur mablag' (kapital) bilan ta'minlaydi</p>	<p>Qarz beruvchi tashkilotlar uchun riskli bo'lib, qarz oluvchilar o'zlarini bankrot deb e'lon qilishi mumkin</p>
<p>Infratuzilma investisiyalari [8]</p>	<p>Infratuzilmaga sarmoya kiritish suv, kanalizasiya va transport kabi asosiy xizmatlardan foydalanishni yaxshilash orqali kambag'allikni qisqartirishga yordam beradi. Bu odamlarga ish topish, ta'lim olish va bozorlarga kirishni osonlashtirishi mumkin.</p>	<p>Odamlarning iqtisodiyotda ishtirok etishini osonlashtirish orqali kambag'allikni qisqartirishga yordam berishi mumkin.</p>	<p>Hisoblab chiqish va tavsiflab berish murakkab</p>

Inklyuziv iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan siyosat iqtisodiy o'sishning afzalliklari jamiyatda kengroq taqsimlanishini ta'minlash orqali kambag'allikni qisqartirishga yordam beradi, shu jumladan ta'lim va o'qitishga maqsadli investisiyalar, ijtimoiy himoya dasturlari, infratuzilma va asosiy investisiyalar xizmatlar [10].



1-rasm. Kambag'allik va infratuzilma investisiyalari o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ko'rsatuvchi model²

Shuni ta'kidlash kerakki, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy tuzilishini aks ettira oladigan universal model mavjud emas. Biroq, ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, infratuzilma boshqa o'llab-quvvatlovchi choralar bilan to'ldirilganda eng katta ta'sirga ega [9], xususan yuqorida keltirilgan 1-rasmdan ko'rinib turibdiki infratuzilma tizimlari kambag'allikni yanada samarali qisqartirishga imkon beruvchi inklyuziv o'sishni rag'batlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alcock, P., Degryse, C., & Karamessinis, E. (2015). The distributional effects of austerity in Greece, Ireland, Portugal, and Spain. *International Journal of Labour Research*, 7(3), 252-271.
2. Birdsall, N., & Graham, L. (2001). *Saving children: Reducing childhood mortality*. Brookings Institution Press.
3. Cornia, G. C., & Martorano, B. E. (2001). *Public debt and poverty in developing countries*. Edward Elgar Publishing.

² Xorijiy adabiyotlarni o'rganish asosida muallif tomonidan tuzildi

4. Eichengreen, B., & Perron, P. (2014). *The great rebound: Resilient after 2008?*. Oxford University Press.
5. ECLAC (2014). *Social Panorama of Latin America*. United Nations Economic Commission for Latin America and the Caribbean.
6. Fiszbein, A., & Schady, N. R. (2009). Conditional cash transfers. *Handbook of Income Distribution*, 2, 839-908.
7. Gupta, S., Verhoeven, M., & Tiongson, E. R. (2001). Public debt and poverty in low-income countries. *IMF Working Paper*, 03/61.
8. IMF (2010). *Public debt and economic growth*. International Monetary Fund.
9. Xiao H., Zheng X., Xie L. Promoting pro-poor growth through infrastructure investment: Evidence from the Targeted Poverty Alleviation program in China //China Economic Review. – 2022. – T. 71. – C. 101729.
10. Shah, A. (2006). Good governance and development, part 2: The policy challenge. *World Development*, 34(7), 1104-1137.

O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA AHOLI SALOMATLIGINI TA’MINLASHNI MOLIYAVIY MASALALARI

Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi¹

¹*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti*

Moliya fakulteti 2-kurs talabasi

[*rosy270305@gmail.com*](mailto:rosy270305@gmail.com)

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi so‘ngi yillarda O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan ishlar, ularni takomillashtirish va ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan tub islohotlar yoritilgan. Shu bilan birga, “Aholi salomatligi-2030” strategiyasi loyihasi, unda belgilangan vazifa va maqsadlar hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida sog‘liqni saqlash tizimi yuzasidan olib borilayotgan ishlar tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: sog‘liqni saqlash, tez tibbiy yordam, aholi salomatligi, “Aholi salomatligi-2030”, raqamlashtirish, yagona elektron tizim, sog‘liqni saqlash xarajatlar.

Yurtimizda aholi salomatligini mustahkamlash, turmush darajasini yanada yaxshilash, bugungi kunda ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini hamda samaradorligini yanada oshirish maqsadida bir qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Zero har bir jamiyat va davlatning rivoji uchun yosh avlodning salomatligi va millat genofondi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, kelajakda taraqqiyotning baland cho‘qqilarini ko‘zlagan har bir mamlakat aholi salomatligini mustahkamlash, barkamol avlodni voyaga yetkazishga intiladi.

Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan nutq va ma‘ruzalarida, sifatli tibbiy xizmatga bo‘lgan talabni qondirish nihoyatda zarur ekani bot-bot ta‘kidlanmoqda. Yig‘ilishlardan birida ta‘kidlanganidek, mamlakat sog‘liqni saqlash tizimida kasalliklarni oldini olishdan ko‘ra ularni davolashga yanada e‘tibor qaratilmoqda. Darhaqiqat, har bir insonning sog‘lom va uzoq umr

kechirishi uning uzviy huquqi hisoblanadi. Buning uchun esa davlat tomonidan aholiga zamonaviy tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish, tibbiyot bilan bog'liq munosabatlar huquqiy tartibga solinishi muhim ahamiyatga ega.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tahlillariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, inson salomatligiga eng ko'p ta'sir etuvchi omillar orasida insonning turmush tarzi (ovqatlanish, zararli odatlar, jismoniy faollik) uning salomatligiga 55 %gacha, bundan tashqari, 15% irsiy omillar, 20% atrof-muhit va 10% tibbiy ta'minot ta'sir ko'rsatar ekan[1]. Shu sababdan, Sog'liqni saqlash vazirligi, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligi hamda Sanitariya-epidemiologiya nazorati davlat inspeksiyasiga ilg'or xorijiy tajriba asosida aholi salomatligini yaxshilash, odamlarimizni sog'lom turmush tarziga o'rgatishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish bo'yicha topshiriqlar berilgan.

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan raqamli iqtisodiyotga sezilarli darajada katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, sog'liqni saqlash tizimiga ilg'or raqamli texnologiyalarni tatbiq etish, raqamli sog'liqni saqlash platformasini yaratish, sohaning barcha darajalaridagi davolash profilaktika muassasalari uchun ma'lumotlar bazasi kompleksini joriy etish, dasturiy ta'minot va elektron platformani ishlab chiqish maqsadida 2023 yil 1 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-140-son qarori qabul qilindi. Unga nuvofig O'zbekiston va "KfW" banki o'rtasida 5 yillik imtiyozli davr bilan 12 yil muddatga 45 million yevro miqdorida "Raqamli sog'liqni saqlash islohotlarini qo'llab quvvatlash" loyihasi uchun qarz bitimi hamda 5,5 milion yevro miqdorida grant bitimi imzolangan[2]. Loyihani amalga oshirish jarayonida belgilangan mablag'lar ustuvor ravishda "birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari" faoliyatini raqamlashtirish va kompyuter texnikalarini xarid qilishga yo'naltirilishi ko'zda tutilgan.

Qaror bilan 2023–2025 yillarda sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi va quyidagilar nazarda tutilgan:[3]

- "Elektron retsept" (reimbursatsiya) tizimini joriy etish;
- Sanatoriylarga yo'llanma olish, navbatni kuzatish va mavjud bo'sh o'rinlarni ko'rish imkoniyatini beradigan "Elektron sanatoriy" platformasini ishlab chiqish;
- Onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarning elektron ro'yxatini yuritishga mo'ljallangan "Cancer-registr" axborot tizimini joriy etish;
- Ona va bola salomatligi pasportining elektron tizimini yaratish.

Bundan tashqari, Yagona portal orqali vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalari ma'lumotnomalarini olish imkoniyatini yaratish ham belgilab o'tilgan.

2023-yil Sog'liqni saqlash sohasi xarajatlari 28,4 trln so'mni yoki tadqiqotchilarning parametrlariga nisbatan 1,8 foizga oshgan. Bunda ushbu xarajatlar jami xarajatlarning 10,1 foizini tashkil etdi.

1-jadval

2023-yilda sog'liqni saqlash xarajatlari tarkibi, [3].

Ko'rsatkichlar	mlrd so'mda
Jami xarajatlar	28 426
Shu jumladan:	

Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar	20 361
Davlat dasturlari va markazlashgan tadbirlar uchun ko'zda tutilgan mablag'lar	1 497
Dori vositalari, tibbiyot buyumlari, vaksina va bankpreparatlar	2 785
Oziq-ovqat xarajatlari	677
Boshqa xarajatlar	3 106

Sog'liqni saqlash byudjetida yuqori ulushni ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar tashkil etadi. 2023-yilda ushbu maqsad va vazifalar uchun 20 361 mlrd so'm ajratilgan ya'ni joriy xarajatlarning 71,6%i miqdorida. Keyingi o'rinda 2 785 mlrd so'mni tashkil etuvchi dori-darmon vositalari, tibbiyot buyumlari, vaksinalar va bakteriologik preparatlarga sarflanadigan xarajatlardir.

Shu bilan birgalikda, 2024-2026 yillarda sog'liqni saqlash tizimidagi byudjet siyosatida asosan quyidagi tadbirlarga e'tibor qaratilgan. Jumaladan:[4]

- Aralash moliyalashtirishga o'tkazilgan barcha sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirish tartibini belgilab beruvchi maxsus yo'riqnomani ishlab chiqish;

- Dori vositalarini Respublika hududiga kirib kelishidan boshlab ularni bemorgacha yetib borishini shaffof ta'minlaydigan yagona elektron tizim yaratish.

O'tgan yillar davomida tez tibbiy yordam mashinalarining eskirganligi, navigatsiya jihozlarining yo'qligi va bu zamonaviy avtomobillardan foydalana oladigan mutaxassislarining yetishmasligi sababli bemorlar hayotini saqlab qolishda va ularga birinchi tez tibbiy yordamni ko'rsatishda bir muncha to'siqlar yuzaga kelishi ma'lum edi.[5]

Shuni ham alohida qayd etish lozimki, "Aholi salomatligi-2030" strategiyasi loyihasiga binoan, bugungi kunda xarob ahvolga kelib qolgan 980 ta tibbiyot muassasalarida bosqichma-bosqich ta'mirlash-qurish ishlari amalga oshiriladi. Hamda barcha oilaviy shifokor punktlari, poliklinika va shifoxonalar ta'mirlanib, filtrlangan ichimlik suvi bilan to'liq ta'minlanadi. Shuningdek, tez tibbiy yordam mashinalarining yarimi elektromobillar bilan almashtiriladi.

"Aholi salomatligi-2030" milliy strategiyasi loyihasida sog'liqni saqlash tizimiga aloqador bo'lgan 77 ta vazifani qamrab olgan 12 ta asosiy yo'nalishda 2030-yilga qadar bajarilishi belgilangan. Shuningdek, hujjat bilan 2030-yilga qadar erishilishi lozim bo'lgan 44 ta samaradorlik ko'rsatkichlarini tasdiqlash ham nazarda tutilmoqda. 2024-2026 yillarga mo'ljallangan amaliy chora tadbirlar rejasida esa keltirilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida 270 dan ortiq chora tadbirlar ishlab chiqilgan[6].

Shu bilan birga, ushbu startegiyaga ko'ra, aholi orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish va to'g'ri ovqatlanish orqali ortiqcha vaznga ega aholi ulushini 50% foizga va semizligi mavjud aholi ulushini 23% qadar kamaytirish mo'ljallangan. Maktabgacha va maktab ta'lim tizimida sog'lom ovqatlanish yo'lga qo'yilishi va bolalar va yoshlar o'rtasida semizlik 30 foizga qisqartirilishi keltirib o'tilgan. Bundan tashqari, zararli odatlarga qarshi kurashish, tamaki chekuvchilar ulushini 10 foizga kamaytirish, xalqaro qabul qilingan standart metodologiya asosida keng ko'lamli tadqiqotlar o'tkazish kabi masalalarga katta e'tibor qaratilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xususiy sog'liqni saqlash muassasalari kundan kunga ko'payib borishiga qaramasdan, aholi sog'ligini muhofaza qilish va

mustahkamlashga doir masalalarga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Zero, xalq salomatligi mustahkamligi shu davlatning katta boyligi sanaladi. Shu bois, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish masalalari doimiy diqqat markazdagi masalalardan bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://president.uz> (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilning 1-maydagi "Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-140 sonli Qarori.
3. Fuqarolar uchun byudjet // Iqtisodiyot va moliya vazirligi.-Toshkent, 2023
4. Byudjetnoma 2024-2026// Iqtisodiyot va moliya vazirligi.-Toshkent, 2023
5. Sharapova M., Isaxonova R. Sog'liqni saqlash tizimida tez tibbiy yordam xizmati faoliyatini takomillashtirish masalalari //Science and innovation in the education system. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 84-87.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi salomatligi-2030" milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, ID-91224.

IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING O'RNI VA AHAMIYATI

Xalikov Ulug'bek¹

¹*Samarqand iqtisodiyot va servis institute 2 bosqich talabasi*

Kamilova Nargiza²

²*Samarqand iqtisodiyot va servis institute, i.f.n., dotsent*

nargizaabdukahorovna@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ahamiyati, unga ta'sir etuvchi omillar va taraqqiyot strategiyasining asosiy ko'rsatkichi sifatida olinganligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, iqtisodiy xavfsizlik, jahon bozori, raqobat, mehnat resurslari.

Hozirgi davrdagi globallashtirish sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun quyidagilar taqozo etiladi: birinchidan, jahon xo'jalik aloqalarida ishtirok etib, milliy ishlab chiqarish uchun qulay sharoitlar yaratish; ikkinchidan, jahonda sodir bo'layotgan iqtisodiy, siyosiy noxush hodisalar salbiy oqibatlarining milliy iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirishga erishish.

Alohida ta'kidlash joizki, ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi tahdidlar ta'sirini butunlay yo'q qilish, unga barham berish mumkin emas. Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

- 1) eksport tarkibidagi xomashyo tovarlarining ustuvorligi, an'anaviy mashinasozlik va harbiy sanoat tovarlar bozorlarining yo'qotilishi;
- 2) mamlakatning ko'p turdagi mahsulotlar, shu jumladan, strategik ahamiyatdagi va oziq-ovqat mahsulotlari importiga qaramligi;
- 3) eksport va valyuta nazoratining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, bojxona chegaralarining ochiqligi;
- 4) raqobatga bardoshli eksportni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy, tashkiliy va axborot infratuzilmalarning rivojlanganligi hamda import tarkibining samarali emasligi;
- 5) eksport-import operatsiyalariga xizmat ko'rsatuvchi transport infratuzilmalarining rivoj topmaganligi;
- 6) ilmiy salohiyat oqimi;
- 7) kapital oqimi;
- 8) tashqi qarzlarning o'sishi;
- 9) tijorat va iste'mol mollari bo'yicha import qaramlikning ortishi;
- 10) iqtisodiyotning haddan tashqari ochiqligi;
- 11) milliy tovarlarni ichki va tashqi bozorlardan siqib chiqarish maqsadida chet el kapitallarini jalb qilish.

Ushbu fikrlarga asoslangan holda —iqtisodiy xavfsizlik tushunchasini milliy iqtisodiyot mustaqilligi, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va o'z-o'zidan takomillashib borishga qodirligini ta'minlovchi shart-sharoitlar va omillar yig'indisi, deb ta'riflash mumkin. Jahon amaliyoti va tajribasida mamlakatda iqtisodiy xavfsizligini ta'minlagan holda barqaror iqtisodiy o'sish to'g'risida turli ta'limotlar va uning modellari mavjud. Mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlagan holda barqaror iqtisodiy o'sish to'g'risidagi barcha ta'limotlar va modellarni umumlashtirgan holda tahlil etadigan bo'lsak, bugungi kunda ayni bir barqaror iqtisodiy o'sish to'g'risidagi ta'limot yoki model iqtisodiyotda to'liq samara berib qo'llanilayotganligini jahon amaliyoti va tajribasida kuzatishning iloji yo'q. Jahonda har bir mamlakat va uning hukumati barqaror iqtisodiy o'sish yo'lida mamlakatning tabiiy qazilma boyliklari, mehnat resurslarining salohiyati, an'analari va mentalitetidan hamda geografik joylashuvidan kelib chiqib, umumjahon barqaror iqtisodiy o'sish nazariyasi ta'limoti va modellarining taklif hamda tavsiyalaridan foydalanib, mustaqil barqaror iqtisodiy rivojlanish modelini ishlab chiqmoqda. Jahon bozoridagi iqtisodiy vaziyat murakkablashdi, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tabiati tubdan o'zgardi. Iqtisodiy raqobat nihoyatda kuchayib, tobora keskin va shafqatsiz tus olmoqda. Bunday vaziyatda mamlakatimiz iqtisodiyotining muntazam takomillashib borishini ta'minlaydigan mexanizmlarni joriy etish, barqaror iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'liq vazifalarni puxta belgilab olish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zotan, milliy taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri ham shundan iborat.

Bugungi kunda va yaqin kelajakda mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish borasida oldimizda qator strategik vazifalar turibdi. Ularning barchasi ustuvor hamiyatga egadir. O'tgan davr mobaynida bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini modernizatsiya qilish, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash, milliy iqtisodiyotning investitsiyalarga bo'lgan talabini qondirish, bozor munosabatlari subyektlari faoliyatini erkinlashtirish masalalariga alohida e'tibor berildi. Yangi

O'zbekiston strategiyasi, avvalo, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilganligini ta'kidlash lozim.

Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini jahondagi eng rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetkazish va bu sohada islohotlar samarasini yanada oshirish bo'yicha ba'zi tizimli muammolar saqlanib qolayotganini ham rad qilib bo'lmaydi. Avvalo, makroiqtisodiy barqarorlik va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, inflatsiyani pasaytirish va barqarorlik narxlarini ta'minlash, buydjet taqchilligini maqbullashtirish, to'lov va joriy balanslari maqbulligini ta'minlash, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi shunday istiqbolli dasturlardan biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan —2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash unda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish uchun quyidagi vazifalari belgilab olingan: 21-maqсад: Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda —daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirish uchun zamin yaratish. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va yillik inflatsiya darajasini 2023-yilgacha bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish. Davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish va 2023-yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta'minlash. Har bir tuman byudjetining kamida 5 foizini —Fuqarolar byudjeti dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dozlarb muammolarni yechishga sarflashni tashkil qilish. Davlat qarzini boshqarishda yiliga yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdori 4,5 milliard AQSH dollaridan oshib ketmasligini ta'minlash.

Markaziy bank tomonidan belgilanadigan qayta moliyalash stavkasi moliya bozorini tartibga solishning asosiy ko'rsatkichidir. Shu borada, ya'ni moliya bozorlarini va tijorat banklarining investitsiyaviy imkoniyatlarini barqarorlashtirish uchun Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkalarini belgilash tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham harakatlar strategiyasida ushbu sohani yanada rivojlantirish va Markaziy bankning asosiy regulatori bo'lmish, qayta moliyalash stavkasini o'rnatishning xalqaro metodikasidan kelib chiqib, shuningdek, iqtisodiyotning ochiqligi va moliya bozorlarini rivojlanganlik darajasini hisobga olgan holda Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkalarini belgilash tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiqligi belgilangan.

Xalqaro globallashtirish jarayonlarining chuqurlashayotganligi mamlakatlarning valyuta siyosatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda va qator mamlakatlarda —golland kasalligining yuzaga kelishiga turtki bermoqda. —Golland kasalligi tabiiy resurs manbalarining kashf etilishi natijasida mamlakat sanoatlashuv darajasining pasayib ketishi, mamlakat milliy valyutasining kuchli revalvatsiyalanishi va natijada mamlakat eksport tovarlari raqobatbardoshligining sezilarli darajada pasayishini anglatadi. —Golland kasalligi uchragan mamlakatlarda asosiy eksport tovarlarni

ishlab chiqarishga asoslangan qayta ishlash sanoatida keskin pasayish yuz beradi va mamlakatning an'anaviy eksport tushumlari manbai bo'lgan qayta ishlash sanoatiga nisbatan kuchli salbiy ta'sir vujudga keladi.

Tabiiy resurslar uchun qulay baholar sharoiti yo'qolgach, mamlakatning kuchsizlangan an'anaviy sanoati orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashi ancha og'ir kechadi. Taraqqiyot strategiyasida ko'tarilgan yana bir muhim masala bu – soliq ma'muriyatchiligi sifati va samaradorligini yaxshilashdan iboratdir. 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish vazifasi belgilangan.

Ushbu masalani hal etish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1) soliq qonunchiligini tanqidiy o'rganish va tahlil qilish, huquqni qo'llashda ortiqcha va murakkab normalarni bartaraf etish, soliqqa tortish bazasini hisoblash jarayonini soddalashtirish, yagona bazadan undiriladigan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni unifikatsiya qilish, shuningdek, soliq qonunchiligi barqarorligini ta'minlash;

2) soliq yukini, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlardan undiriladigan qat'iy belgilangan soliq miqdorini, shu jumladan, faoliyat ko'rsatish (masalan, uzoq va borish qiyin bo'lgan) joylarini hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqish; yirik korxonalariga bo'lgan soliq yukini maqbullashtirish hisobiga izchil pasaytirish. Bugungi globallashuv jarayonlari jadallashayotgan sharoitda mamlakat iqtisodiyotining yuqori sur'atlarda o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadigan sohalardan yana biri bu xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, xalqaro moliya bozori institutlari bilan aloqalarni kengaytirishni talab etadi.

Ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy, infratuzilma va boshqa loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan chet el hukumat tashkilotlarining (Xitoy eksport-import banki, Koreya eksport-import banki, EDCF Fondi, Yapon xalqaro hamkorlik agentligi (JICA), Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOISA), Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ), Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi (SHTHA), Fransiya taraqqiyot agentligi (FTA), Yevropa hamkorlik komissiyalari va hokazo) imtiyozli kredit hamda grant mablag'larini jalb qilish imkonining yaratilishi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Economic Security: Neglected Dimension of National Security? Edited by ShYlla R. Ronis. Published for the Center for Strategic Conferencing Institute for National Strategic Studies by National Defense University Press Washington, D.C. 2011.

2. Экономическая безопасность: учебник для вузов/ под общей редакции Л.П.Гончаренко, Ф.П.Акулинина. М.: издательство-Юрайт. 2018. 478 стр. Серия: Специалист

3. Абулкасимов Х.П., Абулкасимов М.Х., Саидахмедова Н.И. Экономическая безопасность предпринимательской деятельности. Учебное пособие. - Т.:Ilmiy-Texnika AxborotiPress, 2016. – 168 с.

4. Богомоллов В.А. и др. Экономическая безопасность: учебное пособие для студентов экономических вузов, обучающихся по специальностям экономики и управления. - М. ЮНИТИ ДАНА, 2009.

5. Камилова Н.А. Курс лекций по дисциплине Экономическая безопасность. – С.: СамИЭС, 2023. – 250 с.

6. Гордиенко Д.В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекции. Учебно-методическое пособие / Д.В. Гордиенко. - М.: ИНФРА-М, Финансы и статистика, 2013. – 625 с.

ASSESSMENT OF IMPACT OF HUMAN ACTIVITY ON WATER RESOURCES. LEARNING ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN

Sotvoldiyeva Muslimakhon Gayratjon qizi¹

¹Graduate student of UWED

E-mail: muslimasotvoldiyeva201@gmail.com

Turaeva Surayya Telmanovna²

²Scientific supervisor:

Associate Professor of

the "International Economy" Department of UWED

Abstract. Human impacts should be adequately considered in water resource use and natural hazard mitigation planning. Meanwhile, water resources in Central Asia are increasingly under stress, as downstream countries are highly dependent on upstream countries. This paper aims to comprehensively assess the impact of human activities on water resources, addressing key aspects such as pollution, over-extraction and habitat degradation.

Key words: water resources, region, Uzbekistan, climate, industrialization, crisis, large domestic water, warm water, ecosystem.

Located in the heart of Central Asia, Uzbekistan faces a unique set of problems in water resources management. As a country with a predominantly arid climate, the demand for water is high, and the delicate balance between human needs and environmental sustainability is under constant scrutiny. Human influence affects the environment in several ways (Figure 1).

In addition, according to statistics published by the World Resources Institute,



Uzbekistan ranks 25th among 164 countries in terms of water scarcity.[1] Given that water shortages can cause social and environmental crises in some regions, particularly in Karakalpakstan, water scarcity is a very acute problem for Uzbekistan. Water is insufficient not only for agricultural purposes but also for domestic use.

Uzbekistan struggles with water scarcity due to its arid climate and extensive agricultural practices that dominate its landscape. Once one of the world's largest

inland bodies of water, the Aral Sea has shrunk dramatically due to over-mining for irrigation. This stark reality underscores the need to reassess and rethink how water resources are used. Uzbekistan's hydropower resources make up only 4.92% of the total territory of the country. The total length of water resources is 50-60 km³ per year, of which only 12.2 km³ is formed within the republic, the rest of the water comes from other places - from the Tiyán Shan and Pamir-Altay mountains, from melting snow and melting glaciers in summer. . The main part of water resources is used for irrigation of cotton fields. According to forecasts, the population of the republic will reach almost 40 million people by 2030, which will reduce the available water resources by 7-8 km³. Under these conditions, the current water shortage will increase from 13-14% to 44-46% in 2030, which will have a negative impact on the development of both agriculture and industry. According to the World Bank, warm water losses in Uzbekistan in 2018 amounted to 469 million cubic meters, that is, 32% of the total volume of produced drinking water.

A number of forces continue to seriously affect our natural water resources. They may include the following.

a) First of all, most of them are the result of human activities, including ecosystem and landscape changes, sedimentation, pollution, over-abstraction and climate change. Destruction or disruption of natural ecosystems is one of the biggest causes of serious impacts on the sustainability of our natural water resources.

b) Sediment in water poses a threat to aquatic ecosystems. Sediment occurs in water bodies both naturally and as a result of various human activities. When they occur in excess, they can dramatically alter our water resources. Sediment occurs in water mainly as a direct response to land-use changes and agricultural practices, but sediment loads are naturally high on poorly vegetated land and often in arid and semi-arid climates. may appear after intense rain.

c) various types of pollution affect water resources. Humans have long used air, land, and water resources as "sinks" where we dispose of the waste we produce. These disposal practices leave most of the waste untreated, thereby causing pollution. This, in turn, affects rainfall, surface water and groundwater, and degraded ecosystems. The sources of pollution affecting our water resources can develop at different scales (local, regional and global), but can generally be classified according to nine types. Determining the types and levels of pollution sources is a prerequisite for assessing the risk of pollution to water systems and, through the system, to people and the environment. By knowing the main sources of pollution, an appropriate mitigation strategy can be determined to reduce the impact on water resources.

d) impact of acid rain on water resources. Atmospheric pollution from industrial enterprises and automobile emissions leads to dry and wet deposition. This leads to the development of acidic conditions in surface water and underground water sources, and at the same time leads to the destruction of ecosystems. Acid deposition degrades the water quality of lakes and rivers by lowering pH (ie, increasing acidity), reducing acid neutralizing capacity, and increasing aluminum concentrations.

Impact on agriculture: Agriculture is a significant consumer of water in Uzbekistan and accounts for the majority of water use. The total area of irrigated land in Uzbekistan is 4.3 mln. is a hectare. Agriculture is the largest consumer of

water resources, accounting for an average of 90-91% of water used. The Ministry of Water Resources is the main manager of water resources. It is a state body that implements a unified policy on water resources management in Uzbekistan. Currently, responsibility for water resources is divided between several government ministries and agencies, resulting in inefficient use of resources. Dependence on inefficient irrigation methods, combined with aging infrastructure, leads to water wastage and increases the strain on available resources. Assessing and improving irrigation practices is critical to sustainable agriculture and water conservation.

Industrial impact: As the industrialization process continues in Uzbekistan, the demand for water in production processes and energy production is increasing. Wastewater from industries introduces pollutants into water sources and further degrades water quality. To mitigate these impacts, comprehensive assessment of industrial water use and implementation of strict environmental standards are essential.

Urban Water Management: Rapid urbanization creates unique challenges in water management. Population growth in urban centers puts pressure on water supply systems, leading to over-extraction from rivers and aquifers. Urban sprawl also contributes to impervious surfaces, affecting natural water filtration processes. Sustainable urban planning and effective water management practices are critical to addressing these challenges.

Infrastructure and Innovation: Aging water infrastructure complicates water resource management in Uzbekistan. Leaks and inefficiencies in water distribution systems lead to unnecessary losses. Investing in infrastructure modernization, promoting water-saving technologies and introducing innovative solutions can improve water efficiency in all sectors.

International cooperation: Considering that Amudarya and Syrdarya, vital water sources for Uzbekistan, are shared with neighboring countries, international cooperation is in the first place. Collaborative efforts in transboundary water management, sharing best practices and technologies, will contribute to more sustainable and equitable use of water.

Community Engagement and Education: Engaging local communities in water conservation efforts and educating them about responsible water use are critical components of a comprehensive strategy. Empowering communities to own their water resources instills a sense of responsibility and contributes to the long-term sustainability of water management practices. Uzbekistan has been training water management personnel at the Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers (TIAME) since the Soviet era. Although many pictures have been published, any progress in the field will take a long time. Also, local universities are trying to establish partnerships with universities in Germany and the Netherlands. Co-curricular programs are open to students. Despite the negative developments, a new generation of irrigation engineers and managers has been slow to arrive. Outdated Soviet-style educational programs and a shortage of qualified educators hinder the production of qualified personnel. Scientific and highly specialized educational centers such as TIAME, Research Institute of Irrigation and Water Problems, State Enterprise "Hydroingeo", National University of Uzbekistan, Tashkent State Agrarian University, UzGIP, Research Institute of Hydrometeorology

represented by "Higher education-science-production" system integration is insufficient. The training-laboratory base of educational institutions is materially and theoretically outdated and requires modernization. Innovative and interactive learning tools are underutilized.

Policy and Governance Reforms: . In relation to the average monthly salary (\$240) in Uzbekistan, the average monthly salary of water industry workers (\$150) remains low.[2] Low wages reduce the social status and attractiveness of the plumbing profession, which is a deterrent to retaining highly qualified professionals. Young people with good potential dream of other prestigious fields, while good professionals go to other fields. The lack of a scientific coordination system in the field of research and development, the lack of funds for scientific research and innovation, the fragmentation of such specialized institutions hinders the effective implementation of promising research results and innovative activities in the field of water management. Strong policy frameworks and effective governance are essential to guide human activities towards sustainable water practices. This includes not only setting strict standards for water use, but also encouraging and supporting businesses and individuals to adopt water-saving practices.

In addition to introducing the above-mentioned reforms and innovations, we can offer the following solutions to this problem:

- introduction of a unified water use code for Central Asia, taking into account the interests of individual countries and the future of the region;
- increase in the number of non-governmental non-commercial organizations (Organizations of the Republic of Uzbekistan) in the territory of the Republic of Karakalpakstan on the basis of activity indicators on water issues;
- we need water journalism to increase the efficiency of mass media, i.e. to adequately cover water issues;
- establishment of the Central Asian Institute for joint study of water problems in the region;
- creation of a mobile expert group (humanitarian, engineer, environmentalist, sociologist, psychologist) that constantly writes memoranda to the governments of Central Asian countries on water issues;
- Film production and involvement of regional pop stars in solving environmental problems in the Central Asian region.

Only a generalized approach to solving water problems gives meaningful results. The countries of the region, including Uzbekistan, I think, are interdependent on the water problem. Therefore, the question requires a joint response, that is, countries should consult with each other and coordinate their actions to solve the water problems in Central Asia.

Conclusion: Assessment of human activity in the use of water resources is an important task that requires a multifaceted approach. From technological innovation to community engagement and policy reform, solutions are intertwined. As we strike the delicate balance between human needs and environmental protection, a collective commitment to sustainable water management is emerging as the foundation of a sustainable and water-secure future. Assessment of human activity in the use of water resources in Uzbekistan requires a holistic approach that takes into account the interdependence between agriculture, industry, urbanization and

environmental protection. Through strategic planning, investment in infrastructure, international cooperation and public engagement, Uzbekistan can overcome water scarcity and ensure a more sustainable future for its people and environment.

References:

1. World Resources Institute. (<https://www.wri.org/>) Published statistics on water scarcity in Uzbekistan.
2. <https://my.gov.uz/oz/service/263> Official prices in the sector of organizations on wages
3. Economic Review. No. 10 (238). 2019. p. 21.
4. Gusev L. Water-energy problems of Central Asia and ways to address them // Bulletin of MGIMO University. 2013.6 (33). p. 36.
5. Zakharova K. Water-energy issues in Central Asia today // Concerns of the post-Soviet space. 2018.5 (3). p. 302.
6. <https://www.gazeta.uz/ru/2019/08/08/water-stress>
7. <https://www.osce.org/ru/uzbekistan/75577?download=true>
8. <https://nuz.uz/fotoreportazh/34743-aralskoe-more-a-sdelany-li-vyvody.html>
9. <http://www.water.gov.uz/ru/posts/1545735855/396>
10. <https://regulation.gov.uz/ru/document/8839>
11. <http://eco.uz/ru/novosti/10891-obrashchenie-ekologicheskoy-partii-uzbekistana-k-shirokoj-obshchestvennosti-o-provendenii-ekonedeli-pomoshch-aral>

“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH ISLOHOTLAR TENDENSIYASI SIFATIDA

Shirinov Anvar Qanoatovich¹

¹*falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Buxoro davlat universiteti «Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar» kafedrasida dotsenti.

Email: anvarsh@yahoo.com

Kalit so'zlar: islohot, barqaror rivojlanish, strategiya, loyiha, hujjat, samaradorlik, modernizatsiya

Annotatsiya: Mazkur maqolada «O‘zbekiston – 2030» strategiyasini amalga oshirishdagi islohotlar tendensiyasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlari nuqtai nazaridan tahlil etilgan.

Ключевые слова: реформа, устойчивое развитие, стратегия, проект, документ, эффективность, модернизация

Резюме. В данной статье анализируется тенденция реформ в реализации стратегии «Узбекистана – 2030» с точки зрения Целей Устойчивого Развития Организации Объединенных Наций.

Keywords: reform, sustainable development, strategy, project, document, efficiency, modernization

Abstract. The following article analyzes the tendencies of reforms in the implementation of the strategy of Uzbekistan – 2030 from the point of view of the Sustainable Development Goals of United Nations.

Global siyosatda O‘zbekistonning oshib borayotgan o‘rni, mamlakatimiz iqtisodiyotiga zarur bo‘lgan investitsiyalar, energetika sohalari bo‘yicha hamda huquqiy sohasidagi axborot xavfsizligi, parlamentarizm va shu kabi davlat sohalarini rivojlantirish yuzasidan tajriba muhim. «O‘zbekiston – 2030» strategiyasini hayotga tatbiq etish va uning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida eng ustuvor vazifa etib belgilangani va mazkur bu masalada ularning dastlabki boshliqlariga shaxsiy mas‘uliyat yuklatilgani ta’kidlab o‘tildi. Strategiyani hayotga kechirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar hamda 2024-yilga tayyorgarlik ko‘rish masalalari belgilab berildi. Vazirlar Mahkamasi mas‘ul xodimlari Strategiyadagi vazifalarni birgalikda va o‘z vaqtida amalga oshirish yuzasidan har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga tayyor ekanini bildirishdi. O‘zbekiston hukumati xalqaro hamkorlar Jahon banki va boshqa tashkilotlar ko‘magida izchil islohotlarni amalga oshirmoqda.

Yashash manzilgohlarini Internet tarmog‘iga bog‘lanish darajasi, keng tarmoqli ulanish kanallarini 2,5 milliongacha ko‘paytirish ko‘zda tutilib, 20 ming kilometr yuqori sifatli optik aloqa liniyalarini qurish va mobil aloqa tarmoqlarini taraqqiy ettirish orqali 78 %dan 95 %ga oshiriladi;

Mintaqalarni madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirishning barcha sohalarida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va dasturiy mahsulotlarning joriy etilishi nazarda tutilgan;

587 ming kishini, bularning orasidan «Bir million dasturchi» loyihasi bo‘yicha 500 ming nafar yoshlarni qamrash orqali kompyuter dasturlash asoslariga o‘qitish ishlari amalga oshiriladi;

Iqtisodiyotning turli sohalari va tarmoqlaridagi muassasalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini dasturlashtirish orqali 280 dan ziyod axborot tizimlari va dasturiy kontentlar joriy etilmoqda. Bunda «Raqamli idora» loyihasini amalga oshirish ishlari olib borilmoqda.

2023 yil 11 sentabrda «O‘zbekiston — 2030» strategiyasining tasdiqlanishi muhim hodisa bo‘ldi. Mazkur hujjat «Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish jarayonida to‘plangan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida» amalga oshirilgan. “Yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitda asosiy yo‘nalishlarni takomillashtirish va mamlakat taraqqiyoti va amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni yangi bosqichda implementatsiya qilish zarurligi” qayd etilgan. «O‘zbekiston — 2030» strategiyasida quyidagi asosiy direktiv yo‘nashlar o‘z ifodasini topgan [1].

Barqaror iqtisodiy rivojlanish vositasida jahon miqyosida yuqori daromadli davlatlar orasiga kirib borish; xalq manfaatlari va umumjahon standartlarga to‘liq javob beradigan tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini, ta’lim standartlarini yaratish; aholi uchun qulay ekologik sharoitlar yaratish; aholiga xizmat qiluvchi adolatli va zamonaviy davlat qurish; davlat suvereniteti va xavfsizligini kafolatlangan shaklda

ta'minlash; barqaror iqtisodiy rivojlanish orqali o'rtadan yuqori daromadli mamlakatlar qatoriga qo'shilish; aholi manfaatlari ehtiyojlari va xalqaro standartlarga to'la mos keladigan madaniy, ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya standartlarini bunyod etish; fuqarolar uchun qulay ekologik sharoitlar yaratish.

Mazkur hujjatda barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish, aholi xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, davlatning siyosiy suvereniteti va barqaror xavfsizligini kafolatli ta'minlash kabi asosiy fikrlar aks etgan. Mazkur orzu-umidlar, ideallarni ro'yobga chiqarish yo'lida "O'zbekiston – 2030" strategiyasi miqyosida 100 ta maqsad va 2030 yilgacha erishiladigan maqsadlarning natijadorlik indikator ko'rsatkichlari belgilandi. «O'zbekiston – 2030» strategiyasining ustuvor yo'nalishlari va samaradorlik ko'rsatkichlari oson qabul qilish, idrok qilish uchun mos shaklda ifodalangan bo'lib, unda 5 ta doktrina yo'nalish bo'yicha 100 ta ustuvor maqsadni nazarda tutadigan Jamoatchilik muhokamasi 2023 yil 9 avgustga qadar davom etdi [2].

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha reytingga asosan O'zbekiston 2023 yilda 166 ta mamlakat orasida 69-o'rinni egalladi va mamlakatimiz 2022 yil bilan taqqoslaganda o'z o'rnini sakkiz pozitsiyaga ko'tardi. Statistika agentligi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yilda amalga oshirilgan "SDG index" hisobotiga ko'ra O'zbekiston Respublikasida Barqaror rivojlanishning 10 ta maqsadlari borasidagi indikatorlarda ijobiy tendensiyalar amalga oshirilgan. O'z o'rnida, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohang bo'lgan «O'zbekiston – 2030» strategiyasiga muvofiq hayotga tatbiq qilinayotgan islohotlarga to'liq qonunchilik hujjatlari mamlakatimiz har tomomlana kamol topishiga xizmat qilmoqda.

Strategiya beshta ustuvor yo'nalishni qamrab oladi: har bir fuqaroga o'zining salohiyatini to'liq amalga oshirish uchun tegishli mos sharoitlar yaratish; barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash; atrof-muhitni muhofaza qilish va suv resurslarini tejash; xalq manfaati yo'lidagi davlat boshqaruvini tashkil etish, qonun ustuvorligini va ijodkorligini ta'minlash; «xavfsiz va tinchliksevar davlat» prinsipiga rioya qilgan izchil siyosat davom ettirilmoqda. Mazkur strategiyani implementatsiya qilish va uning maqsadli ko'rsatkichlariga yetish respublikamizdagi barcha davlat muassasalari va tashkilotlari uchun ustuvor vazifa deb e'lon qilindi. «O'zbekiston — 2030» strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkil etilgan Respublika komissiyasiga bosh vazir Abdulla Aripov rahbarlik qilgan. Komissiya har olti oyda prezidentga hujjat ijrosi haqida hisobot berib bordi. Kelgusi 7 yilda mamlakatning asosiy rivojlanish vazifalarini belgilab beruvchi «O'zbekiston –2030» strategiyasi va uni amalga oshirishning chora-tadbirlari loyihalari regulation.gov.uz va 2030.strategy.uz portallarida keng afkor ommaning muhokamasi uchun joylashtirildi [3].

«O'zbekiston – 2030» strategiyasi mamlakatimizda 2030 yilgacha amalga oshirilishi ko'zda tutilgan insonparvar islohotlarning kerakli huquqiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy, ma'rifiy asoslarini yaratib berishga qaratilgan. Ushbu strategiya beshta ustuvor yo'nalish borasida 100 ta muhim maqsadni o'z ichiga qamrab olib bu o'z navbatida respublikamizda islohotlar samaradorligini tez

suratlarda oshirish, barqaror iqtisodiy rivojlanish vositasida daromadi yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan joy olish, xalq manfaati yo'lida adolatli va zamonaviy davlatni barpo etishdek ulug'vor maqsadlarga xizmat qiladi. Strategiyaning har bir yo'nalishini tahlil qiladigan bo'lsak, inson qadrini ulug'lash, xalqimizni rozi qilish, munosib turmush sharoiti bilan ta'minlash kabi buyuk maqsadlar va vazifalarning ko'zlanganini ko'rish mumkin. 2030 yilgacha bo'lgan muddatda iqtisodiyot hajmini

2 barobar oshirish va «daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar» qatoridan o'rin olish asosiy vazifa sifatida e'tirof etilgan. Strategiyada 2030 yilgacha yillikda yalpi ichki mahsulot hajmini 160 mlrd USDga va aholi jon boshiga taqsimlangan daromadlarni 4 ming USDga yetkazish nazarda tutilgan. O'zbekiston

Respublikasining investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog'ozlar bozorini jadal taraqqiy ettirish, qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish, «yashil iqtisodiyot»ga o'tish, iqtisodiyot tarmoqlari va aholini zarur energiya zahiralari bilan uzluksiz ta'minlash kabi chora-tadbirlar belgilangan. Strategiyada qishloq xo'jaligidagi hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish borasida bir necha vazifalar belgilab qo'yilgan.

Mazkur islohotlar qatorida «O'zbekiston — 2030» strategiyasining Birlashgan Millatlar Tashkilotining «Barqaror rivojlanish maqsadlari»ga muvofiq amalga oshirilishi bo'yicha tahlilni jamoatchilik bilan birgalikda o'tkazish, natijalarini e'lon qilib borish tizimining yo'lga qo'yilgani muhim voqea sifatida qabul qilindi.

«O'zbekiston — 2030» strategiyasida quyidagi ustuvor maqsadlar va vazifalar aks ettirildi:

aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;

barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi yuqori bo'lgan mamlakatlar qatoridan o'rin olish;

aholi uchun qulay ekologik shart-sharoitlarni yaratish;

xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;

mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash.

maktabgacha ta'lim tizimini yangi bir sifat bosqichga olib chiqish va bolalarning to'liq qamrab olinishini ta'minlash;

umumiy o'rta ta'lim tizimida «Ta'lim uchun qulay muhit» dasturini amalga oshirish;

professional ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish;

xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlash ham nazarda tutilgan.

Mazkur islohotlar pirovard natijada ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni manzilli dasturlar asosida olib borishga imkon yaratadi. Bu aholiga xalqaro standartlar asosida turli xizmatlarning ko'rsatilishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli Farmoni.
2. https://uza.uz/ru/posts/strategiya-uzbekistan-2030-usilivaetsya-rol-parlamenta-i-politicheskix-partiy_551010. Стратегия «Узбекистан -2030»: усиливается роль парламента и политических партий
3. https://uza.uz/uz/posts/barqaror-rivozhlanish-maqsadlariga-uygun-huzhzhat_570183 Барқарор ривожланиш мақсадларига уйғун ҳужжат

O‘ZBEKISTONNING IJTIMOIIY DAVLAT SIFATIDAGI MAQOMINI YUKSALTIRISHDA “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASINING O‘RNI

Xoliqov Lazizjon Maxmud o‘g‘li¹

¹*Buxoro davlat universiteti dotsenti*

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi maqomini yuksaltirishda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining o‘rni va ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, ijtimoiy himoya tizimi, professional ijtimoiy xizmatlar, kam ta‘minlangan oilalar farovonligi, nogironlarni qo‘llab-quvvatlash tizimi, fuqarolik jamiyati tashkilotlari, bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi bu eng avvalo, O‘zbekistonni 2030 – yilgacha zamonaviy, raqobatbardosh va barqaror iqtisodiyotga ega davlatga aylantirishga qaratilgan strategik rivojlanish rejasidir. 2023-yil 11-sentabrda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni [1] qabul qilindi. Strategiyaning asosiy yo‘nalishlari iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, innovatsiyalar va ijtimoiy farovonlikni oshirishdan iboratdir. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish bo‘yicha bir qancha strategik vazifalar belgilab berilgan.

Jumladan, professional ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda professional ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimi jamiyatning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, ya‘ni keksalar, nogironlar, bolalar, kam ta‘minlangan oilalar farovonligi va hayot sifatini oshirishga qaratilgan. O‘zbekiston hukumati muhtojlarga sifatli va qulay ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni ta‘minlash maqsadida turli dastur va siyosatlarni amalga oshirmoqda.

O‘zbekistonda professional ijtimoiy xizmatlar tizimining ayrim asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, ijtimoiy yordam dasturlari: Hukumat turli ijtimoiy yordam dasturlari orqali kam ta’minlangan oilalar va shaxslarni moddiy yordam, oziq-ovqat va uy-joy bilan ta’minlaydi;

Ikkinchidan, sog‘liqni saqlash xizmatlari: sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, jumladan, tibbiy davolanish, rehabilitatsiya va maslahat yordamga muhtoj bo‘lganlarga, keksalar va nogironlar kabi aholining zaif qatlamlariga e’tibor qaratiladi.

Uchinchidan, ijtimoiy himoya xizmatlari: Ijtimoiy xodimlar va tarbiyachilar keksalar, nogironlar va himoyaga muhtoj bolalarni qo‘llab-quvvatlash va yordam berish, ularning farovonligi va xavfsizligini ta’minlash.

To‘rtinchidan, rehabilitatsiya xizmatlari: rehabilitatsiya markazlari nogironligi bo‘lgan shaxslarga jismoniy terapiya, kasbiy tayyorgarlik va psixologik yordam ko‘rsatadi, ularning jamiyatga integratsiyalashuviga va mustaqil hayot kechirishiga yordam beradi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda professional ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining turli ehtiyojlarini qondirishga, ularning to‘laqonli va munosib hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan g‘amxo‘rlik va qo‘llab-quvvatlashni ta’minlashga qaratilgan. Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sifati va qulayligini xalqaro standartlar va ijtimoiy ta’minot sohasidagi ilg‘or tajribalarga mos ravishda oshirish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tizimni hamda ular uchun qulay va maqbul sharoitni yaratish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni ham alohida qayd etish lozim.

O‘zbekistonda nogironlarni qo‘llab-quvvatlash tizimi nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy farovonligi va huquqlarini rag‘batlantirishga qaratilgan qator xizmatlar va dasturlarni o‘z ichiga oladi. Hukumat fuqarolik jamiyati tashkilotlari va xalqaro hamkorlar bilan hamkorlikda mamlakatda nogironlarning hayot sifati va imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan turli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, qonunchilik va siyosat asoslari: O‘zbekistonda nogironlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha qonunlar va siyosatlar, jumladan, “O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi 641-sonli “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi [Qonuni](#) [2] va “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani amalga oshirish bo‘yicha 2023 – 2025-yillarga mo‘ljallangan milliy harakatlar rejasi” [3] qabul qilingan.

Ikkinchidan, sog‘liqni saqlash va rehabilitatsiya xizmatlari: nogironlar jismoniy va ruhiy farovonligini oshirish va hayot sifatini yaxshilash uchun tibbiy xizmatlar, rehabilitatsiya dasturlari va yordamchi qurilmalardan foydalanishlari mumkin.

Uchinchidan, ta’lim va kasb-hunar ta’limi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasiga ko‘ra: Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi [4]. Nogironligi bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limni ta’minlashga qaratilgan sa’y-

harakatlar, ularning o'qishi va rivojlanishiga ko'maklashish uchun maxsus maktablar va yordam xizmatlari ko'rsatilmoqda. Nogironligi bo'lgan shaxslarga ishga joylashish uchun ko'nikmalarga ega bo'lishga yordam beradigan kasbiy ta'lim dasturlari ham mavjud.

To'rtinchidan, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va yordam: Ijtimoiy ishchilar, g'amxo'rlik qiluvchilar va jamoat tashkilotlari ijtimoiy inklyuziyani rivojlantirish va nogironlar va ularga hissiy va amaliy yordam ko'rsatish uchun maslahat, tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash va dam olish tadbirlarini o'z ichiga olgan bir qator qo'llab-quvvatlash xizmatlarini taklif qilmoqdalar.

Beshinchidan, bandlik va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish: nogironlarni ish bilan ta'minlashga ko'maklashish, jumladan, kasbiy reabilitatsiya, ishga joylashtirish xizmatlari va ish beruvchilarning nogironlarni ishga yollashlarini rag'batlantirish bo'yicha tashabbuslar mavjud. Tadbirkorlik dasturlari va mikro kreditlash sxemalari ham iqtisodiy imkoniyatlarni oshirish va o'z-o'zini ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash uchun mavjud.

Umuman olganda, O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimi nogironlar duch keladigan turli ehtiyoj va muammolarni hal qilish va ularning jamiyat hayotida to'liq ishtirokini rag'batlantirish maqsadida rivojlanmoqda. Mamlakatimizda ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va ko'lamini oshirish, nogironlarning huquqlari va ijtimoiy inklyuziyasini mustahkamlash borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

O'zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish borasida ham talaygina islohotlar o'tkazilmoqda.

O'zbekistondagi bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi bolalarning, shu jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj sharoitlarda yashovchi yoki turli xil qiyinchiliklarga duch kelayotgan bolalarning farovonligi va huquqlarini ta'minlashga qaratilgan. O'zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, qonunchilik va siyosat asoslari: O'zbekistonda bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan turli qonun va me'yoriy hujjatlar, jumladan, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun [5] qabul qilingan. Ushbu qonun mamlakatimizda bolalar huquqlarini himoya qilish va ta'minlashning huquqiy asoslarini belgilaydi.

Ikkinchidan, bolalar farovonligi va himoyasi xizmatlari: Hukumat ijtimoiy xodimlar, bolalarni himoya qilish idoralari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda bolalar xavfsizligi va farovonligini ta'minlash uchun bir qator xizmatlarni taqdim etadi. Ushbu xizmatlar oilani qo'llab-quvvatlash va himoyaga muhtoj bolalar uchun favqulodda yordamni o'z ichiga oladi.

Uchinchidan, ta'lim va sog'liqni saqlash: O'zbekistonda barcha bolalar uchun sifatli ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlashga doir bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Hukumat mamlakatda ta'lim sifatini oshirish va bolalar uchun tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish bo'yicha tashabbuslarni amalga oshirib kelmoqda.

To'rtinchidan, bolalar ishtiroki va himoyasi: O'zbekistonda bolalar huquqlaridan xabardorligini oshirish, bolalarni himoya qilish va farovonligini himoya qilish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda bolalar huquq va

manfaatlarini ta'minlashda bolalar huquqlarini himoya qilish tashkilotlari va yoshlar guruhlari muhim o'rin tutadi.

Umuman olganda, O'zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi bolalar duch keladigan turli ehtiyoj va muammolarni hal qilish, ularning farovonligi, rivojlanishi va huquqlarini ta'minlash maqsadida rivojlanmoqda. Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini mustahkamlash, bolalarga xizmat ko'rsatishni kuchaytirish, bolalar huquqlarini to'liq ta'minlash borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

“O'zbekiston – 2030” strategiyasida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonda ayollar va qizlarning o'ziga xos ehtiyojlari va muammolarini hal etishda ularni qo'llab-quvvatlashning turli tizimlari mavjud. Hukumat, fuqarolik jamiyati tashkilotlari va xalqaro hamkorlar mamlakatda ayollar va qizlarning huquqlari va farovonligini oshirishga qaratilgan qator xizmatlar va dasturlarni taqdim etishda hamkorlik qiladi. O'zbekistondagi ayollar va qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, huquqiy baza: O'zbekistonda ayollar va qizlarning huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirishga qaratilgan qonunlar va me'yoriy hujjatlar, jumladan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni [6] qabul qilindi. Ushbu qonunchilik bazasi gender tengligini ta'minlash, kamsitishning oldini olish va ayollarga nisbatan zo'ravonlik bilan bog'liq muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Ikkinchidan, gender tamoyillarini joriy qilish: Hukumatning gender tengligi va ayollar huquqlarini kengaytirishga qaratilgan siyosati, dasturlari va loyihalariga gender istiqbollari kiritdi. Qarorlar qabul qilish jarayonlarida ayollarning ishtirokini rag'batlantirish, ayollarning resurslar va imkoniyatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

Uchinchidan, zo'ravonlikdan omon qolganlarni qo'llab-quvvatlash xizmatlari: Turli tashkilotlar gender asosidagi zo'ravonlikdan omon qolganlarga yordam va xizmatlar, jumladan huquqiy yordam va boshpanalarni taqdim etadi. Hukumat zo'ravonlik qurboni bo'lgan ayollar va qizlarga yordam berish uchun ishonch telefonlari va yordam markazlarini tashkil etmoqda.

To'rtinchidan, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish tashabbuslari: O'zbekistonda ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan dastur va tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Bular kasbga o'qitish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, kredit va moliyaviy xizmatlardan foydalanish, ish izlayotgan ayollarni ishga joylashtirishga ko'maklashish kabilardir.

Beshinchidan, ta'lim va sog'liqni saqlash: O'zbekistonda ayollar va qizlarning sifatli ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Tashabbuslar bolalarni qamrab olish darajasini oshirish, maktabni tark etish darajasini pasaytirish, ayollar va qizlarning reproduktiv salomatlik va onalik g'amxo'rligi kabi sog'lig'iga bo'lgan muayyan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Oltinchidan, targ‘ibot-tashviqot ishlari: Fuqarolik jamiyati tashkilotlari, ayollar guruhlari va gender tengligi tarafdorlari O‘zbekistonda ayollar huquqlari haqida xabardorlikni oshirish va gender tengligini targ‘ib qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Gender tengligini ta‘minlash, gender asosidagi zo‘ravonlikka qarshi kurashish, ayollar va qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlari, seminarlar va mahallalarda targ‘ibot tadbirlari tashkil etilmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekistonda gender tenglikni ta‘minlash, ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish va ayollar huquqlarining to‘liq ro‘yobga chiqishini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilib, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini mustahkamlashda muvaffaqiyatga erishilmoqda. Gender tenglikni ta‘minlash yo‘lidagi muttasil muammolar va to‘siqlarni yechish, mamlakatda ayollar va qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish va farovonligini oshirishga qaratilgan sa‘y-harakatlarni davom ettirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

2. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.10.2020 yildagi O‘RQ-641-son. <https://lex.uz/docs/-5049511>

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qo‘shma qarori, 19.12.2022 yildagi 2777-IV-son. <https://lex.uz/uz/docs/-6354431>

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. -B. 21.

5. Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 07.01.2008 yildagi O‘RQ-139-son. <https://lex.uz/uz/docs/-1297315?ONDATE2=18.05.2022&action=compare>

6. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.12.2022 yildagi O‘RQ-809-son. <https://lex.uz/docs/-6314589>

O‘ZBEKISTON IQDISODIYOTIGA TA‘SIR KO‘RSATUVCHI OMILLAR VA TURIZM XIZMATLARINING MAMLAKAT IQDISODIYOTIGA TASIRI

Imomova Odinaxon Jumaboy qizi¹

*¹Termiz Davlat Universiteti Kompyuter tizimlari
va ularning dasturiy ta‘minoti (tarmoqlar va sohalar
bo‘yicha) yo‘nalishi magistranti
aydin.toh@mail.ru*

Annotatsiya. Bu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotini bosqichma-bosqich rivojlantirish yo'lidagi islohotlar va iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatuvchi omillar muhokama qilinadi. Tanlangan obyekt sifatida Namangan viloyatida turizm xizmatlarining sifatli olib borilishining iqtisodiyotga ta'siri va ichki va tashqi turizm masalalarining tahlili keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, turizm, ichki turizm, tashqi turizm.

Ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar qatori O'zbekiston ham o'z mustaqilligini ta'minlagach, boshqa bir qator sohalar singari davlat iqtisodiyotini rivojlantirish va unga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillarga jiddiy e'tibor qaratdi. Davlatimizda keyingi yillarda olib borilgan va amalga oshirilgan islohotlar orqali iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlandi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlandi, iqtisodiyot va uning ayrim sohalari o'rtasidagi mutanosiblik kuchaydi, bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari vujudga keltirilib, rivojlantirildi. Lekin, shunga qaramasdan iqtisodiy rivojlanish va uning istiqbolli yo'llarini aniqlab, ularni kengaytirish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mustaqillik yillarida davlatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning bosqichma-bosqich rivojlantirish g'oyasi ilgari surildi va iqtisodiy rivojlanishning muhim omillari sifatida quyidagilarga katta e'tibor qaratildi:

- Keng ko'lamdagi tizimli bozor islohotlarini izchil amalga oshirish;
- Asosan xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish chora-tadbirlarini kuchaytirish;
- Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash;
- Eksportga ixtisoslashgan yangi tarmoq va korxonalarni barpo etish;
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga qaratilgan, har tomonlama puxta o'ylangan siyosatni amalga oshirish;
- Ichki va tashqi turizm sohasi samaradorligini oshirish;

Barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy rivojlanish yo'llari tahlil qilinganda, tatqiqodlar shuni ko'rsatdiki, ilm-fan, tibbiyot, iqtisodiyot, san'at va ma'daniyat kabi bir qator sohalar qatorida turizm ham davlat iqtisodiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Davlatimiz raxbarining tashabbusi bilan yurtimizda turizmning bir qator turlari rivojiga jiddiy e'tibor qaratilib, bir necha islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan so'nggi yillarda sarguzasht turizmi, agroturizm, madaniy va eko turizm, sport va tibbiy turizm yo'nalishlarini rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Viza rejimining liberallashtirilishi, chet el fuqarolarini ro'yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun imtiyoz va

preferensiyalar berilishi milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilish imkonini berdi.

Mamlakatimizda turizm industriyasini yanada rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini yuksaltirish, yurtimizga kelayotgan xorijlik sayyohlar oqimini ko'paytirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz keskin sur'atlarda turizm markaziga aylanib bormoqda va buning natijasida yurtimizda ichki va tashqi sayyohlar oqimi bir necha barobarga oshdi va bu tashqi va ichki turizmni rivojlantirish borasida qator, sayyohlar va xususiy sayyohlik uyushmalari uchun qabul qilinayotgan yengillik yaratuvchi islohotlar natijasidir. Jumladan, chet eldan tashrif buyurayotgan sayyohlar va ichki sayohat qiluvchi yurtdoshlarimizni joylarda yashab qolish va ovqatlanishini taminlash va bu tufayli kichik biznesni yo'lga qo'yish orqali ishsiz fuqarolarimizni ish bilan taminlanishi bilan iqtisodimizga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Chet el fuqorolarini turizm maqsadida yurtimizga kirib kelishi, ular orqali pul mablag'lar kirib kelishi demakdir. Bu esa yalpi ichki mahsulotimiz o'sishiga o'z hissasini qo'shadi.

Shu narsa aniqki, mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmi tarkibida turizm sohasining sezilarli o'rnini bor, demakki biz turizm sohasiga keng e'tibor qaratish orqali mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsata olamiz. Asosan tarixiy maskanlarimizning ko'pligi sayyohlar oqimiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq bu borada yanada yuqoriroqda turish uchun, faqatgina tarixiy maskanlar bilan sayyohlarni jalb qilishda cheklanib qolmasdan, yangi texnologiya asri odamlari uchun ham yetarlicha takliflarni bera olishimiz kerak. Yosh kategoriyalari va har bir qatlamga to'g'ri keladigan moliyaviy ta'riflarni hisobga olgan holda ish yuritilishi kerak. Yoshi katta sayyohlar uchun har hil turistik yoki mamlakatimiz milliy madaniyatini o'zida jam qilgan sayohatlar va ko'ngilochar dasturlar ishlab chiqilsa va yosh sayyohlar uchun zamonaviy va milliylikni o'zida aks ettirgan zonalarni ko'paytirish orqali turistlar oqimini yanada ko'paytirishimiz mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra O'zbekistonga turistlar oqimi asosan bizga yaqin davlatlardan, hususan Markaziy Osiyodan bo'lmoqda. Yevropa mamlakatlaridan keladiganlar soni bir muncha past. Demakki bu borada qayta tadbirlar o'tkazib Yevropa fuqorolariga ham qadimiy qadamjolarimiz haqida qiziqish uyg'otishimiz lozim. Buning uchun qadamjolarimiz aks etgan sifatli videoroliklar, maqolalar, kinofilmlar va seriallar kabi keng va tez ommalashuvchi vositalardan foydalanishimiz kerak. Va, albatta tashrif buyuruvchi turistlarga qulaylik yaratish uchun ko'pgina yangi loyihalarni amalga oshirmoq foydali bo'ladi.

Koʻpgina sanoat tarmoqlari globalashayotgan iqtisodiyotda yashillashtirish amaliyotini targʻib qilish usuli sifatida ushbu standartlarni qabul qila boshlaydi. Barqarorlik standartlari sifatida ham tanilgan bu standartlar sotib olingan mahsulotlar atrof-muhitga va ularni ishlab chiqaruvchi odamlarga zarar yetkazmasligini kafolatlaydigan maxsus qoidalardir. Ushbu standartlar soni yaqinda oʻsib bordi va endi ular yangi, yanada yashil iqtisodiyotni qurishda yordam berishi mumkin. Ular oʻrmon xoʻjaligi, qishloq xoʻjaligi, togʻ-kon sanoati va baliqchilik kabi iqtisodiy sohalarga eʼtibor qaratadi; suv manbalari va biologik xilma-xillikni muhofaza qilish yoki issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish kabi ekologik omillarga eʼtibor qaratish; xodimlarning ijtimoiy himoyasi va huquqlarini qoʻllab-quvvatlash;

Jadallashayotgan sanoatlashtirish va aholi sonining ortishi iqtisodiyotning resurslarga boʻlgan ehtiyojini sezilarli darajada oshirmoqda, shuningdek, atrof-muhitga salbiy antropogen taʼsirini kuchaytirmoqda va issiqxona gazlari ajratmalarining ortishiga olib kelmoqda. Iqtisodiyot energiya samaradorligining past darajasi, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish, texnologiyalar yangilanishining sustligi, “ yashil iqtisodiyotni “ rivojlantirish uchun innovatsion yechimlarni joriy etishda kichik biznes ishtirokining yetarli emasligi mamlakatni barqaror

rivojlantirish sohasidagi ustuvor milliy maqsadlar va vazifalarga erishishga to‘sqinlik qilmoqda. 2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “ yashil “ iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi ko‘ra ushbu maqsad va vazifalarni amalga oshirish ustuvor vazifa deb belgilangan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yashil iqtisodiyot mamlakatning iqtisodiy o‘shish va rivojlanishini rag‘batlantirishda, shu bilan birga tabiiy boyliklar saqlanib qolishi va farovonligimizga bog‘liq bo‘lgan resurslar va ekotizim xizmatlarini taqdim etishda davom etishini ta‘minlaydi. Yashil iqtisodiyot, asosan, iqtisodiy tarqqiyotga yordam beradi va yalpi ichki mahsulotning o‘shishini, mamlakat daromadlarini oshishini, aholini ish bilan ta‘minlash, mamlakatda ishsizlik darajasini pasayishini ta‘minlaydi. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotga o‘tish, iqlim o‘zgarishi, foydali qazilma minerallarning yo‘qolishi va suv resurslarining tanqisligi kabi global tahdidlar xavfini kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Vahobov A.V, Xajibakiyev SH. X: “ Yashil iqtisodiyot “ darslik.
2. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi axborotlari.
3. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining Yashil iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori.

YASHIL IQTISODIYOT HAQIDA TUSHUNCHA, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Ergasheva Ruxshona Bekzod qizi¹

¹Xalqaro Nordik Universiteti

Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti

Moliya yo‘nalishi 1-ML-23 guruh talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada mamlakatning yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining samarali usullari yoritilgan. Shuningdek, yashil iqtisodiyot qanday shakllantirilishi va uning rivojlantirilishi haqida ham ma‘lumot berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, texnologiya, xorij tajribasi, eksport, samara, rivojlanish, rivojlangan mamlakatlar, investitsiya, boshqaruv tizimi

Yashil iqtisodiyot bu iqtisodiy tizim. Uning asosiy maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Yashil iqtisodiyot – inson hayoti va sog‘lig‘i uchun zarur bo‘lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini bilan bog‘liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo‘nalishidir.

Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga erishish boshqaruv sohasini yanada rivojlantirish, yaxshi darajaga chiqishini ta'minlaydi. Boshqaruv jarayonida yaxshi va kuchli boshqaruv tizimi bo'lmasa, barqaror rivojlanish yo'liga o'tish ehtimoli juda kam bo'ladi. Mamlakatga kirib keladigan mahalliy va xorijiy investitsiyalar uchun rivojlangan va tahlil qilinadigan makroiqtisodiy muhitga ega bo'lish juda muhim omil hisoblanadi. Mamlakatimizga yashil iqtisodiy muhit ham shaffof bo'lishi kerakligi talab qilinadi. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda samarali boshqaruv tuzilmalari, rejalar va dasturlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish biznes yuritish tizimida yangicha fikrlashni talab qiladi. Bu turli sohalarda ishlay oladigan yangi malakali ishchi va mutaxassislarni talab qiladi. Buning uchun kadrlarning salohiyatini yanada oshirish kerak.

Yashil iqtisodiyotga o'tish tadqiqot, texnologiyani rivojlantirish, innovatsiyalar va bilimlarni doimiy ravishda oshirishga sarmoya kiritib borish zarurligini talab qiladi. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarning yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun ko'plab resurslarni ajratganligi va ilmiy-tadqiqotlarga katta miqdorda sarmoya kiritgan mamlakatlar iqtisodiyotining o'sish sur'atlari tezlashganiga muvaffaq bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Bunga Shimoliy Yevropa davlatlarining tajribasi misol bo'la oladi. Ular qatoriga Daniya, Finlandiya, Islandiya, Norvegiya va Shvetsiya kabi mamlakatlar kiradi. Bu mamlakatlar "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishda soliq omilidan foydalanganlar. Ammo, barqaror rivojlanish maqsadlariga mos keladigan, qo'llab-quvvatlanadigan yo'nalishlarni aniq belgilash zarurati mavjud. Ilmiy-tadqiqot va texnologiya innovatsion sa'y-harakatlari resurslar samaradorligiga, shuningdek, oqava suvlarni tozalash va tuzsizlantirish, qayta tiklanadigan energiya, qattiq chiqindilarni qayta ishlash, yashil qurilish va binolar, ekologik toza hamda sanoat texnologiyalari kabi sohalarga yo'naltirilishi kerakligini talab qiladi. Bunga "Byurokratik to'siqlarni yanada qisqartirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.03.2020 yildagi 133-sonli qarorini ham yaqqol misol qilishimiz Bozor iqtisodiyotini rag'batlantirishni tartibga solish choralari qo'llab-quvvatlash chora tadbirlarni ishlab chiqilish kerak. Bu ko'plab muammolarga yechim bo'ladi. Ko'p hollarda siyosat vositalari mustaqil ravishda ishlab chiqilgan va bir-biriga zid bo'lishi mumkin.

Siyosiy - iqtisodiy masalalarga ko'proq e'tibor qaratish va uni ahamiyatini yanada oshirish kerak. O'zgarishlar sekin bo'lishiga sabab, o'z manfaatlariga putur yetkazishi mumkinligiga ishonadiganlar tomonidan turli xil to'sqinliklar qilinishi mumkinligidir. Bular yirik biznes egalari, korporatsiyalar egalari bo'lishi mumkin. Shuning uchun har bir holat, jarayon va chora-tadbir ishlab chiqilganda, o'zgarishlarga qarshi bo'lishi mumkin bo'lganlarni aniqlash, o'zgarishlar oldida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etish choralari ko'rish muhim hisoblanadi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga erishishda xususiy tashkilotlarning o'rningina emas, balki fuqarolik jamiyatining yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida faol ishtiroki va hissasiga to'sqinlik qiluvchi cheklovlar olib tashlanishi kerak. Fuqarolik jamiyati joylardagi yuz berayotgan voqea va hodisalar

bilan yaqindan tanishish, mahalliy aholi bilan yaqindan hamkorlik qilishi lozim hisoblanadi. Qolaversa, mamlakat ham xususiy tadbirkorlik sektorlarining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadigan loyiha va tadbirlarni moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlashi kerak. Tijorat banklarini ham tartibga solish va rag'batlantirish choralarini orqali barqaror rivojlanish loyihalarini qo'llab-quvvatlashni rag'batlantirish kerak. Banklarni yer spekulyatsiyasini rag'batlantiradigan kreditlar berish yoki atrof-muhitga zarar yetkazuvchi va ifloslantiruvchi faoliyatni moliyalashtirishni to'xtatish uchun tegishli choralar ko'rish kerak. Mamlakatning hokimiyat tashkilotlari ko'klamzorlashtirish ishlarini takomillashtiradi. Turli jamoat birlashmalari va jismoniy shaxslar tomonidan, bu davlat idoralari, maktablar, kasalxonalar, pochta bo'limlari va boshqa jamoat binolari qurilishini ko'klamzorlashtirishni o'z ichiga oladi. Boshqa xarajatlar atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan ofis uskunolari va materiallarini sotib olishni o'z ichiga oladi. Misol uchun elektr energiyadan foydalanishda, tabiiy zahiralardan foydalanish, ya'ni quyosh nurlari orqali quyosh batarealaridan davlat tashkilotlari va korxonalar uchun foydalanish. Savdo siyosati yaxshi shakllantirilsa, yashil iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlashda samarali vosita bo'lishi mumkin. Agar mamlakatda ishlab chiqilgan savdo siyosati mahalliy bozorni qondirish va eksport qilish uchun atrof-muhitga oid tovarlar hamda xizmatlar, texnologiyalarga investitsiyalar qilish uchun munosib sharoit yaratishi mumkin. Shuningdek, u xorijiy ekologik texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirishi ham mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, barqaror rivojlanishga barchaga mos keladigan yagona yondashuv yo'q. Barqaror rivojlanishga erishish uchun yashil iqtisodiyot vositasi yoki vositasidan qanday foydalanishga mamlakatlar tayyor bo'lishi davlatlar tomonidan ishlab chiqilishi, loyihalashiga bog'liq hisoblanadi. Bu mamlakatlarning yashil iqtisodiyotga o'tishga tayyorlanish tezligi, ularning ustuvorliklari, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va imkoniyatlariga bog'liq.

Iste'molchilar ehtiyojining cheksiz o'sishi natijasida sayyoramizni yo'q qiladigan turli xil fabrikalarning ishlashi ham tobora ortmoqda. Insonlar har doim ko'proq narsani xohlashlari sababli, bozor talabi va o'sib borayotgan aholi yer yuzidan cheksiz foydalanishga olib keladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, biz qilayotgan yoki qilmayotgan har bir harakatimiz atrofimizdagi dunyoni shakllantiradi. Uning qay holatda shakllanishi va rivojlanishi yoki yo'q bo'lib ketishi insonlarga bog'liq. Yashil iqtisodiyotga o'tish turli xil sarf - harajatlarning kamayishini, atrof-muhitni saqlab qolish imkonini, mamlakatning tovar eksportini oshirish, xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga imkon yaratadi. Xorijiy texnologiyalarni keng joriy qilish va ish sifatini takomillashtirishga ham katta turtki bo'ladi. Bu texnologiyalar va innovatsion g'oyalar bilan ishlay oladigan kadrlarga bo'lgan talabni ham tobora ortishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://zarnews.uz/uz/post/yashil-iqtisodiyot>
2. http://researchgate.net/publication/357097181_Shimoliy_yevropa
mamlakatlari

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.03.2020 yildagi 133-sonli qarori.

O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTON MAMLAKATLARIDA IQLIM O‘ZGARISHING AHOLI TURMUSH DARAJASIGA TA’SIRI

Berdimo'minova Zulfiya Zafar qizi¹

¹*Nordic international university*

[*berdimuminovazulfiya@gmail.com*](mailto:berdimuminovazulfiya@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu tezisda O‘zbekiston va Qozog‘istondagi iqlim o‘zgarishi inson hayotiga sohalariga ta’siri va shu tufayli iqlimiy o‘zgarishlarning salbiy oqibatlarini oldini olish va yangicha turmush sharoitlariga moslashish masalalari tahlil qilingan . Shiningdek, iqlim o‘zgarishi sohasidagi islohatlarda yurtimizdagi faollik va dunyo hamjamiyatining tutgan o‘rni o‘rganilgan.

Kalit so‘zla: iqlim o‘zgarishi, energiya, energiya samaradorligi, yashil iqtisodiyot, yashil energiya, sho‘rlanish, eroziya, Parij bitimi.

Kirish

O‘zbekiston va Qozog‘iston iqlim o‘zgarishi ta’siriga nisbatan zaif bo‘lgan iqtisodiyot tarmoqlarining barqarorligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashning mavjud mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha iqlimga moslashish sohasidagi chora-tadbirlarni rejalashtirish muhim tashabbus hisoblanadi. O‘zbekiston suv resurslarining taqchilligi, ustiga-ustak suvning sho‘rligi, tuproq sho‘rlanishi va eroziyasining ortib borishi kabilar allaqachon jiddiy muammoga aylangan. Hozirgi kunda mamlakat aholisining 20 foizga yaqini (ya’ni 6,8 million kishi) sho‘rlanish va suvning yuqori darajadagi minerallashtirishdan aziyat chekmoqda. Orol dengizining qurib borishi davom etayotganligi tufayli vaziyat yanada og‘irlashtirmoqda.

Asosiy qism

O‘zbekiston Respublikasi iqlim inqiroziga eng kam ta’sir ko‘rsatayotgan davlatlardan biri bo‘lsada, uning nomutanosib oqibatlariga duch kelmoqda. Prognoz qilinayotgan suv resurslarining kamayishi va yog‘ingarchilik rejimidagi o‘zgarishlar uzoq davom etadigan qurg‘oqchilikka va sug‘orish uchun suv miqdorining kamayishiga olib kelishi kutilmoqda, bu esa aholining katta qismini oziq-ovqat xavfsizligi xatari ostida qoldiradi. O‘zbekiston BMTning iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi asosiy konvensiyasiga 1993-yildan a’zolicini kiritgan va shu kungacha BMTTD doirasida iqlimiy moliyalashtirish mexanizmi sifatida “Yashil iqlimiy jamg‘arma” resurslariga yo‘l ochishga va uni kengaytirishga erishdi. Iqlim o‘zgarishiga qarshi yirik loyihalardan 2020 yil 3dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi ko‘magida, Yashil iqlim jamg‘armasi ishlab chiqilgan milliy moslashish rejasini amaliyotga tadbiriq qildi. Unga ajratilgan moliyaviy resurslar 1,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Loyiha faoliyati qishloq va suv xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, binolar sektori va ekstremal iqlim hodisalarini favqulodda boshqarish kabi muhim tarmoqlarda iqlim o‘zgarishiga moslashish

bo'yicha aniq qarorlar qabul qilish jarayoni samaradorligini oshirishga, shuningdek, iqlim o'zgarishiga nisbattan eng zaif hisoblangan Orolbo'yi mintaqalarida joylashgan hududlarni rivojlantirishni rejalashtirishga yordam beradi. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikalarida 2022-yil 1-apreldan boshlab maktablardagi 1-4- sinf o'quvchilarini bepul ovqat bilan ta'minlash tizimi joriy etilgani aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlashdir."¹⁶

Markaziy Osiyo suv tanqis mintaqadir va shuning uchun global iqlim o'zgarishi jarayoni ta'siriga eng zaif. Ushbu mintaqada ekotizimning degradatsiyasini keltirib chiqaradigan asosiy omillar cho'llanish va qurg'oqchilik bo'lib, ular asosan qurg'oqchil yerlarning tabiiy resurslaridan noto'g'ri foydalanish oqibatlarini bilan bog'liq. 2020-yil, 22 dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) va Buyuk Britaniyaning mojarolar xavfsizligi va barqarorlik jamg'armasi (CSSF) yangi qo'shma loyihasini baholash qo'mitasining onlayn yig'ilishi bo'lib o'tdi. O'zbekistonning Gidrometeorologiya xizmati markazi (O'zgidromet) bilan hamkorlikda amalga oshirildi. "*Markaziy Osiyoda iqlim barqarorligini ta'minlash bo'yicha strategik chora-tadbirlar va harakatlar*" yangi mintaqaviy tashabbusi Buyuk Britaniyaning Hamdo'stlik va taraqqiyot bo'yicha tashqi ishlar vazirligi ko'magida va Britaniyaning O'zbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda Markaziy Osiyoning uchta davlatida - Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekistonda amalga oshirildi. Loyihaning maqsadi yanada barqaror va muvofiqlashtirilgan o'zaro aloqalarni ta'minlashga yordam berish va iqlim o'zgarishi muammolari to'g'risida aholining xabardorligini oshirish orqali Markaziy Osiyoda iqlim xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan siyosat choralari kuchaytirishdir. Mamlakatning iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha 2030 yilga kelib "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini amalga oshirish jadallashtirildi.

Bundan tashqari, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish choralari bilan bog'liq chora-tadbirlar deyarli barcha tarqmoq strategiyalari, rejalari va rivojlanish dasturlarida o'z aksini topmoqda.

2030-yilgacha bo'lgan davrda qayta tiklanuvchi energiya va energiya samaradorligi sohalarida institutsional salohiyat mustahkamlanib, meyoriy huquqiy baza takomillashtirilmoqda. Moslashish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar suv resurslari, energiya ishlab chiqarish, o'rmonlarni asrash sohalaridagi strategiyalar va chora-tadbirlar hamda ularni amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritalarida o'z aksini topgan. Hozirgi kunda BMTTD ko'magida va Yashil iqlim jamg'armasi mablag'lari hisobidan qishloq xo'jaligi, suv resurslari, sog'liqni saqlash, uy-joy qurish va favqulodda vaziyatlarni boshqarish sohalariga alohida e'tibor qaratilgan milliy moslashish rejasi ishlab chiqilmoqda.

G'arbdan sharqqa 3000 km dan ortiq va shimoldan janubga qariyb 2000 km ga cho'zilgan Qozog'iston hududining kengligi mamlakatning iqlim xususiyatlarini belgilaydi. Mamlakat shimolida qishda minus ellik darajagacha sovuq bo'lsa, janubda yozda poliz ekinlari pishib, paxta o'sadi. Qozog'istonning iqlimi (janubdan tashqari) keskin kontinental bo'lib, o'rtacha harorat yanvarda -4°C dan -19°C gacha,

¹⁶ www.daryo.uz 01.01.2022

iyulda +19...+26°C gacha. Qishda harorat -45 ° C gacha tushib, yozda + 30 ° C gacha ko'tarilishi mumkin.

Qozog'iston hududida to'rt fasl ham yaqqol namoyon bo'ladi - qishi ayozli, bahori gullab-yashnashi, yozi issiq va sovuq kuzi. Sovuq qish noyabrda boshlanadi va aprelgacha davom etadi. Arktik havo massalarining ta'siri qattiq (-50 ° C gacha) sovuqlarga olib keladi. Bahor qisqa va o'zgaruvchan - aprel oyining o'rtalaridan may oyining oxirigacha. Shu bilan birga, bahorda ob-havo juda beqaror: aniq iliq kun birdan keskin sovuqqa aylanishi mumkin. Quruq issiq yoz may oyining oxirida boshlanib, sentyabrning o'rtalarigacha davom etadi, harorat ba'zan +35...+40 S° gacha ko'tariladi. Kuz, hatto ob-havo va tungi sovuqlar bilan, sentyabr oyining oxirida boshlanadi va noyabr oyining boshigacha davom etadi.

Qozog'istonda eng yuqori harorat Turkiston shahrida (Janubiy Qozog'iston) +49°C bo'lgan. Eng pasti Atbasar shahrida (Aqmola viloyati) -57°C. Qolaversa, Ostona Ulan-Batordan keyingi dunyodagi eng sovuq poytaxt hisoblanadi¹⁷.

1990-2017 yillarda amalga oshirilgan sanoat tarmoqlarini bosqichma bosqich modernizatsiya qilish va bir qator boshqa chora ta'dbirlar YaM energiya sarfining qariyb 250 foizga kamayishiga olib keldi. YaiM birligiga nisbatan CO₂ ning solishtirma ko'ratkich deyarli 40 foizga qisqardi. Mazkur islohatlarning uzoq muddatli maqsadlariga erishish xalqaro tashkilotlar va moliya institutlarining ko'magiga bog'liq. Ilg'or energiya tejaydigan va ekologik xavfsiz texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirish uchun ularning ko'magi zarur. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan Orolbo'yi mintaqasi bo'yicha rezolyutsiya qabul qilinib, unda mintaqada ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb e'lon qilindi hamda mintaqani qayta tiklash va u yerdai ekologik muhitni yaxshilash bo'yicha tadqiqot va ilmiy sa'y-harakatlarni kengaytirish amalga oshirilmogda¹⁸.

Kelajakdagi rejalar: "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish "2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotiga o'tish strategiyasi" amalga oshirilayotgan tizimli islohotlarga "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini kiritgan holda ijtimoiy taraqqiyotga ko'maklashish, issiqxona gazlari tashlamalarini kamaytirish, iqlim va atrof-muhitni muhofaza qilish orqali barqaror va inklyuziv asosda barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishishga qaratilgan. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish milliy strategiyasidan tashqari, O'zbekistonning Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlari (BRM) va Iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij bitimi bilan bog'liq rejalar faol rivojlantirib borilmogda. O'zbekiston atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha barcha xalqaro shartnomalarni samarali va shaffof tarzda amalga oshirish tarafdori bo'lsa ham, bu yo'nalishda muvaffaqiyatga erishish jahon hamjamiyatining salohiyati va majburiyatiga ham bog'liq bo'lib, uglerod tashlamalarini har bir davlatning imkoniyatlari va mas'uliyatiga muvofiq ravishda cheklash bo'yicha barcha sayharakatlar amalga oshirilmogda. O'zbekiston o'z hissasini qo'shishga tayyor, qodir va allaqachon faol ravishda hissa qo'shayotgan bo'lsada, yakuniy natija jahon hamjamiyatining jamoaviy majburiyat va harakatlariga bog'liq bo'lib qoladi.

¹⁷ Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Tashmatov Sh.A., Butaboyev M.T.. Yashil iqtisodiyot. Darslik. – T.: "Universitet", 2020, 296 bet.

¹⁸ www.uz.undp.org 1.03.2021 ,

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohatlarning ustuvor maqsadlariga erishish uchun ekologiya sohasida barcha nazorat funksiyalarini ta‘minlanishi , barcha faoliyatni yagona tizimga solish ,tizimning ishlashini ta‘minlash, ekologik jihatdan ahamiyatli bo‘lgan qarorlarni qabul qilishda jamoat fikrini o‘rganish mexanizmini yaratish , shuningdek , muqobil va rentabilligi yuqori amaliyotlarni faoliyatida barcha fuqorolarni jalb qilishni ta‘minlash, iqlim o‘zgarishini salbiy oqibatlarini yumshatish yuzasidan ilmiy manbalar kiritish orqali eko-ta‘lim berish tizimini rivojlantirish va bu sohada yetakchi malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Tashmatov Sh.A., Butaboyev M.T.. Yashil iqtisodiyot. Darslik. – T.: “Universitet”, 2020, 296 bet.

2.Raximov Z.Yu., Адриана Дамианова , Эва Гуттиэрез , Яшил молиялаштириш Москва, Россия; 2018, 127С

3.Вацалова Т.В. Экологические основы природопользования.Устойчивое развитие: учебное пособие. – М.: Юрайт, 2020. С. 56.

4. Иванова Н.И., Левченко Л.В. «Зеленая» экономика: сущность, принципы и перспективы. //Вестник Омского университета. Серия «Экономика». 2017. № 2 (58) С.20-21.

5.David Pearce and Edward Barbier: Blueprint for a Green Economy. Earthscan, London, Great Britain, 2019. 192 pp.

6.Beder S. 2017, “Environmental economics and ecological economics: the contribution of interdisciplinary to understanding, influence and effectiveness”, Environmental Conservation, vol. 38, № 2, 140-150 pp.

7. www.daryo.uz 01.01.2022

8. www.uz.undp.org 1.03.2021 ,

GLOBALLASHUV JARAYONI VA UNING O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA’SIRI

Abdulhamidov Sarvarbek Akramjon o‘g‘li¹

¹*Qo‘qon universiteti talabasi*

sarvarabdulhamidov019@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv qanday jarayonligi va uni mamlakatimiz iqtisodiyotiga ko‘rsatayotgan ta‘sirining asosiy jihatlari, ijobiy va salbiy tomonlari haqida so‘z olib borilgan. Globallashuv jarayonining asosiy xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Maqolani yakunida keltirilgan ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan umumiy xulosalar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, iqtisodiy o‘sish, eksport, import, transmilliylashtirish, mintaqaviylashtirish, liberallashtirish.

Abstract: This article discusses the main aspects, positive and negative aspects of the process of globalization and its impact on the economy of our country. The main features of the globalization process have been considered. Based on the information presented at the end of the article, the author gave general conclusions.

Key words: globalization, economic growth, export, import, transnationalization, regionalization, liberalization.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные аспекты, положительные и отрицательные стороны процесса глобализации и его влияние на экономику нашей страны. Рассмотрены основные особенности процесса глобализации. На основе информации, представленной в конце статьи, автор сделал общие выводы.

Ключевые слова: глобализация, экономический рост, экспорт, импорт, транснационализация, регионализация, либерализация.

Globalashuv allaqachon jahon iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Kompaniyalar global miqyosda faoliyat ko'rsatishi mumkin va iste'molchilar kengroq mahsulot va xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega. Bu iqtisodiy o'sish va farovonlikning oshishiga olib kelishi mumkin. Globalashuv - bu dunyoning turli mamlakatlari, mintaqalari va xalqlari o'rtasidagi aloqalar, o'zaro bog'liqlik va integratsiyaning kuchayishi jarayoni. U hayotning turli jabhalarini, jumladan, iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, texnologiya va ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladi. Globalashuv tovarlar, xizmatlar, kapital, ma'lumotlar va odamlarning chegaralar orqali tez o'tishiga olib keladi va dunyoning turli qismlari o'rtasida tobora yaqinroq o'zaro aloqalarni yaratadi.

Globalashuv har bir mamlakatni qiyosiy ustunlik, ya'ni eng kam miqdordagi resurslardan foydalangan holda eng yaxshi ishlab chiqaradigan narsalarga ixtisoslashishga undaydi. Ushbu konsepsiya ishlab chiqarishni samaraliroq qiladi, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi va tovarlar va xizmatlar narxlarini pasaytiradi, ayniqsa ularni kam daromadli uy xo'jaliklari uchun qulayroq qiladi. Globalashuv ko'p jihatdan iqtisodiyotga borib taqaladi. Yangi texnologiyalar joriy qilinishi va takomillashtirilishi natijasida ishlab chiqarish hajmi va sifati ortdi. Masalan, bir necha yil ilgari umuman mavjud bo'lmagan texnologiyalar endilikda davlatlarning umumiy YaIM o'sishiga va taraqqiyotiga xizmat qilmoqda [1].

(1-jadval)

Globalashuvni asosiy xususiyatlari	
Mamlakatlarning o'zaro bog'liqligining kuchayishi	Xalqaro savdo, investitsiyalar, odamlar migratsiyasi, axborot va texnologiyalarning o'sishida namoyon bo'ladi.
Transmilliylashtirish	Ishlab chiqarish, moliya, marketing va boshqa iqtisodiy funktsiyalar milliy chegaralardan tashqariga chiqadi va xalqaro miqyosda muvofiqlashtiriladi.
Mintaqaviylashtirish	Mamlakatlar yaqinroq hamkorlik qilish uchun Yevropa Ittifoqi yoki NAFTA kabi mintaqaviy iqtisodiy bloklarda birlashadilar.

Liberallashtirish

Tovarlar, kapital va xizmatlarning erkin harakatlanishiga yordam beruvchi savdo va investitsiyalarni tartibga solish.

(ushbu jadval muallif tomonidan tayyorlandi.)

Globalashuv O‘zbekiston iqtisodiyotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. So‘nggi o‘n yilliklarda O‘zbekiston jahon hamjamiyati bilan faol hamkorlik qilib, iqtisodiy aloqalarini kengaytirib, xalqaro savdoda ishtirok etmoqda. Globalashuvning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta‘sirining asosiy jihatlaridan biri tashqi savdo hajmining oshishi hisoblanadi. Mamlakatda boshqa davlatlar bilan eksport aloqalari faol rivojlanib, xorijiy investitsiyalar jalb etilmoqda. O‘zbekistonning eksport tovarlariga paxta, oltin, gaz, neft, to‘qimachilik, avtomobil va boshqa tovarlar kiradi. Globalashuv va savdo aloqalarining kengayishi natijasida O‘zbekiston yangi bozorlarga yo‘l olmoqda va eksport salohiyatini oshirmoqda, bu esa iqtisodiy o‘sishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston tovarlari 100 dan ortiq mamlakatlarga eksport qilinadi. 2022 yilda MDH mamlakatlariga eksportning hajmi 7867 mln.AQSH dollarini tashkil etdi.

(1-rasm)

Eksport, MDH davlatlariga (yillik)




Manba: O‘zbekiston dinamika statistika portali. <https://siat.stat.uz/>

Boshqa mamlakatlarga eksportning hajmi 2022-yilda 11426.7 mln.AQSH dollarini tashkil qildi.

(2-rasm)

Eksport, boshqa davlatlarga (yillik)



Manba: O‘zbekiston dinamika statistika portal. <https://siat.stat.uz/>

Qayd etilishicha, so‘ngi yillarda barcha tarmoqlardagi dasturlarga 31 milliard dollarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. Natijada o‘tgan 5 yilda sanoat 1,4 barobar, eksport 1,5 barobarga oshgan.

Kelgusi 5 yilda iqtisodiyot barqaror o‘sishi uchun sanoatni yana 1,5 barobarga oshirish, eksportni 30 milliard dollarga yetkazish maqsad qilib qo‘yilgan. Buning uchun 120 milliard dollar sarmoya, jumladan, 70 milliard dollar xorijiy investitsiya zarur [2].

Globalashuv O‘zbekistonda infratuzilma rivojlanishini ham rag‘batlantiradi. Mamlakatda transport tarmog‘i, energetika, aloqa va boshqa tarmoqlarni modernizatsiya qilish uchun xorijiy sarmoya faol jalb etilmoqda. Bu jahon hamjamiyati bilan munosabatlarni yaxshilashga, kapital va texnologiyalar oqimi uchun qulay muhit yaratishga yordam beradi. Globalashuv O‘zbekiston mehnat bozoriga ham ta‘sir ko‘rsatmoqda. Transmilliy korporatsiyalarning rivojlanishi va xorijiy hamkorlar bilan o‘zaro munosabatlari yangi ish o‘rinlari yaratilishiga va aholi bandligini oshirishga olib keladi. Globalashuv O‘zbekistonga qishloq xo‘jaligi, tibbiyot, ta‘lim va axborot texnologiyalari kabi turli sohalardagi ilg‘or texnologiyalardan foydalanish imkonini berdi. Bu iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, globalashuv O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Turizmning o‘sishi va chet ellik mehmonlarning oqimi mehmonxona biznesi, restoran sanoati, transport va boshqa turdosh tarmoqlarni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Eksport va investitsiyalar hajmining o‘sishi O‘zbekistonda yangi ish o‘rinlari yaratilishini rag‘batlantirdi. Bu ishsizlikning kamayishiga va daromadning oshishiga olib keldi. Biroq globalashuv O‘zbekiston mehnat bozori uchun global darajadagi raqobat, tez

o'zgaruvchan texnologiyalar va bozor talablariga moslashish zarurati kabi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Biroq, globallashuv ham xavf tug'dirishi va ba'zi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, jahon bozorlaridagi o'zgarishlar, tovar narxlarining o'zgarishi O'zbekistonning iqtisodiy barqarorligiga ta'sir qilishi mumkin. Bundan tashqari, iqtisodiy ochiqlik daromadlar tengsizligining kuchayishiga va iqtisodiy foydaning notekis taqsimlanishiga olib kelishi mumkin. O'zbekiston kompaniyalari ichki va tashqi bozorda xorijiy kompaniyalarning qattiq raqobatiga duch kelishi. Bu esa ulardan mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishni talab qilishi mumkin. Bugungi kunda globallashuv natijasida O'zbekistondan boshqa mamlakatlarga ishlash uchun ketayotgan olimlar, shifokorlar va muhandislar kabi yuqori malakali mutaxassislarining chiqib ketishi kuzatilmoqda. Bu esa mamlakatimizda ilm-fan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda globallashuv O'zbekiston iqtisodiyotiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston hukumati globallashuv samarasini maksimal darajada oshirish va u keltirib chiqaradigan muammolarni yengish uchun mamlakatning sarmoyaviy jozibadorligini oshirish, uning eksport bazasini rivojlantirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, xizmat ko'rsatish va texnologiya sohalarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash borasida faol ish olib bormoqda. Globallashuvning afzalliklaridan maksimal darajada foydalanish va uning salbiy oqibatlarini minimallashtirish uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, inson kapitalini rivojlantirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мировая экономика и особенности ее глобализации. П.В.Таранов, Л. Х.Попова, И.В.Куликова. 2019.
2. Globallashuv atamasining ilmiy mohiyati. K.K. Olimov. 2022.
3. Impact of Globalization on International Trade of Uzbekistan: Quantitative Analysis. S.Joliyev, M. Suyunova.2021.

Foydalanilgan saytlar:

1. <https://kun.uz/84358638?q=%2Fuz%2F84358638#!>
2. <https://daryo.uz/2023/02/27/ozbekistonda-2023-yilda-11-mlrd-dollarik-togridan-togri-xorijiy-investisiya-ozlashtiriladi>
3. <https://siat.stat.uz/reports-filed/1120/line-data>

УСПЕШНЫЕ ПРИМЕРЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА: ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ.

Джавадова Тахмина Ибабек кизи¹

*¹студентка, 2- курс, Университет Геологических наук,
Экономика (по отраслям и сферам)
taxmina.djavadova11@gmail.com*

Аннотация: В современном мире важность сотрудничества со странами становится краеугольным камнем для успешного развития и решения глобальных проблем. При этом международное экономическое отношение является важным аспектом развития страны. Оно открывает новые возможности для расширения экономического потенциала и привлечения иностранных инвестиций.

Преимущества международного экономического сотрудничества в том, что происходит развитие экономики, расширяется доступ к новым рынкам, технологиям, ресурсам и инвестициям; способствует обмену опытом, улучшения качества продукции, профессионализма и объединяет усилия для решения общих мировых проблем.

Ключевые слова: Международные экономические отношения, примеры, проекты, Новый Узбекистан, экономическое развитие.

В последние годы Республика Узбекистан активно осуществляет реформы, направленные на создание открытой и привлекательной инвестиционной среды, что создает благоприятные условия для развития международного экономического сотрудничества [1]. В стране учитывается новая стратегия развития «Стратегия-2030», что осуществление поставленных целей, дает стимул для привлечения инвестиций и тесного международного экономического сотрудничества.

Одним из успешных инструментов международного экономического сотрудничества Нового Узбекистана является привлечение иностранных инвестиций с целью модернизации и развития отраслей экономики. В последние годы в Узбекистан были реализованы ряд проектов в сфере энергетики, транспорта, текстиля, сельского хозяйства, туризма.

На сегодняшний день Республика Узбекистан осуществляет экономические отношения более чем 160 странами мира. Тем временем, тесную и взаимную связь имеет с такими странами как: Китай, Россия, США, страны Центральной Азии, ОАЭ, Катар, Азербайджан, Турция, Германия, Франция, Италия, Оман, Беларусь, Украина, Иран, Саудовская Аравия, Южная Корея, Сингапур, Польша.

Одним из ключевых партнеров Республики Узбекистан является Китай, мощнейшая страна по развитию экономики и инновации. В рамках новых экономических инициатив, таких как «Один пояс, один путь», активно сотрудничают в сферах энергетики, транспорта, текстиля и сельского хозяйства. На сегодняшний день международные отношения Республики Узбекистан с Китайской Народной Республикой все только возрастает. В январе с официальным визитом Президент Республики Узбекистан, в целях укрепления сотрудничества и реализации новых совместных проектов, посещает Китай. При этом, было подписано 41 документов по сотрудничеству. До 2027 года ожидается реализация таких совместных крупных проектов как : финансирование проекта строительства линий электропередач, создание мультимодального логистического центра, обновление и модернизация парка локомотивов на базе компании «Узбекистон темир йуллари», создание Агроинновационного парка, производство электрических и гибридных автомобилей совместно с компанией «BYD Auto Industry», развития телекоммуникационных сетей. Общий объем китайских инвестиций составил свыше 14 миллиарда долларов США. В ближайшие годы, планируется довести до 20 миллиардов долларов США [2]. Осуществление таких проектов и данное международное экономическое сотрудничество является основным рычагом увеличения ВВП нашей страны и развитие Нового Узбекистана в целом.

Международное экономическое отношение Республики Узбекистан с Катаром тоже имеет приоритетные значения. В 2023 году с первым официальным визитом глава Катара посетил Республику Узбекистан. В целях дальнейшего сотрудничества, были подписаны 15 документов. Заключили несколько инвестиционных соглашений, планируется совместные проекты в «зеленой» энергетике, в сферах сельской и пищевой промышленности, логистики, туризма. Общая сумма инвестиций превышает 12 миллиардов долларов США [3]. Под участием Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева и Эмира Государства Катар шейха Тамима бин Хамада Аль Тани на территории Международного делового центра «Tashkent city» прошла церемония открытия монумента, символизирующего усилия международного сообщества в борьбе против коррупции. В результате, монумент повышает осведомленности и понимания общества о необходимости противостояния коррупции, повышает деловую репутацию страны, создает более стабильное и прозрачное деловое окружение, что снижает риски инвесторов и может привлечь больше инвесторов. В общем можно сказать, что была открыта новая страница экономического содружества этих стран.

Международное экономическое сотрудничество на примере многолетнего мирного содружества между Республикой Узбекистан и Беларусь. За 30 лет между двумя государствами царит и развивается двустороннее сотрудничество на основе принципов взаимного уважения. С тех пор реализованы множество социально-экономические проекты, которые показывают свои плоды. Одним из этих проектов является обучение около 1500 студентов по приоритетным направлениям в Республике Беларусь,

планированное в 2019 году, на данный момент обучаются 5 тысяч студентов [4].

В частности, 8 февраля текущего года, с официальным визитом президент Республики Беларусь Александр Лукашенко посещает Республику Узбекистан. Вместе с этим в 2024-2025 годы будут реализованы проекты более чем на 1 миллиард долларов США [4.1]. Кроме того, планируется совместное построение завода детского питания, открытия текстильных предприятий в Узбекистане, а также запустить совместное производство хлопковых тракторов, что в результате в стране откроются множества рабочих мест для граждан, сократится безработица и двухкратное развитие хлопководческой отрасли.

Другим ярким примером является международное экономическое сотрудничество с Российской Федерацией. На период 2022-2026 года, в стратегиях развития Нового Узбекистана сотрудничество Республики Узбекистан с Российской Федерацией осуществляется по всем сферам деятельности. Имеются тесные экономические связи в сфере: торговли, инвестиций, энергетики, транспорта, образования, медицины, промышленности. Обе страны активно работают над увеличением объемов торговли и инвестиций. На сегодняшний день учитываются такие крупнейшие совместные проекты, в нашей стране, как: Лукойл, Газпром, Вымпелком (Российская телекоммуникационная компания). Важно учитывать, что заключен генеральный контракт на построения атомной электростанции в Джизакской области, строительство полностью финансируется с российской стороны, компанией «Росатом». Вход в эксплуатацию первой в Узбекистане атомной электростанции запланирован на 2033 год. Ее строительство оценивается в 11 миллиардов долларов США. Планируется, что около 30 % всей электроэнергии Узбекистана будет вырабатывать АЭС [5]. Таким образом, АЭС обеспечит Узбекистану источник безопасной, экологически чистой и стабильной энергии, это улучшит энергетическую независимость страны. Внешнеторговый оборот Республики Узбекистан с Россией составил 767 миллионов долларов США, за январь 2024 года [5.1].

Кроме того, 27 декабря 2023 года, в сотрудничестве с Китаем (во главе с представителями, «China Energy Engineering Corporation» и «China Gezhouba Group», с инвестицией на сумму) и ОАЭ (во главе с председателями ОАЭ, компании «Masdar», с инвестицией на сумму 4 миллиардов долларов США), президент Республики Узбекистан запустил проекты ввода в эксплуатацию и подключения к сети 5 солнечных и 1 ветряной электростанции, с общей мощностью 2,4 гигаватт, в шести регионах страны [6]. В свою очередь, осуществление данных крупно-масштабных проектов включит: экономическую эффективность за счет снижения зависимости от импорта энергии, создание новых рабочих мест, сокращение негативного воздействия на окружающую среду (важный шаг для развития «зеленой» экономики) и содействие устойчивому развитию страны.

Таким образом, международное экономическое сотрудничество играет важную роль в современном мире, способствуя развитию экономики, обеспечению устойчивого роста и улучшения качества жизни людей. В завершении можно сказать, что приведенные аспекты являются неотъемлемой и важной частью достижения приоритетных целей и развития Нового Узбекистана, что подчеркивает их значимость и правильную направленность в построении процветающего будущего.

Использованная литература:

1. Учебное пособие: «Стратегия Нового Узбекистана» _Ш. Мирзиёев
2. МЭ сотрудничество с Китаем [Электронный ресурс]: <https://www.gazeta.uz/ru/2023/05/18/documents/>
3. МЭ сотрудничество с Катаром [Электронный ресурс]: <https://kapital.uz/katar-investiruet-v-uzb/>
4. МЭ сотрудничество с Белоруссией [Электронный ресурс]: <https://avesta.tj/2024/02/07/uzbekistan-belarus-druzhba-i-sotrudnichestvo-ispytannye-vremenem/>
 - 4.1 <https://kapital.uz/belarus-i-uzbekistan/>
5. МЭ сотрудничество с Россией [Электронный ресурс]: <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
 - 5.1 <https://yuz.uz/ru/news/torgove-otnosheniya-uzbekistana-s-eaes-zayavar-2024-goda-infografika>
6. Проекты электростанции в Республике Узбекистан [Электронный ресурс]: <https://www.spot.uz/ru/2023/02/20/cn-solar/>

O‘ZBEKISTONNING YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHI: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR

Zarekeyev Ajiniyaz Abatovich

¹Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti
ajik.zarekeev@gmail.com.

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada yashil iqtisodiyotga o‘tishning dolzarbligi, yo‘llari va imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Ushbu amaliyotda to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan ekologik va iqtisodiy muammolar, ularning tahlili va yechimlar o‘z aksini topgan.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматриваются актуальность, пути и возможности перехода к зелёной экономике. Также находят отражение экологические и экономические проблемы, которые могут возникнуть в данной практике, их анализ и решения.

ABSTRACT. This article considers the relevance, ways and opportunities of transition to a green economy. Environmental and economic problems, their analysis and solutions are reflected in this practice.

Kalit soʻzlar: Yashil iqtisodiyot, energiya samaradorligi, resurslar, ekologik muammolar, qishloq xoʻjaligi, uglerod chiqindilari, iqlim, islohotlar, tiklanadigan energiya manbalari.

Ключевые слова: Зелёная экономика, энергоэффективность, ресурсы, экологические проблемы, сельское хозяйство, выбросы углерода, климат, реформы, возобновляемые источники энергии.

Keywords: Green economy, energy efficiency, resources, environmental problems, agriculture, carbon emissions, climate, reforms, renewable energy sources.

Oʻzbekiston Respublikasi oʻzining iqtisodiy taraqqiyotga erishishda bir qator amaliy ishlar olib bormoqda. Mamlakat 2016 yilda rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga oʻtishni boshladi. “Yashil” yondashuv orqali iqtisodiy oʻzgarishlarni joriy etish asosiy maqsad ekanligini yaqqol namoyon boʻldi.

Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentning 2022-yil dekabr oyida imzolangan qarorida davlat boshqaruv organlari tomonidan bu sohada amalga oshirilishi lozim boʻlgan muayyan islohotlar belgilab berilgan. Yashil iqtisodiyotga oʻtish va yashil oʻsishni taʼminlash boʻyicha 2030-yilgacha boʻlgan harakatlar rejasi qabul qilingan boʻlib, u yashil, barqaror va inklyuziv rivojlanishga erishish uchun mavjud ekologik va iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni oʻz ichiga oladi.

Davlat idoralari bilan hamkorlikda tayyorlangan Jahon bankining hisobotida esa mamlakatning yashil iqtisodiyotga oʻtishdagi muammolari va imkoniyatlari tahlil qilingan. Unda eng dolzarb ekologik va boshqa risklar belgilangan, shuningdek, ulardan baʼzilar energiya samaradorligi boʻyicha chora-tadbirlar va landshaftni tiklash dasturlari bir vaqtning oʻzida iqtisodiyot va atrof-muhitga foyda keltiradi. Ushbu maqola hisobotning baʼzi xulosalarini umumlashtiradi.

Yashil kursni tuzish.

Mamlakatning resurslardan foydalanish samaradorligi Yevropa Ittifoqi va boshqa oʻrtacha daromadli mamlakatlarnikidan ancha past. Oʻzbekistonda suvdan foydalanish ancha samarasiz, ayni paytda mamlakatda YaIM birligiga toʻgʻri keladigan energiya isteʼmoli Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi oʻrtacha koʻrsatkichdan qariyb uch barobar, qoʻshni Qozogʻistondan esa ikki baravar yuqori.

Shu bilan birga, sanoat va ishlab chiqarish manbalaridan keluvchi qattiq zarrachalar bilan havoning ifloslanishi yuqori darajada boʻlib, shamol orqali uchib kelgan qum va changlar bilan yanada yomonlashmoqda. Aholining katta qismi muntazam ravishda sogʻliq uchun zararli deb hisoblangan havo sifatiga duchor boʻladi. Yerning tanazzulga uchrashi iqtisodiyotga sezilarli darajada qimmatga tushadi va bu oʻzaro bogʻliq ekologik muammolar tufayli yuzaga keladi.

Oʻzbekiston Respublikasi oʻzining yashil ambitsiyalarini roʻyobga chiqarish uchun uch davrga boʻlingan muammolarni hal qilishi kerak boʻladi: shoshilinch, qisqa muddatli va uzoq muddatli. Mamlakatning qishloq xoʻjaligiga asoslangan iqtisodiyotini va aholi zich joylashgan hududlarda havo sharoitining asta-sekin

yomonlashishini hisobga olgan holda, uning eng dolzarb ekologik ustuvor vazifalari havo sifatini yaxshilash, yer va suvdan barqaror foydalanish bo‘ladi. Bunga landshaftni tiklash, suvni samarali boshqarish va havo ifloslanishini kamaytirish choralari orqali erishish mumkin.

Yerdan barqaror va oqilona foydalanish zarur bo‘lgan muhim amaliyotdir. Iqlimga sezgir qishloq xo‘jaligida boshqaruv usullari yerdan barqaror foydalanishni yanada yaxshilaydi. Uzoq muddatli istiqbolda mamlakat qishloq xo‘jaligidan yuqori qiymatga ega, yuqori maoshli tarmoqlarga o‘tishni ta‘minlashi lozim. Bu qishloq xo‘jaligi ishchi kuchining bir qismini, ayniqsa, eng zaif ayollar va yoshlarni qayta tayyorlashni talab qiladi.

Suv narxini belgilash va sug‘orish uchun investitsiyalar orqali suvdan foydalanish samaradorligini oshirish eng muhim vazifa bo‘lishi kerak, bunda suvdan foydalanishga ma‘lum cheklovlar ushbu yangi ustuvorliklarning bir qismi hisoblanadi. Kam uglerodli siyosatga o‘tish energiya samaradorligi uchun zarur rag‘batlantirishni beradi.

Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon bankining uglerod chiqindilarining narxini belgilash vositasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston misolida uglerod chiqindilarining narxini belgilash yalpi ichki mahsulotning 5 foizigacha qo‘shimcha byudjet daromadini ta‘minlashi mumkin, bu “yashil” loyihalarni moliyalashtirish yoki “yashil” iqtisodiyotga o‘tishdan eng ko‘p zarar ko‘rgan sohalarga iqtisodiy ta‘sirni yumshatish uchun ishlatilishi mumkin.

Bundan tashqari, ish o‘rinlarini yaratish va resurslarni qayta taqsimlash strategiyalari yashil iqtisodiyotga o‘tish davridagi ijtimoiy xarajatlarning bir qismini kamaytirishga yordam beradi. Yashil iqtisodiyotga global o‘tish ish o‘rinlarini yaratish va ekologik barqarorlikni ta‘minlash uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi, mamlakatimiz bu imkoniyatlardan foydalanish uchun qulay sharoitga ega.

Mamlakatning eng yirik bandlik tarmog‘i bo‘lgan qishloq xo‘jaligi va qishloq xo‘jaligida xizmatlar ko‘rsatish sohasi yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan tizimga o‘tish va ekologik xizmatlarni rivojlantirish orqali yerdan foydalanishni optimallashtirish hamda yanada ko‘proq yashil ish o‘rinlarini yaratish va turmush sharoitini yaxshilash salohiyatiga ega.

Bundan tashqari, qayta tiklanadigan energiya manbalari va boshqa innovatsion texnologiyalarga asoslangan, xuddi shunday yashil potentsialga ega bo‘lgan tarmoqlarning ulushini kengroq joriy qilish zarur.

Yashil iqtisodiyotga o‘tishning muvaffaqiyatini ta‘minlash uchun davlat sektori va yashil moliyani jalb qilish juda muhimdir. Davlatning siyosiy choralari moliyaviy tafovutni bartaraf etish bilan bir vaqtda yashil sektorlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali ijtimoiy xarajatlarni kamaytirishi kerak.

Bundan tashqari, davlat qayta tayyorlash, qayta taqsimlash va eng ko‘p zarar ko‘rganlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga olishi kerak. Ushbu chora-tadbirlar hukumat tomonidan xorijiy hamkorlar ko‘magida ishlab chiqilayotgan Uzoq muddatli dekarbonizatsiya strategiyasining bir qismini tashkil qilishi mumkin.

Yashil yo'nalishni olib borish: muammolardan imkoniyatlarga.

Dunyo yanada barqaror kelajak sari qadam tashlar ekan, global energetika maqsadlariga erishishda, ayniqsa, yuqori energiya va uglerod intensivligi bo'yicha jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Bu shartlar mamlakatni tashqi savdo siyosati va uglerod chiqindilarini cheklash uchun soliqlar oldida zaif holga keltiradi. Biroq, O'zbekiston Respublikasi global miqyosda yashil iqtisodiyotga o'tish va atrof-muhit va iqlim siyosatini kuchaytirish orqali bu muammoni imkoniyatga aylantirishi mumkin.

Ko'p mamlakatlar iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda past uglerodli siyosatni qo'llayotganligi sababli, uglerodni ko'p iste'mol qiladigan mahsulotlarga global talab o'rta va uzoq muddatli istiqbolda qisqarishi kutilmoqda. Turli siyosiy stseneriyalarga ko'ra, yaqin yillarda jahonda zaharli moddalarning atorf-muhitga salbiy ta'sirini yumshatish maqsadida nafaqat tabiiy gaz va neft, balki uglerodi ko'p mahsulotlarga chegara soliqlari solinadigan mahsulotlar eksportini joriy etish muhim.

Keyinchalik voz kechish ancha qimmatga tushadigan texnologiyalar va tizimlarga bog'lanib qolmaslik uchun zudlik bilan iqtisodiyotini yashillashtirish jarayonini boshlash kerak. Yashil maqsadlarga ustuvorlik berish bozor iqtisodiyotiga kengroq o'tishga erishish bo'yicha olib borilayotgan sa'y-harakatlarning ajralmas qismi bo'lishi kerak. Resurs samaradorligini oshirish, yashil bandlik va moliyani rivojlantirish kabi boshqa "yashil" choralar ham qisqa muddatli foyda keltirishi mumkin.

Biroq, mamlakat yashil iqtisodiyotga o'tishning jamiyatga ta'sirini ham hisobga olishi kerak. Yashil sektorlarni qo'llab-quvvatlash va uglerod va resurslarni ko'p talab qiladigan faoliyatdan voz kechish sarmoya va ish o'rinlari yaratish modelini o'zgartirib, g'oliblar va yutqazuvchilarni yaratadi. Eng ko'p zarar ko'rgan jamoalarga yordam ko'rsatish muhimdir. Bu qadriyatlar adolatli o'tishga erishish uchun sa'y-harakatlarning asosidir.

Ekologik siyosat va islohotlarning to'g'ri uyg'unligini qabul qilish orqali O'zbekiston Respublikasi yashil, barqaror va inklyuziv kelajakning afzalliklaridan foydalanishi mumkin. Yashil iqtisodiyotga global o'tish iqtisodiy o'sish va rivojlanish uchun ko'plab imkoniyatlar ochar ekan, O'zbekiston Respublikasi o'z kelajagini ta'minlash uchun barqaror siyosat olib borishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.journal.tsue.uz – Raqamli iqtisodiyot: Yangi O'zbekistonni yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari orqali rivojlantirishning yangi bosqichi mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyaning materiallar to'plami, 26 fevral 2020 yil. – Toshkent: Tadqiqot. 2020. – 141b.

2. www.lex.uz – “2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar” to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-sonli qarori. 02.12.2022.

TURISTIK XIZMATLAR XUSUSIYATINING «4 TA S» BILAN IFODALANISHI HAMDA XIZMAT KO'RSATISH PAKETI

Mirzayev Ural Namozovich¹

¹*TerDU, Kompyuter tizimlari va ularning dasturiy ta'minoti
(tarmoqlar va sohalar bo'yicha) yo'nalishi magistranti*

Elektron pochta: uralmirzayev763@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turizm xizmat ko'rsatish sohasidagi turistik xizmatlar xususiyatlari, ularning «4 ta S» bilan ifodalanishi hamda turizm sohasidagi xizmat ko'rsatish paketi va turlari haqida ma'lumot keltirilgan

Kalit so'zlar: turistik mahsulot, tur, individual turlar, guruhli turizm, xizmat ko'rsatish klasslari, «Lyuks klass», «Iqtisod klass», xizmatlar paketi (to'plami), majmual xizmat ko'rsatish, buyurtmali tur, inklyuziv tur, turpaket, turistik xizmatlarning xususiyatlari, «4 ta S», sezilmaslik, servisni va iste'molchini o'zaro bog'liqligi, saqlanmaslik, sifatning o'zgaruvchanligi.

O'zbekiston Prezidenti tomonidan turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda va bu jahon hamjamiyati tomonidan yuksak e'tirof etilmoqda. Sohani qo'llab-quvvatlashga doir 90 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi mamlakatimizda turizm turlarini diversifikatsiya qilish, O'zbekistonning xalqaro maydondagi jozibadorligini oshirish yo'lida xizmat qiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, pandemiya davrida 300 dan ortiq yangi sayyohlik marshrutlari ishlab chiqildi. Shu o'rinda O'zbekistonning turistik marshrutlarini o'z ichiga olgan umumiy katalog ishlab chiqilishini maqsadga muvofiq. Zero bu barcha sayyohlar uchun foyda bo'ladi. Turizm va madaniy meros vazirligi tomonidan sohadagi global inqiroz va yangicha raqobat sharoitlarini inobatga olgan holda O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan davrda turizmni rivojlantirish strategiyasi" ishlab chiqilmoqda. Bu esa sayyohlarni jalb qilishda noan'anaviy yondashuvlarni talab qiladi. Ayni shu nuqtayi nazardan, turistik biznes vakillari, gid va ekskursiyachilarni ushbu hujjatni ishlab chiqishda faol ishtirok etishda namuna bo'lishlari lozim.

Turizm xizmat ko'rsatish sohasining tashkil etuvchisi sifatida o'z xususiyatlariga va funksiyasiga ega bo'lib, bu uni xo'jalik yuritishning avtonom sohasi ekanligini belgilaydi. Boshqa xizmat turlari kabi turistik xizmatlar o'ziga xos xususiyatlarini shartli ravishda «4 ta S» bilan belgilasak, quyidagi holatda bo'ladi:

Turistik xizmatlar nomoddiy mahsulot bo'lib hisoblanadi. Ular ijtimoiy - madaniy (nomoddiy) sohalarga tegishli bo'ladi, chunki iste'molchining ijtimoiy-madaniy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini jismoniy, etnik-intellektual, ma'naviy va hakazo ehtiyojini qondirish bo'yicha xizmatlarni ijro etuvchilar faoliyati aniqlaydi. Ularni xarid qilish vaqtida ko'rish yoki baholash mumkin emas. Bunday xizmatlar obyekti bo'lib shaxsan iste'molchi (turist) hisoblanadi;

Xizmatlar iste'molchi va ijro etuvchilarning o'zaro ta'siri natijasida tashkil topganligi sababli, turistik xizmatlarni ko'rsatish jarayoni (ishlab chiqarish) iste'mol

bilan birga parallel ravishda yuz beradi. Ma'lumki, moddiy shaklda tovarlarni ishlab chiqarish, uni sotuvidan oldin bo'ladi, faqat undan keyingina iste'mol jarayoni boshlanadi. Yana bir muhim xususiyatlaridan biri - bu turistik tovarlar va xizmatlar iste'moli faqatgina iste'molchini, ya'ni turistni uning ishlab chiqilgan joyiga olib borilgan holdagina amalga oshiriladi. Oddiy tovarlar va xizmatlar iste'moli esa teskarisi, ya'ni ishlab chiqilgan mahsulot, joyidan qat'i nazar, tayyor bo'lgach, iste'molchi uni shu yerning o'zida iste'mol qiladi.

Turistik xizmatlarning saqlanmasligi (saqlash mumkin emasligi). Turistik xizmatlarning hayotiy davri moddiy tovardan tubdan farq qiladi, xususan, saqlash bosqichining mavjud bo'lmaganligi bilan turistik xizmatlarni saqlanmasligi bozor kon'yunkturasini yaxshilab o'rganishni, talab va taklifning mutanosibligini talab etadi, chunki xizmatlar talab bo'lmagunga qadar «omborlarda» turib qoladigan mahsulot emas.

Mehmondo'stlik sohasidagi xizmatlar o'zining o'zgaravchanligi bilan ajralib turadi. Bunday o'zgaruvchanlikning bir necha sabablari mavjud. Birinchidan, bunday turdagi xizmatlar bir vaqtning o'zida ko'rsatiladi va qabul qilinadi, bu esa ularning sifatini nazorat qilish imkoniyatini cheklaydi. Ehtiyojning vaqtinchalik nobarqarorligi, ehtiyoj yuqori bo'lgan davrda xizmat sifatining saqlanishini muammoli qilib qo'yadi.

Xizmat ko'rsatish klasslari taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini belgilash uchun ishlatiladi. Turistik mahsulot turli-tuman xizmatlar yig'indisidan iborat bo'lganligi uchun, ularni turistga sotishda darajasini belgilash bilan bog'liq muammolar kelib chiqadi. Turlar va xizmatlarning darajasini belgilash bo'yicha bizning mamlakatimiz bozorlarida ham, xalqaro bozorda ham me'yoriy standartlar mavjud emas. Shuning uchun turoperator va turagentlar turni sotishda shartli ravishda tur bo'yicha xizmatlarni lyuks, birinchi klass, turistik klass, ekonom (iqtisod) klass qilib belgilaydi. Lyuks klass. Ushbu klass bo'yicha turlarni tashkil qilishda odatda eng yuqori darajali xizmatlar jalb qilinadi: 5 yulduzli hashamatli mehmonxonalar, birinchi klass va biznes aviatsiya samaliyotlarida uchish, hashamatli restoranlarda ovqatlanish, alohida transport, lyuks klass mashinalarida, alohida gid xizmatlari va h.k. Bunday turlar VIP-xizmat ko'rsatish turkumi (raziyadi) bo'yicha taqdim etiladi. Birinchi klass — bu ham nisbatan yuqori darajali xizmat ko'rsatish bo'lib, 4-5 yulduzli mehmonxonalarga joylashtirish, biznes klass darajadagi samaliyotlarda uchishni, qimmatbaho restoranlarda ovqatlanishni, individual transfertni, gid xizmatlarini nazarda tutadi. Turistik klass - 2-3 yulduzli mehmonxonalarda joylashtirishni, doimo aviareyslarning iqtisod klasslarida uchishni, shved stoli bo'yicha ovqatlanishni, guruhli transfertni nazarda tutuvchi eng ommalashgan xizmat ko'rsatish turi hisoblanadi.

Iqtisod klass - eng arzon xizmat ko'rsatish turidir. Odatda, iqtisod klassdan talabalar va kam ta'minlanganlar foydalanadi. Ushbu klass dasturlari yuqori darajada bo'lmagan xizmatlarni kam miqdorda taqdim etishni ko'zda tutadi: 1-2 yulduzli mehmonxonada joylashtirish, yotoqxona va xostellarda joylashtirish, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish tamoyili bo'yicha faoliyat yurituvchi kichik va kooperativ mehmonxonalarda joylashtirish, charter aviareyslari uchish, kutib olish va

kuzatish jamoat transportida amalga oshirilishi mumkin. Xizmatlar paketi (to'plami). Amaliyotda asosiy turistik mahsulot bu xizmat ko'rsatish majmuasidir, ya'ni turistlarga yagona paketda sotiluvchi xizmatlarning standart to'plami. Xizmatlar paketi (to'plami) turoperator tomonidan yaratilgan bo'lib, ma'lum xizmatlar to'plamidan: tashish, joylashtirish, ovqatlanish, ekskursiyalar va h.k. iborat turistik mahsulotdir. Turdagi xizmatlar paketi turist tomonidan tanlangan turistik dam olish turi bo'yicha ularning ehtiyojlari va sayohat maqsadidan kelib chiqqan holda shakllantiriladi. Tur va uning paketini shakllantirishda turistlar bilan ishlashning ikki variant mavjud: a) buyurtmali turlar sotilishi; b) inklyuziv turlar sotilishi. Buyurtmali turlarni sotishda dasturni shakllantirish va xizmatlar tarkibini yaxlitlash turist xohishiga binoan, uning bevosita ishtirokida amalga oshiriladi. Turistga taklif etilayotgan dam olish maskanida turli xil tur xizmatlarning har biri bo'yicha har xil xizmat ko'rsatish variantlari taklif etiladi:

1. joylashtirish - joylashgan joyi va turi, darajasi bo'yicha turli xil mehmonxonalar.
2. ovqatlanish - turli variantlar (to'liq yoki yarim pansion yoki umuman ovqatlanishsiz) shved stoli yoki «alya kard» va h.k;
3. ekskursiyalar va ko'ngilochar xizmatlar;
4. transport xizmatlari - aviauchish variantlari, temiryo'l tashuvlar, avtomobil ijarasi va h.k.
5. sport va davoiyanish kurort xizmatlari;
6. viza xizmatlari, shuningdek, sug'urta xizmatlari.

Yuqorida aytilganidek, bunday turlarni tuzishda turistning o'zi bevosita ishtirok etishi ham mumkin. Turist tomonidan tanlangan xizmatlar tur dasturida shakllantiriladi, narxi hisoblanadi, uni turist turpaketga ega bo'lgach to'laydi. Odatda bunday buyurtmalar agentliklarda shakllantiriladi, so'ng joriy qilish uchun turoperatorga yo'naltiriladi. Buyurtmalarni tez va sifatli ta'minlash uchun bugungi kunda xalqaro turizmga turagentliklar va operatorlik kompaniyalari **zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan** foydalanmoqda. Xalqaro turizmga paketni yaxlitlash muammolari, narxni hisoblash va turni sotishni operativ hal qilish uchun kompyuter va telefaks aloqasidan keng foydalaniladi., **Inklyuziv tur (IT)**. Bu oldindan rejalashtirilgan va dam olishning yoki turizmning ma'lum turi hamda turistlarning ma'lum ijtimoiy guruhiga va uning yoniga yo'naltirilgan qat'iy xizmatlar to'plamidir. Eng ko'p tarqalgan inklyuziv turlar, deb marshrutli turlarni aytish mumkin. Ya'ni bunda turistlar guruhi avtobusda bir nechta shaharlar va mamlakatlar bo'ylab sayohat qiladi. Ushbu turning o'ziga xos xususiyatlari (sayohat grafigi va muddatlari bilan qat'iy bog'langan, barcha uchun yagona dastur) uning buyurtmali bo'lishiga yo'l qo'ymaydi.

Kruiz turlar, hobbi turlar ham inklyuziv turlardir. Inklyuziv turlarni sotishda xizmatlar tarkibi o'zgarmaydi. Turist bunday turni to'liqligicha sotib olishi yoki undan butunlay voz kechishi mumkin. Inklyuziv turlar barqaror talabga ega taniqli turizm va dam olish maskanlaridagi marshrutlarda tashkillashtiriladi va taklif etiladi. Inklyuziv turlar narxining katta qismini joylashtirish va ovqatlanish to'lovlari tashkil etadi. Xalqaro (avia) havo transportlari assotsiatsiyasi talabiga binoan, inklyuziv turlar o'z ichiga 3 tadan kam bo'lmagan xizmatlar: aviauchish, joylashtirish, butun

marshrut bo‘ylab sayohat va yuqoridagi 2 tasi bilan bog‘liq bo‘lmagan biror xizmat (ekskursiya, avtomobil ijarasi va h.k.). Bunday turlarga bo‘lgan talabning tebranishiga qaramasdan, ularni rivojlantirishning ma‘lum afzalliklari mavjud:

- a. umuman olganda, majmualiy sayohat alohida sotib olinadigan xizmatlar to‘plamidan arzonidir;
- b. narxlari oldindan ma‘lum bo‘lganligi uchun turagentlarning turistlarga qanday marshrutni tanlash borasida maslahat berishlari oson kechadi. Bunda dasturlar ham oldindan belgilangan bo‘ladi;
- c. o‘z mahsulotining jozibadorligini ko‘rsatish uchun ko‘proq imkoniyat bo‘ladi. Inklyuziv turlarning kamchiliklari:
- d. bunday turda mijozni qiziqitirmagan xizmatlarning mavjud bo‘lish ehtimoli bor;
- e. dasturning haddan tashqari to‘yinganligi;
- f. bunday tur reklamasi iste‘molchilarning faqatgina bir qisminigina jalb qilishi mumkin.

Buyurtmali turlarda turoperator doimiy ravishda mehmonxonalaridagi tasdiqlanmagan o‘rinlarga kvotalarni ushlab turishi lozim. Sotishda turli talabnomalar bo‘lishi mumkin. Turoperator turli mehmonxonalarda joylashtirilgan turistlar bilan ishlashiga to‘g‘ri keladi. Turistlarni bir mehmonxonada joylashtirib xizmat ko‘rsatish ancha oson kechadi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, turistning shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, barcha turistik sayohatlar individual yoki guruhli tarzda amalga oshiriladi. Turto‘plam (turpaket) - iste‘molchilarga guruhli yoki individual variantlar bo‘yicha taqdim etiladigan xizmatlar to‘plamiga kiradi. Turpaketni tashkil lashtirishga ta‘sir etuvchi omillar:

- ✓ berilgan sayohatga talabning mavjudligi;
- ✓ xizmatlar, infratuzilma, moddiy bazariing mavjudligi;
- ✓ aviakompaniyalar va boshqa transport kompaniyalari bilan munosabati;
- ✓ jo‘natuvchi va qabul qiluvchi mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlar;
- ✓ hamkor turistik tashkilotlar bilan munosabat;
- ✓ belgilangan mamlakatda turizmning rivojlanish darajasi;
- ✓ belgilangan mamlakatning siyosiy barqarorligi.

Shuni ta‘kidlash lozimki, siyosiy barqarorlik omili turoperator tomonidan o‘zining strategiyasini ishlab chiqishda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Adilova Z.D, Sodiqov T. Xalqaro turizm biznesi. o‘quv qo‘llanma. -T.: TDIU, 2010. 4.1.4.
2. Adilova Z.D, Aliyeva M.T., Norchayev A. Turizm menejmenti. o‘quv qo‘llanma. -T.: TDIU, 2011. 4.1.5
3. Aliyeva M.T., Umarjonov A. Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti. -T.: Moliya, 2005. 4.1.6.
4. Asror Mo‘minov. Dunyo mo‘‘jizalari. Yangi nashr. -T.: 2012, 8b. 4.1.7. Ahmadxo‘jayev H. va boshqalar. Marketing tadqiqotlari. —T., 2002.

5. Safarov B.Sh. Innovative forecasting of national tourism service market in the Republic of Uzbekistan // Journal of Management Value and Ethics. - Gwalior, 2016. - Vol. VI (2).-P.57- 72. (08.00.00; №6.)

6. Zaripova M.D. Scientific and theoretical bases for assessing the quality of staff training in the system of higher education //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – S. 48-59.

СОВРЕМЕННЫЙ МЕХАНИЗМ ОБЕСПЕЧЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Турумов Бобур¹

¹студент 2 курса

Камилова Наргиза Абдукахоровна²

²к.э.н., доцент, Самаркандский институт экономики и сервиса

Республика Узбекистан

nargizaabdukahorovna@gmail.com

Аннотация. В статье анализируются направления экономической безопасности на основе международного опыта: двух крупнейших экономик мира - США и Российской Федерации, которые рассматриваются как модели экономической безопасности. На основе проведенного анализа был предложен современный подход к обеспечению внешней экономической безопасности.

Ключевые слова: внешняя экономическая безопасность, инвестиционные проекты, продовольственная безопасность, демографическая безопасность, финансовая безопасность, информационная безопасность, макроэкономическая стабильность, экономические индикаторы безопасности, факторы экономической безопасности.

Annotation. The article analyzes the directions of economic security based on international experience: the two largest economies in the world - the USA and the Russian Federation, which are considered as models of economic security. Based on the analysis, a modern approach to ensuring external economic security was proposed.

Key words: external economic security, investment projects, food security, demographic security, financial security, information security, macroeconomic stability, economic security indicators, economic security factors.

Вступление. Обеспечение внешнеэкономической безопасности государства включает в себя ряд мер и действий, направленных на защиту экономических интересов страны от негативных воздействий со стороны других государств или международных организаций. Основные направления

обеспечения международной и внешней экономической безопасности включают следующие аспекты:

Во-первых, разработка и реализация международной экономической политики страны. Это включает определение и осуществление торгово-экономических отношений с другими государствами, участие в международных организациях и договоренностях, разработку и проведение стратегических планов развития экономики.

Во-вторых, создание и поддержка эффективных механизмов экономической защиты. Это включает налоговую политику, тарифную и таможенную политику, регулирование внешней торговли и инвестиций, антимонопольное регулирование и другие меры, способствующие поддержке национальных производителей и предотвращению дестабилизации экономики государства.

В-третьих, развитие и укрепление экономической базы государства. Это включает развитие инфраструктуры, научного и технического потенциала, поддержку инноваций и разработок, создание благоприятного климата для бизнеса и привлечение иностранных инвестиций.

В-четвёртых, разработка и реализация мер по защите прав и интересов государства в международных экономических отношениях. Это включает участие в международных торговых организациях, разработку и подписание международных соглашений и договоров, защиту интеллектуальной собственности и регулирование споров в рамках международных организаций.

В-пятых, проведение анализа и мониторинга экономической ситуации и рисков. Это включает оценку внешнеэкономической ситуации, анализ рисков и угроз, связанных с экономической безопасностью, и разработку мер по предотвращению или минимизации этих рисков.

Обеспечение внешнеэкономической безопасности является важным аспектом для государства, так как от успешной реализации этой задачи зависит стабильность экономики, благополучие граждан и развитие страны.

Результаты и обсуждение. Актуальность выбранной темы определяется увеличением доли совершаемых экономических преступлений, а также продолжающимся ростом коррупции на всех уровнях управления.

Современный механизм обеспечения экономической безопасности должен постоянно трансформироваться вместе с появляющимися новыми рисками и угрозами в экономическом секторе страны.

При этом, на первый план выдвигается международная экономическая безопасность. Необходимо совершенствовать механизмы обеспечения экономической безопасности Республики Узбекистан с учетом новых экономических рисков, как на национальном, так и на региональном уровнях.

Необходимо дальнейшее международное сотрудничество в сфере обеспечения экономической безопасности и разработка универсальных международно-правовых норм в этом направлении.

В настоящее время информационные технологии также используются для совершения преступлений, посягающих на интеллектуальную собственность, конституционные права и свободы граждан, экономические и общественные интересы. На практике приходится работать с возрастающим количеством и

видами преступлений в сфере компьютерной информации, выявлять их элементы, уточнять объективную сторону состава существующих преступлений, дифференцировать ответственность виновных лиц. Исследования в области компьютерных преступлений необходимы для повышения уровня национальной безопасности в целом и повышения уровня безопасности корпоративных и индивидуальных информационных систем, в частности.

В связи с этим, стремительное развитие новых технологий и их активное внедрение в повседневную жизнь ставят перед юриспруденцией новые задачи (рис.1).

Деятельность в отношении обеспечения экономической безопасности выстраивается каждым предприятием индивидуально, и основывается на результатах функционирования, направленного на формирование оптимальных условий для собственников и сотрудников в течение продолжительного периода времени [1, с. 84]. Стратегию предприятия следует описывать как объект управления, а систему показателей – как инструмент управления. Чтобы донести до участников деятельности их цель и задачи, у руководителя должна быть подробно описанная стратегия. В ней должны быть ясно представлены происходящие события, чтобы иметь стратегическое соответствие.




Рис. 1. Основные угрозы экономической безопасности

Стратегические задачи относительно внешней политики направлены на формирование стабильных долгосрочных и выгодных отношений с покупателями, партнерами и обществом в целом. Вместе с тем, в процессе осуществления предпринимательской деятельности могут возникать опасные ситуации, которые вынуждают предпринимать действия по обеспечению экономической безопасности как внутри предприятия, так и во внешней среде.

В связи с этим возникает понятие экономической безопасности, под которым следует понимать такое состояние предприятия, когда основными его составляющими выступают стабильный доход и наличие ресурсов, позволяющих поддержать стратегический уровень жизнедеятельности предприятия в настоящее время и в будущем.

На современном этапе экономическая безопасность воспринимается как социальное явление, непосредственно зависящее от человека и являющееся важной частью любого предприятия, общества и государства в целом. Как объект экономики экономическая безопасность непрерывно развивается. Для поддержки его стабильного развития следует проводить регулярную оценку

постоянных угроз, способных повлиять на финансово-хозяйственную деятельность предприятия, в том числе на его финансовые результаты.

Предприятие должно в точности выполнять установленные правила, с целью предотвращения значительных потерь. Вначале оценивается надежность и защищенность объекта и выявляются незначительные угрозы, чтобы в дальнейшем они не переросли в масштабные проблемы. Далее проводится анализ и дается прогноз данных на основе полученной информации и разрабатываются оптимальные стратегические решения, при этом создаются условия для возмещения моральных и материальных убытков [2, с. 7].

Принимаемые управленческие решения должны быть основаны на системном подходе и учитывать все направления экономической безопасности. Поставленные цели и задачи определяют стратегические направления обеспечения безопасности предприятия. Мероприятия, направленные на обеспечение экономической безопасности, должны быть распределены на основные направления (рис. 2) [3, с.212].



Рис. 2. Основные направления обеспечения экономической безопасности предприятия

Анализируя нормативные положения и научные взгляды в части основных характеристик экономической безопасности страны, следует констатировать, что внутренние угрозы экономической безопасности зависят от сферы управления страной.

Речь идет о массовом совершении сотрудниками преступлений, связанных со злоупотреблением служебными полномочиями, взятками и мошенничеством при исполнении служебных обязанностей и т.д. Можно констатировать, что в настоящее время законодательством достаточно подробно урегулированы вопросы правоприменения и привлечения к юридической ответственности за правонарушения в бюджетной сфере.

Однако, должный контроль в этой сфере практически отсутствует, очень часто за правонарушения в этой сфере виновное лицо привлекается к

дисциплинарной ответственности, а не к уголовной. А учитывая объем бюджетных средств, расходуемых на эту сферу, чиновнику проще заплатить штраф и получить достаточную прибыль от нарушения установленной процедуры. В связи с этим необходимо пересмотреть подход следственных и судебных органов к видам юридической ответственности, применяемым в каждом конкретном случае.

Мы считаем необходимо применять единый подход к выбору вида ответственности за тот или иной вид преступления. Учитывая, что совершение преступных деяний наносит ущерб экономическим интересам публичных образований и, следовательно, представляет угрозу экономической безопасности страны в целом, единственный вид ответственности за данный вид преступлений в целом является уголовная ответственность.

Представляется целесообразным введение уголовно-правовых мер, направленных на совершенствование профилактики предупреждения киберпреступлений. Деятельность по предупреждению преступлений в сфере компьютерной информации должна осуществляться в соответствии с комплексным подходом, а именно сочетанием организационных, управленческих, технических и правовых мер.

На основании вышеизложенного, констатируя факт высокой доли административной и гражданской ответственности, низкую долю уголовной ответственности в бюджетной сфере, а также судебную практику, изобилующую обвинительными приговорами, считаем необходимым усилить санкции за преступления в этой сфере и наделить органы прокуратуры правом инициировать судебные процессы по уголовному преследованию, а не по уголовным делам. Уголовного преследования, а не для привлечения виновных лиц к административной ответственности.

Заключение. Таким образом, к ключевым задачам обеспечения экономической безопасности следует отнести следующие: разработка мер по поддержке национальной экономики в кризисный период; создание организационных условий для обеспечения занятости населения; создание экономических условий для снижения инфляции и обесценивание национальной валюты; мониторинг фондового рынка с целью предотвращения незаконных спекуляций и искусственного взвинчивания цен; разработка мер, направленных на сокращение дефицита бюджета; принятие экономической стратегии по сокращению государственного долга Республики Узбекистан; повышение уровня социальной и экономической безопасности граждан Узбекистана; прогнозирование развития событий на международной экономической арене с целью выявления негативных последствий для национальной экономики Республики Узбекистан [4, с. 37].

Помимо мер, направленных на обеспечение экономической безопасности внутри страны, необходимо принятие мер со стороны всего мирового сообщества, направленных на организацию системы международной экономической безопасности.

Литература:

1. СМИ: безопасность бизнеса – www.ekb-security.ru.

2. Составляющие экономической безопасности предприятия – <http://cyberleninka.ru/article/n/sostavlyayushchie-ekonomicheskoy-bezopasnosti-predpriyatiya>.

3. Процесс обеспечения экономической безопасности предприятия («Справочник экономиста» №12, 2014) – https://www.profiz.ru/se/12_2004/952/.

4. Камилова Н.А., Турумов Б. Направления обеспечения внешнеэкономической безопасности. /Analysis of world scientific views International Scientific Journal 2023 Vol1 Issue 9. С. 31-38.

КАДРОВАЯ ПОЛИТИКА ПРЕДПРИЯТИЯ В ВОПРОСЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОИЗВОДСТВА

Рахимов Баходир¹

¹студент 3 курса

Камилова Наргиза Абдукахоровна²

²к.э.н., доцент кафедры Экономическая теория Самаркандский институт экономики и сервиса

nargizaabdukahorovna@gmail.com

Аннотация. В современной экономике кадровый потенциал является одним из самых важных стратегических инструментов компании. От кадровой политики зависит многое, и в первую очередь, насколько рационально используется рабочая сила и эффективность работы предприятия или компании. От решения данного вопроса также зависят производственная мощность компании, своевременность выполнения работ, использование технологий, получаемая прибыль и ряд других экономических показателей.

Ключевые слова: экономика, трудовые ресурсы, кадры, гибкость, рынок труда, кадровая политика, обучение, система подготовки.

Изменения в структуре отечественной экономики, трансформация форм собственности и развитие её новых форм, развитие современных видов экономической деятельности изменяют рынок труда, трансформируя потребности работодателей в одном из важнейших факторов производства — рабочей силе [1].

Во всей совокупности ресурсов организации особое место занимают трудовые ресурсы. Трудовые ресурсы — часть населения страны, которая по физическому развитию, приобретенному образованию, профессионально-квалифицированному уровню способна заниматься общественно-полезной деятельностью.

На уровне отдельных предприятий и организаций вместо термина «трудовые ресурсы» чаще всего используют термин «кадры» или «персонал». На базе каждого предприятия существует своя кадровая политика, которая имеет в совокупности правила и нормы, цели и представления, которые

определяют направление и содержание работы с персоналом. От кадровой политики зависит многое, и, в первую очередь, насколько рационально используется рабочая сила и эффективность работы предприятия или компании. Одним из основных разделов анализа работы предприятия, является анализ трудовых показателей, который, в свою очередь, выдвигает следующие задачи эффективности использования трудовых ресурсов и заключаются:

- в изучении и оценке обеспеченности предприятия трудовыми ресурсами по категориям и профессиям;
- в изучении вопросов текучести кадров;
- в выявлении резервов трудовых ресурсов и т.п. При этом важным фактором роста производительности труда является повышение образовательного и квалификационного уровня работников [2].

В современной экономике обучение — один из самых важных стратегических инструментов компании. Разрабатываются различного рода системы подготовки, переподготовки и повышения квалификации работников на предприятии, которые должны быстро реагировать на изменения потребностей производства в рабочей силе, а также предоставить работникам возможность для обучения в соответствии с их интересами. Под эффективностью понимается достижение каких-либо определенных результатов в производстве. Эффективность очень схожа с понятием результативность.

Главным критерием эффективности является степень удовлетворения конечных потребностей общества, и прежде всего, связанных с развитием человеческой личности. Эффективность — это способность выполнять работу и достигать необходимого или желаемого результата с наименьшей затратой времени и усилий. Вопросами эффективности труда занимался ученый А. К. Гастев. Проблемам организации труда и управления были посвящены работы П. М. Керженцева. При НИИ труда вопросами нормирования управленческого труда занимался Г. Э. Слезингер и ряд других ученых и научных сотрудников, как Л. Н. Качалина, О. В. Козлова, Г. Х. Попова, Л. Н. Зудина. На практике в организациях по управлению трудовыми ресурсами широко применяются методы Д.Ульриха, Д. Филлипса. Теориями мотивации труда занимались А. Маслоу, Д.Адамс. Изучая труды данных ученых, психологов, можно отметить, что большое место в организации занимают вопросы обучения, переподготовки персонала. Подготовка, переподготовка кадров и повышение квалификации — важное звено в сбалансированности спроса и предложения рабочей силы [3].

Предприятие или организация ежегодно ставит в области обучения кадров определённые задачи, которые состоят в обеспечении надлежащего уровня подготовки, соответствующего требованиям рабочего места (должности); создание условий для мобильности работника, как предпосылки лучшего альтернативного использования труда и обеспечения занятости; возможности для продвижения работника, как условия формирования мотивации и удовлетворенности трудом.

Действительно, меняя профессиональную направленность подготовки, уровень квалификации, а также осуществляя первичную подготовку для

конкретных рабочих мест, организация может обеспечить полное соответствие структуры работников структуре рабочих мест с учетом всего спектра требований, предъявляемых к качеству рабочей силы.

На сегодняшний день вопросы качества работы персонала в организациях значительно расширяются. Это, прежде всего, связано с ослаблением роли государственного регулирования подготовки квалифицированной рабочей силы через систему профессионально-технического образования, а также с переподготовкой высвобождаемой части рабочей силы, повышением значимости процессов перемены труда, с ориентацией предприятий на удовлетворение потребности в квалифицированной рабочей силе за счет собственных работников.

Трудовые ресурсы — это рабочая сила, у которой есть огромное отличие от других ресурсов. Так, наёмные сотрудники могут просить изменений в условиях труда или, при ненадлежащем выполнении данной просьбы, увольняться, что порой создаёт проблемы для работодателя. Но в то же время трудовые ресурсы — это ещё и огромный потенциал предприятия в частности и общества в целом, ведь работающие люди используют средства труда для того, чтобы преобразовывать материальные ресурсы в продукты, услуги.

Именно поэтому так важно уделять должное внимание работе с персоналом, тем более что от качества организации труда зависит и организация производства. А от эффективности использования трудовых ресурсов зависят успех работы компании и её прибыль.

Наладить трудовые отношения в бизнесе бывает непросто: надо уметь подбирать персонал, оперативно привлекать его в производственный процесс или должность, предлагать оптимальную систему заработной платы, правильно мотивировать, чтобы человек хотел расти и развиваться (это положительно повлияет и на рост компании). Решить все эти сложности помогает систематизация бизнеса.

Сложность определения производительности труда состоит в проблеме измерения этого показателя. Разнообразие показателей производительности труда обусловлено возможностями использования различных вариантов исчисления, как числителя (в натуральных, трудовых или стоимостных показателях), так и знаменателя (численность персонала, отработанное время, заработная плата). Однако, окончательные выводы относительно эффективности, его уровня и динамики, можно делать лишь на основе анализа показателей, исчисленных с помощью как натуральных, так и стоимостных показателей труда.

Когда на рабочих местах, в бригадах производится разнообразная и часто меняющаяся продукция, то объем продукции и выработку определяют в неизменных норма-часах, т.е. используют трудовой метод исчисления производительности труда. Такой метод измерения производительности труда возможен лишь на определенных рабочих местах, участках, но не по предприятию в целом.

Кадровая политика организации при подготовке кадров имеет различную направленность, которая нацелена на подготовку узкоспециализированных рабочих, умеющих выполнять одну или две

конкретные операции, так же на подготовку рабочих широкого профиля на базе серьезной теоретической подготовки. Не секрет, что главной проблемой организации или предприятия заключается в сокращении текучести кадров.

Из многочисленных методов обучения сотрудников, наиболее значимыми считаем следующие методы: рабочие инструкции, которые не требуют специального или длительного обучения; переходное обучение на курсах с использованием тренажеров; имитацию — аналогию или воспроизведение реальной системы, если обучение сопряжено с опасностью или отличается большой сложностью (например, подготовка летчиков); ролевые игры; фильмы, телепередачи и лекции для расширения кругозора и улучшения мыслительного процесса; дискуссии; ротацию — временное использование кадров на других постах (важна для обучения менеджеров); использование персонала, особенно менеджеров, для работы в других отраслях промышленности (аутсорсинг); дистанционное обучение [4].

Из всего выше перечисленного можно сделать вывод, что каждый человек в организации должен строго выполнять свои функциональные обязанности в соответствии с занимаемой должностью. От этого будет зависеть и объем, и своевременность выполнения работ, и использование технологии, получаемая прибыль предприятия и ряд других экономических показателей.

Использованная литература:

1. Анализ хозяйственной деятельности в промышленности: Учебник / Богдановская Л. А., Виногород Г. Г., Мигун О. Ф. и др.; Под общ. ред. В. И. Стражева — 2-е изд., стереотип. — Мн.: Выш.шк., 2016. 363с.
2. Коротков А. В., Синяев И. М. Управление маркетингом: учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по специальности 061500 «Маркетинг» — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: ЮНИТИ-ДАНА. 2015 463 с. Маслов Е. В.
3. Управление персоналом предприятия. — М.: Инфра-М, 2019. 295 с.
4. Управление организацией: Учебник / Под ред. А. Г. Поршнева. З. П. Румянцевой — 2-е издание, Москва, 2020. 282 с.

O`ZBEKISTONDA MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA`MINLASHDA JAHON MAMLAKATLARI BILAN HAMKORLIK MUNOSABATLARINI O`RNATISHDAGI O`RNI

Sadriddinova Sevinchxon Sadriddin qizi¹

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Magistratura 1-kurs talabasi

sadriddinova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolqamizda O`zbekiston Respublikasining iqtisodiy holati, iaqtisodiy tashkilotlar va chet el davlatlari bilan aloqalari tahlili ko`rsatilgan.

Shuningdek, hozirgi kunda mamlakatimiz bilan hamkorlik aloqalarini o`rnatgan horij mamlakatlari bilan munosabatlari tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: savdo, tashkilotlar, eksport, import, kelishuvlar, hamkorlik, savdo aylanmasi, investitsiyaviy jozibadorlik, aloqalar.

Abstract. Our article shows the analysis of the economic situation of the Republic of Uzbekistan, economic organizations and relations with foreign countries. Also, relations with foreign countries that have established cooperation relations with our country are analyzed.


Keywords: trade, organizations, export, import, agreements, cooperation, trade turnover, investment attractiveness, relations.

Mamlakatimizda mustaqillikka erishganimizdan so`ng jahon miqyosida o`z o`rni va so`ziga ega bo`ldi va bir qancha mamlakatlar va 40 ga yaqin tashkilotlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan kelishuvlar imzoladi. Jumladan, 1991-yilda MDH davlatlararo tashkilotini tuzishning ta`siri katta o`rin tutdi. Bu tashkilotda 9 mustaqil davlat a`zo bo`lib, ushbu tashkilotning asosiy maqsadi davlatlarning inson huquqlari va erkinliklarini ta`minlash, tashqi siyosatni yo`lga qo`yish, umumiy iqtisodiy munosabatlarni yuzaga keltirish, transport va aloqa tizimini davlatlarga rivojlantirish, aholi farovonligini turmush darajasini oshirish va atrof muhitni muhofaza qilish, shuningdek, ijtimoiy masalalar va immigratsiya siyosati, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, mudofaa siyosatida hamkorlik qilish va tashqi chegaralarni qo`riqlashda birgalikda faoliyat yuritishni nazarda tutadi[1].

Hozirgi kunda, MDH davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlik keng rivojlangan, ya`ni O`zbekiston savdo aylanmasining beshdan to`rt qismidan ko`p qismi ushbu mamlakatlar bilan amalga oshiriladi. Asosiy eksport mahsulotimiz bo`lgan paxta, gaz, neft, qishloq xo`jaligi mahsulotlari, gazlama, paxta tolasi va rangli metallar hisoblanadi[2]. 2020-yilda bo`lgan koronavirus pandemiyasi davriga qaramasdan O`zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o`zaro savdo aylanmasining hajmi 5 mlrd. dollarni tashkil etdi. Shu jumladan, mamlakatimizning umumiy tashqi savdo aylanmasida Markaziy Osiyo davlatlarining ulushi 2019 yildan 12,4% dan, 2020-yil 13,6% ga oshdi. Qo`shni davlatlarimiz bilan o`rnatilayotgan mana shunday savdo-iqtisodiy munosabatlarning yaxshilanishi investitsiyaviy jozibadorlik muhitini yaxshilashga va tashqi savdo aylanmasining rivojlanishiga olib keladi[3].

O`zbekiston Respublikasi 2020 yilning dekabr oyida Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomini oldi. Ushbu uyushma bilan mamlakatimiz eng yaqin savdo-iqtisodiy aloqalarni yo`lga qo`yib, qo`shni mamlakatlar bilan aloqalarni yanada mustahkamlaydi. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi davlatlarning 2020 yilda O`zbekiston bilan savdo aylanmasi qariyb 10 mlrd. dollarni tashkil etdi. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlarining ulushi O`zbekiston umumiy tovar eksportining 30-31% ini, import esa 32,9% ni tashkil etdi. 2019 yilda mamlakatimiz umumiy qiymati 9,42 mlrd. dollarlik mahsulot eksport qildi, shundan 2,83 mlrd. dollarlik mahsulot YeOII hududiga yetkazib berilgan. O`zbekiston to`qimachilik, metallurgiya va kimyo sanoati mahsulotlari, oziq-ovqat, birinchi o`rinda, mevasabzavot mahsulotlarini eksport qiladi. Respublikamizda, qurilish materiallari, yog`ochni qayta ishlash mahsulotlari, qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari sut

va go'sh mahsulotlari YeOII dan import qilinadi. YeOII ga yanada integratsiyalashgan holda O'zbekiston tashqi bozorlarga chiqishda, yanada aniq qilib aytganda, Vetnam, Eron, Serbiya va Singapur davlatlari bilan savdo qilishda yanada qulay sharoitga ega bo'ladi[4].




1- rasm. 2022 yilning yanvar-oktabr oylari yakunida O'zbekiston YeOII davlatlari bilan tashqi savdo ulushi

Manba: Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi

Rossiya bilan tashqi savdo aylanmasi 7,5 mlrd. dollarni yoki 27,1% ni tashkil etdi. Shundan, eksport 2,5 mlrd. dollarni, import 5 mlrd. dollarni tashkil etdi. Qozog'iston bilan 3,7 mlrd. dollarni yoki 17,7% ni, shundan eksport 1,1 mlrd. dollarni, impoer 2,6 mlrd. dollarni tashkil etdi. Shuningdek, Qirg'iziston bilan tashqi savdo aylanmasi 990 mln. dollarni shundan eksport 773 mln. dollarni, import esa 217 mln. dollarni tashkil etgan. Belarussiya bilan savdo munosabatlari 420 mln. Dollarni shundan eksport 94 mln. dollar, import esa 326 mln. dollarni tashkil etgan.

Shu bilan birgalikda, iqtisodiyotni rivojlantirish va jahon davlatlari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish uchun BMT, YeXHT, SHHT, OPEK, JST, BMT va IHT tashkilotlariga a'zo hisoblanadi. Jahon mamlakatlari bilan munosabat o'rnatish O'zbekiston uchun muhim hisoblanadi. Shuningdek, mamlakatimiz dunyoda muhim o'rin egallash uchun Jahon savdo tashkiloti va Yevropa Ittifoqida ham o'z o'rnini kuzatuvchi sifatida egallab kelmoqda. Ya'ni shuni aytib o'tishimiz joyizki, davlatimizning eksport salohiyatini kuchaytirish va chet el mamlakatlari bilan munosabatlarni sog'lom tarzda o'rnatishimiz uchun ushbu keltirib o'tilgan tashkilotlarga a'zoligimiz katta ahamiyat kasb etadi[5]. 2020-yildan boshlab Yevropa Ittifoqi "O'zbekiston tashqi savdosiga ko'maklashish" loyihasini amalga oshirib kelmoqda. Ushbu loyiha O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi uchun zarur bo'lgan tartiblarni bajarish uchun texnik yordam ko'rsatishni ham o'z ichiga oladi. Yevropalik investorlarning O'zbekistonga investitsiya kiritish qiziqishlari ham ortib bormoqda. Shunday qilib, Yevropa davlatlari kapitali ishtirokidagi qo'shma korxonalar soni 2017-yildan buyon 2,4 barobarga oshib, 440 tadan 1052 taga yetdi, ulardan 300 dan ortig'i 100% Yevropa kapitali ishtirokida[6].



2- rasm. O`zbekistonning YeI mamlakatlari bilan tashqi savdo ko`rsatkichlari (mlrd. dollar)

Manba: Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi

Jumladan, ushbu ko`rsatilgan besh yilda O`zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi 50,5 foizga o`sib, 2,6 milliard dollardan 3,9 milliard dollarga, eksport 39,2 foizga o`sib, 400,7 million dollardan 557,7 million dollarga, import 52,6 foizga o`sib, 2,2 milliard dollardan 3,3 milliard dollarga yetdi. Shu bilan birga, o`zaro savdodagi salbiy saldo 55,6 foizga oshib, 1,8 milliard dollardan 2,8 milliard dollarga yetdi. 2021-yilda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ulushiga O`zbekiston umumiy savdo aylanmasining 9,2 foizi, umumiy eksportining 3,3 foizi va jami importining 13 foizi to`g`ri kelgan.

Amaldagi Sheriklik va hamkorlik to`g`risidagi Bitimga (ShTK) muvofiq, Yevropa Ittifoqi va O`zbekiston bir-birlariga quyidagilarga nisbatan eng qulay davlat rejimini taqdim etadilar:

- import va eksportga qo'llaniladigan bojxona to'lovlari va soliqlar.
- import qilinadigan tovarlarga qo'llaniladigan to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita soliqlar.
- ichki bozorda tovarlarni sotish, sotib olish, tashish, tarqatish va ulardan foydalanish bilan bog'liq qoidalar.

Yevropa Ittifoqi O`zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish arizasiga ham texnik yordam ko`rsatmoqda[7].

O`zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasida asosiy savdo hamkorlari quyidagilardir:

- Germaniya — 765,7 million dollar (umumiy savdoning 19,7 foizi);
- Litva — 505 million dollar (13 foiz);
- Italiya — 430,3 million dollar (11,1 foiz);
- Niderlandiya — 287,6 mln dollar (7,4 foiz);
- Fransiya — 280,8 mln dollar (7,2 foiz);
- Polsha — 249 mln dollar (6,4 foiz);
- Latviya — 232,7 mln dollar (6 foiz);
- Chexiya — 199,3 mln dollar (5,1 foiz);
- Ispaniya — 157,8 mln dollar (4,1 foiz);

- Vengriya — 115 mln dollar (3 foiz);
- Avstriya — 105,9 mln dollar (2,7 foiz) va boshqalar.

O`zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan aloqalari yaxshilanishi va eksport ulushi oshganligi katta ko`rsatkich bo`lib hisoblansada, importning eksportdan kattaligi muammo bo`lib qolmoqda.

Xulosa qilib shuni ta`kidlashimiz lozimki, O`zbekiston Respublikasi jahon mamlakatlari va tashkilotlari bilan qilayotgan munosabatlari mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishida, aholi farovonligi ko`rsatkichlarini yaxshilashda va davlatlar bilan tinchlik, xavfsizlik va adolatli munosabatlarni yo`lga qo`yishda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan ko`plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar bilan muhim strategik aloqalar o`rnatmoqda. Jumladan, Xitoy, AQSH, Rossiya, YeI mamlakatlari, Yaponiya va boshqa davlatlar bilan investitsion va iqtisodiy aloqalarni o`rnatib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Рахимов, Ш. Рахматуллаев, Р.Турсунова, Р. Назаров " Очерки новейшей истории Узбекистана", Т. "Адабиёт учкунлари" 2016. С. 311.
2. Q.A.Isayev. Xalqaro iqtisodiyot. Darslik -Т.: “INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI”-2021, 376-b
3. В.Е.Мамарaximov. Global iqtisodiy rivojlanish. Darslik. - Т.: «INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI» - 2021, 364 bet.
4. <https://www.cer.uz/uzc/post/civil/torgovla-uzbekistana-s-eaes-2>
5. Киргизбоев А. Узбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги. - Т.: Фан, 2004. - Б.68.
6. <https://daryo.uz/2022/11/02/ozbekistonning-yevropa-ittifoqi-davlatlari-bilan-savdo-alloqalari-qanday-kechmoqda>
7. https://www.eeas.europa.eu/uzbekistan/y%D0%B7%D0%B1%D0%B5%D0%BA%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%B0%D0%BD-%D0%B8-ec_ru?s=233#9134
8. Макроэкономика: Продвинутый уровень: Курс лекций / Бродский Б. Е. - М.: Магистр, НИЦ ИНФРА-М, 2016. - 336 с.
9. Общая экономическая теория: Учебник / А.Ю. Воронин; Под общ. ред. А.Ю. Воронина. - М.: НИЦ ИНФРА-М, 2014. - 518 с.:
10. <https://strategy.uz/index.php?news=1278>

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI MODERNIZATSIYASI, BARQAROR IQTISODIYOT VA JAHON MAMLAKATLARI BILAN XALQARO HAMKORLIK MASALALARI

Sultonov Dostonbek¹

¹*O'zDSMIFMF, "Dramatik teatr rejissorligi"*

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekistonning iqtisodiyotini modernizatsiya qilish yo'lidagi sayohatiga bag'ishlangan bo'lib, barqaror rivojlanish va xalqaro hamkorlikning ahamiyatiga urg'u beradi. Unda O'zbekistonning iqtisodiy islohotlariga oid mavjud adabiyotlar tahlil qilinadi, modernizatsiya qilish usullari o'rganiladi, erishilgan natijalar taqdim etiladi va xalqaro hamkorlikning natijalari muhokama qilinadi. Maqola O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha kelgusidagi strategiyalarga oid takliflar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, modernizatsiya, barqaror iqtisodiyot, xalqaro hamkorlik, iqtisodiy rivojlanish.

Tarix va resurslarga boy mamlakat bo'lgan O'zbekiston o'zining iqtisodiy manzarasida sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Modernizatsiyaga e'tibor qaratgan holda, mamlakat xalqaro sheriklar bilan hamkorlikni rivojlantirish bilan birga barqaror iqtisodiy o'sishga erishishga intilmoqda. Ushbu maqolada O'zbekistonni modernizatsiya qilish borasidagi sa'y-harakatlarning ko'p qirrali jihatlari ko'rib chiqilib, uning iqtisodiy kelajagini shakllantirishda barqaror amaliyot va global hamkorlik muhimligi ta'kidlangan.

O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish bo'yicha mavjud adabiyotlar mamlakat oldida turgan muammolar va imkoniyatlar haqida qimmatli tushunchalar beradi. Tadqiqotlar qishloq xo'jaligi va paxta ishlab chiqarish kabi an'anaviy tarmoqlardan texnologiya va ishlab chiqarish kabi yanada dinamik tarmoqlarga diversifikatsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, olimlar barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun siyosiy islohotlar, institutsional mustahkamlash va inson kapitaliga investitsiyalar muhimligini ta'kidlaydilar.

O'zbekistonni modernizatsiya qilish borasidagi sa'y-harakatlarni baholash uchun ushbu tadqiqotda aralash usul qo'llaniladi. Miqdoriy tahlil YAIM o'sishi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) oqimi va bandlik darajasi kabi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Sifatli usullarga modernizatsiya jarayoni to'g'risida har tomonlama tushunchaga ega bo'lish uchun hukumat siyosati, sanoat hisobotlari va ekspert xulosalarini ko'rib chiqish kiradi.

So'nggi yillarda Markaziy rejadan bozorga yo'naltirilgan tizimga o'tishga qaratilgan sa'y-harakatlar bilan O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqsadga erishish uchun bir nechta tashabbuslar amalga oshirildi:

- Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish: O'zbekiston o'z iqtisodiyotini paxtachilik va tog' - kon va gaz kabi qazib olish tarmoqlariga katta bog'liqlikdan uzoqlashtirish ustida ish olib bormoqda. Qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish, turizm va texnologiya kabi sohalarni rivojlantirishga harakat qilindi.

- Infratuzilmani rivojlantirish: transport, energetika va telekommunikatsiyalarni o'z ichiga olgan infratuzilma loyihalariga katta sarmoyalar kiritildi. Bu iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun juda muhimdir.

- Ishbilarmonlik muhitini yaxshilash: tadbirkorlikni rag'batlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga

qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Bunga qoidalarni soddalashtirish, byurokratiyani kamaytirish va shaffoflikni oshirish kiradi.

- Barqaror rivojlanish: O'zbekiston barqaror rivojlanish, jumladan, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy mas'uliyat muhimligini alohida ta'kidlab kelmoqda. Qayta tiklanadigan energiya manbalarini targ'ib qilish, ifloslanishni kamaytirish va resurslarni boshqarishni yaxshilash bo'yicha harakatlar olib borilmoqda.

- Xalqaro hamkorlik: O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashish maqsadida boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirishga faol intilmoqda. Bunga Evroosiyo iqtisodiy Ittifoqi va kamar va yo'l tashabbusi kabi mintaqaviy integratsiya tashabbuslarida ishtirok etish, shuningdek Evropa, Osiyo va undan tashqaridagi mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini izlash kiradi.

- Savdoni erkinlashtirish: O'zbekiston savdoni erkinlashtirish, xalqaro savdo va investitsiyalar yo'lidagi to'siqlarni kamaytirish bo'yicha siyosat olib bormoqda. Bunga turli mamlakatlar bilan savdo shartnomalarini imzolash va bozorga kirishni oshirish va eksportni rivojlantirish uchun mintaqaviy savdo bloklariga qo'shilish kiradi.

Umuman olganda, O'zbekistonning iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, barqarorlikni ta'minlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish borasidagi sa'y-harakatlari uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash, turmush darajasini oshirish va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashishga qaratilgan.

O'zbekistonning modernizatsiya borasidagi muvaffaqiyatlari uning xalqaro hamjamiyat bilan hamkorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Mamlakat tajriba, texnologiya va investitsiyalardan foydalanish uchun global institutlar, qo'shni davlatlar va rivojlanayotgan bozorlar bilan faol hamkorlik qilmoqda. Energetika, transport va savdo-sotiqni osonlashtirish kabi sohalardagi hamkorlik O'zbekistonning mintaqaviy va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuviga yordam berdi, uning jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini oshirdi.

Xulosa va takliflar:

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga intilishi barqaror rivojlanish va farovonlik uchun katta va'da beradi. Biroq, muammolar, jumladan, tarkibiy muammolarni hal qilish, innovatsiyalarni rivojlantirish va inklyuziv o'sishni ta'minlash zarurati qolmoqda. Tezlikni saqlab qolish uchun siyosatchilar oshkoralik, hisobdorlik va qonun ustuvorligini ta'minlaydigan islohotlarga ustuvor ahamiyat berishlari kerak. Bundan tashqari, savdo bitimlari, qo'shma korxonalar va bilim almashish tashabbuslari orqali xalqaro sheriklar bilan yaqin aloqalarni rivojlantirish O'zbekistonning to'liq iqtisodiy salohiyatini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aslida, O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish davlat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati manfaatdor tomonlarining birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladigan murakkab, ammo o'zgaruvchan safardir. O'zbekiston barqaror amaliyot va xalqaro hamkorlikni qamrab olgan holda, yanada farovon va barqaror kelajak sari yo'l ochishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. —2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida F-5024-son Farmoni. 2017 yil 15 avgust.

2. Z.Yo‘ldoshev , X.Xalilova “Milliy va jahon iqtisodiyoti” (o‘quv qo‘llanma) Toshkent-2013

3. Sayfiddin Jo‘rayev. O‘zME . Birinchi jild . Toshkent-2000

4. Байдурын М.С. Обеспечения экономической безопасности ЕАЭС на основе развития экономической интеграции стран СНГ. //Диссертация на соискания ученой степени доктора экономических наук. Москва 2017.

5. Бузрукова Г.Д. Влияние интеграции на экономическую безопасность Российской Федерации. –М.: 2010.

6. Болгова И., Никитина Ю. Евразийский экономический союз между интеграцией и суверенитетом. //Журнал Современная Европа, 2019, №5, -С 13-22

TURIZM SOHASIDA INTERAKTIV XIZMATLARNI VEB-SAYT, MOBIL ILOVA VA CHATBOTLAR SHAKLIDA MIJOZLARGA XIZMAT KO‘RSATISHNI SHAKILLANTIRISH

Normamatov Ozodbek Nodir o'g'li¹

¹*Termiz davlat universiteti kompyuter tizimlari
va ularning dasturiy taminoti 2 - kurs magistranti*

E-mail: ozodbeknormamatov2020@gmail.com

Annotatsiya. Turizm sohasidagi interaktiv xizmatlar, veb-saytlar, mobil ilovlar va chatbotlar shakllarida mijozlarga xizmat ko'rsatish uchun kritik ahamiyatga ega. Bu xizmatlar, turizm kompaniyalari va agentliklari uchun mijozlarga tez va qulay turizm tajribasi taqdim etish va ularning talablari va ehtiyojlari bo'yicha shaxsiy xizmatlarni taklif etish imkonini taqdim etadi. Turizm sohasidagi interaktiv xizmatlarni mijozlarga samarali va innovatsion xizmatlar taqdim etishning muhimligini ko'rsatadi va turizm sohasidagi yangilik va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali kompaniyalar uchun qanday imkoniyatlar taqdim etishini o'rganishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: ilovalar, veb-saytlar, chatbotlar, turistik, interaktiv.

Kirish. Turizm sohasida interaktiv xizmatlarni veb-sayt, mobil ilova va chatbotlar shakllarida mijozlarga xizmat ko'rsatishni shakillantirish, sayohat agentligi, mehmonxona, restoran yoki boshqa turizmga oid kompaniyalarning diqqatini jalb qilish uchun kritik muhimlikka ega. Bu xizmatlar, mijozlar uchun oson, tez va qulay turizm tajribasini ta'minlash, ularning savollarni tez javob berish va ularning talablari va ehtiyojlari bo'yicha shaxsiy xizmatlarni taklif etish imkonini taqdim etadi. Veb-sayt, kompaniyangizning to'liq xizmatlarini taqdim etish,

mahsulotlarni va xizmatlarni ko'rsatish, rezervatsiyalar qabul qilish va ma'lumotlarni taqdim etish uchun qulay platforma bo'ladi. Mobil ilova, mijozlarga ishonchli turizm tajribasini taqdim etish uchun qulay va xavfsiz platforma bo'ladi. Chatbotlar esa, mijozlar bilan boshqaruvni mustahkamlash, ularning savollarini va talablari bo'yicha avtomatik javob berishga yordam beradi va mijozlar bilan ko'rsatilayotgan shaxsiy aloqani yaxshilaydi[1].

Shuningdek, interaktiv xizmatlarni taqdim etishning juda muhim qismi, mijozlarning shaxsiy xizmatlar uchun aloqani ta'minlash va ularning talablari va ehtiyojlari bo'yicha xizmat ko'rsatishdir. Bu, mijozlarga maxsus tadbirlar, turar joylar va ovqatlanish joylarni taklif etish orqali ularning sayohat tajribasini pasayishga yordam beradi. Keyinchalik, mijozlarning fikrlarini va qayta qidiruvlarni qabul qilish, ularning turizm shirkati yoki markasi bilan birlashishini ta'minlash uchun muhimdir[2].

Jamiyatimizda turizm sohasida interaktiv xizmatlar o'zaro raqobat ko'rsatishga imkon beradi va mijozlarga ko'proq qulaylik va xizmat ko'rsatishga yordam beradi. Bu esa, kompaniyangizning muvaffaqiyatiga va mijozlarning turizm tajribasiga samarali va o'ziga xos qilishga yordam beradi[3].

Mijozlarni aniqlash va ma'lumotlarni to'plash. Veb-sayt, mobil ilova va chatbotlar orqali mijozlarni tanib olish uchun foydalanuvchilar haqidagi ma'lumotlarni to'plab olish kerak. Bu, saytga kirish sahifasida yoki chatbotdan birinchi so'rovlar bilan boshlanadi.

To'g'ri, mijozlarni aniqlash va ma'lumotlarni to'plash muhim jarayonlardan biridir va turizm sohasidagi interaktiv xizmatlarni taqdim etishda juda muhim rol o'ynaydi. Bu, veb-sayt, mobil ilova va chatbotlar orqali amalga oshirilishi mumkin.


Saytga kirish sahifasi. Veb-saytingizning kirish sahifasida mijozlarni aniqlash va ma'lumotlarni to'plash uchun foydalanuvchilardan asosiy ma'lumotlarni so'rang. Bu ma'lumotlar ish faoliyati, sayohat manzillari, buyurtma qilishni istagan sifati va boshqa shaxsiy ma'lumotlar bo'lishi mumkin[4].

Chatbotlar orqali. Saytning chatbot qismida yoki aloqa sahifasida, foydalanuvchilarga mijozlik maqsadlari, qiziqishlari va talablari haqida savollar yuboriladi. Chatbotlar mijozlar bilan avtomatik muloqot olib, ularning talablari va istaklarini aniqlashga yordam beradi.

Mobil ilova orqali. Mobil ilova yordamida ham mijozlarni aniqlash va ma'lumotlarni to'plash mumkin. Ilk yuklanish paytida foydalanuvchilardan shaxsiy ma'lumotlarni so'rang va turizmga qiziqishlarini, yoqtirgan sayohat manzillarini va turar joylarini aniqlang[5].

Analitik ma'lumotlar. Mijozlar to'plangan ma'lumotlardan tahlil qilish va analitik ma'lumotlar olish, ularning sayohat preferanslarini, qiziqishlarini va talablari haqida tushuntiruvchi tahlil qilishning muhim qismidir. Bu, turizm kompaniyalari uchun mijozlarga mos xizmatlar taklif etishda yordam beradi.

Mijozlarni aniqlash va ma'lumotlarni to'plash, turizm sohasidagi interaktiv xizmatlarni turli shakllarda mijozlarga xizmat ko'rsatishning boshlang'ich qadami bo'lib, mijozlarga shaxsiy va qulay xizmatlarni taklif etishning asosiy qismidir. Bu jarayon, turizm kompaniyalari uchun mijozlarga qulaylik, samarali xizmatlar va turizm tajribasini yaxshilashning asosiy vositasini yaratishda katta ro'la ega[6].



1-rasm(Veb-sayt, mobil ilova va chatbotlar orqali mijozlarni tanib olish)

Mijozlar bilan interaktiv muloqot. Chatbotlar orqali mijozlar bilan interaktiv muloqot olib borish. Bu, mijozlarga turar joylar, mehmonxonalar, restoranlar, ko'ngilochar joylar va boshqa turizm obyektlari haqida ma'lumot berishni o'z ichiga oladi.


Mijozni tanishish. Chatbotlar birinchidan mijozlarni tanishish uchun asosiy ma'lumotlarni so'raydi. Bu ma'lumotlar o'rtacha tadbirkorlik so'rovlari bo'lishi mumkin, masalan, ism, familiya, manzil va boshqa shaxsiy ma'lumotlar.

Turizm obyektlari haqida ma'lumotlar. Chatbotlar mijozlarga turizm obyektlari haqida ma'lumot berish uchun so'rovlar yuborishadi. Bu ma'lumotlar mehmonxonalar, restoranlar, turar joylar, ko'ngilochar joylar, shahar qurilmalari va boshqalar haqida bo'lishi mumkin.




2-rasm(orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish)

To'lov tizimi. Saytda to'lov tizimi integratsiyasi yordamida mijozlar to'lovni tez va qulay qilishlari mumkin bo'ladi. Bu, elektronik to'lovlar, kartalar orqali to'lov qilish imkoniyatini taqdim etishni o'z ichiga oladi.



3- rasm(to'lov tizimi)

Sayt va ilovada xaritalar va yo'lnomalar. Turizm obyektlari, mehmonxonalar va boshqa joylar haqida ma'lumot berishda xaritalar va yo'lnomalar integratsiyasi yordamida mijozlar uchun yo'lni osonroq aniqlashlarini taqdim etish mumkin.



4- rasm(sayt va ilovada xaritalar va yo'lnomalar)

Foydalanuvchilar uchun shaxsiy hisoblar. Saytda yoki mobil ilovada mijozlar uchun shaxsiy hisoblar yaratish, ularning buyurtmalarini, joylashgan joylarini va to'lov tarixlarini saqlashga imkon beradi.

Foydalanuvchilar uchun shaxsiy hisoblar yaratish, sayt yoki mobil ilova orqali mijozlar uchun qulaylik va samarali xizmatlar taklif etishning muhim qismidir. Shaxsiy hisoblar yaratish, mijozlarga xizmatni individual ravishda taqdim etish imkonini ta'minlaydi. Quyidagi qadam-qadam ma'lumotlar mijozlar uchun shaxsiy hisob yaratish jarayonini amalga oshirishda yordam beradi. Mijozlar sayt yoki mobil

ilova orqali ro'yxatdan o'tish uchun shaxsiy ma'lumotlarni kiritishlari kerak bo'ladi. Bu ma'lumotlar odatda ism, familiya, elektron pochta manzili, telefon raqami va boshqa shaxsiy ma'lumotlardan iborat bo'ladi. Mijozlar ro'yxatdan o'tgandan so'ng, shaxsiy hisoblar yaratiladi va ularning ma'lumotlari saqlanadi. Bu, mijozlarning buyurtmalarini qabul qilish, joylashgan joylarini saqlash, to'lov tarixlarini saqlash va boshqa xizmatlardan foydalanishga imkon beradi. Mijozlar shaxsiy hisoblar orqali buyurtma berish va mehmonxona, restoran yoki boshqa turizm obyektlariga rezervatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shaxsiy hisoblar sayesida, ular buyurtmalarini va rezervatsiyalarini boshqarish, o'zgartirish va bekor qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shaxsiy hisoblar, mijozlar uchun to'lov tarixlarini saqlash imkonini taqdim etadi. Bu, mijozlarning to'lovlarini tekshirish, qayta qayta foydalanish, to'lov qilish va to'lovlarni boshqarish uchun qulayliklar yaratadi.

Aloqa va qo'llab-quvvatlash. Chatbotlar orqali mijozlar bilan turizm bo'yicha savollarini javoblash va ularning takliflariga qo'llab-quvvatlash imkoniyatini taqdim etish. Bu, mijozlarga turizm saytlarining va ilovlarining foydalanishida yordam berishga yordam beradi.



5- rasm(aloqa va qo'llab-quvvatlash)

Maqbullik va sharhlar. Mijozlar uchun qulaylik va maqbullikni ta'minlash maqsadida, sayt va mobil ilova orqali turizm joylari haqida fikrlarni qoldirish uchun sharhlar bo'lishi mumkin bo'ladi. Bu, boshqa foydalanuvchilar uchun qulaylik va boshqa mijozlarga ma'lumotlar taqdim etish uchun foydalaniladi.

Xulosa. Turizm sohasida interaktiv xizmatlarni veb-sayt, mobil ilova va chatbotlar shakllarida mijozlarga xizmat ko'rsatishni shakllantirish, mijozlarga qulaylik, ma'lumotlar va aloqa imkoniyatlarini taqdim etish orqali sayt va ilovlarning foydalanishini osonroq va qulay qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Normamatov, o. (2024). Hududlar turizm sohasida interaktiv xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirish. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 4(1), 43-46.

2. Ergashevich, e. A., & jamshed o'g'li, i. Q. (2023). Turizm sohasida geoaxborot tizimlarining qo'llanilishi. Journal of innovation in education and social research, 1(4), 200-202.

3. Nabiyev, r. (2023). Ichki turizmda onlayn-gid xizmatlarini rivojlantirish. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 3(11), 52-55.

4. Abdulkhaeva, n., hamidova, s., mamatkodirova, s., & ahmedova, m. (2021). Turizm va mehmondo'stlikdagi texnologiyalarning rivojlanishi va uning ahamiyati. Интернаука, (18-5), 57-59.

5. Yusupovna, r. N. (2023). Yashil turizm sohasida aholi savodxonligini oshirish masalalari. Science and innovation, 2(special issue 14), 528-534.

6. Xalimova, f. N. (2022, october). Onlayn turizm xizmatlarini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillari. In international scientific conferences with higher educational institutions (vol. 1, no. 25.10, pp. 350-355).

TALABALARDA ICHKI TURIZMDA ONLAYN GID XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

Nabiyev Raxim Azimovich

¹Termiz Davlat Univeristeti Kompyuter tizimlari va ularning dasturiy ta'minoti 2 - kurs magistranti

E-mail: raximnabiyev9@gmail.com

Annotatsiya. Bu maqolada, talabalar o'rtasida ichki turizm sohasida onlayn gid xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha malakalarni shakllantirishning muhimligi va ularning rivojlanish yo'nalishlari muhokama qilinadi. Ichki turizm sohasida onlayn gid xizmatlarining o'ziga xos ahamiyati va ularning rivojlanish bosqichi tahlil qilinadi. Maqolada, onlayn gid xizmatlarining turizm sohasidagi o'rni, ularning foydalanuvchilarga va bizneslarga taqdim etilgan imkoniyatlari, shu jumladan, sayt va mobil ilovalar orqali sayohat tadbirlarini rejalashtirish, sayohat rejalarini yaratish, ekskursiyalarni rezervatsiyalash, maqolalar va ko'rinishlar orqali sayohatchilarga qiziqarli ma'lumotlar taqdim etish kabi asosiy funktsiyalari haqida ma'lumot beriladi. Keyinchalik, talabalarga onlayn gid xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha malakalar shakllantirish uchun kerak bo'lgan ko'nikmalar, bilimlar va ko'nikmalarni oshirish bo'yicha tavsiyalar qo'llaniladi.

Kalit so'zlar: ichki turizm, onlayn-gid, mobil ilova, yorliq va ilova.

Kirish. Ichki turizm sohasida onlayn gid xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha malakalarini shakllantirish muhim va zamonaviy mavzu sifatida diqqatga sazovor. Globalizatsiya va texnologiyalarning o'zgarishi bilan birga, sayohatchilar onlayn platformalar orqali sayohatlarini tashkil etishda, mehmonga mos va qulay xizmatlarga bo'lgan talabning o'sishini ko'rishmoqdamiz. Bu kontekstda, ichki turizm sohasidagi onlayn gid xizmatlarining rivojlantirish bo'yicha malakalarini

shakllantirishga asosiy e'tibor qaratiladi. Bu malakalar, foydalanuvchilar uchun samarali va sodda sayohat tadbirlari tashkil etishda, xizmatlarni raqobatbardosh va ko'ngil ochar qilishda, tadbirlar va ekskursiyalar uchun qulay va tezroq rezervatsiyalar tashkil etishda, shuningdek, sayohatchilarga ma'lumotlar va yo'nalishlar taqdim etishda o'ziga xos texnologik, bazaraviy, va kommunikatsiya ko'nikmalari orqali rivojlantirilishi lozim. Bu mavzuga tushunchalarni izlash va yangi texnologiyalardan foydalanishning eng muhim yutuqlarini belgilash maqsadida, maqolada ichki turizm sohasidagi onlayn gid xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha malakalarini shakllantirishning asosiy qatorlarini o'rganishga urinishiladi.

❖ **Teknologiyalarni integratsiya qilish.** Ichki turizm sohasida onlayn gid xizmatlarini rivojlantirishda boshlang'ich jarayon, turizm dasturlarini va platformalarini (masalan, booking dasturlari, restoran savatchalari, virtual yo'laklar) birlashtirish bilan boshlanadi. Bu, foydalanuvchilar uchun oson va qulay bo'ladi.

Turizmga oid xizmatlar uchun booking dasturlari (masalan, mehmonxona bandliklar, transport bandliklar, aktivliklar va turlar uchun bandliklar) integratsiya qilinadi. Bu foydalanuvchilarga sayohat ildizlarini boshqarish va to'g'ridan-to'g'ri buyurtma berish imkonini ta'minlaydi[1].



1-rasm(ichki turizm tizimini avtomatlashtirish)

Restoran Savatchalari. Barcha restoranlar, kafelar va oshxona uchun onlayn bandlik tizimlari integratsiya qilinadi. Bu foydalanuvchilarga onlayn bandliklar qilish, jadval buyurtma qilish va mehmonxonaga qabul qilish imkoniyatini ta'minlaydi[2].




2-rasm(mobil telefonlar uchun buyurtmalar berish xizmati)

❖ **User Experience (Foydalanuvchi tajribasi)ni yaxshilash.** Onlayn gid xizmatlarining sifatli va moslashtirilgan tajribani takomillashtirish uchun tajribani oson va sodda qilish zarur. Bu, saytni va mobil ilovalarni foydalanuvchilar uchun aniq, oddiy va intuitiv qilishni o'z ichiga oladi.

Dizayn va navigatsiya. Sayt va ilovalarning dizayni va navigatsiyasi foydalanuvchilarga oson va aniq tajribani ta'minlashda juda muhimdir. Oddiy, minimalistik dizayn, qulay menyu strukturasi ega bo'lish, qidiruv va boshqa muhim funktsiyalarga tez va oson erishish imkonini beradi[3].

❖ **Saytlarning mobil qurilishlari.** Saytlar va ilovalarning mobil qurilishlari turistlarga sayohat davomida ham onlayn xizmatlardan foydalanish imkoniyatini beradi.



3-rasm (Onlayn gid ilovasining mobile versiyasi)

Yuqori sifatli content. Foydalanuvchilar foydalanish uchun sifatli va ma'lumotlar bilan to'ldirilgan kontentlarni kutadi. Ma'lumotlar to'g'ri, to'g'ri va o'qituvchi bo'lishi kerak, shuningdek, fotosuratlar va videolar yordamida turistik manzaralar, restoranlar, mehmonxonalarni o'zgartirishga imkon berish muhimdir.

Yuqori qidiruv funksiyalari. Foydalanuvchilar uchun to'g'ri manzillarga tez va oson yetishishni ta'minlash uchun yuqori sifatli qidiruv funksiyalari zarurdir. Bunday funksiyalar, restoranlar, mehmonxonalarni, turistik manzaralarni va boshqa muhim joylarni izlashga yordam beradi[4].

Responsive Design. Sayt va ilovalar responsive design prinsiplari asosida yaratilishi kerak, bu esa ularning mobil qurilishlarida ham aniq va qulay ko'rinishda bo'lishini ta'minlaydi. Bu, foydalanuvchilarning turizm xizmatlaridan istifoda ko'rishini yengillab, ularning har qanday qurilishda turizmga oid ma'lumotlarga erishishini ta'minlaydi.

Yorliq va ilova interfeysi. Yorliq va ilova interfeysi oddiy va oson bo'lishi kerak. Asosiy funktsiyalarga tez va oson erishish uchun qisqa yo'ldan foydalanish, menyu elementlarini juda yorqin topshirish va foydalanuvchilarning sayohatlarini tashkil etish va qabul qilish jarayonlarini osonlashtirish kerak[5].



4- rasm(Yorliq va ilova interfeysi)

Foydalanuvchi sharhlarini qo'llab-quvvatlash. Foydalanuvchi sharhlarini va reytinglarini qo'llab-quvvatlash, boshqa foydalanuvchilar uchun yaxshi bir ko'rsatma bo'lishi uchun yordam beradi. Bu, foydalanuvchilar uchun g'oyalarini o'qib, tomonlaydi va qaror qilishlariga yordam beradi.

❖ **Turistik manzaralar va ko'rsatmalar.** Ichki turizm xizmatlarini o'z ichiga olgan saytlar va ilovalar, foydalanuvchilarga shaharlar va turistik manzaralar haqida malumot bermoqda va turistlarni yo'q qilishlarini rag'batlantirishga yordam beradi.

Sayt va ilovalar foydalanuvchilarga shaharlar va turistik manzaralar haqida tafsilotli ma'lumotlar taqdim etishda juda e'tiborli bo'lishi kerak. Bu ma'lumotlar,

joyning tarixi, madaniyati, mashhur atraksiyonlari, yaxshi restoranlari va turistik aktivliklari haqida bo'lishi mumkin.

Turistik manzaralar haqida fotosuratlar va videolar foydalanuvchilarga o'z turizm tajribalarini o'rganish va qiziqtirishga yordam beradi. Mavjud manzaralar va ko'rsatmalar haqida ko'proq ma'lumot va tasvirlarni taqdim etish, foydalanuvchilarni yo'q qilishlari uchun rag'batlantirishi mumkin.

Virtual turistik ko'rsatmalar, foydalanuvchilarga turistik manzaralarni va atraksiyonlarni onlayn tarzda ko'rishga imkon beradi. Bu, foydalanuvchilarni sayohatlarini planlashish va shaharlar haqida ma'lumot olish uchun rag'batlantirishda juda samarali bo'lishi mumkin.

Sayt va ilovalar turistlar uchun yo'laklar va guruh ko'rsatmalar tashkil etish uchun xizmat qilishi mumkin. Bu, foydalanuvchilarga turistik manzaralarni keng doirada ko'rish va bu joylarga yo'l tariflashga yordam beradi.

❖ **Milliy taomlar va muzeylar uchun onlayn bandlik.** Restoranlar va muzeylar uchun onlayn bandlik tashkil etish, foydalanuvchilarga sayohat ildizlaridan oldin taom va ko'rsatmalar buyurtma qilish imkoniyatini beradi.



5-rasm(Milliy taomlar va muzeylar)

❖ **Reyting va sharhlarni qo'llab-quvvatlash.** Saytlar va ilovalar uchun foydalanuvchilar tomonidan sharhlar va reytinglar qo'llab-quvvatlanishi, boshqa sayohatchilar uchun foydalanuvchilarning tajribalarini tushunishga yordam beradi.

❖ **Xavfsizlik va ma'lumotlarni himoyalash.** Foydalanuvchilar ma'lumotlarining xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlash uchun onlayn xizmatlar katta e'tibor berishlari kerak. Bu shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, to'lov jarayonlarini xavfsiz qilish va saytga yoki ilovaga kirishni himoya qilishni o'z ichiga oladi.

❖ **Ishonchli to'lov tizimi.** To'lovlar uchun ishonchli va xavfsiz tizimlar tashkil etish, foydalanuvchilarning to'lovlarini qabul qilish va bajarish jarayonlarini ishonchli qilishga yordam beradi.

Xulosa.Bu malakalar ichki turizm sohasidagi onlayn gid xizmatlarini rivojlantirishda muhimdir. Raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun, saytlar va ilovalar foydalanuvchilarga qulay va samarali tajribani taqdim etish uchun jadal rivojlantirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мавланова, б. (2023). Turizmда raqamli marketing xizmatlari. Научно-теоретический журнал “ma'mun science”, 1(1).

2. Nabiyeva, g., nodirova, m., tohirova, d., & zayniddinova, o. (2021). Turistik yo'nalishni targ'ib qilish uchun ijtimoiy tarmoqlarga asoslangan xatti-harakatlar. Экономика и социум, (5-1 (84)), 348-357.

3. Suyunova, k. Udk: 338.48 turizmning davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo'nalishlari. Ilmiy axborotnoma, 110.

4. Zaripova, m., & nabiyev, r. (2024). Ichki turizmда onlayn-gid xizmatlarini rivojlantirishning modellari va usullari. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 4(1), 47-53.

5. Kabilova, n. (2023). Turizmда innovatsion turistik xizmatlarni ko'rsatishdan keladigan ijtimoiy-iqtisodiy samarani oshirish imkoniyatlari. Центр научных публикаций (buxdu. Uz), 39(39).

AHOLI TURMUSH DARAJASI VA UNING SIFATINI BELGILOVCHI MIQDORLAR

Xalilova Muslimaxon¹

¹Alfraganus universiteti Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo'nalishining 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar

Muxtorova U.K.²

²Alfraganus universitet iqtisodiyot fakulteti kafedra mudiri

Annotatsiya Mazkur tezisda aholi turmush darajasi xalqaro hamda O'zbekiston miqyosida rivojlanishi bo'yicha iqtisodiy ma'lumotlar berilgan. Aholi farovonligini belgilovchi asosiy omillar va ularning iqtisodiy o'sishga salbiy, ijobiy ta'sirlari tahlil qilingan. Tadqiqot ishimizda aholi farovonligi oshirishda chet el mamlakatlari tajribasidan foydalanish samaradorligi oshirish bo'yicha taklif va xulosalar berildi.

Annotation This thesis presents economic data on the international standard of living of the population and the development of Uzbekistan. The main factors determining the well-being of the population and their negative, positive impact on economic growth were analyzed. In our research work, proposals and conclusions were made to improve the effectiveness of the use of experience of foreign countries in improving the well-being of the population.

Аннотация В данной диссертации представлены экономические данные о международном уровне жизни населения и развитии Узбекистана. Проанализированы основные факторы, определяющие благосостояние населения и их негативное, позитивное влияние на экономический рост. В нашей исследовательской работе даны предложения и выводы по повышению эффективности использования опыта зарубежных стран в повышении благосостояния населения.

Kalit so'zlar: Turmush darajas, aholi farovonligi, iqtisodiy o'sish, "tur mush faoliyati xavfsizligi", "tur mush tarzi", "mehnat faoliyati sifati".

Keywords: Standard of living, population well-being, economic growth, "safety of life", "lifestyle", "quality of labor activity".

Ключевые слова: Уровень жизни, благосостояние населения, экономический рост, "безопасность жизнедеятельности", "образ жизни", "качество трудовой деятельности".

O'zbekistonda aholining moddiy, ma'naviy hamda ijtimoiy ehtiyojlari ko'rsatkichlarini ifodalaydigan "tur mush darajasi" atamasi kengroq qo'llaniladi. Unga to'liq ilmiy ta'rif beradigan bo'lsak, bu jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, qondirilganlik miqyosi va ularni qondirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir.

Aholining farovonlik darajasini ifodalash uchun "tur mush darajasi", "xalq farovonligi", "tur mush faoliyati xavfsizligi", "tur mush tarzi", "mehnat faoliyati sifati", "tur mush sifati" kabi turli xil tushunchalar qo'llaniladi. Ba'zan turli atamalar bir mazmunni anglatasa, boshqa hollarda ular o'rtasidagi farq muayyan xarakter kasb etadi, mazmuni sezilarli darajada farq qiladi. Shu bilan birga, mazkur tushunchalarning o'zaro bog'liqligini qayd etish lozim. O'zbekistonda aholining moddiy, ma'naviy, ijtimoiy ehtiyojlari qondirilish darajasini ifodalaydigan "tur mush darajasi" atamasi kengroq qo'llaniladi. Bunday tavsif ko'proq tur mush darajasi statistikasini xarakterlaydi. Shu bilan birga tur mush darajasi ko'plab omillar yig'indisi ta'sirida bo'lgan o'zgaruvchan jarayondir. Tur mush darajasi muntazam o'zgarib turadigan turli ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarning tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomondan, ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari, mehnatkashlarning ish haqi bilan belgilanadi.

Tur mush darajasi inson (aholi) hayot faoliyatining ma'lum bir qirrasini to'g'risida tasavvur beradigan ko'rsatkichlar tizimi bilan belgilanadi. Tur mush darajasi to'g'risida batafsil ma'lumot olish uchun aholi daromadlari va ehtiyojlari, iste'mol darajasi va tarkibi, uy-joy, mol-mulk, madaniy-maishiy buyumlar va boshqalar bilan ta'minlanganlik darajasini chuqur o'rganish lozim. Iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy miqdorlari qatoriga kiruvchi aholi tur mush darajasi va sifati bilan bog'liq chegaraviy miqdorlarni quydagilar o'z ichiga oladi:

-aholining umumiy sonida yashash minimumidan past daromadga ega bo'lgan fuqarolar ulishi;

-umr ko'rish uzunligi

-boy va kambag'allar daromadlari o'rtasidagi tafovut;

-ishsizlik darajasi;

Tur mush darajasi ko'rsatkichlari umumiy va xususiy turlarga ajratiladi.

Umumiy ko'rsatkichlarga:

- milliy daromad;

-iste'mol fondi (iqtisodiyot tarmoqlarining bevosita iste'molga yo'naltirilgan mahsulotlari);

-milliy boyliklar iste'mol fondi (to'plangan iste'mol mulklari – turar joylar, madaniy-maishiy binolar, buyumlar) kabilarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan

ulushi kiritiladi. Bu ko'rsatkichlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining umumiy darajasini ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasi aholisining turmush darajasi va farovonligini o'rganish maqsadida, davlat statistika organlari tomonidan har yili uy xo'jaliklarida tanlama usulda kuzatuvlar o'tkaziladi. Turar joy ta'minoti va maishiy qulayliklar;

- ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish darajasi;
- bolalarni tarbiyalash sharoitlari;
- ijtimoiy ta'minot va boshqalarni keltirib o'tish mumkin. Mazkur ko'rsatkichlar ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq, ammo aholi (mehnatkashlar)ning ma'lum guruhlari, hudud va boshqalar bo'yicha aniqlashtirilgan.

Hozirgi vaqtda yuzaga kelgan sharoitlarni hisobga olib, bozor iqtisodi sharoitlariga muvofiqlashtirilgan quyidagi yangi ko'rsatkichlar tizimi taklif etiladi:

- umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar (ichki yalpi mahsulot, iste'mol fondi, turmush qiymati indeksi va boshqalar);
- aholi daromadlari;
- aholi iste'moli va xarajatlari;
- aholining pul jamg'armalari;
- jamg'arilgan mol-mulklar va turar joylar;
- aholining ijtimoiy tabaqalanishi;
- aholining kam ta'minlangan tabaqalari.

Bu tizim ham kamchiliklardan butunlay xoli bo'lmasag'da, u sho'rolar davrida foydalanilgan tasnifga qaraganda ixcham, hisob yuritish uchun qulay va turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlarini aks ettiradi.

Iqtisodiyotda bir-biriga bog'liq bo'lgan munosabatlar borki, ularni hal qilmasdan mamlakatning farovonligini oshirish mumkin emas. Shular qatorida:

- aholi daromadlarining pasayishi;
- ishsizlikning paydo bo'lishi;
- inflyasiya va hokazo.

Aholining pul daromadi uning ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Daromadlar iste'mol tovarlari va xizmatlarni xarid etish, turli to'lovlarni to'lash, jamg'arma hosil etish uchun sarflanadi. Aholi xarajatlarining obyektiv chegarasi daromad bo'lsa, uning subyektiv chegarasi daromad egasining ehtiyojlaridan tarkib topadi. Shu tufayli daromad bir xil bo'lsada, xarajatlar tarkibi turlicha bo'ladi. Daromad qanchalik ko'p bo'lsa, oziq-ovqat uchun sarflar qisqarib, sanoat mollari va xizmatlarni xarid etish xarajatlari, chunonchi, uzoq muddat xizmat qiluvchi qimmatbaho tovarlar xaridiga pul ko'proq sarflanadi.

Shu jihatidan aholi turli toifalarining xarajatlari bir-biridan farqlanadi. Kam taminlangan oilalarda ovqatlanish xarajati ustivor bo'lsa, oziq-ovqat va boy oilalarda kiyinish, dam olish, sayohat qilish, qimmatbaho tovarlar xarid etish sarflari ustun turadi. Iqtisodiyoti rivojlangan va xalqi farovon yashaydigan mamlakatlarda aholining oziq-ovqat uchun sarflari qisqarib, minimal darajaga tushadi. Aholi xarajatlarida oziq-ovqat sarflari bilan bir qatorda, nooziq-ovqat tovarlarini xarid etish, pul jamg'arish va qimmatbaho qog'ozlarni orttirishga qaratilgan xarajatlar ham kuzatiladi.

O'zbekistonda aholining moddiy, ma'naviy hamda ijtimoiy ehtiyojlari ko'rsatkichlarini ifodalaydigan "turmush darajasi" atamasi kengroq qo'llaniladi.

Unga to'liq ilmiy ta'rif beradigan bo'lsak, bu jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, qondirilganlik miqyosi va ularni qondirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Ma'lumki, aholi turmush darajasini barchamiz aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar va iste'mol hajmi miqdorining ortishi yoki kamayishi bilan baholashga odatlanganmiz. Aslida u ancha kengroq tushuncha hisoblanadi. Lekin hozircha bu boradagi kontsepsiyalarni aholining turmush darajasi sifatini har tomonlama xarakterlab beradigan yagona ko'rsatkichga keltirish bo'yicha samarali usul mavjud emas.

Birlashgan millatlar tashkilotining tavsiyasiga ko'ra, tug'ilish, o'lim, umr ko'rish davomiyligi, sanitar-gigienik sharoitlarning mavjudligi, oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol darajasi, uy-joy, ta'lim olish va madaniy imkoniyatlar, ish sharoitlari va bandlik darajasi, daromadlar va xarajatlar muvozanati, iste'mol narxlari, transport vositalari bilan ta'minlanganligi, dam olish va hordiq chiqarish, ijtimoiy ta'minot, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanganligi kabi yo'nalishlar turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibiga kiradi.

Aholi turmush farovonligi darajasi har bir mamlakat uchun uning xalqaro maydondagi obro'ini belgilashda asosiy omil hisoblanadi. Jahon miqyosida iqtisodiy integratsiya munosabatlarida qatnashuvchi mamlakat o'z hamkorlarini tanlashda aholi farovonligi darajasini birinchi navbatda tahlil qilish orqali biror qarorga keladi. Albatta bu natijada aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar darajasi, aholi jon boshiga real yalpi ichki mahsulot darajasini oshirish orqali erishish mumkin. Mamlakatimizda bu ko'rsatkich 2022- yili holatiga ko'ra 1600 AQSH dollarini tashkil qiladi. bu natija ko'proq jahon tajribasini mamlakatimizda qo'llash orqali rivojlanishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, aholi turmush darajasi va uning sifatini belgilovchi chegaraviy miqdorlar tub ma'noda "turmush darajasi", "xalq farovonligi", "turmush faoliyati xavfsizligi", "turmush tarzi", "mehnat faoliyati sifati", "turmush sifati" kabi turli xil tushunchalar ifodasida yuritilishi ham o'z tasdig'ini topadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ushbu mavzuni iqtisodiy xavfsizlikka bog'laganda uning qator tarkib elementlarida quyidagi tushunchalarni, chegaraviy miqdorlari qatoriga kiruvchi aholi turmush darajasi va sifati bilan bog'liq chegaraviy miqdorlarni tasniflab ayta olish mumkin. Bunda, bu ko'rsatkichlar shular jumlasidandir.

1) aholining umumiy sonida yashash minimumidan past daromadga ega bo'lgan fuqarolar ulishi;

2) umr ko'rish uzunligi

3) boy va kambag'allar daromadlari o'rtasidagi tafovut;

4) ishsizlik darajasi; kabi ko'rsatkichlarga alohida e'tabor berishimiz kerak va bu ko'rsatkichlarni yaxshilashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Уровень жизни населения 2021. Statistik to'plami. – T., 2021.

2. Abdurahmonov Q. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyoti jamg'armasi nashriyoti. TDIU, 2019. – 159 b.

3. O‘zbekistonda mehnat va bandlik – 2018. – T.: O‘zbekiston, 2019.
4. Soatov N.M., Nabiyev X., Ayubjonov A. Statistika. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 543 b.
5. Ayubjonov A.H. Statistika nazariyasi, O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2021-y.
6. Soatov N.M., Ayubjonov A. Statistika nazariyasi. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2019-y.
7. Umarova M.A. Statistik tahlil. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2021-y.
8. O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2021

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA MUSIQA DARSLARINI O‘TKAZISHDA O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARINI O‘RGATISH USLUBIYOTI (BOSHLANG‘ICH SINFLAR MISOLIDA)

Raxmonova Zarifaxon Raximjon qizi
Xalqaro Nordik universiteti
Musiq ta’lim yo‘nalishi
1-MS-23 – guruh talabasi
+99890-628-71-72

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun sifatli musiqa darsini o‘tish hamda, ularga o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik bilimlarini zamonaviy metodik usullar orqali tanishtirish va o‘rgatish yo‘nalishlari tahlili, shuningdek, ushbu usullar orqali qanday natijalarga erishish mumkinligi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Umumiy o‘rta ta’lim maktabi, taraqqiyot strategiyasi, musiqa darsi, boshlang‘ich sinf, cholg‘ular, rasm, video, kreativlik, psixologiya, pedagogika, zamonaviy metodika, musiqa nazariyasi.

Davlatimiz tomonidan bugungi globallashuv jarayonida musiqa san’atiga e’tibor tobora ortib bormoqda. Jumladan, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, milliy ruhdagi asarlarni ijro etish, ijrochilik san’atini mazmunan milliy musiqiy tamoyillar bilan boyitish, tinglovchilarni milliy ohanglar, an’analar va ko‘p asrlik musiqiy meros vositasida estetik tarbiyalash muammosi shular jumlasidan bo‘lib, ular har qachongidan ham ko‘ra ko‘proq, alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Hozirgi kunda bunday imkoniyatlar yaratilishi, bir tomondan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kuy-qo‘shiqqa bo‘lgan qiziqishini oshirsa, yana bir tomondan musiqa va madaniyat muassalarida ijrochilik san’ati kabi bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantiradi. Ikkinchidan, musiqa san’ati asosida o‘quvchi shaxsining ma’naviy, axloqiy madaniyatini, milliy g‘urur va vatanparvarlik kabi xislatlarini shakllantiradi. Musiqa ijrochiligi ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o‘stiradi, fikrlash darajasini kengaytiradi. Uchinchidan, musiqa san’ati navqiron avlodimizning yuksak ma’naviyat ruhida kamol topishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mamlakatimizda musiqa san’atini keng rivojlantirishga alohida ahamiyat berilib kelinmoqda. Ayniqsa, ijrochilik san’ati

merosimizni asrab-avaylash va o'rganish, uni yosh avlodlarga bezavol yetkazish ta'minlanmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risidagi" qarorni imzoladi. Aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish, Respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy – madaniy va konsert tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish, madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab – quvvatlash, ta'lim muassasalarini milliy cholg'ular, musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv – metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish, 2022-2026 – yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ushbu say'-harakatlarning uzviy davomi sifatida ahamiyat kasb etdi.

Mazkur dasturda:

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga mazkur qarorga ro'yxatda keltirilgan milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko'nikmalari o'rgatiladi hamda bu haqda ularning ta'lim to'g'risidagi hujjatiga (shahodatnoma) tegishli qayd kiritildi;

musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o'quv soati hamda unga qo'shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish amaliy to'garaklari va fakultativ darslari o'tkaziladigan bo'ldi;

mazkur qaror ro'yxatida keltirilgan milliy cholg'ulardan kamida bittasida, 2023/2024 o'quv yilidan boshlab esa kamida uchtasida kuy ijro etish amaliy mahoratiga ega bo'lish musiqa fani o'qituvchilari uchun majburiy hisoblandi.

Muxtarram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "2022 – yil 2 – fevraldagi PQ – 112 qarori"ga asosan Umumiy O'rta ta'lim maktablarida Musiqa darsiga juda katta e'tibor berilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ushbu qarorga asosan o'quvchilarga "O'zbek xalq cholg'ulari"ni o'rgatish lozimligi ko'rsatib o'tilgan. Afsuski, juda ko'p umumiy o'rta ta'lim maktablarida bir xil deb bo'lmaydi. Ayrim maktablarda, boshlang'ich sinflarda musiqa darsini musiqa fani o'qituvchilari emas, balki, sinf raxbarlar o'tishmoqda. Boshlang'ich sinflarning musiqa fani darsligida nota, nota yo'li, pauza, o'lchovlar, nota cho'zimplari va shularga oid har xil mashg'ulotlar, qo'shiqlar berilgan. Ya'ni, Bolalar musiqa va sa'nat maktablari dasturi umumiy o'rta ta'lim maktablarida berilmoqda. Vaholangki, musiqa maktabda oladigan bilimlarni bolalar umumiy o'rta ta'lim maktablarida bemalol olishlari mumkin.

Bu holatni qanday to'g'rilash mumkin? degan savolga javob izlash, har bir soha mutaxassislarining asosiy vazifasidir. Bu holatni to'g'rilash uchun avvallambor musiqa fannini yaxshi biladigan, cholg'ular ijro qila oladigan mutaxassislarni ishga qabul qilish kerak. Boshlang'ich sinflarning musiqa darslarini sinf raxbariga emas, musiqa o'qituvchisiga berish lozim. Kasbiy tajriba, bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks ettirish yuqoridagi keltirib o'tilgan muammolar yechimi sifatida ta'kidlash imkonini beradi. Biroq, boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan kasbiy kompetensiyalar va ijodiy faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarning

integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarning yetarli darajada o'zlashtirilishi talab etiladi. Musiqa o'qituvchisi faqat musiqa nazaryasini va cholg'u ijro qilishnigina emas, psixologiyani ham yaxshi bilishi ishga qabul qilinayotganda sinovdan o'tkazilishi kerak. Musiqa fani o'qituvchisi o'quvchilarga dars berish jarayonida kreativ yondasha olishi kerak, chunki, 7–14 yoshli o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida kreativ bo'lish juda ham muhim.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ salohiyatni rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik", "kreativ yondashuv" tushunchalarining ma'nosini tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui" sanaladi. Gardner esa o'z tadqiqotlarida mazkur tushunchani quyidagicha izohlaydi: "kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim". Emebaylning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik "muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish" demakdir.

Musiqa o'qituvchisi boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'zlashtirishiga qarab turli xil usullari orqali ularga musiqa darsligida berilgan mavzularni tushuntirishi kerak. Misol uchun 1–2-sinflar uchun o'zbek xalq cholg'ularini rasmlar orqali ko'rinishini ko'rsatib berish mumkin. Cholg'udan qanday ohang chiqishini video yozuvlar orqali ko'rsatib berishi, 3-4 sinflar uchun esa haqiqiy cholg'ularni ko'rsatib, ularni ijro qilib tanishtirilsa juda a'lo bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa fanini rivojlantirish uchun ham nazariy bilimga ega ham cholg'u ijro qilaoladigan, dars jarayoniga kreativ yondasha oladigan bolalar psixologiyasini biladigan mutaxassislar bormi? degan savol ayniqsa, nomutaxassis odamlar tomonidan tug'ilishi tabiiy hol. Albatta, bunday mutaxassislar yetishib chiqishi uchun talabalarning bilim olishiga katta e'tibor qaratilishi kerak. Talabalarning bilim olishi uchun barcha sharoitlar yetarli bo'lishi, va professor o'z kasbini mutaxassislardan bilim olishlari lozim. Misol uchun Xalqaro Nordik universitetini olaylik, bu universitetda Musiqa ta'lim yo'nalishi yaqinda ochilganiga qaramay o'qish istagida bo'layotganlar soni kutilgandanda ko'proq bo'lmoqda. Buning sababi birinchidan, universitetda yaratilgan shart-sharoitlar; ikkinchidan musiqiy cholg'u vositalari bilan ta'minlanganligi; uchinchidan bo'lajak musiqa o'qituvchisning kasbiy tayyorgarligiga xizmt qiladigan fundamental fanlarni o'qitish; to'rtinchidan, har bir fanni o'qitishda sohaning yetuk professor-o'qituvchilari jalb etilganligi va hokazo. Har bir auditoriyada so'nggi modeldagi kompyuter va televizor jihozlarni ishchi holatda ekanligi Talabalarga esa darslarni professor, fan doktori va dotsentlar ta'lim berishi. Ya'na talabalar o'z ustida ko'proq shug'ullanib ishlashi hamda o'z ijrolarini yozib olish uchun universitetning ichida studiyasi ham mavjud.

Yuqorida keltirilgan sharoitlar boshqa davlat va nodavlat oliy ta'lim muassalarida mavjud emas. Talabalar universitetda yaratib bergan imkoniyatlardan

unumli foydalanib, o'z ustilarida ishlab kelmoqda. Talabalarni o'z ustida ishlashlari, ijod qilishlari uchun, universitetda harakatga keltiruvchi mexanizmlar mavjudligidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni xulosa qilish mumkinki, ushbu jarayonlar bo'lajak musiqa o'quvchilarini musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishini uyg'otishida mustahkam mexanizm bo'lib xizmat qiladi, deb o'ylayman.

O'quvchilar o'z o'rganishlari davomida xalqimizning milliy kuylaribilan tanishishadi ya'ni milliylikimiz bilan. Boshlang'ich sinfda ular cholg'ularni rasmlar orqali jonli ko'rib o'rgangandan so'ng yuqori sinfga chiqishganda cholg'ularni o'zlari ijro qiladigan paytga kelganda ular boshqacha qiziqish bilan muhabbat bilan o'rganadilar. Chunki, ularga boshlang'ich musiqa ta'limi berilgan notalar, kalitlar va yana boshqa musiqa faniga oid belgilarni ular bilishgandan so'ng cholg'uni o'rganishda unchalik qiyinchilikka uchrashmaydi. 11–yillik majburiy ta'limni tugatishganda ularning shahodatnomalariga bir emas kamida uchta cholg'uni biladi deb yozilishi mumkin ba'lki undan ham ko'p. Umumiy o'rta ta'lim maktablarni nazoratga olish kerak ya'ni maktab o'quvchilariga musiqa darsi kim tomonidan o'tilyapti sinf raxbar tomonidanmi? Yoki musiqa o'qituvchisi o'z fannini mutaxassisi tomonidan o'tilyaptimi? Va qanday darajada o'tilmoqda darslar bularning barchasi nazoratga olinishi kerak deb hisoblayman. Prezidentimizning PQ 112-qaroriga binoan har bir Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'zbek xalq cholg'ulari bilan ta'minlangan. Endi u cholg'ular chang bosib turmasdan o'quvchilarga o'rgatilishi kerak. O'quvchilarning qiziqishiga qarab cholg'ularni o'rgatish kerak. Chunki inson qiziqqan narsasini tez o'rganadi, qizziqmaganini esa o'rgatish mushkul.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022 yildagi PQ-112-son.

2. Ne'matov Bo'ritosh Saydullayevich: Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ salohiyatni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari.

3. Avaz Mansurov. "Cholg'ulashtirish bo'yicha amaliy namunalar va mashqlar". – Toshkent, 2007.

4. Nig'matjon Sharipov. Xalq cholg'ularida ijrochilik (Rubob-prima uchun gamma va mashqlar): o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019.

V shuba
UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA
MUSIQA DARSLARINI O‘TKAZISHDA O‘ZBEK
XALQ CHOLG‘ULARINI O‘RGATISH
USLUBIYOTI (BOSHLANG‘ICH SINFLAR
MISOLIDA)

Raxmonova Zarifaxon Raximjon qizi¹

¹Xalqaro Nordik universiteti

Musiqa ta‘lim yo‘nalishi

1-MS-23 – guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun sifatli musiqa darsini o‘tish hamda, ularga o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik bilimlarini zamonaviy metodik usullar orqali tanishtirish va o‘rgatish yo‘nalishlari tahlili, shuningdek, ushbu usullar orqali qanday natijalarga erishish mumkinligi haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Umumiy o‘rta ta‘lim maktabi, taraqqiyot strategiyasi, musiqa darsi, boshlang‘ich sinf, cholg‘ular, rasm, video, kreativlik, psixologiya, pedagogika, zamonaviy metodika, musiqa nazariyasi.

Davlatimiz tomonidan bugungi globallashuv jarayonida musiqa san‘atiga e‘tibor tobora ortib bormoqda. Jumladan, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, milliy ruhdagi asarlarni ijro etish, ijrochilik san‘atini mazmunan milliy musiqiy tamoyillar bilan boyitish, tinglovchilarni milliy ohanglar, an‘analar va ko‘p asrlik musiqiy meros vositasida estetik tarbiyalash muammosi shular jumlasidan bo‘lib, ular har qachongidan ham ko‘ra ko‘proq, alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Hozirgi kunda bunday imkoniyatlar yaratilishi, bir tomondan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kuy-qo‘shiqqa bo‘lgan qiziqishini oshirsa, yana bir tomondan musiqa va madaniyat muassalarida ijrochilik san‘ati kabi bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantiradi. Ikkinchidan, musiqa san‘ati asosida o‘quvchi shaxsining ma‘naviy, axloqiy madaniyatini, milliy g‘urur va vatanparvarlik kabi xislatlarini shakllantiradi. Musiqa ijrochiligi ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o‘stiradi, fikrlash darajasini kengaytiradi. Uchinchidan, musiqa san‘ati navqiron avlodimizning yuksak ma‘naviyat ruhida kamol topishiga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, mamlakatimizda musiqa san‘atini keng rivojlantirishga alohida ahamiyat berilib kelinmoqda. Ayniqsa, ijrochilik san‘ati merosimizni asrab-avaylash va o‘rganish, uni yosh avlodlarga bezavol yetkazish ta‘minlanmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risidagi” qarorni imzoladi. Aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko‘rsatish darajasini oshirish, Respublikaning barcha hududlarida teatr,

sirk va boshqa turdagi ommaviy – madaniy va konsert tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish, madaniyat va san‘at sohasida iste‘dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo‘llab – quvvatlash, ta‘lim muassasalarini milliy cholg‘ular, musiqa darsliklari, notalar to‘plamlari va o‘quv – metodik adabiyotlar bilan ta‘minlashning yaxlit tizimini yaratish, 2022-2026 – yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi ushbu say‘-harakatlarning uzviy davomi sifatida ahamiyat kasb etdi.

Mazkur dasturda:

umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘quvchilarga mazkur qarorga ro‘yxatda keltirilgan milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko‘nikmalari o‘rgatiladi hamda bu haqda ularning ta‘lim to‘g‘risidagi hujjatiga (shahodatnoma) tegishli qayd kiritildi;

musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o‘quv soati hamda unga qo‘shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish amaliy to‘garaklari va fakultativ darslari o‘tkaziladigan bo‘ldi;

mazkur qaror ro‘yxatida keltirilgan milliy cholg‘ulardan kamida bittasida, 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab esa kamida uchtasida kuy ijro etish amaliy mahoratiga ega bo‘lish musiqa fani o‘qituvchilari uchun majburiy hisoblandi.

Muxtarram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “2022 – yil 2 – fevraldagi PQ – 112 qarori”ga asosan Umumiy O‘rta ta‘lim maktablarida Musiqa darsiga juda katta e‘tibor berilmoqda. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida ushbu qarorga asosan o‘quvchilarga “O‘zbek xalq cholg‘ulari”ni o‘rgatish lozimligi ko‘rsatib o‘tilgan. Afsuski, juda ko‘p umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida bir xil deb bo‘lmaydi. Ayrim maktablarda, boshlang‘ich sinflarda musiqa darsini musiqa fani o‘qituvchilari emas, balki, sinf raxbarlar o‘tishmoqda. Boshlang‘ich sinflarning musiqa fani darsligida nota, nota yo‘li, pauza, o‘lchovlar, nota cho‘zimplari va shularga oid har xil mashg‘ulotlar, qo‘shiqalar berilgan. Ya‘ni, Bolalar musiqa va sa‘nat maktablari dasturi umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida berilmoqda. Vaholangki, musiqa maktabda oladigan bilimlarni bolalar umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida bemalol olishlari mumkin.

Bu holatni qanday to‘g‘rilash mumkin? degan savolga javob izlash, har bir soha mutaxassislarining asosiy vazifasidir. Bu holatni to‘g‘rilash uchun avvallambor musiqa fannini yaxshi biladigan, cholg‘ular ijro qila oladigan mutaxassislarni ishga qabul qilish kerak. Boshlang‘ich sinflarning musiqa darslarini sinf raxbariga emas, musiqa o‘qituvchisiga berish lozim. Kasbiy tajriba, bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks ettirish yuqoridagi keltirib o‘tilgan muammolar yechimi sifatida ta‘kidlash imkonini beradi. Biroq, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan kasbiy kompetensiyalar va ijodiy faoliyat ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarning yetarli darajada o‘zlashtirilishi talab etiladi. Musiqa o‘qituvchisi faqat musiqa nazaryasini va cholg‘u ijro qilishnigina emas, psixologiyani ham yaxshi bilishi ishga qabul qilinayotganda sinovdan o‘tkazilishi kerak. Musiqa fani

o'qituvchisi o'quvchilarga dars berish jarayonida kreativ yondasha olishi kerak, chunki, 7–14 yoshli o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida kreativ bo'lish juda ham muhim.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ salohiyatni rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik", "kreativ yondashuv" tushunchalarining ma'nosini tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui" sanaladi. Gardner esa o'z tadqiqotlarida mazkur tushunchani quyidagicha izohlaydi: "kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim". Emebaylning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik "muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish" demakdir.

Musiqqa o'qituvchisi boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'zlashtirishiga qarab turli xil usullari orqali ularga musiqqa darsligida berilgan mavzularni tushuntirishi kerak. Misol uchun 1–2-sinflar uchun o'zbek xalq cholg'ularini rasmlar orqali ko'rinishini ko'rsatib berish mumkin. Cholg'udan qanday ohang chiqishini video yozuvlar orqali ko'rsatib berishi, 3-4 sinflar uchun esa haqiqiy cholg'ularni ko'rsatib, ularni ijro qilib tanishtirilsa juda a'lo bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqqa fanini rivojlantirish uchun ham nazariy bilimga ega ham cholg'u ijro qilaoladigan, dars jarayoniga kreativ yondasha oladigan bolalar psixologiyasini biladigan mutaxassislar bormi? degan savol ayniqsa, nomutaxassis odamlar tomonidan tug'ilishi tabiiy hol. Albatta, bunday mutaxassislar yetishib chiqishi uchun talabalarning bilim olishiga katta e'tibor qaratilishi kerak. Talabalarning bilim olishi uchun barcha sharoitlar yetarli bo'lishi, va professor o'z kasbini mutaxassislardan bilim olishlari lozim. Misol uchun Xalqaro Nordik universitetini olaylik, bu universitetda Musiqqa ta'lim yo'nalishi yaqinda ochilganiga qaramay o'qish istagida bo'layotganlar soni kutilgandanda ko'proq bo'lmoqda. Buning sababi birinchidan, universitetda yaratilgan shart-sharoitlar; ikkinchidan musiqiy cholg'u vositalari bilan ta'minlanganligi; uchinchidan bo'lajak musiqqa o'qituvchisning kasbiy tayyorgarligiga xizmat qiladigan fundamental fanlarni o'qitish; to'rtinchidan, har bir fanni o'qitishda sohaning yetuk professor-o'qituvchilari jalb etilganligi va hokazo. Har bir auditoriyada so'nggi modeldagi kompyuter va televizor jihozlarni ishchi holatda ekanligi Talabalarga esa darslarni professor, fan doktori va dotsentlar ta'lim berishi. Ya'na talabalar o'z ustida ko'proq shug'ullanib ishlashi hamda o'z ijrolarini yozib olish uchun universitetning ichida studiyasi ham mavjud.

Yuqorida keltirilgan sharoitlar boshqa davlat va nodavlat oliy ta'lim muassalarida mavjud emas. Talabalar universitetda yaratib bergan imkoniyatlardan unumli foydalanib, o'z ustilarida ishlab kelmoqda. Talabalarni o'z ustida ishlashlari, ijod qilishlari uchun, universitetda harakatga keltiruvchi mexanizmlar mavjudligidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni xulosa qilish mumkinki, ushbu jarayonlar bo'lajak musiqqa o'quvchilarini musiqqa san'atiga bo'lgan qiziqishini uyg'otishida mustahkam mexanizm bo'lib xizmat qiladi, deb o'ylayman. O'quvchilar o'z o'rganishlari davomida xalqimizning milliy kuylari bilan tanishishadi ya'ni milliyligimiz bilan. Boshlang'ich sinfda ular cholg'ularni rasmlar

orqali jonli ko‘rib o‘rgangandan so‘ng yuqori sinfga chiqishganda cholg‘ularni o‘zlari ijro qiladigan paytga kelganda ular boshqacha qiziqish bilan muhabbat bilan o‘rganadilar. Chunki, ularga boshlang‘ich musiqa ta‘limi berilgan notalar, kalitlar va yana boshqa musiqa faniga oid belgilarni ular bilishgandan so‘ng cholg‘uni o‘rganishda unchalik qiyinchilikka uchrashmaydi. 11–yillik majburiy ta‘limni tugatishganda ularning shahodatnomalariga bir emas kamida uchta cholg‘uni biladi deb yozilishi mumkin ba‘lki undan ham ko‘p. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarni nazoratga olish kerak ya‘ni maktab o‘quvchilariga musiqa darsi kim tomonidan o‘tilyapti sinf raxbar tomonidanmi? Yoki musiqa o‘qituvchisi o‘z fannini mutaxassisi tomonidan o‘tilyaptimi? Va qanday darajada o‘tilmoqda darslar bularning barchasi nazoratga olinishi kerak deb hisoblayman. Prezidentimizning PQ 112-qaroriga binoan har bir Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘zbek xalq cholg‘ulari bilan ta‘minlangan. Endi u cholg‘ular chang bosib turmasdan o‘quvchilarga o‘rgatilishi kerak. O‘quvchilarning qiziqishiga qarab cholg‘ularni o‘rgatish kerak. Chunki inson qiziqqan narsasini tez o‘rganadi, qiziqmaganini esa o‘rgatish mushkul.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022 yildagi PQ-112-son.
2. Ne‘matov Bo‘ritosh Saydullayevich: Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ salohiyatni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari.
3. Avaz Mansurov. "Cholg'ulashtirish bo'yicha amaliy namunalar va mashqlar". – Toshkent, 2007.
4. Nig‘matjon Sharipov. Xalq cholg'ularida ijrochilik (Rubob-prima uchun gamma va mashqlar): o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019.

INSONNING RUHIY RIVOJLANISHIDA MUNOSABATLAR TA‘SIRI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI

Abdumannobova Muslima¹

¹Xalqaro Nordik universiteti

“Psixologiya” ta‘lim yo‘nalishi,

1-PS-23 guruh talabasi

[*muslima.abduvohidovna@gmail.com*](mailto:muslima.abduvohidovna@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson ongi rivojlanishi uchun go‘dakilik chog‘idan boshlab bolalar bilan muloqot qilish naqadar muhim o‘rin egallashi haqida yoritilgan bo‘lib: Ijtimoiy aloqa chaqaloqlik davrida muhim ahamiyatga egaligini, chunki u qisqa va uzoq muddatli salomatlik va farovonlikning asosi ekanligiga urg‘u berilgan. Bola o‘zini himoya qila olishi uchun ota-onasi bilan ko‘p muloqot qilishi kerakligini sabablari keltirilgan. Va maqola so‘ngida o‘smir farzandi

bor ota-onalar bolasi bilan qanday qilib muloqotni qaytadan o'rnatishi mumkinligi haqida tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: psixologik yetuklik, tinglash mahorati, suhbatlashish usuli, e'tiborsizlik, psixologik xavfsizlik, bulling, nartsizm, avtonomiya, go'daklik.

Hozirda ko'p sonli ota – onalar farzandlarini ularni tingashmayotganidan shikoyat qilishmoqda. Bu vaziyat kelib chiqishiga o'zi aslida kim sababchi? Bu vaziyatni keltirib chiqazayotgan asosiy sabablardan biri – bu ota-onalarning qimmatli bo'lgan farzandlariga psixologik jihatdan yetilishiga e'tibor qaratishmayotganligidir. Ota-onalar bolalarning erta rivojlanishining asosiy me'morlaridir. Ular o'z farzandlarining miyasini va ularni sog'lom rivojlanishini yo'lga soladigan tajribalarni shakllantiradilar. Lekin hozirgi yosh ota-onalar bolajonlarining injiqliklarini qondirish uchun e'tiborini zararli narsalarga qaratib qo'yishmoqda va bolajonlarining gaplarini tiglasmayapti, shunday qilib o'zlarining kelajaklariga bolta urishmoqda. Bunga misol tariqasida, Ontariodagi giyohvandlik va ruhiy salomatlik markazi bergan hisobotida: Bolalar boshdan kechirayotgan o'z-o'zidan paydo bo'lgan ruhiyatidagi muammolari asosan hamjihat bo'lmagan oilalar va raqamli texnologiyalar kabi haddan tashqari stressli muhit sababchi bo'lyatgan ekanini ta'kidlashmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarga juda ko'p vaqt sarflaydigan ota-onalarning e'tiborsizligi, farzandlarini tinglashmasligi hozirda bolajonlarimizning butun boshli hayotiga juda ham qattiq ta'sir qilmoqda. Ota-onalarning e'tiborsizligi oqibatida, ota-ona mehridan chetda qolgan bolalar bir qator psixologik muammolarga duch kelish holatlari kuzatilmoqda, jumladan: o'qish pasayishi, o'zini past baholash, nartsizm, chalkashlik, perfektsionizm, depressiya, shaxsning buzilishi holatlari bo'lishi kuzatilmoqda. Endi sizda “Mening qimmatli farzandim yetuk shahs bo'lib ulg'ayishi uchun nima qilsam bo'ladi?” degan savol tug'ilishi tabiiy. Hozir sizlarga buni maqola davomida batafsil yoritib beramiz.

Farzandlarimiz yetuk shahs bo'lib ulg'ayishi, hayotda o'z o'rnini topishi uchun avvalambor farzandlarimizni psixologik tomondan yetuk bo'lishiga e'tibor qaratmog'imiz lozim. Birinchi bo'lib sizlarga Psixologik yetuklik tushunchasi o'zi aslida nimani anglatishi haqida tushuntirish berib ketsak. Psixologik yetuklik murakkab tushuncha bo'lib, hissiy, ijtimoiy va kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Psixologik yetuklikka erishishning yagona formulasi bo'lmasa-da, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erta bolalik davridagi tajribalar insonning hissiy va ijtimoiy rivojlanishini shakllantirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Erta bolalik davrida psixologik yetuklikni rivojlantirish uchun ota-onalar o'z bolajonlarini o'rganishi, o'sishi uchun xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhitni ta'minlab berishi muhim ahamiyatga ega. Psixologik xavfsizlikni yaratish uchun esa eng yaxshi bera oladigan tavsiyamiz, Doktor Emi Edmondson psixologik xavfsizlikni “g'oyalar, savollar, tashvishlar yoki xatolar bilan gapirgani uchun jazolanmasligi yoki kamsitilmasligi va jamoaning shaxslararo tavakkalchilik uchun xavfsiz ekanligiga ishontirish” deb aytgan ta'rifidir. Biz bolajonlarimizga Dr. Emi Edmonson aytgan ta'rifidagiday qanchalik kuchli psixologik xavfsizlikni yaratib bera olsak, bola hayotda o'z o'rnini topishi oson bo'ladi va yosh bola pozitsiyasidan o'z vaqtida oson chiqib ketadi, ma'sulyatni his qila oladi, yetuk va komil shahs bo'lib ulg'ayadi. Psixologik xavfsizlikni eng asosiy qoidasi bu bolani tinglash va uning fikrlarini

inobatga olish. Ba’zida bolalar ham muammolarga ijodiy yechim taklif qilishadi, chunki bolaning tasavvuridan kattaroq narsa yo‘q. Yosh bolalar boshqalarning fikriga kamroq e’tibor berishadi. Kattalar hamkasblari va xo‘jayinlari ular haqida nima deb o‘ylashlari, shuningdek, ahmoq yoki ahmoqona ko‘rinish haqida ko‘proq tashvishlanishadi. Qaror qabul qiluvchilar uchun bolalarga gapirish va ularni tinglash imkoniyatini berish juda muhim, chunki bu barcha kattalarning bolalarni himoya qilish uchun qonunlar ishlab chiqishga sarflagan vaqti behuda ketmasligini ta’minlaydi va bolalarning sog‘lom, baxtli va xavfsiz bo‘lishida samarali foyda beradi. Biroq bolalarda tajriba yetishmasligi bo‘lganligi uchun muammoli vaziyatlarda bolalarga kattalarning yordami kerak bo‘ladi. Afsuski so‘nggi vaqtlarda dunyo bo‘yicha bolalarga jinsiy zo‘ravonlik, buling holatlari ko‘p kuzatilmoqda.

O‘zbekistonda 2023-yildagi hisobotga ko‘ra, 18 yoshgacha bo‘lgan yosh qizlaloqlarda 238 ta jinsiy zo‘ravonlik bo‘lgan ekan. Bu 2019-yildagi 99 ta holatdan sezilarli darajada oshganini ko‘rsatadi. Hayotida shunday holatlar kuzatilgan bolalarning ko‘pi “ota-onasini xavf-xatardan ogoh etmoqchi bo‘lgani, lekin uni hech kim eshitmaganligini” suhbat jarayonida aytishmoqda. Bolalar yomon hodisa yuz berganda, nima qilish kerakligini bilishmas edi, chunki hech kim ular bilan bu haqida gaplashmagan edi. Ko‘ngilsiz hodisa yuz berganda, bolalar qo‘rqib ketishganligidan his-tuyg‘ularini ifodalab berishlari qiyin kechadi. Bunday paytda ularga so‘zlarni topib gapirib berishi uchun kattalarni ko‘magi kerak bo‘ladi. Biz bunday holatlarda ularni urushib, jerkib tashlamasdan hotirjam tinglamog‘imiz zarur. Avvalambor biz ota-onalar farzandlarimiz bilan qanchalik ko‘p do‘stona suhbatlashsak, farzandimizni yomon hodisalar ishtirokchisi bo‘lib qolishidan shunchalik yaxshi himoya qilgan bo‘lamiz. Bola bilan ko‘p suhbatlashish uchun yana bir sabab: Psixologiya fanida o‘tkazilgan tadqiqotda aytilishicha, suhbat - ota-ona va bola o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi – kichik yoshdagi bolaning miyasidagi til markazlarini yoqib yuboradi. Bu bolalarning uyda eshitadigan so‘zlari va ularning nervlarni qayta ishlash qobiliyatining o‘sishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadigan birinchi tadqiqot bo‘lib, aslida ota-onalarning farzandlari bilan gaplashishi bolalarning miyasini o‘zgartirishini ko‘rsatadi. Bu haqida MIT tadqiqotchisi Gabrieli News Office-ga shunday degan: “Ota-ona suhbatlari bola miyasining biologik o‘sishiga yaxshi ta’sir qilishi bu deyarli sehrli holat”. Binobarin, ushbu fikrlar tasdig‘i sifatida O‘zbekistonda ham bola va ota-ona o‘rtasida muloqotni kuchaytirish uchun ishlar olib borilmoqda. Misol uchun, 2024-yil beshinchi fevralda bo‘lib o‘tgan Prezident raisligidagi yig‘ilishda, “maktab – ota-ona – mahalla” zanjiri asosida elektron muloqot ishga tushirish topshirildi.

Mavzu yuzasidan shunday taklifni kiritmoqchimiz: “mening bolam o‘smir yoshida, menga o‘xshagan onalar nima qilsin?” desangiz hozir sizga farzandingiz sizni tinglashga jalb qiladigan tavsialarni berib o‘tamiz

Farzandingizni o‘rniga o‘zingizni qo‘yib ko‘ring.

O‘zingizni o‘smir farzandingizni o‘rniga qo‘yib ko‘ring. O‘zingizdan so‘rang: “Agar men farzandimni o‘rnida bo‘lib qolganimda, o‘zim aytayotgan tanbehlarga quloq slogan bo‘lar edimmi?” Ular bilan muloqot qilishda ohangizni, munosabatingizni va his-tuyg‘ularingizni hisobga oling. Ular bilan gaplashayotganingizda individual munosabatda bo‘ling. Hushmuomala muloqot ota-ona va bola munosabatlarning asosini yaratadi.

Bosim o'tkazmang!

Ba'zida ota-onalar o'smir farzandlaari quloq solmasa, bosim o'tkazishda davom etadilar, bu esa qizg'in bahslarga olib keladi. Yanada qattiqroq bosim o'tkazish o'rniga, orqaga bir qadam qo'ying va tinchroq yondashuvni qidirib ko'ring.

Takrorlash va izchillik.

Xabarlarini bolangizga bezovta qilmasdan takrorlang. O'smirlik yoshiga yetganda bolalarga tez-tez takrorlanadigan tanbehlar yoqmay qoladi, tinglashni ham istashmaydi. O'smir farzandingiz darhol javob bermasligi mumkin. Ammo qat'iyatilik o'z samarasini beradi.

Bolangizga buyruq emas taklif bering.

Bolangizga taklif qilish orqali bir oz avtonomiya bering. Masalan, "Hozir uy vazifangizni bajaring" deyishning o'rniga, "Matematikani yoki ingliz tilini boshlamoqchimisiz?" deb harakat qilib ko'ring.

Xulosa qilib aytganda, go'daklik davridagi ijtimoiy aloqa uzoq muddatli salomatlik va farovonlikning asosidir. Ushbu dastlabki aloqalarni tarbiyalash orqali biz kichkintoylarimizning porloq kelajakka yo'l ochamiz. Go'daklikdan qilingan muloqot unumdor tuproqqa urug' ekishga o'xshaydi. U kognitiv, hissiy va ijtimoiy o'sishni rivojlantiradi, hayot davomida gullab-yashnayotgan ong uchun zamin yaratadi. Ijobiy aloqalarni va tilga boy muhitni rag'batlantirish individual rivojlanishga ham, butun jamiyatga ham foyda keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://kun.uz/news/2024/02/05/ota-onalar-uchun-farzand-tarbiyasiga-oid-xalqchil-materiallar-tayyorlanadi>
2. [Почему дети так волнуются в наши дни? | Психология сегодня \(psychologytoday.com\)](https://psychologytoday.com)
3. <https://www.education.sa.gov.au/docs/early-years/aedc/aedc-sa-domain-guide-emotional-maturity.pdf>
4. <https://www.cceionline.com/creating-psychological-safety-in-early-childhood/>
5. <https://globalvoices.org/2023/04/28/uzbekistan-adopts-groundbreaking-law-to-protect-women-and-children-from-domestic-and-sexual-violence/>
6. <https://www.gse.harvard.edu/ideas/usable-knowledge/18/02/brain-changing-power-conversation>
7. <https://www.gse.harvard.edu/ideas/usable-knowledge/18/02/brain-changing-power-conversation>

YOSHLARNI ZAMONAVIY KASBLAR VA CHET TILLARIGA O'QITISH TIZIMINI YARATISH

Mamayusupova Gulsanam Faxriddin qizi¹

¹Xalqaro Nordik universiteti

mamayusupova125@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi yoshlarning zamonaviy kasblari, zamonaviy kasblarini jamiyatdagi oʻrni, chet tillarini oʻrganish va oʻqitishning maqsadi, chet tillarini oʻrganishda takliflari berilgan.

Kalit soʻz: Yoshlarning zamonaviy kasblari, taʼlim, chet tilini oʻrganish, kasblar, tillar, ilm-fan tizimi.

CREATION OF A SYSTEM FOR TRAINING YOUTH IN MODERN PROFESSIONS AND FOREIGN LANGUAGES

Abstract: In this thesis, the modern professions of young people, the role of modern professions in society, the purpose of learning and teaching foreign languages, suggestions for learning foreign languages are given.

Key words: Modern professions of young people, education, learning a foreign language, professions, languages, science system.

СОЗДАНИЕ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ МОЛОДЕЖИ СОВРЕМЕННЫМ ПРОФЕССИЯМ И ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Аннотация: В данной дипломной работе даны современные профессии молодежи, роль современных профессий в обществе, цель изучения и преподавания иностранных языков, предложения по изучению иностранных языков.

Ключевые слова: Современные профессии молодежи, образование, изучение иностранного языка, профессии, языки, система науки.

Yoshlarning zamonaviy kasblari bilan oʻzilarini ish bilan taʼminlashi yaxshi. Yaʼni bular bloggerlik qilishlari, kompyuterda har xil oʻyinlar bilan shugʻullanishi. Lekin bu kasblarning yaxshi tomonga ham yomon tomonga ham yoshlarga yoʻl boshlashi mumkin. Masalan, bloggerlar ijtimoiy tarmoqlarda oʻzlarining ibratli manaloglari bilan endi biznes boshlaydiganlarga yoki chet tillarini biluvchilarni toʻgʻarak ochishiga gʻoya berishlari mumkin. Soʻnggi yillarda mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Yoshlar bilan ishlashning yangicha tizimi yaratilib, yoshlarning mahalladan boshlab muammolarini hal etish va zamon bilan hamnafas yoshlar kamol topmoqda. Hozirgi kunda IT (ayti) sohasi ham eng keng rivojlangan boʻlib, yoshlarning sevimli mashgʻulotiga aylangan.

Davlatimiz rahbarining muddatidan ilgari oʻtkazilgan Prezidentlik saylovida ilgari surilgan gʻoyalari hamda xalqimizning ayniqsa yoshlarning takliflari asosida “Oʻzbekiston–2030” strategiyasi ishlab chiqildi va davlatimiz rahbari farmoni va qarori bilan tasdiqlandi[1]. Beshta muhim yoʻnalish va 100 maqsadni oʻzida mujassam qilgan. “Oʻzbekiston–2030” strategiyasining har bir maqsadida mamlakatning qariyb 19 million nafar yoshlardan ortiq qismiga har tomonlama

qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Ayniqsa, har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish yo‘nalishida Yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo‘nalishlaridagi islohotlarida yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga o‘qitish tizimini yaratish vazifasi ilgari surilgan[2]. Bugungi kunda Davlat rahbarining tashabbusi bilan “Yoshlar daftari” tizimi shakllantirildi. Mazkur tizim asosida “Kelajak kasblari” loyihasi ilgari surilgan bo‘lib, 11 mingdan ziyod yoshlar (shulardan 8 mingdan ziyod qismi “Yoshlar daftari”ga kiritilgan) bugungi kunlardagi eng muhim bo‘lgan Ayti, Logistika, Dizayn kabi o‘ngga yaqin kasblar yoshlarga o‘rgatilib kelinmoqda. Shuningdek 5 mingdan ziyod yoshlarning 13 mlrd. 897 mln. so‘mlik o‘qish harajatlari Davlat budjeti hisobidan qoplab berildi. Bu ham albatta yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga turtki bo‘lmoqda. Bundan tashqari, xorijiy tillarni o‘rganishni ommaviylashtirish maqsadida “Ibrat farzandlari” loyihasi amaliyotga keng joriy etilgan bo‘lib, 160 mingdan ziyod yoshlar mazkur loyiha doirasidagi 17 ta tilni mustaqil, onlayn o‘rganish imkoniyati yaratilganligi ham ayniqsa qishloq hududlaridagi yoshlarni ham xorijiy tillarini o‘rganishga chorlamoqda. Strategiyada yoshlarning zamonaviy kasblar bilan mashg‘ul bo‘lishini ta‘minlash uchun har bir viloyatda 1 tadan “Kreativ park”lar faoliyatini tashkil etish, ularga yiliga kamida 40 ming nafar yoshlarni jalb qilish ishlarini tashkil etish, shuningdek maktab bitiruvchilari kamida 2 ta xorijiy til va 1 ta kasb egallashini ta‘minlash choralari ko‘rish ilgari surilmoqda. Ushbu jarayonlarini tashkil etishda bevosita O‘zLiDeP Siyosiy Kengashi Ijroiya qo‘mitasi va joylardagi Partiya tashkilotlari, Yoshlar parlamenti a‘zolari bilan birgalikda kuchli jamoatchilik nazoratini olib borish tizimini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek Partiya tashabbusi bilan yangi-yangi loyihalarni tashkil etish jumladan, “O‘zLiDeP yoshlar bilan”, “Yoshlar tashabbuslari Forumi” kabi targ‘ibot loyihalari orqali 10 mingdan ziyod yoshlarni zamonaviy kasblarni egallashlariga ko‘maklashish yoshlarning ustuvor vazifasidir. “Chet tillarini ommalashtirishga ko‘maklashuvchi “Ibrat” loyihalarini rivojlantirish, xalqaro imtihon tizimlarida chet tillari va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha yuqori ball olgan yoshlarning imtihon xarajatlarini qoplab berish amaliyotini kengaytirish” mavzusida jamoatchilik eshituvi tashkil etildi. Ta‘limning mazmuniga umumiy ma‘lumotdan tashqari muayyan kasb va mutaxassislik uchun zarur bo‘lgan maxsus bilim, malaka va ko‘nikmalar ham kiradi. Ta‘lim mazmuni o‘quv reja va dasturlari, darslik va boshqalarda yoritiladi. “Ilm bizning qonimizda, genimizda bor. Bu markaz ham uchinchi Renessans poydevorlaridan biri” – deya ta‘kidlaydi O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari joriy yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomada hamda 31-yanvar kuni ilm-fan vakillari bilan uchrashuvda geologiya sohasini rivojlantirishga doir dolzarb vazifalarni belgilab bergan edi. Jamoatchilik eshituvida chet tillarini o‘qitishga ixtisoslashgan nodavlat ta‘lim muassasalarini tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash tizimi qay holatdaligi, ta‘lim muassasalarida chet tillarini ommalashtirishga qaratilgan ishlarning natijadorligi va ta‘lim olayotgan yoshlarning chet tillari va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha natijalari tahlili mavjudlik darajasi, chet tillariga ixtisoslashtirilgan respublikadagi mavjud oliy ta‘lim muassasalaridagi ta‘lim olayotgan talaba-yoshlar qanchalik chet tillaridan habardorligi, maktablardagi o‘quvchilarning chet tillarini o‘rganish va o‘zlashtirish darajasi kabi o‘tkir savollar

tahlil qilindi. Bunda, Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, "El yurt umidi" fondi, Yoshlar ishlari agentligi mutassadilarining amalga oshirilgan ishlari yuzasidan axborotlari tinglandi[3].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yoshlarning qiziqishi o'zlariga kasb bo'lib ketayabdi. Albatta, qiziqish bilan qilinayotgan ishning yuqori cho'qqiga chiqishiga sabab bo'ladi. Yoshlarning Aytiga bo'lgan qiziqishi bu sohani rivojlantirdi. Dizaynlik san'ati ham rivojlanib yoshlarning qiziqarli kasbidan biri. Bilamizki, ijtimoiy tarmoqlarda nimadir qidirsak ingliz tili, rus tilida ma'lumotlar ko'p. Yevropa davlati hozirda eng rivojlangan davlatlar qatorida yuqori o'rinda turadi. Shu tufayli yoshlar chet tillarini o'rganib rivojlangan davlatlar bilan muloqatda bo'lishlari yaxshi deb o'ylayman. Yurtimizda yoshlar uchun yaratilib borayotgan shart-sharoitlardan unumli, ta'lim tarbiyaga qaratilgan katta e'tibor va imkoniyatlardan muvaffaqiyatli foydalanishimiz lozim.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. PF-158-coH 11.09.2023. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida (lex.uz)
2. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi: Yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga o'qitish tizimi takomillashtiriladi | O'zLiDeP (uzlidep.uz)
3. uza.uz/oz/posts/yangi-ozbekistonda-chet-tilini-organishning-yangi-imkoniyatlari

O'RTA YOSHLILAR PSIXOLOGIYASI: SABAB VA YECHIMLAR

Ahmatqulova Shahzoda Baxodir qizi¹

¹Xalqaro Nordik Universiteti
Psixologiya Fakulteti talabasi

Annotatsiya: Yetuklik davri ancha murakkab davrdir, mazkur davrda shaxs ham jismoniy, ijtimoiy jihatdan yetuklikka yetgan, jamiyat fuqarosi hamda saylash huquqini qo'lga kiritib bo'lgan bo'ladi. Bularning barchasi ijtimoiy jihatdan voyaga yetish, turmushda o'z o'rnini topish, o'z taqdirini o'zi hal qilishi, yetuk shaxs sifatida ruhiyati va ma'naviyatining rivoji uchun jamiki shart-sharoitlarni yaratadi. Ushbu maqolada yetuklik davri ya'ni o'rta yoshli insonlarning hayoti va psixik holatlari, ularga ta'sir qiladigan turli xil zarbalari, bularga sabablar va yechimlar keltirilgan. Bunday davirda ularga qanday takliflar va maslahatlar berishi kerakligi ham aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: yosh davrlari, stress, psixologik inqiroz, ong nazariyasi, psixik travma, yetuklik davri.

Bundan 100 yil muqaddam ya'ni 1922 yili Germaniyada Ernst Kerchmer tomonidan "Tibbiyot psixologiyasi" faniga asos solinadi. O'zbekistonda esa 1997 yili Hamid Karimov tashabusi bilan "Tibiyot psixologiyasi" kursi tashkil qilingan. 1997 yilgacha deyarli psixiatryaga o'xshab qolgan "Tibiyot psixologiyasi"

mavzulari Zarifboyev Ibodullayev tomonidan Jahon standartlariga moslab, butkul qayta qayta ko‘rib chiqildi. Psixologik xizmat haqida Nizom Sobiq ittifoqda 1989-yilda qabul qilingan. Ushbu nizomga ko‘ra psixologlar haftasiga 41 soat ishlashar edi. O‘zbekiston mustaqilika erishganidan so‘ng barcha sohalarda bo‘lgani kabi psixologiya sohasida ham bir qancha muvafiqatga erishildi. Ulardan biri 1996 yil, 5-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimida ishlaydigan psixologlarning malakasini oshirish va ularning atestatsiyasi haqida Nizom”ning Xalq ta’limi vazirligi J.G‘.Yoldashev tomonidan tasdiqlanish bo‘ldi.

V.T.Liskovskiy 1968 yilda birinchilaridan bo‘lib yoshlarning ta’rifini ilgari surgan: “Bu odamlarning ijtimoiylashuv bosqichdan o‘tadigan, ta’lim, kasbiy, madaniy va boshqa ijtimoiy funksiyalarni o‘z ichiga egalallangan avlod”. Keng doiradagi yoshlar uchun zamonaviy yosh chegaralari deb 14-16 yoshdan 25-30 yoshgacha tushinish mumkin. Shaxsning o‘ziga qaratilgan e’tibori yakullanib atrof tevaraka nigohlar kuchayadi. Bu davirda insonlar yetuk kadr bo‘lib o‘zining faoliyatini ya’nada kuchaytirishga va o‘z sohasini rivojlantirishga qaraydi. Ayrim bu davirdagi odamlar atrof muhitning fikr mulohazasiga tayangan holda ish ko‘rishga odatlanib qolishadi. Bu insoning ongi pasayishi va o‘z dunyo qarashi torayishiga olib keladi.

Yillar davomida psixologiyada kattalarga qaraganda bolaning rivojlanishiga ko‘proq e’tibor qaratildi. Yetuklik davrida shaxsning rivojlanishi eng murakkab va yetarlicha o‘rganilmagan muammolardan biridir. Terminologiyaning noaniqligi, vaqt chegaralarining xiralashishi va balog‘atga etish bosqichlari, xususan, o‘rta hayot davrining tavsifi ushbu muammoning murakkabligi va rivojlanmaganligini ko‘rsatadi. Erik Erikson o‘rta yosh, hayotning boshqa davrlari kabi, odamlarga ma’lum rivojlanish vazifalarini taqdim etadi va hayotning keyingi bosqichida ijobiy tajriba orttirish va xotirjamlikni topish uchun ulardan ma’lum ko‘nikma va qobiliyatlarni o‘zlashtirishni talab qiladi, deb nazariyasini ilgari surdi.

Bu davrni yoshga bo‘ladigan bo‘lsak boshlang‘ich davri 22 yoshdan 44 yoshgacha bo‘ladi. Undan keying davirlar qarilikka qo‘yilayotgan ilk qadamlar bo‘ladi. Bu davirda yuzaga keladigan inqirozlar ko‘p asabiylashish va boshliqlarning qilayotgan bosimlari. Dunyo tashvishlariga ko‘milib qolishi va atrofdagi odamlardan o‘zini olib qochishi bunday holatlarda bosh aylanishi, og‘rishi va o‘zini jamoat joylarida yommon xis qilishi va shunga o‘xshash inqirozlarga sabab bo‘ladi.

Bazi insonlar esa aksincha o‘zlarini jamoat joylarida judda erkin va judda samimiy tutadilar va ko‘zlariga iliq ko‘ringan insonlar bilan tez chiqishib ketaveradilar. Bazi insonlarning dunyo qarashicha bu turdagi odamlarni aldash osson. Lekkin unaqa emas bunday insonlar kayfiyati yo‘qligini va boshqalardan hafa bo‘lganini bildirmaslika harakat qiladilar holos.

Insoning dunyo qarashi kengaygani sari ongi ham o‘sib rivojlanib boradi. Bu xolat inson hayotida doimiy bo‘lib hayvonlardan ham ajratib turiladigan hislatdir ya’niy ongning o‘sishi, borligi, rivojlanishidir. 33 yoshdan keyingisi ishini rivojlantirgan va kerakli malakani o‘rganib keyingi qadami nafaqaga yurish bo‘ladi. Bu davirda insonlarning 3 tasidan 2 tasi psixik trama olgan ya’ni shikast olganlaridandir. Bu davirda yuzaga keladigan inqirozlardan biri hissiy sters uyquni buzadi yoki tuyadi ta’sir qiladi:siz diqqatni ishga qarata olmaysiz: steress yoki

yomon kayfiyat yaqinlaringiz bilan munosabatlarga ta'sir qiladi hayotda katta o'zgarishlar qilish haqida o'ylash: uzoq muddatli munosabatlarni tugatish, martaba o'zgartirish yoki ko'chirish. Shu bilan birga o'zgarishlar qilish istagi yosh bilan bog'liqlik qiladi.

30 dan keyin stastiktik ma'lumotlarga qaraganda, o'rta hayot inqirozi deyarli har ikkinchi odamga tahdid soladi. Psixolog bilan birgalikda biz ushbu hissiy holatning alomatlarini o'z ichiga oladi va o'z ishing ustalari bilan shug'ullanishga qaratadi.

Inqirozga duchor bo'lganlarga qanday yordam berish kerak?

Ushbu davirdagi tajribalar judda kuchli bo'lishi mumkin. Shu darajadagi ularni faqat odam balki uning oilasi, do'stlari va hamkasblari uchun ham chidash qiyin bo'ladi. Ayni payitda odamlar o'zlarining his-tuyg'ularini va tajavuskorligini tashlay boshlaydilar yoki aksincha, yakkulanib o'zlariga chekkinadilar. Agar do'stingiz yoki oila azolaringiz o'rta yoshdagi inqirozga duchor bo'lganida shubhallansangiz, yordam berishingiz mumkin.

Yaqinlaringiz uchun yahshi tinglovchiga aylaning odam o'z tajribalari haqida gapirsin. Hukm qilmasdan tinglashga harakat qiling va maslahat qilishdan saqlaning. Do'stingizga o'z his-tuyg'ularini baham ko'rishga ruhsat bering va ular bilan birga ekanligingizni bildiring.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'rta yosh davrining asosiy xususiyatlaridan biri bu insonning yoshini baholashda o'ta sub'ektivligidir. Biroq, bu psixologik va biologik darajada hech qanday o'zgarishlar yo'qligini anglatmaydi. O'zgarishlar yuz beradi va shaxsiy sohada o'zgarishlarga olib keladi. O'rta yoshga to'lgan odamlarda psixofizik funksiyalarning xususiyatlarining nisbatan pasayishi kuzatiladi. Biroq, bu insonning kognitiv sohasi faoliyatiga ta'sir qilmaydi, uning ish faoliyatini pasaytirmaydi, unga mehnat va ijodiy faollikni saqlashga imkon beradi. Shu sababli, o'smirlik davrida aqliy rivojlanishning eng yuqori cho'qqisiga chiqqandan so'ng pasayish kutilganidan farqli o'laroq, insonning individual qobiliyatlarining rivojlanishi butun o'rta yoshda davom etadi. Bu, ayniqsa, insonning mehnat faoliyati va uning kundalik hayoti bilan bog'liq bo'lganlar uchun to'g'ri keladi. O'rta yoshlilar psixologiyasi ya'ni yetuklik davri hisoblanadi. Bunday davirdagi inqirozlarni inson tog'ri tushinib tog'ri maslahatlatlarga tayanishi kerak. Shundagina bu inqirozlarga bardosh berib, stresdan chiqib ketadi. Bu jarayonni yengib o'tish va yaxshi kechirishda albatta insonning yaqinlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E. G'oziyev. Ontogenez psixologiyasi: darslik. – Toshkent, 2020. – 288 bet.
2. Xusanov Samariddin Maxmadaminovich. Yetuklik davrining o'ziga xos xususiyatlari. Journal of new century innovations, 14. – 97-98 b.
3. <https://uz.healthy-food-near-me.com/psychology-of-middle-age/>

Ontogenez psixologiyasi vazifasi va ahamiyati

Akromova Nilufar Rustam qizi¹

¹*Nordik universiteti 1-PS-23 talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ontogenez psixologiyasi insonda turli psixik jarayonlar: sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol kabi turli xil jarayonlarga bog'liqligi tahlil qilingan. Faoliyat tomonlama yani o'yin, o'qish, mehnat, kabilar rivojlanishi shuningdek inson shaxsining tarkib topishi ilmiy jihatdan tadqiq qilindi.

Kalit so'zlar: psixologiya, ontogenez, psixik rivojlanish, xulq atvor, ong, psixika.

Inson tug'ilishining ilk kunlaridanoq tashqi muhitdan: odamlardan, narsalardan, voqealardan va hayotiy vaziyatlardan keladigan katta hajmdagi axborotlarni qamrab olish jarayoni ma'lumotlarni sekin astalik bilan o'zlashtirishdan boshlanadi. Inson jismoniy rivojlana boshlashi bilan bir qatorda uning psixikasi va shaxsi ham shakllanadi. Vaholangki bu shaxs qanday qilib kamol topadi degan savolga to'g'ri javob berish ancha mushkil ish.

Ammo inson taraqqiyoti nima ekanligini anglay boshlasangiz, bu murakkab jarayonning o'z qonuniyatlari borligiga guvoh bo'lasiz va shu sababli psixologiyadagi eng muhim tarmoqlaridan birini ontogenez psixologiyasi deb atash mumkin.

Barcha psixologlar uchun umumiy bo'lgan holat ontogenezda psixika, ong, shaxsning shakllanishini jamiyat tomonidan faol, maqsadli ta'sirlanish sharoitida ro'y beradigan ijtimoiy jarayonlar sifatida tushunishdir. Ontogenez - (yunoncha, ontos-mavjud, jon, zot; genesis- tug'ilishi, kelib chiqish, paydo bo'lish) - individning paydo bo'lishidan, umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonidir.

Ontogenez psixologiyasi - inson psixikasining rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari hamda shu taraqqiyotning bosqichlari to'grisidagi fandır.

Ontogenez psixologiyasi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- Psixik taraqqiyotning umumiy qonuniyatlarini hamda bosqichlarini tahlil etish.
- Bir bosqichdan ikkinchisiga o'tish sabablarini aniqlash.
- Yosh davrlarini tasniflash.
- Har bir davrning psixologik portretini yaratish.
- Rivojlanishning yetakchi omillarini o'rganish.

Ushbu vazifalar bilan bog'liq holda ontogenez psixologiyasining quyidagi funksiyalarini ajratish mumkin: Tavsifiy funksiya-inson taraqqiyotining o'ziga xos yosh davrlaridagi xususiyatlarini tashqi ko'rinishlari va ichki kechinmalari nuqtayi nazaridan ta'riflaydi.

Tushuntirish funksiyasi-inson xulq-atvoridagi o'zgarishlarning sabablari, omillari va shart-sharoitlarini, shuningdek, ularning turli yosh davrlaridagi tajribalarini tushuntiradi va tushuntirishga yordam beradi. Predikativ funksiya-har bir yosh bosqichida insonning xulq-atvori va tajribalaridagi muayyan o'zgarishlarni bashorat qiladi. Korreksion funksiya-inson rivojlanishini boshqarish uchun optimal sharoit yaratadi. Ontogenez psixologiyasi ana shu vazifalarni hal etish bilan amaliy

maqsadlarni ro'yobga chiqaradi: ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishga yordam beradi, moddiy ne'matlar ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga, millatlararo munosabatlarni yaxshilashga, shaxslararo muloqotni to'g'ri yo'naltirishga, jamoada ijobiy psixologik muhit yaratishga, uzoq umr ko'rish sirlarini ochishga, oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga, ajralishlarning oldini olishga xizmat qiladi. Modomiki shunday ekan, kamolotning turli davrlarini insonning yosh va jinsiy xususiyatlarini hisobga olmay turib, yuqoridagi vazifalarni hal qilib bo'lmaydi.

Ontogenez psixologiyasi psixika va xulq-atvorda bir yosh davridan ikkinchisiga o'tishda yuzaga keladigan miqdoriy hamda sifatiy o'zgarishlarni o'rganadi. Odatda bu o'zgarishlar hayotning muayyan bosqichlarini, perinatal davrdan to bir qancha yillarni (keksalik davrigacha) qamrab oladi. Ushbu o'zgarishlar "doimiy ta'sir etib turuvchi" omillar - biologik yetilish hamda inson organizmining psixofiziologik holati, uning insonga xos bo'lgan ijtimoiy munosabatlar tizimida tutgan o'rni, intellektual hamda shaxs rivojlanishida ularning erishgan darajasiga bog'liq bo'ladi.

Rivojlanish belgilaridan biri bo'lgan yana bir turdagi o'zgarishlar aniq bir ijtimoiy vaziyatning ta'siri bilan bog'liq bo'lib, ularni situatsion (ya'ni vaziyat bilan bog'liq bo'lgan) o'zgarishlar deb atash mumkin. Bunday o'zgarishlar inson xulq-atvori va psixikasida tashkil etilgan yoki maxsus tashkil etilmagan ta'lim-tarbiya ta'sirida vujudga keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, ontogenez psixologiyasi har bir rivojlanish bosqichining (ulg'ayish) psixologik mazmunini va ularning dinamikasini ochib beradi. Bundan tashqari, har qanday o'zgarishlar dinamikasi va inson psixikasining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda ko'rib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E G'oziyev. Ontogenez psixologiyasi/darslik /.Tosbkent:"NIF MSH", 2020, 288 bet.
2. Емельянова Т.В., Неверович Г.А. Чтение как способ формирования поля психологической устойчивости человека на поздних этапах онтогенеза. – "Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук", 2014.

MA'NAVIY TARBIYA – TARAQQIYOT POYDEVORI

Raxmatqulova Gulhayo¹

¹Xalqaro Nordik Universiteti

Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim talabasi

gulxayo@mail.com

Yunusova Nargiza²

Annotatsiya: Ushbu tezis “Ma’naviy tarbiya - taraqqiyot poydevori” mavzusida yozilgan. Bunda inson ruhiyatining yuksalishi, xalqimizning ma’naviy va madaniy meroslarini asrab avaylash, bu borada “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” da qanday maqsadlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgani haqida so‘z boradi. Ma’naviyat yo‘lida xalqimizga xizmat qilgan buyuk ajdodlarimiz, “Jadid” bobolarimizning ezgu g‘oyalari, ezgu maqsadlari haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, maqsad, tarbiya, taraqqiyot, inson, ruhiyat, poydevor, strategiya, rivojlanish, jadid, g‘oya

SPIRITUAL EDUCATION IS THE BASIS OF DEVELOPMENT

Abstract: This thesis is written on the topic “Spiritual education – the foundation of development”. in which the rise of the human spirit is the stability of the country’s development. It talks about the rise of the human spirit, the preservation of the spiritual and cultural heritage of our people, and the implementation of the goals in the “Development Strategy of New Uzbekistan” in this regard. Thoughts are expressed about the noble ideas and noble goals of our great ancestors who served our nation on the path of spirituality, our “Jadid” grandfathers.

Keywords: spirituality, goal, education, development, human, psyche, foundation, strategy, progress, jaded, idea.

Bugunki “Yangi O‘zbekiston dunyodagi rivojlangan davlatlar qatoridagi hayot darajasiga erishish uchun o‘z oldiga aniq maqsadlar qo‘ymoqda va bunga erishish uchun doim izlanishdadir. Bunday maqsadlarni amalga oshirish uchun har bir davlatning ularning yorqin kelajagi va istiqboliga xizmat qiladigan o‘z dasturlarini yaratishi lozim. Shunday ekan “Yangi O‘zbekistonni yuksak marralarga erishish uchun Prezidentimiz Shavkat Miromonovich tashabbuslari bilan 2022 – yil 28 yanvarda “Yangi O‘zbekiston - Taraqqiyot strategiyasi” ishlab chiqildi.

“Taraqqiyot strategiyasi” 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan bo‘lib, “Inson Qadri uchun” degan ezgu g‘oyani hayotga tadbiq etishni ko‘zda tutadi. “Taraqqiyot strategiyasida 100 ta maqsadga eltuvchi yo‘nalishlar aniq belgilab qo‘yilgan[1].

Ma’naviy tarbiya – inson ruhiy va aqliy dunyosini tarbiyalash, uni yutuk shaxsga aylantirishga, ma’naviyati kuchli jamiyatdan yengilmas buyuk bir davlatni barpo etishda asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan ma’naviy xususiyatlarini tarbiyalash uning asosiy vazifalaridan biridir. Insonlarning jamiyatdagi o‘rni ularning moddiy boyliklari bilan emas, balki yuksak bir ma’naviyati bilan belgilanadi. Insonning inson ekanini uni tabiatan ongli mavjudod, salohiyatli ekanini, fikrlay olishini isbotlab turuvchi bu kuch uning – ma’naviyatidir. “Ana shunday bir davrda o‘zbek xalqining milliy

qadriyatlari va ma'naviy me'rosini asrab - avaylash, ommalashtirish hamda rivojlantirish davlat tomonidan qo'llab quvvatlash "Taraqqiyot strategiyasi" ning 71-maqsadlaridan biri etib belgilandi." [2] Bu maqsadlarni amalga oshirishda Tuman, Shahar, mahalla, maktab, Oliy ta'lim va barcha sohalarni ma'naviy tarsibasini shakllantirish keng qamrab olindi. Bugunga kelib insonning ma'naviy olamini boyitish, uni aqlini bunyodkorlik g'oyalari bilan shakllantirish, vatanga sadoqat, muhabbat ruhida tarbiyalash Yangi O'zbekistonimizning taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo'lib sanalmoqda. Bunga misol qilib Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday so'zlarni aytadi: "Jadidlar g'oyalari Yangi O'zbekiston strategiyasi bilan hamohangdir". Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan bir paytda bizga Jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm - fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyat ruhida tarbiya topgan yutuk kadrlar suv va havodek zarur "[3]. Prezident Sh. Miromonovich ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun u 100 milliard so'm ajratganini ham takidlab o'tdi.

Bugunki kunda gullab yashnayotgan, har tomonlama o'z rivojini topayotgan, har sohada shu bilan birga ilm- fan sohasida yuksak marralar va yutuqlarga erishayotgan erkin va ozod, obod, mustaqil vatanimiz O'zbekistonimizning tarixiga bir nazar solaylik. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston diyorida shunday bir davr vujudga keldiki, bu davr ma'naviyatning yangilanish davri edi. Jamiyatni va aholini, xalqni ma'naviyatli qilish va uxlab qolgan aholini ongini uyg'otish davri ya'ni "Jadidchilik" harakatlari boshlandi. Bu harakatlarni yetakchilari Jadid bobolarimiz: A.Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvara Qori, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Cho'lpon, Behbudiy kabi buyuk ma'naviyat vakillari katta sahnaga chiqishdi. Bu insonlarning bosh maqsadlari mustamlakada qolgan xalqimizni uyg'otish, sinovlarda ezilayotgan aholini savodli qilish, milliy qadriyatlarni saqlab qolish, ularni ulug'lash, ma'naviyatlarini yuksaltirish, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodga ta'lim tarbiya berish, ularni barkamol shaxsga aylantirish, istiqboli porloqmillatni va kelajagi buyuk bir davlat barpo qilish edi. Ana shunday savobli, mashaqqatli, zahmatli, yashash tarzi qiyin bir davrda bu insonlar qiyinchiliklarga qaramay ushbu ulug' maqsadlar yo'lida fidokorona mehnat qilishgan. Bolalarni o'qitish uchun maktablar ochishdi, darsliklar yaratishdi, hozirgi ta'limning pedagogikasi yaratishdi. Sovet tuziming taziqlari qanchalik qiyin bo'lmasin bu insonlar hech qo'rqmay bu mashaqqatli yo'lda o'z jonbozliklarini ko'rsatishdi. Uyg'onib borayotgan xalq esa shubhasiz Sovet tuzimining siyosati ortida turgan rahbarlarga yoqmasdi. Bunga sababchi bo'lgan insonlarni esa davlat to'ntarilishi bo'lishidan qo'rqqan siyosat parvarlar esa, ularni "Qatag'on" qilishdi. Tarixda bu buyuk shaxslar "Qatag'on qurbonlari" nomini olishdi. Ana shunday ulug' maqsadlar yo'lida halok bo'ldilar. Bu buyuk shaxslarimiz ma'naviyatning taraqqiy etishiga, kelajagi porloq, erkin, ozod yurtimizning kelajagi va taraqqiyoti uchun ulkan bir tamal toshini qo'yishdi. 1991-yil 1-sentabrda O'zbekiston yagona bir davlat bo'lib mustaqillikka erishgach, O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov Abdug'aniyevich tashabbuslari bilan bu buyuk ajdodlarimizning nomlari oqlandi va ma'naviy va madaniy me'roslari o'z ezozini topdi. Bu insonlar buyuk vatanparlar nomi bilan tilga olindi. Shunday bir buyuk allomalarimizning, ajdodlarimizning ma'naviy va madaniy me'rosini asrab - avaylash, ularni ezgu maqsadlar yo'lida hayotga tadbiiq etish, har bir o'zbek millatining, xalqning, har bir yosh avlodning

eng asosiy vazifalaridan sanaladi. “Ma’naviy tarbiya – taraqqiyot poydevori” har bir millat va davlatning o‘z oldiga quyilgan aniq bir yo‘l va aniq maqsadlari bo‘ladi. Ma’niy tarbiyani taraqqiy topdirish inson qalbiga va uning ongiga mafkuraviy g‘oyalarni ya’ni bunyodkorlik g‘oyalarini singdirish, butun dunyo tan oladigan ulug‘ bir millatni barpo etish, ma’naviyatni ta’minlashlash, ma’naviy tarbiyaning eng asosiy mezonlaridir.

Xulosa o‘rnida aytishim mumkunki har qanday davlatni milliy va ma’naviyati mustahkam bo‘lsa unga hech qanday yod g‘oyalar o‘z ta’sir kuchini o‘tqaza olmaydi. Hozirki davrga kelib ham butun olamga chang solayotgan vayronkorlik g‘oyalari: teroristik, ekstrimizim, narkamaniya kabi ko‘zga ko‘rinmas yovlarning borligi va hali hamon xavf solishi hech kimga sir emas. Bu g‘oyalarning maqsadi asosan quporuvchilik, asosan yoshlar ongini zaharlash va ruhiyatlarini sindirishdir. Shunday ekan bu yovlarga qarshi kurashish ularni oldini olishda eng avvola o‘sib kelayotgan yosh avlodni manan va ma’naviy tarbiyalash oliy maqsadlarimizdan biridir. Shunday ekan bugunki yoshlarni ma’naviyati yuksaltirish uni madaniyatini oshirish, ularni Yangi O‘zbekistonimizning bundanda yuksalishi, rivojlanishi yo‘lida xizmat qiluvchi yutuk shaxs ruhida tarbiyalash bizning asosiy maqsadlarimizning omili bo‘lib sanaladi. Shu o‘rinda yangidan yangi g‘olar va tadbirlarni hayotga tadbiq etish o‘rinli deb hisoblayman. “Yangi O‘zbekistonning bunyodkor yoshlari “[4] shiori ostida o‘tqazilgan tadbir ham shular jumlasidandir. Bunday tadbirlar yoshlarni birdamlikka chaqirish, ularni o‘rtasidagi do‘stlik munosabatlarini mustahkamlash, bir birlari bilan fikr almashishga undaydi. Jamiyatning madaniyati va ma’naviyatini har tamonlama yuksak darajada rivojlantirish, davlatimizga, xalqimizga, vayronkor g‘oyalarini biz tomonga o‘taolmasliklari uchun buzilmas, mustahkam devor ya’ni bir so‘z bilan aytganda poydevor bo‘la oladi deb ishonch bilan ayta olaman. O‘ylaymanki “Ma’naviyati yuksak davlatning Kelajagi buyukdir. Kelajagi buyuk millatning farzandlari esa yengilmas, ma’naviyati buyuk, ruhan va aqlan sog‘lom, vatanparvar o‘g‘il qizlardir. Yosh avlodni ta’lim olishi uchun hozirgi zamonda Prizedentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan keng imkoniyatlar, zamonaviy o‘quv binolari, oliy o‘quv dargohlari qurilib keng, shinam va yorug‘ o‘quv xonalari barpo etildi. XXI asr fan va texnologiyaning rivojlanishi davrida raqamli tarmoqlarga o‘tish barcha muassasalarning axborot texnologiyalari bilan ta’minlash keng ma’noda qamrab olingan va hayotga tadbiq etilmoqda. Ajoyib imkoniyatlardan samarali foydalanish biz yoshlarning qo‘limizdadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. “Yangi O‘zbekiston – Taraqqiyot strategiyasi 2022-2026” Prezident Sh.Mirziyoyev
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev so‘zi
3. <https://.Lex.Uz. sayti>
4. <https://slibriaty.uz.sayti>

MA'NAVIY MEROSNING TARIXIY AHAMIYATI VA BARKAMOL YOSHLARNI TARBIYALASHDAGI O'RNINI

Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna¹

¹*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasini o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz, ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan ma'naviy boyliklar – siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq – odob me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuining barkamol avlodni shakllantirishdagi o'rnini yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviy meros, imon, e'tiqod, vijdon, islohot, ta'lim, tarbiya, barkamol avlod, jaholat, tafakkur.

Jamiyat ma'naviyati mamlakat taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Shu narsa haqiqatki, biron-bir mamlakat o'z ma'naviy imkoniyatlariga tayanmay, odamlar ongi, tafakkurida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. Ma'navit insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, uning ichki olamini boyitadigan, imon irodasi, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli kuchdir.

Tarixdan ma'lumki, mamlakatimiz bir necha bor ajnabiy bosqinchilar hujmiga duchor bo'lgan, qaramlik va zulm ostida qolgan. Buning oqibatida xalqimizning boy ma'naviy merosi, urf-odatlarini qadrsizlanishga mahkum bo'lgan. Ayniqsa, chor mustamlakachiligi va sovetlar tuzumi davrida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz oyoq osti qilindi. Ona tilimiz, boy ma'naviy merosimiz qadrsizlantirildi, ko'plab masjid-madrasalar, milliy maktablar, tarixiy yodgorliklar buzildi, qarovsiz qoldi. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan boshlab mamlakatimizda boy ma'naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Jamiyat ma'naviyatini tiklash va yuksaltirishni ta'minlovchi ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning yo'nalishlari belgilab olindi.

Ma'naviy meros qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz, ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan ma'naviy boyliklar – siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq – odob me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuidir. Ma'naviy qadriyatlar, boyliklar inqilobiy yo'l bilan hosil qilinadigan hodisa emas, u jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi va o'sha davr hayotini aks ettiradi, u jamiyat o'zgarishi bilan yo'qolib ketmaydi, keyingi avlodlar uchun meros bo'lib qoladi. Har bir avlod ma'naviyatni yangidan yaratmaydi, balki mavjud ma'naviy merosga tayanadi. Biroq uni qanday bo'lsa shundayligicha, ko'r-ko'rona qabul qilavermaydi, taraqqiyparvarlik, insonparvarlik, adolat nuqtai nazaridan qabul qiladi va rivojlantiradi.

Istiqlol tufayli milliy madaniyatimiz, jahon sivilizაციyasi taraqqiyotiga bebaho hissa qo‘shgan buyuk bobokalonlarimizning ma‘naviy merosi qaytadan o‘rganildi va tiklandi. Xalqimiz ulardan bahramand bo‘la boshladi. Mustaqillik yillarida xalqimiz ma‘naviyati yulduzlari bo‘lgan buyuk allomalarimizning tavallud topgan tarixiy sanalari YuNESKO bilan hamkorlikda mamlakatimizda va xalqaro miqyosida keng nishonlandi.

I.Karimov – “Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar o‘z yo‘liga. Ularni hal qilish mumkin. Xalqning ta‘minotini ham amallab turish mumkin. Ammo ma‘naviy islohotlar – qullik va mutelik iskanjasidan ozod bo‘lish, qadni baland tutish, ota-bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo‘lish – bundan og‘irroq va bundan sharafliroq vazifa yo‘q bu dunyoda”. [1-202] – deb bejizga ma‘naviyatga urg‘u bergani yo‘q.

Yon atrofimizda bo‘layotgan voqea hodisalarga ongli munosabatda bo‘lishda ma‘naviyatning o‘rni muhimdir.

“Biz, - deydi I.Karimov, - iqtisodiy o‘nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma‘naviy o‘nglanish, ma‘naviy poklanish, ma‘naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg‘un bo‘lishini istaymiz”. [2-35] Chunki xalq ma‘naviyati o‘nglanmaguncha, na ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda, na iqtisodiy sohada jiddiy yangilanishlar quvvatga kirishi qiyin.

Xalq ma‘naviyatini, millat ma‘naviyatini sun‘iy ravishda, qandaydir o‘ylab topilgan aqidalarga, dogmalarga tayanib, yuzaga keltirib ham, keskin o‘zgartirib ham bo‘lmaydi. Chunki ma‘naviyat tushunchasining mazmuni bir kunda, bir yilda, hatto bir asrda shakllanadigan narsa emas, u har bir xalqning juda uzoq tarixi qa‘ridan oziq olib, teranlik kasb etib keladi.

O‘rta Osiyo xalqlari tarixining ibtidosi asrlar qa‘riga singib ketgan bo‘lib, ular bosib o‘tgan necha ming yillik ma‘naviy kamolot pillapoyalarini aniqlash bugun uchun muhim muammodir. Biz bugungi kunda milliy ma‘naviyatimiz nazariyasini yaratish uchun avvalo uning tarixiy takomilini batafsil ko‘zdan kechirib chiqishimiz kerak bo‘ladi. Millatning ma‘naviy kamoloti zamonda, ya‘ni uning butun tarixi davomida yuz beradi, ammo u ba‘zan shiddat bilan yuksalib borsa, ba‘zan esa ma‘lum darajada tanazzulga yuz tutishi ham mumkin. Bir narsa ayonki, tarix hodisalari, shaxslar, voqealar o‘tib ketadi, moddiy madaniyat unsurlari yemiriladi, ma‘naviyat esa yuksalib, boyib, tobora kengroq ko‘lam va teranroq mazmun kasb etib boraveradi. Millatning aksariyati ma‘naviy tanazzulga yuz tutgan fojeiy sharoitlarda ham milliy ma‘naviyat yo‘qolmaydi, ko‘lam va mazmunda o‘zi yetishgan kamolot bosqichini yo‘qotmaydi.

O‘bekistonda amalga oshirilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlar barkamol avlodni tarbiyalash va yangicha mustaqil tafakkur tarzini shakllantirishda o‘ziga xos o‘rin tutmoqda. Ayni vaqtda biz dunyoni yangicha ko‘z bilan ko‘rib, yangicha, mustaqil tafakkur bilan idrok etayapmiz. Bugungi kunda har bir shaxs ijtimoiy jarayonlarni o‘zida mujassam etuvchi kuch sifatida ma‘naviy, madaniy, ma‘rifiy ehtiyojlar va milliy manfaatlarni teran anglay oladigan, milliy g‘oya va jamiyatimiz mafkurasini ongi va qalbiga singdira olgan yangicha tafakkurga ega bo‘lib bormoqda. Hozirgi kunda «Komil inson», «Barkamol avlod» tushunchalari alohida mazmun kasb etadi. Shu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, O‘zbekiston mustaqilligiga, yurtimizda yashayotgan barcha fuqorolar uchun munosib hayot sharoitini yaratishga

qaratilgan barcha islohotlarning samarasini yo‘q qilishga, yurtimizda qaror topgan tinch-osuda hayotni izdan chiqarishga harakat qilayotgan kuchlar bor ekan, «odamlarning ongi va tafakkuri uchun kurash hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgan bir vazifa» saqlanib qolmoqda ekan, bugungi kunda komil avlod, avvalo, ana shu ichki va tashqi tahdidlarga to‘siq bo‘lishga qodir, ma’naviy jihatdan mukammal, o‘zligini anglagan, iymon-e’tiqodi mustahkam, muqaddas qadriyatlarni o‘ziga singdirgan, irodasi baquvvat bo‘lmog‘i kerak. Bunday fazilatlarga ega bo‘lmoq uchun insonning irodasini toblaydigan, e’tiqodini mustahkamlaydigan ajdodlarimizning ma’naviy merosidan o‘z o‘rnida samarali foydalanish asosida avlod tarbiyasini yo‘lga qo‘yish zarur.[3-172]

Barkamol avlodni shakllantirish insonning aqliy, jismoniy, ma’naviy, axloqiy jihatdan yetukligi, Vatan taraqqiyoti, el-yurt farovonligi uchun jon kuydirishi, ezgu g‘oya va niyatlar bilan bunyodkorlik va yaratuvchanlik fazilatlari majmuini anglatadi. «Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma’naviy sog‘lom o‘sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo‘lgan, uyg‘un rivojlangan bo‘lib, XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz»[4-82] – degan edi I.A. Karimov.

Prezident Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasida – “Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o‘ta muhim masala borki, unga alohida to‘xtalib o‘tishni zarur deb bilaman. U ham bo‘lsa, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog‘liqdir.

Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, **bu masala biz uchun haqiqatan ham yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir** va o‘z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan, ta’bir joiz bo‘lsa, masalalarning masalasidir.

Shu ma’noda, bugungi kunda yurtimizda tobora keng tarqalib borayotgan **“O‘z bolangni o‘zing asra!”** degan da’vat faqat quruq shior bo‘lib qolmasdan, har bir ota-ona, har bir fuqaroning qalbiga, yuragiga chuqur kirib borishi, amaliy harakatga aylanishi uchun ijodiy tashkilotlarimiz ham o‘z mas’uliyatini jiddiy ravishda qayta ko‘rib chiqishlari davr talabiga aylanmoqda.

Biz bir narsani hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur. Agar “ommaviy madaniyat” tahdidi faqat chetdan – G‘arbdan kirib keladi, desak, qattiq adashamiz. Bu balo, afsuski, o‘zimizdan, o‘z oramizdan ham chiqishi mumkin. Men bu gaplarni osmondan olib aytayotganim yo‘q. Yurtimizda nashr etilayotgan ayrim gazeta-jurnallar, kitoblarni, suratga olinayotgan ba’zi klip va kinolarni, efirga berilayotgan qo‘shiq va raqslarni kuzatib, sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam shunday xulosaga kelishi tabiiy.

Eng yomoni, badiiy ijod sohasida jaholat ko‘rinishlari kuchayib bormoqda.

Biz “jaholat” deganda odatda diniy jaholat, aqidaparastlikni tushunamiz. Lekin bugungi hayotiy jarayonlar jaholat hamma sohada ham uchrashi, agar unga qarshi o‘z vaqtida kurash olib borilmasa, o‘ta og‘ir oqibatlariga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Biz bugun jaholat degan baloga iqtisodiyot sohasida ham, ta’lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash, madaniyat tizimida ham, qo‘yingki, hayotimizning barcha

jabhalarida duch kelyapmiz va bu illat qo‘l-oyog‘imizda bamisoli kishan bo‘lib turibdi. Bu kishandan xalos bo‘lmasdan turib, taraqqiyot va rivojlanish haqida hech qanday so‘z bo‘lishi mumkin emas.

Ayni vaqtda, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san‘atni anglashga o‘rgatish, ularning estetik olamini sog‘lom asosda shakllantirish bo‘yicha oldimizda juda muhim vazifalar turibdi” [5-03-08] - deb ma‘naviyatni jamiyat va davlat hayotida naqadar muhim ekanligini asoslab berdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki milliy ma‘naviy merosimiz tarixiy hodisa, ham zamonaviy voqelik bo‘lib, millatning o‘tmishi, buguni, hamda kelajagini o‘zida mujassam etadi. U millatimizning ma‘naviy takomil jarayoni bilan bog‘liq va nafaqat ajdodlarimiz yaratgan ma‘naviy merosda, balki bugungi kun va kelajak avlodlarning hayotga munosabatida, orzu- istaklarida o‘z aksini topgandir. Barkamol avlodni shakllantirish insonning aqliy, jismoniy, ma‘naviy, axloqiy jihatdan yetukligi, Vatan taraqqiyoti, el-yurt farovonligi uchun jon kuydirishi, ezgu g‘oya va niyatlar bilan bunyodkorlik va yaratuvchanlik fazilatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T.-«O‘zbekiston»-1996,
2. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o‘rni / Najmidinova Karimaxon Usmonovna. – T.: «Adolat», 2016.
3. <https://uza.uz/uz/posts/adabyet-va-sanat-madaniyatni-rivozhlantirish-khal-imiz-mana-03-08-2017>

“UZBEKISTAN-2030” STRATEGY IMPLEMENTATION OF DIRECTIONS AND PERSPECTIVES ON STRATEGY FROM THE YOUTH’S POINT OF VIEW

Kobiljonova Jasmina Jasur kizi¹

¹*JSPU named after A. Qadiri*

2nd level student of fine arts and engineering graphics

qobiljonov1225@gmail.com

Abstract: Ways and stages of implementation of the development strategy "Uzbekistan-2023", step-by-step implementation of plans and promising projects, changes in the education system and opportunities given to young people were discussed from the perspective of young people. Also, the specific aspects of educational system reforms, scientific development and innovative reforms and the fact that they are an urgent issue of the society are discussed.

Keywords: modern, information technology, strategy, expert, society, constitution, directions, development, concept, intensive, innovative, project.

Adoption of the newly revised Constitution of the Republic of Uzbekistan by popular vote in the referendum held on April 30, 2023 served to strengthen the constitutional foundations of the establishment of New Uzbekistan.

Adoption of the newly revised Constitution of the Republic of Uzbekistan by popular vote in the referendum held on April 30, 2023 served to strengthen the constitutional foundations of the establishment of New Uzbekistan.

The new development path of Uzbekistan was discussed and approved by the general public during the development of the "Uzbekistan - 2030" strategy.

The "Uzbekistan - 2030" strategy embodies several main ideas:

Taking a place among countries with higher than average income through stable economic growth;

Organization of the education, medical and social protection system that fully meets the requirements of the time and international standards;

- creation of favorable environmental conditions for the population;
- establishment of a fair and modern state in the service of the people;
- is to guarantee the sovereignty and security of the country.

Implementation of the "Uzbekistan - 2030" strategy and the achievement of its target indicators should be set as the highest priority of the education system, and modern pedagogues should be educated in accordance with the requirements of the times.

Within the framework of the "Uzbekistan - 2030" strategy, the head of our state, Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev, has decided to ensure the achievement of all important goals and the fulfillment of important tasks, which are set in the development strategy of New Uzbekistan and continue to be implemented.

Increasing the efficiency of teaching in modern lesson processes, using modern technologies and methods in teaching students increases the efficiency of learning lessons, and helps them learn quickly.

The concept of the development of the public education system of the Republic of Uzbekistan until 2030 stipulates the introduction of modern information and communication technologies and innovative projects in the education system. At the same time, the state education standards are based on the competency approach, teaching and evaluation methods, as well as the transfer of textbooks and other educational materials mainly to digitized technologies, the development of independent use and analysis skills of information technologies and other skills. , improvement of the quality of used textbooks, use of foreign textbooks as additional or alternative educational materials, and introduction into practice.

It is determined that the teaching process of foreign languages and information and communication technologies should be used as a methodical tool.

Another advantage of the use of information technology in the educational process is that it is a requirement of today's time for us students to be familiar with all new innovative information and express our opinions independently.

Nowadays, in the age of technology, which is accelerating, it is more effective and interesting to conduct classes with new pedagogical information.

Including the use of new pedagogical information and techniques in our country of knowledge is an example of this.

In the image of a modern teacher, we imagine pedagogues who are well-versed in information and communication technologies, who can organize a modern lesson process, and who can use advanced technologies. Today, it is one of the most important tasks of our country to provide education to young people, to prepare them at the level of mature and qualified staff who meet the requirements of state education standards in all aspects. "Formation of an excellent system of personnel training based on the rich intellectual heritage of the people and universal values, on the basis of the achievements of modern culture, economy, science, technology and technology is an important condition for the development of Uzbekistan"

As in any society, in the conditions of the economy of the development of our republic, it is important to train qualified specialists who can withstand competition. After all, the importance of the factor of professional personnel training in the development of society is a fact of life that does not require proof.

In recent years, large-scale work has been carried out and continues in our republic regarding the training of specialist personnel, improving its quality and efficiency.

Building a developed society, designing high-level technical solutions based on the latest advances in science and technology, and training creative specialists who can create high-tech devices are directly related to educational progress. In particular, the supply of creative engineers-designers to production is carried out in several higher technical education institutions in our republic, and graphic training, which is a means of realizing one's thoughts and ideas, plays an important role in the professional activity of these specialists.

In the system of higher technical education, a number of scientific and research works are being carried out to improve the content of graphic education and increase the quality of teaching.

Also, in the educational process, the formation of graphic literacy of students using computer technology is one of the urgent problems. It is noteworthy that it is achieving its effectiveness.

Thus, based on the results of the current analysis, it can be concluded that, despite the fact that several scientific studies have been conducted on the improvement of graphic education and the use of computer technology in this field, graphic education is based on the use of modern advanced pedagogical technologies. The pedagogical foundations and didactic conditions of the intensification problem have not been developed.

As mentioned above, training of future teaching specialists in computer graphics in the higher education system is carried out by studying the current state of study plans, programs and existing scientific and methodological literature.

The following are the measures for the implementation of the "Uzbekistan - 2030" strategy in 2023-2024 in the regions:

- Formation of elementary computer literacy skills in students by providing state pre-school education organizations with 100 percent computer classes;
- Formation of elementary computer literacy skills in students by providing state pre-school education organizations with 100 percent computer classes;
- Creation of about 700 new textbooks, workbooks, methodical manuals for pedagogues and mobile applications;

- Creation of 1000 multimedia programs for tablets based on new generation textbooks;

Sending 1,000 educators and teachers to foreign countries for training and internship;

- Increasing the quality of education and improving the material and technical base in 700 professional educational institutions;

- Bringing the level of inclusion of young people to higher education to at least 50%;

- Full provision of general secondary education organizations with highly educated pedagogic personnel;

- To achieve the inclusion of 10 higher education institutions in the rating of the most prestigious "Top-1,000" higher education organizations of the world;

- Increasing the effectiveness of scientific research in higher education institutions and increasing the scientific potential to 70%;

Broad implementation of innovative activities in all directions, support of scientific research and innovative initiatives;

- Increase the number of IT-park residents by 10 times, increase the share of services provided by them in the GDP to 2.2%, and increase the number of jobs created in them to 100,000;

- Increasing the number of representative offices of foreign companies to 1000 by establishing the "International Center of Digital Technologies" for foreign companies in the IT park;

- The startup has set itself the goal of releasing the first (Unicorn) startup project worth 1 billion dollars to increase the national market capitalization by supporting the projects through the acceleration (development) program of the IT park.

(Appendix 1 as amended by Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-214 of December 25, 2023 — National Legislative Information Database, 12/29/2023, No. 06/23/214/0984)

The president of our state has the following sayings: "If what bothers you about me?" If you ask, I will answer that it is the education and upbringing of our children.

Our conclusion is that in every developing country, the main focus is on education. Specific goals are set for development. It is no exaggeration to say that the "Uzbekistan-2030" strategy is one of the best plans. After all, the stability, growth and development of our country undoubtedly depends on the education system and the intellectual potential of young people.

References:

1. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413> PF- №158. 11.09.2023. "Uzbekistan — 2030 strategy"
2. <https://lex.uz/acts/-48401> National personnel training program.
3. <https://lex.uz/docs/-4312785> The concept of development of public education system of the Republic of Uzbekistan until 2030
4. Sh.M.Mirziyoyev- "Together we will build a free and prosperous democratic state of Uzbekistan" Toshkent. Uzbekistan-2016.

5. Zoyirov K.A. The concept of intensive graphic training of future specialists in the process of continuous education. Journal of public education. 2006. pages-6-21-25

KONSTITUTSIYA YOSHLARDA SIYOSIY MADANIYATNING SHAKLLANISHIDA MUHIM AHAMIYAT KASB ETADI

Qobilova Madina Sobir qizi¹

¹Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Yangi qabul qilingan Konstitutsiya o'z mohiyatiga ko'ra barcha qonunlarga manba vazifasini o'taydi va davlat boshqaruvini amalga oshirishni nazarda tutuvchi huquqiy, siyosiy hujjatdir. Konstitutsiyamiz o'zida belgilangan normalarga ko'ra yoshlarning siyosiy va huquqiy madaniyatini shakllantirishni maqsad qilib qo'yadi. Konstitutsiyani chuqur bilish orqaligina Vatanga sadoqat, jamiyatga hurmat paydo bo'lib, belgilangan burchlarni ixtiyoriy bajarishga intilish vujudga keladi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, demokratik, ma'muriy, madaniyat, norma, islohot, qomus, aspekt, siyosiy-ijtimoiy.

Yoshlar siyosiy madaniyatining shakllanishi asosan jamiyatda inson huquq va manfaatlarini anglash, idrok etish, hamda undan foydalana olish darajasi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan yoshlar siyosiy madaniyatini shakllantirishda yangi qabul qilingan Konstitutsiya muhim o'rin tutadi. Yoshlar har qanday davlatning olib borayotgan siyosatining ob'yektini tashkil etuvchi muhim ijtimoiy qatlam sanaladi. Yani, davlat rivojining natijasi undagi munosib vorislarning yetishib chiqishi bilan chambarchas bog'liq. Negaki, demokratik davlat dastlab ta'lim taraqqiyoti, yoshlarning tegishli kasb doirasida yetarli malaka va tajribalarga ega bo'lib yetishishini yoqlaydi. Shuningdek, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi faol ishtirokidan manfaatdor bo'ladi.

Ma'lumki, Konstitutsiya hech qaysi hujjatda uchramaydigan jamiyatda mavjud barcha sohalar bo'yicha yoshlarni yo'naltirish xususiyatiga ega. Unda nafaqat siyosiy huquqiy normalar, balki milliy-ma'naviy qadriyatlar ham o'z ifodasini topgan. Yoshlar Konstitutsiya orqali faqat o'z huquqlarini emas, balki burchlarini ham anglaydilar. O'z huquqlari bilan birga o'zlarining huquqlariga rioya etishni va ularning ta'minlanishini tushunib yetadilar.

Asosiy qonunimizning mazmunini to'g'ri idrok etgan yoshlar bevosita Konstitutsiyamizning asosiy prinsiplari, inson huquq erkinliklari va burchlari, jamiyat va shaxs to'g'risidagi normalar, davlatning ma'muriy va hududiy tuzilishi, davlat hokimiyatining tashkil etilishi kabi siyosiy jarayonlardan voqif bo'ladilar.

Muayyan siyosiy tasavvur, yoshlarning siyosiy sohada yetarli malaka va bilimga ega bo'lishini ta'minlaydi. Chunki, yangi qabul qilingan Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan normalarning har biri yoshlarga to'g'ri siyosiy yo'nalish berish bilan birga ularning falsafiy mushohada etish, madaniy jihatdan o'zligini namoyon etish ko'nikmasini shakllantiradi.

Konstitutsiya yoshlarda siyosiy ong, siyosiy bilim, siyosiy mulohaza va siyosiy xulq-atvor kabi tushunchalarni o'zida mujassam etgan siyosiy madaniyat tushunchasining shakllanishiga sabab bo'ladi. Konstitutsiya siyosiy madaniyat tushunchasi bilan mohiyatan o'zaro bog'liq. Siyosiy madaniyat u yoki bu xalq yoki millat, unga mansub bo'lgan insonlar milliy madaniyatida o'zligini ko'radi va anglab boradi. Konstitutsiya esa siyosiy madaniyatning shakllanishiga ozuqa beruvchi asosiy manba vazifasini o'taydi.

Siyosiy madaniyat o'zida uzoq yillar shakllangan va turli avlodlar tomonidan qadrlanib kelinadigan siyosiy an'analarni, siyosiy amaliyotda faoliyat ko'rsatayotgan normalarni, g'oyalarni, konsepsiyalarni o'zida ifoda etadi. Konstitutsiya yoshlarning mazkur siyosiy omillardan amalda foydalanishini ta'minlaydi. Umuman, yoshlar siyosiy madaniyatining yuksakligidan davlat va jamiyat katta naf ko'radi. Ayniqsa, yoshlarning siyosiy madaniyatini yuksaltirish undan-da muhim sanaladi. Yoshlarda siyosiy madaniyat avvalo oiladan boshlanadi. Oilada yoshlar g'oyaviy – siyosiy madaniyatini shakllantirish tizimiga innovatsion yondoshuvning muhim ijtimoiy masala sifatidagi zaruriyati shundaki, oila tarbiyasi, davlat va jamiyat boshqaruvi jaroyonlarida yoshlarning ishtiroki, o'rini, ularning umuminsoniy madaniyat darajasi, hulq – atvor me'yorlari, umuminsoniy qadriyatlarini, milliy an'analarga bo'lgan munosabatlari bilan hamoxang ekanligini bildiradi.

Siyosiy madaniyat bilish, baholash va xulq-atvor kabi uchta bosqichdan iborat bo'ladi. Mazkur uch bosqich orqali siyosiy hokimiyatni amalga oshirishda bevosita ishtirok etish davlat boshqaruvining demokratlashuvi bilan uzviy bog'liq. Qonunlarimiz manbai sanalmish Konstitutsiya yoshlarda siyosiy madaniyatning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, Konstitutsiyamiz o'zida belgilangan normalarga ko'ra ham fuqarolarning, xususan, yoshlarning siyosiy va huquqiy madaniyatini shakllantirishni maqsad qilib qo'yadi. Fikrimizning asosi sifatida Konstitutsiyamizning muqaddimasiga etibor qaratsak, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatni anglagan holda asosiy qonunimizning qabul qilinganligi etirof etilgan. Har qanday ezgu ish yoki qonunlar kelajak avlod manfaatini o'ylab amalga oshirilishi mantiqiy hol. Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimiz aholisining oltmish foizidan ziyodini yoshlar tashkil etadi.

Konstitutsiyani puxta o'rganish jamiyatning asosiy qatlami sanalmish yoshlarning ham mazkur jarayonlardagi faolligini oshirishga hizmat qilishini aytib o'tish o'rinli.

Yosh avlodga zamonaviy ta'lim berish bilan birga ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ongi va qalbini mafkuraviy, ma'naviy va axborot taxdidlaridan ishonchli himoya qilish, ularda g'oyaviy immunitet va vatanparvarlikni shakllantirish masalalari davlatimizning doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Prezidentimiz rahnamoligida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar jarayonida Konstitutsiyamizda o'z ifodasini topgan ezgu maqsad va vazifalarni

hayotga keng tatbiq etish, qonun ustuvorligini ta'minlash, aholining, jumladan, yosh avlodning huquqiy ma'daniyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, Yoshlar ishlari agentligi tashkiloti va ta'lim muassasalari hamkorligida ko'plab loyihalar hayotga izchil tatbiq etilmoqda.

Mazkur loyihalarni o'tkazishdan maqsad, Bosh qomusimizning tarixiy ahamiyati va zaruriyatini tushuntirish, Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklari oliy qadriyat ekanini targ'ib qilish orqali yoshlarni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Yangi qabul qilingan Konstitutsiyamiz Bosh qomusimizni bilish, chuqur o'rganish va o'sib kelayotgan avlodlarni ham mana shu ruhda kamol toptirish, eng avvalo, yurtimiz erishgan marralarni yanada yuksaltirish, tinchlik va osoyishtalikni saqlash, jamiyat va davlat boshqaruvini yanada demokratlashtirishning muhim asosidir.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, qachonki demokratik tamoyillar ko'proq quyidan yuqoriga qarab takomillashib borsa, u o'ziga xos qadriyat darajasiga ko'tariladi. Zero jamiyat a'zolari kundalik hayotida aks etmaydigan demokratiya turmush tarzimizning tarkibiy qismiga ham aylana olmaydi. Bu esa uzoq muddatli jarayon. Jamiyat siyosiy hayotini erkinlashtirish va demokratlashtirish shoshma-shosharlik bilan amalga oshiriladigan jarayon emas. Agar ushbu holat bosqichma-bosqich muntazam amalga oshirilmaydigan bo'lsa, turli xavfli, noxush oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois ham davlatimiz rahbari, bir ijtimoiy tuzumdan, ikkinchisiga o'tish muqarrar ravishda kuchli ijtimoiy-siyosiy faollik asosida amalga oshishini ta'kidlab, bu jarayonga tabiiy holat sifatida qaramoqda. Ana shu tabiiylik jamiyat a'zolarini ayniqsa, ongi, tafakkuri hali to'la shakllanib ulgurmagan yoshlarning hayotida birmuncha qiyinchilik bilan amalga oshadi. Yoshlar ijtimoiy-siyosiy ongini o'stirish va yangicha dunyoqarashini shakllantirish masalalari ma'naviy yetuklikka asoslangan hamkorlik, hamjihatlilik, hamfikrlilik omillari turli inqirozli holatlar, to'qnashuvlarning oldini olish jarayonida namoyon bo'ladi. Bu esa taraqqiyotning tadrijiyligiga olib keladi. Mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy barqarorligi jamiyatdagi ma'naviy salohiyat va intellektual omilning natijasi ekanligini ko'rsatmoqda. Bunda ijtimoiy-siyosiy faollik va milliy birlikning ta'minlanishini ikki xil aspektda ko'rish mumkin: 1) Bu jarayon jamiyat siyosiy tizimi, ya'ni kuchli davlat va uning ijro hokimiyatining amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan. (Milliy taraqqiyotning bunday yo'lini Amerika Qo'shma Shtatlari va Angliyaning 1930-1940-yillardagi siyosiy tizimi va ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarda ko'rish mumkin); 2) xalq ijtimoiy-siyosiy faolligi, millatning o'z-o'zini anglashi, ta'lim tizimiga alohida e'tibor, milliy taraqqiyot sari g'oyaviy-mafkuraviy birlikka intilishi bilan bog'liq bo'lgan. Germaniya va Yaponiyaning ikkinchi jahon urushidan keyingi milliy taraqqiyoti va unda nemis va yapon xalqlarining milliy birligining aks etganligi misolida ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, shunday vaziyatda xalqning ruhan tetikligi, g'oyaviy birligi bo'lmasa, jamiyat siyosiy tizimi amaliyotda hech qanday samara bermasligi mumkin edi. Aslida, o'tish davrida jamiyatning barcha sohalaridagi muammolar bir qalqib yuzaga chiqadi. Ana shunday dolzarb muammolarning yechimida aholi (Mamlakatimiz sharoitida aholining 60% dan ortig'ini tashkil qiladigan yoshlar)ning ijtimoiy-siyosiy faolligi, ongi va dunyoqarashi belgilovchi

ahamiyat kasb etadi. Mavjud muammolarning ko'lami, xalqning maqsad manfaatlari tizimi bilan bog'liqlik darajasi ommaning jamiyat taraqqiyoti bilan uyg'unlashuviga hamda shu asosda siyosiy dunyoqarashning, yangicha tafakkurning shakllanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Xalq so'zi. 2020-yil 25-yanvar. № 19 (7521)
2. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. -Toshkent: O'zbekiston, 2018. -195 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.// 25.01.2019. <http://www.uza.uz>.
4. Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -Toshkent: O'zbekiston, - 300 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618 "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni.//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.//<http://www.lex.uz>.
6. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. -Toshkent: O'zbekiston, 2018. -535 b.

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI – YOSHLAR SALOHIYATINI OSHIRISHDAGI MUHIM VOSITA

Feruza Mustafoyeva Xurshid qizi¹

¹ O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi
2-kurs talabasi, mustafayevaferuza07@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada mamlakatimizda yoshlarning o'z salohiyatini namoyon etishi uchun amalga oshirilayotgan islohotlar va "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun hujjatining ahamiyati haqida fikr-mulohazalar va xulosalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: "Yoshlar kuni", dastur, strategiya, prinsip, davlat mukofoti, intellektual salohiyat, IT sohasi.

Аннотация: В данной статье представлены мнения и выводы о реформах, проводимых в нашей стране для раскрытия потенциала молодежи, а также о значении закона "О государственной политике в отношении молодежи".

Ключевые слова: "День молодежи", программа, стратегия, принцип, государственная награда, интеллектуальный потенциал, сфера информационных технологий.

Abstract: This article presents opinions and conclusions about the reforms being carried out in our country to unlock the potential of youth, as well as the significance of the law “On State Policy Towards Youth.”

Key words: “Youth Day”, program, strategy, principle, state award, intellectual potential, information technology.

Dunyodagi har qaysi mamlakat yuksak taraqqiyotga erishish, rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olish uchun qator islohotlar, bunyodkorlik ishlarini amalga oshiradi. Eng asosiysi, bu borada mamlakatdagi yoshlarga alohida e‘tibor qaratilib, ular uchun barcha shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratib beriladi. Chunki yoshlar – kelajak avlod, yurt taraqqiyotidagi muhim shaxslardir.

O‘zbekistonimizning 32 yillik mustaqil hayotida yoshlarga, ularga sharoit va imkoniyatlar yaratish bo‘yicha ko‘plab normativ hujjatlar qabul qilingan. Mustaqillikdan so‘ng mamlakatimiz yoshlarini birlashtirish va uyushtirish maqsadida “Yoshlar ittifoqi” tashkiloti tuzilgan edi. Mazkur tashkilot yoshlarni o‘z dasturlarini bajarishga safarbar qilishi, yoshlarning manfaatlarini va ehtiyojlari o‘z qarorlarida aks ettirib, hayotga tatbiq etishi kerak edi.

1996-yilda esa bu tashkiloti tugatilib, O‘zbekiston Respublikasi yoshlarining “Kamolot” jamg‘armasi tuzildi. “Kamolot” jamg‘armasining vazifasi har bir yoshning manfaat va ehtiyojlarini chuqur o‘rganish, ularni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha dasturlar tuzish va davlat ko‘magi va amaliy yordami asosida hayotga joriy etishdan iborat edi. Mazkur tashkilot ma‘lum darajada o‘z vazifasini bajarib bo‘lganidan so‘ng 2001-yilda O‘zbekiston Respublikasi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tuzildi. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining asosiy maqsadi ham yoshlarni birlashtirib, ularning jamiyatda munosib o‘rin egallashlariga yordamlashish, manfaatlarini himoya qilish, yigit-qizlarning o‘z aql-zakovati, kuchg‘ayratini to‘la va munosib namoyon etishi uchun zarur barcha shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratib berish, kelajak avlodning tayanchi bo‘lishdan iborat edi. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati ko‘p yoshlarning hayotda munosib o‘rin egallashida katta rol o‘ynadi.

2017-yil 30-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan “Kamolot” Yoshlar ijtimoiy harakati (YoIH) qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Bu qurultoyda “Kamolot” Yoshlar ijtimoiy harakati tashkiloti tugatilganligi va “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi” tashkil etilganligi e‘lon qilindi. Yoshlarga oid barcha masalalar yurtimiz rahbarining to‘g‘ridan to‘g‘ri va bevosita e‘tiborida bo‘lishini ta‘minlash maqsadida “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi” raisi ayni vaqtda Prezidentning Davlat maslahatchisi lavozimida bo‘lishi ham belgilandi. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi bugungi kungacha o‘z faoliyatini olib bormoqda. Mazkur tashkilot yoshlarning o‘z iste‘dod va qobiliyatlarini namoyon qilishida, turli yutuq va mukofotlarni qo‘lga kiritishida, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli va foydali tashkil etishda, jamiyat hayotida munosib turmush sharoitlarini egallashiga, hayotda o‘rnini topa olishiga yordamlashishida muhim vazifalarni bajarib kelmoqda. “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi”ning tashkil topishi munosabati bilan 30-iyun “Yoshlar kuni” sifatida har yili yurtimizda keng nishonlab kelinmoqda.

Yuqoridagi ma‘lumotlarning barchasi yurtimiz siyosatida yoshlar masalasi nechog‘lik muhim ahamiyat kasb etib kelganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda ham jamiyatimiz hayotida eng katta va asosiy e'tibor yoshlarga qaratilgan. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarlarida ta'kidlaganlaridek, "Bizning taraqqiyot strategiyamizda har jihatdan barkamol rivojlangan, erkin fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlarga ega yigit-qizlarni tarbiyalash eng ustuvor vazifalarimizdan biridir".[1] Darhaqiqat, so'nggi yillarda qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, dasturlar yurtimiz yoshlariga yaratib berilayotgan imkoniyatlarning qonuniy ta'minlanishidir. Bilamizki, mamlakatimizda 2016-yil 14-sentabrda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun qabul qilingan bo'lib, ushbu qonun bugungi kungacha amalda bo'lib kelayotgan yurtimizdagi asosiy normativ hujjatlardan biri hisoblanadi. Mazkur qonunga binoan, yoshlarga oid davlat siyosati — davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimidir.[2] 33 moddadan iborat ushbu qonun mamlakatimizdagi 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari ta'minlanishida, ularning jismoniy, aqliy, ma'naviy va ruhiy jihatdan kamol topishida, band bo'lmagan yoshlarning ish bilan ta'minlanishida, bo'sh vaqtini samarali tashkil etishda, ularga sifatli ta'lim olish sharoitlarini ta'minlab berishda, har xil zararli, buzg'unchi va ma'naviyatimizga yot bo'lgan g'oya va ta'sirlardan himoya qilishda, vatanga sodiq, milliy qadriyatlarga, qonunlarga hurmat va itoat ruhida tarbiyalashda, iste'dod va qobiliyatlarini namoyon etishlarida, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yishlarida, ham moddiy ham ma'naviy jihatdan ta'minlashda muhim rol o'ynab kelmoqda.

Mustaqil diyorumizda yoshlarga bo'lgan e'tiborning yana bir isboti sifatida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning XIV bobi "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlanganini keltirishimiz mumkin. Xususan, yangi tahrirdagi bosh Qomusimizning 79-moddasida: "Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi", – deb belgilab qo'yilgan. [3] Bu yerda alohida e'tirof etilishi kerak bo'lgan jihat – yoshlarga bo'lgan e'tiborning Konstitutsiya darajasida belgilab qo'yilganligidir. Bu o'z navbatida, yurtimiz siyosatida yoshlar masalasi ustuvor ahamiyat kasb etishidan ham dalolat beradi.

"Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunga binoan, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishi quyidagi prinsiplarga asoslanmoqda:

1. Ochiqlik va shaffoflik. So'nggi yillarda jamiyatimiz hayotida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakat miqyosida omma e'tiboriga havola etilmoqda. Har bitta yangilik, har bitta yutuq yoki g'alaba ommaviy axborot vositalarida, internet rasmiy veb-saytlarida, televideniylarda namoyish etib borilmoqda. Bu jarayonlar mazkur prinsiplarning namoyon bo'layotganligini bildiradi.

2. Yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi. Hech shubhasiz, mazkur siyosat 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan barcha yoshlarni qamrab olmoqda.

3. Yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish. Bu borada "Mirzo Ulug'bek vorislari", "Beruniy izdoshlari" va boshqa bir qator ko'rik-tanlovlar tashkil etilib, yoshlarning rag'batlantirilayotganligi, turli g'oliblik va yutuqlarni qo'lga kiritayotganligi, o'z iste'dodini namoyon qilayotgan yoshlarning esa "Mard o'g'lon", "Kelajak bunyodkori", "Zulfiya" nomidagi davlat mukofotlari bilan taqdirlanayotganligini isbot o'laroq keltirishimiz mumkin.

4. Ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarining ustuvorligi. Yurtimizda olib borilayotgan har bir islohot, yangilanishlarda milliy qadriyatlar, axloqiy jihatlar hisobga olinmoqda. Ya'ni islohotlar jarayoni milliy va ma'naviy qadriyatlarimiz bilan uyg'unlashtirilmoqda. Bunda yoshlarni milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadi ham hisobga olinmoqda.

5. Yoshlarning kamsitilishiga yo'l qo'yilmasligi. Har bir jarayonda teng huquqlilik, adolat prinsiplariga rioya qilingan holda islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda ayrim yoshlarda millat va Vatan uchun haqiqiy jonkuyar inson bo'lish, istiqlolimizni mustahkamlashda foydali inson bo'lib yetishish, yurt ravnaqi uchun hissa qo'shish va boshqa vatanparvalik tuyg'ulari shakllanmaganligi bois shaxsiy manfaatni birinchi o'ringa qo'yish, yengil-yelpi yo'llar bilan to'kis hayotga intilish va boshqa salbiy xususiyatlar namoyon bo'lmoqda. Bundan tashqari, ayrim fuqarolar orasida ma'naviy bo'shlik, dunyoqarashning torligi, milliy odob-axloq mezonlariga rioya qilmaslik, so'z va ish birligining yo'qligi, milliy g'urning yo'qolib borayotganligi, o'zligini rad etish va shu kabi "ommaviy madaniyat"ning boshqa noxush ko'rinishlari uchramoqda. Bugun shu noxush va salbiy holatlarning oldini olishda, ularni bartaraf etishda birgalikda va jipslikda harakat qilinishi lozim.

2023-yilning 11-sentabr kuni qabul qilingan, mamlakatimiz ijtimoiy hayotida katta va muhim voqea sifatida e'tirof etilgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham yoshlarga oid davlat siyosati yo'nalishida bir qator islohotlar keltirilgan bo'lib, bular quyidagilar:

- yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga o'qitish tizimini yaratish;
- yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini rag'batlantirish;
- yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ishsizlik darajasini kamaytirish;
- yoshlar o'rtasida IT sohasini yanada ommalashtirish hamda sohada xizmatlar eksportini oshirish;
- jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish;
- respublikada sport bilan professional va doimiy shug'ullanuvchi yoshlar ulushini oshirish va boshqalar.

Mazkur islohotlar bugungi zamon nuqtayi nazaridan kelib chiqib amalga oshirilishi lozim bo'lgan va buning natijasida yoshlarning zamonaviy kasb-hunar bilan ta'minlanishiga erishish, ularni ishsizlikdan himoyalash, jahon bozorida talabgor bo'lgan sohalardan xabardor bo'lish, jismonan sog'lom bo'lishlari kabi maqsadlarga qaratilgan islohotlardir.

Umuman olganda, yurtimiz siyosiy hayotida yoshlar masalasi dolzarb va birinchi navbatdagi masalalar qatorida bo'lgan. "Yoshlarga oid davlat siyosati

to'g'risida"gi qonun asosida amalga oshirilayotgan islohotlar har bir yoshning salohiyatini oshirishda, jamiyatda o'z o'rnini topib, munosib sharoitlarda hayot kechirishiga, eng zamonaviy kasb-hunarlarini egallashiga katta yordam berib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarga oid davlat siyosati hamda davlatning shu sohaga qaratilgan dasturlari va rejaları jamiyatimizdagi yoshlarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ro'yobga chiqarish uchun zarur sharoitlarni yaratib berish, har bir yoshning rivojlanishi va kamol topishi uchun qulay, zamonaviy sharoit va imkoniyatlarni yaratib berish, jamiyatda ularning o'rni va rolini yanada oshirish, sog'lom, barkamol, keng dunyoqarashga ega, mafkuraviy immuniteti kuchli avlodni tarbiyalash, ajdodlarimizga munosib avlod bo'lishda va eng muhimi, xalqimizning ulug' maqsadlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston. Toshkent – 2023.
2. Sh. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. O'zbekiston. Toshkent – 2021.
3. www.lex.uz. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.09.2016 yildagi O'RQ-406-son.
4. www.lex.uz. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son.

TEMURIYZODA SHOHRUH MIRZO HUKUMRONLIGI DAVRIDA TEMURIYLAR SALTANATIDA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA TABOBAT MAKTABLARINING FAOLIYATI.

Sardor Nurmurod o'g'li Kenjayev

¹Buxoro davlat pedagogika instituti

*Tillar fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent*

Anotatsiya: Ushbu maqolada Temuriyzoda Shohruh Mirzo hukumronligi davrida Temuriylar saltanatida aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha tabobat maktablarining faoliyati xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'z: Tabobat,ilm, "Mujmal-i Fasihiy", "Al-asbob va-l alomat", "Muntahab ash-shifo", "Muntahab ash-shifo", "Nigoriston"

"Amir Temur va vorislari davrida tabobat ilmiga, davolash, orastalik ishlariga va bu sohadagi qurilishlarga katta e'tibor qaratilgan. Muarrixlar Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Fasih Xavofiyning "Mujmal-i Fasihiy", Xonda-mirning

“Xulosat al-axbor” va boshqa asarlaridagi ma’lumotlarga ko‘ra, o‘sha davr shifoxonalari madrasa va boshqa o‘quv yurtlarida bilim olgan yuzlab tabiblar ishlashgan. Ikkinchi ming yillikda Ar Roziy va Abu Ali ibn Sino boshlab bergan an’ananing davomchilari sifatida Ismoil Jurjo-niyning (1141 yilda vafot etgan), “Zahirayi Xorazmshohiy”, “Qarabadini Xorazmshohiy” kabi qomusiy asarlari Osiyo va Yevropa mamlakatlarining tibbiyot sohasida asosiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan. Uning ijodiga mansub yirik 14 ta asarining 12 tasi tibbiyotga aloqador bo‘lgan. Uning 10 ta kitobi fors tilida, 12 tasi arab tilida yozilgan asarlari bizga ma’lum. Mazkur asarlar ayni kunlarda Xivadagi Xorazm tibbiyot muzeyida saqlanmoqda. Temuriylar davrida tibbiyot sohasida Najibuddin Samarqan-diy (1222 yilda vafot etgan)ning “Al-asbob va-l alomat” (Kasallik sabablari va belgilari) asari dunyoga kelgan. Asar yozilganidan ikki asr o‘tib, al-Kirmoniy unga sharhlar yozgan va Ulug‘bek mirzoga taqdim etgan (O‘zFASHI da uning 4 ta qo‘lyozmasi mavjud). Nosiriddin Muhammad ibn al-Hasan at-Tusiy (1273) “Axloqi Nosiriy” asari (qo‘lyozma va bosma holda O‘zFASHI da mavjud), Ishoq ibn Murod (XV asr) “Muntahab ash-shifo” (“Tibbiy saylanma”) (qo‘lyozmaning bir nusxasi O‘zFASHI da mavjud). Mansur ibn Muhammad ibn Faqih Ilyos (XIV-XV asr)ning tabobatga oid 3 ta asari, “Risola dar tashrixi badan inson” (“Odam anatomiyasi haqida risola”), “Kifoyai Mujohidiya” (“Mujohidlar uchun to‘liq kitob), “G‘iyosiy” nomdagi asarlari mavjud bo‘lib, oxirgi kitobidan tashqari yuqoridagi ikki kitobi va boshqa bitta qo‘lyozmasi O‘zFASHI da joylashtirilgan. Burxoniddin al-Kirmoniy (XV asr) asli Kirmonlik, Sulton Husayn Boyqaro xizmatida bo‘lgan. “Bahr ul-havoss” (“Hosiyatlar dengizi”) asarining uchta qo‘lyozma nusxasi O‘zFASHI da mavjud. Muiniddin Juvayniy (XV asr) “Nigoriston” nomli tibbiy asarini 1431 yilda yozib tugallagan va uni qo‘lyozma nusxasini Mirzo Ulug‘bekka taqdim etgan. Sulton Ali (XV-XVI asr) Xurosonda tug‘ilgan, umrining asosiy qismida Samarqandda yashagan. “Dastur ul-iloj” (“Davolash dasturi”) asari muallifi hisoblanadi. (Qo‘lyozma O‘zFASHI da mavjud) Shoh Ali ibn Sulaymon (XV-XVI asr)ning “Zubdai manzuma dar fanni kaxxoliy” (“Kaxxolik san’atiga oid she’riy risola”) ko‘z kasalligi muammolariga bag‘ishlangan risolasi ma’lum (uning ikkita qo‘lyozmasi O‘zFASHI da mavjud).

Hirotda Umarshayxning rafiqasi Mahdi ul-Milkat oqa qurdirgan “Dor ush-shifo” mashhur edi. Yuksak did va mahorat bilan bunyod etilgan mazkur shifoxona bilan uning shimol tara-fida barpo etilgan “Dor al-xuffos” orasida hovuz bo‘lib, unda tabiblar bemorlarni davolashgan. Shuningdek, Bog‘i Zag‘onda ham shifoxona mavjud edi. Yetuk shifokorlar bemorlarni shifoxonalarda davolash bilan birga madrasa, o‘quv yurtlarida mudarrislik ham qilishgan. Ba’zi-lari asarlar yozishgan. Olimlarning ayrimlari o‘zlaridan oldin yozib qoldirilgan sohaga oid arab, fors, turkiy tillardagi asarlariga sharhlar bitishgan. Muarrixlar Sharafuddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshohning ma’lu-motlaricha, Amir Temur Shom (Suriya) dan Samarqandga tabiblar sardori Mavlono Sulaymonni olib kelgan. Sohibqironning shaxsiy tabibi Mavlono Fazlulloh Tabriziy hisoblangan. Shu-ningdek, buyuk hukmdor saroyida Mavlono Izzaduddin, Mas’ud Sheroziy, Mavlono Farrux kabi mashhur tabiblar ham faoliyat ko‘rsatishgan.

Taniqli tabib Mansur ibn Muhammad ibn Ahmad Yusuf ibn Faqih Ilyos tabobatga oid bir necha asarlar yaratgan: “Tashrixi Mansuri” nomi bilan mashhur bo‘lgan va Amir Temurning nabirasi Pir Muhammad Bahodirga bag‘ishlangan “Risola dar tashrixi badani inson” (“Inson anatomiyasiga oid risola”) shular jumlasidandir. Uning o‘z ustozlari Majohiddin nomi bilan atalgan ikkinchi asari “Kifoyai Majohidiya” (“Majohid uchun mukammal kitob”) nomi bilan mashhur bo‘lib, asar Zaynalobiddin Kashmiriy (1420-1470)ga bag‘ishlangan. Mazkur asarda inson tanasining sog‘lom holati, kasallik sabablari, salomatlik haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, badanning turli a‘zolari, ularning kasalliklari, davolash usullari, oddiy va murakkab dorilar tavsifi ham keltirilgan. Amir Temur tarixchi olim Tojiddin Ahmadiyni huzuriga chaqirib, Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari”ni ilk bor tilimizga tarjima qildirgan. Xurosonning Tayobod qishlog‘idan chiqqan mashhur olim va tabib Shamsuddin Odam va Nizomiddin Sheroziy Shohrux mirzo saroyida dong‘i ketgan tabiblardan edi. Tabiblar ayni vaqtda dorishunoslik (giyohlar) bilan bog‘liq ilmdan ham ogoh bo‘lishgan. Ular Eron, Xitoy (tibet) tibbiyotidan boxabar, ayni vaqtda nuqtali uqalash (akupunktura) va igna bilan davolash kabi serqirra faoliyat egasi bo‘lishgan. Tabiblar bemorni mizojiga qarab davolash uslublarini mukammal egallaganlar. Ayni vaqtda, hind tib-biyoti “chaqra” – bioquvvatni jamlash, ya’ni quvvatni bir doiraga to‘plash va shu usul bilan davolash sirlaridan ham ogoh bo‘lishgan. 1427 yilda Shohrux mirzoning o‘g‘li Boysung‘ur Bahodir betob bo‘lib qolganda, mazkur ikki tabib uni bir necha kun davolab oyoqqa turg‘azganlar. Kirmonlik tabiblar oilasidan chiqqan Burhonuddin Nafis ibn Ivas ibn Hakim al-Kirmoniy (eronlik) Mirzo Ulug‘bek taklifiga binoan Samarqandga kelib, unga shaxsiy tabiblik qilgan. U 1424 yilda Najibuddin Samarqandiyning (vaf. 1222) arab tilidagi “Kasalliklarning sabablari va alomatlari” (“Al-asbob va-l alomat”) asariga sharh bitib, uni Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlagan.

Al-Kirmoniy o‘z asariga sharhlanayotgan asardan ham ba’zi parchalarni kiritgan. Shu sababli Najibuddin Samarqandiyning asari fanga ma’lum bo‘lgan. Qarshilik mashhur tabib Ali ibn an-Nafis al-Qarshiyning (XIII asr) “Al-Mo‘jaz” asariga ham al-Kirmoniy sharh bitgan. Husayn Boyqaro saroyida Shamsuddin Muhammad ibn Odam, Muhammad Mo‘min, Qutbiddin Muhammad Odam singari olim va tabiblar xizmat qilishgan. G‘iyosiddin Muhammad ibn Jaloliddin tabib (vaf. 1500 yil) fanning turli sohalarida bilimdon bo‘lib, u “Muolajoti ilohiy” nomli asarga qisqa, lekin mazmunli sharh tuzib, tabobat ilmida o‘zini ko‘rsatgan.

Darvishalining tabiblik mahoratini Alisher Navoiy yuqori baholagan. U Milkat oqaning “Dor ush-shifo”sida mudirlik qilgan va shu shifoxonada bemorlarni davolagan. Turli kasalliklarni davolashda maxsus uslublarni qo‘llagan. Mavlono Kamoliddin Mas‘ud Shervoniy Gavharshod oqa va Ixlosiya madrasalarida bir necha yil mudarrislik qilgan. U nafa-qat tabiblikda, balki she’riyat va mantiq ilmlarida ham zo‘r mahoratga ega edi. Keyinchalik, u G‘iyosiya madrasasida dars bergan, tomirdan qon chiqarish uslubini puxta egallagan. U tibbiyotga oid ikkita asar yozganki, bu asarlar talabalar uchun dastur bo‘lib xizmat qilgan. Mavlono Nizomiddin Abdulhay tabib Alisher Navoiyning “Dor ush-shifo”sida bemorlarni davolash bilan shug‘ullangan. Hattoki, u Samarqandda Xoja Ahror Valiy betob bo‘lib qolganida

davolab, oyoqqa turg'izgan, so'ngra Hirotga qaytib Husayn Boyqaro saroyida bemorlarni davolagan. U ko'proq qon tomirlari bilan bog'liq kasalliklarni davolagan. O'sha davr tabiblari Najibuddin Samarqandiy, Tojiddin Hakim, Ne'matulloh ibn Fahriddin Muborakshoh, Hakim Kirmo-niy (Husayn Boyqaroning shaxsiy tabibi), Muhammad Husayn Nurbaxshiy, Bahouddavla ibn Mirqavomiddin, Mansur ibn Muhammad, Burhonuddin Nafis ibn Avaz (Mirzo Ulug'bekning shaxsiy tabibi va do'sti) samarali faoliyat ko'rsatishgan. Alisher Navoiy o'qigan madrasa bosh mudarrisi Fazlulloh Abullays taniqli olim va tabib edi. Shu sababli ham buyuk shoirning tib ilmi ancha yuqori bo'lgan.

Mirzo Ulug'bek tib ilmini qadrlagan. Tojiddin Hakim ko'z kataraktasini (ko'z gavhari ustida to'planib qoladigan oq, ko'k, qo'ng'irrangli suyuqlik) jarrohlik yo'li bilan davolagan. Chunki bir vaqtlar Shayx ur-ra'is – Ibn Sino o'z faoliyati davomida ko'z kataraktasini turlarini yozib qoldirgan va uni jarrohlik yo'li bilan davolagan ham edi. Ko'rinadiki, Amir Temur va vorislari davrida tabobat faniga homiylik qilinib, uning ravnaqi uchun ko'maklashishgan. Bu davrda ozodalik, orastalikka ko'proq e'tibor berilgan. Aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun hovuz, ariq, kanallar qazilgan. Tog'lardan buloqlarni suvini keltirib, ichimlik uchun foydalanishgan. Temuriylar davrida ko'proq yuqumli kasalliklar tarqalib turganligi uchun zarur choralar ko'rilgan. Ayniqsa, toza-lik, ozodalik va atrof-muhit musaffoligiga katta e'tibor berilgan. Ariq va hovuz suvlari nihoyatda toza saqlanganligi tarixiy manbalarda muhrlangan. Amir Temur davri tarixchisi Ibn Arabshoh o'zining "Ajoyib ul-maqdur fi tarixi Temur ("Temur tarixida taqdir ajoyibotlari") nomli kitobida xabar berishicha uning davrida saroyda ilohiyot olimlari, fiqhlari, riyoziyot (matematika), falakiyot (astronomiya), tibbiyot (meditsina), falsafa, tarix, musiqashunoslik, ilmu aruz fanlarining yetuk nomoyondalarini to'plangan. Tarix, tibbiyot, matematika, me'morchilik sohalaridagi yuksak salohiyat Sohibqiron avlodlari – ayniqsa, Mirzo Ulug'bekka o'tgani shubhasiz. Musulmon Sharqida shu turdagi binolarning mumtoz namunasi hisoblangan, Buxoroda barpo etilgan Ulug'bek madrasasi peshtoqiga "Ilm olish har bir musulmon erkak va ayolning burchidir", – so'zlarining bitilishi barchani ilm-ma'rifatli bo'lishga chorlaydi

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va uning vorislari Mirzo Shohruh, Mahdumzoda Ulug'bek Mirzolar davrida temuriylar saltanati Turonzamin va Xurosonda ilm-fan, ta'lim va tibbiyot ancha ravnaq topgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qodirov, Asadulla Abdulla o'g'li. Tibbiyot tarixi: Tibbiyot Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik/ A.A.Qodirov. —T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2005. — 176 b.

2. Нажибуддин ас-Самарқандий Усул ат-тарокиб ал-адавия (Мураккаб дориларни тайёрлаш усуллари) / Н. ас-Самарқандий; Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси; Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти; таржимон С. Каримова, Ш. Саидахмадов; кириш ва изохлар муаллифи С. Каримова; масъул муҳаррир М. Ҳасаний. - Тошкент: «Миѳагпг пазъпуоб», 2013, 100 б

3. N.N.Rasulova.//Amir Temur va Temuriylar davrida bunyodkorlik.// “Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Buxoro, 2022.151-153bet

MADANIYAT SOHASIDAGI ISLOHOTLAR BILAN KELAJAKKA NAZAR

To‘xtayeva Dildora Shuhrat qizi¹

¹Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi

21-04-guruh 3- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniyat sohasidagi islohotlarning foydali tomonlari, uning ertangi kunga ta‘siri haqida va madaniyatlikni oshirish bo‘yicha olib borilgan ishlar haqida so‘zlangan. Madaniyat tushunchasining inson hayotida tutgan o‘rni va uning jamiyat hayotiga ta‘siri to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Madaniyat va san‘at sohasining keskin o‘zgarishi, u alohida e‘tiborga loyiqligi va qabul qilingan islohot, qarorlar aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Madaniyat, islohot, yuksalish, san‘at, antropologiya, jamiyat, ma‘naviyat, madaniy meros.

Millat yuksalishining muhim ustunlaridan biri bo‘lgan madaniyat sohasini tubdan isloh qilish «Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 15-fevralda imzolangan Farmondan boshlandi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. 2004-yilda madaniyat va sport sohasining yagona boshqaruv tizimi tashkil etilganligi, qariyb 12 yildan ortiq vaqt davomida o‘zini oqlamadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Madaniyat va san‘atni yanada rivojlantirish to‘g‘risida»gi 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-sonli Qarorini qabul qilinishi esa, aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko‘rsatish darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish, madaniyat va san‘at sohasida iste‘dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo‘llab-quvvatlash, ta‘lim muassasalarini milliy cholg‘ular, musiqa darsliklari, notalar to‘plamlari va o‘quv-metodik adabiyotlar bilan ta‘minlashning yaxlit tizimini yaratishga zamin yaratdi. Shuningdek, 2022 -2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturini muvofiqlashtirish imkonini berdi.

“Madaniyat” arabcha madina (shahar) so‘zidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotini ikki turga: birini badaviy yoki sahroiyl turmush; ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Badaviylik — ko‘chmanchi holda dashtu sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik — shaharda o‘troq holda yashab, o‘ziga xos turmush tarziga ega bo‘lgan xalqlarga nisbatan ishlatilgan.

Ma'daniyat inson faoliyati va shu faoliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, me'morchilik, teatr, kinematografiya, turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Antropologiyada „madaniyat“ atamasi ostida mahsulotlar va ularni ishlab chiqarish, estetik ma'no berish hamda shu jarayonlarga bog'langan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Bu ma'noda madaniyat o'z ichiga san'at, fan va ma'naviy tizimlarni oladi.

Madaniyat — jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. „Madaniyat“ tushunchasi muayyan tarixiy davr, konkret jamiyat, elat va millat, shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalari (masalan, mehnat madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati)ni izohlash uchun qo'llaniladi. Tor ma'noda „Madaniyat» atamasi kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi.

O'rta asr madaniyatining buyuk namoyondalari Abu Ali ibn Sino, Beruniy va boshqa shahar turmush tarzini jamoaning yetuklik shakli sifatida talqin qilganlar. Masalan, Farobiy fikricha, har bir inson o'z tabiatiga ko'ra, „oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun intiladi“, bunday yetuklikka faqat shahar jamoasi orqaligina erishiladi. Uning ta'kidlashicha, „Madaniy jamiyat va madaniy shahar shunday bo'ladiki, bu mamlakatda har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma baravardir, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod yashaydilar“. Alisher Navoiy yetuk axloq, ma'rifatli va adolatli jamiyat, jamoa masalasini qayd etish bilan birga, ma'naviy yuksaklikka erishishning asosiy mezonini deb insonparvarlik g'oyalari muvofiqlikni tushundi.

Madaniyat sohasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, o'zbek mumtoz va folklor san'atining noyob namunalari va an'analarini yanada rivojlantirishni tizimli yo'lga qo'yish uchun barcha sharoitlarni yaratish lozim.

Prezidentimizning yaqinda e'lon qilingan „Ma'muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida“gi farmoni madaniyat sohasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish, soha vakillari zimmasidagi mas'uliyatni yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur farmonda madaniyat va san'at sohasi ta'limini tizimli isloh qilish, milliy musiqa va teatr san'ati, ilmiy-tadqiqot ishlari va ijrochilik mahoratining yangi tizimini joriy qilish maqsadida muhim chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, milliy musiqa san'ati yo'nalishida ta'lim va ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada takomillashtirish alohida qayd etildi.

Ijrochilik mahorati maktablarining yaxlit tizimini joriy etish, bastakorlar, hofiz va sozandalar, baxshichilik san'ati vakillarining noyob asarlari notalashtirilishi, ta'lim jarayonining uzluksizligi va uzviyligi ta'minlanib, nazariy va amaliy bilimlarni integratsiya qilish orqali maqom, baxshi va doston ijrochiligi yo'nalishlarida iste'dodli yoshlar seleksiyasini amalga oshirish kabi vazifalar san'at

va madaniyat sohasi pedagogikasining yuksalishida muhim omil bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Mustaqillik yillaridan moddiy madaniyatni rivojlantirish, yangi O'zbekiston madaniy merosini saqlab qolish va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash va san'at sohasini inovatsion rivojlanishga elementlarni chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Aholi, yoshning, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularning milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda madaniyat ma'naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh. Iste'dod egalarining kiyimlarini ro'yobga chiqarish uchun keng ko'lamlı ishlar olib borilmoqda.

Kun sayin san'at va madaniyat sohasining bizning ong-u shuurimizga yanada kuchliroq kirganligi ham bu sohada amalga oshirilishi kerak bo'lgan barqaror ko'laming kengayishiga zamin yaratmoqda. Shu tufayli ham O'zbekistonning yuksak madaniyati va san'atini xalqaro maydonda keng targ'ib qilish, xalqaro ko'rik-tanlov va festivallarda ajoyib ishtirokini, Samarqand shahrida o'zining ishtirokini «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali nufuzini yanada kuchaytirib, boshqaradi. Turli xilda chet ellik madaniyat va san'at namoyondalari keng qatnashishlarini ta'minlash, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va undan samarali foydalanish uchun barcha zarur vositalar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, xavfsizlikda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanadi. Qolaversa, taraqqiyotning chinakam bezak boylik yoki kuch-qudrat darajasi bilan emas, balki milliy madaniyatning naqadar yuksaklikka ko'tarilgani bilan o'lchanishi xususiday tarixiy misollar ko'p. Masalan, san'atshunos olim F.R.Martin «Temuriylar kabi san'at va madaniyatini qadrlaydigan hukmdorlar Markaziy Osiyoda hech vaqt bo'lmagan», - deb yozadi. Shu ma'noda davlatimiz rahbarining milliy madaniyatini yanada rivojlantirish loyihasini ishlab chiqishga doir tashabbusi tafakkur tarzimiz, hayotga munosabatimiz, millat va xalqning buguni, ertasini, navqiron avlod ma'naviy kamolotini, odamlarimizning nurli kelajagini yangi ishlarning tub ildizlarini ham o'z ichiga oladi desak yanglishmagan bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda, madaniyat tushunchasini yanada kengroq targ'ib etish va undagi islohotlarni qo'llab quvvatlashimiz kerak. Bizdan talab etiladigani esa madaniyatimizning yanada ravnaq topishi uchun fidokorona xizmat qilishdir, chunki milliy madaniyati yuksak xalq jahon hamjamiyatida mustahkam mavqega ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.mirziyoyev «O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotni xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishM qilishning masalalari» mavzusidagi xalqaro konferensiyadan.

2. Haydarov A. Madaniyat – milliy yuksalish poydevori. – Toshkent: Oltin meros press. 2021. – B. 478.

3. To'ychiyeva S. Madaniyat va san'atimiz rivojidagi zarsahifalar // Yangi O'zbekiston gazetasi. – Toshkent: 2022. – B. 6.

YUKSAK MA'NAVİYATLI AVLOD-UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORLARI

Sultanova Zebo Ilhom qizi¹

¹*Guliston davlat universiteti*

Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishi yo'nalishi 5 bosqich talabasi,

[*zebosultanova01@gmail.com*](mailto:zebosultanova01@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif bugungi kun yoshlari va ular har sohada erishayotgan yutuqlari hamda uchinchi renessans bunyodkorlari haqida o'z fikrlarini keltirgan. Maqolada ilm va ma'rifatni jamiyatning taraqqiyotiga gullab yashnashiga olib keluvchi kuch – bilim ekanligi haqida allomalar fikrlari keltirilgan. Yoshlarimiz zamonaviy bilim va taraqqiyot cho'qqilarini egallab, o'z ma'naviyati va tafakkuri bilan barchaga namuna bo'lishi kerakligi haqidagi g'oyalar to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Vatan, ma'naviyat, Uchinchi Renessans, jamiyat, taraqqiyot, kelajak.

Dolzarbliigi: Bugun hayotimizda yoshlarning kuchli bilm olishi, har tomonlama yetuk bo'lishi juda zarur. Chunki, millatning ertasi bo'lgan yoshlar bunday katta ma'suliyatning qanday muhim ekanligini anglashlari lozim. Millatning kelajak yoshlari har sohada katta maydonlarda O'zbekiston nomini har sohada yaxshi natijalari bilan himoya qila olmog'i lozim. Bugungi kun O'zbekiston taqdirida Uchinchi Renessans davridir. Bu davrda ko'p kamchiliklar bartaraf etilib yangi-yangi g'oyalarni amalga oshirish muhim bo'lgan kundamiz. Har qanday jamiyatning iqboli va istiqboli yosh avlodga bo'lgan e'tiborga bog'liqligi ayondir. Prezidentimiz faoliyati va qarashlarining muhim yo'nalishi ham shunga qaratilgani bejiz emas. Kelajakning bunyodkori, ertangi kunning hal qiluvchi kuchi-yoshlarga munosabat masalasi davlatning ustuvor siyosatiga aylangani rost. Maktabgacha ta'lim, Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari zimmasiga yuklangan vazifalar ham ana shu maqsadga qaratilgan.

Yoshlar borasidagi siyosat ta'limning uzluksiz tarbiyga ham yo'naltirilgani e'tiborlidir. Prezidentimiz yoshlarga ishonch bildirish asnosida yurtimizda iqtidorga, liderlik salohiyatiga ega yoshlar ko'pligi uchun ham mamlakatimizda uchinchi renessans davriga zamin borligini ro'yi rost e'tirof etadilar. Erishilayotgan yutuqlarimiz ko'p, lekin ular hali yetarli emas. Davlat rahbari yoshlar bilan uchrashuvda aytganidek, yoshlarimiz zamonaviy bilim va taraqqiyot cho'qqilarini egallab, o'z ma'naviyati va tafakkuri bilan barchaga ibrat hamda namuna bo'lishi kerak. Buning uchun ular vatan ravnaqini o'z hayotining mazmuni deb bilishlari, yoshlik umrning beg'ubor, ulkan orzu-umidlar va imkoniyatlar davri ekanini teran his etishlari lozim. Shu o'rinda ma'rifatparvar adibimizning so'zlari yodinga tushdi. «Bu dunyo kurash maydonidir. Sog'lom tan, o'tkir aql va yaxshi axloq bu maydon qurolidir», bu so'zlarni bekorga aytmaganlar. So'zimizni renessans so'zining ma'nosi

nima ekanligini bilishdan davom ettirsak. Forobiyning fikricha insonning va jamoatning g'alabaga erishuvi, yaxshilikni qo'lga kiritishi, axloqiy va aqliy mukammallikka ko'tarilishi inson va jamoaning o'z qo'lidadir. U davlatni fozil va johil davlatlarga bo'ladi. Fazilatli shaharlarda ilm-fan, falsafa, axloq-ma'rifat birinchi o'rinda bo'lmog'i lozim deb biladi. Shunda jamiyat yetuklikka erishadi. Fozil shahar boshlig'i bilimli, haqiqatni sevuvchi, yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qarashi, adolatni yaxshi ko'ruvchi va adolat uchun kurashuvchi bo'lishi kerak deb aytadi. Forobiy insonni kamoloti uchun xizmat qilgan, hayr-ehsonli ishlar, go'zal insoniy fazilatlarini yaxshilik deb hisoblaydi. Insonning kamolotiga to'sqinlik qiluvchi dangasalik, bekorchilik kabi yomon odatlar, bilimsizlik, ongsizlik, kasb-hunarga ega bo'lmaslik kabi nuqsonlarni yomonlik deb kishilarni undan ogohlantiradi. Yana bir allomamiz Yusuf Xos Hojib ilm va ma'rifatni jamiyatning taraqqiyotiga, gullab-yashnashiga olib keluvchi kuch deb bilib, ularni egallashga da'vat etadi.

Natijalar: Ze'ro, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev faoliyatining dastlabki davridanoq xalqimiz sog'ligi uchun qayg'urish vazifasini- Yangi O'zbekistonni bunyod etishning birlamchi omil sifatida kun tartibiga qo'ydi. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, xalq sog'ligi-eng muhim mezon, chunki aholisi sog'-salomat va bilimli davlatgina yangi Renessansga asos solishga qodir bo'ladi. Ko'rib turibmizki, barcha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar va islohotlar shu yurt uchun, shu xalq uchun ekanligini anglamoqdamiz. Buni erishilayotgan yutuqlardan va xalq shukridan ham bilishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugun katta yo'lga chiqqan O'zbekistonning oldiga qo'ygan maqsadlari juda kattadir. Albatta mu maqsadlarni amalga oshirish uchun barcha birde yelkama-yelka bo'lib harakat qilish zarurdir. Chunki, kuch birlikda. Har jabhada odimlashimiz va tinch farovon yashashimiz uchun qo'lni-qo'lga bermog'imiz kerak. Shunda bugungidan ham yutuqlarga va osoyishta kunlarga yetishamiz. Dunyo bizni yanada tan oladi va tan berishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Sh. Mirziyoyev. «Yangi O'zbekiston Strategiyasi». 2021-yil
2. Sh. Sh. Mirziyoyev «Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz».
3. I. A. Karimov «Yuksak ma'naviyat yengilmas-kuch». 2008-yil.
4. V. Qo'chqorov, O. Mahmudov, Z. Zamonov. -Ikkinchi nashr.-Toshkent: Yangiyo'l Poligraf Servis, 2018.-144 b.
5. A. Muhammadjonov. O'zbekiston tarixi. T

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATIDA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MASALALARI

Mustafoyeva Sevinch Shirin qizi¹

¹*O'zbekiston Milliy universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti
1-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Maqolaning mazmuni globallashuv davrida yoshlar borasida olib borilayotgan siyosat va uning ahamiyati, ma'naviyat va ma'rifat masalalaridan iborat. Shu o'rinda Yangi O'zbekistonda yoshlarga berilayotgan imkoniyat, bizning va butun davrni qiynayotgan muommolar, ularga qisqacha yechimlar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: Globallashuv, mafkura, ma'naviyat, ma'naviy barkamollik, yoshlar siyosati, odob-axloq, tarbiya, rivojlanish konsepsiya.

Abstract. The content of the article consists of the issues of youth policy and its importance, spirituality and enlightenment in the era of globalization Here are the opportunities given to young people in New Uzbekistan, the problems that plague us and the whole era, and brief solutions to them.

Keywords: Globalization, ideology, spirituality, spiritual perfection, youth policy, manners, education, devolepment concept.

Аннотация: Молодежная политика в эпоху глобализации и значение. Вот Возможности, предоставляемые молодежи в новом Узбекистане, проблемы, беспокоящие нас и всю эпоху, и краткие решения их.

Ключевые слова: Глобализация, идеология, духовность, духовное совершенство, молодежная политика, манеры и этика, образование, разработка концепция.

Hozirda yurtimiz aholisining oltmish foizga yaqinini yoshlar tashkil qilib kelmoqda. Davlatimiz olib borayotgan siyosatning bosh bo'g'inida ham hamisha yoshlar turgan. Bugungi global makonda yosh avlodning tarbiyasi, uning ma'daniy-ma'rifiy axloqi doim ham dolzarb va ustuvor vazifa hisoblanib kelgan. Zero, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham yoshlar tarbiyasi to'g'ri va ilmiy asosda yo'lga qo'yilmasdan turib, xotirjam bo'lishga hech kimning haqqi yo'q ekanligini alohid ta'kidlab o'tgan. [1:117]

Mustaqilligimizning ilk kunlaridayoq, jismonan sog'lom, ma'nan barkamol va yetuk yoshlarni tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilandi. 2017-yildan boshlab esa yoshlarga oid davlat siyosatida yangi davr boshlandi desak mubolag'a bo'lmaydi. 2017-yil 30-iyunda Prezidentimiz tashabbusi bilan Kamolot Ijtimoiy harakati O'zbekiston Yoshlar Ittifoqiga aylantirildi. Va Ittifoqning reja va maqsadlari aniq belgilanib olindi.

2022-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida",

"O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida",

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risidagi farmon va qarorlar shular jumlasidandir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, yoshlarni intellektual, salohiyatli shu jumladan globallashuv davrida keladigan madaniy zarba va ularga qarshi turadigan komil yoshlar tarbiyalash bizning va davlatning vazifasidir. Yoshlarda yetuk ma'naviyatni shakllantirish ta'lim va tarbiyaga bog'liq. Ta'lim-tarbiya yurt

ravnaqining asosiy shartidir. Yoshlar tarbiyasida ota-ona alohida o‘rin tutadi. Ilk bor hayot haqidagi tushunchalar, yaxshilik, oliyhimmatlik, odob-axloq, andisha kabi inson uchun zarur bo‘lgan muqaddas tuyg‘ular dastlab oilada qaror topadi. Farzandiga to‘g‘ri tarbiya berish, har daqiqada uning yurish turishi, holatidan xabardor bo‘lib turish, ularni ilm-u hunarga o‘rgatish har bir ota-onaning burchidir. Globallashuv - bugungi kunda ayrim xalqlarning milliy g‘oyasi, mafkurasi, e‘tiqodi va o‘tmish merosiga tahdid solmoqda. “Ba‘zi yigit qizlar uchun mehr-oqibat, odob-axloq tushunchalari butunlay begona bo‘lib borayotgani, ularda befarqlik, ma’suliyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko‘rishga intilish kabi illatlar paydo bo‘layotgani, achchiq bo‘lsa-da haqiqat”. [4:85] Bunday holatlarga tushib qolishimizning asosiy sababi ma’naviyat va ma’rifat ishini vijdon ishi deb bilmasligimizdadir.

Ko‘pchilik tadqiqotchi olimlar global o‘zgarishlar ma’daniy o‘ziga xosliklarga, ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga, ularning ongi va mafkurasiga ta’sirini o‘tkazishini ta’kidlaydilar. Yoshlarning ongi hali yozilmagan oq qog‘oz misoli. Unga nima yozilsa, o‘sha narsa namoyon bo‘ladi. Lekin unga bildirilgan munosabatlar esa har xil. Har qanday kasallikning oldini olish va da’volash usullari bor. Dardning oldini olish da’volashdan osonroq albatta. Bunda avvalo kasalikka qarshi immunitet shakllantiriladi. Biz ham global tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirmog‘imiz lozim bo‘ladi. Toki yoshlar milliy o‘zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan zamon bilan uzluksiz qadam tashlaydigan insonlar bo‘lib yetishsin. Yoshlar millat va davlat kelajagi. Davlatning bosh maqsadi ham yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo‘lida imkoni boricha to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy jihatdan shart-sharoitlar yaratishdan iborat. “Bir bolaga yetti mahalla ota” degan iborani eshitganmiz. Bu qanchalik to‘g‘ri? Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ma’rifatli inson bo‘lib voyaga yetishiga ko‘maklashish barchamizning vazifamizdir. Hozirgi paytda yoshlar, yoshlarga bog‘liq siyosat haqida gap ochilar ekan, ma’naviyat va tarbiya tushunchalari bilan ulab ketamiz. Bugungi kun talabidan kelib chiqib, agar biz har tomonlama kuchli, jahon yoshlari bilan tenglasha oladigan o‘zbek farzandini voyaga yetkazish uchun uning ma’naviyat va ma’rifat tomirlarini chuqurroq sug‘ormog‘imiz lozim.

Xulosa qilib aytganda, ma’naviy barkamol avlod mamlakat kelajagi. Ma’naviy barkamollik esa jamiyat taraqqiyotidagi muhim omillardandir. Shunday ekan, ma’nan va jismonan barkamol yoshlarni ulg‘aytirish yurt rivojlanishining garovidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolotga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. [5:90]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik” (Uslubiy qo‘llanma)- T:2022
2. www.lex.uz sayti

3. M.Akramov “Yoshlar tarbiyasida ma’naviyatning o‘rni”, T:2024 6-8-betlar
4. Toshbekova.M ”Globalashuv jarayonida mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etish omillari”. “Scientific Journal Impact Factor” 2021
5. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” Yoshlar Nashriyoti Uyi,-T:2019 90-91-bet
6. Shodmanov B.I ”O‘zbekistonda ilmiy salohiyatli yoshlarni, ma’naviy-axloqiy ma’daniyatini yuksaltirish omillari” -T-2020 24-25-betlar

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI, MA’NAVIY TARAQQIYOTNI TA’MINLASH VA MADANIYAT SOHASINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH BO‘YICHA ISLOHOTLAR

Qudratullayeva Ehtiromxon¹

¹*O‘zDSMIFMF "Teatr san’ati va xalq ijodiyoti" fakulteti*

Professional ta’lim: “Cholg‘u ijrochiligi va musiqiy nazariy fanlar” kafedrasi 3-bosqich talabasi

qudratullayevaehiromxon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola yoshlar davlat siyosatining ma'naviy taraqqiyot va madaniy taraqqiyot bilan kesishishini o'rganadi. Mavjud yondashuvlardagi bo'shliqlarni aniqlash uchun mavjud adabiyotlarni tahlil qiladi va ma'naviy va madaniy o'lchovlarni siyosat doirasiga kiritish usullarini taklif qiladi. Tadqiqotda adabiyotlarni ko'rib chiqish va amaliy ishlarni sifatli tahlil qilishni birlashtirgan aralash usulli yondashuv qo'llaniladi. Natijalar yoshlarni tarbiyalashda yaxlit rivojlanishning muhimligini ta'kidlaydi va siyosatchilarga o'z tashabbuslarini kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: yoshlar siyosati, ma'naviy taraqqiyot, madaniy uyg'onish, islohotlar, yaxlit rivojlanish.

Yoshlar har qanday jamiyatning kelajagini ifodalaydi va ularning rivojlanishini shakllantirish barqaror taraqqiyot uchun birinchi o'rinda turadi. Biroq, zamonaviy yoshlar davlat siyosati ko'pincha yaxlit rivojlanishning muhim yo'nalishlarini, xususan ma'naviy va madaniy jihatlarni e'tiborsiz qoldiradi. Ushbu maqola ma'naviy taraqqiyot va madaniy uyg'onishni yoshlarning davlat siyosatiga integratsiyalashuvining ahamiyatini o'rganishga, mavjud sohalarda islohotlar zarurligini aniqlashga qaratilgan.

Mavjud adabiyotlarda yoshlar rivojlanishining ko'p qirrali tabiati ta'kidlanib, nafaqat iqtisodiy va ma'rifiy omillar, balki ma'naviy va madaniy jihatlar ham ta'kidlangan. Biroq, ko'plab yoshlar siyosati asosan aniq natijalarga qaratilgan bo'lib, ichki o'sish va madaniy o'ziga xoslikni shakllantirishni e'tiborsiz qoldiradi. Olimlar yoshlarni rivojlantirishda jismoniy, hissiy, aqliy va ma'naviy farovonlikning o'zaro bog'liqligini tan oladigan yanada yaxlit yondashuvni qo'llab-quvvatlaydilar.

Ushbu tadqiqot keng qamrovli adabiyotlarni ko'rib chiqishni amaliy tadqiqotlarni sifatli tahlil qilish bilan birlashtirgan aralash usulli yondashuvdan

foydalanadi. Adabiyotlar sharhi akademik jurnallar, hukumat hisobotlari va yoshlarni rivojlantirish, ma'naviy taraqqiyot va madaniy tiklanish bilan bog'liq siyosiy hujjatlar natijalarini sintez qiladi. Bundan tashqari, yoshlarning davlat siyosatiga ma'naviy va madaniy elementlarni samarali birlashtirgan muvaffaqiyatli tashabbuslarni o'rganish uchun sifatli amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Yoshlar davlat siyosatidagi islohotlarni hal etish ko'p qirrali yondashuvni o'z ichiga oladi. Mana ba'zi fikrlar:

- Ta'lim islohoti: ta'lim tizimlari nafaqat akademik bilimlarni, balki hayotiy ko'nikmalar, tanqidiy fikrlash va hissiy intellektni ham o'z ichiga olgan yaxlit rivojlanishni ta'minlashini ta'minlash. Ijodkorlik, innovatsiya va tadbirkorlikni rivojlantiradigan dasturlarni rag'batlantirish.
 - Yoshlarni ish bilan ta'minlash: kasb-hunar ta'limi dasturlari, amaliyot o'tash, shogirdlik va sanoat tarmoqlari bilan hamkorlik qilish orqali yoshlarni ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini yaratish. Yosh tadbirkorlar va startaplarni qo'llab-quvvatlovchi tashabbuslarni targ'ib qiling.
 - Salomatlik va farovonlik: ruhiy salomatlik xizmatlariga ustuvor ahamiyat bering va yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qiling. Arzon sog'liqni saqlash va maslahat xizmatlaridan foydalanishni ta'minlash. Oldini olish dasturlari orqali giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish va nosog'lom xatti-harakatlar kabi muammolarni hal qiling.
 - Ijtimoiy inklyuziya: yoshlar o'rtasida tengsizlik, kamsitish va ijtimoiy chetlanishni bartaraf etish siyosatini amalga oshirish. Turli madaniyatlar, dinlar va kelib chiqishlarning xilma-xilligi, qo'shilishi va qabul qilinishini targ'ib qiling.
 - Siyosiy faollik: yoshlarning fuqarolik faoliyati, boshqaruv va qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirokini rag'batlantirish. Demokratiya, shaffoflik va hisobdorlik madaniyatini rivojlantirish.
 - Raqamli savodxonlik: raqamli dunyoda xavfsiz va mas'uliyat bilan harakat qilish uchun yoshlarni raqamli ko'nikmalar va savodxonlik bilan jihozlash. Kiberxavfsizlik to'g'risida xabardorlikni oshirish va yoshlarni kiberhujum va ekspluatatsiya kabi onlayn tahdidlardan himoya qilish.
 - Ekologik barqarorlik: ekologik muammolar to'g'risida xabardorlikni oshirish va yoshlar o'rtasida barqaror turmush tarzini targ'ib qilish. Yoshlarga iqlim o'zgarishi va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha choralar ko'rishga imkon beradigan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash.
- Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniy sohani yuksaltirish borasida:
- Ma'naviy rivojlanish: turli diniy va falsafiy ta'limotlar orqali ma'naviy izlanish va shaxsiy o'sish uchun imkoniyatlar yaratish. Ehtiyotkorlik amaliyotini, meditatsiyani va o'z-o'zini aks ettirishni rag'batlantirish.
 - Madaniy boyitish: xilma-xillik va merosni nishonlaydigan madaniy muassasalar, tadbirlar va dasturlarga sarmoya kiriting. Rassomlar, musiqachilar, yozuvchilar va boshqa madaniy ijodkorlarni qo'llab-quvvatlang. Madaniyatlararo almashinuv va muloqotni rivojlantirish.
 - Hamjamiyatni jalb qilish: turli madaniy kelib chiqishi bo'lgan shaxslar o'rtasida tegishlilik va hamjamiyat hissini tarbiyalash. Madaniy almashinuv,

muloqot va tushunishni targ'ib qiluvchi asosiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash.

- Merosni saqlash: madaniy meros ob'ektlarini, urf-odatlarini va amaliyotini saqlash va himoya qilish. Madaniy meros turizmi va ta'limini targ'ib qiluvchi tashabbuslarni rag'batlantirish.
- Dinlararo muloqot: tushunish, bag'rikenglik va tinchlikni targ'ib qilish uchun turli diniy jamoalar o'rtasida muloqot va hamkorlikni osonlashtirish. Dinlararo hamkorlik va yarashuvga yordam beradigan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash.

Ushbu jihatlarni hal qilish orqali siyosatchilar yoshlarning yaxlit rivojlanishini ta'minlab, yanada inklyuziv, bardoshli va madaniy jihatdan jonli jamiyat yaratishi mumkin.

Topilmalar yoshlarning hozirgi davlat siyosati asoslarini ma'naviy taraqqiyot va madaniy uyg'onishni qamrab olishini ta'minlash uchun qayta ko'rib chiqish muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu o'lchovlarni birlashtirish yoshlar o'rtasida maqsad, tegishlilik va o'zaro bog'liqlik tuyg'usini kuchaytirishi, ijtimoiy begonalashuvni yumshatishi va ijtimoiy uyg'unlikni targ'ib qilishi mumkin. Bundan tashqari, bunday islohotlarni samarali amalga oshirish uchun siyosatchilar, jamoat rahbarlari va ma'naviy/madaniy muassasalar o'rtasidagi hamkorlik juda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning yaxlit rivojlanishini tarbiyalash ma'naviy taraqqiyot va madaniy o'ziga xoslikni shakllantirishning ahamiyatini tan olib, davlat siyosatida paradigma o'zgarishini talab qiladi. Siyosatchilar muvaffaqiyatli amaliy tadqiqotlar va manfaatdor tomonlarning hamkorligidan foydalanib, ushbu o'lchovlarni mavjud ramkalarga integratsiyalashni birinchi o'ringa qo'yishlari kerak. Yoshlarning ma'naviy va madaniy o'sishini ta'minlaydigan qo'llab-quvvatlovchi muhitni rivojlantirish orqali jamiyatlar yanada yorqin va barqaror kelajakka yo'l ochishi mumkin.

Adabiyotlar.

1. Agamirova, E.V.; Agamirova, E.V.; Lebedeva, O.Ye.; Lebedev, K. A.; Ilkevich, S.V. Methodology of estimation of quality of tourist product. Quality - Access to Success, 2017, 18(157), p. 82-84.
2. Kharchikova, N.V. Munitsipalnaia molodezhnaia politika: aktualnye problemy i perspektivy [Municipal Youth Policy: Current Problems and Prospects]. Teoriia. Praktika. Innovatsii, 2018, 9(33), p. 53-60 (in Russian).
3. Kopychak, B.V. Vnedrenie kontseptsii strategicheskogo upravleniia razvitiem molodezhnykh obshchestvennykh organizatsii [Implementation of the Concept of Strategic Management in Youth Non-governmental Organizations]. Ekonomicheskii vestnik universiteta, 2019, 43, p. 72-79 (in Ukrainian).
4. Kretoy, A.Yu. Mekhanizmy gosudarstvennoi molodezhnoi politiki v Rossiiskoi Federatsii: problemy prakticheskoi realizatsii [Mechanisms of State Youth Policy in the Russian Federation: Problems of Implementation]. Bulletin of the Volga Region Institute of Administration, 2019, 19 (6), p. 101-112 (in Russian).
6. Krylova, Yu.D.; Grigoriev, K.A. Sovershenstvovanie mekhanizma realizatsii gosudarstvennoi molodezhnoi politiki [Improving the Mechanism of

Realization of State Youth Policy]. Nauka vchera, segodnia, zavtra, 2017 (6 (40), p. 67-73in Russian).

7. Lobanov, I.V.; Mudrova, S.V.; Potekhina, E.V.; Shelygov, A.V.; Pominova, A.I. Formation of an education digitalization strategy in present-day conditions. Propositos y Representaciones, 2020, 8 (S3), e777.

YOSH AVLODNING MA'NAVIY TAFAKKURINI YUKSALTIRISHDA

MUSIQA TA'LIMINING O'RNI

Nadjimova Nigora Abdusolih qizi

nadjimovanigora92@gmail.com +998977464484

O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi o'qituvchisi

Annotyatsiya: Ushbu maqolada yosh avlodni ma'naviy tafakkurini yuksaltirishda musiqa ta'limining ahamiyati, shuningdek Prezidentimizning musiqiy ta'limning rivojlantirish xususidagi qarorlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: musiqa ta'limi, musiqa, ma'naviyat, taffakur, san'at, metodika, pedagogika, konsert, taassurot, shaxs, vatanparvar, insonparvar, tuyg'u, tashabbus, qobiliyat, estetik did.

RAISING THE SPIRITUAL THINKING OF THE YOUNG GENERATION THE ROLE OF MUSIC EDUCATION

Nadjimova Nigora Abdusolih qizi ¹

¹Teacher of the State Conservatory of Uzbekistan

nadjimovanigora92@gmail.com

Abstract: This article talks about the importance of music education in improving the spiritual thinking of the young generation, as well as the President's decisions regarding the development of musical education.

Key words: music education, music, spirituality, thinking, art, methodology, pedagogy, concert, impression, personality, patriot, humanitarian, instinct, initiative, ability, aesthetic taste.

**Musiqa hech narsa bilan o'lchab,
solishtirib bo'lmaydigan beqiyos
ilohiy ta'sir kuchiga ega.**

Shavkat Mirziyoyev.

Mamlakatimizda yoshlar masalasida samarali siyosat ishlari keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. O'tgan vaqt ichida davlatimiz rahbari tomonlaridan yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun qator chora tadbirlar olib borilmoqda. Mamlakatimiz kelajagi uchun

mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, ijodkor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida madaniyat sohasida turli tadbirlar, tanlovlar, keng qamrovda tadbiriq qilinmoqda.

Musiqa insonni nafosatga boshlovchi, dillarni-dillarga bog'lovchi, kishi madaniy saviyasini oshiruvchi mo'jizaviy vositadir. Musiqa shaxsni estetik didini tarbiyalovchi eng faol tur hisoblanadi. Musiqa ona allasidan boshlanadi. Ona allasi orqali bolaga Vatanga muhabbat, ona yurtiga sadoqat kabi insoniy tuyg'ularni yetkazadi..

Musiqa insoniyat ma'naviyat taffakurining buyuk ne'matlaridan biridir. Xar bir xalqning ma'naviy madaniyatiga erishgan yutuqlari uning adabiyot va sa'natida, binobarin musiqa san'atidagi betakror ijod numunalari bilan ham qadrlanadi va e'tirof etiladi. Shu ma'noda xalqimiz o'zining boy milliy va mumtoz musiqasi zamonaviy ijro san'ati bilan jahon xalqlari madaniyatida o'zining asosli o'rnini egallab kelmoqda..

Har bir xalqning maorifida musiqa tarbiyasi metodikasi pedagogikaning didaktik qonuniyatlariga va shu xalqning milliy musiqa madaniyati, tili va madaniy an'alariga asoslanadi. Shu bilan birga musiqa tarbiyasining strukturasi, sistemasi va ilmiy-metodik yutuqlari boshqa millatning ma'rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta'sir etadi.

Bugungi kunda jamiyatimiz taraqqiyotida ham ma'naviy, ham jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash eng ustuvor vazifalarimizdan biri sanaladi. Zeroki qator aytilgan bu fikrlar zamirida har doimgidek yoshlar turadi, sababi ularning bugungi kundagi olgan ta'lim- tarbiyasi nafaqat o'zlari uchun balki yurtimiz taraqqiyoti uchun eng muhim poydevordir. Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bejizga "Agar mendan sizni nima qiynaydi" deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman"- degan fikrlari fikrimiz yaqqol dalilidir.

Biz yashab turgan mamlakat taraqqiyotida musiqa ta'limining o'rni beqiyosdir. Millat va elatlarni birlashtiradigan, an'analarni mustahkamlaydigan ham milliy madaniyatimizdir. Har qanday ko'ngilni o'ziga rom eta oladigan, insonlarni qalbiga ezgulik urug'ini ekib boshqa yomon illatlarga qarshi kurashadigan ham musiqa desak mubolag'a emas. O'z-o'zidan sezilib turibdiki,

Ma'lumki yaxshi oilaviy muhitda tarbiyalangan bolaning hayot haqidagi turli voqea-hodisalar, urf-odat, madaniyat va san'atga oid taassurotlari ko'pincha ijobiy kechadi. Oiladagi birlikda televizor ko'rish, konsert tomosha qilish, teatr tomosha qilish va o'z taassurotlarini o'rtoqlashish kabi muloqotlar bolalar dunyoqarashini o'stirib, hayotiy voqealarni aks ettiruvchi adabiyot, san'at musiqani mohiyatini tushunish va badiiy idrok etishga olib keladi.

Xususan bolalarni san'atga, musiqaga qiziqtirish uchun hamda ularning dunyoqarashini oshirish uchun o'rta ta'lim maktablarida, bolalar musiqa va san'at maktablarida san'at ustalari bilan ijodiy uchrashuvlar, ko'ngilochar tadbirlarni tashkillashtirish, ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, o'quvchi yoshlarning qiziqishini o'stirib, bo'sh vaqtlarini behuda sarflamasliklarini oldini olishimiz mumkin. Bejizga davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan: "Besh muhim tashabbus"ni joriy qilmaganlar. Aynan shu besh tashabbusimizning birinchi yo'nalishi musiqa va san'atga

bag'ishlangan. Mana shundan ham ko'rinib turibdiki musiqaning yosh avlod tarbiyasida o'rni kattaligini.

Biz insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqa san'atisiz erishib bo'lmaydi.

1. Musiqa - o'z tabiatiga ko'ra hissiy va ruhiy kechinmalar uyg'otuvchi.
2. Musiqa - kishilarda nozik didni tarbiyalovchi.
3. Musiqa - tinglovchini ham, ijrochini ham nafosatga, ma'naviy barkamolikka undovchi kuchli vosita.

Ko'pchilik yaxshi biladiki, ertaklarda qahramon musiqa orqali ulkan dev yoki ilonni sehrlab, uning changalidan o'zi yoki sevgan qizini xalos etadi. Bunday voqealar rivojida musiqa orqali ifodalab, ochib beradi. Chuqurroq nazar tashlaydigan bo'lsak, buning zamirida musiqaning ko'ngilni ezgulikka undovchi san'at ekani o'z aksini topgan. Albatta musiqa shaxsni shakllantirish, uning ijobiy fazilatlarini o'z-o'zidan belgilab bermaydi. Biz aytmoqchi bo'lgan fikr shundayki musiqaning g'oyaviy mazmuni nafaqat yosh avlod balki butun insoniyat tarbiyasi bilan bog'liqdir.

Bolalar tomonidan musiqaning idrok etilishi avvalo milliy musiqamizni idrok etishdan boshlanishi lozim. Milliy istiqloq sharofati bilan milliy musiqiy merosimizga milliy-ma'naviy qadryatlarimiz qatorida alohida e'tibor berila boshlandi. Endilikda biz xalqimizning ajoyib, xilma-xil va bir biridan go'zal mahalliy musiqiy an'analarini tinglab idrok etish va ulardan ma'naviy zavq olish, ruhiy bahramand bo'lish imkoniga ega bo'ldik. Milliy musiqa xalqimiz boy ma'naviyatining, barkamol ruhiyatining g'ozal badiiy ifodasi bo'lish bilan bir qatorda yangi, buyuk davlat bunyodkorligi yo'lida tinmay mehnat qilayotgan xalqimizga, jamiyatimizga ma'naviy ruhiy quvvat bag'ishlovchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki biz bugungi kunda butun dunyo shiddat bilan o'zgarayotgan fan-texnika, innovatsiyalar asrida yashayabmiz. Fan texnika qanchalik tez o'zgarsa, bizning hayotimizda tutgan o'rni shunchalik muhim bo'lib boraveradi. Xuddi shunday bu albatta yurtimizda ta'lim sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bugun har bir pedagog o'qituvchi darslarini ana shunday samarali o'tkazish uchun bundan foydalanmoqda. Bu borada aynan musiqa fanida chinakam musiqa na'munalari va ularda ilgari surilgan ezgu g'oyalar yosh avlodga singdirilmoqda va o'zining ijobiy natijasini beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, musiqa tarbiyasi shaxs sifatida shakllanayotgan bolalarning qalbida milliy ruhni kamol toptirish, ma'naviy va axloqiy madaniyatni musiqiy didni shakllantirish, musiqiy tasavvurlarini yanada boyitish hamda ularda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini, tashabbuskorlik qobiliyatlarini kamol toptirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, T., "O'zbekiston", 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni// Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq NMAK, 1997. – 20-29-b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida gi PQ- 112-sonli qarori.
4. "O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar" mavzusidagi Respublika 18-KO‘P tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari. 2020. Toshkent. Musiqa va Hayot. 15-qism.
5. Mirziyoev SH. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston. 2016. – 59 b.
6. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyoti poydevori. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997, – 23 b.
7. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.- 167 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonda musiqa san’atini yanada rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (1995 yil, 20 oktabr) Farmoni // O‘zbekiston ovozi. – Toshkent: 1995, 21 oktabr.
10. Mavlonova R. Pedagogika. -T.: 2002.- 80 str.. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari.- T.: 2001.
11. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T., O‘zMU
12. Ibragimov X. I va boshqalar. Pedagogik psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2007 y.
13. Xo‘jayev N. va boshqalar. Pedagogika asoslari. – T.: 2003. -120 bet.
14. www. ziyonet . uz.
15. <http://lex.uz>
16. <http://www.natlib.uz/>
17. <http://manaviyat.uz/>

GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI KUCHAYTIRISH ZARURIYATI

Mirzayeva(Xikmatova) Madinabonu Ma’murjon qizi¹

¹O‘zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

dilnozaxusanova092@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi globallashuv davrida hayot tarzi tobora murakkab jarayonga aylanib bormoqda. Axborot manbalari ham kundan kunga yangilanib soat-daqiqa sayin o‘zgarib ketmoqda. 1 soat oldin olgan ma’lumotimiz keyingi daqiqalarga to‘g‘ri kelmayapti. Bundan holatlarda bizga albatta kuchli mafkuraviy immunitet yordam beradi va uni bevosita yoshlar ongiga vaksinatsiya qilish orqali

biz turli xil g'oyaviy xurujlardan qutqarib qolishimiz mumkin. Bugungi maqolamda shu va boshqa masalalar haqida atroflicha fikr boradi.

Kalit so'zlar: globallashuv, zamon, ma'naviyat, yoshlar, Vatan, Prezident, mafkura, mafkuraviy-immunitet, xalq, mustaqillik.

Hozirgi davrda insoniyat rivojlanishining asosiy xususiyatlaridan biri bu globallashuv jarayonining kuchayib borishidir. Bizga ma'lumki, turli ko'rinish va shakllardagi ma'naviy tahdidlar, asosan, yoshlarga qaratilmoqda. Albatta, buning asosiy sababi yoshlarning jamiyatdagi eng faol qatlam ekani, turli g'oyalar, ta'sirlarga beriluvchanligi bilan izohlanadi. Ayni paytda, yoshlar ongini zabt etish har qanday mafkuraviy kuch uchun strategik ahamiyatga ega. Zero, mamlakatning istiqboli aynan yoshlarning ehtiyoji, manfaatlari va ulardan kelib chiquvchi maqsadlari bilan belgilanadi. Shuning uchun ham birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov: "Bunday tajovuzkorona harakatlar bizlar uchun mutlaqo begona mafkura va dunyoqarashni avvalo beg'ubor yoshlarimizning qalbi va ongiga singdirishga qaratilgani bilan ayniqsa xatarlidir"[1], - deb ta'kidlaydi.

Umumiy ma'noda, globallashuv bu zamonaviy ilmiy texnika taraqqiyoti asosida, texnika, texnologiyalar hamda xalqlar orasida aloqalarning rivojlanishi negizida butun jahonda yagona siyosiy, iqtisodiy makonning shakllanish jarayonidir.

Ma'lumki, har qanday jamiyatda yoshlar qatlami muhim o'rin tutadi. Shuning uchun yoshlar qatlami falsafa, tarix, siyosatshunoslik, sotsiologiya, axloqshunoslik, estetika, antropologiya, tibbiyot, huquqshunoslik, pedagogika, demografiya va boshqa fanlarning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Hozirgi davrda yoshlarning dunyo miqyosida ma'naviy-mafkuraviy xurujlarning obyektiga aylanib qolishi sabablarini bilish uchun, eng avvalo, ularning jamiyat sotsial strukturasi tutgan o'rni, "yoshlar" kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy mazmunini aniqlash muhim metodologik ahamiyatga ega.

Zero, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "globallashuv" atamasi bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma'noni anglatishini ta'kidlash lozim. Umumiy nuqtai nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma'no – mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishi va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda".

Bu jarayon mintaqalar, inson va jamiyat faoliyatining ko'pgina sohalarini qamrab olmoqdaki, ongli ravishda uning siyosiy oqibatlari keyingi o'ringa surilib, asosan iqtisodiy jarayon tarzida talqin qilinmoqda. "Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko'rsatadiki, - deb yozadi I.A.Karimov, - har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Agarki bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda ko'zdan kechiradigan bo'lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g'oya va ta'limotlar bilan yovuz va zararli g'oyalar o'rtasida azaldan kurash mavjud bo'lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko'ramiz"[1].

Globalashuv jarayoni boshqa jihatdan insonga mafkuraviy-ma'naviy tahdid o'tkazishning o'tkir quroliga aylanib bormoqda, bu tahdid inson erkinligini bo'g'ish, fikriy mutelikni qo'llab-quvvatlash; turli-tuman jozibador shiorlar orqali uning ruhiyatiga mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlar ko'rinishida daxl qilmoqda, xalqlarning milliy va diniy ildizlariga xavf solmoqda, eng xavflisi, yot g'oya va zararli qarash-larni yoshlar qalbi va ongiga singdirishga urinmoqda. "Nega deganda, in-soniyatning ko'p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyligini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qad-riyatlarini, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi".

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan keyin ijtimoiy-siyosiy hayotimizda tub o'zgarishlar ro'y berdi, xalqimiz tabiati va dunyoqarashiga yot bo'lgan mustabidlik mafkurasi barham topdi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, o'z umrini o'tab bo'lgan eski mafkura o'rnida yangi ijtimoiy munosabatlarni, xalqning asl maqsad-muddaolarini ifoda etuvchi ilg'or va bunyodkor mafkura shakllanmas ekan, jamiyatda g'oyaviy vakuum – bo'shliq yuzaga keladi. Bunday bo'shliq ilg'or, jamiyat taraqqiyoti uchun zarur g'oyalarga bilan to'ldirilmasa, uni xalq hayoti uchun yot va begona bo'lgan mafkuraviy ta'sirlar egallab olishi mumkin. Shuning uchun barkamol avlodni chetdan keladigan yot va zararli g'oyalarga qarshi tura oladigan, mafkuraviy immuniteti kuchli yoshlar etib tarbiyalash bugun har birimizning burchimizga aylanmog'i kerak.

Bizga ma'lumki, g'oyaviy bo'shliq eski tuzumdan yangi tuzumga o'tish jarayonida oldin hukmronlik qilib kelgan mafkura o'tmishga aylangach, taraqqiyot talabalariga mos ravishda uning o'rnini bosadigan ilg'or g'oyaviy tizimning hali shakllanmagan holatidir. Bunday sharoitda turli xil mafkuralar ushbu hududga o'z ta'sir doirasini o'tkazishga urinadi. Tabiatda ham, jamiyatda ham vakuum, bo'shliq bo'lishi mumkin bo'lmaganidek, mafkura sohasida ham bo'shliq vujudga kelishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Darhaqiqat, "e'tibor berib qaraydigan bo'lsak, jamiyat hayotining barcha sohalarida savdo-sotiq munosabatlari ustuvor bo'lmoqda, "yemak va tomoshalar" shiori ostida insonlarda iste'molchilik ruhiyati avj oldirilayapti, "insonning hamyoni qayerda bo'lsa, uning qalbi ham o'sha yerda" degan halokatli g'oya singdirilmoqda. Molparastlik va xudbinlikning shu tariqa hammabop qadriyat sifatida tiqishtirilishi esa ma'naviyatni qashshoqlantirib, madaniy gegemoniya o'rnatish uchun qulay zamin yaratishi tabiiydir"[3].

Ayniqsa, butun dunyoda, jumladan, informatsiya olamida, globalashuv jarayoni kechayotgan hozirgi paytda, ya'ni lo'nda qilib aytganda, jahonning bir chekkasida sodir bo'layotgan voqealar va harakatlarning tez tarqalib ketayotganini hisobga olganda, bu masalaning ahamiyati va dolzarbligi yanada ortib bormoqda,[2] degan edi I.A.Karimov.

Mustaqillikni mustahkamlashning muhim shartlaridan biri bu g'oyaviy tarbiyani kuchaytirishdan iboratdir. Bu borada aholida yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirish zarur. Albatta, mafkuraviy immunitetni shakllantirish kishilar ongiga bir xil g'oyani zo'r berib

tiqishtirish emas, balki odamlarga oq-qorani ajratish, zararli g'oyalarga qarshi hushyor va ogoh bo'lish xususiyatlarini tarbiyalash demakdir. Jamiyat, millat o'z g'oyasida mustahkam tura olsa, g'oyaviy tahdidlardan qo'rqmasa, bunday millatni yengish mumkin emas. Aksincha, jamiyat ichida g'oyaviy parokandalik, bo'linishlar bo'lsa dushmanlarga, ularning yot mafkuralariga yo'l ochib beradi. Bunday millatni yengish, mustamlaka qilish oson kechadi. Shuning uchun barqarorlik va xavfsizlik jamiyatning ongligiga, anglangan to'g'ri tushuncha va bilimlarga faol amal qilishga, fikriy, g'oyaviy birligiga, bular esa xavfsizlik ma'rifatiga tayanadi.

“Immunitet”-so'zining ma'nosi “O'zbekiston milliy ensiklopediyasida quyidagicha berilgan: (lotincha-biror narsadan xalos, ozod bo'lish, qutilish,-organizmning doimiy ichki barqarorligini saqlash, uning turli xususiyatlari va ta'siridan himoyalinishi, qarshilik ko'rsatishi, rezistentligi.) “Falsafa qomusiy lug'atida”da –mafkuraviy immunitet-shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g'oyaviy- nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi”[4], deyiladi.

Shunday qilib “Mafkuraviy immunitet - ma'naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaksiya, buzg'unchi xarakterdagi g'oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda qo'l keladi”– deb ta'rif beriladi falsafiy qomusiy lug'atida. Immunitet, o'z navbatida odamni to'g'ri yo'ldan “ozish”dan, turli yo'llarga adashib, keyin pushaymon bo'lishlardan, baxtsizlikdan, millatni esa parokandalikdan, parchalanishlardan, sinfiy yoki mahalliy bo'linishlardan asrab qoladi. Demak, mafkuraviy immunitet – davlat va millatning ma'naviy birligi, ma'naviy sog'lomligini himoya qiluvchi g'oyaviy qalqon vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham, Prezidentimiz I.Karimov “Farzandlarimiz yuragida ona-Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur” ligi haqidagi fikrni alohida ta'kidlaganlar.

Xulosa qilib aytganda, mafkuraviy kurashlar kuchaygan bugungi kunda yoshlar qalbida ona-Vatanimizga, boy tariximizga, milliy qadriyatlarimizga, millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tilimizga, otabobolarimizdan meros muqaddas dinga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirishimiz zarur. Zero, yurtboshimiz aytganlaridek, biror bir kasallikni davolashdan oldin inson organizmida avvalo unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham yoshlarimiz qalbi va ongida zararli g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantira olsak, turli aldovlarga uchmaydigan, o'z yurti, Vatani va xalqi uchun fidoiy insonlarni tarbiyalay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - 112 b.

2. I.A.Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin.-T.: “O'zbekiston”. 1998, 7-bet.

3. Abbosxo'jayev O, Umarova N., Qo'chqorov R. Mafkura poligonlaridagi olishuvlar. – Toshkent: Akademiya, 2007. – B. 48-49.

4. Xudoyberdiyev X. Mafkuraviy immunitet// Falsafa qomusiy lug‘at. –T.: Sharq, 2004, 247-bet.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ

Мелихонов Бахтиёрхон¹

¹Магистрант Института психологии и иностранных языков

Аннотация: Приводятся некоторые аргументы и их теоретическое обоснование для воспитания нашей молодежи в духе верности нашим национальным и общечеловеческим ценностям. Указаны факторы, необходимые для обучения молодых людей свободному мышлению, для помощи им в понимании смысла жизни, для развития самоконтроля и самодисциплины. Важность изучения наших национальных и религиозных ценностей, их сущности, их сохранения, бесценного наследия наших предков, внесших большой вклад в развитие мировой науки и культуры, и на его основе воспитания молодежи как совершенной личности, обеспечение стабильной социально-духовной среды в обществе, отмечается, что это одно из важных условий. Соседско-школьное сотрудничество и всестороннее совершенствование образовательного процесса очень важны в формировании молодежи, которая является будущим страны, детей как самостоятельных и свободных личностей, а эффективная организация дальнейшего укрепления взаимного сотрудничества станет основой для развития молодежи как всесторонне развитого поколения.

Ключевые слова: развитие личности, здоровое формирование, здоровая идея, мировоззрение.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF YOUTH EDUCATION BASED ON NATIONAL VALUES

Melixonov Baxtiyorxon¹

¹Master of the Institute of psychology and foreign languages

Annotation: The factors necessary to teach young people to think freely, to help them understand the meaning of life, to develop self-control and self-discipline, are indicated. The importance of studying our national and religious values, their essence, their preservation, the invaluable heritage of our ancestors who made a great contribution to the development of world science and culture, and on the basis of it, educating young people as perfect human beings, ensuring a stable socio-spiritual environment in society. it is mentioned that it is one of the important conditions. Neighborhood and school cooperation and comprehensive improvement of the educational process are very important in the formation of young people who are the future of the country, children as independent and free individuals, and the effective

organization of further strengthening of mutual cooperation will be the basis for the development of young people as a well-rounded generation.

Key words: personality development, healthy formation, healthy idea, ideology.

Введение. Ярким примером тому являются мероприятия, посвященные таким великим деятелям, как Сахибкиран Амир Темур, Мирзо Улугбек, Бахауддин Накшбанд, юбилеи городов Бухара, Хива, участие в симпозиумах представителей более 50 стран мира. Известно, что традиции являются бесценным духовным достоянием, созданным в процессе исторического становления и развития народа и передаваемым от предков к потомкам как священное наследие. Сохранение и совершенствование привычек, ставших одним из главных символов нации, остается священным долгом каждого поколения. Чтобы традиции были живы, прежде всего, их должна занимать молодежь, творцы нашего будущего. Возрождение традиционных народных праздников остается важнейшим событием в истории узбекской культуры. Потому что праздники-это большая и важная форма культуры, которая воплощает в себе лучшие стороны жизни.

Таким образом, с возрождением вековых праздников была заложена основа для возрождения наиболее ценных аспектов народной культуры. Говоря о возрождении народных традиций, следует особо остановиться на народных играх, которые играют важную роль в взрослении молодежи. Древнейшие традиционные, многие культурные формы наших предков танец, театр и ритуалы, характерные для спорта, возникли на основе этих игр и в историческом процессе служили оздоровительным средством наших предков. Очевидно, что если в душе не кипит любовь к Родине, если ошуфтализм не кипит в душе, если в вашем теле не двигаются нити ответственности, когда харчанд говорит: “моя Родина-моя обожествленная, моя обитель Икбала”, то добрая преданность в нас становится чем-то вроде чувства, склонного к абстракции. Все, что мы делаем сегодня, делается для счастья наших молодых людей и их светлого будущего. Воспитанный, образованный и умный, трудолюбивый, верующий ребенок-величайшее достояние не только родителей, но и всего общества в научном наследии восточных ученых заложены основы созреваия, здорового формирования личности, правильного воспитания и воспитания, а также приобретения здоровых поведенческих качеств личности, не сбивающихся с пути на основе благородной и здоровой идеи и идеологии. можно встретить очень ценные отзывы о том, что ему нужно строить свою жизнь.

В частности, бессмертное культурное наследие нашего народа, бесценный шедевр духовности, признанный миром, является классическим примером осуждения злых идей “Авесты”, призыва человека и общества к добру. Одним из примечательных аспектов этого философского памятника является то, что, учитывая, что это произведение было создано 2700 лет назад, можно утверждать, что основа для него, как основа, заключалась как минимум в двух тысячах лет жизненного опыта, научных знаний и психологических наблюдений. Очевидно, что создание этой книги стало объективной необходимостью. Следующие мысли в Авесте выражают коренную природу

идеологии зороастризма: “я приветствую добрую мысль, доброе слово и доброе дело благородными мыслями, добрым словом и добрыми делами. Воистину, я предаюсь добрым мыслям, добрым словам, добрым делам и отворачиваюсь от всех дурных мыслей, плохих слов и плохих поступков”. В”Яште”, древнейшей части Авесты, свирепая Анкхра Манью (Ахриман), сеющая семена ужаса в людях и ревущая в их сердцах, является одной из сторон богов-вождей, в то время как боги во главе с Ахурой Маздой, распространителем добра, просителем добра, помощником, разделены на другую группу. Позже зороастрийское учение пошло от многобожия к монотеизму и объяснило, что только Ахура Мазда был признан Богом, а все остальные были богами и ангелами. Принимая во внимание, что зло, независимо от формы и содержания, возникает в первую очередь как идея, в Авесте Ариман интерпретируется как автор, причинитель и распространитель именно деструктивных и злых идей. Это также свидетельствует о том, что на нашей территории еще в глубокой древности созрела социальная сущность деструктивных идей и над идеологической невосприимчивостью к ним нависла головная боль. Даже в Монизме, логическом продолжении учения зороастризма, центральное место занимает вопрос о взаимодействии сил добра и зла.

Методы исследования: теоретический и ретроспективный анализ социологической, психолого-педагогической литературы; методы диагностики: анкетирование, наблюдение, анкетирование; изучение и обобщение опыта, эксперимента и др. Теоретико-методологической основой исследования являются: концепции развития гражданского общества (М.Г.Алиев, А. Ш. Ахмедов, Т.И. Заславская, В.К. Левашов), гуманистическая и личностно-ориентированная теория Воспитания (Е.В. Бондаревская, В.В. Абраменкова, В.А. Каракровский, А.Н. Нюдюрмагомедов, В.А. Сухомлинский, Е.Н. Шиянов), теория социальной сущности человека (В.В. Абраменкова, Г.М. Андреева, Д.М.Маллаев, З. Т. Гасанов, К.О. Омаров), теория патриотического воспитания (А. Г. Агаев, Г.В. Агапова, З. Т. Гасанов, Б. Р. Павлов, Г. Н. Филонов), теория гражданского воспитания и правовой защиты (Н. И. Зинченко, В.Е. Соколов, Я. Е. Вяземский, Е. В. Татаринцева, А. Н. Тубельский, И. Медведева).

Для статьи выдвигаются следующие основные положения:

1. Принятие детьми национальных и общечеловеческих ценностей, следование им в личной и общественной жизни требует от педагога усиленного внимания к патриотическому воспитанию младших школьников.
2. Комплексная программа патриотического воспитания младших школьников, реализуемая в условиях учебной и внешкольной работы, наилучшим образом способствует воспитанию патриотизма у детей.
3. Патриотическое воспитание в системе общего образования младших школьников оказывает положительное влияние на отношения в коллективе, образовательный процесс в образовательном учреждении, отношение к Родине.

Цель экспериментальной работы - составить апробацию комплекса занятий, способствующих развитию патриотических чувств у младших школьников.

Для достижения вышеуказанной цели необходимо решить следующие задачи:

- раскрыть потенциал интереса школьников к историческому наследию страны, города, семейным и национальным традициям;

- определение уровня понимания понятия “патриотизм” младшими школьниками;

- раскрыть представления учащихся о личностно-патриотических качествах.

Проблема ценностей в различных дисциплинах гуманитарного знания имеет комплексный и междисциплинарный характер. Понятие ценность является центральным понятием данного исследования, что требует его осмысления с позиций различных теоретических подходов, имеющих место в научном знании. Категория «ценность» является общенаучным понятием в философии, социологии и психологии и в самом общем виде обозначает объекты и явления, их свойства, а также абстрактные идеи, воплощающие в себе идеалы и выступающие в качестве эталона должного (Тугаринов, 1960; Анисимов, 1988,1994; Здравомыслов, 1986, 1989; Каган, 1997; Момов, 1975; Чавчавадзе, 1984; Фролов, 2002, 2006; Ядов, 1979 и др.).

В исследованиях по ценностной проблематике отмечается, что в настоящее время существует множество различных определений понятия «ценность» (Акопова, 2003; Барышков, 2005; Леиашвили, 1990; Матвеев, 2000; Миронова, 1989; Сурина, 1999; Шехтер, 1981; Ма]«*а, 1998; Мшли, 2000;

Ререгеак, 1986; ЗгШтвЫ, 1995 и др.). Критический анализ различных трактовок данного понятия позволяет выявить весь спектр определений: от понимания ценности как синонима значимости, которое представлено в исследованиях В.А. Василенко, О.Г. Дробницкого и других ученых (Василенко, 1997;

Дробницкий, 2002 и др.), как потребности, интереса, представленного в работах Дж. Дьюи (Дьюи, 2002, 2003), до трактовки ценности как объективного феномена, принадлежащего идеальному бытию, трансцендентному миру, которое мы находим у М. Шелер, Н. Гартман (Шелер, 199; 2006; Гартман, 2002 и др.). Исследователи выделяют две важнейшие характеристики ценности: значимость (Тугаринов, 1988; Архангельский, 1978; Фролов, 2002, 2006; Наумова, 1988, 2006) и вторичный, производный от человеческого бытия характер (Архангельский, 1978; Здравомыслов, 1986; Ядов, 2000; Рубинштейн, 2008).

В самом общем виде выделяется два подхода к определению понятия ценность: объективистский и субъективистский. С объективистских позиций понятие «ценность» с точки зрения объективно-идеалистических теорий трактуется как потусторонняя сущность вне пространства и времени (Лосский, 1994 и др.); материалистических теорий - как специфические проявления общественных отношений и нормативно-оценочной стороны общественного сознания (Анисимов, 1988, 1994; Архангельский, 1978; Буева, 1989, 1999;

Здравомыслов, 1986; Каган, 1997; Тугаринов, 1960, 1988 и др.). Среди авторов, придерживающихся субъективистского подхода, также существуют различные определения понятия «ценность». С позиции субъективно-идеалистических теорий, ценность понимается как явление сознания, субъективного отношения человека к оцениваемым им объектам; натуралистические теории рассматривают ценность как выражение естественных потребностей человека или законов природы в целом (Маслоу, 1987; Олпорт, 1998, 2002 и др.). В рамках экзистенциально-гуманистической парадигмы ценность трактуется как смысловые универсалии, сложившиеся в результате обобщения типичных ситуаций, с которыми обществу или человечеству пришлось сталкиваться в истории (Ницше, 1994; Франкл, Э. Фром, 1992, 1993; 2011 и др.). Особую позицию занимают ученые, пытающиеся найти компромисс между первым и вторым подходами к определению понятия «ценность». Для них ценность является предметной формой проявления социального отношения (Дробницкий, 1974, 2002; Залесский, 1994 и др.). Так, согласно О.Г. Дробницкому, выделяется два рода ценностей: предметные, которые выступают как объектно-направленные потребности, и ценности сознания, или ценностные представления. Первые есть объекты наших оценок, а вторые выступают в качестве высших критериев для таких оценок (Дробницкий, 1974).

Философское осмысление ценностей развилось в рамках теории ценностей - аксиологии, которое было введено в научный оборот сравнительно недавно в 1902 году французским философом П. Лапи (Современная философия: словарь и хрестоматия, 1996). Однако истоки философского учения о ценностях берут свое начало еще в античную эпоху, что требует рассмотрения генезиса понятия ценность с точки зрения философского знания. Одним из первых философских текстов, в котором понятие ценности приобретает самостоятельное значение, можно считать псевдоплатоновский диалог «Гиппарх», где предпринимается одна из первых попыток сопоставления объемов «ценного» и «благого» (Платон, 1986). Объем первого шире, чем второго, так как в терминологии мыслителя «благое» есть то ценное, которое, помимо прибыльности, обладает полезностью. В раннем диалоге Платона «Лисид» намечается распределение этических параметров, которое предопределяет будущее пространство античных рассуждений о ценности: различаются «как бы неких три рода - благое, дурное и третье - ни хорошее, ни дурное». Последнее уточнено и терминологизировано в «Горгии» (Там же). В «Законах» Платон различает ценности обычного порядка (душевные, телесные, внешние) и ценность второго порядка, «метаценность», присутствие которой обуславливает ценность самого ценного (Платон, 2005). У Аристотеля сравнительная ценность благ соотносится с категорией цели: ценнее то благо, которое ближе к цели; из двух благ более ценно то, которое является таковым не только «для меня», но и «вообще» (Аристотель, 2011). У Зенона Китайского «безразличное» есть нейтральное относительно конечной цели нравственного блага, но оно не «безразлично» относительно своей сравнительной ценности.

Проблема социально-психологических особенностей ценностей в подростковом возрасте имеет принципиальное значение, как для

теоретического осмысления данного феномена, так и для решения различного рода прикладных задач. Анализ литературы по проблеме исследования показал многообразие подходов к сущности, содержанию и структуре ценностей, что сделало необходимыми комплексного изучения ценностей современных подростков. В связи с этим исследование ценностей подростков включало следующие уровни ценностно-нормативной сферы личности: значимые для подростка личностные характеристики, значимые жизненные ценности, идеальная модель выпускника школы, идеальные социокультурные образцы. Проведено исследование инвариантов ценностных предпочтений подростков в зависимости от пола, возраста и принадлежности к той или иной социокультурной группе, рассмотрены ценностные предпочтения подростков и их преподавателей в контексте временной динамики развития общества, выявлены общие характерные особенности и межпоколенные различия.

Анализ результатов исследования показал значимость для современных подростков тех личностных характеристик, которые способствуют успешному социальному взаимодействию, что согласуется с общими возрастнопсихологическими особенностями подросткового возраста, когда ведущей деятельностью является общение, а обучение отходит на второй план.

Список литературы

1. Андреева, Г.М. Социальная психология: учебник для студентов факультетов психологии университетов/ Г.М. Андреева. - Москва: Издательство Московского университета, 1980. - 416 с.
2. Андреева, И. Н. Молодежная субкультура: нормы и системы ценностей / И.Н. Андреева, Н.Я. Голубкова, Л.Г. Новикова // Социологические исследования. - 1989. - № 4.- С. 48-56.
3. Андросенко, М.Э. Аспекты изучения социальных представлений и ценностных ориентаций субъектов образования/ М.Э. Андросенко // Прикл. психология и психоанализ. - 2005. - № 3. - С. 3-17.
4. Анисимов, С.Ф. Ценности реальные и мнимые / С.Ф. Анисимов. - М.: Мысль, 1970.- 181 с.
5. Бубнова, С.С. Ценностные ориентации личности как многомерная нелинейная система/ С.С. Бубнова // Психологический журнал. - 1999. - № 5. -С. 38-44.
6. Буева, Л.П. Необходимость нравственных оснований культуры человека и общества/ Л.П.Буева // Современная культура: проблемы и поиски. - Москва, 1999.-С. 13-17.
7. Буева, Л.П. Человек как высшая ценность и главное богатство общества/ Л.П. Буева // Человек в системе наук. - Москва, 1989. - С. 493-502.
8. Дебез, М. Подросток/ М. Дебез. - Спб: Питер, 2004. - 127 с.

TIL VA NUTQ MADANIYAT KO'ZGUSIDA

Karabayeva Munisa To'qin qizi¹

¹O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada til va nutq o'rtasidagi munosabatlar va ularning madaniyat bilan o'zaro bog'liqliklari borasida fikr yuritilgan. Avvalo, nutq, til va madaniyat tushunchalari haqidabilim va ko'nikmalarga ega bo'lish kerak. Ushbu tushunchalarni talqin qilish yuzasidan ko'plab urinishlar mavjud.

Kalit so'zlar: til, nutq, madaniyat, yondashuvlar, lingvamadaniyatshunoslik.

Til – millat ko'zgusi, ma'naviy va madaniy boyligi, jamiyatning g'ururi va birdamligi timsolidir. Har bir millatning o'ziga xos boyligi hamda milliyligi bor, ular shu jihatlari bilan bir-biridan farq qiladilar. Bilamizki, dunyoda turli xil millat va ellat vakillari bor va ularning o'ziga yarasha madaniyati, urf-odatlar va milliy boyliklari mavjud. Millat madaniyatining yuksalishi, uni dunyoga tanilishida, tarixiy qadriyatlarini namoyom etishda tilning ahamiyati juda ham kata. Til muloqot jarayonida millatning madaniyatini, qadriyatlarini namoyon etadi. Til bor ekan, millat hech qachon yo'qolmaydi va u barhayot bo'ladi. Til – mamlakat timsoli, millat ko'zgusi der ekanmiz, shu navbatda tilning o'ziga yarasha madaniyati ham mavjud. Agar til madaniyatiga amal qilinmasa, milliy madaniyatga dog' tushishi mumkin. Bilamizki, bizning tilimiz o'zining qadimiy tarixiga ega. To'g'ri, qadim zamonlarda ota-bobolarimiz aynan hozirgi zamonimizdagi rabi muloqot qilishmagan bo'lsa ham, ammo tilimizning rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shishgan. O'zbek tili turkiy tillar oilasiga kiradi va bu shuni anglatadiki, bizning tilimiz o'zining boy lug'atiga va so'z boyliklariga ega. Tilimiz ko'plab qarshiliklarga uchragan, agar tarixga nazar tashlasak, sobiq sovet ittifoqi davrida tilimizni yo'q qilish maqsadida yovuz kuchlar tomomidan turli xil qarshiliklar yuzaga kelgan va qimmatbaho asarlar yoqib tashlangan. Ammo shunga qaramay, tilimiz asrab qolindi va kelajak avlodga yetkazildi. Milliy til-xalqlar va millatlarning asosiy muloqot manbaidir. Til xalqlarni birlashtiradi, tarbiyalaydi, madaniyatni saqlaydi, avloddan-avlodga o'tishini ta'minlaydi. Tilni sevish, himoya qilish, asrash, ardoqlash, millatni, xalqni, jamiyatni sevish va uni qadrlash bilan tengdir.

Har bir inson o'z ona tilida so'zlaydi, tasavvur qiladi, tafakkur qiladi, his qiladi. Til muloqot vositasigina bo'lib qolmay, u insonning ichki olamini ifodalaydi, dunyo ne'matlarini idrok qilishga ko'maklashadi, dunyoqarash va kamolotni belgilab beradi. Ta'kidlaganimizdek, tilning madaniyati bor va ularni o'rganish har bir insonning majburiyati hisoblanadi. Chunki u inson o'z millati va jamiyati timsoli ekanligini ko'rsatib bermoqda. Suhbat davomida asosiy qoidalardan biri o'ylab, tafakkur qilib so'zlamoqdir. Bu qoida insonning o'z hayolotlari va tafakkurini boshqarishga yordam beradi. Keyingi qoida esa chiroyli suhbat qilish. Agar inson tilining boy lug'atini namoyish etmoqchi bo'lsa, unda suhbatdoshiga buni isbotlasin. Har bir suhbatning o'ziga yarasha muomala va so'z qo'llash madaniyati mavjud. Bunday qoidalarni sanasak, juda ko'p. Bolalarni nima uchun yoshligidan muomala madaniyatiga o'rgatamiz? Chunki ular bizning kelajagimiz va millatimiz, xalqimiz ko'zglasidir. Insonlarning qiladigan muloqotlari. suhbatlari orqali, ularning nafaqat, dunyoqarashini, tasavvurini balki, millati madaniyatini ham bilib olish mumkin. Til va madaniyatning o'zaro bo'g'liqligi to'g'risida turli xil qarashlar va fikrlar mavjud. Shulardan biri Vilgelm fon Gumboldtdir. U shunday deydi: "Garchi til hamma

odamlar uchun universal bo'lsa-da, dunyo tillari bir-biridan farq qiladi va har bir tilda dunyoqarash va tafakkur mavjud". Gumboldt uchun odamlarga aqliy qobiliyatlar berilgan va ba'zi tillar va madaniyatlar ushbu aqliy qobiliyatlarning ishlariga asoslangan ijoddir. Bunday fikrlardan yana biri N.I.Tolstoyga tegishli, u shunday fikrni ilgari surgan: "Tilni madaniyatning tarkibiy qismi yoki madaniyat quroli sifatida qabul qilish mumkin, ayniqsa, adabiy til yoki folklor tili haqida gap ketganda. Biroq, til bir vaqtning o'zida butun madaniyatga nisbatan avtonomdir va uni madaniyat bilan solishtirganda teng hodisalar orqali amalga oshiriladi." [Tolstoy 1995:16] Ter-minasovaning mulohazasiga ko'ra, til - bu ma'lim bir nutq guruhining madaniyati, an'analari, ijtimoiy o'zini-o'zi anglashini saqlash va yetkazish orqali millatni shakllantiradigan, etnik guruhga inson oqimini shakllantiradigan kuchli ijtimoiy vosita hisoblanishini ta'kidlab o'tgan.[Ter-Minasova 2000]Til va madaniyat o'rtasidagi bo'g'liqlikni va munosabatlarni o'rganuvchi bo'lim-lingvomadaniyatshunoslik, deb ataladi va bu fan doirasida turli xildagi mulohazalar mavjud. Til va nutqda madaniyatning namoyon bo'lishi aks etishi va fiksatsiyasini o'rganuvchi fan bo'lib,dunyoning milliy manzarasini, lingvistik ongini, mental-lingualini mukammal o'rganish bilan bevosita bog'liqdir. Lingvamadaniyatshunoslik til va madaniyatning sinxron o'zaro ta'siridagi muvofiqliqlikni o'rganish va tavsiflashga bag'ishlangan fan ekanligi olimlar tomonidan ta'kidlangan.

«...chiroyli sozlash uchun mantiqiy fikrlash lozim. Nutq madaniyatini egallagan kishi to'g'ri fikr yuritib, tinglovchilarga ta'sir eta oladi»,- dedi tilshunos A. Oripova. [A.Oripova. 243]. Nutq–tilning fikrini ifodalashi va so'zlashish, fikr almashish jarayonlarida namoyon bo'lishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutqda insonning o'y-fikrlari shakllanadi va mavjud bo'ladi. Nutqning eng muhim belgilari: aniqlik, ravonlik, tembr, soddalik va ta'sirchanlikdir. Nutqning ham xuddi til kabi o'ziga yarasha madaniyati mavjud.Nutq madaniyati-adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda so'zlashish, o'z fikrini bildirish demakdir. Nutq madaniyatining eng cho'qisi, yuqori darajasi madaniyatli kishining ajralmas xususiyati va mulkidir. Nutqimizni shakllantirish har birimizning vazifamiz hisoblanadi. Chunki chiroyli nutq egalari, o'zlarining go'zal xususiyatlarini, madaniyatlarini ommaga namoyish etadilar. Nutqimizni rivojlantirishimiz uchun doimiy ravishda jumalarni,talaffuzlarni buzmasdan gapirishimiz lozim.Ammo bugungi kunda ko'rib turibdiki, nafaqat yoshlarimiz balki, kattalar ham nutq madaniyatiga va adamiy til me'yorlariga e'tibor bermagan holda so'zlashishadi, bu esa tilimizning yillar o'tib yo'qolib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Buning oldini olish uchun, adabiy me'yorlar haqida yetarlicha tushunchaga ega bo'lishimiz lozim va kunlik so'zlashishimizda ham ulardan foydalanib, har xil qisqartmalarni lug'atimizdan o'chirib tashlashimiz lozim. Nutqi go'zal odam har yerda ulug'lanadi, hurmatga sazovor bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, Til, Nutq va Madaniyat – mana shu uch kalit so'zlar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Madaniyatli jamiyat bo'lmoq uchun, avvalo, millatni,x alqni, jamiyatni madaniyatli qilish lozim, shundagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Til–ijtimoiy hodisa. Uni insonlar bilan muloqot qilganda, ijtimoiy munosabatlarda qatnashgandagina egallasa bo'ladi. Har bir jamiyatning o'z tili va madaniyati mavjud. Bunday boyliklar hech kimning yodidan

chiqmaydi va unutilmaydi, qachongina,insoniyat ularni qadrlay boshlasa va himoya qilishda o'z hissasini qo'shsa!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aripova A.H. Nutq mohiyatini tashkil etuvchi muhim vosita. «Scientific progress» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 /// Volume: 1, ISSUE: 6
2. Ворбъев В.В. "Лингвокультурология.- М. РУДН, 2008:-340 с..
3. Тер-Минасова С.Г. «Язык и межкультурная коммуникация»- Учеб.пособие. М.: слово/slovo,2000: -.624 с.
4. Толстой Н.И. «Язык и народная культура" - М.: "Индрик",1995:-16 с.

GENDER YONDASHUV ASOSIDA O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILARNI BADIY-ESTETIK RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Axmedova Matluba Akmalovna¹

¹ "Rus tili" kafedrasida dotsenti, kafedra mudiri
Toshkent amaliy fanlar universiteti

Аннотация. В статье рассмотрены педагогические и психологические возможности художественно-эстетического развития школьников-подростков на основе гендерного подхода.

Ключевые слова: педагогические-психологические возможности, гендерный подход, подростковый возраст, художественно-эстетический, пути развития.

Abstract. The article discusses the pedagogical and psychological possibilities of artistic and aesthetic development of teenage schoolchildren based on a gender approach.

Key words: pedagogical-psychological possibilities, gender approach, adolescent age, artistic-aesthetic, ways of development.

Annotatsiya. Maqolada gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarni badiiy-estetik rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: pedagogik-psixologik imkoniyatlar, gender yondashuv, o'smir yosh, badiiy-estetik, rivojlantirish yo'llari.

Bugungi kunda shaxs ma'naviyati hamda ma'naviyatlilik darajasini o'rganish masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bu ishlar, shubhasiz, ta'lim oluvchilar ma'naviyatini ularning ehtiyojlari darajasida shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Biroq, ushbu yo'nalishdagi aksariyat ishlarda ma'naviyat tushunchasi, uni o'quvchi ongiga yetkazish, u yoki bu o'quv predmeti doirasida ta'lim oluvchilar ma'naviyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan. Shuning uchun ham, bugungi kunda o'quvchi shaxsi ma'naviyatini

shakllantirishning muhim jihatlari, jumladan, ularda ma'naviy qadriyatlarni egallashga bo'lgan ehtiyojlarni tarkib toptirish orqali, o'quvchilarning ma'naviyatini shakllantirish ustida izchil, tizimli tadqiqot ishlarini amalga oshirish muhimdir.

Buning uchun o'quvchilarda milliy-ma'naviyat, qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish muammosini pedagogik, psixologik, falsafiy jihatdan chuqur tahlil etish lozim. Birinchi navbatda, o'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini vujudga keltiradigan manbalarni aniqlash kerak. Ma'naviy qadriyatlar tushunchasi o'zbek xalqi madaniyati, diniy qarashlarini egallash ehtiyoji bilan chambarchas bog'liqdir. Chunonchi, diniy qarashlar va diniy e'tiqod insonni poklaydi, uning ruhiyatini yengillashtiradi. Insonning ichki dunyosi va ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatishda Islom dini keng imkoniyatlarga ega. Diniy qarashlarda inson jismi va ruhiyati, yaxshilik va yomonlik, gunoh va savob qarama-qarshi qo'yilib, bu tushunchalar insonni ma'naviy jihatdan takomillashishga chorlaydi. Biz o'z tadqiqotimiz davomida o'quvchi ruhiyati va uning ma'naviy poklanishga bo'lgan ehtiyojlarini shakllantirish muammolari ustida to'xtalamiz.

O'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish haqida fikr yuritganda, e'tiborimizni, eng avvalo, o'zbek xalqining mentaliteti bilan bog'liq jihatlari qaratamiz. Mentalitet – (lotincha mentalis- aqliy) – ayrim kishi yoki ijtimoiy guruhga xos aqliy qobiliyat darajasi, ma'naviy salohiyat. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti, ularning o'ziga xos tarixiy an'analari, urf-odatlarini, diniy e'tiqodini ham qamrab oladi. Har bir millatning mentaliteti uning tarixi, yashab turgan shart-sharoiti, ijtimoiy faolligi va boshqa bir qancha omillar bilan bog'langan bo'ladi. Chunki ushbu tushunchaning tahlili o'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish tizimini vujudga keltirish uchun nihoyatda muhimdir.

O'zbek xalqi ma'naviyati va milliy qadriyatlarining asosini tashkil etgan tasavvuf ta'limoti namoyandalari insonning ma'naviy barkamollikka erishuvi uning asosiy ehtiyojiga aylanishi lozimligini alohida uqtirib ko'rsatganlar. Ma'naviy barkamollikka erishish g'oyasi bugungi kun ta'lim tizimi uchun ham bosh maqsad hisoblanadi. Insondagi ko'plab o'zlikka xos tushunchalarning uyg'unlashuvi, ularning hayot faoliyatlari ta'lim jarayonida amalga oshadi va muvofiqlashadi. Umumiy milliy g'oya atrofida birlashish jamiyat hayotiga o'zining shaxsiy ulushini qo'shish va shu asosda uni farovonlashtirishdan iborat. Shu tariqa ma'naviy barkamollikka erishish istagi ta'lim tizimida shaxsning o'zaro aloqadorlikda ma'naviy-axloqiy, ruhiy takomillashuvini ta'minlovchi jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

V.S.Solovev esa, ma'naviyatni insonning yuksak darajada shakllangan axloqi sifatida talqin etadi. U ham tasavvuf ta'limoti hamda Sharq allomalari asarlarida ko'rsatilganidek, inson yaxshiliklar qilish uchun yashashini e'tirof etadi. Axloqiy xulq-atvorning asosini insonning o'z burchini anglashi tashkil qiladi. U ajdodlar tomonidan o'tmishda yaratilgan va unga taqdim etilgan qadriyatlarni o'zlashtirishi, asrashi, shuningdek, o'zi o'zlashtirgan qadriyatlar va ajdodlar merosini boyitgan holda kelgusi avlodlarda yetkazish uchun burchlidir [1].

P.A.Florenskiy o'z ishlarida shaxs ma'naviyatining go'zallik bilan bog'liq jihatlari tahlil qiladi. Uning ta'biricha, shaxs ma'naviyati u yashab turgan davlat va jamiyat madaniyati negizida shakllanadi va namoyon bo'ladi [2].

Hozirgi davrda jamiyatimizda o'zining ma'naviy qadriyatlari ildizini topish, izlash va o'zlashtirish jarayoni davom etmoqda. Chunki uzoq asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish vositasidagina o'quvchi-yoshlar ma'naviyatini shakllantirish, ularni bugungi hayotimizni yuksaltirishga safarbar etish mumkin.

Shu bilan bir qatorda, o'tmishda va bugungi kunda yaratilgan badiiy asarlar ham o'quvchi-yoshlarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Shu ma'noda inson ma'naviyatini shakllantirishda fan, din, falsafiy, axloqiy ta'limotlar, tarixiy, ijtimoiy tajribalar, san'at va adabiyot alohida ahamiyat kasb etadi. San'at va adabiyotni o'quvchilarning ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda muhim vosita sifatida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunga kelib shaxs ma'naviyatini shakllantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarning ko'lami nihoyatda kengaydi. Bu sohada ko'p qirrali fundamental ishlar hamda amaliy tajribalar mavjud. G.E.Burbulis, V.I.Ksenfontov kabilarning tadqiqotlarida ma'naviyatlilik va shaxs ma'naviyatini shakllantirishning turli qirralari yoritilgan. Mazkur tadqiqotlar orasida V.I.Ksenfontovning shaxs ma'naviyatini shakllantirishga ekzistentsiya, ya'ni insonning o'zligi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda yondashish haqidagi qarashlari alohida ahamiyatga ega. Ekzistentsiya lotincha so'z bo'lib, insonning mavjudligi, o'zligini anglatadi. U ekzistentsializmning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, mazkur tushuncha shaxsning mavjudlik usulini ham bildiradi. Ushbu atama dastlab Kerkegor tomonidan qo'llanilgan edi. Bu g'oya tarafdorlarining fikricha, u inson o'zligining asosiy negizini tashkil etadi. Shunga ko'ra u shunchaki ayrim empirik individ va yalpi umumiy (umuminsoniy) hodisa sifatida emas, balki betakror, o'ziga xos shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Ekzistentsiya insonning mohiyati emas, balki uning imkoniyatidir. Uning muhim jihatlaridan biri ob'ektivlashtirib bo'lmasligidadir. Shaxs o'zining qobiliyati, egallagan bilim va tajribalarini amaliy tarzda tashqi hodisalar sifatida ob'ektivlashtira oladi. Shu tariqa u o'zining ruhiy faoliyati, tafakkurini nazariy jihatdan ob'ektivlashtiradi, o'zi o'rganadigan hodisaga aylantiradi. Insonning bilish jarayonidan tashqarida qoladigan, hukmiga bo'ysunmaydigan yagona hodisa shaxsning o'zligidir [1]. Shuning uchun ham, shaxsning o'zligi uning imkoniyatlaridir. Uning imkoniyatlaridan biri esa, ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojining vujudga kelishida namoyon bo'ladi.

N.K.Borodino o'zining shaxsiy nuqtai nazari sifatida shaxs ma'naviyati asoslarining mavjudligini e'tirof etadi. Uning ta'biricha, ma'naviyat inson o'z-o'zini aniqlashining ichki sohasidir. Inson o'z imkoniyatlari yordamida o'zining shaxsiy dunyosi va unga beriladigan bahoni kashf etadi. U o'z imkoniyatlarini o'zining aqliy, ruhiy-axloqiy ko'nikmalari orqali namoyon qiladi. Shu bilan bir qatorda, shaxs imkoniyatlarining namoyon bo'lishida uning ideallari ham alohida o'rin egallaydi [3].

Shaxs ma'naviyatining umumiy, nazariy asoslari V.S.Barulinning ishlarida batafsil aks etgan. Uning ijtimoiy-falsafiy antropologiya asarida ma'naviyat shaxsni shakllantiruvchi asosiy sifat darajasida ta'riflanadi. Xuddi mana shu sifat esa, uni hayvonot olamidani farqlovchi asosiy belgidir. Muallif ma'naviyatning bir qator o'ziga xos xususiyatlarini ajratadi: "inson ma'naviyati uning sub'ektiv dunyosi sifatida", "inson ma'naviyati uning ideali sifatida", "ma'naviyat insonning o'z-

o'zini anglash shakli sifatida", "ma'naviyat shaxsni ezgulikka undovchi kuch sifatida" hamda "ma'naviyat inson ijodiy faoliyatining mazmun-mohiyati sifatida" talqin etilgan[2]. Muallif ma'naviyat tushunchasi tarkibiga shaxsning aqliy fikrlash, hissiy-emotsional hamda insonning erkin faoliyatini birlashtiradi. Inson ruhiyatining murakkab majmuasi axloqiy-estetik, diniy dunyoqarashi, fan va san'atni qamrab oladi.

Ko'pgina olimlar ma'naviyatni shaxsning hissiy olami bilan bog'lagan holda talqin qiladilar. Biroq, mazkur yondashuv tarafdorlari orasida ham turli-tuman qarashlar mavjud. S.F.Anisimovning ta'kidlashicha [3], shaxs ma'naviyati tarkibida tabiiy, axloqiy me'yorlarni bilish jarayoni ifodalanadi. Ma'naviy-axloqiy hissiyot esa, uning tashqi shakli sifatida namoyon bo'ladi.

G.A.Avanesovaning ma'naviy ehtiyojni tarkib toptirishga nisbatan yondashuvlari alohida nazariy qimmatga ega. U ma'naviyatlilikning 3 xil shaklini ajratadi:

1. Yuksak darajadagi reallikni anglash maqsadida moddiy olamga g'amxo'rlik qilish.
2. Mavjud borliqqa nisbatan ma'naviy-ijodiy faoliyat ko'rsatish.
3. Ko'pchilik odamlarga xos bo'lgan kundalik hayotiy faoliyat bilan shug'ullanish.

Ma'naviyatlilikning ushbu ko'rinishlari bir-biri bilan o'zaro aloqador bo'lib, muayyan jamiyatda betakror ma'naviy amaliyotni vujudga keltiradi. Buning uchun yosh avloddan milliy-madaniy, hududiy hamda umuminsoniy madaniyatni o'zlashtirish talab etiladi.

Yuqoridagi tahlillarimiz shaxsning ma'naviyatlilik darajasi va uni egallash ehtiyojiga nisbatan turlicha metodologik, psixologik, pedagogik hamda ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Bu milliy-ma'naviyat qadriyatlarining umumiy tarkibiy qismidir. Shuning uchun mavjud manbalarda ma'naviyat shaxsning ichki, o'ziga xos dunyosi sifatida baholanadi. Ma'naviyatli shaxsda muayyan axloqiy sifatlar tarkib topgan bo'ladi. Bu ehtiyoj, intilish, qadriyatlar, fikrlar sifatida namoyon bo'ladi. Ular o'z navbatida shaxsning o'z-o'zini tarkib toptirishi, sifatleri, shaxsiy ongi shaklida aks etadi. Bu esa, insonning o'z hayotini ongli tarzda qurishiga ko'maklashadi. Shaxs ma'naviyatining yuksalishi uning shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda, ma'naviy qiziqishlari boyishi, ijodiy imkoniyatlarining ochilishi hamda muhim insoniy sifatlarining tarkib topishiga ko'maklashadi. Ma'naviy qadriyatlarni egallash natijasida esa, inson hayotiy faoliyatining mazmun-mohiyati aniqlanadi.

Ma'naviyatlilik tushunchasiga o'zlikni, o'z imkoniyatlarini namoyon qilish ifodasi sifatida yondashgan ruhshunoslarning qarashlari alohida ahamiyatga ega. Ushbu ruhshunoslar jumlasiga E.Fromm, A.Maslou, V.Frankllarni kiritish mumkin. Ular o'zlarining nazariy-amaliy qarashlarida insonning ma'naviy rivojlanishini ta'minlovchi hayotiy omillar va vositalar haqida fikr yuritganlar.

A.Maslou o'z ishida ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojlarini ierarxik tarzda pog'onalashtirgan holda tavsiflashga harakat qiladi. Mazkur tasnif inson hayotidagi muhim ehtiyojlarni ajratish va tavsiflashga xizmat qilishi bilan alohida ahamiyatga ega. Uning yordamida inson o'z-o'zini takomillashtirishga intiladi. Mazkur ehtiyojlar zahirida insonni qadriyatlarni egallash va shu asosda ma'naviy

yuksalishga bo'lgan intilishlari ifodalanadi. A.Maslou ta'biricha, inson o'zligiga tayanishi lozim. Tasavvuf ta'limotida esa, mazkur g'oya qalb amriga bo'yso'nish sifatida tavsiflanadi [1]. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik-psixologik qarashlar bilan bir qatorda, tasavvuf ta'limoti ham shaxs ma'naviy ehtiyojlari asosida uning ma'naviyatini yuksaltirish borasidagi tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shaxs ma'naviyatini yuksalirishga oid tadqiqotlarida V.Frankl logoterapiya va ekzistentsional tahlil metodikalarini taqdim qiladi. Tasavvuf ta'limotiga hamohang tarzda u ma'naviyatlilikni shaxsning erkinligi sifatida tavsiflagan. Mas'uliyatlilik esa, shaxs mavjudligining muhim belgisidir.

Ma'naviyatlilikning asosini fikriy yetuklik tashkil etadi. Shu ma'noda ma'naviy qadriyatlarni egallashga bo'lgan ehtiyoj shaxsning fikriy yetuklik sari intilishidir.

Ma'naviyatlilikning asosiy jihatlari P.V.Simonov, P.M.Ershov, Yu.P.Vyazemskiylarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Mualliflar ma'naviy ehtiyojlarni ikki guruhga ajratganlar:

a) boshqalar uchun ehtiyojlar, bunday ehtiyojlar shaxsga o'z manfaatlaridan voz kechgan holda boshqalarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish tuyg'usini hosil qiladi. Bu ehtiyojlar katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ehtiyojlar bo'lib, har bir shaxsning qalb amri hisoblanadi;

b) aniq bilish ehtiyojlari, u shaxsning taraqqiyoti bilan bog'liq. Mazkur ehtiyojlar mavjud bilimlar zaminida vujudga keladi. Bunday ehtiyojlar mavjud me'yorlar doirasida chegaralanmaydi. Ushbu ehtiyojga ega bo'lgan kishilar ilmiy haqiqatlarning yangidan-yangi sohalarini o'zlashtirishga intiladilar.

P.Simonov shaxsning axborot egallashga bo'lgan ehtiyojlari nuqtai nazaridan yondashib, ma'naviy ehtiyojlarni quyidagicha izohlaydi. "Ma'naviyat materialistik nuqtai nazardan, shaxsning mayllari tizimida o'ziga xos tarzda ifodalanish imkoniyatiga ega. Bu o'rinda ikki yo'nalishdagi fundamental ehtiyojlarni ajratib ko'rsatish mumkin: a) bilishning ideal ehtiyojlari; b) yashash uchun zarur bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlar. Bunda jamiyat va uning a'zolari uchun faoliyat ko'rsatish nazarda tutiladi. Ma'naviyat tushunchasi ostida ushbu ehtiyojlarning birinchisi anglanadi, ikkinchisi esa insonning qalb amridir".

Shunday qilib, ma'naviyatga axborotli yondashuv: a) ta'lim jarayonida shaxs ma'naviyatini shakllantirish o'quv predmetlariaro aloqadorlikni ta'minlash natijasida vujudga kelishi, b) shaxs ma'naviyatini shakllantirish uning ehtiyojlari bilan bevosita bog'liqligi, bunda bilish ehtiyojlarining ustuvorligi, v) ma'naviy ehtiyojlarni qaror toptirishning asosiy negizi insonning ruhiy, fiziologik xususiyatlari, mayllari, hissiyotlari va optimal tarzda tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni ekanligi ayon bo'ldi.

Nazariy manbalar va metodologik asoslarning tahlili shuni ko'rsatdiki, shaxs ma'naviyatini shakllantirishda uning ehtiyoj va mayllarini aniq hisobga olish lozim. Insonning ma'naviy qadriyatlarni egallash mayllari, ehtiyojlari esa bevosita uning dunyoqarashi bilan bog'liq. Mana shu mayl, ehtiyoj va dunyoqarash zamirida o'quvchilarning ma'naviyatini shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ахмедова М. А. Бадиий-эстетик тарбиянинг ривожланиш тенденциялари //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 123-128.
2. Ахмедова М. А., Мирзиёев Ш. М. Современные стратегии обучения в образовательном процессе //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 8. – С. 40-43.
3. Akhmedova M. A., Khalikberdieva N. T. The book is an indispensable source of knowledge //European research: innjvation in science, education and technology. – 2020. – С. 70-73.

FOLKLOR JANRLARINING PROGMAТИK BELGILARI HIKOYA ASPEKTIDA

Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna ¹

¹“Rus tili” kafedrası v.b.dotsenti

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Аннотация. В статье рассмотрены прагматические особенности фольклорных жанров в аспекте рассказа. Также представлены примеры из научных трудов российских и узбекских фольклористов.

Ключевые слова: педагогическо-психологические возможности, гендерный подход, подростковый возраст, художественно-эстетический, пути развития.

Abstract. The article discusses the pragmatic features of folklore genres in the aspect of storytelling. Examples from scientific works of Russian and Uzbek folklorists are also presented.

Key words: educational genres, folkloristics, genre, pragmatic, story.

Annotatsiya. Maqolada folklor janrlarining pragmatik belgilari hikoya aspektid ko'rib chiqildi. Shuningdek, rus va o'zbek folklorshunoslarining ilmiy ishlaridan misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: несказочная проза, фольклористика, жанр, прагматика, рассказ.

Folklorshunoslikda xalq og'zaki poetik ijodining muayyan voqea-hodisani hikoya qilishga asoslangan janrlari tizimi ertak va ma'rifiy janr singari ikkiga ajratiladi. Bu ikki turdagi xalq nasrining bir tizimga birikish belgisi – ularning hikoyaviyligi, ya'ni biror voqea-hodisani tafsilotini hikoya qilib berishga asoslanganligida ko'zga tashlanadi. Rus folklorshunosi B.N.Putilov tomonidan “ma'rifiy janr” deb yuritilgan bu kichik nasr janrlari ushbu xususiyati bilan bir qatorda folklor nasrining pragmatikasi va uning turli janrlarini bir tizimga birlashtirish bilan bog'liq boshqa xususiyatlarni ham o'zida mujassamlashtirganligini olim bunday janrlarning “marosim hayotida ishtirok etmaslik”ida deb hisoblaydi [3].

Hikoyaga asoslangan janrning marosim hayotida “ishtirok etmaslik” kreteriyasi folklor nasrining pragmatik maqsadi bilan belgilanadi. Ruslar orasida

ertak yoki ma'rifiy janr (ertak bo'lmagan nasr asarlar)larni so'zlab berish, xalq og'zaki ijodida, hech qanday marosim yoki an'ana bilan bog'liq bo'lmagan jarayonda amalga oshiriladi. Marosim folklori afsunlar, marosim aytimlari, turli sehrli formulalar va marosim qo'shiqlarini o'z ichiga olgan. O'zbek folklorida ham ayni hikoyaga asoslangan janrlarning tarbiyaviy maqsadda marosimdan tashqari holatda ijro qilish kuzatiladi. Afsona yoki rivoyat, naqllarning marosimdan tashqari holatda muayyan tushunchaning mohiyatini ochishga qaratilganligi uning didaktik vazifasini belgilab beradi. Bu esa uning pragmatik xususiyatlarini aniqlashtiradi. I.Botkin aytganidek, biz folklor ichidan tarixiy yoki ijtimoiy hayotga chiqib uning axloqqa ta'sirini kuzatsak amaliyotchi sanalamiz [1].

Folklorning amaliy ahamiyati uning inson tarbiyasiga ta'sir ko'rsatishida ko'rinadi. Bu esa, uning pragmatik belgisini oydinlashtiradi. Biroq, "marosimga oid bo'lmagan hikoyalar"da tasvirlangan voqea-hodisa sehr yoki marosim, yohud uning o'tkazuvchisiga daxldor bo'lmaydi. Balki ijtimoiy hayotimizdagi istalgan kishining taqdiriga dahldor bo'lishi mumkin. B.N. Putilovning fikriga ko'ra, "Marosimga oid bo'lmagan hikoyalar – bu qoidalar, odob-axloq, ta'qiqlarning butun tizimi bilan tashkil etilgan o'ziga xos madaniy hodisadir" [3]. Bizningcha, marosimga aloqasi bo'lmagan hikoyalar jamiyat hayotining turli rakursida aks etgan voqealarining ifodasi sifatida baholanmog'i va xalq badiiy tafakkurining o'ziga xos poetik mahsuli sifatida qaralishi lozim.

Darhaqiqat, ertaklar va ma'rifiy janrlar "madaniy hodisa (fenomen)", ularning janr chegaralari (ayniqsa, afsonaning) haqidagi bahslar bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Biroq, qayd etilgan xususiyatlar ertak va ma'rifiy janrni bitta tizimga birlashtiradi – bu hikoyaning boshlanishi (hikoya qiluvchini, narrotorni) va "marosim hayotida ishtirok etmaslik" [3]. O'zbek folklorshunosi K.Imomov esa, xalq nasri janrlarini farqlashda ularni ikki asosiy guruhga ajratadi. "Birinchi guruhga mansub: mif, afsona, rivoyat, demonologik hikoyalarni kiritib ularning asosiy belgisi, badiiy darajasining nisbatan kuchsizligi va hayotda yuz bergan, ishonch uyg'otadigan voqealarni hikoya qilish. Ma'rifiy ahamiyat, diniy etiqodga davad etish, ma'lumot berish vazifasini ada etishi, faktni tasdiqlash, o'rgatish, bildirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Ikkinchi guruh ertak, naql, latifa, lofdan tashkil topgan. Bu guruh janrlari yuksak badiylikka ekanligi, ahloq normalarini belgilash, ta'lim tarbiya g'oyalarini aks etiri, ayni paytda estetik zavq berish vazifasini ado etishi, ishtimoiy-maishiy voqealarni, xayoliy va hayotiy uydurmalarda hikoya qilishi bilan farqlanadi" [2]. Demak, xalq nasri namunalarining pragmatikasi, ularning maishiy vazifalar bajarishi: poetik, estetik va didaktik vazifalari bilan belgilanadi.

Folklorshunoslikka doir tadqiqotlarda ertak va ma'rifiy janrlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'ya boshlaydi. Ko'pchilik xollarda "Ertak – ma'rifiy janrlar"ning mavjudligi masalasida keng munozara yuritiladi. Xususan taniqli rus folklorshunosi V.Ya.Propp tomonidan ko'rsatilgan narsaga ishonish/ishonmaslik deb belgilagan ertakning o'ziga xos xususiyatlari ma'rifiy janrni boshqa informativ janrlardan farqlab turuvchi progmatik xossadir. "Ertakning asosiy xususiyati shundaki, na ijrochi, na tinglovchi aytilayotgan haqiqatga ishonmaydi. Xalq nasrining boshqa barcha turlari (rivoyat, hikoya, afsona, naql) informatik xarakter kasb etadi. Ya'ni bu kichik janrlarning asosiy vazifalari sirasida axborot tashuvchilik ham mavjud. Bunday hollarda odamlar aytilganlarning haqiqati yuzaki voqea ekanligiga

ishonishadi [4]. Kichik informativ janrlarda jumladan mif, afsona va rivoyatlarda muayyan voqelik to'g'risida ma'lumot yetkazish vazifasi yetakchilik qilishini unutmashimiz lozim. Tasvirlangan voqealarning tasvirlash uslubida xayoliy uydurma yoki hayotiy uydirmaning ustivorligi bu ikkinchi masala bo'lib, janrning spetsifik tabiatini ko'rsatib turadi. Aslida ayni xususiyat ham janrning pragmatik xususiyati sanaladi.

O'tkan asrning 60-70-yillarda folklordagi ertak va ma'rifiy janrlarni nasrda farqlash uchun aynan shu pragmatik xususiyat (funktsional xususiyat – ertakning ustun estetik funktsiyasi va ma'rifiy janrlarni “estetik bo'lmagan”, utilitar, funktsiyasi bilan bir qatorda) asosiy mezon bo'lgan.

I.A.Razumova nasr janrlari tizimining zamonaviy modeli, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki asosga “xayoliy uydurma” va “hayotiy” uydurma”ga egaligiga ahamiyat qaratish lozimligini uqtiradi. Ana shu xususiyatlariga ko'ra guruhlangan ertak va ma'rifiy janrlar har biri o'ziga xos janr tizimini tashkil etadi [5].

Ertak alohida janr bo'lsada, u o'ziga xosliklari bilan farqlanuvchi ichki guruhlardan iborat. Bular: hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklardan iborat bo'ladi. Bu janr turlarining har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega (personajlar, ularning vazifalari, tili va boshqalar), lekin ularning hayotiy -maishiy xususiyatlar birikmasi ularni bir tizimga birlashtiradi. Ye.V. Pomerantsevaning yozishicha, “Badiiy adabiyotda ta'kidlanganidek, ongli ravishda voqelikni tasvirlashda fantastika (uydurma)ning yetakchilik qilishi ertakning janr sifatidagi asosiy xususiyatidir” [6]. “Odatiy, hayotiy”lik belgisi matn va xalq e'tiqodlari o'rtasidagi aloqaning yo'qolishini ko'rsatadi, ya'ni ertak an'analarda sodir bo'lgan nasrni deskralizatsiya qilish to'g'risida, ammo bu zarurat tug'ilganda ertaklarni haqiqiy e'tiqodlar tizimiga kiritishga to'sqinlik qilmaydi [5]. Bizningcha, ertak ijrochisi ham uning tinglovchisi ham ertakda tasvirlangan voqealarni hayoliy uydurma ekanligini anglashi uning xaqiqat deb qabul qilmasligini ko'rsatadi. I.A.Razumova takidlaganidek, ertakdagi sehrli hodisalar, uni e'tiqodlar tizimiga kirishi uchun asos bo'la olmaydi, buning sababi ertak badiiy tafakur maxsuli bo'lganligi, mifologik e'tiqodlar esa, sokral matnda tasvirlangan hodisalarni tinglovchi tomonidan xaqiqat sifatida qabul qilinganligi bilan farqlanadi. Demak, mifologik obrazlar, g'aroyib predmetlar va sehrli hodisalarning tasvirlanishi garchi ertak syujetida uchrasa-da, undagi voqealar tinglovchining badiiy estetik ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Biroq, mifologik afsona syujetida sodir bo'lgan sehrli hodisa yoki mifologik obraz tinglovchiga ko'hna dunyo siru sinoatlaridan xabar berayotgan og'zaki mant sifatida tushuniladi.

Uydurma va uning sifati (hayotiy yoki xayoliy) belgilar birikmasi xalq og'zaki nasri janr tizimida rivoyat, hikoya, afsona, matal, ertakdan tashkil topgan asarlar tabiatini ko'rsatadi. Matn pragmatikasi nuqtai nazaridan, “aktual” atributi (yoki haqiqiylikka munosabat) afsonaning asosiy janr belgisidir. Biroq, ishonchlilik tamoyiliga ega ma'rifiy janrda hamma narsa badiiy talqinga yo'naltirilgan ertakdagi kabi oddiy emas. “Ertak matnlarida, sehrli yoki maishiy mavzuda bo'lishidan qat'i nazar, haqiqiylik masalasi butunlay olib tashlanadi” [6]. Ertaklarda ijrochi uchun ham, tinglovchilar uchun ham bir xil taassurot uyg'otish vazifasi, uning badiyatidagi fantastik ta'svir orqali amalga oshirilsa-da, ertak matnida fantaziya, badiiylik

majburiy bo'lad. Ya'ni, "Ijrochi – matn – tinglovchi" pragmatik tizimida ertak ushbu tizimning har uchala komponenti tomonidan bir ma'noda idrok qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Botkin B. Applied Folklore: Creating Understanding through Folklore //Southern Folklore Quarterly. 1953. Vol. 17. — P. 199–206.
2. Imomom K. O'zbek xalq nasri poetikasi. – T.: Fan, 2008.– B. 17.
3. Путилов Б.Н. Фольклор и действительность. – Москва, Наука, 1994. – Б. 161.
4. Пропп В.Я. Поэтика фольклора. – М.: Лабиринт, 1998. – С. 78.
5. Разумова. А. Сказка и быличка (Мифологический персонаж в системе жанра). Петрозаводск КНЦ РАН 1993. – С. 13.
6. Померанцева Е.В. Русская устная проза. – М.: Просвещение, 1985. – С. 17.

O`SMIRLAR PSIXOENERGETIKASI MUAMMOSINI O`RGANISH VA UNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAHLIL QILISH

Ochilov Abror Safarqul o`g`li¹

¹*Xalqaro Nordik Universiteti magistranti
abror_ochilov2024_ochilov@mail.ru
ochilovabror782@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixoenergiya borasidagi zamonaviy g`arb tajribasi, Xitoy va Hindistondagi an`anaviy sharqiy usullar va shu bilan birga sharq mutafakkirlarining ushbu sohadagi qarashlari qiyosiyi tahlili, o`smirlarda psixoenergetika balansini diagnoz qilishda mavjud muammolarini muhokama qilish hamda psixoenergetik qobiliyatlarlarni rivojlantirishning bir qancha yo`llari tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье представлен сравнительный анализ современного западного опыта психоэнергетики, традиционных восточных методов в Китае и Индии, а также взгляды восточных мыслителей в этой области, обсуждение существующих проблем диагностики психоэнергетического баланса у подростков и ряд пути развития психоэнергетических способностей.

Kalit so`zlar: Psixoenergiya, psixoenergetika dinamikasi, psixoterapevtik, texnikaviy, meditatif usullar, dinamik, statik va psixologik usullar.

Ключевые слова: Психоэнергетика, динамика психоэнергетики, психотерапевтические, технические, медитативные методы, динамические, статические и психологические методы

Kirish. Uzoq yillar davomida psixologiya fani o`smirlar psixologiyasini atroflicha o`rganib keldi, o`smir “men”i, o`smir shaxsi, ulardagi inqirozlar, psixik jarayonlaridagi individualliklar, intellekti hamda motivlari va boshqa bir qancha jihatlarini o`rgandi. Ta`lim samaradorligiga erishish uchun ularning diqqati, idroki, tafakkuri, xotirasini o`rganish va rivojlantirish borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi, kasbiy moyilligi muntazam o`rganilib kelindi. Shunga qaramay bu borada bir qancha muammolar saqlanib qolyapti. Ushbu tadqiqot mavzusining tanlanishiga quyidagi muammo va omillar sabab bo`ldiki, ularni empirik o`rganish vazifasi paydo bo`ldi, bugungi o`smirlarda salbiy energiyaga to`lganlik (doimiy salbiy fikrlar, faoliyatsizlik, o`qishga hohishsizlik, bazi o`smirlarda ekstrimal, baxsli va mojaroli holatlarda energik “o`chib qolish” yoki aksincha balans energiyani oshirib olish holatlari kuzatilmoqda, bu holatlarning sababini ko`p holatlarda boshqa sabablarga bog`laymiz. Ushbu tadqiqot asnosida ushbu va boshqa holatlarni batafsil o`rganishni maqsad qilganmiz. Ma`lumki, psixoenergiya tushunchasi psixologiya fani uchun nisbatan yangi atama bo`lsada, bu haqidagi bilimlar azal-azaldan ko`pchilikni qiziqtirib kelgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Psixoenergiya, “hayot energiyasi” sifatida qadimgi Hind, Xitoy va qadimgi Ellin falsafasida tarkibida o`rganilib, bir qancha sharqiy usullar mavjud bo`lsada, psixoenergiyaning amaliy tadqiq etilishi keyinroq, XIX asr oxirlariga kelib boshlandi. Dastlab rus psixologlari tomonidan o`rganilgan bo`lsa, yevropada F.Mesmer va K. Reyxenbaxlar inson psixoenergiyasini tadqiq qilib ozining “magnetizm” g`oyasini ilgari surdi. [1]

Bu ilmiy tashkilotlar ishida G.Sedgvik, J.Tompson, U.Kruks, A.Bergson, G.Merfi, D.Merfi, U.Jeyms, S.Rishet va boshqalar kabi o`sha davrning ko`zga ko`ringan olimlari qatnashdilar. “Amerika hamkorligi” a`zolaridan biri V. Jeyms ushbu muammoni ob`ektiv va ilmiy o`rganish tamoyilini ishonchli va izchil himoya qildi. 1892 yilda amerikalik E. Xyuston inson psixoenergiyasiga asoslangan telepatiya hodisasini ilmiy tushuntirdi va qisman tajribada isbotlab berdi. M.V. Pogorelskiy insonning bioenergiyasini tadqiq qilishda eng zamonaviy uskunallar hususan rentgen nurlari orqali inson aurasini kuzatdi va uni psixologik holatdan kelib chiqib o`zgarib turishini isbotlab berdi. 1919 yilda B.B. Kajinskiy bir qator nazariy tadqiqotlarni boshladi va “miya radiosi” gipotezasini eksperimental asoslash borasida bir qancha ishlarni amalga oshirdi. [2-3] 1920-1922 yillardagi bir qator ishlarda akademik P.P. Lazarev inson miyasi elektromagnit to`lqinlarni chiqarishga qodir degan taxminini isbotlab, uzunligi 30 ming km gacha; 10-50 Grs asosiy tebranish chastotasida bo`lishini ma`lum qildi. 1923-1925 yillardagi tajribalarda Italiyalik nevrolog F. Katsamalli muvaffaqiyatga erishdi. U juda qisqa to`lqin uzunligi 0,7 dan 100 m gacha bo`lgan miya radioto`lqinlarini ro`yxatdan o`tkazdi. Bunday to`lqinlarning chastotasi 3000 dan 30000 Grs gacha yoki undan ham yuqori bo`lishini isbotladi. [4]

Taxminan 20-asrning 60-yillaridan boshlab tadqiqotning ilmiy bosqichi, insonning psixoenergetik imkoniyatlarini ochish bo`yicha yangi bosqichga kirdi. 60-yillarning boshlarida P.I.Gulyaev inson aurasining hususiyatlarini to`liq o`rganib uni atroflicha tushuntirib berdi. [5] O`sha yillarda amerikalik tadqiqotchi

K.Bakster masofadan boshqarish imkoniyatini eksperimental tarzda o`rgandi va turli biologik ob`ektlar o`rtasidagi biologik bog`liqlik, shu jumladan odam va o`simliklar orasidagi energetik aloqalar isbotlandi. E.E. Inyushin 60-yillarda yillar davomida “energetik salohiyat”ni oshirish imkoniyatini isbotladi. Inson tanasi ustida lazer nurlari (“yumshoq” lazer) ta`sirida sharqiy ma`lumotlarga ko`ra terining biologik faol nuqtalari, an`anaviy ravishda kirish va chiqish yo`llari ekanligini isbotladi, hamda A.S.Romanian bilan birgalikda, 1969-yil ushbu kanallar orqali tashqi olamga elektromagnit nurlarining chiqish (ARVI) hodisasini kashf etdi. Bu kashfiyotning mohiyati shundan iborat ediki, inson ichki bioenergetik anizatroplari uning atrofidagi biomaydonni yani aurani hosil qiladi. Bu maydon insonning ichki hislari va fikrlari orqali boshqariladigan murakkab tarkibga ega bo`lgan tuzilmadir. [6-7]

Bu boradagi katta tajribalardan biri Shanxay an`anaviy Xitoy tabobati ilmiy-tadqiqot institutida va Xitoy Fanlar Akademiyasining Shanxay yadro fizikasi ilmiy tadqiqot institutida bir qator tajribalar bo`ldi, ushbu tajribalar inson energiyasining dinamikasi, materialistik tabiati va xususiyati, va uni inson ongli ravishda boshqara olilsh qobiliyatini, hamda uni samarali oshirishning yo`llarini ochib berdi. [8]

Eng so`ngi tajribalar bo`lmish insonning bioinformatsion qobiliyatini tadqiq qilish, xususan inson bilan inson, inson bilan tabiat, inson bilan o`simliklar orasidagi bioinformatik aloqlarga oid tajriba natijalar nafaqat ko`plab psixologlarni, balki fiziklar va kimyogarlarni qiziqtirib qo`ydi. K.Bakster tajribalaridan kelib chiqib Sovet ittifoqida V.N.Pushkin, V.M.Fetisova, G.I.Angushevlarning bioinformatik o`zaro ta`sirlarning shart sharoitlarini va xususiyatlarini ochib berdi.[9-10]

Muhokama. Adabiyotlar tahlilidan shunday hulosaga kelsa bo`ladiki, inson psixoenergetikasining falsafiy va nazariy asoslari sharqda paydo bo`lib, uni rivojlantirish bo`yicha bir qancha usullar paydo bo`lgan. Bular meditatsiya, tananing faol nuqtalari bilan (chakralar) ishlash, yoga, qingong kabi qadimiy usullar bo`lib, ulardagi aksar tushunchalar va usullar keyinchalik zamonaviy fan yordamida ilmiy isbotini topdi va to`ldirildi. Sharqiy usullar bo`lmish meditatsiya amaliyoti ham Rus va Yevropaning psixologik va tibbiy bilimlari bilan qorishtirildi va amaliyotda keng qo`llanila boshlandi. Bugungi kunga kelib psixoenergetikani rivojlantirish bo`yicha bir qancha usullar paydo bo`ldi. Ammo shuni ham ta`kidlashimiz kerakki inson psixoenergetikasini diagnostika qiladigan birorta muqobil usul yaratilganicha yo`q. Biz yuqorida sanab o`tgan zamonaviy usullar esa psixoenergetikaning asl ko`rinishini diagnoz qilib berolmaydi. Ushbu tajribalar psixoenergetikaning aslida mavjudligini ilmiy asoslab bergan holda, uning balansini ya`ni asosini va ishlab chiqarilish manbayini o`lchab berolmaydi. U faqat inson tarqatayotgan energiyaning tashqi ko`rinishini bizga ochib beradi. Ya`ni biz balansni diagnoz qilishimiz kerak. Fotoapparatik va aurografik usullar orqali psixoenergetik balansni diagnoz qilish ko`p vaqt va muntazamlilikni talab qiladi. Bu borada yana o`sha psixologiyadagi an`anaviy usul bo`lmish so`rovnomalari usuliga tayansak bo`lar balki. Chunki, inson o`z energiyasini ongli ravishda his-tuyg`ular va fikrlari, odatlari, umuman, psixofiziologik xolati orqali boshqarar ekan, bu holatlar psixoenergetikaning manbayini to`ldiruvchi holatlar va energetik imkoniyatlardan kelib chiqib sodir bo`luvchi belgi bo`lib xizmat qiladi. Bu borada O`rta sharq, xususan musulmon olimlari o`zgacha yondashadilar. Ular inson faolligining va ruhiy tetikligining

asosini insonni tashkil qiladigan uch elementning muvozanatida ko`rishadi. Ya`ni tana, aql va ruh birligi. Bazi manbalarda ruh tushunchasini qalb, bazilarida nafs, bazilarida alohida substansiya sifatida e`tirof etiladi. Bu borasida ihtilof bo`lsada deyarli kibor musulmon ulamolar ruh haqida bir hil fikrda. Ya`ni ruh va nafs qallda tarkib topgan bo`lib, o`zidagi kibr, hasad, havotir, baxillik, haddan oshgan shahvat, yolg`on, g`iybat, riyo, mayishat va nimaiki nafsga kuch beradigan illatlarni rad qilsagina nafsdan uzoqlashib ruhga yaqinlashishini, aksincha bo`lsa, nafs g`olib kelib shaxsda degradatsiya (parchalanish) bo`lishini ta`kidlaydilar. Biz bilamizki, ana shunday ruhiy quvvatga erishgan insonlarda, g`ayrioddiy tetiklik, streslarga chidamlilik va doimiy optimistlik holatini ko`ramiz. Islom va G`arb dunyosiga o`z g`oyalari bilan katta ta`sir ko`rsatgan Abu Homid G`azzoliy “Saodat kimyosi” asarida “Dil (ruh) - bu shaharning podshohi. Aql bu shahar podshohining vaziridir. Bu podshohning mazkur bo`lg`anlarga hojati bordur. Mamlakat ishi bular bilan saranjom bo`lg`ay. Va lekin shahvatkim, (shahvat bu faqat jinsiy istakdan tashqari, yemoq-ichmoq va boshqa jismning hojatlari ham nazarda tutulmoqda) omili xirojdur (ya`ni, soliq yig`adigan mansabdor shaxs), yolg`onchi va badkirdor va haqni botilga alishtirg`uchidir. Va vazir Aql aytur, shahvat aning muxolifatida ish qilmoqni xohish qilur. Va hamisha xohishi uldurki, har mol- boyliklarki, badan mamlakatida bordur, xiroj bahonasi birla nohaq olg`ay. Va g`azabkim, bu shaharning tungi podshohidir, qattig` va tundgo`y va nohaq ishlarg`a dalerdur (ya`ni qo`rqmaydigan). Hamisha o`ldirmoq va sindurmoq va nohaq qon to`kmoqni do`st tutar. Chunonchi, bir shaharning podshohi hamma mashvaratni vaziri birla qilsa, o`g`rilarga jazo bersa, tun podshohini (G`azabni) vazirga (aqlga) bo`ysundirsa, yomonliklarini man qilsa va g`azabni ham aqlni ham itoatda tutsa, toki o`z haddidan tashqari qadam qo`ymasa, har sohada mamlakat ishi nizomida bo`lg`usidur” [11] Ushbu ramziy tarzda aytilgan o`xshatish shaxs psixologiyasini butunicha ochib beradi.

Islomdagi iymon, namoz ibodati va ro`zaning o`zi ham inson qalbini poklash orqali uni ruhiy tetiklashtirish uchun bo`lgan amallardir va birgina taxorat olishning o`zi insonni jisman poklash bilan birga tanadagi salbiy energiyalardan qutulish amaliyotidir. Bu usul qadimiy, sharqiy yoga amaliyotida ham uchraydi. Islom insonning yuqori psixoenergiyasi uchun hatto ovqatlanish va uyqu tartibini ham belgilab beradi. Masalan, psixoenergiyani oshirishning bugungi zamonaviy usullarida mavjud bo`lgan ovqatlanish tartibli, tez-tez va kam-kamdan ovqatlanish, turli xil taomlarni aralashtirmasdan yeyish bo`yicha tavsiyalar, islomda yanayam to`ldirilgan, ya`ni ro`za amaliyoti (ham tanani, ham nafsni och qoldirish) orqali sog`lomlashtirish, uyqu borasidagi bir qancha tavsiyalar, tongi va kun botish oldidan bo`ladigan uyqudan tiyilish, (kun botish oldidan bo`ladigan uyqu insonni parishonxotir, ongning qorong`ulashishi va tanani janjlikka olib keladi), “Qaylula vaqtidagi uyquning samarasi, ya`ni bu payt tushga yaqin payt bo`lib, bu uyquning samarasini zamonaviy tibbiyot ham ta`kidlaydi. Yana, islomda erta yotib erta turish, ko`p ham, kam ham uhlamaslik, ayniqsa kunduzgi ortiqcha uyqudan saqlanish kabi yuqori tetiklikka erishish uchun tavsiyalar berilgan. [12]

Natijalar. Mavjud kamchiliklarga qaramay inson psixoenergetikasi borasidagi to`plangan tajribalardan kelib chiqib insonlardagi bir qancha muammolarni bartaraf etish mumkin. Bilamizki bugungi kunda o`z psixoenergiyasini oshiruvchi insondan tog`u-toshlarga chiqib ketish yoki, oylab

insonlar bilan aloqlarni uzib uzlatga chekinish talab qilinmaydi. Bugungi zamonaviy psixoenergetikada intensiv usullar mavjud bo`lib ular orqali inson doimiy ruhiy quvvatga ega bo`lib yurishi mumkin. Bular, ushbu sohadagi mutahassislar tomonidan yillar davomida qo`llanilib kelinayotgan, qalb kasalliklaridan qutilish, ong ostini bloklardan tozalash, salbiy energiyani bo`shatish kabi amaliyotlar, dinamik mashqlar, sitatik hamda meditatif kabi kompleks mashgulot tizimlari mavjud bo`lib, ular orqali inson yuqori psixoenergetika balansiga ega bo`lishi mumkin. Bugungi o`smirlaridagi ortib borayotgan bir qancha muammolarni, ushbu usullarni maktab amaliyotida qo`llash orqali bartaraf qilish imkoni mavjud bo`ladi. Shu sabab o`z tadqiqot ishimizning maqsadi sifatida o`smirlarda psixoenergiya balansini diagnoz qilish muammosini bartaraf qilish, maktab psixologik amaliyotida yuqoridagi usullar orqali o`smirlarda psixoenergetik qobiliyatlarni rivojlantirish ishini empirik sinovdan o`tkazish va shu asosda yuqori natijalarga erishish vazifasini olganmiz.

Xulosa. Har qaysi fan tarixiga nazar solsak ma`lum bir ilmning faoliyatga keng joriy qilinishi uchun undagi ilmiy-amaliy tajribalar yetarli bo`lishi, uning imkoniyatlari va istiqbollari aniq ochib berilishi kerak. O`ylamanki, inson psixoenergetikasi imkoniyatlarini oshirish bilimlarini amaliyotga joriy qilish uchun yetarlicha tajriba to`play oldi. Faqatgina oldimizda bilimlarni tizimlashtirish, ularni to`ldirish, moslashtirish, hamda amaliyotda qo`llash shart-sharoitlarini tadqiq qilish orqali keng ko`lamli amaliy natijalarga erishish vazifalari ko`ndalang bo`lib turibdi.

Adabiyotlar:

1. Месмер Ф.А. Доклад об открытии животного магнетизма. Карлсруэ, 1781 г. (Перевод А. Люфта.)
2. 75. Кажинский Б.Б. Передача идей. - М.: АССНАТ. - 1923. 76.
3. Кажинский.Б.Б. Биологическая радиосвязь. - К.: Академия наук Украинской ССР, 1962. - 168 с.
4. Лазарев. П.П. Физико-химические основы высшей нервной деятельности. М., 1922 г.
5. Гуляев П.И., Заботин В.И., Шлиппенбах Н.Я., Егоров В.Н., Момонова О.В. Слуховое поле с точки зрения развития представлений А. А. Ухтомского о роли биологических электромагнитных полей // Нервные механизмы. биополе // Всесоюз. День Радио (26), посвященный научной сессии. - Часть 1. - М, 1981. 110 – 111 с.
6. Инюшин В.М. Биоплазма как матрица биополя и новый эксперимент Подход к проблеме психоэнергетики // Психическое самоуправление (выпуск 1). - Алма-Ота, 1973. - С. 356 - 359.
7. Инюшин В.М. Биоплазма и ее излучение // Психическое самоуправление (выпуск 2). - Алма-Ота, 1974. - С. 330 - 336.
8. Жуйтин В. Основы системы Шаолинь цигун // Цигун и спорт. - 1993, № 1. - С. 23 - 27.
9. Акимова Н.А., Ангушев Г.И., Венчунас Л.В. Электрофизиология Озвучивание психологических холатидаги озгаришларга о`симлик реакций // 8 «Операторы холатинского мониторинга килиш» илмий-технических семинаров. - М., 1975. - С. 137-143.

10. Дубров А.П., Пушкин В.Н. Парапсихология и современное естествознание. - М.: СП «Соаминько», 1989. – 280 с.
11. Abu Homid G'azzoliy «Kimyo'i saodat» (Ruh haqiqati) «Adolat» Toshkent 2005. 21-b
12. Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy "Ithou ulumid-din". (Din ilmlarini jonlantirish) Ilm kitobi. Birinchi kitob. Toshkent «Movarounnahr» 40-127 b.

ФЕНОМЕН НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН – РЕШАЮЩИЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ

Тошматова Мадинахон Кодировна¹

¹Студентка Наманганского государственного педагогического института, факультет методики преподавания социальных и гуманитарных наук, направление иностранный язык и литература, английский язык
mtosmatova123@gmail.com

Аннотация: В данной статье анализируется роль молодежи в устойчивом развитии социальной структуры. В ней дается научное определение и обсуждается роль молодежи в развитии общества. Выявлен характер реформ, проводимых в Узбекистане для формирования нового этапа государства "Новый Узбекистан". Также раскрывается реализация инноваций и идей по развитию молодежи в различных сферах, которые помогут молодым людям развиваться и приобрести себя в современных профессиях. Также статья подчеркивает важность участия молодежи в научно-техническом развитии страны и рассматривается развитие участия молодежи в развитии высокотехнологичной и цифровой экономики.

Ключевые слова: Молодежь, новый Узбекистан, инициативы молодежи, цифровая экономика, обучение молодежь современным профессиям, ИТ, трудоустройства молодежи, высококачественные технологии.

Благодаря вниманию и заботе Президента Шавката Мирзиёева сегодняшняя молодежь нашей страны сформировалась как особая мощная сила и одновременно, молодые люди демонстрируют себя как настоящие творцы, источник вдохновения, важные участники и созидатели экономической, социальной, культурной, политической и духовной жизни Узбекистана. В основе внимания, оказываемого молодежи, этой рациональной политики, направленной на претворение в жизни их мечты, чести и достоинства, достойного будущего, обеспечение всех возможностей, созданных для них быть хозяевами нашего будущего, лежит фактор уверенности в молодежи. Мы видим, что лидер страны твердо верит в них.

Кроме того, глава государства отметил, что в настоящее время в стране идет важный процесс пробуждения.

«Поэтому слова «новый Узбекистан» и «третий ренессанс» звучат гармонично и вдохновляют наш народ на достижение великих целей.

Сегодня Узбекистан становится страной демократических преобразований, широких возможностей и практической работы. Именно этот процесс для меня является самым большим результатом наших реформ. Потому что точность цели – важнейший критерий, обеспечивающий эффективность действий.

Если кратко изложить суть принятой пять лет назад стратегии действий, то в этом уникальном документе мы поставили перед собой стратегическую цель – построить новый Узбекистан и заложить фундамент третьего ренессанса.

Следует отметить, что создание нового Узбекистана – это не просто желание, субъективное явление, а объективная необходимость, имеющая фундаментальные исторические основы, обусловленная самой текущей политико-правовой, социально-экономической, духовно-просветительской ситуацией в нашей стране, соответствующая вековым устремлениям нашего народа, полностью отвечающая его национальным интересам.

Новый Узбекистан – это новый этап, которая страна выступила в качестве своего нового самостоятельного развития. С помощью этого обновления государство сможет эффективно сотрудничает со многими странами мира и крупными международными организациями в различных областях. В особенности, достигаются важные результаты в плане развития дружественных и взаимовыгодных отношений с зарубежными странами. В реализации этой стратегии большое внимание уделяется на молодежь государства, так как будущее нашей страны в руках молодого поколения.

Практические итоги и перспективы расширения участия молодежи в процессе диверсификации национальной экономики Нового Узбекистана.

Население Узбекистана сегодня превышает 28 миллионов человек, более двух третей, из которых моложе 30 лет. Около двух третей населения проживает в сельской местности, из них более 9 миллионов-рабочие. Учитывая сложный демографический и социальный состав, государство приняло ряд мер по решению социальных и экономических проблем молодежи. Принят Закон "О государственной молодежной политике", около половины государственного бюджета направляется на социальную защиту молодежи, ее образование и развитие, создание условий для здорового образа жизни. В Узбекистане особое внимание уделяется развитию спорта, культуры, искусства и других сфер духовной жизни с целью формирования физически крепкой и нравственно богатой молодежи. Система непрерывного образования

всей молодежи способствует воспитанию патриотизма, укреплению нравственных устоев общества и профилактике преступности.

В целях преодоления трудностей на рынке труда в нашей стране широко пропагандируется Национальная программа по подготовке кадров, которая призвана развивать инициативу молодёжи, творческое мышление, способствовать принятию самостоятельных решений, потому как успешный старт на рынке труда способен заложить прочный фундамент для взрослой жизни. Сегодня в республике органами по трудоустройству представляется большой спектр оказания услуг молодёжи в сфере подготовки их к трудовой деятельности. Службы занятости предоставляют молодым людям возможность профессиональной подготовки, оказывая им помощь по обучению и переобучению. Именно понимание того, как молодые люди ведут поиск работы, где они работают и в каких условиях, способствует разработке еще более эффективной политики в области людских ресурсов, реформирования рыночных отношений для вхождения в мировое сообщество государства с налаженной экономической и политической инфраструктурой. Таким образом, молодёжь Узбекистана играет важную роль в становлении демократических процессов, в углублении демократических преобразований и формирования основ гражданского общества, обеспечивая продвижение к рыночной экономике. Молодёжь имеет своё достойное место в жизни нашей страны. Сегодня трудно представить претворение в жизнь планов по построению правового демократического государства и справедливого гражданского общества без участия молодёжи. Поэтому нужно воспитывать у молодежи новое, демократическое мировоззрение, веру в будущее и социально-политическую активность. [1]

Кроме того, для поддержки и развития молодого поколения в Республике Узбекистан разработано довольно много новых инноваций, все они реализованы благодаря содействия главы государства. В частности, под председательством Президента Шавката Мирзиёева 11 апреля состоялось видео селекторное совещание по мерам повышения результативности работы, проводимой в области молодежной политики.

“В нашей стране более 19 миллионов молодых людей в возрасте до 30 лет, они составляют 55 процентов населения. Сейчас ежегодно на рынок труда выходят 600 тысяч молодых людей, а в ближайшие 10 лет это число достигнет 1 миллиона.

Значительная работа ведется и в сфере социальной поддержки. В частности, в прошлом году 130 тысячам студентов было выдано 1,7 триллиона сумов образовательных кредитов, обучение женщин в магистратуре стало бесплатным. 53 тысячам малообеспеченных студентов оказана финансовая помощь в оплате контракта на обучение, 15 тысячам молодых людей - для покрытия расходов, связанных с военной службой, 13 тысячам - на изучение иностранного языка. Предоставлена компенсация на оплату аренды жилья 81

тысяче студентов. Через «Молодежную тетрадь» 300 тысячам молодежи оказана помощь на сумму около 600 миллиардов сумов.

На совещании первоочередное внимание уделено проблемам безработной молодежи, а также молодых людей, занятых в неформальном секторе или уехавших на заработки за рубеж. Глава нашего государства выдвинул целый ряд новых инициатив в этом направлении.

Как известно, в 2021 году была введена практика возврата социального налога предприятиям, нанявшим молодежь в возрасте до 25 лет. За истекший период этой возможностью воспользовались более 9 тысяч предприятий и трудоустроено 100 тысяч молодых людей. Глава нашего государства дал поручение продлить действие преференции еще на два года.

Принято решение о создании фонда и электронной платформы «Инициативы молодежи Нового Узбекистана». Фонду будет выделено 100 миллионов долларов, который пойдут на лучшие идеи, стартапы и проекты талантливой молодежи на удобных и льготных условиях, при необходимости, без начисления процентов.

На основе опыта IT-парков в регионах также будут созданы Креативные парки. На них распространят льготы и преференции, предоставляемые резидентам IT-парков.

В целом для эффективной организации государственной политики в данной сфере будут разработаны программа «Молодежь Нового Узбекистана» и поправки в законодательство.

Президент подчеркнул, что работа с молодежью – это важнейшая задача всех руководителей, широкой общественности, всего нашего общества.” [2]

“Для решения проблемы трудоустройства молодежи Правительство Узбекистана выделило более 300 миллиардов сум на поддержку молодежного предпринимательства и занятости в 2021 году. В своем выступлении в конце 2020 года Президент Мирзиёев объявил 2021 год Годом поддержки молодежи и укрепления здоровья населения. В этой связи предпринимаются усилия по реформированию системы профессионального образования, чтобы наилучшим образом удовлетворять потребности рынка труда в соответствии с международными стандартами, внедрить систему оценки профессиональной квалификации, обеспечить дополнительные возможности профессиональной подготовки путем открытия новых учебных центров по всей стране, увеличить объем инвестиций в повышение заинтересованности молодежи в работе в сельскохозяйственной отрасли путем предоставления молодежи бесплатной земли, а также посредством культивирования молодежного предпринимательства посредством льготных кредитов. Приняты постановления Президента о создании в 2021 году молодежных промышленно-предпринимательских зон (технопарков) во всех регионах и стимулировании предпринимателей к найму молодых специалистов. Создано новое государственное учреждение – Агентство по делам молодежи. Союз молодежи насчитывает более 30 неправительственных организаций.” [3]

Одна из самых эффективных систем государства для формирования обучения молодежи современным профессиям это “Современная система профориентации”. С помощью этой системы был введен новый порядок государственной поддержки обучения молодежи современным профессиям, информационным технологиям и иностранным языкам. Проект, известный как "Профессия будущего", который не только принес достаточно пользы молодежи государства, но и помог приобрести хорошие результаты в сокращении чисел безработицы в государстве, повысить уровень жизни за счет создания новых рабочих мест и улучшить экономическую и деловую среду страны. В рамках этого проекта в течение 2023 года было покрыто 8,7 млрд расходов на образование 3 тысяч 251 молодого человека, денежные средства были возмещены в размере сумов.

Через моноцентры, учебные центры и учреждения профессионального обучения «Ишга Мархамат» прошли обучение по различным специальностям 43 тысячи 554 молодых человека.

В целях обеспечения занятости молодежи был реализован проект «Skill Camp», направленный на профориентацию учащихся образовательных учреждений к профессиям и обучение их навыкам, которые в будущем будут востребованы на рынке труда, в рамках данного проекта зарегистрировано 1000 участников. Они были затронуты в области информационных технологий, кибербезопасности, искусственного интеллекта, СМИ, туризма, иностранных языков, бизнеса, стартапов, образования, педагогики, международного права и отношений, финансов, экономики, архитектуры и ландшафта.

Все вышеперечисленные инновации и реализации были сделаны для улучшения состояния подрастающего поколения, подготовки молодых людей к современным профессиям и развития предпринимательства. Наряду с научной деятельностью, помощь молодым людям в поиске собственного пути в жизни и профессии является одной из лучших инноваций для их развития, как в приведенных выше примерах. Поскольку интересы у всех разные, одни молодые люди проявляют большой интерес к науке и спорту, а другие могут развиваться, осваивая труд в других сферах деятельности и находя профессию по своему вкусу. Можно назвать несколько преимуществ обучения молодого поколения современным профессиям и предпринимательству, например, молодые люди, открывающие свой собственный бизнес, создают возможности для трудоустройства, приобретают рабочие места, зарабатывают больше денег, которые циркулируют в местной экономике, внедряют инновации и диверсифицируют местный рынок и другие. В целом, эта цель позволяет молодым людям развивать чувство целенаправленного обучения, связи, социальные и коммуникативные навыки ценным образом, командную работу и сотрудничество в целях развития, приверженность и последовательность, убеждение и достижение, стойкость, ответственность, самодисциплину,

критическое и творческое мышление, ловкость, эмпатию и умение ориентироваться в мире.

Участие молодежи в развитии высокотехнологичной, инновационной и цифровой экономики

Цифровая экономика трактуется как результат трансформационных эффектов новых технологий общего назначения в сфере коммуникации и информации, которые сказываются на всех секторах экономики и социальной деятельности. Внимание к цифровой экономике обусловлено тем, что информационные технологии приобретают все большую важность в экономическом развитии всех стран мира.

В конце 20 века мир вступил в новую информационную эпоху, основанную на генерировании знаний, внедрении информационных и коммуникационных технологий, построении информационных сетей через Интернет и организации качественно новой системы электронной коммуникации. Многие исследователи отмечали, что хотя эти преобразования затронули только основные функции и процессы, связанные с созданием материальных благ и глобальной сети обработки информации (символов), все страны развиваются в направлении информационного общества и формируют свои собственные социально-экономические и культурные модели. Скорость, темпы и начальный уровень изменений, исторические и культурные условия, а также инструменты и методы достижения этих целей варьируются от страны к стране.

Научно-технический прогресс позволил современным обществам приобрести беспрецедентный технологический потенциал, огромные объемы информации, знаний, управленческого мастерства и финансовых средств. Структура производств и занятости общества радикально изменилась, появилась возможность полного удовлетворения материальных потребностей населения, в то же время их мотивация и ценности в корне изменились. [4]

Следует отметить, что разработка национальной стратегии занятости молодежи включает в себя меры, направленные на создание возможностей для использования молодыми людьми потенциала и качественных навыков цифровой эпохи в области новых технологий, таких как разработка ИТ. К примеру, президент Узбекистана Шахкат Мирзиёев посетил Академию информационных технологий “Astrum” и встретился с представителями технического сектора.

“Президент перечислил основные достижения Узбекистана в развитии сферы ИТ. Так, за 5 лет в неё удалось привлечь \$700 млн прямых инвестиций, а общая сумма вложений составила \$2 млрд.

Объём оказанных цифровых услуг и их экспорт вырос в разы — только с начала года число экспортёров среди IT-компаний удвоилось. В IT-технопарках по стране работает 14 тысяч молодых людей, а ещё 43 тысячи числятся самозанятыми.



«Самое главное — освоение IT-профессий среди молодёжи стало трендом», — отметил Шавкат Мирзиёев.

Создание условий для молодёжи позволит вывести IT-сферу на новые высоты, отметил глава государства. Здесь важную роль играют учебные заведения, в которых учащиеся смогут осваивать современные навыки и зарабатывать уже в процессе учёбы. [5]

Развитие цифровых технологий и развитие цифровой экономики - одна из главных задач Узбекистана. Данное направление имеет приоритетное значение. Оно способствует совершенствованию сферы, которая занимается производством высокотехнологичных товаров и услуг. В то же время, в условиях глобальной конкуренции на рынках информационных технологий, молодёжь могут стать мощным инструментом для дальнейшего развития экономики, повышения ее конкурентоспособности и устойчивости.

Наша страна стремительно развивается, и новый этап развития предоставит широкие возможности для развития страны. Знающая и мотивированная молодёжь играет важную роль в развитии страны. С помощью главы государства молодые люди могут достойно учиться и развиваться, получая знания, необходимые для выхода на международный уровень. Развитие качественных технологий и обучение молодых людей цифровой экономике — это залог того, что они обретут превосходное будущее. Поэтому мы должны гордиться тем, что глава государства заложил фундамент нового

Узбекистана. Необходимо и целесообразно, чтобы молодежь выполняла свою ответственную задачу по строительству великого будущего нового Узбекистана. Мы верим, что в будущем наша забота о сегодняшней молодежи принесет эффективные результаты.

Список источников:

1. Зарипов, Ш. А. Место молодёжи Узбекистана в социально-экономическом развитии страны// Молодой ученый. — 2013. — № 7 (54). — С. 360-361. — URL: <https://moluch.ru/archive/54/7450/>
2. Для молодежи будут созданы новые возможности\©2023 Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан\<https://president.uz/ru/lists/view/6145> \ www.president.uz
3. Трудоустройство молодежи в Узбекистане\ Маддалена Онорати и Алисия Маргери\ сентябрь 2021 год
4. Роль молодежи в формировании информационного общества в Узбекистане\ Р.А. Ахмедова\ DOI: <https://doi.org/10.32523/2616-6887/2023-143-2-151-158>
5. «Освоение IT стало трендом»: президент встретился с представителями IT-сферы\<https://www.spot.uz/ru/2022/07/29/it-academies/>



nordicuniversity.org



+998 95 505 33 00